

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

JUMANIYOZOV X.S.

GEOSIYOSAT ASOSLARI

Toshkent- 2019

“Geosiyosat asoslari” fanidan tayyorlangan ushbu o‘quv qo‘llanmada geosiyosatning mohiyati, jamiyat hayotidagi o‘rni, vazifalari, ilmiy-nazariy asoslari, geosiyosiy jarayonlar, ularning rivojlanish xususiyatlari, geosiyosiy bilimlar va harakatlarning vujudga kelishi, rivojlanishi, klassik geosiyosatning asosiy g‘oyalari, hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi, xalqaro maydondagi geosiyosiy jarayonlar, shuningdek, Markaziy Osiyoning geostrategik holati va ahamiyati, mintaqaning siyosiy, demografik va iqtisodiy salohiyati hamda Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta’minlash masalalari ifodasini topgan.

O‘quv qo‘llanmadan “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi talabalari, shuningdek, ushbu soha bilan qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

B.Isroilov. TTESI “Ijtimoiy fanlar”
kafedrasi mudiri, dotsent

I.Xoliqov. TDPU “Milliy g‘oya va ma’naviyat
asoslari” kafedrasi professori, t.f.d

Ushbu o‘quv qo‘llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashining 2019-yil “___” _____ - sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etildi.

KIRISH

Yangi ming yillikka kelib halqaro maydonda davlatlarning geografik joylashuvi, u bog‘liq geosiyosiy jihatlarni muhokama qilish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoldi. Halqaro munosabatlar maydonida yuz bergan o‘zgarishlarning geosiyosiy jihatlarni bilish murakkab vazifa bo‘lib muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki yangi ming yillik arafasida sodir etilgan siyosiy o‘zgarishlar shubhasiz, dunyoning geografik-siyosiy tuzilishini va xaritasini tubdan yangilanishiga olib keldi. Boshqa mintaqalardagidek Markaziy Osiyoda ham bir qator yangi mustaqil davlatlar paydo bo‘ldi. Ular hozirgi til bilan aytganda, sotsialistik o‘tmishga ega bo‘lgan, o‘z siyosiy mustaqilligini tinch yo‘l bilan qo‘lga kiritgan davlatlardir. Bu davlatlar mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni tubdan yangilash yo‘liga qadam qo‘ydi. Ular dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o‘z mavqeni mustahkamlashga intilmoqda. Mamlakatimizdagi, yaqin atrofdagi barqarorlikka, havfsizlikka tahdid bo‘lib turgan muammolarga qarshi qanday kurashmoq kerak? Jamiyatimiz to‘xtovsiz va barqaror rivojlanishiga, biz istiqomat qilayotgan mintaqada geosiyosiy muvozanat saqlanishiga nimalar kafolat bo‘la oladi?.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonida ko‘rsatib o‘tilganidek “xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo‘naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash” eng asosiy ustuvor vazifa sifatida belgilangan¹. Ushbu savollarga javob izlash kunning muhim vazifasi hisoblanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ro‘y bergan o‘zgarishlar uzoq yillar mobaynida hukm surib kelgan «kuchlar muvozanati» siyosati asosida qurilgan xalqaro munosabatlar tizimini qayta ko‘rib chiqish va ularni yangicha yondashuv asosida shakllantirish zaruratini taqozo etmoqda. Jadal rivojlanayotgan va o‘zgarayotgan dunyoda bir tomondan xalqaro barqarorlikka qarshi yangi tahdidlar maydonga chiqmoqda, ikkinchi tomondan esa ba‘zi xalqaro mintaqaviy nizolar va xavflarning xususiyatlari tubdan o‘zgarmoqda. Binobarin, ayni shunday bir sharoitda

¹ “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. XXI asr. 2017- yil 9-fevral, 6 (692)-son.

sayyoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar qaysi yo‘ldan borishlariga bog‘liq. Hozirgi kunda xalqaro munosabatlarning sifat jihatidan yangicha tarkibini shakllantirish jarayonida vujudga kelayotgan geosiyosiy muammolarning ko‘pchiligi aynan O‘zbekistonning Yevroosiyoda va umuman butun dunyoda olib borayotgan tashqi va ichki siyosatiga ko‘p narsalar bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Shuni nazarda tutadigan bo‘lsak, bugun ya’ni mustaqillik sharoitida O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari geosiyosatidagi o‘ziga xos o‘rnini tahlil etish eng dolzarb vazifalardan biridir. Shu sababli O‘zbekistonning barqaror rivojiga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tahdidlar, o‘z yechimini kutayotgan eng muhim muammoli masalalarga to‘xtalar ekan Sh.M.Mirziyoyev quyidagi muammolarga keng jamoatchilik e’tiborini qaratadi:

Birinchidan, geosiyosiy manfaatlar to‘qnashuvi xalqaro aloqalarda o‘zaro ishonch va hamkorlik munosabatlariga putur yetishiga, qarama-qarshilik va nosog‘lom raqobat kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Bunga yaqin va uzoq olis mamlakatlardan istancha misol keltirish mumkin. Bunga hammamiz guvoh bo‘lib turibmiz.

Ikkinchidan, jahon iqtisodiy inqirozi, dunyo bozorlaridagi beqarorlik, energiya resurslari narxlarining pasayishi deyarli barcha davlatlarning iqtisodiy rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Tabiiy resurslar uchun kurash qator davlatlarda harbiy-siyosiy ahvolning keskinlashuviga olib kelmoqda. Ayrim mamlakatlarni xomashyo bazasi va sifatsiz mahsulotlar bozoriga aylantirishga intilayotgan kuchlar ham yo‘q emas.

Uchinchidan, O‘zbekistonning geografik jihatdan muhim transport-kommunikatsiyasi tizimidagi o‘rni bilan bog‘liq. To‘g‘ri mamlakatimiz buyuk ipak yo‘lining muhim chorrahalarida joylashgan. Bugungi kunda uning mavqeini tiklash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bizning hududimiz Xitoyni Eron, Old Osiyo, Kichik Osiyo va Shimoliy Afrika bilan, Hindistonni Rossiya va Sharqiy Yevropa bilan bog‘lanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hududlarga e’tibor beradigan bo‘lsak ushbu mintaqalar misolida jahonning eng yirik moliya markazlari, eng yirik xomashyo bazalari, eng yirik ishlab chiqaruvchilar, eng yirik savdo markazlarini ko‘rish mumkin.

To‘rinchidan, jahon iqtisodiyotining globallashuvi, iqtisodiy rivojlanishning nomutanosibligi, ba’zi mintaqalarda yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa jinoyatchilik, odam savdosi, terrorchilik, ekstremizm, narkotik kabi illatlarning paydo bo‘lishiga, mintaqalar, xalqlar o‘rtasida norozilik, ishonchsizlikning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Beshinchidan, axborot-kommunikatsiya tizimlarining keng qo‘llanilishi, davlat boshqaruvining elektron shaklda tashkil etilayotgani, bu yaxshi albatta, o‘z navbatida, axborot xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rishni

hayotning o'zi taqozo etmoqda. Ayniqsa yoshlarda mafkuraviy immunitet, g'oyaviy salohiyatni yuksaltirish, ularda ozod shaxs, erkin fuqaro ko'nikmalarini tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim¹.

Ushbu o'quv qo'llanmani yozishdan maqsad sifatida quyilagi fikrni aytish mumkin. Halqaro siyosiy munosabatlardagi o'zgarishlar va mavjud ziddiyatlar hamda ularni bartaraf etishda Yevroosiyo mamlakatlari geosiyosatidagi umumiylik, alohidalik kategoriyalardan kelib chiqqan holda o'ziga xos yondashuvning asosiy tamoyillari, mazmun, mohiyati, davlatlar o'rtasidagi aloqalarga doimiy tarzda o'tkazib kelayotgan sezilarli geopolitik ta'sirini tahlil qilishdan iborat.

Bu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- "Geosiyosat" kategoriyasining nazariy jihatlarini siyosatshunoslik nuqtai nazaridan atroflicha o'rganish va bu borada mavjud ilmiy paradigmalarni qiyosiy tahlil etish;

- geosiyosiy jarayonlarning mohiyati, tarkibi, umumiy qonuniyatlarini ochib berish;

- geografik makon ustidan nazorat o'rnatishning asosiy tiplarini, uni amalga oshirish resurslarini belgilab olish;

- geosiyosiy jarayonlar va geosiyosiy bilimlarning rivojlanib borish davrlarini taxlil etish;

- jahonning bugungi geosiyosiy manzarasini qarab chiqishda turli mintaqa mamlakatlarining geosiyosiy xususiyatlarini taxlil qilish;

- mafkuraviy jarayonlarni globallashuvi jarayonida O'zbekistonning geosiyosiy manfaatlarini belgilab olish.

- dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasini, unda kechayotgan g'oyaviy kurashlardan ko'zlangan tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berish.

- O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosatida tutgan o'ziga xos o'rnini o'rganish va uni geosiyosiy subyekt sifatidagi rolini yoritish;

- Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy integratsiya yo'nalishlarini tahlil qilish hamda ushbu jarayondagi O'zbekistonning strategik rolini aniqlash;

- Markaziy Osiyoda doimiy ravishda jahondagi yirik davlatlarning geostrategik manfaatlarining mavjudligi ba'zi hollarda esa ular bir-birlari bilan kelishmasligining tub sabablarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish;

- Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 45-46 б.

qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo‘nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta‘sirini o‘rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur qo‘llanma 5111600 – Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib dastlabki adabiyotlar sirasiga kiradi. Shunday ekan qo‘llanma o‘ziga xos kamchiliklardan xoli emas. Muallif sizlardan o‘z taklif-xulosalaringizni kutadi. Siz tomondan berilgan bu tavsiyalar qo‘llanmaning keyingi nashrlarini yanada samaralik bo‘lishini ta‘min etishga xizmat qiladi: *xushnud1967@mail.ru*

I-BOB. “GEOSIYOSAT ASOSLARI” FANINING NAZARIY ASOSLARI
1-Mavzu: «GEOSIYOSAT» TUSHUNCHASI, PREDMETI, OBYEKTI VA
MANBALARI.

Reja:

1. “Geosiyosat asoslari” fan va siyosiy amaliyot sifatida.
2. “Geosiyosat” tushunchasi va uning asosiy aspektlari.
3. “Geosiyosat asoslari” fanining predmeti va tadqiqot doirasi
4. Geosiyosiy jarayonlarning asosiy aktarlari.

1. “Geosiyosat asoslari” fan va siyosiy amaliyot sifatida. “Geosiyosat asoslari” alohida fan sifatida XIX asr oxirlari -XX asr boshlarida vujudga keldi. Uning vujudga kelishi yirik mutamlakachi davlatlarning vujudga kelishi, dunyoni bo‘lib olishga intilishning ro‘y berishi, jahon savdosining yuksalishi, sanoat inqilobining tugallanishi, sanoat va moliya kapitalining rivojlanishi, jahon bozori uchun kurashning avjiga chiqishi, yangi bozorlarga, mustamlakalarga ega bo‘lishga intilish va uning ustiga qurilgan siyosatning hosilasi sifatida kechdi. Uning obyekti, predmeti, tadqiqot doirasi, hal etishi lozim bo‘lgan muammolar ko‘lami bilan uzoq yillar davomida izlanishlar olib borilgan bo‘lsada bugungacha uning shaklu-shamoyiliga, tadqiqot doirasiga, obyektiga aniq bir ta’rif berilmadi. Bu bir tomondan yangidan shakllangan har bir fan uchun o‘ziga xos xususiyat bo‘lsa, ikkinchi tomondan geosiyosiy jarayonlarning naqadar murakkabligi va dinamik xarakterda ekani bilan izohlanadi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda, ayniqsa sovuq urush tugashi arafasida “Geosiyosat” atamasi ommabop atamaga aylandi. Fransuz olimi Iv Lakostning e’tirof etishicha “geosiyosat” atamasi 1980-yillardan boshlab, ayniqsa «sovuq urush» davri tugaganidan keyin nixoyatda keng qo‘llanila boshlandi. Bugungi kunda bu atama barcha davlatlarning OAV larida jurnalistlar tomonidan nafaqat Yevropa davlatlari o‘rtasidagi hududiy raqobatchilikni, ayni damda unga qarshi jamoatchilik fikridagi e’tirozlarni ham ko‘tarib chiqishmoqda. Ba’zan esa bu atama turli hodisalarga, jumladan geosiyosiy jarayonlarga hech qanday aloqasi yo‘q hodisalarga nisbatan ham ishlatilmoqda. “The Economist” jurnalida e’tirof etilishicha geosiyosat atamasi fundamental hodisa hisoblansada, uni shunday bir yorliqqa qiyoslash mumkinki, bu yorliqni istalgan hodisaga ilib quyish mumkin¹.

1945-yilda jahon urushi yakuniga yetgach u keltirgan barcha yo‘qotishlarga bir tomondan geosiyosat fani ham aybdordek hisoblandi. II--jahon urushi va uning asoratlarini tugatish davrida geosiyosat doirasidagi izlanishlar bir oz susaysada butunlay to‘xtab

¹ Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория. М.: 2009. с 3

qolmadi va mumkin ham emas edi. Negaki davlatlar bor ekan, ular o'rtasida munosabatlar bor ekan, ularning manfaatlari mavjud ekan geosiyosat ham mavjud bo'ladi. Mustamlakachilik tizimi, jahon urushlari va undan keyingi "sovuq urush" davri salbiy jihatlariga ba'zan geosiyosiy jarayonlar sabab qilib ko'rsatildi. XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib geosiyosat o'tib ketgan "patologiya" dan xalos bo'ldi. O'z navbatida tabiiy savol tug'iladi: siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlar, tarix, iqtisodiyot, dinshunoslik va geografiya singari fanlar o'rtasida siqilib qolgan geosiyosat yashash huquqiga ega bo'ladimi?

O'zida siyosiy, tarixiy, iqtisodiy, huquqiy va geografik jarayonlarni umumlashtirgan geosiyosat harbiy yoki diplomatik tarixga shunchaki qo'shilgan oddiy hodisa emas. Geosiyosat ularni o'zlashtirgan xolda, milliy manfaatlarni amalga oshirishda ularni uyg'unlashtirishda namoyon bo'ladi.

Alohida tadqiqot, mashg'ulot sohasi sifatida, dunyoga nazar tashlash uslubi sifatida geosiyosatning prespektivlari quyidagi holatlar bilan o'z dolzarbligini namoyon qiladi:

Birinchidan, jamiyatning demokratik siyosiy madaniyatini shakllantirishda, aholii tafakkurini imperiyaga xos tafakkur tarzidan xalos bo'lishlarida, radikal geosiyosiy hatti-harakatlar mohiyatini anglab yetishda geosiyosiy jarayonlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi;

Ikkinchidan, geosiyosiy paradigmalar, alohida faoliyat turi sifatidagi yangicha geosiyosiy jarayonlar shakllanayotgan ko'p qutbli dunyoda, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashida muhim ahamiyat kasb etadi;

Uchinchidan, endigina shakllanayotgan geosiyosat asoslari fani oldida G'arb geosiyosati erishgan yutuqlarni o'zlashtirish, uning asosiy tendensiyalarini aniqlash, hozirgi zamon geosiyosiy jarayonlarining rivojlanish xususiyatlarini o'rganish kabi masalalar turibdiki ularning yechimi O'zbekistonning Markaziy Osiyoda, jahon hamjamiyatida tutgan maqomini belgilab olishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

"Geosiyosat" alohida fan sifatida XIX asr oxiri - XX asr boshlariga kelib paydo bo'ldi. Uning shakllanish jarayoni jahondagi xalqaro iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning keskin rivojlanishi davriga to'g'ri keldi. Nafaqat ilmiy doirada, balki siyosatshunoslar o'rtasida ham «geosiyosat» tushunchasiga nisbatan yagona bir ta'rif yo'q. Mavjud ta'riflar u yoki bu darajada bir-birini to'ldirsada, ma'lum jihatdan bir-biriga qarama-qarshi hamdir. O'z navbatida geosiyosatning obyekti va subyekti haqida ham turlicha qarashlar bor. Albatta, bildirilgan fikrlarga salbiy munosabat bildirish kerak emas, chunki bunday rang-barang yondashuv negizida geosiyosat obyektiining murakkabligi, manfaatlarning turlicha ekani yotadi. Umuman olganda geosiyosat ta'sir usullari, hukmronlik vositalari va u bilan bog'liq bilimlar mohiyati to'g'risidagi fan sohasi sifatida izohlanadi. Fransuz geosiyosatchisi Mishel Fushe bu masalaga to'xtalar ekan ingliz va nemis geosiyosati jahonda iqtisodiy va siyosiy hukmronlikni qo'lga kiritish ustida kurash natijasidagi ehtiyoj natijasida yuzaga kelganligini ta'kidlaydi. Uning fikricha geosiyosat faqatgina uslub

hisoblanmasdan, ayni damda tasavvur va amaliyot ham hisoblanadi. Geosiyosat fan sifatida yangi davrda paydo bo'lgan bo'lsada, geosiyosiy manfaatlar, geosiyosiy harakatlar uzoq tarixga borib taqaladi. Negaki dastlabki geosiyosatchilar sifatida turli davrlarda turli hukmdorlar maydonga chiqishgan. Geosiyosatni tasavvur sifatida shu ma'noda e'tirof etiladiki qator geosiyosiy maktablar ilgari surgan nazariy muhokamalar dunyo haqidagi tasavvurlarni in'kos ettirgan, u yoki bu davlatning olib borayotgan siyosatini belgilab bergan. Geosiyosat metod sifatida ilmiy, pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar mohiyatini ifoda etgan.

To'g'ri, XX asrning 90-yillarigacha kommunistik mafkura geosiyosatni imperialistik ekspansiyani asoslash uchun geografik dalil va omillardan (mamlakatning hududi, joylashuvi va b.) foydalanuvchi siyosiy konsepsiya deb, uning asosini irqchilik, maltuschilik, sotsial-darvinizm bilan bog'lab ta'riflash orqali salbiy baholab kelgan. Biroq, keyingi o'n yil ichidagi o'zgarishlar geosiyosatga nisbatan yangicha yondashuvlarni yuzaga chiqardi va geosiyosat sobiq sovet fani uqtirib kelgan g'oyalarning batamom aksi ekanligini ko'rsatdi.

2. Geosiyosat tushunchasi va uning asosiy aspektlari. "Geosiyosat" ("Geopolitika") so'zi garchi yunon tilidagi "geo" (yer) va "politicos" (davlatni boshqarish san'ati) jumllaridan olingan bo'lsada, o'zbek siyosiy lug'atiga nemis tilidagi "geopolitik" so'zidan kirib kelgan desak to'g'ri bo'lar. Qolaversa, bahs etayotganimiz geosiyosat nazariyasi ham avvalo nemis geosiyosiy maktabida tugal shakllanganligi barchaga ma'lum.

Geosiyosat davlatga turg'un, statik xoldagi hodisa sifatida emas, balki dinamik – o'zgaruvchan ijtimoiy hodisa sifatida qaraydi. «Geosiyosat» so'zini o'z asarlarida ishlatmasada, geosiyosat fanining «otasi» deb nemis olimi Fridrix Ratselni (1844-1940) aytish mumkin. Ratsel o'z davrida sotsiologiya, geografiya fanlari bilan keng shug'ullanadi. 1897 yilda chop etilgan asosiy ishini ham "Siyosiy geografiya" ("Politische Geographie") deb nomlagan. Garchi F.Ratsel siyosiy geografiya haqida subyektiv fikrlarini o'rta tashlasada, uning mulohazalari bevosita geosiyosiy ahamiyatga molik edi. Jumladan, olim davlat faoliyatida geografik omillarning ustuvorligini va ularning o'zgarmasligi borasidagi fikrlarni yoqlamaydi. Uningcha, davlat doimo jo'shqinlikda hayot kechiruvchi "tirik organizmdir". F.Ratsel fikricha, geosiyosat siyosiy geografiyadan farqli tarzda, davlatning joylashishi, uning iqlimi va shakllari bilan birlamchi darajada qiziqmaydi.

Ilmiy doirada birinchi bo'lib "geosiyosat" atamasini shved olimi Rudolf Chellen (1864-1922) o'zining "Davlat hayotning bir shakli sifatida" ("Der Staat als Lebensform", 1916 yil) nomli asarida qo'llagan. Olim geosiyosatga quyidagicha ta'rif beradi, ya'ni "geosiyosat – bu borliqdagi davlatlarni geografik organizm, yoki makondagi fenomen sifatida o'rganuvchi fandir". Shuningdek, geosiyosat "...

makonni fundamental asosda tadqiq qilish bo'lib, tadqiqot Yer va undagi foydali qazilmalar bilan bog'liq. Bu esa o'z navbatida imperiyalarning tashkil topishini, mamlakatlarning yuzaga kelishini va davlatlar hududlarini o'rganish demakdir"¹.

Geosiyosatga o'ziga xos ta'rif o'z vaqtida "Zeitschrift fuer Geopolitik" nomli nemischa jurnalda berilgan: geosiyosat yer va siyosiy jarayonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi fandır. Bu joyda qayd etish lozim bo'lardi, siyosiy jarayonning subyektlari noma'lum. Geosiyosat geografik fundamentga ega. Shuningdek, geosiyosat borliqdagi siyosiy organizmlar va ularning tuzilishini o'rganuvchi fan – siyosiy geografiyaga asoslanadi. Geosiyosatning maqsadi siyosiy harakatlarni kerakli vositalar bilan ta'minlash va umuman siyosiy hayotga yo'naltirishni ko'rsatadi. Bu jihatdan geosiyosatni amaliy siyosatni boshqarish haqidagi fan deyish mumkin. Geosiyosat–davlatning geografik aqlidir.² Rus geosiyosatchisi N.Nartov fikricha geosiyosat oraliq fan bo'lib maxsus o'ziga xos tadqiqot maydoniga ega emas. Siyosatga, siyosiy hodisalarga ko'proq o'z e'tiborini qaratsada, ularni geografik omillar, aspektlar asosida umumlashtiradi. O'z navbatida geosiyosat davlatning ichki, tashqi siyosatini tushuntirishda, asoslab berishda bir qator geografik omillardan keng foydalanadi: chegara tafsifi, tabiiy qazilmalar va resurslarga boyligi, u joylashgan orol yoki quruqlikning qulayligi, iqlimi, reliefi va boshqalar. Uzoq yillar davomida geosiyosatga hal etuvchi omil sifatida metropoliyaning geografik makonda kengayib borishi asosiy ahamiyat kasb etib kelgan edi. Vaqt o'tishi bilan bu omil o'z ahamiyatini davlatlar o'rtasidagi tinchlikka, tenglikka asoslangan o'zaro hamkorlik munosabatlariga bo'shatib bera boshladi.

Ko'plab tadqiqotchilar geosiyosatga davlatning geostrategik qudratiga ta'sir o'tkazuvchi geografik, tarixiy, siyosiy, madaniy va boshqa omillarni o'rganuvchi fan sifatida qarashadi. Rus geosiyosatchisi V.Dergachev geosiyosat va siyosiy geografiyani o'zaro taqqoslar ekan siyosiy geografiya atrof-muhit, makondagi imkoniyatlar, xususiyatlarni siyosiy jarayonlar rivojiga ta'sirini o'rganuvchi fan sifatida olib qaraydi. K.Gadjiyev fikricha geosiyosat jahon hamjamiyatining hozirgi holati, evolyusiyasi, faoliyati, kundalki turmush tarzi tamoyillari va qonuniyatlari, global va strategik yo'nalishlari, obyekti va tarkibini o'rganuvchi fan hisoblanadi. E.Pozdnyakov fikricha geosiyosatning asosiy e'tiborini davlat o'zining siyosiy, harbiy, iqtisodiy manfaatlarini hal etishda, shunga qaratilgan siyosatida geografik omillarga tayanib ish yuritishiga qaratishi lozim. Y.Tixonravov fikricha geosiyosatni geografik muhit tomonidan yaratilgan – hudud, atrof-makon, iqlim, landshaft, foydali qazilmalar, ekologiya, demografiya, va sh.k siyosiy bo'lmagan tizim o'zaro ta'siri qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sohasi sifatida olib qaraydi. Ba'zilar esa geosiyosatning jamiyatdagi, ma'lum bir mintaqa yoki davlatlardagi harbiy-siyosiy,

¹ Геополитические тетради // Элементы – 1993. №3. с.17

² Нартон Н.А. Геополитика (учебник). ЮНИТИ. М., с.9

madaniy va iqtisodiy omillarni tadqiq etuvchi fan ekanligini isbotlashga urinishadi. N.Starikov mazkur fan nimani o'rganishini ushbu formula asosida tushuntirishga harakat qiladi:

$$\text{geosiyosat} = \text{siyosat} + \text{tarix} + \text{geografiya}^1.$$

Yuqorida qayd etib o'tilganidek SSSR da 1980-yillarning oxirlarigacha geoyosatga reaksiya, g'ayriilmiy, imperialistik davlatlarning mustamlakchilik siyosatini oqlaydigan, ularning turli geografik makonlar ustidan hukmronligini ta'min etishga xizmat qiladigan uslub va vositalarni tahlil qiladigan, nazariy jihatdan asoslaydigan fan sifatida qaralgan. Sovet hukumatining ushbu fanga bunday munosabatda bo'lish sabablari nimada: birinchidan, geoyosatning asosiy g'oyalari, nazariyalari, qoidalari amaldagi hukmron marksizm-leninizm g'oyalariga, jamiyat rivojiga sinfiylik nuqtai-nazaridan qarash kabi nazariyalarga mutlaqo zid edi; ikkinchidan, fashistlar agreyessiyasi natijasida jahonda million-million insonlar qirilib ketdi. "Buyuk Germaniya", "oliy irq", "fashistlar uchun hududiy kenglik" kabi g'oyalarni da'vo qilgan fashizm mafkurasini oqlagan nemis geosiyosati badnom etilgan edi; uchinchidan, Sovet davlatining ichki va tashqi maydondagi zo'ravonlik siyosatining mohiyati fosh bo'lib qolish ehtimolining yuqoriligi; to'rtinchidan, Sovet davlati tashqi siyosat olib borishda har bir mintaqadagi tub iqtisodiy, geografik, demografik omillardan, manfaatlardan kelib chiqib emas, balki mafkuraviy omillardan kelib chiqib yondashgan edi. Ushbu xolatlar ayniqsa «sovuq urush» davrida geosiyosatga, uning obyektiga xolisona murojat etish imkonini bermadi. Lekin bu degani sobiq ittifoq mutaxassisleri bu fanga, uning qator imkoniyatlariga, amaliy ahamiyatiga umuman e'tibor berishmadi degani emas. Sovet davlatining amaliyotida, maxsus ilmiy tekshirish institutlarda geosiyosat bilan bog'liq jarayonlar bilan bog'liq keng ko'lamli kuzatishlar, tadqiqotlar olib borildi. Sovet davlati hukm surgan butun davrda geoyosiy jarayonlar tahlili uning ajralmas atributi bo'lib keldi. Aytish mumkinki I.Stalin tarixga XX asrning eng yirik geosiyosatchilaridan biri bo'lib kirdi. Sovet davlatining turli davrlardagi tashqi siyosatida quyidagi hatti-harakatlar geosiyosiy nuqtai nazardan turib amalga oshirilgan: Birinchidan, birinchi jahon urushidan keyin bir qator sabablar bois sovet davlati tashqi iqtisodiy qamal holatiga tushgan edi. 1921-yilda sovet davlati o'zining janubiy qo'shnilari Afg'oniston, Mongoliya, Eron va Turkiya bilan munosabatlarni yo'lga qo'ydi. Tashqi intervensiyaga (antantachilarga) qarshi kurashayotgan Turkiyani qo'llab-quvvatladi. Natijada Angliyaning Bosforda mustahkamlanishiga imkon bermadi. Estoniya, Litva, Latviya, Finlyandiya bilan savdo bitimlari

¹ Стариков Н. Геополитика: как это делается. СПб. 2014. С 8

imzolandi. 1922-yilda Germaniya bilan tuzilgan Rapallo bitimi deyarli iqtisodiy qamalni bekor qildi. Ikkinchidan, Komintern manfatlari yo'lida Mongoliyaga, Xitoyga va respublikachilar Ispaniyasiga katta miqdorda iqtisodiy, harbiy-texnik yordam ko'rsatildi. Uchinchidan, II-jahon urushidan keyin SSSR chegaralarida qizil armiya tomonidan ozod etilgan hududlarda ittifoqdosh, mute davlatlar vujudga keltirildi. Ular xalqaro maydonda sovet manfaatlarini himoya etishga mahkum etilgan. To'rtinchidan, tashqi siyosatda sovet siyosatini kuch ishlatish yo'li orqali amalga oshirishni tamin etuvchi doktrina vujudga keltirildi. 1956-yilda Budapesht voqealari, 1961-yilda Karib inqirozi, "Berlin devori" vujudga keltirilishi, 1968-yilgi "Praga bahori" voqealari buning isboti bo'la oladi. Albatta sobiq ittifoqning bunday xatti-harakatlari xalqaro hamjamiyat tomonidan javobsiz, jazosiz qoldirilmadi. Sovet davlati kuchli mafkuraviy tashqi bosim ostiga olindi. Iqtisod, fan, ilmiy-texnologik sohalarda hamkorlik to'xtatib qo'yildi. Tabiiy xom-ashyoning narxlari keskin tushib ketdi. Milliy va diniy sohada olib borilgan siyosatning noinsoniyligi ichki va tashqi norozilikning kuchayib borishiga sabab bo'ldi. Sovet qo'shinlarining qo'shni afg'on hududiga kiritilishi katta miqdorda sarf-harajatlarni talab etardi. Bu holatlar sobiq tizimning inqirozini yanada tezlashtirdi.

Umuman olganda geosiyosat bilan bog'liq tadqiqotlarni, unga nisbatan berilgan ta'riflarni shartli ravishda quyidagicha tahlil etish mumkin. Bular:

1 - yo'nalish: siyosiy geografiya va siyosat o'rtasidagi munosabatlarga katta e'tibor beriladi. Bu yo'nalishdagilar geografiyaga birlamchi omil sifatida qarab, uning siyosatga ko'proq ta'sir etishini uqtirishadi;

2 - yo'nalish: muayyan mintaqa yoki jahonda hokimiyat uchun siyosiy kuch markazlarining o'zaro kurashlariga kengroq e'tibor beriladi. Bu yo'nalishdagilar asosan davlatlararo raqobatga urg'u berib, fanning umumbashariy xususiyatlaridan bahs etiladi;

3 - yo'nalish: geosiyosatga kompleks yondashuv, ya'ni geografik omillardan tashqari iqtisodiy, demografik, diniy va boshqa shu kabi omillarga ham keng asosda yonlashgan, tadqiq qilgan va qilayotgan tadqiqotchilar mavjudligi ilgari suriladi.

Qayd qilingan umumiy qarashlardan ko'rinib turibdiki, geosiyosat uslubi va o'z obyekti jihatidan siyosiy geografiyadan, yoki qayd etilgan qator fanlardan keskin farq qiladi. Uning amaliyoti jamiyatdagi geografik omillar bilangina chegaralanmaydi. Shuningdek geosiyosat o'z amaliyotida turli ko'rinishdagi siyosiy, iqtisodiy, diniy, harbiy, geografik omillarni doimiy va o'zgaruvchan jarayon sifatida olib qaraydi.

Geosiyosiy omillarni mazmun-mohiyatiga ko'ra doimiy va o'zgaruvchan omillarga bo'linadi. Doimiy geografik omillarga davlat yoki mintaqaning hududiy joylashuvi, chegarasining shakli va ko'lami (nisbatan), iqlimi, reliefi, flora va faunasi va shu kabilar kiradi. O'zgaruvchan geografik omillar esa mintaqa yoki davlatning aholisi, foydali qazilmalari, siyosiy madaniyati va ijtimoiy tuzilishlarini nazarda tutadi. Umuman borliqdagi asosiy geosiyosiy omillar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- hududiy omil;
- siyosiy omil- davlatning siyosiy tuzilishi, uning o'ziga xos xususiyatlari, davlatdagi ijtimoiy qatlamlar, davlatning chegaralari va shu kabilar;
- geografik omil- borliqda joylashuv holati, tabiiy resurslari, fauna, flora dunyosi va shu kabilar;
- iqtisodiy omil-aholining turmush darajasi, ishlab chiqaruvchi kuchlar qudrati, mavdo-sotiq, bozorning rivojlanganlik darajasi, va shu kabilar;
- transport-kommunikativ imkoniyat- strategik o'rni, temir yo'l, avtomobil yo'llari, daryo-suv tarnsporti va shu kabilar;
- tabiiy iqlim sharoiti;
- madaniy omil -milliy an'analar, madaniy qadriyatlar, fan va ta'lim taraqqiyoti darajasi va shu kabilar;
- demografik omil- aholi tarkibi, joylashuvi, aholi o'sish darajasi va shu kabilar;
- harbiy omil-qurolli kuchlarining qudrati va harbiy tayyorgarligi, harbiy mutaxassislarni tayyorlash darajasi va shu kabilar;
- ekologik omil aholining davlatlar va mintaqalar tabiiy resurslarining chegaralanganligiga munosabati, xom-ashyo zahiralarining kamayishi va shu kabilar;

Ko'rinib turibdiki geosiyosat o'rganish mavzusiga ko'ra, o'z qamrovi jihatidan juda keng va ko'pqirralidir. Zamonaviy geosiyosat ko'lami jahon siyosati, hokimiyat muammosi va jamiyatdagi ustuvor mafkuralar omillari bilan bilvosita va bevosita bog'liq. Bu jihatdan geosiyosatga - geosiyosat jamiyatdagi boshqaruv muammolarini tadqiq etadigan fan deb ta'rif berish mumkin. Bundan tashqari, geosiyosat fan sifatida yuqorida qayd etib o'tilgan omillarni tadqiq etuvchi bir qator mustaqil fan va fan sohalarining xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Bular – geografiya, siyosatshunoslik, tarix, etnografiya, dinshunoslik, ekologiya, mafkuralar tarixi, sotsiologiya, harbiy bilimlar nazariyasi va amaliyoti, demografiya va h. Ko'rinib turibdiki, geosiyosat shunchaki bir fan emas, balki ko'plab fanlarga xos xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan, o'z maqsad-vazifalarini amalga oshuvini ta'min etuvchi uslub-vositalarni tahlil etadigan tarmoqlararo fan tizimidir. Qayd qilingan mulohazalar asosida geosiyosatga quyidagi ta'rifni berish mumkin: **geosiyosat** - davlatning strategik qudratiga ta'sir etuvchi, uning ichki va tashqi siyosatdagi ustuvor manfaatlarini ta'min etadigan geografik, tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa o'zaro bog'liq bo'lgan omillarni birgalikda ko'ruvchi va tadqiq etuvchi fandir.

3. “Geosiyosat asoslari” fanining predmeti va tadqiqot doirasi. Bugungi xalqaro munosabatlarda kechayotgan jarayonlarni, uni vujudga keltirayotgan kuchlarni, ularning manfaatlarini, bu manfaatlarni amalga oshuvini ta'min etuvchi usul-vositalarni o'rganish va

tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki bu jarayonlarning bugungi tahlili oldingi davrlardan tubdan farqlanadi. Chunki, ijtimoiy-siyosiy, geosiyosiy jarayonlarni tahlil etishga qaratilgan ilmiy muhit jahon taraqqiyotining murakkab muammolarini o'zida jo qilgan "o'tish davri", "yangicha dunyo" barpo etish bilan ro'baro' kelib turibdi. Uning ustiga "sovuq urush"dan keyin jahon siyosatiga ta'sirini ko'rsatayotgan geosiyosiy o'zgarishlar to'liqini yangi bir bosqichga ko'tarildi, ko'p qutbli dunyoning shakllanishi qiyin kechmoqda, bipolyar tizim quladi, bir qator davlatlarda siyosiy tizimlar tubdan o'zgardi; davlatlarning va ittifoqdosh davlatlarning geografik chegaralari yangidan shakllanib bu jarayon ma'lum ma'noda yana davom etmoqda; integratsiya jarayonlarini dezintegratsiya aloqalari qamrab olmoqda yoki aksincha. Umuman, xalqaro munosabatlar tizimi notinch, tez-tez o'zgarib turibdi.

Xalqaro munosabatlarda kechayotgan, o'ziga xos yangicha tarzda shakllanayotgan bunday jarayonlarni tahlil etishda zamonaviy xalqaro huquq va xalqaro munosabatlar nazariyasidagi ilgaritdan mavjud nazariy-tahliliy yondashuvlar zamon talabiga javob termay qoldi. Bu jihatdan mavjud muammolarni o'rganish va ularni ilmiy-nazariy tahlil etish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar rivojiga xolisona baho berish, mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llarini topish uchun tabiiy ravishda geosiyosatga zarurat tug'ilmoqda. Chunki yuqorida qayd qilingan siyosiy jarayonlar, ularni vujudga keltiruvchi kuchlar, manfaatlar, ularni ta'min etishga qaratilgan mafkuraviy siyosat, ular o'rtasidagi ziddiyatlar va shu singari boshqa muammolar bevosita geosiyosat fanining obyekti va predmeti hisoblanadi.

Umuman olganda geosiyosat obyekti bo'lib – jahon siyosati, yagona tizim sifatidagi dunyoning geosiyosiy tuzilishi va xalqaro dunyoviy tartibot olib qaraladi. Geosiyosat obyekti sifatida jahonning geosiyosiy xaritasi turishi birinchi navbatda, dunyoning ko'p qutbli dunyoga aylanishi bilan va xalqaro munosabatlarning yangi bir transformatsiya – davlatlarning o'z ta'sir doiralari uchun kurash bosqichiga ko'tarilishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, xalqaro maydonda ko'pqirrali global dunyoviy siyosat tushunchasining shakllanishi bilan ham bog'liqdir. Mazkur masalalar geosiyosat obyektida yaxlit holatda turishi mumkin, biroq geosiyosat ularni tahliliy jihatdan o'rganishni bir qator bosqichlarda ko'radi. Masalan, zamonaviy geosiyosat dunyoning siyosiy xaritasida kechayotgan jarayonlarni umumbashariy, mintaqaviy va ma'lum bir davlatning o'zigagina daxldorligidan, manfaatidan kelib chiqib tahlil etadi va tegishli xulosalarni chiqaradi.

Dunyoviy siyosat – xalqaro huquqning asosiy subyektlari o'rtasidagi siyosiy faoliyatlar majmuasi; xalqaro siyosat tuzilish jihatidan suveren, mustaqil milliy davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatini; mintaqaviy davlatlararo va jamoatchilik tuzilmalari, guruhlar va ittifoqdoshlar o'rtasidagi aloqalarni hamda umumbashariy miqyosda BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar va muassasalar faoliyatlarini qamrab oladi.

Geosiyosatning tarixiy-tadrijiy taraqqiyotiga e'tibor bersak, uning predmeti ham zamonga mos tarzda takomillashib, o'zgarib borganligiga amin bo'lamiz. Chunki jamiyatdagi geosiyosiy jarayonlar mavjud davlatlar manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan real voqelikni o'zida aks ettiradi. Shu boisdan har bir davrda geosiyosat predmeti sifatida jamiyatdagi ustuvor sohalar va xalqaro siyosatga daxldor bo'lgan strategik masalalar namoyon bo'lgan.

Geosiyosat predmeti bo'lib xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal etishda geosiyosiy sub'ktlar va tabiat o'rtasida, shuningdek geosiyosiy subyektlarning o'zaro munosabatlari, jamiyatda kechayotgan har xil darajadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ularning yuzaga kelishi, harakatlanishi va o'zgarib borishini o'zida aks ettiruvchi voqealar rivoji xizmat qiladi.

Albbat har qanday manfaat iqtisodiy asosga tayanadi. Uzoq yillar davomida turli kelishmovchiliklarning asosi bo'lib iqtisodiy manfaat xizmat qilib keldi. Lekin uning amalga oshirishning turlari, usullari takomillashib keldi. Xalqaro iqtisodiy jarayonlar nafaqat texnologik, balki tashkiliy jihatdan ham takomillasha boshladi. Iqtisodiy jarayonlarning umumbashariylashuvi xalqaro savdo, davlatlararo munosabatlarda investitsiya, kapital va boshqa omillarning ahamiyatini ko'rsata boshladi. Tabiiyki, bu va bularga mansub bo'lgan boshqa iqtisodiy tarmoqlar nafaqat xalqaro hayotda muhim o'ringa ega, balki ularning dunyoviy siyosatga ta'sir etayotganligi ham real haqiqatdir.

Bundan tashqari, zamonaviy geosiyosatning asosiy muammolari bo'lib kelayotgan quyidagi masalalarni geosiyosiy tadqiqotlarning predmeti sifatida ko'rish mumkin:

- ilmiy-texnika inqilobi rivojining samarasi bo'lgan harbiy-texnikaviy vositalar va ular turlarining ko'payib va takomillashib borayotganligi; o'z navbatida davlatlarning harbiy-texnika vositalaridan foydalanish, ularni ishlab chiqarish yoki chiqarmaslikka nisbatan munosabatlari;
- insoniyatning ommaviy qirg'in qurollarini ishlab chiqarishga kirishishi bilan bog'liq jarayonlar. To'g'ri bu jarayonni tartibga solishga intilish kuchaymoqda. Lekin uning samarasi ko'ngildagidek emas. Buni Hindiston, Pokiston, Eron va boshqa davlatlar misolida ko'rish mumkin.
- davlatlar va xalqlar hayotida muhim ahamiyatga ega bo'layotgan elektron aloqa vositalarining birgina kommunikatsiya vositasi emas, ularning harbiy va iqtisodiy sohalarga ham bog'lanib ketayotganligi masalasi;
- jamiyatdagi mavjud madaniyat va sivilizatsiyalar, ular o'rtasidagi muloqot;
- dunyoviy va milliy-hududiy dinlar, ularning dunyo xalqlari turmush tarzidagi o'rni, birining boshqasiga yoki mavjud dunyoviy tartibotga nisbatan munosabati;
- xalqaro tashkilotlar faoliyatining kengayib borishi, ikkinchi tomondan ular ta'sir doirasining kuchayib borishi natijasi bo'lmish turli ziddiyatlarning vujudga kelishi: YEI-Gretsiya, YEI-Turkiya, YEI-Ukraina.

- davlatlardagi mavjud siyosiy tuzumlar, ularning nafaqat davlat, boshqa davlatlarga ham ta'sir etish masalasi;
- geosiyosiy kuchlar muvozanatiga u yoki bu darajada ta'sir etayotgan demografik jarayonlar va h.

Geosiyosat predmetini aniqlash birgina mavjud muammolarning geografik ko'lamigagina bog'liq emas. Bunda muammoga daxldor bo'lgan tashqi va ichki omillardan tashqari, yetakchi davlatlarning ishtiroki yoki ularning muammoga nisbatan munosabati masalasi ham muhimdir. Aynan ushbu omillar geosiyosat predmetida turgan va tadqiq etilayotgan jumboqlarning tarqalish darajasini (umumbashariy, mintaqaviy yoki davlatga mansubligini) belgilab beradi.

4. Geosiyosiy jarayonlarning asosiy aktorlari. Geosiyosatning asosiy aktorlari haqida gap ketar ekan avvalombor aktor so'zining etimologik ma'nosiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Negaki tahlillar, o'rganish jarayonlarida anglashmovchilik bo'lmasligi uchun. Mazkur so'z yunon, lotin, ingliz tillarida uchraydi. Rus, o'zbek tillarida uchramaydi. Aktor so'zi qadimgi yunon mifologiyalarida, EHM dasturlarida, siyosiy sotsiologiyada, shuningdek politologiya fanlarida uchraydi. Qadimgi yunon afsonalarida mashhur qahramonlarning ismlari sifatida keladi. Mazkur mavzuga uning aloqasi uzoqligi bois ortiqcha to'xtalishning hojati yo'q. EHM dasturlarida asoslab berilishi zarur bo'lgan maqsad, bir necha funksiyalarni, rollarni bajarishga moslashgan komponent nazarda tutiladi. Sotsiologik tahlillarda aktor atamasi ijtimoiy voqelikka qaratilgan muayyan faoliyatni amalga oshiruvchi jamoaviy yoki individual faoliyat ko'rsatuvchi subyekt, individ, shaxs, kishilar jaomasi, uyushma, tashkilotlarni anglatadi. Politologiyada esa xalqaro siyosiy jarayonlarning ishtirokchisi, unda yuz berayotgan turli voqealarning, hatti-harakatlarning vujudga kelishiga muhim ta'sir etuvchi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy va shu kabi ko'rinishlardagi muhim omillar nazarda tutiladi. Masalan davlat ichki va tashqi maydonda faoliyat yurituvchi, ma'lum bir manfaatlarni himoya qiluvchi, xalqaro jarayonlarning rivojiga yuksak darajada ta'sir etuvchi siyosiy aktor hisoblanadi. Shunday ekan bugungi ingliz tilida keng qo'llaniladigan aktor atamasini o'zbek tiliga tarjima qilib bo'lmaydi. Yaqinroq ravishda san'at sohasida aktyor atamasi ishlatiladi. Lekin falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fanlarda bunday atama uchramaydi. Shunday ekan atamani o'z holida ishlatish maqsadga mufoviq.

Jamiyat hayotining turli sohalarida, turli mintaqalarida bir qator turli ko'rinishlardagi geosiyosiy aktorlar muhim faoliyat yuritadi va ayni damda ular o'zaro hamkorlikda faoliyatda bo'ladi. Aktorlarning o'zaro faoliyati ba'zan ijtimoiy hamkorlikka asoslangan bo'lsa, ba'zan konfrontatsiya ruhida ham kechishi mumkin. Jamiyat hayoti vaqt o'tishi bilan rivojlanib, yuksalib borishi natijasida uning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy, texnik-texnologik, diniy va shu kabi turli

sohalaridagi tub o'zgarishlar bois geosiyosiy aktorlar ham ham son jihatidan, ham sifat jihatidan o'zgarib, takomillashib boradi.

Geosiyosatning asosiy aktorlari ularning mazmun-mohiyatidan, namoyon bo'lish shakllariga qarab quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin:

1. Hududiy aktorlar. Har qanday siyosiy faoliyatning harakatga kelishida muayyan hudud muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda hududning quyidagi bir qator imkoniyatlariga, xususiyatlariga keng e'tibor beriladi: joylashgan o'rni, iqlimi, tabiiy boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi, transport-kommunikativ imkoniyatlari va boshqalar. Jahon savdosi vujudga kelib yuksalib borishi bilan unda asosiy o'rinni dengiz transporti egallay boshladi. Angliya dengizda o'z hukmronligini o'rnatadi. Kuchli zamonaviy armiya va flotga ega bo'lgach Gibraltar, Aden, Keyptaun, Singapur singari muhim bo'g'ozlar ustidan o'z nazoratini jolriy qiladi. Albatta ushbu muhim yo'llar Angliyaga jahon savdosini o'z nazoratida ushlashga, boshqa yirik davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatiga ta'sir etish, ularni nazoratda ushlashga imkon berdi. Yoki e'tiborni Yaqin Sharqqa qarataylik. Quddusda joylashgan Iso Masih qabrini musulmonlardan ozod qilish bahonasi ostida deyarlik uch asr davom etgan salib yurishlari bo'lib o'tdi. 1930-yillarda Boliviya va Paragvay o'rtasida yangi neft konlari topilgan Chakao-Boreal viloyati ustida urush kelib chiqadi. Ko'rinib turibdiki hududning turli mazmundagi geosiyosiy hatti-harakatlarga undovchi imkoniyatlari beqiyos.

2. Klassik siyosiy aktorlar- davlat, armiya, diniy tashkilotlar. O'rta asrlarda xalqaro siyosiy munosabatlarning eng faol ishtirokchilari sifatida aynan shularga e'tibor ko'p qaratiladi. Qayd etib o'tilganidek geosiyosatning eng muhim markaziy kategoriyasi davlat hisoblanadi. Markaziy kategoriya sifatida davlat muayyan himoyalangan hududga egalik qiladi. Bu hudud ustidan o'z boshqaruvi o'rnatadi. Qator siyosiy institutlar orqali o'z hokimiyatini amalga oshiradi. Siyosiy jarayonlarda davlat faoliyatining faolligini ta'minlashda uning mustaqilligi, ya'ni suvereniteti bekiyos ahamiyat kasb etadi. Bugungi siyosiy, iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi davlatning tom ma'nodagi suverenitetiga ta'sir etmasdan qolmadi. Davlatdan yuqori turuvchi xalqaro tashkilotlarning vujudga kelishini misol iilib keltirish mumkin: BMT, Xalqaro savdo tashkiloti, transmilliy korporatsiyalar va shu kabilar. Albatta bunday tashkilotlar ma'lum bir imtiyozlar evaziga davlatning ichki va tashqi faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Armiya geosiyosatning mustaqil geosiyosiy aktori hisoblanmaydi. Ma'lumki mavjud tartib-qoidalarga asosan armiya amaldagi siyosiy hokimiyatga, hukumatga bo'ysunadi. Aholining tafakkuriga, kayfiyatiga albatta diniy tashkilotlarning ta'siri har doim katta bo'lib kelgan.

3. Yangi geosiyosiy aktorlar- siyosiy partiyalar, elektoral geografiya, nodavlat tashkilotlar, iqtisodiy tashkilotlar, xalqaro moliyaviy institutlar, xalqaro mafiya, OAV, qurolli guruhlar. Davlat va jamiyat hayotini demokratlashtirishda,

erkinlashtirishda, aholining siyosiy tafakkurini yuksaltirishda, mamlakatning ichki va tashqi siyosatini belgilashda siyosiy partiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bir qator xususiyatlari bilan siyosiy hayotdagi turli tashkilotlardan farqlanib turadi. Ijtimoiy-siyosiy tahlillarda ular mazmun-mohiyatiga ko'ra turlicha klassifikatsiyalanadi: inqilobiy, islohotchi, konservativ, rayeksion, muxolifatchi, legal, etnik, milliy, separatist va shu kabilar. Siyosiy rejimlarning demokratlashuvi bois yangi fan sohasi elektoral geografiya vujudga keldi. Saylovlarda aholining ishtiroki, munosabati, faolligi, ovoz berishi, aynan kimga ovoz berishi, sotsiologik taxminiy ko'rsatkichlar bu fan oldidagi muhim vazifalar hisoblanadi. Va albatta davlat organlari, siyosiy partiyalar, tashkilotlar bu natijalar bilan hisoblashishlari talab etiladi.

4. Inson. Har qanday geosiyosiy g'oyalarni amalga oshuvi unda kishilarning ishtirokisiz kechishi, amalga oshuvi mumkin emas. Kishilik jamiyati, unda ishtirok etayotgan kishilik birlashmalari, uyushmalari rang-barang, murakkab bo'lib, ularning ichida geosiyosiy ahamiyatlilik bilan etnos, irq, millat muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning o'ziga manfaatlari, intilishlari turli mazmundagi geosiyosiy harakatlarga sabab bo'ladi.

Shunday ekan ushbu ko'rib chiqilgan geosiyosiy aktorlari xalqaro maydonda turli manfaatlarni amalga oshuviga olib keladigan faoliyatni yuzaga keltiradi. Geosiyosiy jarayonlarni tahlil etishda geosiyosat fanining asosiy kategoriyalari, funksiyalari, metodlari, qonuniyatlari bilan bir qatorda ushbu aktorlar ham o'ziga xos e'tibor, ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so'z va iboralar:

Geosiyosat, siyosiy tarix, siyosiy geografiya, geosiyosiy makon, siyosatshunoslik, geosiyosiy manfaat, milliy manfaat, geostrategiya, aktor, geosiyosiy aktorlar

Mavzuni mustahkamlash yuzasidan savollar:

1. «Geosiyosat asoslari» fan va siyosiy amliyyot sifatida qanday xususiyatlarga ega?
2. «Geosiyosat asoslari» ning fan sifatida shakllanishi qaysi davrga to'g'ri keladi?
3. «Geosiyosat asoslari» tushunchasi va uning asosiy aspektlari?
4. «Geosiyosat asoslari» ning asosiy manbalari?
5. Geosiyosatning aktorlari nima?

2-Mavzu: “GEOSIYOSAT ASOSLARI” FANINING KATEGORIYALARI, QONUNLARI, METODLARI VA FUNKSIYALARI.

Reja:

1. Geosiyosatning asosiy qonunlari
2. Geosiyosatning asosiy kategoriyalari
3. Geosiyosatning asosiy funksiyalari
4. Geosiyosatning asosiy uslublari

1. Geosiyosatning asosiy qonunlari. Barcha fanlar singari geosiyosat fanining o‘ziga xos kategoriyalari, metodlari va qonuniyatlari mavjud. Geosiyosat ijtimoiy, siyosiy, geografik, demografik, harbiy va boshqa tizimlarning shakllanish, amal qilish, rivojlanish xususiyatlarini, qonuniyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqotchilar geosiyosatning asosiy qonuniyatlari haqida gap borganida asosiy e’tiborni geografik dualizm qonuniga qaratishadi. Odatda ushbu qonun makonning geografik tuzilishi va sivilizatsiyaning tarixiy shakllarida namoyon bo‘ladi. Ko‘pgina geosiyosatchilar ijtimoiy siyosiy taraqqiyotda quruqlikdagi kuch-qudratni (tellurokratiya) dengizdagi kuch-qudratga (talassokratiya) qarama-qarshi qo‘yishadi, ularning o‘ziga xos qator imkoniyatlarini turlicha baholashadi. Bu holatlar Qadimgi Sparta, Qadimgi Rim, Qadimgi Afina va Karfagen misolida namoyon bo‘ladi. Osiyo davlatlarini bir-biri bilan bog‘laydigan muhim bo‘g‘ozlar kamligi, borlari ham kashf etilmaganligi sabab dengizdagi kuch-qudratga, uning imkoniyatlariga kam e’tibor qaratilgan. Oddiygina misol ilk saltanatga asos solgan ahamoniylar vakili Doro I (mil.av. 522-486) Afinaga dengizda bas kela olmadi. Kushon, Turk hoqonligi, Somoniylar, Temuriylar haqida gap ketganida talassokratiya xususida bir nima deb bo‘lmaydi. Geosiyosat asoschilari jumladan A.Mexen, X.Makkinder fikricha geografik dualizm dastlab tarixiy-madaniy sivilizatsiyalar o‘rtasida dushmanlik adovatlarini, turli-xil ziddiyatlarni, o‘ziga xosliklarni keltirib chiqardi. Tellurokrtiyaga xos bo‘lgan xususiyatlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi: aniq belgilangan chegara, ma’lum makon, aholi turmush tarzi, rivojlanishning o‘xiga xos yo‘nalishlari, barcha amal qilishi shart bo‘lgan ahloqiy va huquqiy normalar, aholi toifalari, etnoslar, irqalar, davlat va saltanatlar. Bu qat’iylik ushbu makonda ahloqiy va qonununiy normalarni belgilab beradi. Talassokratiya esa dengiz savdosi ham bo‘lib texnik progressga tayanadi. Individualizm kayfiyatiga, boylik orttirishga, tadbirkorlikka keng e’tibor qaratiladi. Ahloqiy, huquqiy normalarga nisbiylik kasb etib ekstrimal shart-sharoitlarda yashash ko‘nikmalariga keng e’tibor beriladi. Natijada ahloqiy, madaniy qadriyatlar tez o‘zgaradi, yoki oldinga intilish, boylik orttirish yo‘lida harakat qilish, kashfiyotlarga e’tibor kabi harakatlar soyasida qolib ketadi.

Uzoq yillar davomida tarixiy taraqqiyot davomida Qadimgi Rim, Afina, Sparta savdo, hunarmandchilikning rivoji natijasida dengizda ham hukmron mavqega ega bo'la boshlashdi. Mehnat taksimoti, dengiz savdosining o'sishi bois dengizda hukmronlikni qo'lga kiritish uchun kurash boshlandi. Ushbu jarayonlar sabab geosiyosatning ikkinchi qonuni- makon omilining kuchayish qonuni kelib chiqadi. Bu omil buyuk geografik kashfiyotlardan keyin ayniqsa ko'proq ahamiyat kasb eta boshladi. XX asrga kelib o'zining yuksak darajasiga erishdi.

Shuningdek geosiyosiy jarayonlarning, uning tahlili bilan bog'liq bilimlarning muhim ahamiyat kasb etib rivojlanib borishida manfaatlarning doimiyliigi va dinamik xarakteri o'ziga xos o'rin tutadi. Insoniyat paydo bo'libdiki o'zining tub manfaatlari amalga oshirishga, turmushini farovonlashtirishga intiladi. Insoniyat o'zining qaysidir ehtiyojini turli ixtirolar hisobiga qondirmasin, uning ehtiyojlari turli kashfiyotlar yuz bergani sari yanada murakkablashib, ko'payib bormoqda: stanoklar, divigatellar, avtomobil, poyezd, aviatsiya, kopyuter, internet va shu kabilar. Lekin bu kashfiyotlarning keyingi rivoji qator tabiiy zahiralarni talab etadi. Ona zaminning tabiiy imkoniyatlari insoniyatning ehtiyojlaridan farqli ravishda chegaralangan. Maxatma Gandi afsus bilan aytadiki agar Britaniyaga o'z farovon turmush tarzini barpo etish uchun sayyoramizdagi zahiralarning yarmi ketgan ekan, unda Hindistonning farovonligini Britaniya darajasida ta'minlashga qancha sayyora zarur bo'ladi¹.

2. Geosiyosatning asosiy kategoriyalari. Ijtimoiy-siyosiy fanlarning barchasida bo'lgani singari geosiyosat ham mustaqil fan sifatida o'zining qator nazariy kategoriyalariga ega. O'z navbatida fan o'zining ushbu kategoriyalari orqali o'z tadqiqot obyektni tahlil etadi, xulosalarga ega bo'ladi. Geosiyosatning asosiy kategoriyalari sifatida quyidagilarni ko'rib chiqamiz: geosiyosiy makon, geosiyosiy maydon, geostrategik mintaqa, geosiyosiy mintaqa, geosiyosiy liniya, geosiyosiy raqibchilik, geostrategiya, chegara, davlatning milliy xavfsizligi, milliy manfaat, hudud, ekaspansiya va sh.k.

Geosiyosiy makon. Siyosat har doim qator geografik makondagi omillarga tayangan xolda ish yuritishiga hech qanday shubha yo'q. F.Ratsel tabiiy-fizik, geografik makondagi faoliyat yo'nalishlarini geosfera, gidrosfera, atmossfera ketma-ketligida tahlil ostiga olgan edi. Albatta, geosfera, gidrosfera, atmosferalar insoniyat hayotida o'rni va imkoniyatlari sabab turli darajada siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Geosferaga xos omillar: yerning o'lchamlari; iqlimi, dengizga yaqinligi, hosildorligi, tabiiy boyliklari va sh.k. Gidrosfera xos xususiyatlar: quruqlik

¹ <http://www.inpearls.ru>

ahamiyatiga moliklik, suvosti dunyosi boyliklari, hayvonot dunyosi, savdo-sotiq, turizm va sh.k. Atmosferaga xos omillar: yer sirtida turli to'siqlarning mavjud masligi, dengiz kengliklaridan o'tishning qulayligi, yuqori tezlik, geosferani tadqiq qilishdagi qulayliklar, harbiy ahamiyatga moliklik, kosmos imkoniyatlari. Albatta bugungi kunda kosmos sferasini alohida qayd etib o'tish lozim. Bugungi kunda kosmos yerning sun'iy yo'ldoshlari orqali, Xalqaro kosmik stansiya imkoniyatlari bois quyidagilarga ega bo'lmoqda: yer sayyorasining barcha nuqtalari ustidan sifatli nazorat o'rnatish; yerning ustki va yerosti qatlamlarini samarali o'rganish va o'zlashtirish; axborot-kommunikatsiyalari xizmatining yangi bosqichga ko'tarilishi; galaktika kengliklarini o'rganish; sohaga doir fan va texnik kashfiyotlarning amalga oshirilishi va shu kabilar.

Geosiyosiy maydon- ushbu atama odatda ma'lum bir davlat tomonidan yoki ittifoqchilar tomonidan nazorat qilinayotgan makonni anglatish uchun qo'llaniladi.

Xalqaro munosabatlar tarixidan ma'lumki, geosiyosiy borliq ustidan nazoratni o'rnatishning turli shakllari mavjud. Bular harbiy, siyosiy, iqtisodiy, diniy, kommunikatsion va boshqa turlari bo'lishi mumkin. Yangi ming yillik boshlariga kelib xalqaro munosabatlarda geosiyosiy borliqni nazorat qilishda yangicha yondashuvlar – rangli inqiloblarni amalga oshirish, informatsion-mafkuraviy, texnologik va madaniy-sivilizatsiyaviy ta'sir ko'rsatish avj olib, ularning amaliyotdagi o'rnini sezilarli bo'lmoqda. Rangli inqiloblarni amalga oshirishda muayyan bir davlatdagi ichki ziddiyatlardan, kelishmovchiliklardan foydalanilgan holda amalga oshirilmoqda. Qirg'iziston, Gruziya, Ukranina, Liviya, Iroq, Misr kabi davlatlarda shunday hatti-harakatlar amalga oshirildi. Geosiyosatda odatda rangli inqilobni o'z hokimiyatini qon to'kish evaziga "o'zga hukmronlar" ga berish tariqasida tushuniladi.

Geosiyosat siyosiy institutlar tomonidan, birinchi navbatda davlatlar va davlatlar ittifoqi tomonidan borliqni nazoratga olishning asoslari, imkoniyatlari, darajasi, amaliy mexanizm va shakllarini o'rganadi. Davlat nazoratida turgan yoki nazoratga olinishi zarur bo'lgan borliq umumiy maydon markazida bo'lishi, rivojlanish darajasi, u yerning tashqi dunyo bilan aloqalari ko'lami, tabiiy imkoniyatlari bilan ahamiyatli bo'lishi mumkin. Geosiyosatda davlat yoki davlatlar ittifoqi nazoratida bo'lgan borliq geosiyosiy maydon tushunchasi bilan izohlanadi.

Geosiyosiy maydon tushunchasiga nisbatan ko'plab ta'riflarni uchratish mumkin. Rus geosiyosatchisi K.V.Pleshakov geosiyosiy maydon tushunchasi keng ma'noga ega bo'lganligi bois uni tadqiq etish ko'lamiga qarab quyidagicha klassifikatsiyalashni taklif qiladi:

- **endemik maydon** – uzoq vaqtlardan beri ma'lum bir davlat tomonidan, ma'lum bir milliy guruh tomonidan nazorat qilib kelinayotgan borliq bo'lib, o'sha

borliqning aynan shu jamoaga tegishli ekanligini boshqa qo'shnilar tomonidan tan olinishini nazarda tutadi.

- **chegaraviy maydon** - bunday maydonda ma'lum bir milliy jamoa istiqomat qilsada, davlatning u yerda nazorat qilish funksiyasi rasmiy xarakterda bo'lib, yashayotgan odamlar turmush tarzi chegaradosh davlatga yaqinroq bo'ladi. Masalan, Shimoliy Qozog'istondagi rus millati vakillarining Rossiya davlati turmush tarzi bilan, Shimoliy Tojikistondagi, Qirg'izistonning O'sh viloyatidagi yoki Janubiy Qozog'istondagi o'zbeklarning O'zbekistondagi xalqlar turmushi bilan nafaqat tarixan, balki ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar asosida bir-biri bilan uyg'unlashgan. Ular yashayotgan makonni chegaraviy maydonga aylantirgan omil - ularning turli davlatchilikka oidligi bilan izohlanadi;

- **chorrahaviy maydon** - qanday milliy jamoalarning yashashidan qat'iy nazar, ikki yoki undan ko'proq davlatlar da'vogar bo'lgan geosiyosiy borliq. Biroq u chegaraviy maydondan milliy jamoaning atrofida emas, endemik maydon ichkarisida joylashgan bo'lishi bilan (Tog'li Qorabog'), mintaqadagi jamoaning etnik va diniy tarkibi tarixan o'sha jamoaga mansub bo'lsada, borliqning bugungi davlatlar chegarasida chorrahaviy xarakter kasb etayotganligi bilan farqlanadi. Masalan, Turkiya, Eron, Iroq va Suriya davlatlarining geografik jihatdan tutashgan muayyan kengliklarida-chorrahaviy maydonda 40 mln.ga yaqin kurd xalqining yashab kelayotganligi va bunday geosiyosiy bo'shliqdan chiqish uchun milliy mustaqillik yo'lida olib borayotgan harakatlarini eslashimiz mumkin;

Geosiyosiy mintaq – geostrategik mintaqaning bir qismi. U siyosiy, iqtisodiy, madaniy, savdo va boshqa aloqalar uchun qulay imkoniyatlarga va istiqbollarga ega bo'lganligi bilan ajralib turadi.

Geostrategik mintaq – o'zining geografik joylashuvi, turmush tarzi, xarakteri, savdo va madaniy-mafkuraviy aloqalarining yo'nalishi bilan qo'shni yirik xorijiy davlatlar tashqi siyosatida munosabatlar o'rnatish uchun ustuvor yo'nalishda ko'rilyotgan makon. Shuningdek, geostrategik mintaq – bu davlat yoki chegaradosh davlatlar (mintaqa) hududlari ham bo'lishi mumkin. Uning geostrategik ahamiyati muhim transkommunikatsion yo'llarga (Gibraltar, Suvaysh, Bosfor) tutashganligida.

Siyosiy borliq - bu siyosiy xarakterdagi fanlarning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Davlat geosiyosatning markaziy tushunchalaridan biri hisoblansa, siyosiy borliq davlatning siyosiy barqarorlik holati va hayotiy faoliyat mazmunini ko'rsatib beruvchi muhim omildir. Siyosiy borliq davlat turmush tarzini ko'rsatib turuvchi dastlabki nishona ham hisoblanadi. Shuning uchun geosiyosatda davlatlar o'rtasidagi makoniy (hududiy) munosabatlarga katta e'tibor beriladi. Chunki borliq tushunchasi geosiyosat nazariyasining asosini tashkil etadi.

Har qanday davlatning siyosiy borlig'i chegaralangan, ya'ni u muayyan belgilangan chegaralar doirasida bo'ladi. Chegara esa davlat xavfsizligini ta'minlovchi, uning siyosiy borlig'ini ko'rsatib turuvchi geosiyosiy funksiyani bajaradi. Siyosiy borliqda chegaraning bajaradigan funksiyalari: a) siyosiy; b) suverenitetni himoya qilish; v) harbiy-strategik bo'lishi mumkin; d) fuqarolik, soliqlar, boj va shu kabilar.

Milliy manfaat. Manfaatga muayyan guruhlar, jamoaga moddiy va ma'naviy tomondan foyda keltiruvchi omil sifatida qarash mumkin. Biroq geosiyosatda milliy manfaat tushunchasi kengroq ma'noda – xalqlar, davlatlar manfaatlaridan kelib chiqib talqin etiladi. Bizningcha, milliy manfaatning geosiyosiy tus olishi avvalo o'sha davlatda olib borilayotgan ichki siyosatning tarkibiy qismini tashkil etuvchi asosiy vazifalar va maqsadlardan boshlanadi. Negaki, har bir davlat aniq bir tarixiy sharoit, taraqqiyot va barqarorlik manfaatlari, milliy-tarixiy xususiyati va qadriyatlaridan kelib chiqib, uzoq va yaqin kelajakda amalga oshirilishi zarur bo'lgan asosiy vazifalari va maqsadlarini belgilaydi. Masalan, bugungi kunda O'zbekistonning oldida turgan asosiy ustuvor masalalar – jamiyatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan erkinlashtirish; jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish; xalq turmush darajasini oshirish; iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar; barqarorlik, tinchlik, totuvlik va davlatimiz hududining daxlsizligini ta'minlash va b. hisoblanadi. Ushbu vazifa va maqsadlar davlatimiz milliy manfaatlari tizimida o'z aksini topgan.

Har bir davlatning milliy manfaatlari evolyusiyasi oxir oqibat jahon siyosati bilan bog'lanadi. Shuning uchun ham jahon siyosati asosida nafaqat manfaat tushunchasi turadi, balki har bir milliy manfaatlar amaliyoti jahon siyosatini harakatga keltiradi. Shu tariqa davlatlarning o'z manfaatlariga erishish yo'lidagi harakatlari, unga intilishi jahonda muayyan kuchlar muvozanatini yuzaga keltiradi. Ana shu bosqichda geosiyosatning manfaat kategoriyasi kuchlar muvozanati kategoriyasi bilan amaliy jihatdan o'zaro tutashadi.

Aytish joizki, geosiyosatning mohiyatiga va fanning tuzilishiga ko'ra mavjud bo'lgan kategoriyalari, ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

3. Geosiyosatning asosiy funksiyalari. Geosiyosat fan sifatida jamiyat hayotini, unda kechayotgan turli mazmundagi geosiyosiy jarayonlarni tahlil etadi, tegishli taklif-xulosalar beradi, bir so'z bilan aytganda ushbu jarayonlar bilan bevosita bog'langandir. U real hayotdagi voqea-hodisalar va jarayonlarning o'zaro aloqadorligini va ularning bir-biriga bog'liqligini ifodalovchi qonuniyatlarni o'ziga qamrab olgan. Shuningdek, geosiyosat borliqdagi jarayonlarni o'zida aks ettiribgina qolmay, ularga bog'liqlik tarzda jamiyatda muayyan funksiyalarni ham bajaradi.

Odatda geosiyosatning asosiy funksiyalari qator adabiyotlarda quyidagicha tahlil etiladi:

- gnoseologik funksiya;
- prognoz qilish funksiyasi;
- boshqaruv funksiyasi;
- mafkuraviy funksiY.

To'g'ri, qayd qilingan funksiyalar boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlarga ham xos bo'lishi mumkin. Biroq mazkur funksiyalar geosiyosat fanida o'ziga xos izchillika, mantiqiylikka, afzalliklarga ega.

Gnoseologik funksiyasi. Gnoseologiya – bilish nazariyasi, bilish haqidagi fan demakdir. Bilish nazariyasi borliqni, uning aniq bir holatlari, manbalari va shakllarini o'rganishga qaratilgandir. Geosiyosiy jarayonlar nuqtai nazaridan aytadigan bo'lsak, gnoseologik funksiya davlatlar va xalqlarning geosiyosiy joylashuvi, turmush tarzi hamda ular hayotining rivojlanish tendensiyalarini o'rganadi, tahlil qiladi. Dunyoning mafkuraviy manzarasini, xalqaro munosabatlarning rivojlanish tendensiyalarini, bu jarayonning asosiy ishtirokchilarini, ularning tub-manfaatlarini, shuningdek bu manfaatlarni amalga oshirishga asoslangan hatti-harakatlarni, insoniyat rivojining bugungi darajasi va istiqbollarini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Va olingan natijalar, xulosalar har bir davlatning istiqboldagi rejalarida o'z aksini topadi. Albatta, gnoseologik funksiya amaliyotida geosiyosatning davlatlar va xalqlar turmushini o'rganishda qo'llaydigan bir qator uslublari – taqqoslash, ekstrapolyatsiya (narsa va hodisaning bir qismini kuzatish asosida olingan xulosalarni uning boshqa qismiga yoyish yoki tatbiq etish), empirik (tajriba qilish) va shular singari uslublarining o'rni kattadir.

Prognoz qilish funksiyasi. Geosiyosatning prognoz qilish funksiyasi bevosita gnoseologik funksiya asosida olingan natijalari asosida shakllanadi. Chunki insoniyatning ertangi kuniga dahldor har bir muammo xususida bashorat qilish uchun o'sha muammoni yuz berishi bilan bog'liq jihatlar obdon o'rganilmog'i lozim. Obyektda turgan masalaning qanchalik chuqur o'rganilganlik darajasi tadqiqotchi uchun tegishli xulosalarni chiqarish hamda uning kelajakdagi kechmishi haqida ham muayyan prognozlarni aytish imkonini beradi. Prognoz qilish funksiyasining ahamiyati qachonki olib borilayotgan geosiyosiy tadqiqotlar quyidagi jihatlarni o'zida namoyon etsagina bo'ladi, ya'ni:

- muammoga nisbatan bildirilgan fikr-mulohazalarning qanchalik darajada ilmiy tomondan asoslanganligi bilan;
- bildirilgan sharhlarning xalqlar, davlat va mintaqalarning geosiyosiy turmushiga qanchalik darajada o'zgarishlarni olib kelishi bilan;
- bashoratlarning yaqin yoki uzoq muddatga mo'ljallanganligi bilan;
- bashoratning obyektivligi va h.

Prognoz qilish – siyosiy jarayonlarning rivoji va ko‘rinishlari, ular amalga oshirishining muqobil yo‘llari va muddatlari haqida ilmiy asoslangan mulohazalarni ishlab chiqish jarayonlari, shuningdek, ularning o‘sha voqeliklar sharoitida amalga oshishi uchun aniq tavsiyalarni ilgari surish jarayonlarini aks ettiradi.

Prognoz qilish funksiyasi bir qator tamoyillarga asoslanadi, ya’ni batartiblik, muvofiqlik, uzluksizlik, muqobillik va rentabellik. Tabiiyki, ushbu tamoyillar jamiyatning iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-siyosiy, siyosiy-ma’furaviy va harbiy-siyosiy doiralarini o‘rganishda qo‘l kelishi mumkin.

Bundan tashqari, amaliy jihatdan geosiyosatning prognoz qilish funksiyasi quyidagi bosqichlardan iborat:

- tahlil qilinayotgan makondagi mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tahlil qilish;
- olingan ma’lumotlarni o‘rganish, tahlil etish;
- tayanch andazalarni ishlab chiqish;
- qidiruv modellarini tanlash;
- qiyosiy jihatdan taqqoslash;
- tahlilning aniqligi va ishonchliligini baholash;

Borliqdagi geosiyosiy jarayonlar kelajagi va ularning qay ko‘rinishda rivojlanishini oldindan prognoz qilish qanchalik murakkab bo‘lmasin, prognoz qilish funksiyasi tadqiqotchilar nigohidan chetda qolayotgani yo‘q. Balki unga qiziqishning ortishi orqasida geosiyosiy tadqiqotlarni o‘rganish va tahlil qilish mazmun va ma’no jihatidan takomillashib bormoqda.

Boshqaruv funksiyasi. Jamiyatdagi har qanday jarayonlarda boshqaruv elementlarini ko‘rish mumkin. So‘zsiz boshqaruv elementlarisiz kundalik hayotimizni tasavvur eta olmaymiz. Boshqaruv yangi-yangi axborotlar tizimiga asoslanadi. Chunki boshqaruvchi o‘z faoliyat doirasida barqaror faoliyat olib borishi uchun ham o‘ziga tegishli informatsiyalarga ehtiyoj sezib boradi. Jumladan geosiyosatning boshqaruv funksiyasi ham shunga asoslangan. Boshqa sohalardan farqli tarzda, geosiyosat boshqaruvga tegishli qarorlar va tavsiyalarni berish uchun doimiy ravishda mavjud informatsiyalarni (xalqlar, davlatlar va mintaqalar va b.) yig‘ib boradi va tahlil etadi. Faqat shu asosdagina masalaga nisbatan tegishli bo‘lgan asosiy xulosalarni chiqaradi. Masalan, har qanday jarayonlarda boshqarishga oid qarorlarni chiqarish uchun muammoli holatni atroflicha tahlil qilmoq kerak. Shuningdek, muammoga obyektiv baho berish uchun turli kuchlar (subyektlar) va omillarni hisobga olmoq lozim (siyosiy, iqtisodiy, geografik va b.), subyektlarning voqeaga ta’sir etish darajalarini o‘rganish kerak va sh.k.

Tabiatan geosiyosat boshqaruv haqidagi, xalqlar va davlatlar turmushida boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni, ularning boshqalarga qay yo‘sinda ta’sir etishi va ularni bartaraf etishning yo‘l-yo‘riqlarini, o‘rganadigan fandır.

Shunday ekan uning jamiyatdagi boshqaruv funksiyasiga ham quyidan yuqoriga qarab yo'naltirilgan hodisa sifatida qaramoq kerak.

Ma'furaviy funksiyasi. Ma'furaviy funksiya geosiyosatning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Xo'sh, ma'furaning o'zi nima? Ma'furalar asosini ma'lum bir maqsadlarni, manfaatlarni o'zida mujassam etgan g'oyalar tashkil etadi. Ma'fura o'zida aks ettirayotgan muayyan jamiyatning tuzilishi, u haqdagi falsafiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, diniy nazariyalar, qarashlar, shuningdek ularni amalga oshiruvchi vositalar, eng asosiysi, jamiyatning umumiy rivojlanish yo'llari haqidagi muayyan bilimlar majmuasidir. Bunday qarashlar, nazariyalar, uslubva vositalar real ijtimoiy-siyosiy vaziyat qarab shakllangan, aholining psixologiyasiga faol ta'sir etadigan motivlarga ega bo'lishi lozim. Geosiyosatni bilimlar, g'oyaviy ta'sir kuchlari kimlar yoki qaysi kuchlarning manfaatini himoya qilishi masalasi qiziqtiradi.

Ma'furalar qanday ko'rinish va shakllarda bo'lmasin, ular asosida umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarning turishi xalqlar va davlatlar turmushi bilan bog'liq bo'lgan geosiyosiy jarayonlarda qarama-qarshiliklar, konfliktlar o'rniga konsensusning shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi. Siyosiy kuchlar jamiyat o'z oldiga qo'ygan ichki va tashqi siyosatdagi o'z geosiyosiy manfaatlarini amalga oshirishda, bu boradagi vazifalar oldida aholi turli qatlamlarini birlashtirishda, uyushtirishda, safarbar etishda, o'zi olib borayotgan, faol targ'ib qilayotgan hatti-harakatlarini omma tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga erishadi.

Skeptitsizm funksiyasi. Unutmaslik kerakki, geosiyosat fanining asosiy tadqiqot obyektni, kategoriyalarini, funksiyalarini, qonuniyatlarini, siyosiy jarayonlarga ta'sir qilish mexanizmlarini ko'tarib ilk chiqqan tadqiqotchilar G'arbning yirik yetakchi mutamlakasi davlatlarining nazariyotchi mutaxassislari edi. Albatta ular xalqaro maydonda o'z davlatlarining manfaatlarini himoya qilishga, yanada ta'sir doiralarini mustahkamlashga harakat qilishgan. Boshqacha ya'ni yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak ular o'z tadqiqotlarida ustuvor yo'nalish sifatida o'z diqqat-e'tiborlarini nimalarga qaratishgan: xalqaro maydonda o'z hukmronligini o'rnatish; rivojlanayotgan o'lkalarni asoratga solish; ularni asoratda ushlab turish; o'z manfaatlariga xizmat qiladigan turli ziddiyatlarni keltirib chiqarish usullarini, mexanizmlarini tahlil etishgan. Agar biz bu geosiyosatchilarni barrikadaning o'ng tomonida turgan deb faraz qilsak, barrikadaning chap tomonida turib manzarani tahlil qilgan geosiyosatchilar yo'q. To'g'ri mustamlakachilik tizimi tugadi. Lekin xalqaro maydonda o'z hukmronligini yangicha ko'rinishda o'rnatish, uni o'z manfaatlariga mos ravishda tashkil etish, o'z manfaatlarini ko'proq amalga oshirish hissi yirik davlatlarning hukmron toifalari fikri xayolini tark etgani yo'q. Qolaversa mustamlakachilikka intilish yangicha ko'rinishlarda davom etmoqda: xalqaro tashkilotlar; xalqaro huquqiy normalar; JST; siyosiy-ijtimoiy-bitimlar, iqtisodiy-savdo bitimlari, umumiy mudofaa va boshqacha ko'rinishlarda. Turli mazmundagi

siyosiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy birlashmalarga ko‘r-ko‘rona ergashmaslik kerak, turli mazmundagi iqtisodiy, texnologik ko‘mak, ilmiy-texnik hamkorlikka asoslangan dasturlarda ongli ishtirok etishni zamon talab qilmoqda. Ushbu jarayonlarni chuqur ilmiy tahlil qilish, unga qanday munosabatda bo‘lish zarur, zaruriyat bo‘lsa bu jarayonlarga shubha bilan qarash, ehtiyotkorlik singari ko‘nikmalarni skeptitsizm funksiyasi o‘zida ifoda etadi. Ushbu sabab qator yirik davlatlarning yirik geosiyosatchilari o‘z tadqiqotlarida bunday funksiyaga ehtiyoj sezishmagan bo‘lishi mumkin.

4. Geosiyosatining asosiy uslublari. Geosiyosat asoslari fani o‘zining tadqiqot obyekti, tahlil etadigan sohalarining ham kengligi, ham murakkabligi bois sohaga tegishli hodisalar va jarayonlarni o‘rganishda ko‘plab uslublarni qo‘llaydi. Geosiyosat asoslari fanidagi uslublarning rang-barangligi uning predmetini chuqurroq va har tomonlama kompleks anglab yetish imkonini beradi. Har bir uslub geosiyosiy jarayonlarni o‘rganishning o‘ziga xos usul va yo‘llariga ega. Geosiyosat fanida keng qo‘llaniladigan uslublarning ba’zilariga to‘xtalsak.

Tizimli yondashuv uslubi. Bu uslub ijtimoiy-siyosiy voqelikka, hodisaga tarkibiy-funksional yonlashuv tarafdorlari bo‘lmish siyosatshunoslar, iqtisodchilar, sotsiologlar tomonidan keng qo‘llaniladi. Tizimli yondashuv uslubi geosiyosiy muammolarni tahlil etishda ularga yaxlit holatda, murakkab tuzilmaga ega bo‘lmish, dinamik harakterdagi organizm sifatida qaraydi. Shu bilan muammolarga birgalikda ta’sir etgan, etayotgan va ta’sir etish ehtimoli bilan bog‘liq bo‘lgan ichki va tashqi omillarni atroflicha o‘rganadi. Muammoning boshlanish holati va yakunini ko‘rsatuvchi holatlarni taqqoslaydi. Va nihoyat muammolarni bartaraf etish uchun tegishli siyosiy qarorlarni qabul qiladi.

Tizimli yondashuv uslubi ilmiy doirada birinchi bor XX asrning 50-60 yillarida amerikalik olimlar T.Parsons (1902-1979) va D.Iston tomonidan ishlab chiqilgan. Jamiyatda milliy davlatchilik strategiyasini va umuman geosiyosiy jarayonlarni tizimli yondashuv asosida o‘rganishni modernizm oqimi vakillari (K.Rayt, M.Kaplan, K.Doych va b.) mazmun jihatdan yanada boyitdi. YA’ni ular mavjud ma’lumotlarni matematik hisoblar va modellashtirish orqali tizimli tadqiqotlarni olib borishni joriy qilishgan.

Qiyosiy uslub. Qiyosiy uslubning ilmiy doirada qo‘llanilib kelinishi antik davrlarga borib taqaladi. Masalan, Aristotel yoki undan keyinroq yashab o‘tgan Forobiy ijodlariga e’tibor bersangiz ular o‘z asarlarida muammolarni o‘rganish asnosida qiyosiy uslubdan keng foydalanganligiga amin bo‘lasiz. Zamonaviy geosiyosatda qiyosiy uslubning ahamiyati shundaki, u orqali tadqiqotchi jamiyatdagi xalqlar va davlatlar turmushini o‘rganadi, ularni bir-biriga taqqoslaydi. Yoki ma’lum

bir geosiyosiy maydonlarning boshqasidan farqli jihatlari qiyosiy asosda o'rganiladi. Muammolarni shu yo'llar orqali o'rganish asosida tegishli xulosalarni chiqaradi.

Tarixiy uslub. Tarixiy uslubning geosiyosiy jarayonlar va hodisalarni o'rganishdagi o'rni katta. Ushbu uslub tadqiqot obyektida turgan masalalarga nisbatan xronologik jihatdan yondashishini taqozo etadi. Tarixiy faktlar to'planadi. Jamlangan ma'lumotlar asosida o'rganilayotgan jarayon yoki muammoning o'tgan davr, hozirgi muhit va kelajakdagi holatlari haqida muayyan fikrlar bildiriladi.

Faoliyatli (harakatiy) uslub. Mazkur uslubdan foydalanish geosiyosat obyekti va predmetida turgan muammoli vaziyatning umumiy tavsifi hamda uning harakatlanishi bilan bog'liq tomonlarni o'rganishda qo'l keladi. Geosiyosiy jihatdan u kechayotgan jarayonlarni harakatdagi kuch sifatida biladi. Shuning uchun ham muammo dinamikasini bosqichlarga bo'lib o'rganishni afzal ko'radi. Jumladan, muammolar dinamikasini tahlil etishda harakatdagi kuchlarning maqsadlarini aniqlash va qarorlar qabul qilishga; qabul qilingan rejalarni amaliyotga tatbiq etishga; faoliyatni boshqarib turishga; amaliyotda qo'yilgan maqsadlarni doimo hisobga olib turishga; olingan natijalarni tahlil qilishga va o'z navbatida yangi maqsad va vazifalarni ishlab chiqishga katta e'tibor beradi.

Geosiyosatda harakatiy uslub siyosiy qarorlar qabul qilishning muhim uslubigina emas, balki nazariy asosi bo'lib ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, geosiyosiy kuchlarning meyoriy faoliyati ularning qanchalik o'z harakatlarini real voqealik bilan uyg'unlashtira olganliklari bilan bog'liq.

Funksional uslub. Ijtimoiy-siyosiy fanlarda funksional uslub jamiyat barcha doiralarining o'zaro aloqadorlikdagi faoliyatini tadqiq etadi. Geosiyosatda esa ko'proq davlatlarning iqtisodiy-siyosiy, harbiy, madaniy munosabatlarini, urbanizatsiya darajasi va aholining zichligini, ijtimoiy guruhlar va institutlarning siyosiy faolligi va boshqa shu kabi masalalarni nazarda tutadi. Funksional uslub siyosiy hodisalar yoki geosiyosiy jarayonlarni o'rganishda diniy dogmatik yoki axloqiy qadriyatlarga asoslanib qolishni yoqlamaydi. Balki ularning tashqi muhit bilan bog'lanishi, izchilligi va nechog'li real hayot bilan uyg'unlashganligini tahlil etishning zarurligiga katta e'tibor beradi.

Funksional uslub jamiyat, davlat, davlatlar ittifoqlariga murakkab tuzilmalar sifatida qaraydi va ularning har biri mavjud tuzumda o'ziga xos funksiyalarni bajaradi. Shuningdek, funksional uslub jamiyat va davlatdagi siyosiy institutlar – xalqaro tashkilotlar, davlatlar uyushmasi, davlatlar, partiyalar, siyosiy harakatlar va boshqa ijtimoiy guruhlarining faoliyatini ham o'rganadi.

Ijtimoiy-siyosiy fanlarga funksional uslubni italyan mutafakkiri, tarixchi va davlat arbobi Nikollo Makiavelli (1469-1527) olib kirgan va u o'z asarlarida mazkur uslubni keng qo'llagan.

Ba'zi tadqiqotchilar geosiyosat fanining uslublari qatoriga institusional, antropologik, mantiqiy va empirik uslublarini ham qo'shishadi. Bizningcha, geosiyosatda

mazkur uslublar tuzilishi va muammolarni tadqiq etish ko‘lami jihatidan funksional uslub doirasiga kiradi.

Geosiyosatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tahlil qilishning asosiy uslublarini bilish yoshlarda O‘zbekistonga yaqin va uzoq olisda bo‘layotgan turli mazmundagi voqelikni tahlil qilish, olingan natijalardan ta‘lim-tarbiya tizimida, targ‘ibot ishlarida o‘rinli foydalanish ko‘nikmalarini tarbiyalanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bixevioristik uslub. Geosiyosiy jarayonlarni o‘rganish, muvaffaqiyatli tahlil qilish, tegishli amaliy xulosalar ishlab chiqishda bixevioristik uslub ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bixevioristik uslub ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlil qilishda ko‘pchilik holatlarda funksional uslub bilan bog‘liq holatda ishlatiladi. Siyosatda bixevioristik uslub 1880 yillarda ilk bor amerikalik olim, prezident Vudro Vilson (1856-1924) tomonidan nazariy jihatdan asoslangan va qo‘llanilgan edi. Bu uslubning o‘ziga xos xususiyatlari sifatidagi quyidagilarni qayd etib o‘tish lozim. Avvalo olib borilayotgan siyosatda alohida shaxsning qarashlari ham muhim jihat kasb etishi lozim. Muayyan xalqning manfaatlari, intilishlari lider shaxs tomonidan yanada kengroq anglangan bo‘ladi. Shunday ekan alohida lider siyosatchi faoliyatiga alohida tadqiqot obyekti sifatida qaralishi talab etiladi. Shuningdek ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni, aholi hatti-harakatlarini yuz berishida psixologik motivlarga ustuvor ahamiyat karatish lozim.

Institusional uslub. Dunyoning istalgan mintaqasidagi ro‘y berayotgan ijtimoiy siyosiy voqelik, mafkuraviy tortishuvlar, harbiy to‘qnashuvlar yuz berishida ham ichki, ham tashqi ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, guruhlar, ularning manfaatlari o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Yaqinda sodir etilgan sovet-afg‘on urushi (1979-1989) misolida vaziyatga e‘tibor beraylik. To‘g‘ri afg‘on xalqi mustabid sovet tizimining agressiyasidan, u tomonidan olib borilayotgan dahriylik siyosatidan (ateistik) juda ham norozi edi. Lekin bittagina shu norozilikning o‘zi tishidan tinog‘icha zamonaviy qurollangan sovet armiyasiga qarshi turish uchun yetarlimidi? Afg‘on xalqining qalbidagi norozilikdan boshqa hech vaqosi yo‘q edi. Demak ularni qurollantirish, taktik tayyorgarlik lagerlari barpo etish, malakali instruktorlar bilan ta‘minlash, moliyaviy ta‘minotni yo‘lga qo‘yish, tegishli axborot-targ‘ibot xizmatini olib borish va hokozolar bilan bog‘liq xizmatni amalga oshirish zarur edi. Albatta ushbu harbiy harakatlarning olib borilishi, natijalari tahlil qilinishida institusional uslub tengsiz hisoblanadi.

Antropologik uslub. Kishilik jamiyati taraqqiyotini tahlil etishda, o‘rganishda asosiy diqqat e‘tiborni ijtimoiy omillarga emas, individning, shaxsning tabiatiga qaratishadi. Bu uslub tarafdorlari Har bir shaxsdagi, millatdagi, xalqdagi tug‘ma qobiliyat, mentalitetni tabiiy omillar bilan birgalikda olib qarashadi.

Har mintaqada yoki xalqaro maydonda sodir etilayotgan turli xil ijtimoiy, siyosiy, diniy, mafkuraviy xarakterdagi voqelikni, bir soʻz bilan aytganda dunyoning mafkuraviy manzarasini tahlil etganda ushbu qayd etib oʻtilgan uslublar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch soʻz va iboralar:

geografik dualizm, siyosiy geografiya, gesiyosiy makon, siyosatshunoslik, geosiyosiy manfaat, milliy manfaat, geostrategiya, geosiyosat tushunchalari, geografik makon, endemik maydon, chegaraoldi maydon, chorraha maydon, total maydon, metapole, geosiy munosabatlar va kuchlar balansi

Mavzuni tustahkamlash yuzasidan savollar:

1. Geosiyosatning asosiy tushunchalarini aniqlang?
2. Geografik makon, endemik maydon, chegaraoldi maydon, chorraha maydon, total maydon, metapole atamalarini izohlang?
2. Geosiyosiy munosabatlar va kuchlar balansi atamalarini nimani anglatadi?
3. Geosiyosat asoslarining asosiy qonunlarini izohlang.
4. Geosiyosatning tizimlilik, taqqoslash, tarixiylik uslublarining mohiyati nimada?
5. Geosiyosatning funksional, institusional, antropologik uslublarining mohiyati nimada?
6. Geosiyosatning asosiy funksiyalariga qaysilar kiradi?

2-BOB. GEOSIYOSIY JARAYONLARNING RIVOJLANISH TARIXI.

3-Mavzu: «KLASSIK GEOSIYOSATNING ASOSIY G‘OYALARI VA TAMOIYILLARI»

Reja:

1. Fanda geosiyosiy jarayonlar rivojini davrlashtirish masalasi.
2. F.Ratselning «Siyosiy geografiya» asarida davlat va borliq masalalari.
3. R.Chellenning geosiyosiy konsepsiyalari.
4. Alfred Mexen ta’limotida dengiz kuchlarining qudrati masalalari.
5. X.Makinderning geosiyosiy qarashlari.
6. K.Xausxofer va N.Spikmen ta’limotlarida davlat qudrati masalalari.

1. Fanda geosiyosiy jarayonlar rivojini davrlashtirish masalasi. G‘arbdagi ijtimoiy-siyosiy, geosiyosiy jarayonlarning rivoji xususida gap ketganida bu jarayonlarning amal qilish davri, xususiyatlari, maydoni, ta’sir qilish mexanizmlari, chegaralari nuqtai nazaridan kelib chiqib bu jarayonlarni davrlashtirishga keng e’tibor berilgan. Qator tadqiqotchilar geosiyosiy jarayonlarni tahlil ostiga olishganida har bir davrdagi geosiyosiy kuchlarni makonda va zamonda o‘rin almashishlariga, ularning qayd etib o‘tilgan xususiyatlariga qarab geosiyosiy davrlarni klassifikatsiyalashgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki geosiyosiy davrlarni quyidagicha davrlashtirish mumkin:

Birinchi geosiyosiy davr. Rim imperiyasining ikkiga bo‘linishi. Milodiy 395 yilda Rim imperatori Feodosiy vafoti oldidan imperiyani ikki o‘g‘liga bo‘lib beradi: G‘arbiy Rim imperiyasi va Sharqiy Rim imperiyasi. G‘arbiy Rimga xos xususiyatlar: qulchilik, qoloqlik, past turmush tarzi, xristianlikning katolik mazhabi va shu kabilar. Sharqiy Rim imperiyasiga xos xususiyatlar: ozod dehqonlar, ishlab chiqaruvchilar, ilm-fan rivoji, savdo-sotiq, pravoslav mazhabi va shu kabilar. Har ikkala tomon o‘z ta’sir doiralarini yanada kengaytirish maqsadida qator harakatlarni amalga oshirishdi. Bunga misol tariqasida Galliyani, Britaniyani, Shimoliy Yevropani katolik mazhabiga, Bolqon, Sharqiy Yevropa va Rusning pravoslav mazhabiga tortilishini vytish mumkin. Deyarli uch asr davom etgan salib yurishlari amalga oshirildi. Lekin bu davrni G‘arblik geosiyosatchilar alohida geosiyosiy davr sifatida e’tirof etishmaydi.

Ikkinchi geosiyosiy davr. Tordesilyas geosiyosiy davri. 1494 yilda Tordesilyas shartnomasiga asosan ikkita yirik mustamlakachi Ispaniya va Portugaliya jahonni o‘z ta’sir doiralarida bo‘lib olishadi. Unga asosan G‘arbiy kenglik Ispaniya nazoratiga, Sharqiy kenglik Portugaliya nazoratiga o‘tadi.

Uchinchi geosiyosiy davr. Vestfaliya geosiyosiy davri. 1618-1648 yillarda bo‘lib o‘tgan O‘ttiz yillik urushga Vestfaliya tinchlik shartnomasi yakun yasadi. Buning natijasida Yevropada markazlashgan milliy davlatlar vujudga keldi. Sanoat,

savdo-sotiq yuksala boshladi. Aytish mumkinki mazkur shartnoma Yevropadagi siyosiy-iqtisodiy, harbiy tartibotni yo'lga qo'yish borasidagi ilk bor amalga oshirilgan xalqaro kelishuv hisoblanadi.

To'rinchi geosiyosiy davr. Vena geosiyosiy davri. Yevropa davlatlari Napoleon zulmidan ozod etilgach Vena kongressi (1814) bo'lib o'tadi. Napoleon Angliya, Avstriya va Ispaniyani hisobga olmaganda butun G'arbiy Yevropani o'z imperiyasi tarkibiga qo'shib olgan edi. Shu sabab Yevropaning siyosiy xaritasi qayta tuziladi. Angliya o'z qudratini dengizda, Rossiya esa materikda yanada mustahkamlab oladi.

Beshinchi geosiyosiy davr. Versal tinchlik shartnomasi. Bu shartnoma Birinchi jahon urushiga yakun yasadi. 27 davlatning delegatsiyasi unda ishtirok etadi. Angliya, Fransiya, AQSH o'z mavqelarini yanada mustahkamlab olishdi. Rossiya, Germaniya, Avstro-Vengriya, Usmoniylar imperiyasi bu jahon urushidan omon chiqishmadi. Konferensiya jahon urushini keltirib chiqargan asosiy sabab dunyoni qayta bo'lib olishga intilish xissini yo'q qila olmadi. Aksincha bu kurash yangicha ko'rinish oldi.

Oltinchi geosiyosiy davr. Yalta geosiyosiy davri. Ikkinchi jahon urushiga yakun yasaldi. Jahon ikkita yirik davlat SSSR va AQSH ta'sir doiralari misolida bo'lib olindi. Bipolyar tizim davri boshlandi. NATO va unga qarshi turuvchi VSHT vujudga keldi. Ba'zan "sovuq urush" davri deb nom olgan bu davrda (1945-1991) ushbu ikkala tizimning ta'sir doirasida kechdi.

Yettinchi geosiyosiy davr. Belovej shartnomasi Sovet ittifoqining tugatilganligini e'lon qildi. Ikki qutbli dunyoga chek qo'yildi. G'arb va Sharq o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik o'z yakuniga yetdi. Lekin xalqaro maydondagi qarama-qarshiliklar yangicha ko'rinishlarda davom etdi.

Markaziy Osiyodagi milliy davlatchilik rivoji bosib o'tgan yo'lni geosiyosiy nuqtai nazardan davriylashtirish tadqiqotlarda uchramaydi. Lekin sal kam uch ming yillik tarixga murojat qiladigan bo'lsak quyidagi muhim davrlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlati davri. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlatlari vujudga kelgan. Aynan shu davrda bu davlat birlashmalari o'z joylashgan o'rni sabab Mesopatamiyani, Misrni Sharqda Hind bilan, Xitoy bilan, Janubiy Sibir o'lkalari bilan bog'lab turdi.

Ahamoniylar davri. Bu davrda Markaziy Osiyo xalqlari Yaqin Sharqdagi, Old Osiyodagi, Bolqondagi ijtimoiy – siyosiy voqelikka tortildi. Satrapliklar o'rtasidagi ishlab chiqarish, savdo, ijtimoiy, soliq, harbiy sohalarda o'ziga xos o'xshashliklar sodir etildi.

Ellinizm davri. Markaziy Osiyo hududi miloddan avvalgi IV asrning ikkinchi yarmidan Yunon-makedon saltanati tarkibiga qo'shib olindi. Aleksandr o'zi tashkil etgan davlatida ahamoniylardan farqli o'laroq boshqaruv, ijtimoiy-madaniy hayotda ellinlashtirish siyosatini olib bordi. Uning qator elementlari Yunon-Baqtriya, Kushon saltanatida uchrab turadi. Aynan shu davrda Hind va Xitoyni Markaziy Osiyo orqali Mesopatamiya, Old Osiyo, Misr va Sharqiy Yevropa bilan bog'laydigan Buyuk Ipak yo'liga asos solindi. Albatta bu omillar davlatchilik, boshqaruv, ishlab chiqarish, savdo, fan va madaniyatning keyingi rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Mintaqa xalqlari o'rtasidagi aloqalar Xiyoniylar, Kidariylar, Eftaliylar va Turk hoqonligi davrida ham dpvom etdi.

Halifalik davri. Yettinchi asrning ikkinchi davridan hudud Arab halifaligi tarkibiga qo'shib olindi. G'arbda Atlantika sohillaridan boshlanib Sharqda Qashqar va Mo'ltongacha davom etgan hududda qator yagona normalar tashkil etildi. Bu esa ishlab chiqarish, savdo, fan va madaniyatning yanada gullab-yashnashiga turtki berdi. Bu ijtimoiy taraqqiyot Somoniylar va Xorazmshohlar davrida yanada yuksaldi.

Temuriylar davri. Ma'lumki Chingizxon o'z davlatini to'rtta ulusga bo'lgan edi: Jo'ji ulusi, Chig'atoy ulusi, O'qtoy ulusi, To'li (xulagular) ulusi. Movarounnahr va Yettisuv Chig'atoy ulusi tarkibiga kiritilgan edi. XIV asrning o'rtalariga kelib Chig'atoy ulusidagi parchalanish boshlandi. Shunday vaziyatda hokimiyat tepasiga kelgan Amir Temur o'z saltanatini barpo etishga kirishdi. O'z davlati havfsizligini ta'min etish maqsadida dastlab Mo'g'ulistonga, keyin Oltin O'rdaga qator harbiy yurishlarni amalga oshirdi. Temur o'zining tarixda uch yillik, besh yillik va yetti yillik yurishlar deb nom olgan harbiy yurishlari natijasida Xitoy va Hinddan O'rta yer dengizi sohillarigacha bo'lgan ulkan hududni birlashtirgan saltanatga asos soldi. G'arbiy Yevropadagi ijtimoiy-siyosiy voqelik rivojiga katta ta'sir qildi.

Xonliklar davri. Temuriylar davlati inqirozga yuz tutgach Shayboniylar davlati vujudga keldi. Boshqaruvning suyurg'ol tizimi joriy etildi. So'fizmning davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilib dunyoviy fanlar keyingi o'ringa surildi. Bu davrda Hindda Boburiylar saltanati, Eronda Safaviylar saltanati, Markaziy Osiyoda Shayboniylar davlati vujudga keldi. Bu saltanatlar o'rtasida sulolaviy kelishmovchilik hukm surar edi. Ularning manfaatlari to'qnashgan joy bo'lib Xuroson chiqdi. Buyuk ipak yo'li o'z ahamiyatini yo'qotdi. Amalda xonliklar jahon hamjamiyatidan uzilib qolishdi.

Chor Rossiyasi va sovet davri. Bu davrda mintaqa xalqlari mustamlakachilik girdobiga tortildi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan Markaziy osiyo davlatlari xalqaro munosabatlarning to'laqonli subyekti sifatida xalqaro munosabatlarga tortildi.

2. F.Ratselning “Siyosiy geografiya” asarida davlat va borliq masalalari.

Ma'lumki, uzoq tarixda ulkan geografik makondagi aholi uyushmalari, ular tuzgan davlatlar, tanlagan makonlari asosan qulay iqlim, unumdor yer, suv manbalari bilan belgilangan edi. Tashqi savdoning kuchayishi, dengiz kashfiyotlari, sanoatning yuksalib borishi, transport – kommunikativ harakatlarning kuchayishi vaziyatni o'zgartirib bordi. Yangi davrda kontinental, orol yoki qirg'oq bo'yi davlatlari, ularning joylashishi, hududi, qirg'oqbo'yi chegaralarining uzunligi, davlatda kommunikatsiya imkoniyatlari, landshaft, iqlimi va qator demografik omillarni xalqlar ijtimoiy-siyosiy hayotiga nechog'li ta'sir kattaligin daliliy misollar ko'rsatdi.¹ Shunday tadqiqotlar samarasi o'laroq, XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy fanlar qa'ridan geosiyosat alohida fan sifatida ajralib chiqdi. Aytish joizki, klassik geosiyosat deganimizda ana shu davrdan boshlab ijod qilgan va geosiyosatning tadrijiy rivojiga u yoki bu darajada ta'sir etgan tadqiqotchilar qarashlari nazarda tutiladi. Jumladan, nemis olimi **F.Ratsel** (1844-1904), shved davlatshunosi **R.Chellen** (1864-1922), amerikalik admiral **A.Mexen** (1840-1914), ingliz geograf nazariyotchisi **X.Makkinder** (1861-1947), nemis olimi **K.Xausxofer** (1869-1946), amerikalik (asli golondiyalik) **N.Spikmen** (1893-1943) va rus iqtisodchi olimi **P.N.Savitskiy** (1895-1968)lar eng mashhur klassik geosiyosatshunoslar hisoblanishadi.

Ular bugungi geosiyosatda ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'ziga xos munozaralarga sabab bo'layotgan qator konsepsiyalar va nazariy kategoriyalarni o'z vaqtida o'rta tashlaganlar:

- quruqlik va dengiz «hukmdor»lari o'rtasida doimiy qarama-qarshilik bo'lishi g'oyasi;
- «Buyuk quruqlik» nazariyasi;
- insoniyat tarixiga daxldor makonlarga ega bo'lgan markaz – xearthland muammosi;
- jahon siyosatida strategik ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalish – rimland masalasi;
- yetakchi xorijiy davlatlarning geosiyosiy ittifoqchiligini nazariy asoslash;
- davlatlarning strategik xom-ashyo resurslariga egaligi, uning davlat, mintaq va global geosiyosiy munosabatlardagi o'rni va b.

F.Ratsel 1844-yil Karlsrueda tug'ilgan. Yoshligidanoq unda tabiiy fanlarga qiziqish katta bo'lgan. Shuning uchun u o'qish uchun Karlsruedagi politexnika universitetini tanlagan. Mazkur universitetda bo'lajak olim geologiya, paleontologiya va zoologiya fanlarini o'rganishga alohida e'tibor bergan. F.Ratsel

¹ Политология: энциклопедический словарь, М., изд-во МКУ, 1993, с.59

Haydelberg shahrida ta'lim olib yurgan kezlari professor Ernest Gekkelga («ekologiya» atamasini birinchi bor ilmiy doirada qo'llagan olim) shogird bo'ladi. Olimning dunyoqarashi evolyutsionizm (evolyutsion rivojlanish haqidagi ta'limot) va darvinizmga asoslangan bo'lib, uning biologiyaga bo'lgan qiziqishlari bilan ham sug'orilgan edi. Uning dunyoqarashining shakllanishida fransuz sotsiologi Ogyust Kontning xalqlar, davlatlar rivojida geografik omillarning ahamiyati bilan bog'liq qarashlari muhim o'rin tutadi¹.

F.Ratsel o'zining shoh asari bo'lmish – “Antropogeografiya” (1893), “Siyosiy geografiya” (“Politische Geographie”) (1897), “Davlatlarning makoniy o'sish qonunlari” (1897), “Dengiz xalqlar qudratining omili sifatida” (1900) asarlarida o'z geosiyosiy qarashlarini bayon etadi. Fridrix Ratselni garchi "geosiyosat" atamasini asarlarida ishlatmasa ham, birinchilardan bo'lib geosiyosiy uslubda fikr yuritganligi uchun geosiyosat fanining otasi desa bo'ladi. Nemis geosiyosatchisi Otto Maullyuning fikricha geosiyosatni Ratselsiz tasavvur etib bo'lmaydi². U o'z asarlarida siyosiy geografiyadan bahs etadi va bu boradagi asosiy ilmiy ishi ham "Siyosiy geografiya" deb nomlanadi. Uning ta'kidlashicha, har qanday xalqning manfaatlari zamin ustida kechadi. Shu bois zaminda joylashgan ma'lum bir hududlar tarixiy taraqqiyot yo'nalishini ko'rsatuvchi bosh vosita sanaladi. Davlatlar muayyan hududlar ko'rinishida zaminda aks etadi. Zamin abadiy bo'lishi mumkin, davlatlar o'zgarib turadi. "Davlatlar misoli tirik organizm" bo'lib ularning o'zagi "zaminiiy asos"da bir - biri bilan tutashadi.³

Davlatlarning zaminda paydo bo'lishi uchta asosiy omil bilan bog'liq. Bular - hududiy relief, hududiy masshtab va muayyan turmush tarzga ega xalqlar. Shu asosda, ya'ni obyektiv geografik makon va subyektiv umuminsoniy qadriyatlarni o'zida aks ettirgan davlat siyosati shakllanadi. "Meyoriy asosdagi" davlat bo'lish uchun, - deydi F.Ratsel, - avvalo davlatda geografik, demografik va etnomadaniy parametrlar o'zaro uyg'unlashmog'i kerak".⁴

Istalgan davlatni qaysi jihatdan tadqiq qilmaylik, baribir yondashuv yo'nalishi obyektimizning asosi - zaminga borib taqaladi. Ko'rinib turibdiki davlatni o'rganishdagi muhim parametr - geografik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'z vaqtida Napoleon Bonapart aytganidek istalغان davlatning geografiyasini mukammal bilish uning tashqi siyosatini tushunishdir. Davlatlarni o'rganishda, ularni bir-biri bilan qiyosiy taqqoslashda, ular o'rtasidagi munosabatlarni tahlil etishda va shu kabi muammolarda tabiiy va iqtisodiy geografiyaga ehtiyoj seziladi.

¹ [https://ru.wikipedia.org/wiki/Ратцел, Фридрих](https://ru.wikipedia.org/wiki/Ратцел,_Фридрих)

² Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория. С 83.

³ Ratzel F. Politische Geographie. 1887. "Einleitung"

⁴ ўша жойда

“Antropogeografiya”, “Insoniyat yerdagi hayotiy hodisa sifatida” asrlarida geografik va siyosiy omillar aloqasini ilmiy asosda tahlil ostiga oladi. Uning asosiy postulati shu ediki insoniyat ona zaminning ajralmas qismidir. Antropogeografik asosda olamni mineral-organik borliq sifatida kompleks tahlil etar ekan asosiy e’tibor quyidagi tarkibiy qismlarga qaratadi: birinchidan, sayyoralardan Yerni geologik (minerallar dunyosi) va geografik (o‘zaro aloqadorlikdagi uchta soha: yer, suv, havo) makon sifatida; ikkinchidan yerni o‘simlik va hayvonot dunyosi sifatida; uchinchidan, kishilik jamiyati¹ hukm suradigan makon sifatida olib qaraydi. Antropogeografiyaning asosiy xulosalarini qisqacha qilib bayon etadigan bo‘lsak, ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: jahonning barcha mamlakatlari o‘zaro hamkorlikda, bog‘liqlikda mavjud bo‘la oladi; inson va insoniyat olami hayoti umumsayyora hayotining tarkibiy qismi ekanligi; kishilik tarixidagi har davlat, xalq yagona organizm sifatidagina mavjud bo‘lishi; davlatlarning o‘sishi tabiiy chegaralanganligi; davlatning rivojiga tabiiy iqlim, atrof-muhitning ta’siri va shu kabilar.² Shunday ekan Ratsel fikricha taqdir taqozosi ila inson yerda yashab, yerda o‘lishi lozim³. Har bir xalqning, millatning muayyan sharoitda, zaminda shakllanishi, turmush tarzi, muayyan zaminga ixlos quyishi, vatanparvarligi qator geografik omillarga borib taqaladi. To‘g‘ri bunday yondashuvning ba’zi jihatlari F.Ratseldan oldin Beruniy tomonidan ham ilgari surilgan edi.

Nemis faylasufi Gegel aytganidek har bir inson o‘z davrining, o‘z zamonasining farzandidir. To‘g‘ri, faqat hozir gap qanday farzand bo‘lish lozimligida. Ratselning hayoti Bismark tomonidan Buyuk German imperiyasiga asos solinayotgan zamonaga to‘g‘ri keldi. Ratsel harbiy xizmatda ekanligida Napoleon III qarshi olib borilgan 1870-1871 yillardagi fransuz-prus urushida ko‘ngillilar safida faol ishtirok etadi. 1871 yilda yagona Germaniyaga asos solindi. Lekin Ratselning fikricha German imperiyasiga asos solinishi kech sodir bo‘lgan. Angliya, Fransiya xalqaro maydonda o‘z ustunligini ta’minlashgan, qator mustamlakalarga ega bo‘lishgan, Rossiya va AQSH esa cheksiz hudud va tabiiy zahiralarni qo‘lga kiritishgan. Ratselning fikricha Germaniya bunday imkoniyatga ega emas. Germaniya yer, tabiiy zahiralari yetishmovchiligidan o‘z hududida siqilib qolmoqda. Bu omillar Ratselning qator asarlarida o‘z isbotini topdi.

F.Ratsel davlatlarning makoniy jihatdan o‘rishining yettita tamoyilini ishlab chiqqan:

- har qanday makon o‘sha joyda istiqomat qilayotgan millatlar madaniyatining o‘rishi bilan birgalikda kengayib boradi;

¹ Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория. С 83.

² Исаев Б.А. Геополитика: Учебное пособие. СПб., 2006. С 144-145

³ Моро-Дефарж Ф. Введение в геополитику. М., 1996. С 14

- davlatdagi g'oyaviy birlik, savdo tarmoqlari va faol harakatlar hamda nechog'li "tortish kuchi"ga egaligi davlat qudratining o'sishiga ulushini qo'shadi;
- davlatning o'sishi boshqa davlatlarni o'ziga qo'shib olish va bo'ysindirish evaziga bo'lishi mumkin;
- chegara–davlat o'sish darajasining nechog'li kuchga qodir yoki qodir emasligini ko'rsatuvchi chekka sarhad hisoblanadi. Shunday ekan har bir davlatda markaz bilan chegara sarhadlari o'rtasida muntazzam aloqa bog'lanib turishi lozim. Ular o'rtasida muvozanat davlat maydonining mustahkamlik darajasini ko'rsatadi;
- davlat o'sish asnosida muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillar - fizik-geografik muhitga, dengizbo'yi qirg'oq chiziqlariga, daryolar o'zaniga, tabiiy resurslarga boy o'lkalarga katta e'tibor beradi;
- nisbatan ibtidoiy turmush tarziga ega bo'lgan davlatlarga o'sish tashqaridan, sivilizatsiya darajasi yuqori davlatlardan turli ta'sirlar sababli kirib keladi;
- ijtimoiy-siyosiy jihatdan hududlarning doimiy o'sib borishi davlatlardan davlatlarga o'tadi va bu qonuniyat.

Agar xalqaro munosabatlar tarixiga nazar tashlasak, F.Ratsel "qonun"larining amaliyotda nechog'li aks etganligiga amin bo'lamiz. Bunga XIX asr oxirlarida jahon siyosiy xaritasida hokimiyat va boyliklarni qo'lga kiritish uchun yetakchi davlatlarning harbiy-siyosiy harakatlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

3. R.Chellenning geosiyosiy konsepsiyalari. Shved sotsiologi, politologi, tadqiqotchisi Rudolf Chellen 1864 yilda tavallud topadi. Lekin uning qalbi germanofil milliy ruhi bilan sug'orilgandi. Fon Gumbolt, Ratsel bilan bir qatorda nemis klassik geosiyosatining otasi hisoblanadi¹. Dastlab Gyoteborg, keyin esa Upsalsk universitetlari professori bo'lgan. R.Chellen geosiyosatga siyosatshunoslikning muhim bir qismi sifatida qaragan. "Buyuk kuchlar: zamonaviy katta siyosatdan ocherklar" (1914), "Davlat hayotning muhim shakli sifatida" (1916), "Siyosiy tartiblar asoslari" (1920) nomli asarlari olim ijodining asosini tashkil etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "geosiyosat" atamasi ilmiy doirada birinchi bulib shved olimi Rudolf Chellen tomonidan ishlatilgan. R.Chellen o'zini professional geosiyosatchi deb bilmagan va geosiyosatga siyosatshunoslikning muhim bir yo'nalishi sifatida qaragan. U geosiyosatga "borliqda geografik organizm sifatida mujassamlashgan davlatlar haqidagi fan" tarzida ta'rif bergan.² Chellen davlat geografik organizm yoki makondagi fenomen sifatida qarashni ilgari surgan.

R.Chellen davlatning qudratini unda mavjud bo'lgan beshta jihat bilan bog'laydi. Bular:

¹ <http://uchebnik-besplatno.com/uchebnik-geopolitika/chellen.html>

² Rudolf Kjellen. Die Staat als Lebeform, 1916

- davlatning geografik makon sifatidagi mavqei;
- davlatning muayyan xalq sifatida mavjudligi;
- davlatning o'ziga xos ho'jalikka egaligi, uning rivoji;
- davlatning yagona ijtimoiy jamiyat sifatidagi voqeligi ;
- davlatning boshqaruv shakli¹.

Chillen davlatning kuch-qudratini ushbu omillardan kelib chiqib belgilaydi. Shundan kelib chiqib davlat haqidagi fanlar ham mos ravishda beshta bo'lishi kerak. Uningcha, bu atamalar bir vaqtning o'zida siyosatshunoslikning ham muhim bo'limlaridan sanaladi, ya'ni:

- **geosiyosat** - davlatni kuch va borliqdagi geografik organizm sifatida o'rganish;
- **ekosiyosat** -davlatlarni iqtisodiy kuch markazi sifatida o'rganish;
- **demosiyosat** - davlatlarda istiqomat qiluvchi xalqlarni, ularning turmush tarzini tadqiq qilish;
- **sotsiosiyosat** -davlatning ijtimoiy jihatlarini o'rganish;
- **kratosiyosat** -davlatlarning hokimiyat va boshqaruv shakllarini va ularning davlatdagi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan munosabati muammolarini o'rganish².

Ushbu tahlillar asosida Chillen “davlat kuch-qudrati” tushunchasi va uning formulasini yaratishga harakat qiladi:

Davlatning qudrati =

Tabiiy –geografik omillar + ho'jalik + xalq + boshqaruv shakli

Davlat xo'jaligi deganda R.Chellen davlatning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib o'zini istalgan sharoitda zaruriy mahsulotlar bilan ta'minlashga asos bo'ladigan omillar – tabiiy resurslarga, bozor tuzilmalariga va shu kabi boshqa omillarga egaligini, ularning dunyo xo'jalik tarmoqlari bilan qanday darajada bog'langanligini nazarda tutadi. Iqtisodiy munosabatlarda R.Chellen avtarkiyani – davlatning zarur narsalarni chetdan olmasdan mamlakat aholisiga o'zi yetkazib berishga asoslangan milliy xo'jalik tizimiga erishishni yoqlaydi. Albatta keyinchalik bu ta'limotdan Mussolini foydalangan edi.

Tabiiy-geografik xususiyatlar - davlatning qanday geografik makonda joylashganligi, xalqaro savdo tarmoqlariga chiqish imkoniyatlari, havfizlik jihatdan qulayligi, iqlimi va b.

Xalq - bu mamlakatda istiqomat qiluvchi turli milliy-etnik guruhlardan tashkil topadi. Biroq R.Chellen davlatda yashayotgan xalqning nimalarga fodirligini

¹ Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория. С 97.

² <http://uchebnik-besplatno.com/uchebnik-geopolitika/chellen.html>

madaniy jihatdan yuksakligi, etnik jihatdan uyushganligi va demografik jihatdan joylashuvi bilan baholaydi.

Davlat boshqaruv shaklini davlatning konstitusion va ma'muriy tuzilishidan kelib chiqib tahlil qiladi. U bir tomondan, davlatdagi vijdon erkinligi, hurfiylik, yig'ilishlar o'tkazish erkinligi va shu kabilarni, ikkinchi tomondan, davlatga soliq to'lashning majburiyligi, harbiy xizmat majburiyatlari, maktabda o'qish va boshqa shu kabi masalalarni nazarda tutadi. Chunki ushbu omillarning amaliyotda o'z aksini topishi o'sha davlat boshqaruv shaklining nechog'li kuch-qudratga egaligini namoyon etadi.

Shuningdek, R.Chellen geosiyosat fanining quyidagi bo'limlardan iboratligini aytadi:

- **toposiyosat** – makonda davlatning siyosiy jihatdan qanday muhit bilan qurshalganligini o'rganadi. Toposiyosatda davlat uchun tashqi dunyodan bo'ladigan kuchlarning ta'sir etish yoki etmaslik masalasi muhimdir. Bunday omillar davlatga atrofdan ittifoqdoshlar qidirish va davlatlararo kelishuvlarning boshqa variantlarini yuzaga keltirish uchun muqobil siyosatlarni ishlab chiqish masalasini yuzaga chiqaradi. Bu jihatdan R.Chellen davlatning geografik joylashuvini «davlat siyosatining kalitidir», - deydi.

- **morfosiyosat** – makonda joylashuviga ko'ra davlatning hududiy shakllarini o'rganuvchi bilimlar majmuasi. Morfosiyosat uchun davlat hududlari qanday boyliklarga egaligi muhim emas. Bunda davlat hududan qanday ko'rinishga ega, yoysimon, dumaloq yoki uzunchoq holatda joylashganligi, davlatda markaz bilan joylar o'rtasidagi aloqalarning geografik tizimi va davlatning tashqi dunyoga geografik jihatdan chiqish imkoniyatlari masalasiga e'tibor beriladi. Masalan, Chili geografik tuzilishi, chegaralarining himoyasi, mamlakat ichidagi harakat o'ziga yarasha muaamolarni keltirib chiqarishi turgan gap. Davlatning katta-kichikligi uning qudratiga poydevor bo'lishi mumkin, faqatgina shu hududga son jihatidan munosib aholi bilan.

- **fiziosiyosat** – davlat hududlarining markazga qanday pozitsiyada ekanligini, ular munosabatlari ko'lamini tadqiq etuvchi bilimlar. R.Chellen fiziosiyosatni davlatning, davlatga qarashli boshqa hududlarning qay darajada jismoniy kuchga egaligi yoki ega emasligi bilan bog'laydi. Joylarning (davlat hududlarining) davlat siyosatiga ta'sir etuvchi jismoniy-geografik xususiyatlarini o'rganish va tahlil etish fiziosiyosatning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Birinchi jahon urushi yakunlangach Versal tinchlik shartnomasi imzolandi. Albatta bitim shartlari Germaniya foydasiga emas edi. Azaliy raqib Buyuk Britaniya yanada keng imkoniyatlarga ega bo'ladi. Aynan shu davrda Chellen tomonidan global siyosatdagi uchta muhim omil haqidagi tezisini bayon etadi: hududni kengaytirib borishga e'tibor; hududning monolitligi; erkin harakat. Buyukbritaniya o'zining

baquvvat harbiy dengiz floti sabab yer yuzasining 24 % ini o'z mustamlakasiga aylantirib ulgurdi. U o'z hududini kengaytirib borish imkoniga ega. Shu bilan zaif tomoni shundaki ingliz mustamlakalari monolit emas, tarqoq sochilib ketgan. Bu jihatdan u Rossiya imperiyasi va AQSH imkoniyatlarini yuqori baholaydi.

4. Alfred Mexen ta'limotida dengiz kuchlarining qudrati masalalari. A.Mexen (1840-1914) AQSH harbiy-dengiz floti admirali, harbiy-dengiz nazariyotchisi, tarixchi. A.Mexen Amerika harbiy dengiz flotida oddiy zobitdan admiral darajasigacha ko'tarilgan. 1885 yildan boshlab Nyu-Portdagi (Roud-Aylend, AQSH) "Naval War College"da harbiy flot tarixidan dars bera boshlagan. 1890 yil u o'zining "Tarixda dengiz kuchlari. 1660-1783yy" nomli birinchi kitobini nashrdan chiqardi. A.Mexenning mazkur asari keyinchalik harbiy strategiya borasida bitilgan klassik manba sifatida jamoatchilik o'rtasida tan olindi.

A.Mexen umrining oxirigacha Harbiy-dengiz kollejida o'qituvchi bo'lib ishlagan. A.Mexen 1914-yil 74 yoshida vafot etgan. Mashhur asarlari: "Tarixda dengiz kuchlari. 1660-1783yy" (1890), "Dengiz kuchlarining Fransuz inqilobi va imperiyasiga ta'siri (1793-1812)" (1892), "Dengiz kuchlari markazida Amerika manfaatlari: bugun va kelajak" (1897), "Osiyo muammolari va uning xalqaro siyosatga ta'sir etishi" (1900), "Dengiz kuchlari va uning urushga munosabati" (1905)¹. Asarlarida asosan, izlanishlarida asosan bitta mavzu "dengiz kuchlari" mavzusiga alohida e'tibor qaratildi.

Alfred Mexen geosiyosat olamiga hech qanday geosiyosatshunos olimlarning ta'sirisiz o'zining kasbiy faoliyati sabab mustaqil ravishda kirib kelgan. U F.Ratsel, R.Chellen, F.Nauman, X.Makkinderlar singari ilmiy tadqiqotchi, olim emas edi. Asarlarida "geosiyosat" atamasini qo'llamagan, biroq uning o'rtaga tashlagan mulohazalari nafaqat uslubiy jihatdan, balki tahliliy yondashuvi va yakuniy xulosalari geosiyosiy jarayonlar tahliliga to'la mos keladi.

A.Mexen "Dengiz kuchlarining tarixga ta'siri (1660-1783)" nomli asarida sivilizatsiya tarixida dengiz omilining katta ekanligiga urg'u beradi. Shuni unutmaslik kerakki, yer sayyorasining umumiy maydoni 510 mln. kv.km ni tashkil etsa, uning 361 mln kv.km ni dunyo okeani tashkil etadi. Demak bu arealda hukmronlik qilish qator imkoniyatlarni beradi: hayvonot olami, dengiz tubi boyliklari, tabiiy zaharalari, transport va sh.k. U yoki bu xalqlarning o'z hayotida dengizdan foydalanish darajasi o'sha xalqlarning nechog'li farovonligi va boshqalarga ta'sir etish kuchiga qodir yoki qodir emasligini ko'rsatib beradi. Bunday davlatlar qatoriga u qat'iy ravishda Angliyani XX asr boshlarigacha dunyoda asosiy dengizlar hokimi bo'lganligini misol qilib ko'rsatgan. U o'zining nazariy

¹ Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория. С 154-155.

bashoratlarini amaliyotga qo'llash uchun AQSH ni Angliyaga qarama-qarshi qo'yadi va AQSh ning dengiz kuch markaziga aylanishi uchun avvalo Tinch okeanida Fillipin orollarini o'ziga buysindirishini ta'kidlagan. Negaki, A.Mexen Fillipin orollarini AQSh ning dengiz kuch markaziga aylanishidagi va u egallashi lozim bo'lgan strategik mintaqa deb biladi.¹

A.Mexen uchun tashqi siyosatning asosiy quroli savdo hisoblanadi. Shuning uchun harbiy yurishlar natijasi kurrai zaminda savdo sivilizatsiyasining rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarni yaratib berishi lozim. Savdo bu iqtisod. Iqtisod uchun esa quyidagi uch omilni muhim deb biladi:

- ishlab chiqarish -dengiz yo'llari orqali tovar va xizmat ko'rsatish almashinuvi;
- navigatsiya;
- mustamlakalar (jahon miqyosida tovar almashish harakatini yo'lga qo'ygan ishlab chiqaruvchilar).²

Har bir davlat o'zining geosiyosiy maqomiga ega. Davlat geosiyosiy imkoniyatlarini aniqlash quyidagi oltita jihatlarida namoyon bo'ladi:

1. Davlatning geografik joylashuvi, hududlarining dengizga tutashganligi, dengiz kommunikatsiya tizimiga chiqish imkoniyatlari. Quruqlikdagi chegaralar uzunligi, strategik sarhadlarini nazorat qilishga va ehtimoliy harbiy raqibga o'z dengiz kuchlari bilan qarshi chiqishga qodirligi;

2. Davlatning "jismoniy konfiguratsiya"si, ya'ni davlatning qirg'oqbo'yi hududlari, portlar soni va ularning joylashuvi. Tashqi savdoning yuksalishi, davlatning strategik jihatdan himoyalaniishi aynan ushbu omillarga bog'liq;

3. Hududlarining uzunligi, shu jumladan, dengiz qirg'oqbo'yi chiziqlarining uzunligi;

4. Aholining statistik miqdori;

5. Milliy xarakter. Aholining savdo bilan mashg'ul bo'lishga qodirligi;

6. Boshqaruvning siyosiy xarakteri. Har qanday davlatning kuchli dengiz davlati sifatida shakllanishi, avvalo o'sha davlatdagi tabiiy va insoniy resurslarning to'g'ri yo'nalishga qo'yilganligiga bog'liq.

Ko'rinib turibdiki, A.Mexenning geosiyosiy konsepsiyasi avvalo "dengiz kuch markazi" va uni ta'min etuvchi masalalarni nazarda tutadi. Tadqiqotchi nazdida «Dengiz kuch»larining tarixiy namunasi–bu Karfagen, zamonaviysi (bizga davr jihatidan yaqinrog'i) esa Buyuk Britaniyaning XVII-XIX asrlarda jahon siyosatida tutgan o'rnidir. Shuningdek, A.Mexen yuqorida keltirilgan jihatlar asosida Buyuk Britaniyaning Napolen Fransiyasi ustidan g'alabasini uning geografik jihatdan orol

¹ Alfred Mahan. "The influence of Sea Power in history (1660 - 1783)". N-Y. 1890

² Мэхен А. "Влияние морской силы на истории (1660-1783)". М-Л. 1941.

holatida joylashganligidan va davlatning Yevropa, Osiyo, Afrika mintaqalarini tutashtirib turgan dengiz yo'llarini o'z nazoratiga kiritganligi bilan izohlaydi.

Davlatning dengiz kuchiga aylanishi bir qator parametrlar bilan belgilanadi. A.Mexen dengiz kuchida mujassam bo'lishi kerak bo'lgan quyidagi parametrlarni ko'rsatadi:

$$SP = N + MM + NB$$

ya'ni **SP** (Sea Power) - dengiz qudrati, **N** – harbiy flot, **MM** – savdo floti, **NB** – harbiy-dengiz bazalari (dunyodagi muhim nuqtalarda nazoratni o'rnatish)¹.

Ko'rinib turibdiki Mexenning dengiz qudrati bilan bog'liq harbiy strategik konsepsiyasi geosiyosiy xarakter kasb etmoqda, harbiy strategik konsepsiyadan dengizda hukmronlik qilish konsepsiyasiga aylanmoqda. Shuningdek dengiz qudrati faqatgina harbiy paytda emas, balki barcha jarayonlarda zarurligiga e'tibor qaratadi. Bunga erishish uchun kuchli flot tuzib urush taqdirini yirik dengiz jangida hal etish zarur. Mexenning bu ta'limotiga e'tiroz bildiruvchilar ko'p. Masalan, V.V.Jeltovning fikricha bu strategiya birinchi jahon urushida ham, ikkinchi jahon urushida ham biron davlatga, yoki koalitsiyaga muvaffaqiyat keltirmadi. Harbiy harakatlarda har doim ham flot xal qiluvchi rol o'ynayvermaydi. Ayniqsa bunday harbiy harakatlar xalqaro masshtabni egallagan bo'lsa. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak Mexenning harbiy dengiz strategiyasi zaif bo'lib chiqadi². Lekin unutmash lozimki, yirik natija u iqtisodiy sohadami, siyosiy sohadami, texnika sohasidami, harbiy sohadami aynan bitta omil sabab amalga oshmaydi. B.Isayevning fikricha, dengiz qudrati mustamlakalar bosib olishda, savdo va yuk tashishda, flot madadi bilan gegemonlikni qo'lga kiritishda o'zini oqladi³. Shu bilan birga yana shuni ta'kidlash lozimki AQSH ning har ikkala jahon urushidagi harbiy operatsiyalari asosan harbiy dengiz floti ko'magida amalga oshirildi va u davom etmoqda. Buning isbotini Afg'oniston, Iroq, Suriya, Liviyadagi harbiy harakatlarda ko'rish mumkin.

Mexen konsepsiyasida shuningdek birinchi bo'lib geosiyosiy tuzilishning umumsayyoraviy xaritasi berilgan. U jahon siyosatida muhim bo'lgan makon – “shimoliy yarim doira”ni quyidagi ko'rinishda chizadi, ya'ni “shimoliy yarim doira”ning janubiy chiziqlari Suvaysh va Panama kanallarini bir-biriga tutashtiradi. Suvaysh va Panama kanallari jahon savdosi va siyosiy munosabatlar davomiyligi va tadrijiyligini ta'minlab beruvchi o'ta muhim geosiyosiy nuqtadir. A.Mexen fikricha, bu ikki nuqta o'rtasidan Yevrosiyoga tutash yerlarda o'ta muhim bo'lgan borliq – dominant, kontinental kuch Rossiya joylashgan. Biroq Rossiyaning geosiyosiy joylashuvi bir tomondan qulayliklarga

¹ Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория. С 157

² Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория. С 157

³ Исаев Б.А. Геополитика. С 194-195

ega bo'lsa, ikkinchi tomondan bir qator geosiyosiy noqulayliklarga ham ega, deydi A.Mexen. U dengiz kuchlari masalasida AQSH ga Buyuk Britaniyaning vorisi sifatida qaraydi.

A.Mexen g'oyalari ko'pchilik siyosatchilarning diqqatini o'ziga tortdi va bir qator yevropalik strateglar dasturlariga o'z ta'sirini o'tkazdi. Hattoki, quruqlik va mintaqaviy kuch markazi bo'lgan Germaniya ham A.Mexen tezislarini e'tiborga olgan. Shaxsan nemis admirali Tirpitsa davlat harbiy dengiz qudratini kuchaytirishda Mexen tezislaridan keng foydalandi. Bundan tashqari, A.Mexenning asarlari XX asr mobaynida dunyoning ko'plab davlatlarida nashr qilingan. Shu jumladan, 1940 va 1941-yillari sobiq SSSR da ham uning ikkita kitobi chop etilgan.

AQSH harbiy dengiz floti zobitining geosiyosiy qarashlari birinchi navbatda Amerika va amerikaliklarning manfaatlarini himoya qiladi. Shuning uchun ham A.Mexen siyosatda prezident J.Monro (1758 - 1831) ilgari surgan doktrinani yoqlaydi. Biroq "Monro doktrinasini" avvaliga mintaqadagi davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va betaraflik siyosatini nazarda tutgan edi. Vaqt o'tishi bilan uning mohiyati o'zgarib avvalo mintaqaga keyin esa jahonga "hokimlik qilish" g'oyasi bilan yo'g'riladi ("Olni doktrinasini").

"Monro doktrinasini" 1823 yil 2 dekabrda AQSH prezidenti J.Monro tomonidan ishlab chiqilib, kongressga taqdim etilgan tashqi siyosiy konsepsiyadir. Mazkur konsepsiya G'arb yarim shari hududlarining "Yevropa kuchlari tomonidan kelajakda mustamlakaga aylantirilmasligi" lozimligini nazarda tutgan. Shuningdek bu hudud bilan bog'liq masalalar ilgari surilganda AQSH roziligi bilan amalga oshirilishi lozim edi. Bir so'z bilan aytganda AQSH G'arbiy yarim sharning "politsiyasi" ga aylandi.

Doktrina avvaliga o'zida boshqa davlatlar ishlariga aralashmaslik shukhi borligini namoyon etishga harakat qilgan. Biroq bunday nazariy mulohazalar amaliyotda boshqacha aks eta boshlagan. E'tibor bersangiz, "Monro doktrinasini" XIX asr oxiri va XX asr boshlarida panamerikanizm orqasida Amerika qit'asining birlashuvi uchun ekspansion xarakterni o'zida aks ettirgan. Aynan ushbu doktrina bayrog'i ostida AQSH ning Lotin Amerikasi mintaqasi davlatlariga nisbatan harbiy yurishlari shu vaqtga to'g'ri keladi¹.

"Olni doktrinasini" XIX asr oxiri-XX asr boshlarida G'arb yarim sharidagi jarayonlarga nisbatan AQSH davlat kotibi R.Olni tomonidan ishlab chiqilgan tashqi siyosiy dastur. Mazkur doktrina birinchi navbatda Amerika qit'asidan Yevropa kuchlarining chiqib ketishini, ularning mintaq davlatlari siyosiy hayotiga aralashmasliklarini yoqlaydi.

¹ «Монро доктрина», Дипломатический словарь. Т.2. М. изд-во "Наука". 1984. с.240

1895–96 yillar Janubiy Amerikada Venesuela va Buyuk Britaniyaga qaram bo‘lgan Gviana o‘rtasida chegara masalasida kelishmovchiliklar bo‘ladi. AQSH tomoni 1895 yilning 20 iyuldayoq Angliya diplomatik nota yuborib, Angliya va boshqa Yevropa davlatlarining mintaqadan chiqib ketishlarini talab qiladi. O‘sha notada har qanday Yevropa davlatlarining Amerika mintaqasiga mansub yerlarda o‘z nazoratini o‘rnatishi “muqarrar ravishda be‘manilik va tutruqsizlikdir”, deb qayd qilinadi¹.

Ana shu g‘oyalar A.Mexen qarashlari bilan uzviy bog‘liqdir. Uningcha, Amerika uchun "dengizdagi taqdir" o‘yini ikki bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda Amerika mintaqadagi integratsion jarayonlarni o‘z izmiga (strategik) mos tarzda amalga oshirishi va undan keyin jahonga "hokimlik qilish" uchun ikkinchi bosqichga ko‘tarilmog‘i lozim.

Garchi A.Mexen yashagan davrda AQSH jahonda yetakchi siyosiy kuch markazlaridan va "dengizdagi sivilizatsion imkoniyat"ga ega davlatlar qatoriga kirmasada, admiral kelajakda aynan AQSH yetakchi dengiz kuch markazlaridan biriga aylanib, dunyo taqdiriga albatta ta’sir o‘tkazadi, degan xulosaga keladi. "Shunday ekan, - deydi admiral 1897 yilda nashr qilingan "Dengiz qudratida Amerika manfaatlari" (The Interest of America in Sea Power) asarida, - Amerika jahonda yetakchi kuch markazi bo‘lishi uchun quyidagi amallarni bajarishi zarur, ya’ni ingliz harbiy floti bilan muntazam hamkorlik; nemislarning dengizdagi harbiy harakatlariga to‘sqinlik ko‘rsatish; Yaponiyaning Tinch okeanidagi bosqinchilik siyosatini xushyorlik bilan kuzatish va unga qarshi harakatlarni boshlash; Osiyo xalqlariga qarshi kurashda yevropaliklar bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish"².

AQSH ning kelajagini jahonning yirik davlatlari bilan jamiyat hayotining turli sohalari – iqtisodiy, siyosiy, harbiy, mafkuraviy sohalarda faol munosabatlar olib borishida tasavvur qiladi.

Mexen “Anakonda” tamoyilini planetar daraja olib chiqadi. “Anakonda” tamoyili amerika generali Mak-Klellan tomonidan 1861-1865 yillarda fuqarolar urushi davrida qo‘llanilgan edi. Unga asosan raqab turgan hudud ham quruqlikdan, ham dengizdan o‘rab olinishi, hamda iqtisodiy richaglar vositasida raqib xoldan toydirilishi lozim edi. Yevrosiyo kuch markazlariga (Rossiya, Xitoy, Germaniya) qarshi kurashish uchun u "anakonda" prinsipini³ keng miqyosda ularga qarshi tadbiq etish kerak deydi. Amaliyotda bu prinsip I-jahon urushida Antanta davlatlari ko‘magida Yevrosiyaning harbiy qirg‘oqbo‘ylaridan boshlangan bo‘lsa, II-jahon urushida bu harakat Markaziy Yevropa tomon suqilib kirdi.

¹ Дипломатический словарь. Т.2. М. изд-во "Наука". 1984. с.301

² Тихонравов Ю.В. Геополитика. М.2000., с 73

³ Bu amerikalik general Mak-Klellan tomonidan 1861-1865 yillar AQSH dagi fuqarolar urushida tadbiq etilgan bilib, raqibning dengizga tutash hududlarini va qirg‘oqlarini o‘rab olish yoki nazorat ostiga olish uchun markazning strategik nuqtalarida qo‘poruvchilik faoliyatini jadallashtirishni nazarda tutadi – *muallif izohi*.

Ilgari surilgan konsepsiyaning amaliy ko‘lami "sovuq urush" mobaynida AQSH va SSSR qarama-qarshiligi orqasida o‘zining muayyan yuqori bosqichiga ko‘tarildi. AQSH bu davrda Yevrosiyaning nafaqat harbiy-janubiy tomonidan, balki sharqiy qirg‘oqbo‘yi hududlaridan o‘zining "ittifoqdosh"larini topishga ulgirdi.

1949-yilda NATO ning tuzilishi va boshqa harbiy-iqtisodiy bloklar – ACEAN, ANZUS, CENTO singari tashkilotlarining tuzilishi va ular faoliyatida AQSH ning yetakchilik qilishi A.Mexen fikrlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amaliy isbotini topganligini ko‘rsatdi. Voqealar rivojining "atlantizm" nazariyasi¹ bilan bog‘lanishi A.Mexenni zamonaviy "atlantizm" oqimining "nazariy otasi" degan fikrni o‘rtaga tashlashga imkon beradi.²

A.Mexen geosiyosiy qarashlariga bugungi sharoitdan kelib chiqib yondashsak, albatta u ahamiyatini ham amaliyotda, ham nazariyada yo‘qotmagan. A.Mexenning barcha asarlari umumiy jihatdan bir mavzuga-"dengiz kuch markazlari" muammosini tadqiq etishga qaratilgan. Mexen konsepsiyasi geosiyosatda birinchi bo‘lib fanning nazariy-uslubiy jihatlarini amaliyot bilan bog‘lagan holda ma’lum bir tartibotga keltirishga zamin yaratdi.

5. X.Makinder geosiyosiy qarashlari. Xelford Makinder (1861-1947) ingliz geografi, geosiyosatchisi, Maxfiy kengash a‘zosi, geosiyosiy bilimlar rivojida muhim ahamiyat kasb etgan nazariyalar asoschisi hisoblanadi. Oksford universitetida ta’lim olgan. 1887-yilda mazkur universitetda o‘qituvchilik faoliyatini boshlagan. Olim 1899 yil Oksford geografiya maktabiga asos solgan. 1903-yildan 1908-yilgacha London iqtisodiyot maktabida direktorlik qilgan. 1910-1922-yillar Shotlandiya parlamenti a‘zosi bo‘lib, konservatorlar manfaatini himoya qilgan. 1919-1920-yillar Rossiyaning Janubida britan komissarligi vazifasini ham bajargan. 1922-1947-yillar esa Buyuk Britaniya imperiyasi davlat tuzilmalarida bir qancha komitetlarni boshqargan³.

Geosiyosiy bilimlar rivojida muhim ahamiyat kasb etgan qator ilmiy atamalarning kirib kelishi bevosita uning nomi bilan bog‘liq:

- Hearland – “Xartlend”
- Pivot Area – asosiy o‘lka
- Outer Crescent – tashqi yarim oy davlatlari
- Midland Ocean Area – ichki okean zonasi⁴.

Makinder o‘zi yashab ijod qilgan davrda Buyuk Britaniya tarixi bilan bog‘liq qator tarixiy davrlarning guvohi bo‘ldi. Unda Napoleon III boshqarayotgan qudratli

¹ Дипломатический словарь. Т.1. М. изд-во "Наука". 1984. сс.100-102

² Гушпер А. Стратегия нацбезопасности России на Юге. "Азия и Африка сегодня". №1. 1997. с.29

³ https://ru.wikipedia.org/wiki/Маккиндер,_Хэлфорд_Джон

⁴ Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория. С 157

Ikkinchi imperiyaning halokati, Bismarkning qator yorqin g'alabalari (Sedan jangi) chuqur taassurot qoldirdi. Makinder davrida Buyuk Britaniya imperiyasi o'z qudratining cho'qqisiga erishdi. Go'yoki Rim salatanati misoli uning hududlari Kanadadan Hindgacha cho'zilar edi. Versal tinchlik shartnomasidan keyin xalqaro maydonda AQSH ning kuchayishi, SSSR, fashistlar Germaniyasining kuchayishi bois Buyuk Britaniya o'z mavqeini boy berdi. Ilgarigi buyuklikdan faqatgina shirin xotira qoldi. Faqatgina nazariyotchi bo'lib qolmasdan Makinder Jamoa palatasida ham faoliyat olib bordi. Rossiyada fuqarolar urushi ketayotgan paytda oq gvardiyachi general Denikinning shtabida maslahatchi-prokonsul lavozimida faoliyat olib bordi. Shuningdek Versal tinchlik shartnomasi loyihasida uning qarashlari o'z aksini topgan.

X.Makkinder "Tarixning geografik o'zagi" (1904) asarida A.Mexenning dengiz kommunikatsiyasining ahamiyati borasidagi qarashlarini yanada g'oyaviy jihatdan to'ldirdi. Uningcha, tarixning har bir davri "dengiz" va "quruqlik"ni qo'lga kiritgan xalqlar o'rtasidagi doimiy konfliktdan iborat. Konfliktlarning o'chog'i jahon tarixiy voqealarining markazi bo'lgan Yevrosiyodir.

Xalqlarning tarixida, ularning iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyotida geografik makon, joylashgan o'rin muhim ahamiyat kasb etadi. X.Makkinder dunyoning butun geosiyosiy tarixini uchta asosiy davrga ajratgan:

1. Kolumbgacha bo'lgan davr. Yirik davlatlar shakllangandan to XV asr o'rtalarigacha bo'lgan davr. Bu davrda Jahon oroli chegara hududlarida istiqomat qiluvchi xalqlar markaziy hududlarda yashovchi ko'chmanchi xalqlarning doimo bosib olishlari tahdidi ostida yashaganlar. Masalan, rimliklar. Ular uchun tahdid manbasi hamisha varvarlar, xunlar, alanlar, parfiyaliklar va boshqalar bo'lib kelishgan.

2. Kolumb davri. XV asr oxiridan XX asr boshigacha bo'lgan davr. Bu davrda «ichki yarim oy»ga mansub davlatlar (qirg'oqbo'yi hududlari) hech qanday to'siqlarga uchramasdan Yer sharining boshqa hududlaridagi davlatlarni o'zlariga qaram qilishga urinishgan. Mustamlakachilik siyosati orqasida metropoliya va koloniyalar shakllangan.

3. Kolumbdan keyingi davr. Bu davrda bosib olinmagan yoki egallanmagan hududlar qolmagan. Mavjud sivilizatsiyalar turmush tarzi takomillashib borishi va ular o'rtasida to'qnashuvlar yuz berishi kuzatildi. YA'ni to'qnashuvlar asosida yer munosabatlari, undan foydalanish va shu kabilar muhim vosita hisoblanadi¹.

Uning nazarida, Yevrosiyaning qirg'oq bo'yidagi xalqlar hayoti XIX asr oxirlariga kelib susayadi. Xalqlar hayotidagi susayish o'rnini esa mintaqada istiqomat qilayotgan xalqlar turmush tarzining yuksalganligi bilan izohlaydi.

¹ http://knowledge.allbest.ru/political/d36_0.html

X.Makkinder I-jahon urushidan keyin 1919-yil e'lon qilgan "Demokratik ideallar va reallik" asarida geosiyosiy qarashlarini yanada takomillashtiradi. Ikkinchi esseda Yevropa, Osiyo va Afrika mintaqalarini "jahon oroli", Yevrosiyaning XVI asrdan beri yevropaliklar nazoratida bo'lgan qirg'oqbo'yi hududlariga nisbatan "jahon orolining burunlari" degan geografik atamalarni qo'llagan. Shu bilan birgalikda Yevrosiyaning "markazi" atamasi o'rniga u "Heartland"- "Asosiy o'lka" tushunchasini ilgari surgan.¹

Shu o'rinda aytish joizki, "Heartland" nazariyasi 1904-yil X.Makkinder tomonidan «Tarixning geografik o'zagi» asarida ishlab chiqilgan. Biroq olim bu asarida «heartland» atamasini qo'llamagan. "Heartland" atamasi 1915-yil ingliz geografi J.Feygriv tomonidan ilmiy doiraga kiritilgan. X.Makkinder asarlarini o'rganish asnosida Dj.Feygrivda aynan shunday g'oya tug'ilgan.

"Asosiy o'lka" geografik jihatdan juda katta kenglik bo'lib, Shimoliy Muz okeanidan to Osiyoga yo'nalgan hududlarni, Germaniya va butun G'arbiy va Shimoliy Yevropadan sharqqa Tinch okeanigacha bo'lgan makonni qamrab oladi. Bundan tashqari, olim yana bir yangi yondashuv - Adriatikadan (Venetsiyadan sharqda) to Shimoliy dengiz (sharqiy Niderlandiya)ga vertikal chizma tortib Yevropani ikkiga - Xartlend va Kauslend (qirg'oqbo'yi yerlari)ga bo'ladi. Sharqiy Yevropa esa bu ikki kenglik o'rtasida nobarqaror hudud sifatida namoyon bo'ladi.²

X.Makkinder shular asosida Sharqiy Yevropaning jahon siyosatini nazorat qilish uchun kurashlardagi o'rniga e'tibor berib quyidagi asosiy xulosaga keladi, ya'ni: "Kim Sharqiy Yevropani nazorat qilsa, butun "Heartland"ga hokimlik qiladi. Agar kim "Heartland"ni boshqarsa, butun Jahon oroliga hokimlik qiladi. Bundan kelib chiqadiki, kim Jahon orolini boshqarsa, butun dunyoga hokimlik qiladi".³

X.Makkinder ilgari surgan g'oya shundan iborat ediki, vaqti kelib jahon siyosati va tarixida Yevrosiyaning ichki kengliklari asosiy o'rinni egallaydi hamda dunyoga hokimlik qilishga da'vogar davlat albatta o'sha kengliklarni ham o'z izmiga olishi lozim. Shundagina uning strategik maqsadlari amaliyotda vojib bo'ladi.

X.Makkinder uchun "Heartland" - bu Rossiya va Germaniya, ularning ashaddiy dushmani esa Buyuk Britaniya. E.A.Pozdnyakov ta'kidlaganidek, konsepsiya "Heartland"da kuchlarning birlashishiga imkon bermasdan, kuchsiziga yordam berish hisobiga uni kuchliga ro'baro' qilishni yoqlaydi.⁴ Shunday ekan, ingliz professorining fikricha, dunyo hamisha ikki tomonga yo'naltirilgan yoki o'sha tomonlarni ma'qullovchi qutblarga bo'lingan. Jahonda an'anaviy qonuniyatga

¹ Дугин А. Основы геополитики. изд-во "Арктагея". М. 1997. с.44

² Lacoste Y. Questions de la Geopolitique. – Paris. 1988 // Цыганков П.А. Международные отношения. изд-во "Новая школа". М. 1996. с.158

³ Поздняков Э.А. Философия политики. Ч.2. М. 1994. с.246

⁴ Поздняков Э.А. Концепция геополитики // Геополитика: теория и практика. М. 1993. с.30

tayanib asosiy kuch markazlari o'zgarib turishi mumkin, ammo jahon davlatchiligi amaliyotida konflikt va konfrantatsiyalar doimiy bo'lib qolaveradi.

X.Makkinder ilgari surgan g'oyalar o'tgan yuz yil maboynida vaziyatdan kelib chiqib, ba'zi bir davlatlar tashqi siyosatining olib borilishida ma'lum darajada qo'l kelgan bo'lsa, ba'zilar tomonidan faqat nazariy fikrlar sifatida qaraldi.

Shunday qilib Makinder o'z asarlaridagi tadqiqotlar natijasida quyidagi konseptual g'oyalarni ilgari suradi:

1. Geografik omillar bevosita tarixiy jarayonlarning rivojiga, yo'nalishiga o'z ta'siri doimo o'tkazib boradi;
2. Har bir davlatning zaif yoki kuchli bo'lishi u joylashgan geografik makonning xususiyatlaridan kelib chiqadi;
3. Texnik progress davlatning geografik joylashviga o'z ta'sirini o'tkazib uning qudratiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi mumkin;
4. Yevrosiyo – global siyosiy jarayonlar markazidir.

Dunyoning geosiyosiy xaritasi Makinder fikricha uchta asosiy qismlardan iborat bo'ladi:

- Pivot Area – asosiy o'lka. Kaspiy va Orol dengizi havzalaridan Shimoliy muz okeani qirg'oqlarigacha bo'lgan hududlar;
- Outer Crescent – tashqi yarim oy davlatlari. Unga AQSH, Angliya, Yaponiya hududlari kiradi;
- Inner Crescent – ichki yarim oy. U o'z ichiga Xitoy, Janubiy-sharqiy Osiyo va Hindistonni oladi¹.

Oradan qancha vaqt o'tmasin Makinderning o'ziga xos ta'limoti o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Uning qarashlari qator geosiyosatchilarni, amaliyotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

6. K.Xausxofer va N.Spikmen ta'limotlarida davlat qudrati masalalari.
K.Xausxofer (1869-1946) Myunxenda aslzoda oilasida tug'ilgan. Uning otasi Myunxen Texnika universitetida professor lavozimida ishlagan. K.Xausxofer yoshligidan azaliy orzusi professional harbiy bo'lish edi. Shu sababli 1895-1897 yillar Bavariya harbiy akademiyasida tahsil oladi. 1899 yil esa to'liq harbiy sohaga o'tadi. K.Xausxofer nemis armiyasida ofitser bo'lib 20 yildan ko'proq xizmat qilgan. Ofitserlikning barcha darajalarida faoliyat ko'rsatdi. General-mayor unvonida harbiy xizmatni yakunlaydi. K.Xausxoferning geograf va geosiyosatchi bo'lib tanilishi uning German elchixonasining Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlaridagi diplomatik faoliyati va Yaponiyadagi attashesi (1908-1910) bo'lib ishlagan davrlarga to'g'ri keladi. Bu yerda yapon aristokratiyasi vakillari, jumladan imperatorning oilasi bilan yaqindan

¹ Нартов Н.А. Геополитика. М., 1999. С.57

tanishadi. Yapon harbiy qudratini, uning kelajagini tasavvur qila bildi. 1911-yilda Germaniyaga qaytadi va Myunxen universitetida ilmiy ishlar bilan shug'illana boshlaydi. 1913-yil o'zining birinchi kitobi "Buyuk Yaponiya" asarini yozadi. Mazkur kitob tadqiqotchining Yaponiya taassurotlariga bag'ishlangan bo'lib muallif Yaponiyaning, Tinch okeani mintaqasining geosiyosiy imkoniyatlariga ham keng to'xtalgan. Ushbu asarida o'z geosiyosiy konsepsiyasini ilgari suradi. Unga asosan Buyukbritaniyaga qarshi Germaniya, Rossiya, Yaponiya harbiy ittifoqini tuzish lozim edi. Biroq Rossiya-USmoniylar imperiyasi, Rossiya-Yaponiya o'rtasidagi manfaatlardagi qarama-qarshilik bunga imkon bermasdi.

K.Xausxofer fikrlarining haqiqatlilikini isbotlash uchun amerikaliklarning "anglosakson siyosati yo'q bo'lishi mumkin, qachonki nemislar ruslar va yaponlar bilan birlashsa" qabilida aytgan so'zlarini bayon etsada, nemis elitasi bunday fikrlarga e'tibor ham bermagan.¹ To'g'ri o'z vaqtida bu masalaga Bismark alohida e'tibor qaratgan. Uning Uchlar Ittifoqiga Rossiyani kiritishga urinishi qator sabablar bois amalga oshmagan. Shu bois nemis olimi ilgari surgan konsepsiya geosiyosat nazariyasida ba'zan "Sharqqa yuzlanish" - "Ostorientierung" deb ham ataladi. Faqat fashistlar "Sharqqa yuzlanish" ga boshqacha tus berishdi.

K.Xausxofer nemis xalqi va ular madaniyatining tarixiy ildizlarini Osiyoga - Yevrosiyoga bog'laydi va nemis madaniyatini butun Yevrosiyo madaniyatining g'arbona ko'rinishi sifatida talqin etadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, inglizlar II-jahon urishi davomida nemislarni "xunlar" deb ham atashgan. Bunday nomlanish xausxoferchi geosiyosat maktabi vakillari uchun juda ma'qul kelgan.²

"Ostorientierung" konsepsiyasi Germaniyadan sharqda istiqomat qilayotgan xalqlarni bosib olishga qaratilmagan. Balki keng geografik makonda ikki kuch - Germaniya va Rossiya yetakchiligida boshqa xalqlarga ham sivilizatsion munosabatda bo'lishini nazarda tutgan - "Yangi Yevrosiyo tartiboti"dan bahs etgan. K.Xausxofer nazarida "Yangi Yevrosiyo tartiboti" amaliyotda o'z aksini topsa, hech qanday "dengiz kuchlari" tahdidiga o'rin qolmas edi.³

Afsuski, nemis geosiyosatchisi ilgari surgan nazariy g'oyalar amaliyotda, aksincha, antiyevrosiyo ko'rinishida namoyon bo'ldi. Chunki nemis hukmron elitasi o'zini "quruqlikka oid" deb emas, balki avvalo "dengizlar hokimi" sifatida, keyin "quruqlik hokimi" va nihoyat kelajakda jahon "hokimi" bo'lishini muqarrar deb bildi. Biroq 1939-1945-yillardagi harbiy-siyosiy jarayonlar ular tuzgan rejalarining xom-xayoligini ko'rsatdi.

¹ Haushofer K. "Kontinentalblocke: Mitteleuropa - Eurasia - Japan" in "Ausgewahlte Texte zur Geopolitik". Voppar am Rhein. 1979 // русчаси - "Элементы" №7. op.cit. ss.32-36

² Дугин А. Основы геополитики. изд-во "Арктагея". М. 1997. с.72

³ o'sha joyda

Xausxofer maktabi vakillari an'anaviylikda ulardan oldin geosiyosatshunoslar tomonidan o'rtaga tashlangan Lebensraum - hayotiy borliq tushunchasini yoqlashgan. YA'ni ular davlatning rivojlanishi uning naqadar hayotiy kengliklarga egaligiga ham bog'likligini aytib, kuchli davlatchilikning ilk nishonasi iqtisodiy avtarkiyani (avtoritarizm) barpo etish va iqtisodiy jihatdan qo'shnilariga mute bo'lmaslik, deydi. Ko'rinib turibdiki, "tarixning asosiy o'zagi" - dengiz va quruqlik xalqlari o'rtasidagi konfliktlarning muqarrarligi borasida K.Xausxofer qarashlari X.Makkinder fikrlari bilan uyg'unlashgan.

Nemis olimi natsizm g'oyalari ustuvor bo'lgan jamiyatda yashasada, millatning geosiyosiy "tanlanishi" uning ma'lum bir irqqa mansubligiga emas, balki millatning qanday hayotiy borliqda joylashganligi bilan bog'lik ekanligini aytgan. Lekin uning "qulay hayotiy borliqda yashayotgan millatning tabiiy ravishda o'zining oliy darajadagi xislatlarini namoyon qilish uchun kurashishi kerak"ligi borasida aytgan fikrlari munozaralidir.

Keyinchalik fashistik harakat liderlari bo'lib yetishgan Rudolf Gess, Ribbentrop, Gibbels, Gimlerlar bilan bog'lanib turgan. Mag'lubiyatdan keyin harbiy sohani butunlay tark etishga qaror qiladi. Versal shartnomasi bandlari nafaqat Germaniya uchun shaxsan o'zi uchun ham haqoratli deb biladi. Va o'z faoliyati nemis davlatchiligi manfaatlarini himoya qilishga oid tadqiqotlarni boshlab yuboradi. Germaniyani qayta tiklash uchun Xausxofer fikricha aholi ko'chada geosiyosiy fikrlashni, uning daholari esa geosiyosiy faoliyat yuritishni bilishlari lozim¹.

Geosiyosat siyosiy faoliyatdagi eng yaqin va ishonchli yordamchidir. U yagona sterjnga ega emas, uning o'rganilmagan, ochilmagan qirralari, uslublari nihoyatda ko'pdir. U o'zida siyosiy faoliyat va geografik makon munosabatlarini ifoda etadi. Bir so'z bilan aytganda geosiyosat davlatning geografik aqlidir². 1928-yilda geosiyosatning ilmiy dasturini shakllantirishshga harakat qiladi. "Geosiyosat elementlari" to'plamida o'zining quyidagi qator xulosalarini ilgari suradi:

1. Geosiyosat siyosiy hodisalarni geografik makonga bog'liqligini aks ettiruvchi ta'limot.
2. Geosiyosat siyosiy makondagi organizmlarni, ularning tarkibini tahlil etishda fundamental geografiyaga, ayniqsa siyosiy geografiyaga tayanib ish yuritadi.
3. Siyosiy jarayonlarning borishi, erishiladigan natijalarni qator geografik omillar belgilab beradi. Albatta ularni inobatga olmaslik mumkin emas.
4. Geosiyosat davlatning geografik vijdoni bo'lib qolishi lozim.

Umuman olganda, agar XX asr 20-30 yillarida myunxenlik geosiyosatchilar maktabi jahonda yetakchi o'rinlarda turgan bo'lishiga qaramasdan, keyingi yillarda K.Xausxofer va uning o'quvchilari o'rtasida ham fikriy bo'linishlar yuzaga kelgan.

¹ Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория. С 105

² Элементы. 1997. №7. С 32.

Shunga qaramasdan geosiyosiy maktablar ichida Myunxen maktabi alohida o'ringa ega.

Nikolas Spikmenning geosiyosiy qarashlari. N.Spikmen (1893-1943) Amsterdamda tug'ilgan. Lekin Amerikada yashab ijod qilgan. Kaliforniya universitetini tugatgan. Jurnalist sifatida Yaqin Sharqning qator davlatlarida faoliyat yuritgan. Uning geosiyosiy ta'limotiga A.Mexen qarashlarining davomchisi sifatida qarash mumkin. N.Spikmen xalqaro munosabatlar nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Olim Yel universiteti qoshidagi xalqaro munosabatlar instituti professori, keyinroq esa mazkur institutni boshqargan. Avvalo shuni aytish etish joizki Spekmen geosiyosatga alohida fan sohasi sifatida emas, balki xalqaro siyosiy jarayonlarni tahlil etuvchi, unda o'ziga xos manfaatlarni ifoda etuvchi analitik metod sifatida qaraydi.

N.Spikmen 1944-yil yozgan asarida an'anaviy geosiyosiy qarashlardan kelib chiqib, Germaniya va Yaponiyaning urushda yengilish sabablarini ularga kontinental (SSSR va Xitoy) va dengiz (Angliya va AQSH) kuchlari koalitsiyasining qarshi kurashganliklari bilan bog'laydi.¹ Ammo bu vaqtda urush oxirlab, xalqaro kundalikda harbiy harakatlar olib borish strategiyasi emas, balki urushdan keyingi dunyoning yangicha tartiboti masalasi turardi.

II-jahon urushidagi tub burilishdan keyin 1943-yilda X.Makkinder o'zining uchinchi essisini nashr etadi. Bu vaqtda Germaniya ustidan SSSR g'alaba qozongach sovet davlati jahonda haqiqiy markaz bo'lishiga geosiyosatchilar o'rtasida shubha qolmagandi. Shuning uchun olim uchinchi essesda urushdan keyin kontinental (SSSR) va dengiz (AQSH, Angliya) kuchlari o'rtasida hamkorlikning yuzaga kelishidan, yetakchi davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda tabiiy resurslar omilining o'sishidan bahs etadi.

N.Spikmen Yevrosiyo markazi borasidagi X.Makkinder fikrlarini inkor qilib, kontinental (Yevrosiyo-SSSR) kuchning jahon hokimligiga erishuvi masalasiga gumon bilan qaraydi va yangicha geosiyosiy qarashlarini bayon etadi. U xalqaro siyosatda yuqori mavqega erishish yoki davlat manfaatlarining ustuvorligini ta'minlash uchun "Sharqiy Yevropadan to butun Yevrosiyogacha" bo'lgan makonni zabt etishga intilishni utopik g'oya ma'nosida qarab, bir vaqtlar X.Makkinder Yevrosiyoning "ichki yarim oyi" deb ta'riflagan mintaqaning geostrategik imkoniyatlarining katta ekanligini ta'kidlaydi.

Faqat N.Spikmen "ichki yarim oy"ga Yevropaning g'arbida Boltiq dengizini hamda Qora dengiz qirg'oqbo'ylarini ham qo'shgan va uni ingliz olimi atagan nom bilan emas, balki Rimland deb ataydi. Makinder formulasidan fvrqli ravishda N.Spikmenning konsepsiyasining mohiyati quyidagicha, ya'ni: "Kim «Rimland»ni

¹ Spykman Nicholas J. The Geography of the Peace. N-Y. 1944

nazorat qilsa, butun Yevrosiyoga hokimlik qiladi. Agar kim Yevrosiyoga hokimlik qilsa butun jahon kelajagini nazorat qiladi".

Agar X.Makkinder dunyoning markaziy makoni sifatida «xartlend»-Yevrosiyoni aytgan bo'lsa, N.Spikmen unga qarshi dunyoning markaziy makoni sifatida Yevrosiyaning g'arbdan janub bo'ylab sharqqa o'zangan qirg'oqbo'yi hududlarini ko'rsatadi. Va buni yuqorida aytganimizdek, "rimlend" deb nomlaydi. N.Spikmen ta'riflagan "rimlend" X.Makkinder nazaridagi "ichki yarim oy"dir. Shuning uchun N.Spikmenning geosiyosiy modeli "xartlend-rimlend" deb ham nomlangan. Ular o'rtasidagi farq shuki, X.Makkinder amerikalik tadqiqotchi singari "ichki yarim oy"ga markaziy strategik makon sifatida qaramagan.

N.Spikmen Amerika geosiyosiy harakatlarining asosiy yo'nalishini quyidagi ikki ko'rinish bilan bog'lagan va unga erishish uchun kurashish kerakligini ta'kidlagan:

- Germaniya va Yaponiyaning harbiy kuch sifatida namoyon bo'lib turishini saqlamoq lozim, biroq Yevrosiyoda SSSR-Xitoy ittifoqining shakllanishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Chunki ular o'rtasida ittifoqchilikning yuzaga kelishi kelajakda Angliya-Amerika-Yaponiya ittifoqining dunyoni boshqarish yo'lidagi harakatlariga yo'l bermaydi;

- Yevropaning birlashuviga yo'l bermaslik kerak. Qudratli Yevropa federatsiyasi oxir oqibat AQSH ning dunyodagi pozitsiyasini chegaralash va kuchsizlantirishga olib keladi. Amerikalik tadqiqotchining basharotlari AQSH tashqi siyosatida bugungacha o'z aksini topmoqda. II-jahon urushidan keyin Germaniya va Yaponiya harbiy kuch markazi sifatida o'z qudratlarini saqlab qola olmadi. Lekin keyinchalik AQSH vositachiligida o'z harbiy salohiyatini oshirmoqda. Yevropadagi integratsiya jarayonlariga mumkin qadar to'sqinlik qilmoqda (ukrain muammosi).

Spikmenning "Jahon siyosatida Amerika strategiyasi" (1944), "Jahon geografiyasi" (1944) asarlari olimning o'limidan keyin nashr etiladi. N.Spikmen asarlarida davlatning kuch-qudrati masalasiga katta o'rin ajratgan (o'z vaqtida A.Mexen ham bunga katta e'tibor bergan edi). Uningcha, davlat qudratini aniqlab beruvchi o'nta muhim omilni belgilab beradi:

- maydonining ustki qismi;
- chegaralarning tabiati;
- aholi miqdori;
- xom-ashyo zahiralarning borligi yoki ularga ega bo'lmaslik;
- iqtisodiy va texnologik taraqqiyot;
- moliyaviy qudrati;
- milliy birlik;
- ijtimoiy integratsiyaning darajasi;
- mamlakatdagi siyosiy barqarorlik;

▪ milliy g‘urur¹

Ko‘rsatilgan kriteriyalar davlatda mavjud bo‘lib, ulardan davlat siyosatida odilona foydalana olinsa davlat nafaqat kuchli bo‘lishi mumkin, balki o‘sha davlat jahon siyosatiga ta’sir o‘tkaza oladigan darajadagi global strategik va geosiyosiy kuch sifatidagi imkoniyatlarga egaligini ham namoyon qila olishi mumkin.

Xullas, N.Spikmen geosiyosiy qarashlarining ahamiyati yuqorida keltirilgan nazariy konsepsiyalar bilangina belgilanmaydi, balki geosiyosiy tafakkur tarixiga nisbatan yangicha munosabatlar bildirishning ilmiy doirada shakllanishiga hissa qo‘shganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Geosiyosatning tadrijiy taraqqiyotidan kelib chiqib, geosiyosiy konsepsiyalar borasidagi mulohazalarimizga quyidagi xulosalarni keltirishni lozim topdik:

1. Geosiyosiy konsepsiyalarni tahlil etishda ularni vujudga kelgan tarixiy makon nuqtai-nazaridan, shuningdek ular aks sado bergan zamon nuqta – nazaridan kelib chiqib tahlil etish, o‘rganish o‘rinli hisoblanadi.

2. Geosiyosiy nazariyalarda tabiiy-geografik omillar katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular davlatlarning tabiiy iqlimi, geografik joylashuvi, reliefi, hududi, fauna va florasi shuningdek siyosiy tuzumini, iqtisodiy va texnik taraqqiyotini o‘ziga qamrab oladi.

3. Geosiyosiy konsepsiyalarni dinamik xarakterdagi asosiy yo‘nalishlariga ilm, fan-texnika sohasidagi yutuqlar, undan kelib chiqadigan galdagi manfaatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi o‘n yilliklarga kelib fan-texnika sohasidagi qator yutuqlar bois qutblarni, gidrosferani, kosmosning o‘zlashtirilishi borasida o‘ziga xos raqobat maydoni hosil bo‘la boshladi.

4. Xalqaro maydondagi huquqiy normalarning obyektiv xarakteri, mavjud ijtimoiy-siyosiy tartibot, dunyoning mafkuraviy manzarasi va uning negizida kechayotgan jarayonlar geosiyosiy konsepsiyalar rivojiga ta’sir etmasdan qolmagan va qolmaydi.

5. Geosiyosiy konsepsiyalar rivoji, asosiy yo‘nalishlari haqida gap borganida subyektivizm omilini hisobga olmaslikning imkoni yo‘q. Har bir geosiyosiy konsepsiya, ta’limot, geosiyosiy maktab o‘zi vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy makon manfaatlarini o‘zida ifoda etib keladi.

6. Kuchlar balansi haqida fikr borganida quruqlik yoki dengiz omili nuqtai nazaridan yondashish allaqachon eskirdi. Insoniyat suv usti, suv osti, qutblar, atmosfera, kosmos, galaktika sohalarini o‘rganish va o‘zlashtirishga kirishdi. Shunday ekan "Tellurokratiya" ga yoki "talassokratiya" ga ko‘rinishidagi imkoniyatni tarixiy taraqqiyotning asosiy o‘zagi sifatida emas, balki uning ma’lum bir qismi tarzida qarash, tahlil qilish lozim.

¹ Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория. С 105

Tayanch soʻz va iboralar:

Geosiy munosabatlar va kuchlar balansi, rimlend, xartlend, "tellurokratiya", "talassokratiya", toposiyosat, morfosiyyosat, fiziosiyosat, ekosiyosat, demosiyosat, kichik yarim oy, katta yarim oy, demografik omillar.

Mavzuni tustahkamlash yuzasidan savollar:

1. Geosiyosiy davrlarni aniqlang?
2. F.Ratselning «Siyosiy geografiya» asarida davlat va borliq masalalari qanday ahamiyat kasb etgan?
3. R.Chellen «geosiyosat» atamasining asoschisi sifatida xizmati nimadan iborat?
4. Chellen siyosatshunoslik qaysi boblarining rivojiga hissa qoʻshdi?
5. Davlatning asosiy fizik-geografik belgilari nimalardan iborat?
6. X.Makinder tomonidan yaratilgan siyosiy tarixning original va inqilobiy gʻoyalari?
7. Spiyekmen davlat qudratini belgilovchi qaysi omillarni ishlab chiqdi?
8. Xartlend va rimlend atamalarini izohlang?
9. Geosiyosiy konsepsiyalar yoʻnalishini belgilovchi omillar?

4-Mavzu: ROSSIYADAGI GEOSIYOSIY OQIMLAR VA MAKTABLAR

Reja:

1. Rossiyadagi geosiyosiy davrlar va geosiyosiy jarayonlar rivoji.
2. Messianlik, gʻarbchilik, slavyanofil harakatlari va ularning geosiyosiy xususiyatlari.
3. Petr Savitskiyning geosiyosiy konsepsiyasi.
4. Evrosiyo harakatining shakllanishi va tarqalishi.

1. Rossiyadagi geosiyosiy davrlar va geosiyosiy jarayonlar rivoji. Rossiya ulkan hududga ega mamlakat. U bir tomondan Yevropaga, ikkinchi tomondan Osiyo davlatlariga, cheksiz Sibir oʻrmonlariga tutashib ketadi. Unda qadimdan rang-barang xalqlar, turli sivilizatsiya vakillari, din vakillari yashab kelgan. Bu xalqlar milliy davlatchilik, fan va madaniyat rivojiga oʻziga xos hissa qoʻshishgan. Rossiyadagi geosiyosiy jarayonlar rivojida quyidagi davrlarni koʻrsatib oʻtish mumkin:

Vizantiya davri. Gʻarbiy Yevropada geosiyosiy jarayonlarni davrlashtirishda baʼzi tadqiqotlarda antik dunyo davri alohida davr sifatida koʻrsatiladi. Bu davrda oldiniga Yunon davlati, keyinchalik Rim davlati oykumenada hal etuvchi rol oʻynab

kelgan. Ular tomonidan yaratilgan sivilizatsiya ularga qo'shni xalqlar jumladan slavyanlarning yuksalishiga ham muhim ta'sir etgan. Vizantiya madaniyati slavyanlarning ijtimoiy hayotiga muhim ta'sir ko'rsatdi. Ushbu aloqalar ta'sirida mamlakat xristianlikni qabul qildi. Slavyanlar o'z yozuvlariga ega bo'lishdi. Yevropa davlatlari bilan ijtimoiy-siyosiy sohada, savdo-sotiqda faollashuv boshlandi.

Kiyev Rusi davri. Rus davlatchiligi taraqqiyotida Kiyev Rusi geosiyosiy davri muhim ahamiyat kasb etdi. 882 yilda knyaz Oleg tomonidan Novgogrod va Kiyev birlashtirildi. Bu davlatning tashkil etilishi bilan qator geostrategik vazifalar o'z yechimini topadi: rus xristianlikni qabul qildi; shimoliy, janubiy, sharqiy slavyanlar alohida davlatga birlashtirildi; davlatning hududi kengayib aholisi oshib bordi; Yevropaning ilg'or davlatlari bilan munosabatlar yo'lga qo'yildi va shu kabilar. Kiyev Rusi Yevropaning alohida tarkibiy qismi sifatida faol savdo, madaniy hamkorlikni olib bordi.

Oltin O'rda davri. XIII asrning 20-yillaridan Rusga mo'g'ul-tatarlar hujumi boshlandi. 1240 yilda Kiyev bosib olindi. Ushbu voqeadan keyin Rusda Oltin O'rda davri boshlandi va u o'z ichiga 1240 yildan XV asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrni oldi. Ma'lumki Oltin O'rda ma'murlari ruslarning ijtimoiy hayotiga mutlaqo aralashmagan. Ular yilda bir marotaba yasoq (soliq) undirib olishgan. Salkam uch asr davom etgan bu davrdagi o'ziga xos ahamiyatli hodisa sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: aholining tinchligi, omonligi asraldi; aholining etnik o'ziga xosligi asrab qolindi; xristian dini qadriyatlari, boyliklari asraldi; milliy davlatchilik institutlari, o'ziga xos boshqaruv shakli saqlab qolindi; mustaqil tashqi aloqalar yo'lga qo'yildi va sh.k.

Buyuk Moskva knyazligi davri. Rus yerlarini qayta birlashtirishda, mustaqillikni qo'lga kiritishda asosiy muhim bo'g'inni Moskva knyazligi o'ynadi. Va shu davrdan Buyuk Moskva knyazligi davri boshlandi. Bu davrda mamlakat mustaqilligi mustahkamlanib bordi, hududi ancha kengaydi. G'arbiy Sibir qo'shib olindi, keyinchalik Sharqiy Sibir qo'shildi. Rossiya sharqda tinch okeani sohillariga chiqdi.

Romanovlar davri. Navbatlagi to'rtinchi geosiyosiy davr 1682 yildan Pyotr I podshiligi bilan boshlandi. O'tkazilgan qator islohotlar, olib borilgan g'olibona urushlar Rossiyaning mavkeini oshirdi. Mamlakat shimolda Boltiq bo'ylarini qo'lga kiritdi. Rus harbiy flotiga asos solindi. Pyotr I (1682-1725), Yekaterina II (1762-1796), Aleksandr I (1801-1825), Nikolay I (1825-1855), Aleksandr II (1855-1881) hukmronligi davrlari muhim geosiyosiy ahamiyat kasb etdi. Napoleon boshchiligidagi fransuz imperiyasini tor-mor etishda, Vena kongressidan keyin Yevropada yangicha tartibot tashkil etishda Rossiya faol ishtirok etdi. Nikolay I davrida Eron va Usmoniylar imperiyasi bilan olib borilgan urushlar oxir-oqibatda Yevropa davlatlari bilan urush harakatlarini keltirib chiqardi. Mamlakat izolyatsiya

holatiga tushib Qrim urushida (1853-1856) magʻlub boʻldi. Xalqaro maydonda mavqeini tiklash uchun Alyaskani sotishga toʻgʻri keldi. Birinchi jahon urushi Rus imperiyasi uchun tarixda oxirgi jang boʻldi.

Sovet davri. Galdagi geosiyosiy davr - Sovet davri (1917-1991) hisoblanadi. Xarakterli xususiyatlari sifatida quyidagilarni eʼtirof qilish mumkin: urushda xonavayron boʻlgan sanoatni tiklash; qishloq hoʻjaligini jamoalashtirish; mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash; jahon inqilobi, kommunizm bayrogʻi ostida ekspansiya olib borish, fashizm ustidan gʻalaba; Sharqiy Yevropaning ozod etilgan davlatlarida kommunistik rejimlarni barpo etish; Varshava Shartnomasi tashkilotining barpo etilishi; Afgʻoniston urushi va shu kabilar. Noinsoniy gʻoyalar ustiga qurilgan bu tizimning faoliyati fojeali yakun topdi. Belovej shartnomasidan keyin Sharqiy Yevropa ap sobiq ittifoq hududida qator davlatlar vujudga keldi.

2. Messianlik, gʻarbchilik, slavyanofil harakatlari va ularning geosiyosiy xususiyatlari. Rossiyadagi geosiyosiy jarayonlar rivoji shuni koʻrsatadiki mamlakatning kengaytirish faqat qoʻshni davlatlar, tutash yerlar hisobiga amalga oshirildi. Bu qoʻshib olingan yerlar ahaolisi xristanlikka oʻtkazildi, aholisi ruslashtirildi, yangi hududlarga markazdan ruslarni koʻchirib keltirish siyosati yurgizildi. Bu hududlar keyinchalik Rossiyaning tarkibiy qismi sifatida eʼtirof etildi. Hech qachon dengizlar osha mustamlakachilik yurishlari olib borilmadi. Mana xususiyatlari bois rus mustamlakachiligi ingliz yoki fransuz mustamlakachiligi tizimidan keskin farqlanadi. Davlat oʻz hududlarini kengaytirdi, uning yaxlitligini saqlab bildi. Solnomachi Nikon “Tarixiy solnomalar” asarida (baʼzi manbalarda bu asarning muallifi nomaʼlum deyishadi) velikorus xalqlariga ularga tutash viloyatlarda istiqomat qmlayotgan xalqlarni qoʻshib yuborish gʻoyasni ilgari suradi. Buyuk Rus davlatini tashkil etishda ekspansiya usulini oqlab chiqadi. “Igor jangnomasi” da esa yangi tarkibiy tartib, yangicha model – shelomyan modeli ilgari suriladi. Unda Rus deya atalmish buyuk umum orol qator mayda orollardan iborat boʻlishi ilgari suriladi. Asarda dastlabki model Buyuk Rusni barpo etishda ekspansiya metodini ilgari sursa, ikkinchisiga asosan mahalliy hukmdorlar mustahkam integratsiyaga intilishlari bois amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Albatta keng makonlarni egallash, ularni yaxlitligini taʼminlash faqatgini harbiy yoki siyosiy vositalar bilangina emas, balki maʼnaviy vositalar bilan ham mustahkamlanishi darkor. Albatta aholining bunday hatti-harakatlarida diniy omillar, Oliy borliqning madadi, undan yordam soʻrash, uning koʻrsatmalariga soʻzsiz itoatda boʻlish kabi koʻnikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday bir davrda messianlik harakati vujudga keldi va maʼlum darajada rus geosiyosiy harakatining tarkibiy qismiga aylandi.

Shu tariqa XV-XVI asrlari oraligʻida “Moskva – Uchinchi Rim” panprovaslav messianlik gʻoyasini oʻziga singdirgan geosiyosiy harakat boshlandi. Bu gʻoya Rus

provaslav cherkovi tashabbusi samarasi edi. Rus provaslav cherkovi Konstantinopol cherkoviga bo'ysunib kelgan. Vizantiya imperiyasi keyingi yillarda zaiflashib qolganligi bois turklarga qarshi kurashda dosh bera olmay qoladi. Natijada G'arb mamlakatlaridan turklarga qarshi kurashda harbiy yordam olish uchun Konstantinopol cherkovi Rim-katolik cherkovi bilan Florensiya uniyasini imzolaydi. Unga asosan Rim papasi barcha xristian cherkovlari boshlig'i bo'lishi belgilangan edi. Rus provaslav cherkovi o'ziga o'zi boshliq tayinlaydigan mustaqil (avtokefal) cherkovga aylanadi. 1453 yilda Vizantiya imperiyasi quladi. Unga G'arbdan deyarlik hech kim yordamga kelgani yo'q. Vazantiya qulagach Moskva podsholigidan tashqari bironta mustaqil provaslav davlati qolmadi. Vizantiya so'ngi imperatorining ukasi Foma Paleolog Rimdan boshpana topadi. Rim papasi Pavel II Fomaning qizi Sofiyani Rus knyazi Ivan III ga turmushga berish tashabbusi bilan chiqadi. Papaning maqsadi nikoh yo'li bilan Rusni Florensiya uniyasiga qaytarish edi. 1472 yilda bo'lib o'tgan nikoh Rim papasining rejalarini amalga oshishiga xizmat qilmadi. Rus knyazining Vizantiya imperatori xonadoni vakiliga aylanishi, qolaversa knyazning g'ayratliligi, uddaburonligi Rusda monarxiyaning kuchayishiga olib keldi. Buyuk knyaz Vizantiya imperatorining valiahdi, provaslav dunyosining boshlig'iga aylanadi.

XVIII asr oxirida bo'lib o'tgan fransuz inqilobi, 1812-1815 yillarda olib borilgan Napoleonga qarshi harbiy harakatlar bois Yevropa bilan olib boriladigan o'zaro munosabatlar, ularning ta'sirini anglash, tahlil etish masalasi yuzaga keldi. Shu bois bu davr ijtimoiy-falsafiy tafakkurida bir-biriga zid ikki xil oqim yuzaga keldi. Birinchi oqim G'arbachilik harakati. Bu harakatning vakillari asosan Piterburgliklar edi: Gersen A.I., Kavelin K.D., Stankevich N.V., Ogarev N.P., Belinskiy V.G., Turgenev I.S., Chaadayev P.YA va boshqalar edi. Rus filosofi N.Losskiy yozishicha P.Chaadayev xattoki provaslaviyani katoliklik bilan almashtirish zarurligini ilgari surgan¹. Ikkinchi oqim slavyanofil harakati edi. Bu oqim vakillari asosan Moskvada yashashgan: Xomyakov A.S., Kireyevskiy I.V., Samarin Y.F. va boshqalar. Ularning qarashlarida farq va xususiyatlar nimada edi?

G'arbachilik harakati vakillari ilgari surgan ta'limotlarda aytilishicha Rossiyaning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti umuminsoniy taraqqiyot kontekstida borishi lozim edi. Ularning idealicha eng yuksalgan o'lka, insoniy huquqlar ta'min etilgan, ilm-fan rivojlangan makon G'arbiy Yevropa edi. Rossiya G'arbiy Yevropadan ortda qolayotgan ekan bu qoloqlikka barham berish zarur. Pyotr I davridan boshlangan yuksalishni, g'arbona islohotlarni izchillik bilan davom ettirish lozim. Rossiya oldidagi muhim vazifa qoloqlikka, mustabidchilikka, jaholatga, bid'atga, Osiyocha turmush tarziga chek qo'yish zarur. Yevropadagi qator burjua inqiloblarning mag'lub bo'lishi, ayniqsa ularni tor-mor etishda rus armiyasining faol ishtiroki

¹ Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика., С259

g'arbchilik harakati vakillarining harakat dasturlarini o'zgartirishlariga olib keldi. Ular ijtimoiy-siyosiy yuksalgan, inson huquqlari ta'minlangan, hurfiylik, demokratik qadriyatlarni qaror topishini ta'minlashda radikalizm, keyinchalik terror yo'lini tutishdi.

Slavyanofilchilik harakati vakillari umuminsoniyatga xos bo'lgan umumiy tamoyillarni, qadriyatlarni rad etishgan. Ular rus xalqining milliy o'ziga xosligi, madaniyati, tilining sofliqi, milliy turmush va tafakkur tarzini asrash uchun kurashishgan. Ularning fikricha rus madaniyatining o'ziga xosligiga eng katta zarbani Pyotr I bergan. Ular G'arbiy Yevropa bilan chuqur integratsiyani har doim qoralab chiqishgan. Ayniqsa Qrim urushidagi mag'lubiyatdan keyin slavyanofilchilik harakati avj ola boshladi. Negaki mag'lubiyatdan, uning haqoratli sulh bitimlaridan keyin G'arbg'a nisbatan adovat kuchaydi. Bu harakatning mashhur vakillaridan A.I.Koshelevning yozishicha hatto Rusning cho'qintirilishi ham sof diniy maqsad-manffatlardan kelib chiqmagan. Shu bois u slavyanofilchilik rusning xristianlikka o'tishiga ham qarshi degan fikrni ilgari suradi¹. Slavyanofillarning maqsadi rusning o'ziga xos yo'lini topish, o'ziga xosligini ko'rsatishga intilish edi. O'ziga xos madaniyatni, turmush tarzini yuksaltirishdan maqsad xalq begona yo'lga ergashmasin. O'ziga xos madaniyatni, turmush tarzini boshqalarga ko'rsatish, yuksak bo'lmasada, u haqqoniy madaniyat² hisoblanadi. Shu bilan birga alohida ta'kidlash joiz bo'lardiki slavyanofillar demokratik qadriyatlarni, parlamentarizmni yoqlab chiqishmagan. Ular rus samoderjaviyesini (monarxiya), podshoga berilgan cheksiz hokimiyatni mustahkamlash tarafdori edi.

3. Petr Savitskiyning geosiyosiy konsepsiyasi. Rus geosiyosatshunosligining nazariy asoslari Petr Nikolayevich Savitskiy nomi bilan bog'liq deyish mumkin. Petr Savitskiy 1895 yilda dunyoga kelgan. Birinchi rus geosiyosatchisi. O'z vaqtida V.Vernadskiy va P.Struvelarning o'quvchisi, shogirdi bo'lgan. P.Savitskiy dunyoqarashining takomillashib borishida slavyanofilchilik (A.S.Xomyakov, aka-uka Kireyevskiylar, Aksakovlar, Y.F.Samarin) harakati vakillarining ta'siri katta bo'lgan. 1916-1917-yillarda Rossiyaning Norvegiyadagi elchixonasida xizmat qilgan. Fuqarolar urushi davrida general Vrangel shtabila tashqi ishlar vo'mitasini boshqargan. Mag'lubiyatga uchrashgach oldin Bolgariyada, keyin Chexoslovakiyada yashagan. 1921-yildan knyaz N.Trubetskiy bilan hamkorlikda yevroosiyochilik harakatini boshqargan.

1945-yil sovet qo'shinlari Pragani egallagach, P.Savitskiy ham shu yerda hibsga olinib 10 yilga ozodlikdan mahrum etiladi. P.Savitskiy qamoqxonada N.Gumilevning o'g'li Lev Gumilev bilan tanishadi. Ular o'rtasida nafaqat do'stona

¹ Кошелев А.И. Записки. С25.

² Исаев И.А. Золотухина Н.М. С.233-234

munosabat, balki ijodiy almashinuv ham bo'lgan. Kichik Gumilev P.Savitskiyga shogird bo'ladi. Bilamizki, keyinchalik L.Gumilev taniqli rus etnografi va tarixchisi bo'lib yetishadi.

1956-yil P.Savitskiy oqlanadi. U SSSR dan Pragaga qaytadi va o'sha yerda umrining qolgan o'n ikki yilini yashaydi. 1968-yil esa olamdan o'tadi.

Mashhur asarlari: «Dasht va o'troqlik» (1922), «Rossiya-Yevrosiyaning geografik tahlili» (1926), «Yevrosiyaning geografik va geosiyosiy asoslari» (1933).

P.Savitskiy geosiyosiy qarashlarida Rossiyaning geografik joylashuviga katta e'tibor berilgan. Tadqiqotchining fikricha, Rossiya jahon siyosiy xaritasida joylashuvi jihatidan sivilizatsion shaklga ega. Davlat nafaqat geografik qulay makonda joylashgan, balki uning hududlari jahon geosiyosiy maydonida «o'rtaliq» makonni tashkil etadi.

P.Savitskiy 1933-yilda yozgan «Yevrosiyaning geografik va geosiyosiy asoslari» nomli maqolasini quyidagicha boshlagan, ya'ni «Yevrosiyoda Rossiya Xitoyga nisbatan keng imkoniyatlarga ega. Chunki Rossiya «O'rtaliq davlat»dir»¹

To'g'ri, klassik geosiyosatda «o'rtaliq» davlat sifatida Germaniya qayd qilingan. Biroq, P.Savitskiy Germaniyani Yevrosiyoga nisbatan «o'rtaliq» davlat sifatida tan olmaydi. Faqat u Germaniyani G'arbiy Yevropa mintaqasining markazi deb biladi. Chunki Yevropa Yevrosiyo emas, balki Yevropa Yevrosiyaning «g'arbiy burni» xolos. Rossiya esa Yevrosiyo borlig'ining butun markaziy va tarkibiy qismini tashkil etadi.

P.Savitskiy Rossiyaga milliy davlat sifatida qaramaydi. U Rossiyaga geosiyosiy omillardan kelib chiqib munosabat bildiradi va uni birinchi navbatda geosiyosiy kuch deb biladi. Rossiya oriy-slavyan madaniyati, turk ko'chmanchilik va pravoslav an'analarini mujassamlashtirgan o'ziga xos sivilizatsiya ekanligini va mazkur madaniyatlar «o'rtaliq» makonda jahon tarixining sintezi sifatida shakllanganligini ta'kidlaydi.

P.Savitskiy tarixan rus madaniyatining takomillashishi va rivojlanishini «imperiya aylangan sharqiy slavyanlar»ning harakatlari bilangina bog'lamaydi. Uningcha, rus davlatchilik madaniyatining rivoji slavyan va turk madaniyatining o'zaro munosabatga kirishuvi davriga bog'liq (XIII-XV asrlar). Bu jihatdan uning Turon konsepsiyasiga to'xtalmoq o'rinlidir.

To'g'ri, Turonga geosiyosiy makon sifatida ijobiy jihatdan yondashgan ko'plab tadqiqotchilar rus millatchilarining tanqidiga duch kelishgan. Chunki aynan Turon geosiyosiy makoni orqali mug'ul-tatarlar Rossiyaga unutib bo'lmaydigan darajada zulm berishgan. P.Savitskiy esa mug'ul-tatarlarning o'z davlatini bo'ysindirganligini mohirona ma'qullaydi va unchalik tanqidchilar nigohiga tushmaydi. Chunki «Rossiya mug'ul-tatarlarning kelishi bilan kelajakdagi geosiyosiy erkinligini va ruhiy mustaqilligini roman-german agressorlaridan saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ldi». Bundan xulosa qilish

¹Савицкий П. «Географические и геополитические основы евразийства», «Элементы», №3, сс.51-54.

mumkinki, agar mug‘ul-tatarlar Rossiya yerlarini bosib olmaganda vaqti kelib ham Rossiya buyuk imperiyaga aylana olmas edi. YA’ni P.Savitskiy tatarlar bosqinchiligining davriyligi oldindan ma’lum bo‘lganligiga ishora qilmoqda. Turk dunyosiga nisbatan bunday munosabat tadqiqotchiga Rossiyaning Yevropa makoniga mansub emasligi va ruslarning o‘ziga xos etnik tarkib ekanligini ilmiy doiraga olib chiqishga imkon berdi. Shuning uchun ham P.Savitskiy chiqishlarida makonga nisbatan umumiy Yevrosiyo deb emas (garchi u yevrosiyochilar oqimiga mansub bo‘lsada), balki Rossiya-Yevrosiyo qabilida mulohazalarini bildirgan.

P.Savitskiy o‘zining «Dasht va o‘troqlik» nomli mashhur maqolasida yevrosiyochilar uchun nazariy asos bo‘lgan «Yevrosiyoda tatarlarsiz (turklarsiz) buyuk Rossiya davlati bo‘lmas edi», - degan geosiyosiy formulasini o‘rtaga tashlagan.

Mazkur maqolada yana quyidagi jumlar ham bor, ya’ni: “Rossiya Osiyoni birlashtirishga erishgan Chingizxondan to Temurgacha bo‘lgan Buyuk Xonlar vorisidir... Bunda bir vaqtning o‘zida tarixiy “o‘troqlik” va “dashtlar” munosabatlari mujassamlashgan».

Turon (forscha so‘z, ya’ni turkiylar demakdir) – turkiy qavmga mansub xalqlar yashaydigan geografik makonni bildiradigan ijtimoiy, tarixiy-etnik atama. Turon hududan faqat geografik emas, geografik-tarixiy talqinga ega. Turon hududi Tinch okeanidan O‘rta yer dengizidagi Egey-Adreatikagacha, Shimoliy muz okeanidan Tibet, Himoloy tog‘larigacha, shimoliy Hindistondan Onado‘ligacha (Turkiya) bo‘lgan kengliklarni, u yerlarda yashovchi turkiy xalqlarni birlashtiradi.

Agar slavyanofillar rus landshaftini geografik jihatdan o‘rmon va dashtga bo‘lishgan bo‘lsa, P.Savitskiy Rossiya-Yevrosiyaning geosiyosiy mohiyatidan kelib chiqib makonni Yevropa o‘rmonlari va Osiyo dashtlariga bo‘ladi. Rossiyaga esa o‘sha geosiyosiy makonlarning sintezi sifatida qaraydi.

Albatta, geografik jihatdan Turon Rossiya-Yevrosiyoga mos kelmaydi. Rossiya-Yevrosiyaning ko‘lami keng. Biroq P.Savitskiy ana shu kenglik Turon orqali yuzaga kelganligini ta’kidlaydi, xolos. Bu tomondan Rossiyaga Yevropada ba’zan “mug‘ul ruhini tashuvchi” «varvarlar» sifatida qarashadi. Vaholanki, bunday qarashlar “Yevrosiyoni o‘z izmiga ololmay kelayotgan” G‘arbning – talassokratiya kuchlarining o‘z manfaatlari yo‘lida bildirgan subyektiv qarashlaridan boshqa narsa emas.

P.Savitskiy ijodining tarkibiy qismi yana bir konsepsiya – “rivojlanish o‘chog‘i” konsepsiyasi bilan bog‘liq. “Rivojlanish o‘chog‘i” F.Ratsel “Siyosiy geografiya” asarida sharhlangan “Raum”-“borliq” tushunchasi bilan mohiyatan to‘g‘ri keladi. Bunda nemis “organitsistik” maktabiga mos keluvchi hamda aglosakson geosiyosatchilarining voqealarni faqat tashqi bog‘lanish va izchilligiga qarab tasvirlovchi qarashlari-pragmatizmiga zid bo‘lgan yevrosiyochilarning «organitsistik» kayfiyatlari o‘z ifodasini topgan.

“Rivojlanish o‘chog‘i” - bu Rossiya-Yevrosiyo. Makonda ijtimoiy-siyosiy muhit va uning hududidagi geografik individuum (landshaftlar) o‘zaro uyg‘unlashgan. “Rivojlanish o‘chog‘i” ning yuksalishiga nafaqat geografik, balki u bilan barobarida etnik, tarixiy, xo‘jalikka va boshqa ko‘rinishlarga ega bo‘lgan asoslar mavjud. Bu jihatdan “Rivojlanish o‘chog‘i”ni yaxlit “Grossraum” sifatida emas, ko‘plab mayda “raum”lardan tashkil topganligini aytmoq lozim.

P.Savitskiy geosiyosiy qarashlarida “Yevrosiyo”, “Turon”, “Rivojlanish o‘chog‘i” nazariyalaridan tashqari, “ideokratiya” prinsipi ham alohida o‘ringa ega. Ideokratiya ham boshqa geosiyosiy dasturlar singari “kuch” tushunchasini o‘zida mujassam etadi. Masalan, geosiyosatda davlat yoki xalqaro tashkilotlarni umumiy qilib “kuch” deb atashimiz mumkin. Ideokratiya bunga qarama-qarshi qo‘yilgan emas.

P.Savitskiyning ideokratiya nazariyasi kuch - davlatdagi siyosiy tuzilishga bag‘ishlangan. Ideokratiya shunday prinsipki, unda davlat boshqaruvida pragmatik yondashuv yoki moddiy va tijorat omillari asosiy o‘rin egallamasligi kerak. Chunki har bir davlatda “geografik shaxs”lar mavjud. “Geografik shaxslar” - bu o‘sha davlat fuqarolari, davlatning tabiiy resurslari, davlatdagi ishlab chiqarish korxona va xo‘jaliklari va b. Geografik makondagi “geografik shaxslar” jamiyat moddiy ehtiyojlarini ta‘minlab beradi.

Biroq ideokratiya geosiyosiy prinsip sifatida bir tomonlama xarakterga ega. Chunki u nomaterialistik dalil-isbotlarga asoslanib qolmasdan, boshqaruvning nodemokratik va noliberal jihatlarini ham o‘zida mujassam etgan.

Umuman P.Savitskiy qarashlari Rossiya-Yevrosiyo g‘oyasini ilgari surganligi yoki Rossiyani “taraqqiyot o‘zagi” sifatida tavsiflagani uchun emas, xalqaro miqyosda amaliy tijorat munosabatlarini ham ma‘qullamaganligi bilan X.Makkinder, A.Mexen, N.Spikmen va boshqa klassik geosiyosatshunoslar tafakkuriga qarama-qarshidir. Shunday qilib, rus yevrosiyochilari tarixan mafkuraviy ko‘rinishda davom etib kelayotgan Dengiz va Quruqlik o‘rtasidagi aloqalar tizimiga yana bir bor aniqlik kiritdi. YA’ni Dengiz – bu liberal demokratiya, “savdo aloqalari tizimi” va pragmatizm. Quruqlik esa - bu ideokratiya (turli ko‘rinish va holatlar), “iyerarxik boshqaruv”, diniy g‘oyalar ustuvorligidir.

P.Savitskiy garchi rus yevrosiyochisi, boshqalardan o‘ta farqli tarzda geosiyosiy mushohadalarni o‘rtaga tashlagan bo‘lsada, uning geosiyosat faniga qo‘shgan hissasi katta. Biroq uning geosiyosati A.Mexen, X.Makkinder, N.Spikmen va boshqa g‘arb tadqiqotchilari qarashlariga zid tursada, “talassokratiya” avlodlari P.Savitskiy g‘oyalari o‘z munosabatlarini honuzgacha bildirgani yo‘q. Biz ham rus tadqiqotchisi o‘rtaga tashlagan g‘oyalarning barchasiga qo‘shilish qiyin. Faqat uning Turon konsepsiyasini o‘rtaga tashlagani va xolisona uni tadqiq etgani katta ahamiyatga molikdir.

4. Yevrosiyo harakatining shakllanishi va tarqalishi. Yevrosiyoda strategik

barqaror muvozanat o'rnatish mavzusi ko'plab rus geosiyosatchilari tomonidan tahlil etilgan. Geosiyosiy ta'limotlar va ularga tayangan holda olib borilgan tashqi siyosat, shuningdek, harbiy harakatlar yo'nalishi bevosita Yevroosiyoqa qaratilgan. Bu hol MDH hududida yashayotgan olimlar, mutaxassislar, siyosatchilar va davlat arboblari uchun muhim ilmiy tadqiqot masalasidir. Yevroosiyoqning geostrategik mavqei va istiqboli rus geosiyosatchi olimi, Lev Nikolayevich Gumilevning qarashlarida ilmiy jihatdan asoslangan.

L.Gumilev rus geosiyosatchisi P.Savitskiyning eng iste'dodli shogirdlaridan bo'lgan. Gumilevning qadimgi davr Yevroosiyo etno-xaritasi, cho'llar, ko'chmanchi xalqlar va ularga tegishli bo'lgan tamaddunlarga oid tadqiqotlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Uning asarlarida siyosiy tarixning butunlay yangi qiyofasi namoyon bo'ladi. Bunda Yevroosiyoqning Sharqiy qismi etnogenez, madaniyat, siyosiy tarix, davlatchilik va texnik taraqqiyotning o'ziga xos markazi sifatida ifodalanadi. G'arb va uning tarixi nisbiylashtiriladi. Yevroosiyo madaniyati va bu qit'ada yashayotgan etnoslarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi, o'ziga xos qadriyatlar majmui, diniy muammolari hamda tarixiy qonuniyatlari umuman o'rganilmagan dunyo sifatida maydonga chiqadi.

L.Gumilev Yevroosiyoqda mavjud bo'lgan elatlar to'g'risidagi g'oyani mantiqiy nihoyasiga yetkazadi va etnik ruslar faqat sharqiy slavyanlarga tegishli bo'g'inlardan biri bo'lmay, balki turkiy qabilalar va slavyanlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan alohida etnos degan fikrni ilgari suradi. Olimning nazarida, buyuk rus tamadduni "CHO'l va O'rmon" o'rtasida o'rnatilgan tarixiy hamkorlik natijasida turkiy-slavyan etnogenezi asosida yuzaga kelgan.

L.Gumilyov O.Shpengler va A.Toynbi singari o'z asarlarida tamaddunlar, madaniyatlar hamda etnoslarning tarixiy sikllarini ajratib ko'rsatgan. Uning talqiniga ko'ra, millatlar, davlatlar va diniy jamoalarning etno-madaniy tuzilmalari barcha jabhalarda go'yo tirik jismga o'xshaydi. Ular tug'ilish, yoshlik, ulg'ayish va qarilik davrlarini bosib o'tadi, keyin esa yo'q bo'lib ketadi.

Bu o'rinda L.Gumilevning etnogenez sabablari, ya'ni xalq va davlatning paydo bo'lishiga oid qarashlaridan quyidagi geosiyosiy xulosalar kelib chiqadi¹.

1. Yevroosiyo elatlar va madaniyatlarning shakllanishi uchun boy, serhosil, ularning yuksak rivojlanishini ta'min etadigan qulay zamindir. Jahon tarixini atlantistik tarixshunoslikka xos tarzda "G'arb va barcha qolganlar" tarzidagi bir qutbli ko'rinishda emas, balki ko'p qutbli ko'rinishda o'rganish lozim. Bunda Shimoliy va Sharqiy Yevroosiyo alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki u umumsayyoraviy tamadduniy taraqqiyot jarayonining muhim manbai sifatida G'arbg muqobil hisoblanadi.

¹ Ушбу хулосалар маълум сиёсий мулоҳазаларга кўра тарих фани доирасидан зинҳор чиқмасликни маъкул кўрган Гумилев томонидан илгари сурилган.

2. Velikorosslar davlatchiligi asosida yotgan “cho‘l va o‘rmon” geosiyosiy sintezi Osiyo va Sharqiy Yevropa ustidan madaniy strategik nazorat uchun asosiy voqelik hisoblanadi. Bunday nazorat Sharq va G‘arb o‘rtasida muvozanatni saqlab qolishga xizmat qiladi. Albatta bunday yondashuv fan texnika taraqqiyotini qaysidir bosqichi uchun xosdir, lekin bugungi voqelikka nazar soladigan bo‘lsak masofa ko‘p narsani hal eta olmaydi.

3. Yaqin kelajakda Yer sayyorasining siyosiy va madaniy xaritasini keskin o‘zgartirib yuboradigan oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan “passionar turtki” yuz berishi mumkin. L.Gumilevning geosiyosiy qarashlari o‘ziga xos qit‘achilik g‘oyasiga asoslanganligi ma‘lum bo‘ladi.

Yevroosiyochilik g‘oyasini “neoyevroosiyochilik” tarzida rivojlantirgan va bu borada salmoqli ilmiy natijalarni qo‘lga kiritgan rus olimi A.G.Dugin. Aleksandr Gelevich Dugin 1962-yilda Moskva shahrida harbiy xizmatchi oilasida tug‘ilgan. Universitetni bitirgach “EON” nashr markazida (1988-1991 y.) muharrir va bosh muharrir, “Yevrosiyo sharhlari, elementlari” (1991 y.) geosiyosiy jurnalida bosh muharrir, FINIS MUNDI radioeshittirishi (1996-1997 y.) hamda “Geosiyosiy sharhlar” eshittirishining (1997-1999 y.) muallifi va boshlovchisi. A.G.Dugin 13 ta yirik asar muallifi bo‘lib, ular asosan geosiyosat muammolariga bag‘ishlangan. Jumladan, Rossiyada birinchi geosiyosat qo‘llanmasi hisoblangan “Geosiyosat asoslari” (1997), “Konservativ inqilob” (1994), “Yevroosiyo misteriyalari” (1996), “Bizning yo‘l” (1999), “Makon bilan fikrlash” (2000), “Yevroosiyochilik asoslari” (2002) kabi asarlar shular jumlasidandir. Ayrim kitoblari Buyuk Britaniya, Italiya va Ispaniya singari Yevropa mamlakatlarida nashr etilgan. Maqolalari “Izvestiya”, “Rossiyskaya gazeta”, “Literaturnaya gazeta”, “Rossiya”, “Nezavisimaya gazeta”, “Yevraziyskoye obozreniye”, “Konservator” singari gazetalarda muntazam chop etiladi. Aksilg‘arbchi, aksilliberal, konservator, o‘ng millatchi A.Dugin 1990 yillarda Rossiya hokimiyatiga nisbatan muxolif pozitsiyada turgan. 2000-yildan keyin esa o‘zining keskin radikal pozitsiyasidan uzoqlashib, sentrist va prezident tarafdorlari qatoriga qo‘shilgan. 1998-yildan boshlab RF Davlat Dumasi raisi maslahatchisi lavozimini egallagan.

U neoyevroosiyochilik g‘oyasiga tayangan siyosiy oqimga asos solgan, shuningdek, yetarli siyosiy mavqe qozona olmagan va Dumadagi partiyalar safiga kira olmagan “Yevroosiyo” (2002 y.) partiyasini tashkil etgan. A.Duginning fikriga ko‘ra, 1980-yillarda kommunizmning inqirozi, sho‘rolar siyosiy tuzumining yemirilishi hamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishi to‘g‘risidagi g‘arbona andozalarga javob berish zarurati bu oqimning paydo bo‘lishiga turtki bergan.¹ Uning asosiy ijtimoiy-falsafiy uslubi tamadduniy yondoshuv bo‘lib, o‘tgan asr boshlaridagi

¹ Дугин А. Основы евразийства. -М, 2002, 85-87- бетлар.

yevroosiyochilik an'analarining izdoshi va merosxo'ri hisoblanadi. O'z asarlarida A.Dugin nemis konservativ inqilobchilari bo'lmish O.Shpengler, V.Zombart, K.Shmitt, E.Yunger, F.Yunger, E.Nikish, Yevropa an'anachiligi namoyondalari R.Genon, Y.Evola, T.Burgxart, F.Shuon va zamonaviy "yangi so'l"lar J.-P. Sartr, G.Debor, M.Fuko, J.Delez, zamonaviy "yangi o'ng"lar A. de Benua, R.Stoykers va boshqalarga murojaat etadi.¹ Bu nazariyalarni birlashtirib turgan jihat – liberal siyosiy falsafa va bozor kapitalizmini tanqid qilish va mavjud voqelikning asosini tashkil etgan jarayonlarga muqobil andoza topish va voqealar oqimini boshqa tarafga o'zgartirishdan iborat.

A.Dugin kapitalizm va kommunizm o'rtasidagi qandaydir oraliq tuzumni yaratish g'oyasi bilan mashg'ul bo'ladi. Uning fikricha bunday tuzumni yaratish uchun faqatgina jozibador mafkura emas, balki kuchli ijtimoiy harakat ham zarur. Liberal mafkura va bozor qadriyatlariga asoslangan dengiz davlatlariga qarshi turishga qodir bo'lgan bu kuch bitmas-tuganmas zaxiralar va ulkan geosiyosiy maydonga tayanishi mumkin. Shu ma'noda, A.Dugin o'zining yevropalik hamfikrlari bilan yaqinlashadi, keyin esa yevroosiyochilik falsafasini o'zi yaratgan qoidalar asosida rivojlantiradi. Neoyevroosiyochilikning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasidagi muhim jihat shundaki, u Yevroosiyo pozitsiyasidan turib Yevropa yoki roman-german madaniyatini tanqid qilish emas, balki anglosakson dunyosiga, jumladan, AQSH ni tanqid qilishga yo'naltirilgan.

G'arb - nemis konservativ inqilobi ruhiga monand tajovuzkorlik, bosqinchilik ruhidagi "atlantistlar" (AQSH va Buyuk Britaniya) va hamkorlikka qodir bo'lgan betaraf kontinental (roman-german) Yevropadan iborat. Shu tufayli, mumtoz yevroosiyochilikda qo'llanilgan agressiv, aksilevroosiyochilik ruhidagi "roman-german dunyosi" atamasi neoyevroosiyochilikda qo'llanmaydi.

Neoyevroosiyochilar "rivojlanish makoni" konsepsiyasini rivojlantirishga ko'p e'tibor qaratadi. Bu esa o'z navbatida Rossiya tarixida Turon omilining ahamiyatini tan olish va geografik determinizmga asoslanishga olib boradi.

A.Dugin nazarida Yevroosiyochilik harakatining platformasi quyidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi:

- ideokratiya, davlat va har bir fuqaroning oliy g'oyaviy maqsadga xizmat qilishga mas'ulligini.

- yevroosiyocha tabiiy tanlanish, Yevroosiyoga xos "tabiiy shart-sharoitlari"dan kelib chiqadigan va jamoaviy mas'uliyat, xolislik, o'zaro yordam, asketizm, iroda, chidamlilik, boshliqlarga so'zsiz bo'ysunish singari xususiyatlarni o'z ichiga olgan o'ziga xos axloqiy meyorlar talab etadigan tushunchani anglatadi.

¹ Ўша жойда, 95-96-бетлар.

Faqat ana shu xususiyatlarga yevroosiyochilarga butun yevroosiyo makonini egallashni yakuniga yetkazish va nazorat o'rnatishni ta'minlaydi.

- demotiya (o'zgacha sharoitlarda shakllangan g'arbcha, yunon-angliya demokratiyasidan farqli o'laroq) "zararli" liberal demokratiya meyorlarini ko'chirmasdan, mahalliy kengashlar, o'z-o'zini boshqarish va dehqon uyushmalari vositasida hokimiyatda ishtirok etish yo'lidan borishi kerak.

1990-yillarda A.Dugin tomonidan atroflicha tadqiq etilgan geosiyosiy jarayonlar bugungi kunda o'z ahamiyatini ancha-muncha yo'qotgan. Hozirgi vaqtda uning ijodi neoyevroosiyochilik mafkurasini yaratishga bag'ishlangan bo'lib, Yevroosiyo geosiyosati ushbu mafkuraning tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi.

Tayanch so'z va iboralar:

Geosiyosiy makon, Turon, rivojlanish joyi, rimlend, xartlend, "tellurokratiya", "talassokratiya", Messianlik harakati, g'arbchilik harakati, slavyanofilchilik harakati, ekosiyosat, demosiyosat, kichik yarim oy, katta yarim oy, demografik omillar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Rusdagi geosiyosiy davrlar va ularning xususiyatlari?
2. Messianlik, g'arbchilik va slavyanofilchilik harakatlarining maqsadi?
3. Zamonaviy atlantizm qanday maqsadga xizmat qiladi?
4. Yevropa va Amerika o'rtasida qanday strategik ziddiyat mavjud?
5. Yevroosiyochilikning negizida qanday g'oya yotadi?
6. Duginning geosiyosiy qarashlarining mohiyati nimada?
7. Savitskiy geosiyosiy konsepsiyasining mohiyati nimada?

5-Mavzu: YANGI DAVR GEOSIYOSIY NAZARIYALARI VA MAKTABLARI.

Reja:

1. Ikkinchi jahon urushi yakunlari va uni Yevropa davlatlari mavqeiga ta'siri.
2. Yevropani birlashtirish g'oyasining obyektiv zaruriyatga aylanishi.
3. Yangi atlantizm, uning asosiy ko'rinishlari. Mondializm g'oyalari.

1. Ikkinchi jahon urushi yakunlari va uni Yevropa davlatlari mavqeiga ta'siri.

1939-yilning 1-sentabrida boshlangan ikkinchi jahon urushi 1945-yilning 2-sentabrida tugadi. Olti yil davom etgan bu urushda dunyoning 61 ta davlati ishtirok etdi. Ularda dunyo aholisining 80 foizi yashar edi. Harbiy harakatlar 40 dan ortiq davlat hududida olib borildi. Yo'qotishlar 65-70 mln kishini tashkil etardi. Urush davrida fashistlar Germaniyasi, Yaponiya va Italiya to'la tor-mor etildi. G'olib

Angliya va Fransiya iqtisodiy, harbiy jihatdan zaiflashib qoldi. AQSH esa dunyoning eng qudratli ikkita davlatidan biri bo'lib qoldi. Sovet davlati ham mislsiz talofatlar ko'rgan bo'lsada harbiy-texnik jihatdan qudratli mamlakatga aylandi.

Urushdan keyingi davrda insoniyat yangi muammolarga duch keldi. Ularning negizida AQSH va SSSR o'rtasidagi siyosiy va mafkuraviy ziddiyatlar yotardi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng ular qudratli davlat sifatida jahon siyosatiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. 1945-yildan 1991-yilgacha davom etgan "Sovuq urush" davrida o'zaro qarama-qarshilik misli ko'rilmagan qurollanish poygasiga olib keldi, natijada ommaviy qirg'in qurollarining yangi turlari yaratildi. G'olibi bo'lmaydigan bunday raketa-yadroviy urushning bema'niligini umumiy tushunish qarama-qarshi tomonlarni yangi jahon urushiga olib keluvchi yo'llardan chekinishga undadi.

XX asrning ikkinchi yarmida ishlab chiqarish kuchlari behad o'sdi. Ilmiy-texnikaviy inqilob inson hayotining hamma tomonlariga ulkan ta'sir etuvchi beqiyos kashfiyotlarga olib keldi. Transport vositalari va aloqa vositalarining rivojlanishi barcha xalqlarni yagona umuminsoniy hamjamiyatga birlashtirdi. Jahon hamjamiyati, jahon jamoatchilik fikri kabi tushunchalar odatiy jumlagi aylandi va dunyoning bo'linmasligi, insoniyat birligi va uning xavfsizligi kabi tushunchalar keng tarqaldi.

Yangi davrdagi tub o'zgarishlar globallashuv jarayonining kuchli rivojlanishi bilan bog'liqlik, uning asosiy belgilari ikki jahon urushi orasida namoyon bo'la boshladi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng globallashuv jarayonini jahon ahamiyatiga ega ikki muhim voqelik– Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil etilishi va mustamlaka imperiyalarning inqirozi ta'minladi. BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy siyosat sohasida jahon miqyosida hamkorlikni kengaytirdi va chuqurlashtirdi. Mustamlakachilikning bartaraf etilishi jahon bozori doiralarini kengaytirdi va xalqlar hamda qit'alar o'rtasidagi teng hamkorlik uchun ulkan imkoniyatlar ochdi.

Globallashuv jahon xo'jalik aloqalarini baynalmillashtirish sharo-itlarida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, butun insoniyatning madaniy va ijtimoiy darajasini ko'tarishda namoyon bo'ldi. Bu jarayon davlatlararo va davlatlar ustidan turuvchi birlashma hamda muassasalarni yaratish, xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish, ishlab chiqarish va ilmiy kooperatsiyani rivojlantirish bilan bog'liq keladi. Globallashuvning o'ziga xos belgisi transmilliy korporatsiyalarning (TMK) tezkor o'sishida ko'rinadi, ular butun jahon iqtisodiyoti-ni o'z ta'sir doirasiga olgan.

Biroq globallashuv jarayoni ziddiyatli holda rivojlanmoqda, jamiyatning eski ijtimoiy-iqtisodiy modelining og'riqli buzilishlariga uchramoqda, ko'pgina mamlakatlarda o'tkir ijtimoiy mojarolarga olib kelmoqda.

Globallashuv faqat eng ko'p foyda olishga intiluvchi xalqaro kapital bilan o'z lagerlarida xo'jalik hayoti, ijtimoiy-huquqiy va siyosiy tizimni tartibga soluvchi davlatning milliy manfaatlari o'rtasida mojaroga olib keldi.

TMKning rivojlanishi mustaqil suveren davlatlarning barpo bo'lishida o'z aksini topgan boshqa obyektiv jarayonining faollashuviga olib keldi. BMT tashkil topgan 1945-yilda unga 51 davlat a'zo edi, hozir ular safi 190 dan ziyod. Bu davlatlar globallashuvning salbiy ta'siriga qarshi turishga intiladi va o'z milliy manfaatlarini himoya qiladi. Ular o'z iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi yo'lida qulay sharoitlar yaratish yo'lini izlaydi va xo'jalik hamda siyosiy mo'ljal bo'yicha mintaqaviy birlashmalarni yaratadi. Shu munosabat bilan mintaqaviy integrasiya jarayoni shakllanadi, bunda davlat guruhlarini o'z an'analari, manfaatlari va geosiyosiy sharoitlariga muvofiq holda o'z rivojlanish yo'lini qaror toptirishga intiladi. Shunday qilib, globallashuv, integratsiya va milliy suverenitet hozirgi zamonning yagona jahon jarayonidagi tarkibiy qismlaridir.

1945-yil 6-chi va 9-avgustda AQSH harbiy-havo kuchlari bombardimonchilari Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombasi tashladi. Bu bemisli qudratli yangi ommaviy qirg'in quroli edi. Xirosimada 90 ming, Nagasakida esa 75 ming tinch aholi halok bo'ldi. Ikkala shahar to'liq vayron etildi, yuz minglab kishilar radioaktiv nurlanishga duchor bo'ldi, nurlanish kasalligi ularni sekin va azobli o'limga olib keldi. Bu AQSH ning urushdan so'nggi dunyoda yakkahokimlikka da'vosi edi. Mazkur voqea «sovuq urush» boshlanishiga amaliy turtki bo'ldi.

Rasman «sovuq urush»ning boshlanishi 1946-yil 5-martda sobiq Angliya bosh vaziri U.Churchillning Fultondagi universitetda so'zlagan nutqida e'lon qilindi. U.Churchill «sharqiy kommunizm» bilan kurash uchun ingliz-amerika harbiy ittifoqini tashkil etishga chaqirdi. U urushdan so'ng totalitarizm ta'siriga tushib qolgan Sharqiy Yevropani erkin demokratik G'arbdan ajratib turuvchi «temir parda» haqida so'zladi. Natsizmga qarshi birlashgan Yevropa endi SSSRning o'ziga qarshi birlashdi.

«Sovuq urush» - Sharq va G'arb mamlakatlar o'rtasidagi (1945-1991-yy.) qarama-qarshilik, bir-biriga dushmanlik, o'zaro ishonchsizlikni ifodalovchi bosqich bo'lib sovet davlatining inqirozi bilan o'z yakuniga yetdi.

Sovet xavfi oldidagi qo'rquv soxta, asosga ega emas deyish qiyin. To'g'ri, Sovet Ittifoqi urush paytida ko'p talafot ko'rgan bo'lib, yangi qarama-qarshilikni hoxlamas edi. G'arb davlatlarining hukmron doiralari bundan yaxshi xabardor edi. Buning ustiga 1949-yilgacha AQSH atom bombasiga monopol hukmron bo'lib, uni qo'llash haqidagi birgina do'q-po'pisaning o'zi har qanday tajovuzkorlikni to'xtatish uchun yetarli edi. Lekin gap faqatgina bunda emas edi. G'arb mamlakatlarining aholisi ijtisoiy-iqtisodiy hayotda chuqur o'zgarishlarni kutardi. Xalqaro maydonda Osiyo va Afrika xalqlari siyosiy erkinliklar berilishini talab etmoqda edi.

Mutlaqo yangi hisoblangan tengsiz yadro quroli «sovuq urush» vositasi bo'ldi. AQSH yadro qurolini ishlab chiqarish va bu sohadagi tadqiqotlar ustidan xalqaro nazorat o'rnatish rejasini ishlab chiqdi. Bu reja 1946-yilda BMTga taqdim etildi va

istalgan mamlakatda bunday tadqiqotlar olib borilishini tekshirish huquqini AQSH ga berilishini ko'zda tutardi. SSSR bu rejani inkor qildi va 1949-yilda o'z atom bombasini ilk bor sinovdan o'tkazdi. Shundan boshlab «sovuq urush» yadroviy qurollanish poygasi darajasiga ko'tarildi.

AQSH iqtisodiyoti, sanoati urushdan keyin xonavayron bo'lgan Yevropaning tiklanishidan manfaatdor edi. 1947-yil 5-iyunda AQSH davlat kotibi Jorj Marshall Garvard universitetida so'zlagan nutqida G'arbiy Yevropani tiklash uchun moliyaviy yordam ko'rsatishni taklif qildi. Amerika hukmron doiralari iqtisodiyoti vayron etilganligi va rivojlanishga mablag' yo'qligi bilan xarakterlanuvchi bu mintaqani xavfli vaziyatdan chiqarishga qaror qilishdi.

«Marshall rejasi» bo'yicha Yevropaning 16 ta davlati moliyaviy yordam oladigan bo'ldi. Moliyaviy yordamni Yevropa iqtisodiy hamkorligi tashkiloti (YEIHT) taqsimladi. 1948-yildan 1952-yilgacha bu tashkilot orqali G'arbiy Yevropa mamlakatlari 17 milliard dollarlik moliyaviy yordam berildi. Bu mablag'lar urushdan keyingi davrda xalq ho'jaligining tiklanishida muhim rol o'ynadi. «Marshall rejasi» Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotini tezda qayta tiklashda muhim ahamiyat kasb etdi. Lekin shuni unutmaslik kerakki bu yordamni berishda AQSH o'zining geosiyosiy, geostrategik manfaatlarini unutmadi. Moliyaviy yordamni hamma davlat ham olmadi. Faqatgina xalqaro maydonda AQSH ni qo'llab quvvatlaydigan, olib borayotgan ichki va tashqi siyosati AQSH manfaatlariga mos keladigan davlatlarga bu yordamni olishdi.

Tez orada vaziyatni chigallashtiruvchi galdagi ishga qo'l urildi. Potsdam konferensiyasi qarorlari ittifoqchilar tomonidan bajarilmagach AQSH bir tomonlama G'arbiy Germaniyada hukumat tuzish va unda pul islohotini o'tkazish haqida maxfiy muzokaralar o'tkaza boshladi. AQSH va G'arb davlatlari Sovet Ittifoqining Germaniya hududidan barcha okkupatsiya qo'shinlarini olib chiqib ketish, yagona umumgerman organlarini tuzishni ko'zda tutuvchi tinchlik shartnomasi shartlari rad etildi. Natijada Sovet qo'shinlari tomonidan Berlinga kirish yo'llarini qurshab olindi. Oxir-oqibatda 1948-yilgi «Berlin inqirozi» yuz berishiga olib keldi. «Berlin inqirozi» amerika diplomatiyasiga Yevropada o'z harbiy pozitsiyasini kuchaytirish uchun muhim sabab bo'ldi. 1949-yil 4-aprelda Vashingtonda 12 davlat vakillari Shimoliy Atlantika shartnomasiga (NATO) imzo chekishdi. Bu davlatlar AQSH, Kanada, Belgiya, Angliya, Daniya, Fransiya, Islandiya, Niderlandiya, Italiya, Norvegiya, Portugaliya, Lyuksemburg edi. 1952-yilda shartnomaga Gretsiya va Turkiya, 1955-yilda G'arbiy Germaniya qo'shildi.

NATO amalda Yevropa integratsiyasi yo'lidagi ilk qadam bo'ldi. Uning faoliyati chegarasiz Yevropani yaratishga yo'naltirildi. Milliy suverenitet eskirib qolgan tushuncha deb e'lon qilindi va u «atlantizm» bilan almashtirilishi, ya'ni g'arb qadriyatlari va demokratiyasini muhofaza qilishning umumiy manfaatlariga

bo'ysundirilishi lozim edi. NATO oldiniga harbiy blok sifatida vujudga kelgan bo'lsa, keyinchalik harbiy-siyosiy blok maqomiga erishdi. Keyingi yillarda esa tashkilotga a'zo mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy muammolari bilan ham shug'ullanadigan bo'ldi.

O'z navbatida Sovet Ittifoqi ham javob tariqasida Sharqiy Yevropada harbiy-siyosiy blokning tashkil etilishiga olib keluvchi choralarni ko'rdi. Bu o'rinda urush o'chog'ini yoquvchi Amerika haqidagi mafkuraviy konsepsiyalar ishga solindi.

G'arbiy Germaniyaning NATO ga qabul qilinishi Sharqiy Yevropaning barcha mamlakatlari, ayniqsa, gitlerchilar tajovuzidan zarar ko'rgan davlatlarda xavotir uyg'otdi. Shu bois Sovet Ittifoqiga ularning rahbarlarini mazkur yurtlar xavfsizligini kafolatlay oladigan harbiy ittifoq tuzishga ishontirish qiyin bo'lmadi. 1955-yil 14-mayda Albaniya (1962-yilda shartnomada ishtirok etmay qo'ydi, 1968-yilda undan chiqdi), Bolgariya, Chexoslovakiya, GDR, Vengriya, Polsha, Ruminiya va Sovet Ittifoqi vakillari Varshavada do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam haqidagi shartnomaga imzo qo'ydi. Varshava shartnomasi davlatlari ulardan birortasiga qurolli hujum bo'lgan holda o'zaro harbiy yordam ko'rsatishga kelishib olishdi.

Varshava shartnomasi – 1955-yil 14-mayda Bolgariya, Vengriya, GDR, Polsha, Ruminiya, SSSR, Chexoslovakiya va Albaniya o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam haqida tuzilgan shartnoma bo'lib, ishtirokchi davlatlar xavfsizligini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Varshava shartnomasi tashkiloti (VSHT) NATO ga qarama-qarshi ravishda tashkil etilgan. 1991-yilda faoliyatini tugatgan.

Varshava shartnomasi davlatlari qurolli kuchlarning birlashgan qo'mondonligini tashkil etdi, uning shtabi Moskva shahrida bo'lgan. Varshava shartnomasi ilgarigi barcha ikkiyoqlama shartnomalarni almashtiruvchi yangi harbiy-siyosiy ittifoqqa aylandi. Endilikda dunyo ikki harbiy blokka parchalandi va bipolyar tizim hukm sura boshladi.

2. Yevropani birlashtirish g'oyasining obyektiv zaruriyatga aylanishi. Ikkinchi jahon urushi tufayli Yevropada yuzaga kelgan iqtisodiy va siyosiy inqiroz jahon siyosatida Yevropa davlatlari rolining pasayishiga olib keldi. Bir paytlar jahon miqyosida yuqori mavqeli bo'lgan Angliya, Fransiya, Germaniya va Italiya ikki buyuk davlat oralig'ida qolib, 50-yillar oxirlarida oddiy Yevropa davlatlariga aylandi. «Marshall rejasi», NATO amerika yadro quroli Yevropa siyosati va iqtisodiyoti rivojlanishida uzoq vaqt ustuvor rol o'ynashini anglatardi. Yevropa, xususan, Germaniya Sovet Ittifoqi va AQSH o'rtasidagi davomiy qarama-qarshiliklar maydoniga aylandi va ular taqdiri bu ikki buyuk davlat munosabatlaridagi keskinlik darajasiga bog'liq bo'lib qoldi.

Xalqaro munosabatlardagi bipolyar tizim - ikki buyuk davlat qarama-qarshiligiga asoslangan va ular tomonidan yaratilgan harbiy-siyosiy bloklar tizimidir.

Yevropa qit'asining asosiy muammosi Germaniya edi. Koreya urushi boshlanishi bilan AQSH nemis qurolli kuchlarini yaratish uchun faol harakatlar qildi. Amerikalik strateglarning fikricha, bu qurolli kuchlar amerikaliklar Uzoq Sharqda urush olib borayotgan paytda Yevropani muhofaza qilishlari lozim edi. Angliya Germaniyani qayta qurollantirish bo'yicha amerikaliklar loyihasini to'liq ma'qulladi. Biroq yangi variantning paydo bo'lishi istiqboli Fransiyani mutlaqo qoniqtirmasdi.

Yevropa hamkorligi asosan iqtisodiy sohada mavjud bo'ldi. Bunday hamkorlik suverenitetni yo'qotishni ko'zda tutmasdi. Aksincha, undan olingan foyda hukumat tomonidan xalq ehtiyojini qo'llab-quvvatlashi mumkin edi. Yevropa mamlakatlari rahbarlari o'rtasida iqtisodiy cheklanishlardan voz kechibgina mamlakatdagi iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish mumkin, degan fikr ustuvor turdi. Fransiya tashqi ishlar vaziri Robert Shuman, GFR kansleri Konrad Adenauer, Italiya bosh vaziri Algidio de Gasped va Belgiya bosh vaziri Pol Anri Spaak kabilar Yevropadagi bu yangi harakatda yetakchi siymolar bo'lishdi.

1950-yili R.Shuman G'arbiy Yevropada ko'mir va po'latni birlashgan holda ishlab chiqarishni yaratish taklifi bilan chiqdi. Fransiya, Italiya, G'arbiy Germaniya va Benilyuks (Belgiya, Gollandiya va Lyuksemburg) mamlakatlari Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi (YEKPB) ni tashkil qildi. Uning faoliyati faqat bir soha bilangina bog'liq bo'lsada, biroq butun sanoat ishlab chiqarishi uchun muhim ahamiyatga ega edi. Yevropa ishlab chiqarishi yuksala boshladi.

1956-yil Yevropa mamlakatlari uchun urushdan keyingi voqelikni qayta baholash yili bo'ldi. Mamlakatlar yo'lbo'shchilari integratsiya jarayonini tezlashtirishga qaror qilishdi. **1957-yil** YEKPBga a'zo mamlakatlar Rim protokollari deb ataladigan hujjatlarni imzolashdiki, bu hol Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YEIH) yoki «Umumiy bozor»ga asos soldi. Bu hujjatlarga imzo chekkan mamlakatlar 12 yil mobaynida bojxona to'siqlarini tugatish, umumiy soliqlarni o'rnatish, keyinchalik esa umuman yo'q qilish, ishchi kuchi erkin harakat qilishini ta'minlash majburiyatini olishdi, shuningdek, bir xil ijtimoiy kafolatlar va yagona ish haqi to'g'risida kelishib olishdi.

Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YEIH) – «Umumiy bozor» - **1957-yilda** tashkil etilgan bo'lib, ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida savdoda barcha cheklanishlarni sekin-asta bartaraf etish va bojxona siyosatini olib borishni ko'zda tutadi.

Rim protokollari imzolangan dastlabki yillar umidli natijalarni bera boshladi. **1968-yilga** kelib «Umumiy bozor» mamlakatlari o'rtasida barcha bojxona soliqlari bartaraf etildi. Bu hol rejalashtirilgan muddatdan oldinroq ro'y berdi.

Yevropaning bundan keyingi birlashuvi Fransiya va Germaniya o'rtasidagi ziddiyatlarga duch keldi. 1958-yil 14-sentabrda Fransiya prezidenti de Goll va kansler Adenauer muzokaralari natijasida mazkur mamlakatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning tugagani e'lon qilingan qo'shma bayonotnoma qabul qilindi.

Bonn va Parij ittifoqi Yevropa integratsiyasiga siyosiy tus berdi va Yevropaning bundan keyingi birlashishi yo'lidagi muhim to'siqlarni olib tashladi. YEIHga 1973-yil Angliya, Irlandiya va Daniya, 1981-yilda Gretsiya, 1986-yilda Ispaniya va Portugaliya qabul qilindi.

1991-yil dekabrda YEIH integratsiyani chuqurlashtirishga yana bir muhim qadam qo'ydi. Hamjamiyatning 12 a'zosi golland shahri Maastrixtda yagona Yevropani yaratishni ko'zda tutuvchi Maastrixt bitimlari deb ataluvchi hujjatlarni imzolashdi. Maastrixt bitimlarida uch guruh shartnomalar – yagona Yevropa valyutasi tashkil etish, Yevropa siyosiy ittifoqini shakllantirish va Yevropa komissiyasini tasdiqlash ko'zda tutildi.

YEIH o'z nomini Yevropa hamjamiyati (YEH) deb o'zgartirdi. YEH mamlakatlari Yevropa siyosiy ittifoqi (Yevroittifoqi)ni yaratish yo'li bilan tashqi siyosat va mudofaani muvofiqlashtirish hamda bu yo'nalishda yagona asoslarni ishlab chiqishni mo'ljall qilishdi. Kelgusida yagona tashqi va umumiy harbiy siyosatni shakllantirish ko'zda tutilgan Maastrixt bitimlarining uchinchi guruhi Yevropa komissiyasini tuzishga tegishli. U Bryusselda ishlay boshlashi va YEH mamlakatlari sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, qishloq xo'jaligi va ekologiya sohalari siyosatini tartibga soluvchi muassasa bo'lishi lozim edi. Yevropa komissiyasi davlat ustidan turuvchi hukumat boshqaruvi funksiyalariga ega bo'la bordi va YEHning barcha mamlakatlari unga o'z vakolatlarini berishi lozim edi. Bu milliy suveren huquqlarni cheklash bo'lardi, biroq YEH mamlakatlari yo'lboshchilari bu yo'ldan yagona Yevropani mustahkamlash uchun borishdi.

YEH bu orada yangi a'zolar – Finlyandiya, Shvetsiya va Norvegiya bilan to'ldi. Bugungi kunda uning tarkibida 28 davlat bor va bir necha davlat qabul qilinishini kutmoqda.

2002-yil 1-yanvardan e'tiboran Maastrixt bitimlariga muvofiq Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida (Angliyadan tashqari) Yevropaning yangi pul birligi - «yevro» muomalaga kiritildi. 15 mamlakat xalqlari hech bir afsus-nadomatsiz o'zlarining eski valyutalari – gulden, frank, marka, taler, shillinglari bilan xayrlashishdi va yangisini qabul qilishdi.

Shuningdek yangi davrning yana xususiyati shunday iborat bo'ldiki, mustamlakachilik tizimiga chek qo'yildi. Bu Yevropaning ilg'or mamlakatlari mavqeiga berilgan navbatdagi zarba bo'ldi.

3. Yangi atlantizm va uning asosiy ko'rinishlari. Mondializm g'oyalari. “Sovuq

urush” dan keyin atlantizm nazariyotchilari atlantizmni yangicha shakllarini, ko‘rinishlarini tahlil ostiga olishdi. Ulardan birinchisini pessimistik sxema deyin mumkin (albatta atlantistlar uchun). U atlantistlarning azaliy raqibi Hearlantga qarama-qarshi turishda yangicha uslublarni, shartlarni ishlab chiqishni taqozo etardi. Qiziq tomoni bu paytda jahon sotsialistik tizimi, Varshava Shartnomasi, SSSR yo‘q edi. Sobiq SSSR ning kechagi qator ittifoqchilari NATO tarkibiga kirgan, ittifoqchiga aylangan edi. Bu yo‘nalishning yorqin vakili AQSH lik siyosatshunos va geosiyosatchi Samyuel Xantington edi.

Ikkinchi yo‘nalishni optimistik ded atash mumkin. Ularning fikricha uzoq davom etgan qarama-qarshilikdagi G‘arbning g‘alabasi tugal va o‘zgarmasdir. Uning asosida “mondializm” g‘oyasini amalga oshirish mumkin. Bu yo‘nalish tarafdorlarining fikricha geosiyosiy taraqqiyot shuni ko‘rsatadiki madaniy, milliy, diniy, mafkuraviy, davlatchilik bilan bog‘liq geosiyosiy diffirensiatsiyalarni bartaraf etish mumkin va yagona umuminsoniy sivilizatsiya barpo etiladi. Bu yo‘nalishning yorqin vakili Frensis Fukuyama hisoblanadi.

Uchinchi yo‘nalish Zbignev Bjezinskiy nomi bilan bog‘liq. U yo‘nalish “Yangi tartibdagi amerikacha gegemonlik” deb ataladi va “Buyuk shaxmat doskasi” asarida asoslashga harakat qilingan.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng avjiga chiqqan qurollanish poygasi geosiyosiy tadqiqotlarda aks etgan yer yuzida ming yillardan davom etib kelayotgan ikki kuch qarama-qarshiligini ifoda etadi. Bu jarayonlar geosiyosatchi olimlar tomonidan chuqur ilmiy tadqiqotlar orqali o‘rganilgan va aynan ushbu izlanishlar ko‘pgina harbiy harakatlarining nazariy asosi bo‘lib xizmat qilgan. Qudratli davlatlar aynan geosiyosiy tadqiqotlar asosida o‘z tashqi strategiyasini qurishgan, tashqi siyosat borasida muhim qarorlar aynan geosiyosatchilarning qat’iy maslahatlariga tayangan holda amalga oshirilgan. Buni Britaniyada o‘n to‘qqizinchi asr oxiri va yigirmanchi asr boshlarida yashab o‘tgan Xelford Makkinder hamda o‘tgan asrning so‘ngi choragida alohida shov-shuvga sabab bo‘lgan geosiyosatchi olimlar S.Xantington, F.Fukuyama yoki Z.Bzejinskiylar misolida yaqqol kuzatish mumkin¹. S.Xantington o‘z asarida turli sivilizatsiyalar o‘rtasidagi tarixiy raqobat sirlarini aynan geosiyosiy talqinda qo‘lga oladi. U turli sivilizatsiyalarni talqin qilar ekan Markaziy Osiyoning geosiyosiy ahamiyati va qanday geosiyosiy kuchlar ta’sirida ekanligini ko‘rsatib beradi.

Tarixiy taraqqiyot davomida uzluksiz davom etib kelgan tamaddunlar kurashi yangi ming yillikda, turli xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Yer yuzida yagona hukmronlik tizimini yaratish uchun olib borilgin bu kurash bir oz bo‘lsa-da susaygani

¹ S.Xantingtonning mashhur “Sivilizasiyalar to‘qnashuvi va dunyo tartibotining qaytadan qurilishi” asari, F.Fukuyamaning “Tarix intihosi” maqolasi hamda Z.Bzejinskiyning “Buyuk shaxmat taxtasi” asarlari nazarda tutilmoqda.

yo‘q. Amerikalik olim S.Xantington “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va dunyo tartibotining qaytadan qurilishi” asarida so‘nggi yillarda yer yuzida kechayotgan geosiyosiy jarayonlarning eng muhim xususiyatlarini tahlil etadi.¹ U quyidagi sivilizatsiyalarni ko‘rsatib o‘tadi: slavyan-provaslav; konfusiychilik (xitoy); yapon; islom; hind; lotin-amerikasi; afrikacha (ehtimol)². Xantington XXI asrning eng asosiy konfliktini shunday tasavvur qiladi “G‘arb qolgan dunyoga qarshi”. Shunday ekan atlantistlar o‘z e‘tiborlarini quyidagilarga qaratishlari lozim: ehtimoli mumkin bo‘lgan qarama-qarshilikka doim tayyor turish; G‘arbga qarshi kontinental alyans tuzilishiga yo‘l qo‘ymaslik; o‘z manfaatlari doirasida tashqi hamkorlikni kuchaytirish. Birinchi navbatda Lotin Amerikasi davlatlari bilan; lokal xarakterdagi to‘qnashuvlarni sivilizatsiyalararo xarakter olishiga yo‘l bermaslik; islom davlatlari o‘rtasidagi turli mazmundagi kelishmovchiliklardan foydalanish; G‘arb manfaatlariga xizmat qiluvchi turli xalqaro institutlarni ko‘paytirish va shu kabilar. Neoatlantizm doktrinasining qisqacha ko‘rinishini shunday izohlash mumkin.

Ma‘lumki, o‘tgan asrning ikkinchi yarmidagi asosiy geosiyosiy qarama-qarshiligi “sovuq urush”da yaqqol namoyon bo‘lgan. Bu davrda uning intihosi, umuman jahon hamjamiyatining kelajagi to‘g‘risida turli yondashuv va nazariyalar ilgari surildi. Ba‘zi olimlar yadroviy halokat dunyo taraqqiyotiga yakun yasashini ta‘kidlagan bo‘lsa, boshqalari Sharq va G‘arb o‘rtasidagi ziddiyat oxir-oqibatda yagona umumsayyoraviy tartibotga bo‘ysunishga olib kelishini uqtiradi. Aynan ana shu yondoshuv mondializm nazariyasining mazmun-mohiyatini ifoda etadi³. Ushbu konsepsiya G‘arbning “sovuq urush”da erishgan g‘alabasidan ancha ilgari paydo bo‘lgan edi. Unga ko‘ra, planetar integratsiyaning ro‘y berishi muqarrar bo‘lib, davlatlar, xalqlar, millatlar va madaniyatlarning xilma-xilligi bosqichidan yagona dunyo, ya‘ni “One World”ga o‘tish amalga oshadi.

Ushbu g‘oyaning ildizlarini O‘rta asrlarga va uzoq o‘tmishga borib taqaladigan ba‘zi utopik nazariyalarda ko‘rish mumkin. Bunday ta‘limotlarga ko‘ra, tarixning muayyan kulminatsion davrida yerdagi barcha xalqlar yagona saltanat ostida birlashadi va qadimdan davom etib kelgan ziddiyatlar, to‘qnashuv hamda muammolar barham topadi⁴.

Mondialistik g‘oyalar ko‘proq betaraf pozitsiyada turgan turli kasbdagi yevropaliklar, ingliz liberallariga, shuningdek sho‘rolarga xos bo‘lgan. XIX asr oxiridan boshlab jahon biznes olamidagi yirik shaxslar tomonidan mondialistik

¹ Хантингтон С. Столкновение цивилизаций и переустройство мирового порядка // "Полис", 1994, 1-сон.

² Желтов В.В. Желтов М.В. Геополитика: история и теория. С 223

³ Америкада мондиализм назарияси // Тафаккур, 2006,1-сон, 112-113- бетлар.

⁴ Mondialistik utopiyaning sof xayoliy ko‘rinishlaridan tashqari rasional ko‘rinishlari ham mavjud bo‘lgan. Ulardan biri pozitivist Ogyust Kontning "Uchinchi era" ta‘limoti yoki Lessingning gumanistik esxatologiyasidir.

ruhdagi tashkilotlar tuzilgani ma'lum. Masalan, ser Sesil Rous tomonidan tuzilgan "Davra stoli" guruhi a'zolari "yagona Dunyo hukumatini tuzish va butun dunyoda to'siqsiz savdo tizimini shakllantirishga hissa qo'shishi" shart edi. Ushbu "davra stoli" doirasida yuritilgan bahs-munozaralarda ko'pincha sotsialistik va liberal-kapitalistik g'oyalar qorishib ketar va kommunistlar ushbu tashkilotdagi yirik moliya kapitali vakillari bilan hamkorlik qilar edi. Ularning barchasini umumsayyoraviy birlashuv utopik g'oyasi bir-biri bilan bog'lab turgan. Rus olimi A.Duginning fikricha, Millatlar Ligasi, BMT va YUNESKO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar ham ana shunday mondialistik ruhdagi tashkilotlar sirasiga kiradi. XX asr davomida bunday mondialistik tashkilotlar ortiqcha shov-shuvlardan qochib, yashirin, sirli tusga ega bo'lib, nomini tez-tez o'zgartirib turgan.¹

AQSH ning butun G'arb olamida, qolaversa, butun Yer yuzida strategik jihatdan eng qudratli davlatga aylangani sari u mondializmning asosiy shtabiga aylandi. Bu "shtab" a'zolari hokimiyatga muqobil maslahatchilar, tahlilchilar va strategik tadqiqotlar markazlaridan iborat tizimni shakllantirdi.²

Shunday qilib, mondialistik tashkilotlarning uch asosiy markazi vujudga kelgan va faoliyat yuritgan bo'lsa-da, ular rasman G'arb jamoatchiligiga uzoq vaqt ayon bo'lmagan. Rasmiy tashkilot hamda tizimlardan farqli o'laroq, bu guruhlar rejalashtirish va tadqiqotlar sohasida erkin faoliyat yuritishib, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar komissiyalari faoliyatini belgilovchi qat'iy qoidalar va rasmiyatchilikdan xalos edi.

Amerikalik yirik bankir Morgan asos solgan "Xalqaro munosabatlar bo'yicha kengash"³ dastlabki mondialistik tashkilotlardan bo'lgan. Ushbu norasmiy tashkilot AQSH ning jahon hamjamiyatiga nistabatan olib boradigan strategiyasini ishlab chiqish, "Dunyo hukumati"ni tashkil etish va sayyorani to'lig'icha yagona qolipga solishni maqsad qilib faoliyat yuritgan. Bu tashkilot 1921-yilda "Butun jahon tinchligi uchun Karnegi Jamg'armasi"ning sho'basi sifatida tashkil topgan. Uning a'zolari hisoblangan barcha yuqori mansabdagi siyosatchilarni sayyoramizning kelajagi to'g'risidagi mondialistik qarashlar birlashtirgan.⁴ 1954-yilda ikkinchi mondialistik tizim - Bildenberg klubi yoki Bildenberg guruhi tashkil topadi. U "nafaqat" amerikalik tahlilchi, siyosatchi, moliyachi va ziyolilar, balki ularning yevropalik hamkasblarini ham birlashtiradi. 1973-yilda Bildenberg guruhi faollari

¹ Garri Devisning "Dunyo konfederatsiyasi uchun universal harakat", "Federal Ittifoq" va hatto ingliz pralamenti a'zosi Genri Asborn tomonidan 1946 yilda "Dunyo hukumati uchun salb yurishi" kabi uyushmalar tashkil etilgan. Qarang. Дугин А. Основы геополитики.-М.:Арктогея,1997,121-130-бетлар.

² Qarang. Уткин А.И. "Мировой порядок XXI века", "Вызов Запада и ответ России" – М., 2002.

³ Council on Foreign Relations, qisqacha C.F.R

⁴ Rus tadqiqotchisi A.Duginning yozishicha CFR.ning ko'pchilik a'zolari bir vaqtning o'zida shotland masonligiga mansub bo'lganligi sababli, ularning geosiyosiy loyihalari qandaydir gumanistik-mistik xususiyatga egaligi to'g'risida taxmin qilish mumkin.

tomonidan uchinchi muhim mondialistik tizim “Trilateral” (Trilateral) – “Uch tomonlama komissiya” tashkil etiladi.

Ushbu tashkilotning AQSH dagi shtab-kvartirasidan tashqari yana ikki qarorgohi Yevropa va Yaponiyada mavjud bo‘lgan. “Trilateral” fundamental geosiyosiy nuqtai nazardan bozor iqtisodiyoti hamda texnik rivojlanishda yetakchilik qilayotgan Amerika qit’asi, Yevropa va Yaponiya nazorat qilayotgan Tinch okeani hududidan iborat “uchta eng ulkan hudud”ni AQSH va atlantizm boshchiligida birlashtirishni nazarda tutgan edi.

Bildenberg va Trilateral kabi mondialistik guruhlariga “Cheyz Manxetten bank”ning egasi yirik sarmoyador Devid Rokfeller boshchilik qilgan. Bundan tashqari, barcha mondialistik loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda atlantizmning doimiy tahlilchilari, geosiyosatchi va strateglari hisoblangan Zbignev Bjezinskiy, Genri Kissinjer va Jorj Boll kabi mashhur siyosatchilar xizmati beqiyos bo‘lgan.

Barcha mondialistik loyihalarning asosiy yo‘nalishi “demokratik”, “gumanistik”, “progressiv” qadriyatlarni keng targ‘ib etish va G‘arbning strategik ustuvorligi ostida yagona dunyo tizimiga o‘tishni ko‘zda tutadi. Ammo, ta’kidlanganidek mondializmga qarshi kayfiyatlardan xalos bo‘lish maqsadida siyosatchi, jurnalist, ziyoli, moliyachi hamda tahlilchilardan iborat parallel tuzilmalar ham tashkil etilgan. Mutaxassislarning fikricha, bunday tuzilmalar “Yagona Dunyo hukumati” loyihasini keng ommaga e’lon qilish oldidan o‘ziga xos zamin hozirlashi kerak edi. Chunki bunday olamshumul dasturning kutilmaganda e’lon qilinishi kuchli qarshilikni keltirib chiqarishi mumkin edi. Mondialistik tashkilotlar tuzadigan va amalga oshiradigan dasturlar uslubi bilan jihatidan bir-biridan farqlansa-da, nazariy jihatdan bir maqsadga yetaklaydigan vosita bo‘lgan.¹

Mondializmga konvergensiya nazariyasi muhim o‘rin tutadi. O‘tgan asrning 70-yillarida Z.Bjezinskiy boshchiligida “so‘l” tahlilchilar tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariya “sovuq urush” davrida yaqqol namoyon bo‘lgan mafkuraviy va geosiyosiy qarama-qarshilikka yangi madaniy-mafkuraviy tamaddunni vujudga keltirish orqali barham berish mumkinligini asoslaydi. U sof atlantizm va kontinentalizm oralig‘idagi, aniqroq aytganda, sotsializm va kapitalizmni uyg‘unlashtiradigan tamaddun bo‘lishi kerak edi.

Bu nazariya asoschilari marksizmdan xalos bo‘lish uchun uning sotsial-demokratik yoki revizionistik ruhda mo‘tadilroq andozasini qabul qilishi lozimligini ta’kidlagan. Buning uchun esa “proletariat diktaturasi”, “sinfiy kurash”, “ishlab chiqarish kuchlarini natsionalizatsiya qilish” va “xususiy mulkni bekor qilish” degan marksistik atamalardan voz kechish zarur edi. Bu o‘z navbatida, liberal

¹ Дугин А. Основы евразийства. -М, 2002, с-85-87.

G'arbda bozor erkinligini bir oz cheklash, iqtisodiyotga davlat aralashuvini qisman bo'lsa-da kiritishni taqozo etardi. Madaniy mushtaraklik esa, ma'rifatparvarlik va insonparvarlik qadriyatlarida ifodalanishi mumkin. Zero, G'arbdagi demokratik tuzumlar ham, sho'rolarning ijtimoiy axloq tizimi ham ana shu umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan.

“Konvergensiya nazariyasi” asosida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan Dunyo hukumatiga SSSR va AQSH tomonidan sayyoramizni birgalikda boshqarish imkoniyati berilishi nazarda tutilgan edi. Bu vaziyatda Yer yuzidagi xalqlar geosiyosiy ziddiyat bosimidan xalos bo'lib, “sovuq urush” tugashi va umumiy tinchlik davri boshlanishi kerak edi.

E'tiborli jihati shundaki, mondialistik markazlarning Moskvada ham o'z vakillari bo'lgan. Jumladan, akademik Gvishiani “Trilateral”ning sovetlar davlatidagi sho'basi bo'lgan tizimli tadqiqotlar institutiga rahbarlik qilgan. G'arbdagi va Rossiyadagi ayrim geosiyosatchilar fikricha, sobiq Ittifoq davrida qayta qurish siyosatini amalga oshirgan Mixail Gorbachev va uning maslahatchilari tayangan mafkuraviy asos konvergensiya nazariyasi edi.¹

Mondializmda eng mashhur tadqiqotlardan biri – bu Djons Xopkins Universiteti professori Frensis Fukuyamaning “Tarix intihosi” nazariyasidir². Ko'pchilik olimlar, davlat arboblari, geosiyosatchi mutaxassislar fikricha, G'arb atlantizmining g'alabasi va sobiq sho'ro davlatining qulashi mondialistik loyihalarning barham topishi yoxud mantiqan o'zgarishiga olib kelishi kerak edi. 1990-yillarning boshida mondializmning yangi ko'rinishi sifatida F.Fukuyamaning “Tarix intihosi” maqolasi asosida ishlab chiqilgan doktrina paydo bo'ldi. Jiddiy shov-shuvlarga sabab bo'lgan ushbu maqolada ilgari surilgan g'oya siyosatchilar va boshqa ko'plab taniqli mutaxassislar tomonidan neomondializmning g'oyaviy bazasi sifatida talqin qilina boshlandi.

Yuqorida qayd etilganidek uchinchi yo'nalish Zbigneu Bjezinskiy nomi bilan bog'liq. U yo'nalish “Yangi tartibdagi amerikacha gegemonlik” deb ataladi va “Buyuk shaxmat doskasi” asarida asoslashga harakat qilingan. Bjezinskiy amerikacha gegemonlikni quyidagicha asoslab berishga harakat qiladi: insoniyat tarixida ilk bor bitta davlatning yakka hukmronligi joriy etildi; barcha sohalarda liderlik qilayotgan davlat yevrosiyo davlati hisoblanmaydi; jahonning markaziy nuqtasi bo'lmish Yevrosiyodagi jarayonlar AQSH ta'sirida amalga oshirilmoqda. Shunday ekan AQSH asta-sekin jahonga hukmronlik qilish, insoniyat oldidagi global vazifalarni hal etishi lozim. AQSH geostrategiyasining bosh maqsadi xalqaro maydonda teng huquqli hamkorni (aniqrog'i raqibni) paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

¹ Qаранг. Дугин А. Основы евразийства. -М, 2002, с-85-87.

² Фукуяма Ф. Конес истории и последний человек. Перевод с английского М.Б.Левина. Публикуется по изданию.-М.:ООО “Издательство АСТ”, 2004.

Yevrosiyo AQSH uchun eng muhim geosiyosiy sovgʻadir. Yevrosiyaning oʻziga xos xususiyatlari:

- Jahondagi eng kuchli iqtisodiy-texnologik markazlarning uchdan ikkitasi aynan shu yerda joylashganligi: Gʻarbiy Yevropa va Osiyo-Tinch okeani davlatlari;
- Yevrosiyoda dunyo aholisining 75 foizi yashaydi;
- Bir yilda jahonda yaratiladigan YAIM ning 60 foizi shu yerda yaratiladi;
- Jahondagi jami tabiiy zahiralarning 80 foizi Yevrosiyoda joylashganligi;
- Mintaqaviy gegemonlik daʼvo qiluvchi davlatlarning mavjudligi. Ular kelajakda xalqaro gegemonlik darajasiga yetishishi mumkin;
- Jamiki quruqlikni 3/1 Yevrosiyoga tegishli ekanligi.

Umuman olganda bugungi kunda quyidagi AQSH ning buyukligini taʼminlashga yaqindan xizmat qiladi:

- Mamlakatning harbiy qudrati;
- Asosiy harbiy tuzilmalarda liderlik qilish, uni oʻz nazoratida ushlab turishi;
- Kuchli har tomonlama yuksak iqtisodiyot. YAIM yaratishdagi tanho hukmronlik;
- Ilm – fan va texnologik, konstruktorlik markazlariga egaligi;
- Jahon moliyasi ustidan nazorat. 2014-yilda xalqaro savdolarining, bitimlarning 80 foizi dollarda amalga oshirilgan;
- Kuchli mafkuraviy-targʻibot texnologiyalariga egaligi va ular ustidan nazorat va sh.k.

Albatta neoatlantistlarning fikrlariga subyektiv xarakter kasb etsada, oʻziga yarasha asoslarga egaligini qayd etib oʻtdik. Qolaversa bu taʼlimotlarning asosiy gʻoyalari, xulosalari bilan hisoblashmaslik mumkin emas.

Tayanch soʻz va iboralar:

Yevroosiyo, rimlend, xartlend, NATO, Monro doktrinasi, Yung rejasi, Marshal rejasi, YEKPB, Gollizm, atlantizm, demografik omillar, mondializm.

Mavzuni tustahkamlash yuzasidan savollar:

1. Ikkinchi jahon urushi Evropa davlatlari mavqeiga taʼsiri qanday boʻldi?
2. Nnga Evropani birlashtirish gʻoyasi obyektiv zaruriyatga aylandi?
3. SH. de Gol va Gollizm haqida nima bilasiz?
4. Atlantizm va mondializm gʻoyalarining mohiyati nimada?
5. Mondializm nima?
6. Z.Bjezinskiy AQSH gegemonligini qaysi omillar bilan izohlaydi?

6-Mavzu: TURKISTON HUDUDIDA VUJUDGA KELGAN DASTLABKI GEOSIYOSIY BILIMLAR VA HARAKATLAR

Reja:

1. O'zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar.
2. Buyuk Ipak yo'li va Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar rivojidagi ahamiyati.
3. Xorazm, Qang' davlatlari. Dovon-Xitoy munosabatlari.
4. O'rta asr mutafakkilari qarashlarida tabiat-jamiyat masalalari

1. O'zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar. Geosiyosat, geosiyosiy xarakterdagi hatti-harakatlar jamiyatda birdaniga paydo bo'lgan emas. Albatta, tarixiy jihatdan uning ham o'z genezisi bor. Tadrijiy asosda ko'radigan bo'lsak, geosiyosatning fan sifatidagi evolyusiyasi quyidagi ko'rinishga ega: geografiya – iqtisod - siyosat - siyosiy geografiya – geosiyosat. Chunki yuqorida aytganimizdek, geosiyosat tushunchasining yuzaga kelishi jamiyat hayotidagi geografik omillarni o'rganish, o'zlashtirish bilan bog'liq. Albatta, bunday yondashuvda jamiyatdagi narsa va hodisalar ayri-ayri holatda aks etmagan. Balki ularga deterministik kayfiyatdan kelib chiqib munosabat bildirilgan. Geografik determinizm – geografik asosda jamiyatdagi barcha voqea va hodisalarning o'zaro aloqadorligini, ularning sababiy bog'lanishi ilgari suradi.

Geografiya, siyosiy geografiya va geosiyosat fan sifatida har birining o'ziga xos obyekti va predmeti bo'lsada o'lar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Ana shu bog'liqlik ularning jamiyatni, unda kechayotgan jarayonlarni determinizm nuqtai nazaridan idrok etishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, siyosiy geografiya uchun geografiya (geografik omillar) qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, geosiyosat uchun ham siyosiy geografiya shunday ahamiyatga molik. Negaki har bir davlatning geografiyasini chuqur bilish, uning tashqi siyosatini tushunish imkonini beradi. Aniqroq aytsak, geosiyosat o'ziga xos yo'nalishdagi uslubiy asoslarga ega bo'lsada, uning genezisi siyosiy geografiya qa'riga borib taqaladi.

Geosiyosat nazariyasidan bahs etib geografik determinizmga to'xtalishimizning boisi geosiyosatning nazariy manbalari, prinsiplari yoki kategoriyalari nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham deterministik shukuh bilan hamnafas. Geografik determinizm geosiyosat nazariyasining muhim bir manbasidir. Shuningdek, u dunyoni bilishga nisbatan insoniyat tafakkurining qadimiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Agar vatanimiz hududidagi ilk davlatchilik birlashmalariga vujudga kelishi geografik makon xususiyatlari bilan belgilanadi.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto» da zardushtiylikning Vatani – Aryanem Voychax (Xorazm), Bahdi (Baqtriya), Mouru (Marg'iyona), Gava

(Sugʻdiyona) shaharlari nomma-nom zikr etilgan va ularning geografik joylashuvi haqida qimmatli mulohazalar berilgan. Agar zardushtiylik dinining eramizdan oldingi VIII-VII asrlarda Markaziy Osiyo hududida yuzaga kelganligini eʼtiborga olsak, bizning ajdodlarimiz ham oʻzlarining turmushlarida geografik muhitga, ona tabiatga alohida munosabatda boʻlganligiga amin boʻlamiz.

Yozma manbalarda guvohlik berilishicha, miloddan avvalgi VIII-VI asrlarda Oʻzbekiston hududida soʻgʻdiylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, sak va massaget elatlari yashashgan. Zarafshon va Qashqadaryo vohasida dehqonchilik bilan shugʻullanuvchi koʻplab aholi istiqomat qilgan. Yozma manbalarda bu hudud Soʻgʻdiyona deb atalgan.

Amudaryoning quyi oqimida yashagan oʻtroq dehqon elatlari xorazmliklar boʻlgan. Baqtriyaliklarning yurti Surxon vodiysi, Afgʻonistonning Shimoliy, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashgan.

Xorazm, Soʻgʻdiyona va Baqtriya aholisining asosiy mashgʻuloti oʻsha vaqtda sunʼiy sugʻorishga asoslangan dehqonchilik edi. Agar ushbu davlatlarning joylashgan oʻrniga eʼtibor beradigan boʻlsak barchasida geografik omillar birlamchi asos talab etgan. Dastlabki manzilgohlarning daryo boʻylarida, jilgʻalar boʻylab, togʻoldi vohalarida joylashgan. Kundalik hayotida jamoa boʻlib yashash, qoʻni-qoʻshnichilik, hashar va shu kabi anʼanalar hukm surgan.

Miloddan avvalgi VII asrda tashkil topgan Qadimgi Baqtriya davlati Markaziy Osiyo hududida Qadimgi davlatlardan biri sanaladi. Margʻiyona, Soʻgʻdiyona Baqtriyaning siyosiy va madaniy taʼsirida boʻlgan. Shuning uchun u qadimda bir-biriga qarindosh boʻlgan elatlarning davlat birlashmasi deyilgan. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vohalari va Oʻzbekistonga chegaradosh viloyatlar Qadimgi Baqtriya davlati taʼsirida boʻlgan. Qiziltepa, Uzunqir, Yerqoʻrgʻon va Afrosiyob oʻrnida Baqtriya va Soʻgʻdning markaziy shaharlari joylashgan. Bu shaharlar Oʻzbekiston hududida eng qadimgilari boʻlib, ularning yoshi 2700 yildan kam emas.

Yana bir qadimiy davlat Xorazm hududida tashkil topgan. Bu davlat Amudaryoning quyi oqimidagi hududlarni, turkman yerlarini birlashtirgan. Qadimgi Xorazm markazlaridan biri Koʻzaliqir shahri boʻlgan. U qalin va mustahkam mudofaa devorlari bilan oʻralgan. Uning dehqonchilik bilan mashgʻul boʻlgan aholisi turli xil uy-qoʻrgʻonlarda va qishloqlarda yashagan. Qadimgi Xorazmda hunarmandchilik, binokorlik va savdo-sotiq yuksak darajada rivojlangan.

Mahalliy kulolchilik, qurolsozlik, zargarlik buyumlarining dovrugʻi oʻzga yurtlarga ham tarqalgan edi. Shaharlarda savdo-sotiq rivojlangan. Xorazmliklar mohir quruvchi, hunarmand va dehqon boʻlganlar.

Shunday qilib, miloddan avvalgi IX-VIII asrlarda Oʻzbekiston hududida ilk temir asriga oʻtish boshlangan. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda bu erda qadimgi yirik davlatlar mavjud boʻlgan. Shaharlarda hunarmandchilik, savdo taraqqiy etgan.

Qadimgi Sharq mamlakatlari bilan madaniy aloqalar o'rnatilgan. Qadimgi davrda O'zbekiston hududida davlatchilik taraqqiyoti mahalliy Aholining yuqori darajada rivojlangan ziroatchiligiga asoslangan edi.

Miloddan avvalgi VI asr o'rtalarida Qadimgi Fors shohlari sulolasidan bo'lgan Ahamoniylar tarkibiga jahonning barcha yirik mamlakatlari va shaharlari kirgan imperiya barpo etishga kirishadi. Kir II Markaziy Osiyoni bosib olishga harakat qilgan ilk fors hukmdori hisoblanadi. Old Osiyodan boshlangan ulkan saltanatni boshqarishda ular satraplik tizimi joriy qilishadi. Markaziy Osiyo esa o'z navbatida uchta satraplikka bo'linadi. Keyinchalik bu hududda Makedoniyalik Aleksandr o'z hukmronligini o'rnatadi. Bu intilishlardan maqsad shuki Markaziy Osiyo Old Osiyo, Shimoliy Afrika, Yunon-Rimni Sharqdagi Xitoy va Hind bilan bog'laganligi geostrategik ahamiyat kasb etgan.

2. Buyuk Ipak yo'li va Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar rivojidagi ahamiyati. Miloddan avvalgi II asrdan milodiy XVI asrga qadar Sharq bilan G'arb xalqlari o'rtasidagi tarixiy-madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida Markaziy Osiyo hududi bo'ylab o'tgan Buyuk Ipak yo'li muhim o'rin tutgan. Buyuk Ipak yo'li taxminan o'n ikki ming km uzunlikda bo'lgan. Sariq dengiz sohillaridan boshlanib Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Eron, Mesopatamiya, Old Osiyo orqali o'tib O'rtayer dengizi sohillariga qadar davom etgan. Sian, Dunxuan, Yorkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv, Tabriz, Damashq kabi bir qator shaharlarni o'zaro bog'lagan. Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arb xalqlarining keng miqyosdagi madaniy aloqalari va savdo ayirboshlashi yuksalishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu tarix o'zaro hamkorlik va madaniyatlar boyishi tarixi bo'lib, tinchlik va taraqqiyot asosini tashkil etgan. Markaziy Osiyo xalqlari Buyuk Ipak yo'li tufayli Sharq va G'arb mamlakatlari iqtisodiyoti va madaniyati bilan oshno bo'lganlar. G'arb mamlakatlari xalqlari esa Markaziy Osiyo xalqlarining yuqori darajada rivojlangan madaniyatini o'zlari uchun kashf qildilar.

Shuni ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo qadimdan mazkur ipak yili sabab Urartu, Misr, Yunoniston, Bobil, Rim kabi Yaqin Sharq va G'arb davlatlari bilan savdo-sotiq aloqalarini o'rnatgan. Turondan o'tgan "Buyuk ipak yo'li" ikkinchi tomondan esa Sharqiy Osiyo va Xindistonni O'rta Yer dengizi davlatlari bilan faqatgina savdo sohasidagina emas jamiyat hayotining turli sohalarida o'zaro hamkorlikni ta'minagan. Buyuk Ipak yo'lining rivojlanishi o'z davrida Kushon podsholigining ijtimoiy-iktisodiy jihatdan yashnashiga ta'sir ko'rsatdi. Shaxarlar ko'paydi, yangi-yangi yerlar o'zlashtirildi va sug'orish tarmoqlari barpo etildi. Ishlab chiqarishning qator sohalarida o'zaro tajriba almashish yuzaga keldi. Tashqi siyosat ancha kengayib, Hindiston, Xitoy, Rim saltanati bilan savdo va elchilik munosabatlari o'rnatilgan. Savdo munosabatlarining kengayishiga Buyuk Ipak

yo'lining ahamiyati katta bo'lgan. Tadqiqotlar natijasida Termizdan Rim tangalari O'rta yer dengizi atroflarida Kushon tangalarining topilishi ham fikrimizning dalilidir. Hukmdor Kanishka davrida Kushon madaniyati xindlashtirildi va budda dini davlat diniga aylandi. Oromiy va Yunon yozuvlari asosida kushon yozuvi shakillandi. Me'morchilik tasviriy san'at yuksak darajada rivojlandi. Jaxon miqyosida mashhur bo'lgan kushon davri san'at obidalarini Ayritom, Eski Termiz, Dalvarzintepa, Xolchayondan va O'zbekistonning boshqa hududlaridan topib o'rganilgan.

Kushon davlati xaqida shuni aloxida takidlash joizki, davlat qator xududlar va ko'plab qadimgi xalqlarni birlashtirgan. Uning tarkibida Markaziy Osiyo, Xuroson va Hindning ma'lum bir qismi birlashtirilgan edi. Ular orasida o'zbek xalqi ajdodlari ham kushon madaniyati yuksalishiga o'z xissasini qo'shgan. Kushon davlati IV asrlarga kelib og'ir ichki va tashqi kurashlar iskanjasida qoldi va asosiy xududlaridan ajraldi. Bu vaqtda uning xududlari qisman Shimoliy Xindistondagina saqlanib qoldi.

Miloddan avvalgi II sarda Qang' qabilalari eng qudratli davlat birlashmasiga aylandi, uning hukmdorlari o'z nomlaridan tangalar zarb qildiradi. Qang' davlatining iqtisodiy taraqqiyotiga Buyuk Ipak yo'lining davlat xududlaridan o'tgan shimoliy tarmog'i katta ta'sir o'tkazdi.

3. Xorazm, Qang' davlatlari. Dovon-Xitoy munosabatlari. O'zbekistonda qadimgi maxalliy davlatchilik tarixi Qang', Dovon, Xorazm davlatlari rivoji bilan uzviy bog'langan. Qang' davlati miloddan avvalgi III asrning boshlarida poydo bo'ldi. Uning dastlabki davrlardagi xududlari Toshkent voxasidan iborat bo'lgan. Qang' davlatining tashkil topishi asosiy sabablaridan biri tashqi xarbiy xujumlardan ximoyalanish zaruriyati bo'lgan. Miloddan avvalgi 329 yilda Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Bekobod va Xo'jand oralig'ida Sirdaryodan kechib o'tib, bosqinchilik qilganda maxalliy axoli unga qarshi qattiq qarshilik ko'rsatgan. Bundan natija chiqara olmagan Aleksandr ortga qaytishga va Xo'jand yaqinida Aleksandriya Esxata shaxriga asos soladi. Miloddan avvalgi II va milodiy I asrda Qang' davlatining xududi kengayib, Toshkent voxasi, O'rta Sirdaryo yerlari, Talas vodiysi va Chudaryolarining quyi oqimidagi yerlarni o'z tarkibiga kiritadi. Qang' davlatining ikkita poytaxti bo'lib, biri Qang'diz (Oqqo'rg'on) va ikkinchisi O'tror bo'lgan.

Qang' davlati axolisi tarkibini asosan dexqonlar va chorvadorlar tashkil etadi. O'troq axoli shaxarlarda va vodiylarda yashab, dexkonchilik, xunarmandchilik va sado bilan mashg'ul bo'lgan. Dasht tumanlarida esa chorvachilik rivojlangan. Miloddan avvalgi II sarda qang' qabilalari eng qudratli davlat birlashmasiga aylandi, uning hukmdorlari o'z nomlaridan tangalar zarb qildiradi. Qang' davlatining iqtisodiy taraqqiyotiga Buyuk Ipak yo'lining davlat xududlaridan o'tgan shimoliy tarmog'i vatta ta'sir o'tkazdi.

Shi-szi solnomasiga ko‘ra, qanguy dastlab kuchsizgina davlat bo‘lgan paytda, Hukmdor oqsoqollar orasidan tanlangan va u oqsoqollarning birlashgan qo‘shinlariga tayangan. Ko‘chmanchilarda har bir oila boshlig‘i jangchi hisoblangan. Shuning uchun qanguy qo‘shinlarining soni ulardagi oilalar soniga teng bo‘lgan. Qanguy qudratli davlatga aylangan vaqtda 120 ming qo‘shinga (demak, shuncha oilaga ham) ega bo‘lgan. O‘sha paytda aholisi taxminan 600000 kishidan iborat bo‘lgan. Xitoy elchilari o‘z hukmdorlariga qanguylar haqida “mag‘rur, qo‘rs”-deb ma’lumot berganlar. Bu davlatning siyosiy tarixi haqida ma’lumotlar asosan Xitoy manbalarida uchraydi. Jumladan, Xitoy qo‘mondoni Li Guan-li qo‘shinlari mil. avv. 101 y. Dovonga bostirib kirganida qanguy dovonliklarni qo‘llab quvvatlagan.

Solnomalar qanguyni ko‘chmanchilar davlati deb atasalarda, unda shaharlar bo‘lganligi haqida ham ma’lumot beradilar. Xalqi “Tuproqdan qilingan devor ichida yashaydigan” Yansay shaharlari shular jumlasidandir. Qanguy poytaxtini juda qadim zamonlarda qangxa joylashgan Sirdaryo deltasi xududida deb hisoblaydilar. Manbalarda ko‘rsatilgan jug‘rofiy o‘rinlarga uncha to‘g‘ri kelmasada mamlakat poytaxti bo‘lgan Bityan shahri Toshkent viloyati Oqqo‘rg‘on tumani o‘rnida bo‘lgan degan fikrlar mavjud.

Qanguy davlati bir-biriga teng bo‘lgan o‘troq-xo‘jalik xududlaridan iborat beshta kichik hokimiyatni o‘z ichiga olgan. Ular qanguy ittifoqi ishtirokchilariga qaram bo‘lgan Suse, Fumu, Yuni, Gi, Yuegyan xududlaridan iboratdir. A.N.Bernshtamning fikricha Yuni-Toshkent vohasida, Suse –Sirdaryo va Arisning o‘rta oqimida, Fumu-Yangiqo‘rg‘on atroflari, Gi-Sirdaryo etaklarida, Yuegyan esa-Xorazmda joylashgan. Bu ittifoqning umumiy chegaralari Xorazm, Shosh, Sug‘d viloyatlari bilan bir qatorda Sirdaryo etaklari va Orol dengizi shimolidagi xududlarni o‘zida birlashtirgan. Shuning uchun ham o‘lkaning janubida joylashgan boshqa davlatlar (jumladan, Parfiya, Kushon va b.)dan farqli o‘laroq Qanguy davlatida ko‘chmanchilar davlatiga xos belgilar saqlanib qolgan.

O‘zbek xalqi davlatchiligi tarixi bo‘yicha kam o‘rganilgan masalalardan biri Dovon davlati tarixidir. Xitoy manbalarida Davan nomi bilan atalgan davlat boshqa manbalarda Parkana nomi bilan yuritilgan. Dovon davlati taxminan miloddan avvalgi III asrda paydo bo‘lgan. Manbalarga ko‘ra, Farg‘ona-Dovon davlatida 300 ming axoli yashagan katta-kichik shaxarlar mavjud bo‘lgan. Shaxarlar orasida Ershi shaxri aloxida ahamiyatga ega bo‘lgan va davlat poytaxti xisoblangan.

Miloddan avvalgi 104-101 chi yillarda Xitoy qo‘shinlari jang qilib, Ershini bosib olgan vaqtda davonliklarga Qang‘ davlati qo‘shinlari yordamga yetib keldi va ikki o‘rtada tuzilgan sulx shartnomasiga ko‘ra, xitoyliklar Dovon davlati hududian chiqib ketdilar. Farg‘ona vodiysi xududlaridan qadimgi davrga oid ko‘plab uy-qo‘rg‘onlar, qishloqlar, shaxarlar xarobalari topib o‘rganilgan. Davon davlatining

axolisi asosan dexkonchilik, savdo-sotiq bilan shugʻullangan. Dovon dexkonlari arpa, sholi, bugʻdoy va beda yetishtirishda mashxur boʻlganlar.

Fargʻona-Dovon davlatining oʻziga xos boyliklaridan biri uning “samoviy ot” lari boʻlgan. Manbalarga koʻra Xitoy imperatorlarining dovonga bosqinchilik uyushtirishlarining asosiy sabablaridan biri ham ana shu “samoviy ot” larni qoʻlga kiritish boʻlgan. Dovon davlati Xitoy, Xindiston va boshqa Sharq mamlakatlari bilan olib boriladigan xalqaro savdoda muxim oʻrin egallaganlar. Dovon davlati milodiy II asrgacha mavjud boʻlgan.

Miloddan avvalgi IV-II asrlarda Qadimgi Xorazm mustaqil davlat boʻlib, Aleksandr, Salavkiylar, Yunon-Baqtriya davlatlari tarkibiga kirmagan. Kirmasligining sabablaridan yana biri u Qizilqum va Qoraqum sahrolari oʻrtasida joylashganligi boʻlib unga harbiy yurish qilishning murakkabligi bilan belgilanadi. Bunday siyosiy qulaylik Xorazmda oʻziga xos maxalliy davlatchilik tizimiga ega boʻlgan davlatning shakllanishida maxsus omil boʻldi. Aleksayedr Markaziy Osiyoning janubiy xududlarida xukmronlik qilgan vaqtda Xorazmda Farasman ismli odam podsholik qilgan. Yunon tarixchisi Arrian Farasmanning Aleksandr bilan bitimi tuzilganligi haqida maʼlumot qoldiradi. Xorazmdan topib oʻrganilgan qadimgi shaxar xarobalaridagi xususiyatlar bu yerda mustaxkam davlatchilik tizimi barpo qilinganligidan dalolat beradi. Shunday shaxarlardan biri Jonbosqalʼadir. Bu shaxar tuzilishiga koʻra toʻgʻri burchakli boʻlib ikki qator mudofaa devorlari bilan oʻrab olingan va devorlarda shinaklar mavjud boʻlgan. Jonbosqalʼa ikki qismdan iborat boʻlib, bir qismida “olov uylari” - ibodatxonalar, ikkinchisida axoli turar joylari boʻlgan. Qoʻyqirilganqalʼa shaxri xarobalari boshqa shaxarlardan farqli oʻlaroq asosiy inшоati aylana shaklida boʻlib, inшоatning markazidagi bino ikki qavatli boʻlgan va shu binoning oʻzi ayni vaqtda rasadxona vazifasini bajargan.

Tuproqqalʼa shaxri toʻgʻri burchakli mudofa devorlari bilan oʻrab olingan boʻlib, devorlar ham gʻishtdan ishlangan unda shinaklar bilan birga minorlar ham boʻlgan. Tuproqqalʼa Xorazm xukmdorlari qarorgoxi vazifasini bajargan. Bu yerdan Xorazm davlati shoxlari boshqaruviga oid bir qancha moddiy manbalar hamda xukmdorlarning arxivlari xujjatlaridan naʼmunalar ham topilgan.

Xorazm davlati xoʻjalik hayotida dehqonchilik va hunarmandchilik asosiy oʻrin egallagan. Milodning dastlabki asrlaridayoq bu yerda mis tangalar zarb qilingan. Shuningdek Xorazmdan Oʻrta Osiyodagi eng qadimgi yozuv namunalari ham topilgan boʻlib, ular miloddan avvalgi 5 – 4 asrlarga oid oromiy yozuvlari asosida shakllangan Qangʻ, Davon va Xorazm davlatlarida mavjud davlatchilik tizimi, xoʻjalik hayotining taraqqiy etib borishi keyingi davrlarda Oʻzbekistonda yuzaga kelgan davlatlarning yuksalishiga ham oʻz taʼsirini oʻtgazgan va ularning keyingi boskichlarga koʻtarishida muhim omillardan boʻlgan.

Turk Hoqonligi davrida O'rta Osiyo yerlarida yer egalik qilish munosabatlari mustahkamlanib, Hoqonlar, amaldorlar va harbiy sarkardalar, mahalliy hukmron tabaqalar, yirik zamindor va din homiylari katta-katta yer-suv boyliklariga ega bo'ldilar. Hunarmandchilik va savdo-sotiqdan davlat xazinasiga katta daromad tushishi natijasida Hoqonlar "Ipak yo'li"ni kengaytirishga va tinchligini ta'minlashga katta e'tibor berishgan. Bu davrda shaharlar kengaygan. Shaharlar va yirik qishloqlarda karvonsaroylar qurilgan. Biroq, Turk Hoqonligida ichki vaziyat notinch edi. Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli ijtimoiy va siyosiy kuchlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar hokimiyatni zimdan yemirib borgan. Hoqonlik bilan mahalliy hukmron tabaqalar o'rtasida ziddiyat kuchayishi natijasida Hoqonlik zaiflashib, inqirozga yuz tutdi. Eron bilan olib borilgan doimiy urushlar Turk Hoqonligi movqeini yanada pasaytirdi. 588 yilda Hoqonlik qo'shinlarining qattiq zarbaga uchrashi, uning parchalanishiga olib keldi. VI asrning 80 yillariga kelib, Turk Hoqonligi Sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'linib ketdi. Shunday ekan Buyuk Ipak yo'lining Sharq va G'arb xalqlari hayotidagi roli xususida gap ketganida quyidagi xulosalarni aytish mumkin: Ipak yo'li Sharq ya'ni Xitoy va Hindni, jumladan Markaziy Osiyoni G'arb bilan bog'ladi. Bu davrda dengiz yo'li ochilmaganligi bois uning ahamiyati beqiyos bo'ldi. Xitoy va Hindning betakror mollaridan Yevropa xalqlari bahramand bo'lishdi. Bu hamkorlik shuningdek ishlab chiqarish sohasidagi tajriba almashishga ham olib keldi. Sharqning fan va madaniyatdagi yutuqlaridan G'arb mamlakatlari bahramand bo'lishdi. Bu davrlarda hamkorlik o'zaro diplomatik va savdo munosabatlari negiziga qurilgan edi.

4. O'rta asr mutafaakilari qarashlarida tabiat-jamiyat masalalari. VIII asr oxiri IX asr boshlarida Arab xalifalikning qator shaharlarida ilm-fan, madaniyat yuksalib, madaniy aloqalar avj oldi. Qadimgi Yunonistonning mashhur olimlari Arastu, Aflotun, Gippokrat, Suqrot, Arximed, Yevklid kabi olimlarning merosi keng o'rganildi. Xalifalikning turli o'lkalaridan taniqli olimlar Bog'dodga keldilar, bu yerda IX asr boshida «Dor ul xikma» - Donolar uyi - ilm markazi tashkil topdi. Unda turli ilmlar – falakiyot, riyoziyot, tibbiyot, tarixshunoslik, geografiya, kimyo, falsafa kabi fanlar bo'yicha tadqiqotlar keng yo'lga qo'yildi.

Arab xalifaligida ijtimoiy taraqqiyotning turli darajasida bo'lgan ko'pgina xalq va elatlar birlashgan edi. Uning tarkibiga Suriya, Misr, Xuroson, Movarounnaxr kabi ming yillik madaniy merosga ega bo'lgan xalqlar ham kirgandi.

IX–XII asrlarda Markaziy Osiyoda dexqonchilik, xunarmandchilik va savdoning taraqqiy etishi empirik bilimlarni rivojlantirishga extiyoj tug'dirdi va shunga muvofiq Markaziy Osiyoning ilg'or kishilari matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot fanlarini chuqur o'rgandilar. Bu davrda erishilgan fan va madaniyatning natijasi, salmog'i, ahamiyati jixatidan Uygonish davri ham deyiladi.

Uygʻonish davri madaniyatining oʻziga xos tomonlari mavjud boʻlib, ular quyidagilardan iborat edi.

1. Dunyoviy maʼrifatga intilish, bu yoʻlda oʻtmish va qoʻshni mamlakatlarning madaniyati yutuqlaridan keng foydalanish, ayniqsa tabiiy-falsafiy, ijtimoiy ilmlarni rivojlantirish.

2. Tabiatga qiziqish, tabiiyotshunoslik ilmlarining rivoji, ratsionalizm, asosiy eʼtiborni dunyoviy fanlarga berish.

3. Insonni ulugʻlash, uning aqliy, tabiiy, badiiy, maʼnaviy fazilatlarini asoslash, insonparvarlik, yuqori ahloqiy maromlar va qoidalarni takomillashtirish, komil insonni tarbiyalashni maqsad qilib qoʻyish.

4. Universallik - qomusiylik, ilmning qator sohalari bilan qiziqish, shugʻullanish bu davr madaniyatining muxim tomonlaridan biri edi.

Shu davrda ilgʻor falsafiy fikrlar rivojlanishida Ibn Zakariy ar-Roziy, Al - Kindi, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Fargʻoniy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Qoshgʻariy, Yusuf xos Xojib, Mirzo Ulugʻbek, Navoiy kabi mashhur mutafakkirlarning roli kattadir.

Uygʻonish davri falsafasi tabiiy-ilmiy fanlar rivoji bilan uzviy bogʻlanib ketgan. Chunki tabiatdagi xodisalar, inson organizmining xolatidagi oʻzgarishlar sabablarini oʻrganish jarayonida ijtimoiy fikrda oʻrnashib qolgan olamga aqidaviy-diniy qarashlarga putur yetib, olamning ilmiy manzarasi xaqidagi tasavvurlar ijtimoiy ongda muqim oʻrin egallay boshladi.

Bu davrdagi jahonga mashhur olimlardan biri Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy boʻlib, uning matematika, astronomiya, joʻgʻrofiya, tabobat, tarixshunoslik sohasidagi nodir asarlari falsafiy fikrlar rivojiga ham katta xissa boʻlib qoʻshildi. Olimning eng mashhur asarlari: “Al-jabr va-l muqobala”, “Kitob surat al arz”, “Yer surati”, “Astronomik jadvallar”, “Quyosh soati toʻgʻrisida risola”, “Hind hisobi haqida risola”, “Usturlab qurish xaqida kitob”, “Zij”, “Astronomik jadval”, “Musiqqa boʻyicha risola”, “Tarix boʻyicha risola” kabi asarlari uning ilmiy tafakkuri benixoya kengligi, qomusiy alloma ekanligi, nafaqat oʻz davrining, balki hamma zamonlarning eng buyuk qomusiy olimi ekanligidan dalolat berib turibdi.

Sharqda va jahonda tabiiy va aniq fanlar rivojiga salmoqli xissa qoʻshgan buyuk allomalardan yana biri Ahmad al-Fargʻoniydir. Fargʻoniyning asosan oltita kitobi butun dunyoga maʼlum va mashxur: “Kitob fi usul ilm an-nujum”, yaʼni “Astronomiya ilmining usullari haqidagi kitob”; “Al-Fargʻoniy jadvallari”; “Oy Yerning ustida va ostida boʻlganida vaqtni aniqlash risolasi”; “Usturlab bilan amal qilish haqidagi kitob”; “Yetti iqlim xisobi”; “Usturlab yasash haqidagi kitob”.

Uning ushbu asarlarida koinot xaritasi tuzilgan, Yer va fazoviy sayyoralar hajmi, iqlimlar, geografik kengliklar toʻgʻrisida kuzatuvlar orqali asoslangan yangi

ma'lumotlar berilgan, ilm-fanning yangi yo'nalishlariga asos solingan. Qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni umumlashtirish, tadqiqotda xissiy va aqliy mushohada mushtarakligi allomaga xos xususiyatlar sifatida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning muxim omillari bo'lib keldi.

Abu Nasr Muhammad Forobiy Sirdaryo bo'yidagi Forob qishlog'ida tug'ilib, o'z Vatanida va so'ngra Bog'dod va Damashqda bilim oldi. U Markaziy Osiyo xalqlari va butun sharqning mashxur faylasufi va olimlaridan biri edi. Forobiy yirik faylasuf, tilshunos, mantiqshunos, matematik, astronom, ximik, medik, psixolog, musiqa san'atining yirik nazariyotchisi, yunon madaniyati, fani va falsafasini egallagan edi. Forobiy eng yirik Aristotelshunos, uning falsafasi, tabiiy-ilmiy nazariyasi va asoslarini chuqur bilgan faylasuf edi. Shuning uchun Forobiyni hayotligidayoq "Al muallim as-soniy" ya'ni ikkinchi Aristotel deb faxriy nom bilan atagan edilar. Forobiy Aristotel asarlarini arab tiliga tarjima qilib, unga sharxlar yozadi, shu bilan birga 160 dan ortiq nodir asarlar yaratdi. Forobiy "Falsafani o'rganishda nimalarni bilish kerak?", "Falsafiy savollar va ularga javoblar", "She'r san'ati", "Shoirlarning she'r yozish san'ati qonunlari haqida", "Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida", "Musiqa haqida so'z", "Ohanglar tasnifi haqida kitob", "Masalalar bulog'i", "Aql to'g'risida", "Inson a'zolari haqida risola", "Fozil shahar aholisining qarashlari", "Davlat haqida risola" kabi qimmatli asarlarini bizga meros qilib qoldirdi. Inson aqli tafakkur yordamida tabiatni, borliqni, materiyani, ijtimoiy xodisa va jarayonlar mohiyatini, ma'nosini biladi. Forobiy o'zining ijtimoiy qarashlarida insoniyat jamiyati vujudga kelishi va rivojlanishining muayyan tabiiy sabablarini, axloqning shakllanishini, inson va jamiyatning o'zaro munosabatini, insoniylik, adolat, yetuk jamoa, komil inson kabi masalalarni nazariy jihatdan asoslashga harakat qiladi.

O'rta asr buyuk olimlaridan biri, ensiklopedist olim, geograf, geolog, astronom, matematik, filosof, tilshunos, etnograf, tabib Muhammad Ibn Ahmad Abu Rayxon Beruniy 973 yil 4 oktabrda qadimgi Xorazmning markaziy shahri Qiyotda tug'ildi. Beruniy o'z umri davomida 150 dan ortiq asar yaratdi. Shulardan eng mashhurlari "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Ma'sud qonuni", "Hindiston", "Geodeziya", "Mineralogiya", "Saydana"dir. Beruniy o'z davrida tajribaviy bilimlarni puxta egallagan olimlardan bo'lib, bu uning tabiiy-ilmiy va falsafiy qarashlarining muayyan tomonlarini aniqlovchi muxim omillardan hisoblanadi.

Umuman, Beruniyning tabiiy-ilmiy merosi, aniq fanlar bo'yicha ko'targan muammolari o'z davrida olamning umumiy manzarasini yaratishda, ya'ni falsafiy dunyoqarash shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Beruniy o'z astronomik jadvalida olamning markazi Yer emas, balki quyoshdir, hamma planetalar, shu jumladan Yer ham quyosh atrofida aylanadi, degan geliotsentrik gipotezani olg'a surdi. Beruniyning bu ilmiy xulosasi 500 yildan keyin ulug' astronom Kopernikning

geliotsentrik sistemasida ilmiy asosda tasdiqlandi. Beruniy Abu Ali ibn Sino bilan qilgan munozarasida koinotdagi planetalar, shu jumladan Yer ham o‘zaro tortishish kuchiga ega, degan xulosaga keladi. Uning bu ilmiy taxmini XVIII asr boshida ingliz olimi Nyuton kashf etgan butun dunyo tortilish qonuni bilan ilmiy jixatdan asoslandi.

Insoniyat Abu Ali ibn Sinoni jahon fani va Uyg‘onish davri madaniyatining yirik arboblardan biri sifatida biladi va e‘zozlaydi. Ibn Sino 400 dan ortiq asarlar yozdi. Uning yozgan asarlari ilm–fanning barcha sohalariga taalluqlidir. Shundan 242 tasi bizgacha yetib kelgan. Alloma asarlaridan 80 tasi falsafa, iloxiyot, tasavvufga, 43 tasi tabobat, 19 tasi mantiq, 26 tasi esa ruxshunoslikka bag‘ishlangan. Ibn Sino o‘z asarlari bilan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini dunyo madaniyatlarining oldingi qatoriga olib chiqdi. Shuning uchun ham «Shayxurrais» - «Olimlar boshlig‘i» deb atalishi bejiz emas. Olimning asosiy falsafiy asari «Kitobat shifo», «Donishnoma», «Najot», «Kitobul insof», «Kitob al qonun fittib» kitoblaridan iborat. Ibn Sino «Donishnoma» nomli falsafiy kitobi 5 xil ilmni–mantiq, tibbiyot, astronomiya, musiqa, iloxiyotni o‘z ichiga oladi. Ibn Sino o‘z zamondoshlari singari Allohni olamni yaratgan birinchi sabab hisoblaydi.

Ibn Sinoning aytishicha, falsafa borliq haqidagi fandir. Borliq esa abadiydir, u shaklini o‘zgartirishi, bir ko‘rinishdan ikkinchi ko‘rinishga o‘tishi mumkin, lekin uning o‘zi - materiya yo‘qolmaydi. Uni tekshirish uchun zaruriyat, imkoniyat va sabab kategoriyalarini asos qilib olish zarur. Ushbu kategoriyalar orqali inson olam to‘grisida falsafiy fikrlarga ega bo‘ladi. Ibn Sinoning fikricha, olamda zaruriy vujud va imkoniy vujud bor bo‘lib, ularning birinchisi hech narsaga bog‘liq bo‘lmagan bir butunlikdir; u qudratli, dono, irodali va hamma narsani biluvchi Tangridir. Ikkinchisi imkoniy vujud bo‘lib, u tangridan kelib chiqadi va uni namoyon etadi. Bu kelib chiqish emanatsiya tarzida, ya‘ni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida mavjud bo‘lgan aql, jon va jism, ular bilan bog‘liq xolda osmon jismlari kelib chiqadi. Bu javhar (cubstansiya) bo‘lib, undan tashqari borliqda araz (aksidensiya), ya‘ni narsalarning belgilari, rangi, hajmi, xidi va boshqa xislatlari mavjud. Jism shakl va materiyadan tashkil topadi. Moddiy jixatdan bir butun bo‘lgan tabiat o‘z ichki qonuniyatlari asosida rivojlanadi, binobarin, tabiiy xodisalar sababli boglanishga ega bo‘lib, ularni o‘rganish mumkin.

O‘rta asrlarda yashab ijod qilgan yana bir olim Abu Abdulloh al-Xorazmiy edi. Uning bizgacha yetib kelgan «Mafotix al-ulum» («Ilmlar kalitlari») asari bo‘lib, unda o‘rta asrlardagi fanlarning rivojlanishi va holatini ancha mukammal aks ettirgan. Muallif asarda o‘z davridagi har bir fanning mazmunini, uning atamalarini sharhlash yo‘li bilan tushuntirib beradi. Ushbu asarda falsafa, mantiq, tib, ilmu-n-nujum, musiqa va boshqa fanlarning asoslari berilgan, al-Xorazmiy o‘sha davrda yuqori darajada rivojlangan fanlarni ma’lum tartibga tushirish va tasnif qilishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi.

Abu Abdulloh al-Xorazmiy falsafaning nazariy qismiga tabiiyotshunoslik fanlarini, amaliy qismiga etika, siyosatshunoslik va boshqaruvni qo'yadi. Zaruriy borliqni xudo va uning qudrati (birinchi sabab) bilan izohlasa, imkoniyat darajasidagi borliqni moddiy olam va undagi sababli bog'lanishlar bilan izohlaydi. Materiya uning nazarida 4 unsurdan tashkil topadi va ular fazo va vaqtda mavjud bo'ladi. Harakat materiyaning atributi ekanini tan oladi. Ammo u aql, ruh, jon kabi nomoddiylik bor, deb hisoblaydi. Aqlni "faol aql", "moddiy aql" va "o'zlashtirilgan aql"ga bo'ladi.

Geografik determinizmdan bahs etib, ushbu mulohazalarni o'rta tashlashimizdan maqsad quyidagi fikrlarni aytishdir. Agar bugun geosiyosat yoki siyosiy geografiyadan so'z ketsa, ko'pchilik mutaxassislarimiz birdaniga g'arbdagi qaysidir davlatda qachondir yashagan olimning bu boradagi sistematik fikrlarini keltirishadi. Aytmoqchimizki, zamonaviy geosiyosat yoki siyosiy geografiya asosida turuvchi geografik determinizm borasida o'zimizda ham yetarli manbalar mavjud. Ularni G'arb dunyosi bizdan ko'ra oldinroq o'rganib bo'lishgan. Bugun esa ular yangicha ko'rinishlarda yana bizga qaytib kelmoqda.

Umuman olganda uyg'oniy davri haqida gap ketganida quyidagi geografik omillarni hisobga olish zarur. Avvalombor Halifalik yagona hudud sifatida birlashtirildi; Atlantika sohilidan (Piriney yarim oroli) Qashqargacha bo'lgan hududda yagona fuqarolik o'rnatildi; yagona boj-soliq tizimi joriy etilishi turli xalqlarning erkin-emin harakatlarinini, tajriba almashishini ta'minladi; ilmiy markazlar tashkil etilib turli xalqlarning ulamolari bu markazlarga taklif etildi; yagona tilning joriy etilishi ular o'rtasida ilmiy aloqalarning yanada kuchayishini ta'minladi.

Tayanch so'z va iboralar:

Xorazm, Baqtriya, geografik diterminizm, Buyuk ipak yo'li, Dovon, Ellinlashtirish, Uyg'onish davri, universallik- qomusiylik, birinchi sabab, materiya va shakl birligi, tabiiy-ilmiy, ahloqiy-falsafiy, ma'naviyat, ma'rifat, Turon.

Takrorlash uchun savollar

1. O'zbekiston hududida tashkil topgan ilk davlatlar?
2. Ilk shaharlarning vujudga kelishining geogroafik omillari?
3. Buyuk ipak yili va uning ahamiyati?
4. O'rta asr mutafakkirlarining falsafiy qarashlarida geografik omillar masalasi?
5. O'rta asr Sharq arab-musulmon falsafasiga qanday hususiyatlar xos?
6. Ilk uyg'onish davri va uning tabiiy-ilmiy asoslari?

7-Mavzu: XVI-XIX ASRLARDA VUJUDGA KELGAN GEOSIYOSIY BILIMLAR VA HARAKATLAR

1. Geosiyosiy bilimlar rivojida amir Temurning xizmatlari
2. Shayboniylar davlatining tashkil topishi.
3. Xalqaro munosabatlar tizimida Xuroson muammosi: Shayboniylar-Safaviylar, Shayboniylar-Boburiylar. Qo‘qon-Xitoy munosabatlari.
4. Markaziy Osiyoning jahon bozoridan uzilib qolishi va uning oqibatlari.

1. Geosiyosiy bilimlar rivojida amir Temurning xizmatlari. Amir Temur va temuriylar davri o‘zbek davlatchiligi tarixida alohida o‘ringa ega. Amir Temur nomi bilan O‘zbekistonda davlatchilik tartiboti o‘zining eng rivojlangan bosqichiga ko‘tarilgan edi. Bu saltanatning chegaralari Sharqda Xitoygacha g‘arbda O‘rta yer dengizigacha, janubda Hindiston va Shimolda Moskov Knyazligi xududlari bilan chegaralangan edi. Davlat o‘z davrida dunyodagi eng kuchli saltanatga aylangan edi. Markaziy Osiyo xalqlari uchun Amir Temurning xizmati ulkandir:

- Birinchidan, u mamlakatni mo‘g‘ul bosqinchilardan ozod etdi;
- ikkinchidan, mustaqil o‘zbek davlatchiligiga asos soldi;
- uchinchidan, mamlakatni tuzuklarga (qonunlarga) asosan boshqarishni ta’minladi;
- to‘rtinchidan, adolat va ma’rifat ishlarini yo‘lga qo‘ydi. «Kuch-adolatda» degan shiorga asos etib olindi;
- beshinchidan, qo‘shni davlatlarni ham bosqinchilardan, zulm va zo‘ravonlik o‘tkazayotgan diktatorlardan tozaladi va u yerlarda qonuniy tartib o‘rnatdi;
- oltinchidan, Samarqand dunyo markaziga aylandi. Bu yerga uzoq Ispaniya, Fransiya, Angliya, Xitoy kabi mamlakatlardan ko‘plab elchilar, sayoxlar, savdogarlar, olimlar kelib ketishar edi.

Amir Temur va temuriylar davrida shunday madaniy muhit, shart-sharoit yaratildiki, unda Ulug‘bek observatoriyasi, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalar o‘z asarlari, odil siyosatlar bilan dunyo jamoatchiligining diqqat e’tiborini tortishga muvaffaq bo‘ldi. Bu buyuk ishlarning amalga oshirilishining boshida, so‘zsiz, Amir Temur turar edi.

U davlat va jamiyat qurilishida, uni boshqarishda adolat va qonuniylikka asoslandi. O‘z zamonida xalqlar orasida keng tarqalgan Islom siyosiy tashkiloti va uning qonunlar tizimi-shariatni amalda qo‘lladi hamda unga qo‘shimcha tarzda o‘z “tuzuklari” ni yaratdi. Uning siyosiy va huquqiy ta’limotlari, o‘g‘itlari, ko‘rsatmalari temuriylar davrida dasturi amal bo‘lib xizmat qildi.

Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar tashqi siyosatining yo‘nalishlari siyosiy fanlarda chuqur o‘rganilmagan. Haqiqatan ham bu mavzuni to‘laligicha ochib berish alohida va jiddiy tadqiqotlar olib borishni taqazo etadi. Mazkur mavzu qisqa va umumiy tarzda, ba‘zan qisman alohida tadqiqotlarda ochib berilgan¹.

Hali Chingiziy mo‘ng‘ullarning xavfi kuchli ekanligi, chegaralar xavfsizligini ta‘minlash, Chig‘atoy ulusiga egalik qilish, Buyuk Ipak yo‘li tizginini qo‘lga olish kabi masalalarni davlat manfaatlari jihatidan to‘g‘ri hal etish nozik tashqi yo‘nalishlarni belgilashni taqazo etardi.

Sohibqiron Amir Temurning mo‘g‘ul zulmiga zarba berishi unga yangicha muammolarni tug‘dirdi. Sabab tashqi havf hali mavjud edi. Vaziyat Amir Temurdan Xorazm, Oltin O‘rda, Mo‘ng‘iliston, Eron, Xuroson kabi o‘z davrining kuchli davlatlari bilan yangicha bir-biridan farqlanuvchi tashqi siyosat yo‘nalishlarini belgilashni taqazo etdi.

Amir Temur Chig‘atoy ulusining tarkibiy qismi bo‘lgan Xorazmga davogarlik qilish bilan birga, uning o‘z davlati tarkibiga kiritish orqali u o‘z davlatining shimoliy chegaralarini mustahkamlash, bu yerda kuchli mudofaa tizimini yaratish maqsadini ham amalga oshirishni istar edi. Chunki u o‘z davlatini Oltin O‘rdadan bo‘ladigan katta xavfdan himoya qilishni istar edi. Amir Temurning Oltin O‘rdaga nisbatan tutgan tashqi siyosat yo‘nalishi quyidagi maqsadlarni o‘zida mujassamlashtirgan:

- birinchidan, shimoldagi - Oltin O‘rdadan bo‘ladigan xavfni bartaraf etish;
- ikkinchidan, Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i ustidan hukmronlikni qo‘lga kiritish;
- uchinchidan, Oltin O‘rdaning kuchli davlatga aylanishga yo‘l qo‘ymaslik va uni ikkinchi darajali mamlakatga aylantirish;
- to‘rtinchidan uni Eron va Ozarbayjon ustidan hukmronlik qilishga yo‘l qo‘ymaslik;
- beshinchidan Dashti Qipchoqning shimoliy qismiga o‘z ta‘sirini o‘tkazish;
- oltinchidan, Xorazmni o‘z tasarrufida saqlab qolishga intilish. Negaki Temur Xorazmni Oltin O‘rdaning emas Movarounnahr bilan davlat birlashmasida bo‘lishi tarafdori edi.

¹ Asqarov A. Amir Temur va Xorazm. «Amir Temur va uning jahon tarixidagi o‘rni» mavzuidagi xalqaro konferensiya tezislari. Toshkent, «O‘zbekiston», 1996, 39-40 betlar; Ismoil Aka. Buyuk Temur davlati. Toshkent, «CHO‘lpon», 1996, 152 bet; Buriyev O. Amir Temur davrida Movarounnahr va Mo‘g‘uliston munosabatlari. Sharqshunoslik, 1996, № 7, 37-44 betlar; Buriyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. Toshkent «O‘zbekiston», 1997, 186 bet; Abduraimov M. Temur va To‘xtamish. G‘.G‘ulom nashriyoti, 2000, 79 b.; Muhammadjonov A.R. Temur va Temuriylar saltanati. Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1994; Yakubovskiy A.Y., Grekov B.D. Oltin O‘rda va uning qulashi. M., 1957; Uvatov U. Amir Temur va mamluklar. Sharqshunoslik, 1996, № 7, 60-72 bet; G‘ulomov S. Amir Temur bilan Ahmad ibn Uvays Jaloyir munosabatlariga doir. Sharqshunoslik, 1997, № 8, 196-200 betlar va boshqalar.

Sohibqiron Amir Temurning Oltin O'rda munosabatlari muhim siyosiy nuqtalardan biri bo'lib, u bu bilan davlatni har tomonlama yuksaltirishga, muhofazalashga va xalqaro katta tayoq siyosatini olib borishga intilgan. Demak, u diplomatiyada geostrategiyani avvalgi o'ringa qo'ygan. Uning tashqi siyosat yo'nalishida Misr, Usmoniylar davlati katta muammolardan hisoblanar edi.

Unga dunyoda yetakchi mavqega intilayotgan davlatlarning rahbarlari - Misr sultoni Barquq, Usmoniylar sultoni Boyazid Yeldirim halaqit berayotgan, buning ustiga ular Oltin O'rda bilan birga Amir Temurni yanchib tashlashga intilayotgan edi. Manfaatlari, xududlar ustidagi tortishuvlar xam ular orasidagi ziddiyatlarning keskinlashishiga katta tasir ko'rsatgan.

Shuni aniqlik, Amir Temur Boyazid Yeldirimni yengsada uning avlodlariga yana imkoniyat yaratdi, ularning taxtda qolishlariga imkon berdi. Qariyb yigirma yillik ziddiyatlarga qaramay Misr va Amir Temur davlati o'rtasida yirik janglar yuz bermaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Amir Temur adolatli tashqi siyosat olib borgan. Uni quyidagi fikrlar asosida izohlash mumkin:

- birinchidan, Amir Temur tinch aholi ustiga sababsiz bostirib kirmagan va u iloji boricha masalani tinchlik yo'li bilan hal qilishga intilgan;
- ikkinchidan, u tinchlik talab davlatlarning osuda yashashini inson manfaati, huquqlarini kafolatlagan, uning diplomatiya g'oyasi zaminida tinchlik, hamkorlik o'rnatish maqsadlari yotadi;
- uchinchidan qoni, irqi, dini, mafkurasi Sharq uchun ziddiyatli g'arb davlatlari bilan ham tinchlik va hamkorlik aloqalarini o'rnatib, Yevroosiyo va integratsiya g'oyasi tamal toshini qo'ydi.
- to'rtinchidan, u g'animlarining obdon mulohaza yuritishi uchun imkon berdi va uning dushmanlari bu imkoniyatni suiste'mol qildi;
- beshinchidan, u diplomatiya ilmining nazariy asoslarini kuchaytirdi, uni yangi strategik taktika va amaliyot bilan chambarchas bog'ladi;
- oltinchidan, u doimo xalqaro tenglik qoidasini avvalgi o'ringa qo'ydi;
- yettinchidan o'ziga qarshi tuzilgan yirik blokni diplomatik zehni ila bartaraf etdi;
- to'qqizinchidan, uning diplomatik tadbirlari Sohobqiron Movarounnahrga tahdid solayotgan tashqi ta'sirlarni izchillik bilan birin-ketin yo'q qildi. Davlat tevaragida dahlsiz hududlar yaratishga erishdi.

Sohobqiron Temur diplomatiya ilmini san'at darajasiga ko'targan va bu albatta xalqaro munosabatlarda o'zining ijobiy samarasini bergan. O'sha davrda diplomatiyada eng maqbul yo'llarning tanlanishi Temuriylar davlatchiligi san'at darajasiga ko'tarilganligini ko'rsatadi.

2. Shayboniylar davlatining tashkil topishi. XI asrdan boshlab arab va fors manbalarida «Dashti Qipchoq» deb ataluvchi geografik hudud tilga olinadi. Bu atama Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshanning g'arbiy yon-bag'irlaridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar cho'zilgan hududga nisbatan ishlatilgan. Dashti Qipchoqda Abulxayrxon davrida kuchli davlat tashkil etildi (1428-1468). Lekin uning vafotidan keyin o'zaro janglar avj oladi. Dashti Qipchoq qabilalarining rahnamolari Abulxayrxon vafotidan so'ng boshlangan o'zaro qirg'inlarning yanada kuchayishini aslo istamas edilar. Shu tufayli ular Muhammad Shayboniyxon timsolida bunday qirg'inga yo'l qo'ymaslikka qodir shaxsni ko'rdilar.

Bundan tashqari, Dashti Qipchoq qabilalari ko'pdan buyon o'troq hayot tarzida yashashni orzu qilib kelardilar. Bu orzuning ushalishi o'zgalarning unumdor yerlarini bosib olish tufayligina ro'yobga chiqishi mumkin edi. Qabilalar rahnamolari Muhammad Shayboniyxonni o'z orzularini ro'yobga chiqarishga qodir deb hisoblardilar. Shu bois ham ular va ruhoniylar kuchli yollanma qo'shinga ega bo'lgan Muhammad Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlaydilar.

Ular yerlari unumdor, hunarmandchiligi rivojlangan o'lkalarning bosib olinishi o'troq hayotga o'tish imkonini berishini ham yaxshi bilganlar. Bu omillar Muhammad Shayboniyxon hokimiyatining kuchayishiga yordam berdi. Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrda ichki siyosiy vaziyatni yaxshi bilganligi ham uning nufuzini yanada oshirdi. Ayni paytda, Movarounnahr aholisi temuriyzodalarning toj-taxt uchun o'zaro kurashlaridan charchagan ham edi. Shu tufayli Movarounnahr zodagonlari, ruhoniylari va hatto aholining ma'lum qismi ham Muhammad Shayboniyxon timsolida Movarounnahrda tinchlik o'rnatishga qodir yagona shaxsni ko'rganlar. Shu tufayli Muhammad Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlaganlar.

Shu tariqa, Muhammad Shayboniyxonning Temuriylar davlati hududlarida ham o'z hokimiyatini o'rnatishi uchun barcha zarur shart-sharoit yetilgan edi. Amir Temur vafotidan keyin taxt uchun avj olgan kurashlar davlatning zaiflashishiga olib keldi. To'g'ri Shohruh, Ulug'bek, Abusaid davrida davlatchilik ma'lum darajada yuksaldi. Ulug'bekning o'limidan keyin Movarounnahrda, Shohruh o'limidan keyin Xurosonda taxt uchun janglar kuchaydi. Bu esa Shayboniyxonga qulay vaziyatni yaratdi.

Muhammad Shayboniyxonning asosiy maqsadi Temuriylar saltanatiga butunlay barham berish edi. Bu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun u 1499-yilda Movarounnahrni zabt etishga kirishdi. U bu o'rinda temuriylarni sarosimaga solib qo'ygan jang usuli – to'lg'amani qo'lladi. 1500-yilda Muhammad Shayboniyxon Samarqandni egalladi. Bu hodisa Samarqand hukmdori Sulton Ali Mirzoning onasi Zuhrobegi og'aning xoinlar gapi bilan ish tutishi oqibatida sodir bo'ldi. Xoinlar Zuhrobegi og'ani Muhammad Shayboniyxonga maxfiy ravishda «Men ham O'zbek

urug‘idanman, agar siz meni nikohingizga olsangiz, o‘g‘lim bilan sizning hukmingizni tan olib, Samarqandni siz xon hazratlariga topshirurmiz» mazmunidagi xatni yuborishga ko‘ndiradilar. Ayni paytda, Zuhrobegi og‘a Shayboniynon oldiga Termiz, Chag‘aniyon, Hisor va Badaxshon zabt etilgach, bu hududlarni o‘g‘li Sulton Ali Mirzoga berilishi shartini ham qo‘ygan edi.

Muhammad Shayboniynon o‘zini bu shartlarga rozidek qilib ko‘rsatdi. Samarqand taxti egallangach esa Sulton Ali Mirzo qatl etildi. Onasi Zuhrobegi og‘a esa boshqa kishiga nikohlab berildi. Muhammad Shayboniynon 1501-yilda Samarqandni uzil-kesil egalladi. Katta qo‘shinga ega bo‘lgan Muhammad Shayboniynon endi butun Movarounnahrni egallashga kirishdi.

1503-yilda Toshkent va Shohruhiya shaharlarini egalladi. Ularga Ulug‘bek Mirzoning Abulxayrxonga uzatilgan qizi Robiya Sultonbegimning o‘g‘illari Ko‘chkunchi Sulton va Suyunchxo‘jalarni hokim etib tayinladi.

1504-yilda esa Farg‘ona egallandi. Shu tariqa butun Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hukmronligi o‘rnatildi. Samarqand shahri poytaxt etib belgilandi. Buxoro shahrini esa ukasi Mahmud Sultonga topshirdi. Shu tariqa, Muhammad Shayboniynon Dashti Qipchoq, Xorazm, Movarounnahr va Xurosonning bir qismini o‘zi ichiga olgan o‘z davlatini tashkil etadi.

3. Xalqaro munosabatlar tizimida Xuroson muammosi: Shayboniylar-Safaviylar, Shayboniylar-Boburiylar. Qo‘qon-Xitoy munosabatlari.

XVI asrda Osiyoning bir-biriga tutash qismida uch siyosiy kuch kurash maydoniga chiqqan edi. Bular – Movarounnahrda shayboniylar, Eronda safaviylar va Hindistonda boburiylar edi. Xalqaro va o‘zaro munosabatlarda bu uch sulola manfaatlari to‘qnashib, raqobatchilik kuchayib bordi. Kelishmovchilik bir tomondan sulolaviy kelishmovchilikka asoslansa, ikkinchi tomondan hududiy asosda edi.

Ularning manfaatlari to‘qnashgan nuqta Xuroson edi. Chunki Xuroson ham harbiy-siyosiy, ham savdo-iqtisodiy jihatdan muhim o‘rin tutar edi. Bundan tashqari, Xuroson – Movarounnahr, Eron va Hindiston yo‘nalishida o‘ziga xos darvoza vazifasini ham o‘tar edi. Xurosonni nazorat qilish masalasida shayboniylar va safaviylar o‘rtasida keskin kurash ketgan. Ularning har ikkovi ham Xurosonni o‘z nazoratida ushlashga harakat qilgan. Albatta Hindni boshqarayotgan boburiylar ham o‘zlarini Xurosonning qonuniy merosxo‘ri deb bilishgan. Chunki, Bobur Hind yurishidan oldin uzoq yillar Qobulni boshqardi va uni katta o‘g‘liga meros qilib qoldirgan.

Bu masalada Muhammad Shayboniynon, Ubaydullaxon va Abdullaxonlar davrida shayboniylar ustunlik qilganlar. Keyinchalik safaviylarning qo‘li baland

kelgan va oxir-oqibatda, ular Xurosonni Movarounnahrda ajratib tashlashga muvaffaq bo'lganlar.

Albatta, bu yirik saltanatlar o'zaro hamkorliksiz yashashi mumkin emas edi. Shu bois XVI asrda shayboniylar bilan boburiylar o'rtasida elchilik munosabatlari o'rnatildi. Abdullaxon II boburiylar hukmdori Akbarshohga to'rt marta elchi yuborgan.

1572 yilda Abdullaxon Akbarshoh xuzuriga o'z elchilarini yuboradi. Maqsad o'zaro munosabatlarni yaxshilash, kerak bo'lsa harbiy ittifoq tuzish edi. 1577 yilda Abdullaxon ikkinchi marta elchi yuboradi. Bunda boburiylar Erondan Qandahorni tortib olishni, Abdullaxon esa Badaxshonni bosib olishni rejalashtirgan edi. 1584 yilda Abdullaxon Badaxshonni bosib oladi. Abdullaxon Akbarshohga uchinchi marta elchi yuborib Badaxshonni bosib olish sababini tushuntirishga harakat qiladi. Aytilishicha Badaxshonni Makkaga boradigan yo'lni g'ayridinlardan tozalash maqsadida amlga oshirilgani bayon etilgan.

1586 yil 23 avgustda Akbarshoh xam o'z elchisini yuboradi. U Abdullaxonga Turkiyaga qarshi kurashayotgan Eronga yordam berishni taklif etadi. Afsuski Abdullaxon Eronga qarshi kurashda Turkiya bilan ittifoq tuzish niyatida edi. Elchilar 1589 yilda vatanlariga qaytishadi. Bu paytda Abbos I Eronda vaziyatni mustahkamlab olgan edi. Ana shunday sharoitda Badaxshonda Abdullaxonga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Isyonda Akbarshohning qo'li bor degan gumon paydo bo'ldi. Badaxshon hukmdori Abdulmo'min Akbarshohga maktub yo'llab isyonchilarni qaytarishni, qizini nikohlab berishini, bitta viloyat tortiq kilishni talab etadi. Natijada munosabatlar chigallashadi. Abdullaxon elchi yuborib o'g'lining qilmishi uchun uzr so'raydi.

Akbarshohning o'g'li Jahongirshoh (1605–1627) va Buxoro xoni Imomqulixon davrida ikkala davlat o'rtasidagi elchilik munosabatlari davom etgan. Lekin Jahongirshohning o'g'li Shoh Jahon (1628–1658) davrida Hindiston – Buxoro munosabatlarida keskinlik yuz bergan. Bu Buxoro xoni Nodir Muhammadxon va uning o'g'li Abdulaziz o'rtasida yuz bergan nizo bilan bog'liq edi. Taxtdan ag'darilgan Nodir Muhammad Balxga qochadi. U o'g'liga qarshi kurashish maqsadida Hindiston hukmdori Shoh Jahondan yordam so'raydi. Shoh Jahon bu paytda qulay fursat kutib Balxni bosib olish niyatida yurar edi. Shoh Jahon darhol Balx ustiga «yordam» jo'natadi. Biroq hind qo'shinlarining Balxga yordamga emas, balki uni bosib olish uchun kelganligini tushunib yetgan Nodir Muhammadxon Eronga qochadi.

1645-yili Abdulazizxon Balxni qamal qiladi. Oxir-oqibat hind qo'shinlari o'z vatanlariga qaytib ketishga majbur bo'ladilar. Avrangzeb Olamgir (1658–1707) bilan Abdulazizxon hamda Subhonqulixon o'rtalarida elchilik munosabatlari davom etgan. Avrangzebdan keyin boburiylar sulolasi yana 150 yil hukmronlik qilgan bo'lsa-da, bu

saltanat tanazzul tomon yuz tutib bordi. Shunday bo'lsada, Hindiston va Buxoro munosabatlari to'xtab qolmagan. Savdo aloqalari ham to'xtovsiz davom etgan.

Xonliklarning eng yaqin qo'shnisi Afg'oniston edi. Mustaqil Afg'oniston davlati 1747-yilda tashkil topgan. Yosh afg'on davlati bilan Buxoro xonligi o'rtasidagi munosabatlar do'stona ruhda bo'lmagan. Bunga ikkala tomonning Amudaryoning janubiy qirg'og'idagi O'zbeklar istiqomat qilib turgan hududlarni o'z tasarruflarida saqlashga urinishlari sabab bo'lgan edi. Xususan, 1751-yili Afg'oniston hukmdori Ahmadshoh (1747-1773) Amudaryoning janubida istiqomat qilib turgan O'zbeklarning yerlarini bosib olish maqsadida qo'shin yuboradi. Bu hududda joylashgan kichik-kichik O'zbek bekliklari o'zaro urushlar oqibatida zaiflashib qolgan edilar. Natijada, ular Afg'onistonning vassaliga aylanib qolgandilar. Balx qa'lasini afg'on garnizoni egallaydi. Balxni Ahmadshohning noibi boshqara boshlaydi.

1768-yilda mahalliy O'zbeklar afg'onlarning jabr-zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olonchilarni Buxoro qo'llab-quvvatlaydi. Ana shunday vaziyatda Ahmadshohning o'zi qo'shin tortib kelib qo'zg'olonni bostiradi.

1789-yili O'zbeklar yana qo'zg'olon ko'taradilar. Qo'zg'olonchilarga bu safar ham Buxoro amaliy yordam ko'rsatadi. Afg'oniston hukmdori Temurshoh (1773–1793) 100 ming lashkar bilan Balxga qarab yuradi. Biroq Buxoroga qarshi yurish qilishga Temurshohning yuragi dov bermaydi va u Buxoro bilan sulh shartnomasi tuzishga majbur bo'ladi. Shartnomaga ko'ra Amudaryo har ikki davlat o'rtasidagi chegara deb tan olinadi.

Buxoro va Afg'oniston o'rtasida savdo aloqalari uzluksiz davom etgan. Kobul shahri savdo aloqalarida alohida o'rin tutgan. Kobul orqali Buxorodan Hindistonga, Buxoro orqali Afg'onistonga Rossiya tovarlari, Hindistondan Buxoroga hind tovarlari orilgan savdo karvonlari qatnab turgan.

O'rta Osiyo xonliklaridan Qo'qon xonligining Xitoy bilan munosabatlari ham do'stona emas edi. Bir tomondan Sin imperiyasi 1755-1759-yillar mobaynida Sharqiy Turkistonni o'ziga bo'ysundirib, Qo'qon xonligini kuchsizlantirishga urinardi. Ikkinchi tomondan, Qo'qon xonligi Sharqiy Turkistonda o'z hokimiyatini o'rnatishga intilib, Sharqiy Turkiston sari o'z chegarasini tobora kengaytirib borayotgan edi. Ayniqsa, XIX asrning 20-yillarida Qo'qon – Xitoy munosabatlari yanada keskinlashdi. Bunga Qo'qon xoni Muhammad Alixonning sharqiy turkistonliklarning Jahongirxo'ja boshchiligida Sin imperiyasiga qarshi 1825-yilda boshlangan milliy-ozodlik kurashiga aralashuvi sabab bo'ldi.

Xitoy hukumati 1829-yilda Qo'qonning Sharqiy Turkistonda yuritadigan savdo ishlarini taqiqladi, o'rta osiyolik savdogarlarning aksariyat qismini haydab, ularning mulklarini musodara qildi.

Bunga javoban Qo‘qon xoni Muhammad Ali sharqiy turkistonliklarning Xitoyga qarshi ozodlik kurashi rahbari Jahongirxo‘ja va uning ukasi Yusufxo‘ja ixtiyoriga Haqquli boshchiligida qo‘shin jo‘natadi. Natijada, Yusufxo‘ja Qashg‘arni egallaydi va Yorkentni egallash uchun harbiy harakatni davom ettiradi. Bu hol Xitoy hukumatini qattiq tashvishga solib qo‘yadi va Yusufxo‘jaga qarshi katta qo‘shin yuboradi.

Qo‘zg‘olonchilarning safida mustahkam birlik yo‘qligi hamda Buxoro – Qo‘qon munosabatlari yomonlashuvi oqibatida Qo‘qon xonining Sharqiy Turkistonga yuborgan qo‘shinini chaqirib olishi tufayli Yusufxo‘ja mag‘lubiyatga uchraydi. Oqibatda, Yusufxo‘ja Sharqiy Turkistonni tashlab chiqadi. U bilan 70 ming uyg‘ur oilasi Farg‘ona vodiysiga ko‘chib keladi.

Qo‘qon xonligi o‘z chegaralarini tobora Sharqiy Turkiston tomon kengaytirish siyosatini davom ettirgan. Ayni paytda Sin imperiyasi moliyaviy qiyinchiliklar tufayli Qo‘qon xonligiga qarshi ochiqdan ochiq urush harakatlari olib borishga qodir emas edi. Natijada, 1832-yilda Pekinda Xitoy-Qo‘qon shartnomasi imzolangan. Unga ko‘ra, Qo‘qon Jahongirxo‘ja avlodlarini Sharqiy Turkistonga o‘tkazmaslik majburiyatini olgan.

5. Markaziy Osiyoning jahon bozoridan uzilib qolishi va uning oqibatlari.

G‘arbiy Yevropaning ilg‘or mamlakatlarida sanoat ishlab chiqarishning yetakchi tarmog‘iga aylanib bordi. XVI asrning o‘rtalaridan boshlab to‘qimachilik, qog‘oz, shisha ishlab chiqarishda mehnat taqsimoti va qo‘l hunari texnikasiga asoslangan korxona–manufaktura (lotincha manus – qo‘l, faktura – tayyorlash)lar vujudga keldi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida asbob-uskunalarni harakatga keltiruvchi bug‘ mashinasi (motor) ixtiro qilindi. Natijada asosiy ishlarni mashinalar bajaruvchi fabrika-zavodlar vujudga keldi. Bug‘ mashinasi bilan harakatlanuvchi parovoz, paroxod, cho‘yan va po‘lat oluvchi domna pechlar yaratildi, temir yo‘llar qurildi.

Yirik boy tabaqalarning tashqi savdodan, mustamlakalardan, manufakturadan orttirgan boyliklari sanoatni rivojlantirish uchun sarmoya sifatida qo‘yildi. Bu sanoatning rivojlanishida muhim omil bo‘ldi. Eng muhimi xo‘jalik yuritish, harakatlanish uchun zarur bo‘lgan mashinalarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi, og‘ir sanoat vujudga keldi.

Biroq bu jarayon jahon mamlakatlarida nihoyatda notekis bordi. Ko‘pgina mamlakatlar, jumladan, O‘zbek xonliklari ham bu jarayondan chetda qolib, taraqqiyotda orqada qolib bordi. Bir paytlar jahonga Ahmad Farg‘oniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom al – Buxoriy, Amir Temur, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergan bu millat XVII–XIX asrlarga kelib zamonaviy taraqqiyotdan qator sabablar ko‘ra ortda qola boshladi. Buning sabablari nima eji?

Asrlar davomida bir butun bo‘lib kelgan mamlakatning, bir iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan aholining uchga bo‘linib ketishi, xonliklar o‘rtasida tinimsiz davom etgan urushlar mamlakatni qoloqlikka mahkum etdi. Har bir xonlik ichidagi hokimiyatni egallash uchun ichki kurash, o‘zaro nizo janjallai, boshboshdoqlik, Ig‘vo-fasodning avj olishi viloyat va tumanlami, qolaversa, butun mamlakatni xonavayron qilardi.

Xonliklarning asrlar davomida o‘zgarmay kelayotgan davlat idora usuli taraqqiyotga g‘ov bo‘lib qolgan edi. Xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar, etnik nizolar urug‘ qabila jamoalarini bir joydan boshqa joylarga ko‘chishini keltirib chiqarardi. Yoki ular zo‘rluk bilan yashab turgan joylaridan ko‘chirilar edi. Bu jarayon etnik guruhbozlikni keltirib chiqarardi, aholini bir butun xalq bo‘lib jipslashishiga xalaqit berardi. Davlat darajasida ham, viloyatlar darajasida ham yagona xalq, yagona Vatan tushunchasining qadri anglab olinmadi. Odamlarni, Turkistonni, xalqni birlashtirish g‘oyasi ostida uyushtira oladigan yo‘lboshchi, siyosiy kuch topilmadi.

Xonlar va saroy amaldorlari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojiga xalaqit berayotgan eski ishlab chiqarish usulini himoya qilardi. Xonliklarning asosiy boyligi bo‘lgan yerga egalik qilishning, mulk-chilikning eski usuli asrlar davomida o‘zgarmasdan kelardi. Yerning egasi xon edi, xonga alohida xizmat ko‘rsatgani uchun bir hovuch kishilaiga yer hadya qilinardi. Yerni ijaraga olib ishlovchi dehqon yerning egasi emasdi. Shu boisdan dehqon yerni asrab-avaylashga, uning unumdorligini oshirishga intilmasdi, manfaatdor emasdi. Dehqon yer egasi bo‘lmagani sababli boshqa joylarga ketaverardi.

Aholi og‘ir soliqlardan, g‘ayriqonuniy yig‘im va majbu-riyatlardan azob chekardi. Turmush darajasi past bo‘lib, aholi iste‘mol uchun eng zarur bo‘lgan tor doiradagi oddiy buyum va mahsulotlar bilan qanoatlanishga majbur edi. Ishlab chiqarish, asosan, iste‘molga yo‘naltirilgan bo‘lib, iqtisodiyotning o‘sishi uchun turtki bo‘lolmasdi.

Dehqonchilik nochor ahvolda edi. Yerga ishlov berish o‘sha-o‘sha bir juft ho‘kiz, so‘qa–omoch darajasida qolib ketgan edi. Sug‘orish ishlariga ahamiyat pasayib, sug‘oriladigan yer maydon-lari qisqarib borardi.

Xonliklarda sanoat ishlari rivojlantirilmadi. Rangli metallar, oltingugurt, marmar, toshko‘mir, neft kabi tabiiy boyliklarga mo‘l bo‘lgan konlar bo‘lsa-da, ularni izlab topish, tog‘-kon ishlarini yo‘lga qo‘yishga e‘tiborsizlik qilindi. o‘lkada yirik daryolar bo‘lsa-da, baliqchilikni sanoat darajasiga ko‘tarish, kemasozlikni yo‘lga qo‘yishga e‘tibor berilmadi.

Xon va aslzodalar boylikning asosi pul, oltin, kumush, qimmat-baho javohirlardan iborat, degan eski tasavvurlar ostida qolib ketdilar. Shu boisdan oltin, kumush, javohir va pullar ularning xazina to‘plash manbayi bo‘lib qolgan edi,

iqtisodiyot rivoji uchun kapital (sarmoya) sifatida sarflanmadi, o'lik mol sifatida saqlanardi. Davlat xazinasiga tushgan daromad qo'shin xarajatlarini zo'ig'a qoplardi.

Buyuk ipak yo'lining yopib qo'yilishi natijasida tovar-pul munosabatlari rivojlantirilmadi. Savdoda hamon mol ayirboshlash tarzi davom etardi. O'rta Osiyo jahon bozoridan ajralib qolgani ustiga, o'zaro urushlar tufayli xonliklar o'rtasida yagona ichki bozor ham tashkil topmagan edi.

Dunyoviy fanlar keyingi o'ringa tushirib qo'yildi. Shayboniylar davrida so'fizm davlat mafkurasiga darajastga ko'tarildi. Xon saroyida diniy ulamolardan iborat kengash tuziladigan bo'ldi.

Qoloqlik oqibatlari: O'zbek xonliklarining jahon taraqqiyotidan orqada qolishining oqibati yomon bo'ldi. Iqtisodiy qoloqlik va harbiy nochorlik, ijtimoiy-siyosiy beqarorlik O'rta Osiyoni o'z tasarrufiga kiritib olishga intilayotgan davlatlarga qo'l keldi.

Taniqli O'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy o'zining «O'tgan kunlar» romanida o'zaro urushlar girdobiga botib qolgan, vaqtini aysh-ishratda o'tkazayotgan xonlar va amaldorlarning qilmishlari qanday oqibatlaiga olib kelishini yaqqol tasvirlab beradi. Romanda Yusufbek hoji tilidan quyidagi alamli so'zlar bayon qilinadi: «Maqsadlari juda ochiq... Bittasi mingboshi bo'lmoqchi, ikkinchisi Normuhammadning o'rniga o'tirmoqchi, uchinchi yana bir shaharni o'ziga qaram qilmoqchi. Ittifoqning nima ekanligini, yolg'iz o'z manfaati, shaxsiyati yo'lida bir-birini yeb, ichgan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi... Biz shu holatda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadigan bo'lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar».

Haqiqatan ham shunday bo'ldi. Xonliklardagi o'zaro nizo va urushlar, parokandalik, oxir-oqibat, ularning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilishi uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Tayanch so'z va iboralar:

Xuroson, Xorazm, shialik, Baqtriya, Buyuk ipak yo'li, Dovon, Ellinlashtirish, Uyg'onish davri, universallik- qomusiylik, Turon, milliy biqlik, siyosiy tarqoqlik, tanho, iqto.

Mavzuni mustahkamlash yuzasidan savollar:

1. Shayboniylar davlatining hududini aniqlang?
2. Shayboniylarning tariximizdagi katta xizmati?
3. Shayboniylarning Eron va Hind bilan munosabatlari?

4. Xalqaro munosabatlar tizimida Xuroson muammosi qaanday o‘rin tutdi?
5. Shayboniylar-Safaviylar, Shayboniylar-Boburiylar munosabatlari?
6. Qo‘qon-Xitoy munosabatlari keskinlashuvi sabablari?
7. Markaziy Osiyoning jahon bozoridan uzilib qolishi va uning oqibatlarini nimada?

8-MAVZU: “Katta o‘yin” kontsepsiyasi va uning geosiyosiy mohiyati (1-bosqich)

1. “Katta o‘yin” tushunchasi, mohiyati va kelib chiqish tarixi.
2. O‘zbek xonliklari va Rossiya imperiyasi munosabatlari
3. O‘rta Osiyoda Angliya va Rossiya manfaatlar doirasining to‘qnashuvi va uning asosiy sabblari.
4. 1839 yilgi Angliya-Afg‘oniston urushi va uning geosiyosiy vaziyat rivojiga ta‘siri.
5. Markaziy Osiyodagi manfaatlar doirasini belgilashda Angliya-Rossiya bitimi.

1. “Katta o‘yin” tushunchasi va kelib chiqish tarixi. «Katta o‘yin» («Great game») kontsepsiyasi xalqaro munosabatlar tarixida ikki bosqich yoki ikki to‘lqindan iborat. Kontsepsiya obyektni Markaziy Osiyo mintaqasi, predmetini esa mazkur mintaqadagi siyosiy jarayonlar tashkil etadi. Kontsepsiya subyektlari yetakchi xorijiy davlatlar hisoblanadi. Odatda “Katta o‘yin” atamasi qayd etib o‘tilganidek Markaziy va Janubiy Osiyoda o‘z hukmronligini o‘rnatish uchun Buyuk Britaniya va Rossiya o‘rtasida olib borilgan qarama-qarshilikni tavsiflash uchun ishlatilgan. “Katta o‘yin” atamasini ilk bor Ost-Indiya kompaniyasining zobiti Artur Konnolini 1840 yilda Bombay gubernatoriga yo‘llagan maktubida ishlatgan edi. Ingliz yozuvchisi Redyard Kipling qator asarlarida bu atama yanada ommalashib ketdi.

«Katta o‘yin» kontsepsiyasi XIX asr II-yarmi va XX asr boshlarida Angliyaning Janubiy Osiyo orqali (janubdan shimol tomon) va Rossiyaning shimoldan Markaziy Osiyo mintaqasini bosib olish uchun intilishlari, olib borgan harbiy-diplomatik munosabatlari asnosida shakllangan. O‘zini “dengiz hukmdori” deb hisoblovchi Buyuk Britaniyaning (Rimlend) quruqlikda tobora qudratga to‘layotgan Rossiyaga (Xartlend) qarshi kurashga kirishi qachondir sodir bo‘lishi turgan gap edi. Qolaversa ingliz hukmron tabaqalarini xavotirga solayotgan omil shu ediki Britan Hindistoni o‘z tarixida har doim Markaziy Osiyo tomonidan kelgan raqib tomonidan bosib olingan (Aleksandr Makedonskiy, G‘aznaviylar, Xorazmshohlar, Amir Temur, Bobur va sh.k.). Xalqaro munosabatlar tarixida bu davr «Katta o‘yin» kontsepsiyasining birinchi to‘lqini nomini olgan.

Konsepsiyaning ikkinchi to‘lqini XX asr oxirida yangi mustaqil davlatlar – Ozarbayjon, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘istonni o‘z nazoratiga olish istagi bilan Turkiya va Eron davlatlari tashabbuskorligida

shakllandi. Keyinchalik bu ikki davlat qatoriga AQSH, Pokiston, Rossiya, Xitoy, Hindiston va boshqa yetakchi davlatlar ham qo'shildi. Shuningdek "Yangi katta o'yin" obyekti ham o'zgardi. Bu jarayon endi o'ziga Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Sharqiy Yevropa hududini ham ola boshladi. Mutaxassislar o'rtasida konsepsiya ikkinchi to'lqini «New Great game» -«Yangi buyuk o'yin» konsepsiyasi deb ham qo'llanilmoqda.

2. O'zbek xonliklari va Rossiya imperiyasi munosabatlari. O'rta Osiyo va Rossiya xalqlari o'rtasidagi munosabatlar, savdo aloqalari tarixi uzoq o'tishga borib taqaladi. Volgabo'yi orqali Rus savdogarlari ham, O'rta Osiyo savdogarlari ham ikki mintaqada o'rtasida savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaganlar. XVI asrda jahondagi yirik davlatlar tomonidan dunyoni bo'lib olish uchun kurash boshlangan davrda Rossiya Qozon, Astraxan, Sibir xonliklarini zabt etadi. Natijada Rossiya va O'zbek xonliklari bir-biriga bevosita qo'shni bo'lib qoladi. Bu holat ularning o'zaro munosabatlarini yanada rivojlantirishga imkoniyat yaratdi. O'rta Osiyoning savdo-hunarmandchilik doiralari o'z mahsulotlarini, ayniqsa, ipak, paxtadan to'qilgan matolarni talab qilayotgan Rossiya bilan savdo-tijorat munosabatlarini rivojlantirishdan g'oyat foydalanar edi. Rossiyaning movut, temir, mis, mo'yna, charm va boshqa mollari o'rta Osiyoda xaridorgir edi. Savdo-sotiq ishlari uchun qulay shart-sharoit yaratishda O'zbek xonliklari va Rossiya o'rtasidagi elchilik munosabatlari muhim o'rin tutardi.

Rossiya va xonliklar o'rtasida XVII asrda olib borilgan elchilik munosabatlari ham muhim ahamiyat kasb etdi. 1619-yilda Imomqulixonning elchisi Odambiy Moskvaga boradi va podsho Mixail Romanov qabulida bo'ladi. Podsho Odambiy bilan birgalikda Buxoroga Ivan Xoxlov boshchiligidagi elchilarni yuboradi. I. Xoxlovni Imomqulixon qabul qiladi, rus podshosi iltimosiga binoan o'z saroyidagi 23 nafar rus asirlarini ozod qiladi. I. Xoxlov 1620–1622-yillarda Buxoro xonligining ichki va tashqi siyosati haqida qimmatli ma'lumotlar to'playdi. U qimmatli sovg'alar bilan Moskvaga kuzatiladi. Yozma manbalarga ko'ra, XVI–XVII asrlarda Buxoro va Xiva xonliklariga Rossiyadan 12 marta elchilar kelishgan. 1583–1600-yillarda Moskvada besh marotaba Buxoro elchilari, ikki marotaba Xiva elchilari bo'lishgan. Bu misollar o'rta Osiyo va Rossiya o'rtasida savdo-diplomatik aloqalarning ancha faollashganligidan guvohlik beradi.

XVIII asrdan boshlab Rossiya imperiyasining O'zbek xonliklari bilan bo'lgan munosabatlarida tazyiq o'tkazishi ustunlik qila boshladi. Bu Rossiya imperiyasining siyosatida O'rta Osiyo xonliklarini savdo-sotiqda kamsitish, ularning tabiiy boyliklariga ko'z olaytirish, strategik maqsadlarni ro'yobga chiqarish kayfiyatining kuchayganligida yaqqol namoyon bo'la boshladi.

Pyotr I Buxoro va Xiva xonliklarini siyosiy jihatdan Rossiyaga teng davlatlar emas deb hisoblab, ularga tazyiq o'tkaza boshladi. Bunga xonliklardagi ichki siyosiy ahvol ham qulay sharoit yaratib bergan edi. Masalan, Xiva xoni Shohniyoz 1700-yilda Pyotr I huzuriga yashirinchalik elchi yuborib, Xivani Rossiya tobeligiga qabul qilishni so'ragan. 1709-yili toj-u taxt vorisi Muhammad ham shunday qilgan edi. Pyotr I ning Xiva xoniga jo'natgan elchisi yorlig'ida shunday gaplar yozilgan edi: «Shohona muruvvat ko'rsatib, xonning qo'l ostidagi jamiki narsalari bilan birga, abadiy tobeligimizga olamiz». Biroq bu niyat u davrda amalga oshmay qoldi. Xivada boshlanib ketgan ichki urushlar va chor Rossiyasining «Shimoliy urush» bilan bandligi bunga sabab bo'ldi.

1713-yili Astraxanga kelgan Xiva elchisi Xoja Nafas rus ma'murlariga, Sankt-Peterburgga borgach podsho Pyotr I ga Amudaryo sohillaridagi qumlar oltinga boyligini, sohilda istiqomat qiluvchi aholi ko'p miqdorda oltin yuvib olayotganini aytadi. Ana shu ma'lumotlar ta'sirida Pyotr I O'zbek xonliklariga kirib borish maxfiy rejasini tuzadi. U ikkita harbiy ekspeditsiya tashkil etadi. Biriga Aleksandr Bekovich-Cherkasskiyni, ikkinchisiga kapitan Ivan Buxgolsni rahbar etib tayinlaydi.

Bekovich-Cherkasskiy harbiy ekspeditsiyasi tarkibida katta harbiy qo'shin bor edi. Ular 1717-yilda Xiva xonligi hududlariga kirib keladi va harbiy to'qnashuvlar bo'ladi. Xiva xoni Sherg'ozixon hiyla ishlatib Bekovich-Cherkasskiyni qabul qiladi va uning qo'shinlarini qirib tashlaydi. Pyotr I uyushtirgan ekspeditsiyaning halokati Xiva – Rossiya munosabatlarini keskinlashtirib yubordi.

Buxgols «yekspeditsiyasiga» kelsak, uning qo'shini 1715-yili Toboldan Irtish bo'ylab Yorkentga yo'l oladi. Bu guruh Yamishchev ko'lida bo'lib, u yerda istehkom quradi. Biroq ular qalmoqlar hujumiga uchrab, orqaga chekinishga majbur bo'ladilar.

1717-yili Buxoro xoni Peterburgga o'z elchisini yuboradi. Elchi Qulibek Abulfayzxonning Pyotr I ga shvedlar ustidan qozongan g'alabasi munosabati bilan yozilgan qutlov maktubini topshiradi. Abulfayzxon o'z maktubida ayni paytda Buxoroga Rossiya elchisi yuborilishini so'ragan edi. Bunga javoban Rossiya hukumati 1721-yili Florio Beneveni elchi qilib jo'natadi. Rossiya elchisiga Sharq mamlakatlariga olib boradigan suv va quruqlik yo'llarini o'rganish; rus savdosini kengaytirish imkoniyatlarini aniqlash; Buxoro xonini Rossiya bilan ittifoq tuzishga ko'ndirish; xonga rus gvardiyachilarini taklif qilish; qayerda qancha oltin borligini aniqlash va ularni xaritaga tushirish; xonlikdagi qal'a va qo'shinlari ahvolini o'rganish hamda xonlikning Eron va Xiva bilan o'zaro munosabatlarini o'rganish vazifalari yuklatilgan edi. F. Beneveni Buxoroga yetib keladi va Abulfayzxon qabulida bo'ladi.

F. Beneveni Buxoroda 3,5 yil turdi va o'z oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha qimmatli ma'lumotlar to'plashga muvaffaq bo'ladi. Ularni Sankt-Peterburgga ochiq

va shifrlangan xat orqali jo‘natib turadi. Hukumatning barcha topshiriqlarini bajargan F.Beneveni 1725-yilda Peterburgga qaytib ketadi.

XVIII asrning birinchi choragida Kichik, O‘rta, Katta juzga bo‘lingan qozoq sultonlari o‘rtasida o‘zaro kurash kuchaydi. Natijada ular nochor ahvolga tushib, tashqaridan yordam so‘rashga majbur bo‘ldilar. 1730-yilda Kichik juz sultoni Abulxayr Rossiyaga elchi jo‘natib, Rossiya tobeligiga o‘tish istagini bildiradi. 1732-yilda Kichik juz, 1739-1740-yillarda Semekexon boshchiligidagi O‘rta juz, 1747-yilda Katta juz ham Rossiya tobeligiga o‘tadi. Natijada Rossiya hukumati uchun O‘rta Osiyoni o‘z ta’siriga bo‘ysundirish yo‘lida qulay imkoniyat yuzaga keladi.

1734-yili senat kotibi Kirillov boshchiligidagi harbiy guruh tayyorlanadi. U “Orol dengizida Rossiya bayrog‘ini ko‘tarish”, “Buxoro va undan Hindistonga” boradigan yo‘lni ochishi, oltin konlarini izlashni davom ettirishi lozim edi. 1735-yilda Kirillov guruhi Or daryosi bo‘yida Or qal’asini qurdi (keyinchalik bu qal’a atrofida Orenburg shahri vujudga keladi), Yoyiq va Irtish sohillari (Sibir)da istehkomlar barpo etdi. Xonliklar savdogarlari Rossiya bilan Orenburgda savdo-sotiq qiladigan bo‘lishdi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya savdo-iqtisodiy aloqalarida O‘rta Osiyo xonliklarining ahamiyati yanada orta bordi. Bunda, birinchidan, Rossiyada rivojlanib borayotgan sanoat uchun xomashyo manbalari topishga intilish, ikkinchidan, Osiyoda, xususan Hindistonda Angliya ta’sirining kuchayib borayotganligi sabab bo‘lgan.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida rus sarmoyasi O‘rta Osiyo bozorida yetakchi o‘rinni egalladi. Ingliz mollari Rossiya orqali olib kelinar edi. Nijegorod yarmarkasida rus savdogarlaridan tashqari O‘zbek xonliklari, Eron va Hindistondan kelgan savdogarlar ham qatnashgan. XIX asr boshlarida Rossiya O‘zbek savdogarlari uchun katta imkoniyatlar yaratdi, ba’zi cheklashlar bekor qilindi. Endi ular Rossiyaning ichkari shaharlariga ham borib savdo qila oladigan bo‘lishdi.

3. O‘rta Osiyoda Angliya va Rossiya manfaatlari doirasining to‘qnashuvi va uning asosiy sabblari. XIX asrning birinchi yarmida Angliya va Rossiya davlatlari o‘rtasida Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari hududlari uchun raqobatchilik kuchayib, keskinlashib ketdi. Bu paytda jahonning yetakchi mustamlakachi davlatlari o‘z taraqqiyotining yuksak darajasiga erishdilar. Ularda sanoat to‘natarishi amalga oshirildi. Sanoat zamonaviy fan-texnika yutuqlari asosida qayta jihozlandi. Tovar ishlab chiqarish keskin o‘sib bordi. Kuchli dengiz flotlari tashkil etildi. Va shunga mos ravishda armiya ham zamonaviy qurol-yarog‘ bilan ta’minlandi. Ma’lumki rus imperatorlari Rossiyani ayni damda janubdagi iliq dengiz sohillariga olib chiqishga harakat qilishar edi. Bu esa ingliz manfaatlariga zid edi. Buyuk Britaniya nafaqat Markaziy Osiyoni qo‘ldan ketishidan havfsirar edi. Ayni damda ingliz Hindistoni ham havf ostida qolishi hech gap emas edi. Raqobatchilikning kuchayishiga

quyidagilar sabab bo'ldi:

- Angliya va Rossiyaning O'rta Osiyo hisobiga yangi mustamlakalarga ega bo'lish yo'lidagi urinishlari;
- o'z mollarini sotish va undan mo'may daromad olish uchun O'rta Osiyo bozorlarini egallash istagi;
- O'rta Osiyoning boy xomashyo manbalariga ega bo'lishga intilishlari.

Bu omillar dunyodagi ikki yirik mustamlakachi davlatlar manfaatlarining to'qnashuviga olib keldi. Yuqorida qayd etilgan ushbu "Katta o'yin" da dunyoning qolgan yetakchi davlatlari nega faol ishtirok etishmadi yoki bo'lmasa ular nega jim turishdi degan savol paydo bo'lishi mumkin. Gap shundaki bu paytda xonliklar faqatgina ingliz mustamlakalari va rus yerlariga tutash bo'lishgani uchun uchinchi ishtirokchining (Fransiya bo'ladimi, Germaniya bo'ladimi) kirib kelishining imkoni yo'q edi.

XVII asr boshlariga kelib Hindistonda Britaniyaga tegishli "Ost-Indiya" kompaniyasi dastlab savdo tashkiloti sifatida faoliyat boshlagandi. Asr o'rtalariga kelib "Ost-Indiya" Buyuk Britaniyaning bosqinchilik siyosatini amalga oshiruvchi instrumentga aylanib ulgurdi. Hindistonda mustahkam o'rnatilgan ingliz mustamlakachilari o'zlari tuzgan Ost-Indiya (Sharqiy Hindiston) kompaniyasi vositachiligida O'rta Osiyo tomon siljishga urindilar. Ularning maqsadi Rossiyaning O'zbek xonliklaridagi ta'sirini yo'qqa chiqarish hamda xonliklarni o'z ta'sir doirasiga olishdan iborat edi. Angliya hukmron doiralari xonliklarning ichki va tashqi ahvolini, ularni bog'lab turgan yo'llarni aniqlash, xonlar bilan aloqa o'rnatish maqsadida maxsus ekspeditsiyalar yubora boshladi. Ekspeditsiyalar zimmasiga, ayni paytda, mahalliy nufuzli kuchlar bilan aloqa o'rnatish vazifasi ham yuklatilar edi.

Ingliz ekspeditsiyalaridan biri U.Murkford boshchiligida uyushtirildi. Murkford ekspeditsiyasi 1825-yil fevral oyida Buxoroga yetib keldi. Manbalarda qayd etilishicha, ekspeditsiya tarkibida 70 ta kishi bo'lib, ular olib kelgan 80 sandiq turli xil mollar Buxoro qushbegisiga ko'rsatilgan. Inglizlar Buxoro xonligini har tomonlama o'rganishga, mahalliy hukmdorlar orasida inglizlarga tarafdor guruhni shakllantirishga muvaffaq bo'lgan edi.

Murkford ekspeditsiyasidan xabar topgan Rossiya hukmron doiralari tashvishga tushdilar. Natijada Rossiya hukumati Buxoro amiri Haydarga inglizlarning Buxorodagi xatti-harakatidan noroziligini bildiradi. Rossiya hukmron doiralarida borgan sari O'rta Osiyoni bosib olish kayfiyati kuchayib bordi. 1826-yilda Rossiya hukumati polkovnik F. Berg boshchiligida Ustyurtga ekspeditsiya yuborib, O'rta Osiyoga boradigan yo'llarni yanada aniqroq belgilab oldi.

1831-yilda inglizlar O'rta Osiyoga ikkinchi marta elchi yubordilar. Elchilarga ingliz armiyasi leytenant Aleksandr Byorns boshchilik qildi.

Ingliz ekspediyasi vakillari odatda savdogarlar sifatida kirib kelishadi. A. Byorns 1832-yilda Buxoroga kirib keldi. U o'zini arman savdogari deb tanitdi. Qo'lida hind va afg'on savdogarlarining tavsiyanomalari bo'lgan bu «tadbirkor» Buxoro xonligi qushbegisi bilan aloqa bog'lay oldi. Angliya hukumati Hindiston bilan O'rta Osiyo o'rtasida savdo aloqalarining kengayishiga o'zining xonliklardagi ta'sirini qaror toptirishning asosiy yo'li deb qarar edi. Shuning uchun ham Angliya hind savdogarlariga xonliklar bilan savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yishlarida katta yordam ko'rsatdi. Xususan, hind savdogarlariga qarz hamda ingliz mollari berib turildi. Bu mollar O'rta Osiyoda Rossiya mollari narxidan arzonroq sotilar edi. Ma'lumki sanoat ishlab chiqarishining yuksalishi natijasida Angliya tarixida ilk bor 1825 yilda ortiqcha ishlab chiqarish krizisi sodir bo'lgan edi. Sotilmay qolgan mollarni arzon narxlarda hind orqali tashish boshlandi.

Aleksandr Byorns mamlakat hududida katta razvedka ma'lumotlari ham to'play oldi. Bu elchilik missiyasi O'rta Osiyoda ingliz savdosining rivojlanishiga yordam berdi.

1839-yili Angliya Afg'onistonga qarshi harbiy harakatlar boshlaganida Rossiya – Angliya munosabatlari yanada keskinlashgan. Agar Afg'oniston bosib olingudek bo'lsa, navbat O'rta Osiyoga kelishi mumkin edi. 1839-yili Hirotida o'z qarorgohini vujudga keltirgan ingliz razvedkasining ayg'oqchilari O'rta Osiyo xonliklariga yuborilib turildi. Xususan, ingliz razvedkasi vakillaridan kapitanlar Jeyms Abbot, Charlz Stoddart, Konolli, Richard Shekspirlar Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklariga kelib harbiy, siyosiy, iqtisodiy masalalarda ma'lumotlar to'plab, o'z rahbarlariga yetkazardi.

Inglizlarning O'rta Osiyodagi harakatlaridan tashvishga tushib qolgan Rossiya 1839-yili Xiva xonligiga qarshi birinchi harbiy yurishni boshladi. Bu yurishga Orenbui'g gubernatori V. A. Perovskiy rahbarlik qilgan edi. Biroq yurish qatnashchilarining o'zini sovuqqa oldirishi, oziq-ovqat, yem-xashakning tugab borishi oqibatida orqaga qaytadi. Bu yurish muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya munosabatlarining keskinlashuviga podsho Rossiyasining O'rta Osiyoda o'z ta'sirini mustahkamlash yo'lidagi harakatlari sabab bo'ldi. Xususan, 1847-yilda Rossiya xonliklarga olib boradigan yo'lda ikkita istehkom qurdi. Ularning biri – Aralsk shahri yaqinida barpo etilgan (Sirdaryo o'zani yaqinida) Raim istehkomi, ikkinchisi Yettisuv Olatog'idagi Kopal istehkomi edi. Bu istehkomlar Rossiya olib borgan siyosatda harbiy yo'l bilan O'rta Osiyoni ishg'ol etish tomon burilish ro'y berganligining yaqqol isbotidir. Bu hol O'rta Osiyo xonliklarini tashvishga solib qo'ydi. Shuning uchun ham Xiva xoni Orenburgga o'z vakillarini yubordi. Xon o'z maktubida yaxshi qo'shnichilik o'rnatish hamda do'stona yashash istagini bildirgan hamda Raim istehkomini buzib tashlashni iltimos qilgan edi. Xiva elchilari 1847-yilda Peterburgda podsho qabulida bo'lgan bo'lsalar-

da, ko‘zlangan maqsadga erisha olmadilar. Piterburg hukmron doiralari qal’a garnizoni elchilik va savdo karvonlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etishini aytishadi.

Xiva xonligining qurol kuchi bilan istehkomni yo‘q qilish yo‘lidagi urinishlari natija bermadi. Chunki, rus garnizoni yaxshi qurollangan edi. Bu paytda Qo‘qon – Rossiya munosabatlari ham keskinlashgan edi. Qo‘qon xoni Xudoyorxon ham yangi istehkomlar qurilganligidan tashvishga tushib qolgan edi. Natijada, Xudoyorxon Rossiyaga elchi yuboradi. Podsho nomiga yo‘llangan maktubda Xudoyorxon Nikolay I ga Qo‘qon xonligida jamoat tartibi tiklanganligini, savdo yo‘llari yaxshi qo‘riqlanayotganligini, rus savdogarlari uchun hech qanday xavf-xatar yo‘qligini bildirgan. Ayni paytda, Raim istehkomi qurilganligidan norozi ekanligini ma’lum qilgan.

Nikolay I o‘z javob maktubida Qo‘qonda tartib o‘rnatilganligidan mamnun ekanligini bildirgan, biroq Raim istehkomi buzilmasligini tasdiqlagan edi. Podsho o‘z fikrini Raim istehkomining avvalo Rossiya hududiga qurilganligi bilan, ikkinchidan esa, bu istehkom u qurilgan hududda tartib va tinchlikni, savdo karvonlari osoyishtaligini ta’minlashga xizmat qilayotganligi bilan «asosl原因an» edi. Tez orada Qo‘qon qa’lasi bo‘lgan Oqmasjidni Rossiya bosib olishni mo‘ljallayotgani ma’lum bo‘lgach, Rossiya – Qo‘qon munosabatlari yanada keskinlashdi.

Yuqorida qayd etilganlar ertami-kechmi Rossiyaning O‘rta Osiyo xonliklariga qarshi bosqinchilik yurishi boshlashi muqarrar ekanligini ko‘rsatar edi.

4. 1839 yilgi Angliya-Afg‘oniston urushi va uning geosiyosiy vaziyat rivojiga ta’siri.

Inglizlar Hindistonda XVII asr boshlarida paydo bo‘lishgan edi. Buyuk Britaniyaning “Ost-Indiya” kompaniyasi Hindiston bilan olib boriladigan savdo munosabatlarini o‘z qo‘liga olgan edi. Bu savdo tashkiloti vaqt o‘tishi bilan faqatgina savdo tashkiloti bo‘lib qolmasdan, balki Buyuk Britaniyaning markaziy va janubiy osiyodagi olib boradigan siyosiy-diplomatik va harbiy harakatlarida muhim, hal qiluvchi instrument vazifasini ham o‘tab boshladi. XVIII asr oxiriga kelib Hindistonni egallash deyarlik yakunlandi. Bu paytda ruslarning Kavkazda va O‘rta Osiyodagi harakatlari kuchayib bordi. 1717 yilda Bekovich – Cherkasskiy boshchiligidagi rus ekaspeditseyasi taqdiri fojeali tugagan bo‘lsada, rus elchilarining kirib kelishlariga chek qo‘yilmadi. 1722-1723 yillarda rus qo‘shinining Eron qilgan harbiy yurishlarini ba’zi tadqiqotchilar “Katta o‘yin” siyosatining boshlanishi deb ta’riflashadi. Negaki bu jangda fors qo‘shinlariga ingliz harbiy maslahatchilari yaqindan yordam berishadi. 1796 yilda rus imperatori Yekaterina II (1762-1796) vafot etadi. Taxtga o‘g‘li Pavel I (1796-1801) o‘tiradi. U onasining olib olib borgan ichki va tashqi siyosatini yoqtirmas edi. Shuningdek saroydan Yekaterina davrida

yig'ilgan aslzodalarni haydab boshladi. Rossiya tashqi siyosatida keskin burilish boshlab sharqqa yurish boshladi. Fransuz imperatori Napoleon Bonapart bilan kelishib hindga birgalikda rus-fransuz qo'shinlarini yuborishga qaror qiladi. O'z navbatida hindga katta qo'shin jo'natiladi. Faqatgina Pavel o'ldirilishi natijasida bu reja amalga oshmay qoldi.

1812-1813 yillardagi rus-eron urushlarida ham fors qo'shinlariga ingliz instruktorlari katta yordam berishgan. Bu urush Guliston va Turkmanchoy bitimlarining imzolanishi bilan yakuniga yetdi.



“Meni do'stlarimdan xalos eting”. “Katta o'yin” davri karikaturasi. Afg'on amiri Sher Ali Rossiya (ayiq) va Angliya (sher) o'rtasida.

1837 yilda Afg'onistonga rus elchisi poruchik Vitkevich keladi. U afg'on amiri Do'st Muhammad qabulida bo'ladi. O'zaro muzokaralar natijasida Rossiya manfaatlariga xizmat qiladigan shartnoma imzolashga erishadi. Lekin Buyuk Britaniyaning talabi bilan Rossiya Vitkevichni Afg'onistondan chaqirib olishga majbur bo'ladi. O'rtada imzolangan shartnoma o'z kuchini yo'qotadi. Vitkevichdan bir yil oldin maxsus missiya bilan Afg'onistonga ingliz elchisi agent Byorns kelgan edi. Inglizlar 1838 yilda faol jangovar harbiy harakatlarni boshlab yuborishdi. Afg'onlarning uyushmaganligi, armiyaning harbiy-texnik qoloqligi inglizlarga qo'l keldi. Ingliz qo'shini tezda mamlakat ichkarisiga chuqur kirib bordi. Mamlakat poytaxti bosib olindi. Rossiyaparast amir Do'st Muhammad taxtdan ag'darib tashlandi. Afg'on taxtiga inglizlar o'z “odami” qo'yishdi. Ingliz okkupatsiyasi uch yil davom etdi. Lekin 1841 yilda mamlakatda yana taxt to'ntarish amalga oshirildi. Inglizlar mamlakatdan haydab chiqarildi. Agent Byorns o'ldirildi. Bir yil o'tgach Buxoroda amir Nasrullo tomonidan ingliz agenti Konolli o'ldirildi. Bu ingliz elchiligining yakunidan darak berardi.

5. Markaziy Osiyodagi manfaatlar doirasini belgilashda Angliya-Rossiya bitimi.

XIX asr oxiriga kelib jahonning yetakchi lider mustamlakachi davlatlari dunyoni bosib olishni yakunlashdi. Asosiy yirik mustamlakalar Buyuk Britaniya, Rossiya,

Fransiya qo‘lida to‘plandi. Bu kurashga masalan Germaniya kech qo‘shildi. Natijada dunyoning bunday taqsimlanishidan norozi davlatlar paydo bo‘ldi, ularning manfaatlari turli joylarda to‘qnash kela boshladi. Natijada 1882 yilda Germaniya imperiyasi, Avstro-Vengriya imperiyasi, Usmoniylar imperiyasi ishtirokida Uchlar Ittifoqi tuzilgan edi. Bu ittifoq birinchi galda Angliya va Rossiya qarshi qaratilgan edi. O‘rta Osiyo xonliklarining Rossiyaga qarshi turishda Angliyaga suyanishi mumkinligi ehtimoli ham o‘zini oqlamadi. Bunga Rossiya – Angliya munosabatlarida o‘zgarish yuz berganligi sabab bo‘lgan edi. Afg‘onistonga qarshi urushda mag‘lubiyatga uchragan Angliya Rossiya bilan kelishishga qaror qiladi. Bu kelishuvga binoan Rossiya O‘rta Osiyo bilan cheklanadi, Hindistonga chiqish niyatidan voz kechadi. Angliya esa Rossiyaning O‘rta Osiyoda olib borgan siyosatiga qarshilik qilmaydigan bo‘ladi. Afg‘oniston esa Angliya va Rossiyaning Osiyodagi mustamlakalari o‘rtasida ularni ajratib turuvchi hudud sifatida e‘tirof etiladi.

O‘rta Osiyo xonliklari endilikda yakkalanib qolib, ularni faqat o‘zaro ittifoqlarigina saqlab qolishi mumkin edi. Afsuski, ularning o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyat shu darajada kuchli ediki, hatto tashqi hujum xavfi ham ularni birlashtira olmadi. Oqibati yomon bo‘ldi. Xonliklar Rossiya istilosi qurboni bo‘lishiga yo‘l ochildi.

Mag‘lubiyat sabablari: uchala xonlik ham Rossiya bilan janglarda iqtisodiy, harbiy jihatdan zaif edi; ular o‘rtasida birlik yo‘q edi, o‘zaro yordamga kelishmadi; xonliklardagi zo‘ravonlik ichki dushmanlar ko‘payishiga olib keldi; xonliklar dunyodan ajralib qolgan bo‘lib tashqi yordam bo‘lmadi.

Tayanch so‘z va iboralar:

“Katta o‘yin”, Xuroson, Xorazm, Hind, Buyuk ipak yo‘li, Dovon, Turon, milliy biqlik, siyosiy tarqoqlik, tanho, iqto, parokandalik, mustamlakachilik, jahon savdosi, kapital, Uchlar ittifoqi, Antanta.

Mavzuni mustahkamlash yuzasidan savollar:

1. “Katta o‘yin” tushunchasi va kelib chiqish tarixi haqida nima bilasiz?
2. O‘zbek xonliklari va Rossiya imperiyasi munosabatlari qay ahvolda edi?
3. O‘rta Osiyoda Angliya va Rossiya manfaatlari doirasining to‘qnashuvi va uning asosiy sabblari nimada?.
4. 1839 yilgi Angliya-Afg‘oniston urushi qanday yakun topdi?
5. O‘rta Osiyodagi manfaatlar doirasini belgilashda Angliya-Rossiya bitimi qachon imzolandi?
6. “Katta o‘yin” ning birinchi bosqichi qanday yakun topdi?

9-MAVZU: Geosiyosiy bilimlar rivojida I.Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarining nazariy-metodologik ahamiyati

Reja:

1. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asari” da geosiyosiy masalalar.
2. Dunyoning mo‘rt, murakkab va muammoli bo‘lib turganligini ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy omillar.
3. Mintaqaviy, diniy tusdagi tahdidlar va ularning geosiyosiy xarakteri.
4. Xalqaro hamkorlik tahdidlarga qarshi kurashning muhim omili.

1. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asari” da geosiyosiy masalalar. Insoniyat, mamlakatlar va xalqlar hayotida XX asr poyonida muhim o‘zgarishlar sodir etildi. Uzoq davom etgan ikki qarama-qarshi qutblarning siyosiy-mafkuraviy, harbiy-texnik sohadagi kurashiga chek qo‘yildi. Biz yashayotgan davr qanday xususiyatlarga ega? So‘nggi vaqtlarda jahonda yuz bergan, dunyoning geografik-siyosiy tuzilishini va xaritasini tubdan yangilagan o‘zgarishlar hozirgi zamon va kelajak uchun qanday tarixiy ahamiyatga molik? Bular haqida mulohaza yuritish va ularga to‘g‘ri baho berish, hamda to‘g‘ri xulosalar qilish juda muhim. Ikkiti g‘oviy tizimning qarama-qarshiligi tugagach dunyoning qator mintaqalarida parokandalik boshlanib, olovli nuqtalar ham paydo bo‘ldi. Bunday sharoitda har bir davlat o‘zining geografik joylashgan o‘rni, geogstrategik mavqei, xalqining milliy turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyati, tashqi siyosiy, harbiy omillarni hisobga olib o‘z xalqining azaliy orzu-umidlariga xizmat etadigan taraqqiyot dasturini yaratishi, uni izchil yo‘lga qo‘yishi muhim ahamiyat kasb etardi. Bu bilan bog‘liq ustuvor vazifalar, yo‘nalishlar, o‘z yo‘limizning shart-sharoitlari va zaminlari I.A.Karimovning «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» asarida chuqur bayon etilgan. Mustaqill bo‘lgan har bir davlat o‘z taraqqiyot yo‘lini izlaydi. Jahon va o‘zimizning amaliyotimizdan olingan barcha unumli tajribani rab etmagan holda o‘z taraqqiyot yo‘limizni tanlab olish respublikaning qat’iy pozitsiyasi¹ ekanligi ko‘rsatib o‘tildi. Ijtimoiy, siyyosiy, iqtisodiy, ma’naviy sohadagi vazifalar belgilab olindi. O‘zbekiston tashqi siyosatining qoidalari belgilab berildi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning besh tamoyili I.Karimovning «O‘zbekiston-bozorga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» (1993 yil), O‘zbekiston-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida» asarlarida keng yoritildi.

¹ Каримов И. А. Навфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Асарлар, 6-жилд. –Т.: “Ўзбекистон”, 1998.

“O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asari” da esa yangi ming arafasida insoniyatni kutayotgan keng qamrovli global muammolarni ilgari surilishi, tahlil etilishi, ularni oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularni bartaraf etish borasidagi vazifalarning yoritilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda ilgari surilayotgan masalalarngi mantiqiy ravishda uchta qismga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Dunyo xaritasida yangi mustaqil davlatlar paydo bo‘ldi. Ular, hozirgi til bilan aytganda, sotsialistik o‘tmishga ega bo‘lgan, o‘z siyosiy mustaqilligini tinch yo‘l bilan qo‘lga kiritgan davlatlardir. Bu davlatlar mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo‘liga qadam qo‘ydi. Ular dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o‘z mavqeini mustahkamlashga intilmoqda. Tenglar orasida teng bo‘lishga, jahon maydonining tarkibiy qismiga aylanishga harakat qilmoqda. Bu davlatlar oldida muvaffaqiyatsiz, chippakka chiqqan tarixiy tajribaning fojiali oqibatlarini qisqa davr ichida bartaraf etish vazifasi turibdi. Ular zamonaviy bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan, odamlar munosib turmush kechirishini ta’minlay oladigan, insonning huquq va erkinliklarini himoya qila oladigan chinakam demokratik jamiyat qurishdek murakkab vazifani hal etishi zarur. O‘zbekiston ham ana shunday davlatlar jumlasiga kiradi. Asarda yangi asr bo‘sag‘asidagi vujudga kedgan ijtimoiy-siyosiy, geosiyosiy vaziyat chuqur tahlil etilgan xolda muhim metodologik ahamiyat kasb etadigan quyidagi muammolar ilgari suriladi:

XXI asr O‘zbekiston aholisi uchun qanday keladi? Kishilar turmushi kechagidan qanchalik yaxshiroq bo‘ladi? O‘zimiz uchun tanlab olgan islohotlar va yangilanish yo‘li o‘ta murakkab yo‘l ekanligini anglayapmizmi? Bu yo‘lda qanday muammolar, qiyinchiliklar, sinovlarga duch kelishimiz mumkinligini yetarli darajada aniq tasavvur qilyapmizmi?

Eng avvalo, odamlarning mana shu boy zaminda munosib hayot kechirishlarini ta’minlashga qaratilgan maqsad va vazifalarni qay darajada ro‘yobga chiqara olamiz? Eng murakkab savollardan biri shuki, bizdagi barqarorlik va xavfsizlik yo‘lida tahdid bo‘lib turgan muammolarni anglab yetyapmizmi?

Xavfsizligimizga tahdid bo‘lib turgan muammolarga nimani qarshi qo‘ya olamiz? Jamiyatimiz to‘xtovsiz va barqaror rivojlanishiga, biz istiqomat qilayotgan mintaqada geografik-siyosiy muvozanat saqlanishiga nimalar kafolat bo‘la oladi?

Mamlakatimiz yangi ming yillikda mustahkam, og‘ishmay va barqaror rivojlanishni kafolatlaydigan qanday imkoniyatlarga ega? Jahonning barcha mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli, har tomonlama keng hamkorlik qilish uchun nimalarni taklif eta olamiz?¹

¹ Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Асарлар, 6-жилд. –Т.: “Ўзбекистон”, 1998.

To'g'ri yangi mingyillik arafasida otalitar tuzum yemirilganidan keyin dunyoning qutblarga bo'linishi barham topdi. Lekin shu tufayli dunyo ko'pchilik kutganidek xavfsizroq, barqarorroq, sobitqadamroq bo'lib qolgani yo'q. Keyingi yillarda butun dunyo miqyosida va mintaqalar darajasida vujudga kelayotgan tashqi munosabatlarni tanqidiy tahlil qilish va eng avvalo:

bir qancha mamlakatlarda keskin siyosiy kurash borayotgan bir vaqtda demokratiya asoslarining ba'zan qiyinchilik bilan qaror topish jarayonlarini tahlil qilish. Bunga misol tariqasida MDH hududida joylashgan davlatlardan Qirg'iziston, Gruziya, Ukraina, Moldova kabi davlatlarni aytish mumkin. Xalqaro maydonda esa Liviya, Misr, Bolqon davlatlarini misol qilib keltirish mumkin;

milliy o'zlikni anglashning faol jonlanishi hamda millatlar va ayrim elatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashga intilishi va shu bilan bog'liq masalalar. Bu jarayon Turkiya, Iroq, Suriya, Ozarbayjon, Kosovo, Sudan kabi mamlakatlar hayotida sodir etildi;

etnik va millatlararo ziddiyatlarning saqlanib qolayotganligi. Buning ba'zi jihatlarini Kirg'iziston, Tog'li Qorabog', Sudan, Kosovo o'lkalarida kuzatish mumkin. Sobiq ittifoq davrida Farg'onada shu negizda janjal chiqarishga urinildi. I.Karimovning O'zbekiston hukumati tepasiga kelishi bilan bu masalani xalq etishga jiddiy kirishildi. Mamlakatimizda millatlararo totuvlik saqlandi;

qotib qolgan mafkuraviy aqidalarning qadrsizlanishi hamda siyosiy va diniy ekstremizmning turli shakllari kuchayib borayotganligi. Bunday tushdagi kuchlar oldiniga Afg'oniston hududida qonli janglarni keltirib chiqarishdi. Uzoq payt Tojikistonda fuqarolar urushini sodir etishdi. Liviya va Suriyada barqarorlik buzildi. Million-million insonlar qochoqlarga aylanishdi;

dunyoning katta qismida iqtisodiy zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar saqlanib qolayotganligi;

mamlakatlar, xalqlar o'rtasida, bir mamlakat ichida esa ayrim ijtimoiy guruhlar o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy tabaqalanish kuchayib borayotganligi - bularning barchasi dunyo hali ham avvalgidek mo'rt bo'lib turganligi va avaylab munosabatda bo'lishni talab qilayotganligidan dalolat beradi. Tahlillar asosida bizni qurshab turgan olam g'oyat murakkab va muammoli bo'lib keldi, shunday bo'lib qolmoqda va yaqin istiqbolda ham shunday bo'lib qolishi asoslab beriladi.

Hozirgi sharoitda, umumiy xavfsizlikni ta'minlash va muvozanatga erishish manfaatlari nuqtai nazaridan, yangi mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanish muammolari ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Yer yuzida vaziyat va kuchlar nisbati shiddatli o'zgarib bormoqda. Yangi mustaqil davlatlar maydonga chiqmoqda. Bu esa hozirgi kunda davlatlar va xalqlarning barqarorligini ta'minlash uchun yangicha yondashuvlarni izlab topishni, yangi mingyillikda xavfsizlikning yangicha modellarini ishlab chiqishni tobora qattiq talab qilmoqda.

Suveren davlatning har bir rahbari, har bir yetakchisi oddiy kishilar ishonch bildirib uning zimmasiga yuklagan juda katta burch va mas'uliyatni teran anglab, o'y-xayolini hamisha tinchlik, osoyishtalikni saqlash, avaylash va mustahkamlashga qaratmog'i kerak.

Asarda o'tgan yillarning mantiqi asosida hozirgi kunda uchta asosiy savolga murojaat qilinadi: xavfsizlikni qanday saqlab qolish lozim? Barqarorlikni qanday ta'minlash darkor? Taraqqiyot yo'ldan sobitqadam rivojlanishga nimalar hisobiga erishish mumkin?

Albatta bu savollarga javob izlanshanida qator siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, diniy, mafkuraviy, tabiiy, geografik omillar birgalikda olib tahlil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Dunyoning mo'rt, murakkab va muammoli bo'lib turganligini ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy omillar. Asarda bugungi O'zbekiston - faqat juda boy tabiiy-xom ashyo zaxiralari, cheksiz bozor va sarmoya sarflanadigan sohagina emas, shuningdek mamlakatimiz g'oyat ulkan aql-zakovat, ma'naviy va madaniy imkoniyatlarga ega ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi. Bularning barchasi dunyoda yangi siyosiy va iqtisodiy tartib faol shakllanib borayotgan bir sharoitda, yurtimizning noyob geografik o'рни bilan qo'shilgan holda juda katta geografik-siyosiy va geografik-strategik qiziqish uyg'otishi tabiiy.

Sayyoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati ko'p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar qaysi yo'ldan borishlariga bog'liq. Hozir xalqaro munosabatlarning sifat jihatidan yangicha tartibini shakllantirish jarayonida ishtirok etayotganlar buni e'tirof etmasliklari mumkin emas. Hech shubha yo'qki, bu davlatlarning tanlab olgan yo'li islom dunyosida yuz berayotgan murakkab jarayonlarning rivojlanishi qanday natijalarga olib kelishiga va umuman jahon hamjamiyati uchun kelib chiqadigan barcha oqibatlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ushbu omillarni tushunish O'zbekiston Respublikasining va butun Markaziy Osiyoning XXI asr bo'sag'asidagi taqdiri va rivojlanish istiqbollari haqida yuritilayotgan hamma fikr-mulohazalarning tayanch nuqtasi bo'lib qolishi kerakligi tegishli tahlillar uchun muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Ming yillik tarix shuni ko'satadiki, barqarorlik va geografik-siyosiy muvozanat saqlanib qolgan sharoitdagina bu mintaqa jo'shqin va sobitqadam rivojlanadi, jahon hamjamiyati uchun munosib sherik bo'la oladi, keng tomonlama integratsiyaga kirisha oladi.

Shuningdek Markaziy Osiyo mintaqasida turli siyosiy, iqtisodiy, harbiy, transportga va ekologiyaga oid to'planib qolgan muammolar ko'rsatib o'tilgan. Shu nazarda tutilgan holda butun mintaqaning sobitqadam va barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda mojaroli vaziyatlarning oldini olish uchun hozirgi kunda ichki va tashqi muvozanatni saqlash va qo'llab-quvvatlashgina birdan-bir maqbul geosiyosiy

tamoyildir dngan xulosaga kelinadi. Mintaqada geografik-siyosiy muvozanatni va barqarorlikni saqlagan taqdirdagina mazkur muammolarni hal etish imkoni tug'iladi. Bu esa, o'z navbatida, yalpi xavfsizlikni ta'minlash muammolarini hal qilishga qo'shilgan salmoqli hissa bo'ladi.

O'zbekiston erkin rivojlanayotgan dastlabki yillarda orttirilgan tajriba ham ayni shundan dalolat bermoqda. Bu tajriba qo'lga kiritilgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlik ulkan yutuq ekanligiga va bu ulug' ne'matning ahamiyati cheksizligiga yaqqol ishontirmoqda.

Shuning uchun ham: "Ogoh bo'ling, odamlar!" - degan da'vat hamisha bong urgandek yangrab turishi kerak. Faxrlanish mumkin va lozim bo'lgan bebaho qadriyatlar - o'z mustaqilligimizni, tinchligimizni, jamiyatda millatlar va fuqarolar o'rtasidagi totuvlikni asrang. O'z erkimizni qanday tasarruf etish, uni bugungi murakkab va ba'zan shafqatsiz dunyodagi haddan ziyod xavf-xatarlardan saqlash har birimizga bog'liqdir.

Davlatni aql-idrok bilan boshqarish,- mutafakkir Abu Nasr Forobiy X asrda saboq berib aytganidek, - xalq boshiga tushgan xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratdir.

Bugun biz qisqa muddat ichida tanlagan maqsadimiz yo'lida ancha ishlar qilinganligini yetarli emasligi ko'rsatib o'tiladi. Hali yana uzoq vaqt mobaynida ustuvor bo'lib qoladigan muammolarni aniq tasavvur etishni o'rganish lozim. Bu muammolarning ko'pchiligini yalpi tamoyillar va ulkan voqea-hodisalar keltirib chiqargan. Shu sababli bizni o'rab turgan, hech kim o'z holicha yashay olmaydigan, hamma narsa ham bizga bog'liq bo'lavermaydigan, yuksak maqsadlarga erishish yo'lidagi intilishimizga jiddiy xavf-xatar solib turgan bu dunyoning o'zi nimadan iborat ekanligini chuqur tushunib olish juda muhim. Demak jarayonga ham ijtimoiy-siyosiy, ham iqtisodiy, ham ma'naviy-mafkuraviy, ham geostrategik-geosiyosiy nuqtai-nazardan qarash muhimligiga keng e'tibor beriladi.

Shuningdek geosiyosiy nuqtai nazardan pragmatik xarakterda ekani muhimdir. Unda ta'kidlanishicha bugungi kunda xavfsizlik va barqarorlik yo'lida paydo bo'layotgan tahdidlarga tegishli munosabatda bo'la olishning o'zigina yetarli emas. Mavjud xavf-xatarlarning tabiatini to'g'ri tushunib yetishimiz, ularning manbalari va o'zaro aloqalarini vaqtida aniqlash ilgari suriladi. Jamiyatda barqarorlikni saqlash shart-sharoitlarini belgilab olish va ulardan samarali foydalanish zarur. O'zbekiston Respublikasining barqaror va sobitqadamlik bilan rivojlanishi shularga bog'liqdir.

O'zbekiston uchun uning keng ma'nodagi milliy xavfsizligi nimani anglatadi, biz bu xavfsizlikni qanday tasavvur qilish lozim?

Birinchidan. O'zbekiston xavfsizlikning yaxlitligi haqidagi asosiy tamoyillardan birini to'la qo'llab-quvvatlaydi. Xavfsizlik - uzluksiz holatdir, hadsiz-hududsizdir.

Ikkinchidan. "Sovuq urush" barham topganidan keyin yalpi xavfsizlikka asosiy tahdidni etnik, mintaqaviy, mahalliy mojarolar va davlatlar ichidagi jangari separatizm solmoqda. Ayniqsa, bunday qarama-qarshiliklar ayrim mamlakatlar qoʻlida ularning oʻz manfaatlarini va taʼsir doiralarini saqlab qolish va himoya qilish uchun yoki strategik kuchlar muvozanatini oʻz foydalariga oʻzgartirish uchun qudratli siyosiy taʼsir vositasiga aylanmoqda.

Har bir mintaqada xavfsizlikni taʼminlash muammolari muayyan mohiyatga ega. Shuningdek, har bir mintaqaning oʻz xususiyatlari, oʻz tahdid manbalari va xavfsizlikni saqlash omillari bor.

Har qanday mintaqaning hal qilinmagan va gazak olib ketgan muammolari butun dunyoda zanjir reaksiyasini keltirib chiqarishi mumkin. Vaziyatning beqarorlashuvi esa kundan-kunga aniq-ravshan boʻlib borayotgan yangi geografik-siyosiy muvozanatni buzish xavfini keltirib chiqaradi.

Uchinchidan. Oʻzbekiston oʻzining geografik-siyosiy holati jihatidan jamoaviy xavfsizlik tizimi izchil yoʻlga qoʻyilmagan mintaqada joylashgan. Bu ham tahdid tugʻdiruvchi sababdir.

Oʻzbekiston amalda Fors koʻrfazi, Kaspiy dengizi havzasi va Tarim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim halqaning strategik markazidir. YAʼni, bu yarim halqa atrofida butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida yaqin yillarda Yevroosiyo va jahon kelajagi uchun hal qiluvchi rol oʻynaydigan energiya zaxiralari mavjud.

Buning ustiga, biz Rossiya, Xitoy va Hindistonning, Sharq va Gʻarb mamlakatlarining bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlarini yuzaga chiqadigan mintaqaning bir qismimiz. Aslida shakllanib kelayotgan, lekin juda kuch-qudratli, XXI asrning qiyofasini shubhasiz belgilab beradigan bu kuch markazlari ana shu mintaqada oʻz manfaatlarini izlaydi. Yevroosiyo markazlari tutashgan yerda joylashgan bizning hududimizdan, butun mintaqada hududidan islom dunyosining Turkiya, Pokiston, Eron va Saudiya Arabistoni kabi qudratli mamlakatlari ham, yuqoridagi kuchlar kabi, oʻz manfaatlarini izlaydi.

Yana bir tahdid manbai shu bilan bogʻliqki, Oʻzbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan mamlakatlar qurshab turibdi. Buning ustiga, yurtimiz mintaqadagi diniy ekstremizm, etnik muvofiqsizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan ragʻbatlantirib kelinayotgan, ichki mojarolar avj olgan Afgʻoniston kabi beqarorlik oʻchogʻi bilan chegaradosh. Besh yildirki, qoʻshni Tojikistonda fuqarolar urushining keng yoyilib ketish xavfi ham saqlanib kelmoqda. Bu davlatlarda xorijdagi eng koʻp sonli hammillatlarimiz istiqomat qilib turganligini hisobga olmaslik mumkin emas.

Toʻrtinchidan. Mintaqaviy nizolar koʻpincha terrorizm va zoʻravonlik, narkobiznes va qurol-yarogʻ bilan qonunsiz savdo qilish, inson huquqlarini ommaviy

suratda poymol etish kabi xavfli tahdidlarning doimiy manbaiga aylanib bormoqda. Bunday hodisalar davlat chegaralarini tan olmaydi.

Beshinchidan. Shunga ishonchimiz komilki, xalqaro munosabatlar amaliyotida har bir mustaqil mamlakatning o'z milliy manfaatlariga muvofiq, o'z mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash maqsadi bo'lishi lozim. U yoki bu xalqaro tizimlarda va kollektiv xavfsizlik shartnomalarida qay darajada qatnashishini ularning o'zi belgilash huquqi nazarda tutilishi zarur.

Ayonki, bunda biz boshqa mamlakatlarning xavfsizligini himoya qilish ta'minlanishi zarurligini va ularning manfaatlari kamsitilishiga, yaqin o'tmishning harbiy-siyosiy qarama-qarshilik sohasidagi salbiy tajribasiga qaytishga yo'l qo'yib bo'lmasligini nazarda tutayotirmiz.

Oltinchidan. Bizning nazarimizda, ekologik va yadroviy xavfsizlik muammolari alohida e'tiborni talab qiladi. Biz Markaziy Osiyo mintaqasi yadroviy qurollardan xoli hudud deb e'lon qilinishiga erishmoqchimiz. Ayrim qo'shni davlatlar yadro quroliga ega bo'lishga oshkora intilayotganligi bizni ayniqsa tashvishga solmoqda. Nima bo'lganda ham Markaziy Osiyoni qurshab turgan mamlakatlar asosan yadro quroliga ega mamlakatlar hisoblanadi.

3. Mintaqaviy, diniy tusdagi tahdidlar va ularning geosiyosiy xarakteri. Keyingi yillarda maxsus adabiyotlar, OAV larida mash'um mazmunga ega "mintaqaviy mojarolar" degan ibora hammaning qulog'iga o'rnashib, oddiy bir holga aylandi. Mintaqaviy mojarolar dunyoning rivojlangan mintaqalariga ham, rivojlanayotgan mintaqalariga ham xos tus oldi. Shunday ekan, mintaqaviy mojarolar jamiyatimiz farovonligi va respublikamiz taraqqiyoti uchun qanday xavf tug'dirmoqda? Bir qarashda, O'zbekiston chegaralariga yaqin joylarda yuz berayotgan barcha nizolar davlatimizdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlab turishga bevosita aloqasi yo'qdek tuyuladi. Bundan buyon ham tashvishli hodisalar bizni chetlab o'z yo'lidan rivojlanaveradi, barqarorlik o'z-o'zicha saqlanaveradi, mamlakatning kelajagi esa o'z-o'zidan ta'minlangan, deya fikr yuritishni ham siyosiy, ham fuqaroviy kaltabinlikdir.

Mavjud mintaqaviy tanglik sharoitida O'zbekistonning xavfsizligiga tahdid xayoliy emas, balki yaqqol mavjuddir. Mintaqaviy mojaroni faqat taraflarning belgilab qo'yilgan doiralardagi qurolli qarama-qarshiligi, shu jumladan tinch aholi o'rtasida ko'plab qurbonlarga olib keladigan qarama-qarshiligi deb hisoblamaslik kerak. U muayyan jamiyat va qo'shni davlatlar hayotiga ta'sir ko'rsatadigan qarama-qarshilikdir. Agar masalaga shu nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, bu tahdidning haqiqatan mavjudligi yaqqol ayon bo'ladi.

Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish tarixi, ayniqsa har jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lib qolgan hozirgi dunyo sharoitida, shundan aniq dalolat berib turibdiki,

alohida olingan bir davlatdagi har qanday mojaro uzoq vaqt davomida milliy chegaralar doirasida qolib keta olmaydi. Bir qancha sabablarga ko'ra bunday mojaro nazorat qilib bo'lmaydigan darajada yoyilib ketishi muqarrar. Chunki turli maqsadlarni ko'zlaydigan va tanglik chiqqan hududda o'z manfaatlarini ta'minlashga intiladigan tashqi kuchlar hamma vaqt shay turadi.

Shunday qilib, alohida olingan davlatdagi ichki mojaroni, shu mojaro bilan qo'shni mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro aloqani bir-biriga bog'liq bo'lmagan hodisalar deb hisoblash xato bo'lur edi. Afg'onistondagi harbiy-siyosiy tanglik, Tojikistondagi beqarorlik butun Markaziy Osiyodagi mintaqaviy barqarorlik holatiga ham, jumladan, O'zbekistonning milliy xavfsizligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Sobiq sovet qo'shinlari Afg'oniston hududini tark etgach u erda vaziyat baribir tinchimadi. Navbat endi ichki guruhlar o'rtasidagi to'qnashuvlarga keldi. Tolibonchilar 1996-yilda Qobul shahrini egallagach mamlakatning qator o'lkalarida o'z hokomiyatini o'rnatdi. Lekin tom ma'nodagi barqarorlikni ta'minlab bilmadi. Terrorichilik harakatlari, qon to'kishlar davom etaverdi. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan AQSH boshchiligidagi tinchlikparvar kuchlarning kirib kelishi ma'lum bir vaqt osoyishtalikni ta'min etdi. Lekin mujohid jangarilarning qarshiligini butunlay sindirib bilmadi. 2014-yilda xalqaro kuchlar afg'on hududini tark etgach norasmiy manbalarda keltirilishicha yana jangarilar afg'on-tojik chegarasiga yig'ilmoqda.

Hozirning o'zidayoq ko'zga tashlanayotgan va keyinchalik vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar ko'lami keng. Mintaqaviy mojarolarning oqibatlari ancha sezilarli shaklga ham ega. Ularni davlatlarning milliy iqtisodiyotiga va xo'jalik aloqalariga ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda asarda ko'rsatib o'tilganidek mintaqaviy mojarolarning mintaqamiz havfsizligiga tahdidi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Birinchidan, Afg'onistondagi urush mamlakatning shundoq ham yaxshi rivojlanmagan iqtisodiyotini boshdan-oyoq vayron qildi. Bu urush hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo davlatlariga "iliq dengizlar"dagi portlarga chiqish va shu yo'l bilan jahon xo'jalik aloqalari tizimiga qo'shilish imkonini beradigan yangi transport kommunikatsiyalarini ochish yo'lida asosiy g'ov bo'lmoqda.

Ikkinchidan, qurolli mojaro keskinlashgan taqdirda chegaralarni tan olmasdan, qo'shni davlatlar hududiga "yopirilib kirish"ga tayyor turgan qochoqlar muammosi vujudga keladi.

Uchinchidan, Afg'oniston cho'zilib ketgan mintaqaviy mojarolar salbiy hodisalarni keltirib chiqarmoqda, chegaradosh davlatlar uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bu salbiy hodisalar haqida gapirganda, qonunga xilof ravishda narkotik moddalar olib o'tilishi, xalqaro terrorizm va qurol-yaroQ kontrabandasi kabi muammolarga ham to'xtalib o'tish lozim.

To'rtinchidan, Afg'oniston bilan Tojikistondagi mintaqaviy mojarolar hal bo'lmayotir. Bu esa mintaqadagi davlatlar, shu jumladan O'zbekiston oldiga terrorizm va qurol-yarog'lar kontrabandasi singari hodisalarning qo'shni davlatlar hududlariga yoyilishi bilan bog'liq bo'lgan yangi va g'oyat xavfli muammolarni ko'ndalang qo'ydi. Endilikda milliy xavfsizlikni va ichki barqarorlikni ta'minlash darajasi ana shu muammolarni hal qilishga bog'liq.

O'zbekiston respublikasi bilan chegaradosh mamlakatlardagi harbiy-siyosiy mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishga va ularning oldini olishga qaratilgan har qanday harakatlarni, amaliy qadamlarni qo'llab-quvvatlab keldi va bundan buyon ham qo'llab-quvvatlayveradi. Bu yo'lda mamlakatimiz ham o'z davlat siyosati doirasida, ham xalqaro tashkilotlar mexanizmlaridan foydalangan holda, mavjud imkoniyatlarni aniq maqsadni ko'zlab ishga soladi. Butun milliy strategiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri ana shunday mazmun-mohiyatga ega.

Yangi ming yillik arafasida jamiyat hayotining turli sohalarida sodir bo'lgan o'zgarishlar oxiri diniy qadriyatlarning uyg'onish davri, vazmin, behuda urinishlardan xoli diniy ma'naviyatga o'ziga xos tarzda qaytish davri bo'lib qoldi.

Shu bilan birga, jahon jamoatchiligi bu jarayonlarga juda katta qiziqish bilan qarabgina qolmayapti. Uning diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi keskin hodisalar munosabati bilan bezovtalanayotgani, ba'zan esa hatto xavfsirayotgani ham ko'zga tashlanmoqda. Afsuski, hozirgi zamon tarixida ana shu o'ta keskin ko'rinishlar jiddiy mojarolarni, ziddiyatlarni keltirib chiqarishi, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solishi mumkinligi insoniyatni cho'chityapti. Shundan darak beruvchi fikrlar ancha-muncha to'planib qolgan. O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta'minlash zarurligi nuqtai nazaridan qaraganda, bu hodisalar bizda ham jiddiy tashvish tug'dirmoqda.

Diniy ekstremizm va fundamentalizm bizning mintaqamiz uchun tug'dirishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni bevosita tahlil qilishga kirishishdan oldin e'tiborni odamlarning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq har qanday muammo g'oyat nozik ekanligiga, ularning dinning ma'naviy qadriyatlari bilan shiorlardan, xususan, islomni qayta tiklash shioridan foydalanayotgan muayyan kuchlar ko'zlayotgan, dinga aloqasi bo'lmagan siyosiy va boshqa tajovuzkor maqsadlar o'rtasidagi farqni tushunib olishlariga erishish zarurligiga qaratish zarur.

Din, shu jumladan islom dini ham ming yillar davomida barqaror mavjud bo'lib kelganligining o'ziyoq u inson tabiatida chuqur ildiz otganligidan, uning o'ziga xos bo'lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi. Eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma'naviy hayotining muayyan sohasi bo'lgan din umuminsoniy axloq meyorlarini o'ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan. Madaniyatga katta ta'sir ko'rsatgan. Insonning odamlar bilan bahamjihat yashashiga ko'maklashgan va ko'maklashmoqda.

Afsuski, insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan odamlardagi e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki vayron qiluvchi kuch, hatto fanatizm sifatida foydalanilganligini ko'rsatuvchi misollar ko'p. Fanatizmning o'ziga xos xususiyati va ko'rinishlari avvalambor o'z dinining haqiqiylikiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lishdan iboratdir.

O'zining shak-shubhasiz haqligiga, haqiqatni faqat o'zi bilishiga ishonch hissi so'nggi choralarga - zo'ravonlik harakatlariga moyilligi bilan ajralib turadigan diniy ekstremizmning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Bunda muayyan shaxs ham, boshqa dinga mansub ijtimoiy guruh ham yoki shu dinning o'z vakillari tomonidan rad etilayotgan mazhabga mansub vakillar ham ta'sir ko'rsatish obyekti sifatida tanlab olinishi mumkin.

So'nggi o'n yilliklar mobaynida dunyoda din omilining faollashuvi qator sabablar bois sovetlardan keyingi makonda ham o'z aksini topdi. To'g'ri, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi hukmronlik qilgan sharoitlarda ham diniy hayot hech qachon to'xtab qolgan emas. Biroq 80-yillarning oxiri - 90-yillarning boshlari, bir tomondan, jamiyatda dinning mavqei qayta tiklangan, ikkinchi tomondan esa, ana shu asosda mojarolar chiqishi uchun sabablar shakllangan davr bo'ldi.

O'zbekistonga nisbatan islom fundamentalizmi - aqidaparastlikning tahdidi nimalarda namoyon bo'lmoqda?

Birinchidan. Aqidaparastlikni yoyish orqali dindor musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo'qqa chiqarishda ko'rinmoqda. Yaxshilik yo'lidagi o'zgarishlarning ustuvor shartlari bo'lgan barqarorlikni, milliy, fuqarolararo va millatlararo totuvlikni buzish yo'lidagi urinishlarda namoyon bo'lmoqda.

Ikkinchidan. Fundamentalistlarning adolat haqidagi olomonbop, jozibador, ammo baqiroq va asossiz da'vatlariga ko'r-ko'rona ergashuvchilar o'zgalar irodasining quli bo'lib qolishini anglashimiz lozim.

Uchinchidan. Mamlakat mintaqalari aholisi va ijtimoiy qatlamlar o'rtasida "haqiqiy" va "soxta" dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshilik keltirib chiqarishda ko'rinmoqda.

To'rtinchidan. O'zbekistonning janubiy chegaralaridagi qo'shni mamlakatlarda fuqarolar urushi to'xtamay, davom etib kelayotganligida namoyon bo'lmoqda. Bu holat o'zlarini chin musulmon, din uchun kurashuvchilar deb hisoblaydigan, mudhish tasavvurlarini xalqimizga zo'rlab qabul qildirishni istaydigan terrorchilar, jangarilarning yangidan-yangi avlodlarini vujudga keltirmoqda.

Beshinchidan. Musulmon va nomusulmon mamlakatlar, ularning jamoatchiligi orasida ham O'zbekiston haqida ko'ngilni sovutadigan fikr tug'dirishga urinishlarda namoyon bo'lmoqda.

Oltinchidan. Islom sivilizatsiyasi bilan islomiy bo'lmagan sivilizatsiya o'rtasida yalpi qarama-qarshilikni shakllantirishda namoyon bo'lmoqda. Bu esa jahon

hamjamiyatiga qo'shilish jarayonlariga g'oyat salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Undan ham dahshatli shuki, odamlarni diniy zaminda "sivilizatsiyalar to'qnashuvi" ni kutishga majbur qilmoqda. mana hozirgi kunda G'arb va islom munosabatlari xavas qiladigan darajada deb bo'lmaydi.

Yettinchidan. Ommaning ongida din barcha iqtisodiy, siyosiy va xalqaro muammolar hamda ziddiyatlarni hal qilishning universal vositasi degan fikrni qaror toptirishda ko'rinmoqda.

Bugungi O'zbekistonda diniy hayot tegishli qonunlar bilan tartibga solinadi. Din davlat va davlattashkilotlaridan ajratilgan bo'lsada lekin jamiyatdan ajratilgan emas. Barcha fuqarolarga vijdon va e'tiqod erkinligi kafolatgan. Lekin dindan siyosiy maqsadda foydalanish man etilgan. Biz yoshlarda tarixiy xotirani tiklashda, ularda milliy-ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirishda, vatanparvarlikni yuksaltirishda diniy tashkilotlar imkoniyatidan foydalanamiz albatta.

XXI asr bo'sag'asida yangi mustaqil davlatlar juda katta ichki va tashqi qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ular mavjud muammolarning yechimini, ichki manbalar va imkoniyatlarga tayangan holda va shu bilan birga, jahon hamjamiyatining manfaatdor ishtirokidan izlamoqda.

Nafaqat yosh davlatlarning e'tibor berishini, balki, eng avvalo, xalqaro jamoatchilik ishtirokini talab etadigan muammolar jumlasiga birinchi navbatda imperiyacha fikrlash va xulq-atvorning xurujlari tufayli kelib chiqayotgan muammolarni kiritish lozim.

O'zbekiston Respublikasi ham ana shu hodisalar ta'siridan chetda qolgani yo'q. Davlatimizning suvereniteti va barqarorligiga tahdidlar saqlanib qolmoqda. Bu tahdid buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik ruhidagi shiorlarda, bildirilayotgan fikrlarda, sharhlarda va muayyan xatti-harakatlarda aniq namoyon bo'lmoqda.

Bir qarashda, go'yo insoniyat XXI asr bo'sag'asida yetarli darajada aql-idrokli bo'lib qolgan holda o'zining tarixiy tajribasiga asoslanib, asrlar davomida tarkib topib kelgan ba'zi bir andozalardan voz kechishi tabiiy bo'lib ko'rinadi.

Biroq shovinistik va agressiv millatchilik inersiyasining kuchi hali shu qadar zalvorliki, bu kuch unga duch kelganlar uchun ham, uni boshqalarga qaratayotganlar uchun ham naqadar xavfli ekanligini payqamaslik mumkin emas.

Asarda buyuk davlatchilik shovinizmini va agressiv millatchilik nima, uning hozirgi ko'rinishlari nimalardan iborat degan masalaga e'tibor qaratiladi.

Tarixiy tajribaga asoslanib, bu hodisani muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo'ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy hukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo, mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta'riflash mumkin¹.

¹ Каримов И. А. Ҳавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Асарлар, 6-жилд. –Т.: “Ўзбекистон”,

Shovinizm ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'p millatli imperiya doirasida, balki uni o'rab turgan geografik-siyosiy makonda o'zining qator imkoniyatlaridan foydalangan holda o'zining mutlaq hukmronligini o'rnatish uchun kurashida namoyon bo'ladi.

Odatda, hudud jihatidan kichik bo'lgan va eng asosiysi - iqtisodiy imkoniyatlari zaiflashgan va ichki beqaror davlatlar ana shunday kuchlarga nishon bo'ladi.

Asarda buyuk davlatchilik shovinizmi boshqa millatlar va mamlakatlar bilan o'zaro madaniyatli hamkorlik qilishga tayyor emaslikdan kelib chiqadi konseptual fikr ilgari suriladi.

Bizning o'lkamiz ham ana shunday qismatdan qochib qutulolmadi. Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik tahdidi haqida fikr yuritganda biz quyidagi xavfni nazarda tutamiz:

Birinchidan. Xalqaro, davlatlararo va elatlararo qarama-qarshilikni keltirib chiqarish;

Ikkinchidan. Xalqaro-huquqiy va ichki davlat suverenitetimizni ro'yobga chiqarishga qarshilik ko'rsatish;

Uchinchidan. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini chegaralashga, ularni teng huquqli bo'lmagan sharoitga solib qo'yishga urinish;

To'rtinchidan. Mamlakatimiz aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tuG'dirishga intilish;

Beshinchidan. Agar buyuk davlatchilik shovinizmi bilan ekstremistik millatchilik abadiy hamrohlar ekani nazarda tutiladigan bo'lsa, u holda millatlar o'rtasida o'zaro ishonchsizlikni keltirib chiqarish, millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish;

Oltinchidan. Yangi mustamlakachilik va yangi imperiyachilik yondashuvlarini zo'rlab qabul qildirish, hamma sohalaridagi o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlikni sekinlashtirish xavfi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilikni tanqid qilgan holda, biz sobiq Sovet Ittifoqi hududidagi davlatlar, avvalo, Rossiya bilan sifat jihatidan yangi munosabatlarni rivojlantirish tarafdorimiz. Biz bu mamlakatning real manfaatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, u bilan teng huquqli, chinakam sheriklarcha hamkorlik qilishga tayyormiz. Chunki bizni bu mamlakat va uning buyuk xalqi bilan ko'p asrlik do'stlik, qardoshlik va o'zaro yordam rishtalari bog'lab turadi.

Gapning sirasini aytganda, Rossiyada imperiyacha fikr yuritishdan voz kechish va O'zbekiston bilan ana shunday hamkorlikka tayyorlikni izhor etish buyuk qo'shnimiz uchun g'oyat samarali imkoniyatlar ochib beradi.

Avvalambor, ochiq ko‘rinib turgan bir haqiqatga e‘tiborni qaratmoqchiman. Mustaqil va kuchli sherikka ega bo‘lish "ukani boqish" yoki "kichik ittifoqchini chegaralab turish"ga qaraganda arzonroq va ishonchliroqdir. Boshqacha aytganda, zaif ittifoqchidan ko‘ra kuchli va barqaror sherik bilan ish olib borgan afzalroq.

Ikkinchidan, bir-birimizning manfaatlarimizni hisobga olish va muvozanatda saqlab turishga asoslangan teng huquqli, izzat-ikromli munosabat mamlakatimizning siyosiy rahbarlaridagina emas, balki butun xalqimizda ham hurmat hissini uyg‘otadi. Xalqning ezgu his-tuyg‘ulari va munosabati, aytish mumkinki, rossiyalik siyosatchilar bizning mintaqada topishlari mumkin bo‘lgan eng yirik kapitaldir. Va aksincha, xalq aksariyat qismining his-tuyg‘ulari "nafrat" degan birgina so‘zga jamlanganda nimalarga olib kelishi mumkinligini Chechenistondagi mojaro yaqqol eslatib turuvchi yorqin misoldir.

Nihoyat, mintaqaviy qalqon vazifasini bajarishga qodir bo‘lgan mustaqil, yetarli darajada barqaror davlatlarni shakllantirish Rossiyaning geografik-siyosiy manfaatlariga mutlaqo mos tushib, chiqimi ham ancha kam bo‘lishini tushunish juda muhimdir. Iqtisodiyoti barqaror bo‘lgan mintaqa Rossiya yoki o‘zga birorta davlatga tahdid solmaydi. Aksincha, bu hol juda ulkan iqtisodiy va boshqa istiqbollarga yo‘l ochadi. Eng muhimi - bu mintaqaning hech qachon sivilizatsiyalar to‘qnashadigan joyga aylanmasligiga, balki ular bir-biriga ta’sir etib, bir-birini boyitishning ibratli namunasi bo‘lib xizmat qilishiga kafolatdir. O‘zbekiston Respublikasi ana shunday olijanob va tarixiy vazifani bajarishga har jihatdan tayyor.

Rossiyada mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ana shunday istiqbolini ma’qullayotgan odamlar va sog‘lom fikrli siyosatchilar tobora ko‘paymoqda. Ular kelajagimizni faqat bir-birimizning manfaatlarimizni hisobga olgan holda, teng huquqli va o‘zaro foydali hamkorlik asosida tashkil etishimiz zarurligini tushunib yetayotganligi muayyan darajada umid uyg‘otmoqda.

4. Xalqaro hamkorlik tahdidlarga qarshi kurashning muhim omili. Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda O‘zbekiston o‘z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq ishlab chiqilgan quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilmoqda.

Birinchidan, o‘zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

Ikkinchidan, teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

Uchinchidan, mafkuraviy qarashlardan qat’i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

To‘rtinchidan, xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;

Beshinchidan, tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

Biz tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo'nalishlari bo'yicha muvaffaqiyatli rivojlantirishni xavfsizlik va barqarorlikning kafolati deb bilamiz¹. O'zbekiston dunyo uchun ochiq. Biz ham dunyoning O'zbekistonga juda katta qiziqish bilan qarayotganligini his etmoqdamiz. Bu esa O'zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun eng yaxshi kafolatdir. Buni biz O'zbekiston kapital sarflash nuqtai nazaridan ham, dunyo miqyosidagi keng qamrovli xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida mintaqada barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan ham borgan sari e'tiborga sazovor bo'lib borayotganligining dalili deb bilamiz.

Biz jahon hamjamiyati bilan keng ko'lamda integratsiyalashgan zamonaviy demokratik davlatni qurishdan iborat strategik vazifani hal qilar ekanmiz, jahon hamjamiyatining o'zi bugungi kunda serqirra bo'lib borayotganligini juda yaxshi tushunamiz. XX asr oxirida dunyoda geografik-siyosiy ahamiyati va ko'lami jihatidan noyob o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar betakror. Ular nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda vujudga kelgan qarashlar va ularning mexanizmlarini chuqur o'ylab ko'rishni, balki ko'p jihatdan qayta baholashni ham talab qiladi. "Sovuq urush" davrida xalqaro munosabatlarga asos bo'lgan ko'p qoidalar, tamoyil va g'oyalarni tubdan qayta ko'rib chiqish talab qilinmoqda. Biz uchun mustaqillik - o'z erkinligimizni anglashgina emas, balki avvalo o'z hayotimizni o'z irodamiz bilan va milliy manfaatlarimizni ko'zlagan holda tashkil etish, o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish huquqidir. Shu bois o'z-o'zidan ayonki, agar integratsiya mamlakatimizning ozodligi, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini cheklab qo'ysa yoki qandaydir mafkuraviy majburiyatlar bilan bog'lansa, u holda chetdan olib kelinadigan har qanday integratsiya biz uchun nomaqbul.

Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang'ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda - dunyo miqyosida va mintaqada ko'lamida - integratsiya jarayonlarida qatnashsa-da, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi.

O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning turli subyektlari bilan aloqalari qanchalik chuqur va keng bo'lsa, ular bilan munosabatlarda noaniqliklar, yotsirashlar, muammolar va hal qilinmagan masalalar, kutilmagan voqea-hodisalar shunchalik

¹ Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Асарлар, 6-жилд. –Т.: “Ўзбекистон”, 1998.

kam bo'ladi. Xuddi shu narsa xavfsizlikka solinayotgan tahdidlarni bartaraf etish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning zarur shartidir¹.

Qolaversa, biz mamlakatlar va davlatlarning xavfsizlik darajasi ularning integratsiya jarayonlarida qatnashish darajasiga bevosita bo'qliq deb hisoblaymiz. Mamlakat qanchalik integratsiya aloqalari bilan bo'qlangan bo'lsa, uning xavfsizligiga tahdid shunchalik kam bo'ladi.

Biz jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv haqida gapirganimizda, eng avvalo, Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida ishtirok etishimizni nazarda tutamiz. Biz o'zimizning bunday obro'li xalqaro tashkilot ishidagi ishtirokimizni Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlashning keskin muammolariga jahon jamoatchiligi e'tiborini qaratish imkoniyati deb bilamiz. Hozirgi paytda umumiy xavfsizlik muammosiga aloqador bo'lgan xalqaro tashkilotlar g'oyat xilma-xil bo'lishiga qaramay, faqat BMTgina xavfsizlikni saqlash va ta'minlashga xizmat qiladigan - oldini olishga qaratilgan diplomatiyadan tortib to tinchlik o'rnatishga qaratilgan operatsiyalarda qatnashishgacha bo'lgan vositalarning hammasiga ega.

Shu o'rinda BMTning integratsiya sohasidagi imkoniyatlari G'oyat ulkanligini va uning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari bu imkoniyatlarning tashkil etuvchilari hisoblanishini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekiston mazkur tashkilotlar bilan bugungi kunning o'zidayoq samarali hamkorlikni rivojlantirmoqda.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning tarkibiy qismi davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, chunonchi, Yevropa Ittifoqi, YEXHT, NATO, EKO, OIK, Qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda.

Bular orasida Yevropa Ittifoqi alohida o'rin tutadi. 1996-yilda Yevropa Ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda bir qancha muhim ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston tashqi siyosatining Yevropa yo'nalishi ancha kengaydi - ushbu yo'nalish Yevropadagi ayrim mamlakatlar bilan hamkorlik qilishni ham, shuningdek, butun Yevropa qit'asini ham o'z ichiga oladi. Bu qit'aning o'z, mintaqaviy, Yevropaga xos integratsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

1996-yil dekabrda Lissabon sammitida ishtirok etganimiz O'zbekistonning YEXHT bilan munosabatlarini rivojlantirishda salmoqli voqea bo'lib qoldi. Mazkur anjuman doirasida O'zbekiston xavfsizlik muammosiga doir o'z qarashlarini bayon etish huquqiga va imkoniyatiga ega bo'ldi. Bizning YEXHTning Markaziy Osiyodagi faoliyatini kuchaytirishga oid da'vatimiz tushunib qabul qilindi va u

¹ Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Асарлар, 6-жилд. –Т.: “Ўзбекистон”, 1998.

Lissabon deklaratsiyasida hujjatlashtirildi. Bu aslida YEXHT o'z hujjatlarida mazkur mintaqada barqarorlikni qo'llab-quvvatlash va mojarolarning oldini olish niyatini bayon etgan birinchi hodisa bo'ldi. Xavfsizlik, shu jumladan Yevropadagi xavfsizlik ham chegara bilmasligi bugun hech kimda shubha tug'dirmaydi.

Lissabonda XXI asr arafasida yalpi xavfsizlikning modeli xususida olib borilgan munozaralar jarayonida biz xavfsizlikning bo'linmasligi haqidagi asosiy qoidani to'la-to'kis qo'llab-quvvatlashimizni bildirdik. Shuni mamnuniyat bilan qayd etamizki, mojarolar yuz berib turgan hududlarga yashirincha qurol-yarog' yetkazib berishni to'xtatish haqidagi taklifimiz Lissabon uchrashuvining yakunlovchi hujjatida o'z ifodasini topdi. Umid qilamizki, bu oxir-oqibatda XXI asr uchun umumiy va keng qamrovli xavfsizlik modelining tarkibiy qismi bo'lib qoladi.

Shu bilan bir qatorda so'nggi vaqtlarda Toshkentda O'zbekiston tashabbusi bilan YEXHT ning bir qator yirik anjumanlari o'tkazildi. YEXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha Byurosining "Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar" mavzusidagi xalqaro seminar-kengashi Markaziy Osiyo, Yevropa, Amerikadagi 21 mamlakat ekspertlarining, shuningdek, 29 ta xalqaro va nohukumat tashkilotlari vakillarining ishtirokida keng muloqot o'tkazish imkoniyatini berdi. Ular Markaziy va Sharqiy Yevropada ombudsmen instituti, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini rivojlantirish, qonunchilik tizimlarini takomillashtirish hamda xalq ta'limi va ommaviy axborot vositalarining inson huquqlari sohasidagi roli masalalarini ko'rib chiqdilar.

YEXHTning tashabbusi bilan "Ommaviy axborot vositalari demokratlashtirish sharoitida" mavzuida seminar ham o'tkazildi. YEXHT Kelishtiruv va hakamlik sudi tomonidan tashkil etilgan YEXHT xalqaro seminari ham bo'lib o'tdi. Bularning barchasi tinchlik o'rnatuvchi va huquqni himoya qiluvchi ushbu nufuzli tashkilot bilan yaqin va samarali munosabatlar o'rnatilganligidan dalolat beradi.

Hozir bizning mamlakatimiz bilan NATOdek xalqaro tashkilot o'rtasida o'zaro tushunish va hamkorlik mavjud deb aytish mumkin.

O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorlik qilishida Yevropaning imkoniyatlari milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan hayotiy muhimdir. Yevropa va butun g'arb - yuksak texnologiyalar va investitsiyalar manbaidir, hozirgi zamon demokratiyasi va inson huquqlarining ramzidir. Bularning barchasi XXI asrga xavfsizligi ta'minlangan va barqaror rivojlanayotgan, yuksak darajada taraqqiy etgan va zamonaviy demokratik davlat bo'lib kirish maqsadida yangilanish va taraqqiyotni o'zining strategik vazifasi qilib olgan yosh O'zbekiston davlati uchun hayotiy zaruratdir.

Biz bunda xavfsizlik va taraqqiyot bir-birini taqozo etishi tamoyiliga amal qilamiz. Bu esa, bir tomondan, iqtisodiyotga investitsiyalar olib kelish uchun barqaror va xavfsiz muhit yaratishni, ikkinchi tomondan, hayotning hamma sohalarida keng

ko‘lamdagi islohotlarni amalga oshiradigan mamlakatgina bunday xavfsiz muhitni ta’minlashga qodir bo‘lishini nazarda tutadi.

Jamiyatimizning demokratik o‘zgarishlarni chuqurlashtirish yo‘lidan sobitqadam rivojlana borishiga boshqa xalqaro tashkilotlar bilan va eng avvalo Osiyo mintaqasidagi tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish ham yordam beradi. Turkiytili davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirishni alohida ta’kidlab o‘tmoqchiman. Bu mamlakatlarning an’anaviy bo‘lib qolgan sammitlari doirasida dastlabki bosqichda uchrashuvlarga siyosiy ruh baxsh etish jarayoni ortda qolganligi mamnuniyat hissini uyg‘otadi. Hozir uning qatnashchilari asosiy e’tiborlarini tobora ko‘proq o‘z xalqlari ravnaq topishi uchun iqtisodiy va gumanitar sohalaridagi muhim muammolarni hal qilishga qaratmoqdalar.

Turkiytili davlatlar boshliqlarining 1996-yil oktabr oyida Toshkentda o‘tkazilgan IV uchrashuvi buning dalili bo‘ldi. Mazkur uchrashuv turkiytili davlatlar munosabatlarining asosi, ya’ni ular xalqlarining tarixiy, etnik-madaniy va ma’naviy yaqinligidan iborat ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Bu hol ushbu murakkab mintaqada tinchlik va xavfsizlikning kuchli kafolatini yaratadi.

Uchrashuv chog‘ida fan, madaniyat, ta’lim, iqtisodiyot, transport kommunikatsiyalari sohasida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishga alohida e’tibor berildi. "Buyuk Ipak yo‘lini tiklash: ma’rifiy turizmni rivojlantirish, turkiytili davlatlarning madaniy merosini qayta tiklash, asrash va barqaror rivojlantirish" dasturini birgalikda ishlab chiqish nazarda tutilmoqda. Bu dasturning maqsadi sayohat yo‘nalishlari tarmoQini kengaytirishdan va sayyohlikning tegishli infrastrukturasini kengaytirishdan iborat.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, O‘zbekiston o‘zining tashqi aloqalarini ham ko‘p tomonlama, ham ikki tomonlama asosda tashkil etish tarafdoridir. Ikki tomonlama aloqalarni kengaytirish har qaysi tomonning manfaatlarini yanada aniqroq hisobga olish, bir-birimizni yaqindan tanish, uzoq muddatli o‘zaro manfaatli hamkorlikka mustahkam zamin hozirlash, shu tariqa barqarorlik va xavfsizlik uchun mustahkam negiz yaratish imkonini beradi. O‘zbekiston yer yuzining turli chekkalarida ishonchli va manfaatdor sheriklarga ega ekanligi meni ayniqsa quvontiradi. Ularning doirasi muntazam kengayib bormoqda.

Bizning Amerika Qo‘shma Shtatlari bilan ikki tomonlama munosabatlarimiz davlatlararo aloqalarning g‘oyat muhim yo‘nalishlari bo‘yicha izchil va sobitqadamlik bilan rivojlanib bormoqda. Bunga O‘zbekiston rasmiy delegatsiyasining 1996-yil yozida AQSH ga tashrifi yordam berdi. Mazkur tashrif chog‘ida AQSH Prezidenti B. Klinton va boshqa yuksak martabali shaxslar bilan uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi. Shuningdek, o‘zbek-amerika siyosiy maslahatlashuvlari ham o‘tkazib kelinmoqda.

Dunyoning yetakchi davlati bo'lgan, juda katta siyosiy, iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, intellektual salohiyatga ega bo'lgan AQSH bilan ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish hozir biz uchun ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Qo'shma Shtatlar jamiyatimizni yangilash, isloh qilish va demokratlashtirish, respublikamizning davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash jarayoniga salmoqli hissa qo'shmoqda. Biz Amerika kompaniyalari va firmalari bilan qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirishga, ular bilan uzoq muddatli, o'zaro foydali sherikchilik munosabatlarini o'rnatishga, Amerika kapitalining bizning bozorimizdagi ishtiroki kengayishiga katta ahamiyat beramiz.

So'nggi yillarda Yevropadagi ko'pgina mamlakatlar - Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Portugaliya, Gretsiya, Chexiya, Slovakiya, Ruminiya va bir qator boshqa mamlakatlar bilan bevosita, ikki tomonlama munosabatlarimiz ancha kengaydi va mustahkamlandi.

Bizning shu mamlakatlar davlat va hukumat boshliqlari bilan uchrashuvlarimiz va oshkora suhbatlarimiz eng muhim siyosiy muammolar bo'yicha qarashlarimizning o'zaro mosligini yana bir bor tasdiqladi. Bu esa mazkur mamlakatlar bilan yaqindan, uzoq muddat hamkorlik qilishimiz, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, har ikki tomonning mavjud imkoniyatlaridan faol foydalanish uchun katta istiqbollar ochib berayotganligini mamnuniyat bilan qayd etishim mumkin.

Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari - Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Vetnam, Malayziya, Hindiston, Indoneziya va boshqa mamlakatlar bilan aloqalarimiz mustahkamlanib borayotganligini alohida mamnuniyat bilan ta'kidlab o'tmoqchiman.

Keyingi vaqtlarda Yaponiya mintaqamizning murakkab muammolarini - xavfsiz va barqaror tinchlikka erishish, atrof muhit muhofazasi masalalarini hal qilishda faol va manfaatdorlik bilan ishtirok etmoqda.

Mintaqaviy barqarorlik, mintaq ko'lamida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish masalalarini hal qilishda ilgari Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan mamlakatlar o'rtasida vujudga kelayotgan munosabatlar alohida o'rin tutadi. 1991-yil dekabrda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkil etilgan edi.

Bu yillar MDH mamlakatlari ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnoma munosabatlari doirasida teng huquqli sherikchilik asosida o'zaro foydali hamkorlik qilishlari uchun keng imkoniyatlar mavjudligini tasdiqladi. Bunday hamkorlikka hamdo'stlik mamlakatlarining hududiy yaqinligi va iqtisodiy jihatdan bo'qlanganligigina emas, balki chuqur tarixiy ildizlar, madaniy va ma'naviy aloqalar, katta tarixiy davr mobaynida xalqlarimizning taqdiri mushtarakligi ham asos bo'lmoqda.

Mamlakatlarimiz xalqlarining yaqinlashuvi - tabiiy kechayotgan jarayon. Bu yaqinlik, Sovet Ittifoqi mavjud bo'lganligidan qat'i nazar, hamma vaqt bo'lib kelgan.

Bu xalq integratsiyasi bo'lib, sun'iy ravishda joriy etiladigan siyosiy integratsiyadan farqli o'laroq, haqiqiy integratsiyadir. Shuni ta'kidlash kerakki, sovetlardan keyingi davlatlarning birontasi ham integratsiyaga qarshi chiqayotgani yo'q. Ayni chog'da ularning birontasi ham o'z mustaqilligidan voz kechmoqchi emas.

Biz uchun masalaning mohiyati mustaqillik yoki integratsiyani tanlash emas, balki bu ikki yo'nalishni uyg'unlashtirishdan iboratdir. Biz MDH ni haqiqiy mustaqil, suveren davlatlar integratsiyasi sifatida ko'rishni istar edik.

Masalaga bunday yondashishning "MDH mamlakatlarining chuqur integratsiyasi" deb atalgan ba'zi siyosiy g'oyalarga hech bir aloqasi yo'q. To'rtlar shartnomasi (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Belarus) va Ikkilar shartnomasi (Rossiya va Belarus) imzolanganidan beri ancha vaqt o'tdi. Avvalo shuni ta'kidlashni istardim: bu Shartnomalarni imzolash va ularni amalga oshirish - bu davlatlarning ichki ishi. Har bir davlat birinchi galda o'z manfaatlarini nazarda tutib, o'z taqdirini va istiqbolini o'zi hal qiladi, har qanday hujjatlarni hamda davlatlararo shartnomalarni qabul qilish va imzolash huquqiga ega bo'ladi. Binobarin, bu ixtiyoriy ish ekanligini nazarda tutib, bu jarayonga hech kim aralashishga haqli emas.

Mazkur vaziyatda masala quyidagicha qo'yilmoqda: ushbu hujjatlar va shartnomalar O'zbekiston uchun maqbulmi, O'zbekiston shu shartnomalarga qo'shila oladimi yoki yo'qmi? Buning ustiga, bizni Integratsiyalashgan davlatlar hamjamiyati yoki ittifoqini tashkil etish bo'yicha ana shu hujjatlarni imzolashga zo'r berib taklif qilishmoqda, ba'zan bu O'zbekiston uchun foydali, yoki foydasiz ekanligini bizning o'rnimizga hal etmoqchi bo'lishmoqda.

Xuddi shuning uchun hamda integratsiya va hamkorlik jarayonlari haqidagi o'z tushunchamizni, har qanday davlatlararo bloklarga asoslangan yondashuvlar, shuningdek, barcha yaxshi niyatli manfaatdor davlatlar bilan erkin hamkorlik qilish yo'lidagi cheklashlar biz uchun nomaqbul ekanligini hisobga olganda, O'zbekiston bunday Ittifoqlar yoki hamjamiyatlarga qat'iy qarshidir.

Mustaqil O'zbekistonni tashvishga solayotgan asosiy strategik masala - eski imperiyani qayta tiklashga yo'l qo'ymaslik masalasidir. Afsuski, biz tashvishlanish uchun jiddiy asoslarga egamiz. Bu tashvish ana shunday yig'inlarda qabul qilingan hujjatlarning qoidalari, ularda ro'kach qilib keltirilayotgan dalillar va da'volar tufayli tug'ilmoqda. Xo'sh, ular nimalardan iborat?

Birinchiidan. MDH o'zining bugungi holati bilan uni tashkil etish chog'ida nazarda tutilgan g'oyalarga mos kelmayotganligini, bu mo'rt tuzilma hech narsani hal qilmayotganligi va u qabul qilgan qarorlar amalda bajarilmayotganligini aytmoqdalar.

Lekin qabul qilingan qarorlarning MDH doirasida bajarilishini ta'minlaydigan mexanizmlarni chinakamiga, amalda izlash o'rniga davlatlar o'rtasida ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, ularni muayyan mazmun bilan boyitish o'rniga, ko'proq eski davrlarni qo'rsash hissi paydo bo'lmoqda. Davlatlardan yuqori

turuvchi tuzilmalarni - parlament, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi idoralar - Muvofiqlashtiruvchi yoki Yuqori Kengash, ko'plab amaldorlar ishlaydigan Ijroiya yoki Ma'muriy qo'mita, birlashgan harbiy-siyosiy tuzilmalar va shu kabilarni tashkil etishga harakat qilinmoqda. Sobiq Ittifoqning ulkan makonidagi barcha masalalarni yagona Markazdan turib hal qilish mumkin bo'lgan davrlardagi tartib odamlar ongiga nihoyatda chuqur singib ketganligi sezilmoqda.

Agar biron-bir davlatlararo uyushma tashkil etilgandek bo'lsa, nima uchundir, albatta, uning tegishli hokimiyat va boshqaruv organlari ham bo'lishi kerak, deb hisoblashadi. Agar MDH davlat boshliqlari, hukumat boshliqlari va boshqa tuzilmalarining oxirgi majlislari kun tartibi kuzatiladigan bo'lsa, yagona yo'nalish - iqtisodiy va gumanitar integratsiyaning pishib yetilgan muammolari o'rniga, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash o'rniga, nuqul harbiy-siyosiy masalalarni, birlashgan qo'mondonlikni tuzish, chegaralarni birgalashib qo'riqlash va shu kabilar qo'yilayotganligi tasodifiy emas.

Biroq hamma shu narsani yaqqol anglab olishi kerakki, tashkil etilayotgan Ittifoqlarda davlatlardan yuqori turadigan tuzilmalar barpo etilsa va Shartnoma qatnashchisi bo'lgan har bir alohida mamlakatning tegishli qonuniy organlari bir yoqda qolib, bevosita amal qiladigan, ya'ni barcha organlar va tashkilotlar bajarishi shart bo'lgan qarorlarni mazkur tuzilmalarning o'zi qabul qilish huquqiga ega bo'lsa, u holda mazkur davlatlarni suveren va mustaqil deb hisoblash qiyin bo'ladi.

Vakolatli va qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, harbiy-siyosiy va sud organlariga ega bo'lgan har bir alohida davlatning yangi tashkil etilayotgan davlatlardan yuqori turuvchi tuzilmalar bilan aloqasini, ifodali qilib aytganda, tutash tomirlar deb tasavvur qilish mumkin. Hamjamiyatning davlatlardan yuqori turuvchi tegishli tuzilmasi o'ziga qanchalik vakolat talab qilsa, hozirgi alohida suveren davlatning har biri xuddi shunchalik vakolat va huquqlarini yo'qotadi. Bu - inkor etib bo'lmaydigan haqiqat.

Binobarin, hamjamiyat yoki Ittifoq va uning davlatdan yuqori turuvchi tuzilmalari tashkil topgani bilan har bir alohida ishtirokchi mamlakat o'z suvereniteti yoki mustaqilligini to'la saqlab qoladi deb ishontirmoqchi bo'lsalar yoki va'da bersalar - buni jiddiy qabul qilib bo'lmaydi.

Shuningdek tashkilot faoliyatining samaralik bo'lishi yana bir fikr ilgari surildi: tasdiqlangan MDH Nizomi doirasida iqtisodiy va moliyaviy integratsiyani chuqurlashtirishni, sivilizatsiyali to'lovlar masalasini hal qilishni, iqtisodiy va gumanitar integratsiya yo'lidagi g'ovlarni olib tashlashni hozir bizga hech kim taqiqlamaydi. Buning uchun birinchi navbatda geografik-siyosiy ruhda bo'lgan shartnomalarni imzolash va turli xil Ittifoqlarga kirish aslo shart emas.

Ikkinchidan. Vujudga kelgan tanglik vaziyatining, odamlar mushkul ahvolga tushib qolganligining asosiy sababi, eng katta balo - avvalo respublikalar o'rtasidagi

iqtisodiy va xo‘jalik aloqalari uzilib qolganligida deya hammani ishontirishga harakat qilinmoqda.

Bu sovetlardan keyingi butun makonni karaxt qilib qo‘ygan tanglikning haqiqiy sabablaridan odamlarning e‘tiborini chalg‘itishga ochiqdan-ochiq urinishdir.

Sovetlardan keyingi makonda davlatlar iqtisodiyotidagi tang holatning asosiy sababi, eng avvalo, o‘z umrini yashab bo‘lgan totalitar, ma‘muriy-buyruqbozlik, markazdan taqsimlash tizimi mafkurasining parchalab tashlanganligidan, bugungi kunda butun dunyo yashab kelayotgan bozor munosabatlariga, erkin iqtisodiyotga o‘tishdan iborat ekanligi mutlaqo ayon bo‘lib qoldi.

Sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan ko‘p mamlakatlarning qanchadan-qancha korxonalari hozirgi paytda og‘ir ahvolga tushib qolganligini, amalda ishlamayotganligini faqat shu bilan izohlash mumkin. Ularning ko‘plari ishlamay turganligiga sabab boshqa suveren davlatlarning korxonalari bilan aloqalari uzilib qolganligi yoki amal qilmayotganligi emas. Bu mamlakatlardan tashqaridagi kooperatsiyalashgan aloqalarga mutlaqo bog‘liq bo‘lmagan yuzlab korxonalar ishlamay turibdi.

Buning butunlay boshqa sabablari bor. Ular hozircha yangi sharoitlarga moslasha olmayotir, o‘z mahsulotlarini sota olmayotir, ularda ishlab chiqarishni saqlab turish va rivojlantirish uchun mablag‘ yo‘q.

Ko‘rinib turibdiki, gap bu aloqalar uzilib qolganligida emas. Iqtisodiyotni tezroq isloh qilish, hisob-kitob mexanizmlarini takomillashtirish, har bir korxonada zarur ma‘rifiy tartib-intizom o‘rnatish lozim.

Uchinchidan. "Chuqur integratsiya" mualliflari bir dalilga ayniqsa ko‘proq murojaat etadilar - butun dunyoda integratsiya yer yuzining ko‘pgina mintaqalari uchun xos bo‘lgan jarayon deb tushunilar emish. Bunda ko‘proq Yevropa Ittifoqini tashkil etish tajribasini dalil qilib keltiradilar.

Ha, tarixiy taraqqiyotning hozirgi boqichida barcha davlatlar bir-birlariga bog‘liq va o‘zaro aloqada yashaydi. Dunyo xaritasidan hozirgi kunda boshqalardan, birinchi navbatda, o‘zini o‘rab turgan mamlakatlardan mutlaqo ajralib qolgan davlatni topib bo‘lmasa kerak. Yevropa Ittifoqida integratsiya va hamkorlik asosiy tamoyillar hisoblanadi.

Biroq Yevropa Ittifoqida integratsiya jarayonlariga yondashuvlar integratsiyalashayotgan davlatning batamom suverenligi, ixtiyoriylik va ularning huquqlarini hurmat qilish tamoyillariga asoslanadi.

Yevropa Ittifoqini tashkil etishga asos bo‘lgan tamoyillar MDH mamlakatlari uchun jozibali bo‘lishi mumkin. Buni hech kim inkor etmaydi. Lekin bir qator holatlar borki, ular Yevropa Ittifoqini sovetlardan keyingi makondagi vaziyatdan keskin ajratib turadi.

Birinchidan, eng muhimi shundaki, Yevropa Ittifoqini shakllantirish bir necha o'n yilliklarni o'z ichiga oladigan uzoq tarixga ega, Maastricht bitimlari esa - davlatlar, ularning rahbarlari bosib o'tgan katta yo'lning natijasidir.

Ikkinchidan, Yevropa Ittifoqiga barqaror, mustahkam demokratik ijtimoiy davlat tuzilmalariga ega bo'lgan, puxta bozor va huquqiy qonunchilik normalarini, ularni ro'yobga chiqarish mexanizmlari va infrastrukturasini shakllantirgan mamlakatlar birlashgan.

Uchinchidan, demokratik tartiblar va qadriyatlar bu mamlakatlar aholisi mutlaq ko'pchiligining ijtimoiy ongida mustahkam o'rinish qolgan.

To'rtinchidan, Yevropa Ittifoqidagi mamlakatlarning ko'pchiligi taxminan teng, ancha yuqori iqtisodiy imkoniyatlarga ega. O'zining rivojlanishi jihatidan yaqqol afzalliklarga ega davlatlar yo'q.

Beshinchidan, agar bizning texnikaviy va iqtisodiy qoloqligimizni, g'oyat eskirgan, raqobatga dosh berolmaydigan texnologiya va asosiy fondlarimizni hisobga olsak, sobiq SSSR chegaralarida allaqanday Ittifoqlarga biqinib olish - bunday siyosat o'tmishning turli mafkuraviy andozalarini o'ylab, o'zimizni jahon iqtisodiyoti nazaridan chetda qashshoq hayot kechirishga mahkum etishdan boshqa narsa emas.

Ayni chog'da shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, barcha ishtirokchi mamlakatlar tomonidan tanlangan va vujudga keltirilgan umumiy boshqaruvchi tuzilmalari faoliyat olib borayotgan Yevropa Ittifoqi bilan bir qatorda, Janubi-Sharqiy Osiyo (ASEAN) va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (ATES) mamlakatlari tajribasi ham mavjud. Biroq ularda milliy davlatlardan yuqori turuvchi parlamentlar, Vazirlar Kengashlari va boshqa birlashtiruvchi tuzilmalar yo'q.

Markaziy Osiyo mamlakatlari darajasidagi integratsiyaga kelsak, u o'zining alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu integratsiya o'z mohiyatiga ko'ra hamisha xalq integratsiyasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Butun tarix davomida bu mintaqa xalqlari ajnabiy bosqinchilar hukmronligiga qarshi yelkama-yelka turib kurashib kelganlar. Bu xalqlarning vakillarini mustaqillikni qo'lga kiritish va mustaqil davlatlar tuzish g'oyalari birlashtirgan. Bu xalqlar Turkiston deb nom olgan ulkan hududda asrlar davomida yashab kelganlar.

Avvalo shuni ta'kidlamochimizki, Markaziy Osiyo xalqlarining integratsiyasi orzu yoki kelajakka mo'ljallangan loyiha emas, bu - bor narsa, bu - mavjud voqelik bo'lib, faqat tashkiliy, huquqiy va siyosiy shakllarga muhtojdir.

Markaziy Osiyodagi integratsiyani biz hududiy birlik, kommunikatsiyalar, iqtisodiyotning asosiy va yetakchi tarmoqlari mushtarakligi, suv xo'jaligi va energetika obyektlarini birgalashib ishlatish, energiya zaxiralari bilan ta'minlash ehtiyoji taqozo etgan obyektiv zaruriyat deb hisoblaymiz. Bir-biriga chirmashib ketgan umumiy teran tomirlarga ega bo'lgan xalqlarimizning madaniy, til va ma'naviy birligi haqida-ku, gapirmasa ham bo'ladi.

Bu mintaqa muayyan bir shaklda hamma vaqt integratsiya bo'lib kelgan. Markaziy Osiyo xalqlari mustaqillikka erishganlaridan keyin birgalikda kuch-g'ayrat sarflab o'z kelajaklarini qurishlari zarurligini yana qayta his etdilar. Toshkentda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston prezidentlari tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasining bu suveren mamlakatlari o'rtasida yagona iqtisodiy makonni tashkil etish haqidagi Shartnomaning imzolanishi shu yo'ldagi amaliy qadam bo'ldi.

Markaziy Osiyo respublikalarining integratsiyalashuvi uchun haqiqatan ham bir qator dastlabki shart-sharoit va sabablar mavjud. Bular jumlasiga iqtisodiy rivojlanishning boshlang'ich darajasi baravarligi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning bir xilligi ham, yagona transport-energetika kommunikatsiyalari, suv zaxiralari ham kiradi. Bundan tashqari, ushbu mintaqada yashayotgan barcha xalqlarning xavfsizligi uchun mushtarak bo'lgan tahdidlar ham mavjud. Bular - Orolning qurib borayotganligi, narkotik moddalar, qurol-yarog', terrorizm, diniy fundamentalizmning kirib kelishi, Afg'oniston tomonidan keskinlik va beqarorlikning yoyilish xavfi hamda bir qator boshqa omillardir. Bu tahdidlar, garchi tarqoq tuyulsa-da, birlashtiruvchi omillardir, chunki ularning birontasini ham alohida, o'z kuchiga ishongan holda yengib bo'lmaydi.

Ayni shu holatlar Markaziy Osiyo mintaqasining gullab-yashnashi to'g'risida qayg'uradigan barcha siyosatchilar uchun amaliy qo'llanma bo'lib qolishi darkor.

Markaziy Osiyo hamdo'stligining kelajagiga ishonch bilan qarash uchun hamma asoslar mavjud. Zarur huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilgan, Davlatlararo kengash tuzilgan, hamdo'stlik dasturlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha ijroiya qo'mita, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etilgan. Qatnashuvchi davlatlar iqtisodiy integratsiyasining 2000-yilgacha mo'ljallangan, 53 ta muayyan loyihani o'z ichiga oladigan dasturi ishlab chiqildi, yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirish uchun asos solinmoqda.

Biz o'zimizning tashqi mudofaa siyosatlarimizni uyg'unlashtirishga ham bevosita yaqinlashdik - yagona iqtisodiy makon tashkil etish to'g'risidagi Shartnomada qatnashuvchi mamlakatlar mudofaa vazirlari Kengashining nizomi tasdiqlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari hamdo'stligining tashkil etilishi aslo ular boshqa davlatlardan yakkalanib qolishini bildirmaydi. Biz uni MDH doirasidagi integratsiya jarayonlariga ham qarshi qo'ymaymiz. Bu hamdo'stlik davlatchilikni qaror toptirish va bozor munosabatlariga o'tishning murakkab davrida mintaqadagi mamlakatlarning kuch-g'ayratlari va say-harakatlarini jipslashtirishga qaratilgandir.

Markaziy Osiyo hamdo'stligi biz uchun shunchaki integratsiya udumiga ergashish emas, ustun bo'lib olish yoki o'z ta'sir doiramizni kengaytirishga intilish ham emas. Bu XXI asrda bizning mustaqillik va taraqqiyot yo'limizdir. Ishonchim komilki, bu birlikni amalga oshirish, hech shubhasiz, xalqlarimizning manfaatlariga

to'la mos keladi, mintaqamizda barqarorlik va tinchlikni mustahkamlashga yordam beradi. Markaziy Osiyo davlatlari, garchi ijtimoiy-siyosiy, etnik va madaniy jihatdan xilma-xil bo'lsa-da, birgalikda kuch-g'ayrat sarflab, xavfsizlikka tashqaridan tug'ilayotgan tahdidlarga qarshi turish uchun, butun mintaqani barqaror rivojlantirish uchun qulay muhitni yaratadi, amalda bu mintaqani xavfsizlik va barqarorlik mintaqasi sifatida shakllantiradi. Shu tariqa bu mintaqada davlatlari butun dunyo ko'lamida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga munosib hissa qo'shadi.

Aytish mumkinki, tarixni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o'rtasidagi hamkorlik va ishonch olg'a harakatlantiradi degan genial fikr ilgari suriladi.

Xulosa tariqasida quyidagi fikrlarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, I.Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asari" da esa yangi ming arafasida insoniyatni kutayotgan keng qamrovli global muammolarni ilgari surilishi, tahlil etilishi, ularni oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularni bartaraf etish borasidagi vazifalarning yoritilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Klassik geosiyosatning vakillari asarlarida esa muayyan mintaqaning manfaatlari oldinga o'ringa surilgan.

Ikkinchidan, biz yashayotgan mintaqaning geostrategik, geosiyosiy manfaatlari nuqtai nazaridan har bir masalaning yechimiga e'tibor qaratiladi.

Uchinchidan, tarixni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o'rtasidagi hamkorlik va ishonch olg'a harakatlantirishiga alohida urg'u berilgan. Va bu hamkorlikni ta'minlashdagi vazifalar, uning istiqbollari keng yoritilgan.

To'rtinchidan, hozirgi dunyoda xavfsizlik va barqarorlik faqat harbiy-siyosiy jihatlarnigina nazarda tutib qolmaydi. Iqtisodiy, ekologik, madaniy, ma'naviy, axborot havfsizligi jabhalari ham juda muhim bo'lib, xoh mintaqada bo'lsin, xoh butun sayyoramiz bo'lsin bizning tinch, gullab-yashnayotgan umumiy uyimiz ana shulardan tashkil topadi.

Ko'rinib turibdiki O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asari xalqaro hamjamiyatga tahdid solayotgan tahdidlar nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek mazkur tahdidlarga qarshi kurash borasidagi ustuvor vazifalar, ularning yechimi bilan bog'liq amaliy vazifalar ilgari surilgan. Ushbu jihatlari bilan asar katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etib keladi.

Tayanch soʻz va iboralar:

“Sovuq urush”, bipolyar tizim, siyosiy tarqoqlik, mintaqaviy mojaro, diniy ekstremizm, fundamentalizm, korrupsiya, ekologiya, mahalliychilik, shovinizm, BMT, YUNESKO, IKT, YEI, xalqaro hamkorlik.

Mavzuni mustahkamlash yuzasidan savollar:

1. “Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida qanday muammolar ilgari surilgan?
2. Mintaqa havf solayotgan tahdidlar tizimi nimalardan iborat?
3. Yangi mingyillik arafasida dkenyoning yangi siyosiy xaritasida qanday oʻzgarishlar sodir boʻldi?
4. Yangi ming yillik arafasida oʻz echimini topmayotgan muammolar?
5. Taraqqiyot yoʻlidan barqaror rivojlanish shartlari?
6. Mamlakatimiz taraqqiyotini kafolatlovchi omillar?

3-BOB. GEOSIYOSIY JARAYONLAR TIZIMIDA O'ZBEKISTON VA JAHON.

10-Mavzu: YANGI MING YILLIKDA G'ARBIY YEVROPADAGI GEOSIYOSIY JARAYONLAR.

Yevropa ittifoqi

Maydoni	4 324 782 kv. km. 7-o'rin
Aholisi	508 450 856. 3-o'rin
Ma'iuriy markazi	Bryussel, Lyuksemburg, Strasburg
Katta shaharlari	Parij, London, Berlin, Rim, Madrid, Bonn, Vena, Sofiya, Budapesht, Varshava, Lissabon
Rasmiy tili	24 ta –ingliz, bolgar, venger, yunon, daniya, irland, ispan, italyan, latish, litos, malta, nemis, niderland, polyak, portugal, rumin, slovak, sloven, fin, fransuz, xorvat, chex, shved, eston
Milliy valyutasi	yevro
Eksporti	Mashinasozlik, aviatexnikalar, avtomobilsozlik, yuqori texnologiyalar, maishiy texnikalar, qurilish materiallari, elektronika mahsulotlari, qishloq ho'jaligi mahsulotlari
Import	Neft, gaz, o'rmon mahsulotlari, metall, rangli metallar, ehtiyoj mollari, dori -darmonlar, go'sht, don, shakar va sh.k.
Dini	Dunyoviy davlatchilik an'alari

Reja:

1. Ikkinchi jahon urushining yakunlari Yevropa davlatlari mavqeiga ta'siri.
2. Yevropa Ittifoqining tashkil etilishi: a'zolari, maydoni va aholisi.
3. Integratsiyaning kengayish tarixi. YEI hayotidagi muhim voqealar.
4. YEI xalqaro munosabatlar tizimida: ijtimoiy-iqtisodiy, energetik muammolar.
5. O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichda.

1. Ikkinchi jahon urushining yakunlari Yevropa davlatlari mavqeiga ta'siri.
1945-yil 2-sentabrda olti yilu bir kun davom etgan jahon urushi nihoyasiga yetdi. Xalqaro maydonda G'arbiy Yevropa davlatlarining gegemonligiga birinchi zarbani birinchi jahon urushi bergan bo'lsa, bu urush aytish mumkinki hal etuvchi zarbani berdi. Urushning insoniyat hayotiga yetkazgan zarari cheksiz edi. Avvalo, millionlagan kishi xalok bo'ldi, moddiy zarar bir necha yuz milliardni tashkil qilar edi, shaharlar, sanoat korxonalari, qishloq ho'jaligi, transport infrastrukturasini

butunlay izdan chiqdi. Jahon oltin zahirasiining 65 % AQSH qo‘liga o‘tib ketdi, olingan qarz 41 mld.dollarga teng edi.

Ikkinchidan, urush so‘ngiga kelib AQSH tomonidan Yaponiyaga atom bombasining tashladi. Harbiy strategiya nuqtai nazaridan atom bombasini tashlashga ehtiyojning bor yoki yo‘qligi boshqa masali. Lekin AQSH bu mudhish qurol vositasida dunyoga hukmronlik qilishni da’vo qila boshladi. Qo‘shma Shtatlarda atom bombasi yaratilgandan keyin, SSSR ham AQSH dan orqada qolmaslik uchun barcha zarur choralarni ko‘rdi. Nihoyat, 1949-yilda o‘z atom bombasini yaratdi va uni sinovdan o‘tkazdi. AQSH 1952-yilda yanada dahshatliroq ommaviy qurg‘in quroli — vodorod bombani yaratdi. Uning qudrati 10 mln tonna trotilga teng edi. 1953-yilda SSSR ham o‘z vodorod bombasiga ega bo‘ldi. Bu orada AQSH yadro qurollarini nishonga yetkaza oladigan uzoqqa uchuvchi samolyotlar yaratdi. SSSR esa qit’alararo raketa yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Bir vaqtda atom suv osti kemalari yaratildi. Shu tariqa yangi qurollanish poygasi boshlandi. Urushdan toliqib chiqqan Yevropa davlatlari uchun bu galdagi muammoga aylandi.

Uchinchidan, ikkinchi jahon urushidan so‘ng dunyo siyosatidagi yana bir jiddiy o‘zgarishlardan biri BMT singari inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlarning roli ancha kuchaydi. Keyinchalik bundan tashkilotlar qator sohalarda, shuningdek mintaqalar darajasida tashkil etila boshlandi.

To‘rtinchidan, ikkinchi jahon urushi bilan birga mustamlakachilik tizimi ham o‘z nihoyasiga yetdi. Har ikkala jahon urushi paytida G‘arbning yetakchi davlatlarini cheksiz xom-ashyo, tabiiy qazilmalar, ishchi kuchi, askar bilan ta‘minlab kelgan hududlar birin-ketin qo‘ldan keta boshladi.

Shu tariqa «sovuq urush» boshlandi. Uning g‘oyaviy tashabbuskori U. Cherchill edi. U Fulton universitetida so‘zlagan nutqida «sharqiy kommunizm» ga qarshi kurashishda ittifoq tuzib birgalikda kurashish vazifasini ilgari surdi. 1947-yil 5-iyunda qabul qilingan va Yevropaning 16 davlatiga iqtisodiy yordam berishni mo‘ljallagan «Marshall rejasi» uni yanada mustahkamladi. Ikki eng buyuk davlat o‘rtasida munosabatlarning tobora keskinlashib borishi oqibatida ikki harbiy-siyosiy ittifoq vujudga keldi.

NATO-Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti. 1949-yil 4-aprelda tashkil qilingan. AQSH tarixda birinchi bor tinch davrda Evropa davlatlari bilan harbiy ittifoqqa kirdi. A‘zolar: AQSH, Kanada, Belgiya, Angliya, Daniya, Fransiya, Islandiya, niderlandiya, Italiya, Norvegiya, Portugaliya, Lyuksemburg. Keyinchalik Gretsiya (1952), Turkiya (1952), GFR (1955), Ispaniya (1986) qo‘shildi. “Sovuq urush” keyingi davrda NATO ga Bolgariya, Vengriya, Gretsiya, Ispaniya, Latviya, Litva, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Turkiya, Chexiya, Estoniya kabi davlatlar ham qo‘shilishdi.

Varshava Shartnomasi. GFRning NATOga kirishi Sharqiy Yevropada xavotir uyg'otdi. SSSR ham harbiy-siyosiy blok tuzishga kirishdi. Javob tariqasida NATOga qarshi Varshava Shartnomasi tashkiloti 1955-yil 14-mayda tashkil etildi. A'zolari: SSSR, Polsha, Bolgariya, Vengriya, GDR, Ruminiya, Chexoslovakiya, Albaniya. Albaniya 1968-yildan harbiy birlashmadan chiqib ketdi. Shuningdek "Marshal rejasi" ga javoban iqtisodiy hayotda ham qator choralar ishlab chiqish lozim edi. Sharqiy Evropa mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish maqsadida 1949-yili O'YOK tuzildi. A'zo mamlakatlar o'z xalq ho'jaliklarini ichki imkoniyatlaridan kelib tiklashlari, shuningdek milliy saonatni tashqi raqobatdan himoya qilish asosiy vazifa qilib belgilandi. A'zolari: SSSR, Albaniya, Bolgariya, Chexoslovakiya, Vengriya, Ruminiya, Polsha. 1991-yilda tugatilgan.

Natijada Moskva va Vashington o'rtasidagi qarama-qarshilikka asoslangan bipolyar tizimi vujudga kelib G'arbiy Yevropaning xalqaro maydondagi mavqei ancha tushib ketdi. Uni qayta tiklash faqatgina ichki salohiyat hisobigagina amalga oshirilishi mumkin edi.

2. Yevropa Ittifoqining tashkil etilishi: a'zolari, maydoni va aholisi. G'arb davlatlarining iqtisodiy sohada birlashish jarayoni G'arbning XX asr ikkinchi yarmidan keyingi taraqqiyotining yana bir o'ziga xos xususiyati edi. Yuqorida qayd etib o'tilgan omillar Yevropa davlatlarini urushdan keyingi iqtisodiy muammolarni birgalikda hal etishga undadi. 1951-yilda Yevropaning olti davlati (Belgiya, Italiya, Luksemburg, Gollandiya, GFR va Fransiya) ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa uyushmasini tuzdilar. 1957-yilda esa u «Yevropa iqtisodiy hamjamiyati»ga aylantirildi. (U «Umumiy bozor» deb ham ataladi.) 1968-yilga kelib a'zo davlatlar o'rtasida boj to'siqlari butunlay olib tashlandi. 1993-yil Maastricht shartnomasi bilan Yevropa hamjamiyati (Yevropa Ittifoqi) deb atala boshladi.

Yevropa ittifoqi- mintaqaviy integratsiyani ta'minlashga qaratilgan siyosiy va iqtisodiy birlashma bo'lib 28 ta Yevropa davlatidan iborat. 1993-yil 1-noyabrdan kuchga kirgan Maastricht bitimi uning huquqiy asosi hisoblanadi. Bryussel, Lyuksemburg, Strasburg shaharlari rasmiy markaz vazifasini bajaradi. A'zo mamlakatlar: Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Buyukbritaniya, Vengriya, Germaniya, Gretsiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Kipr, Latviya, Litva, Lyuksemburg, Malta, Niderlandiya, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Finlyandiya, Fransiya, Xorvatiya, Chexiya, Shvetsiya, va Estoniya. 508 450 856 aholisi (2018) bo'lgan bu ittifoq 2018-yilda jahonda yaratilgan yalpi mahsulotning 23 foizini ishlab chiqardi.

Maydoni 4.32 mln kv km ni tashkil etadi. Yevropa ittifoqi a'zolari bo'lmish 28 davlat ichida, shuningdek unga a'zo bo'lmagan davlatlar ham maydoni jihatidan

katta emas. Agar Yevropada Rossiyani hisobga olmaganda maydoni bir million kv km teng yoki shunga yaqin davlatning o'zi yo'q. Shuningdek ayrim ikki-uchta davlatni hisobga olmaganda Yevropa davlatlarining aksariyati maydon jihatidan O'zbekistondan kichkina hududga ega. Xulosa tariqasida aytganda Yevropa davlatlari maydonlarining kichikligi, ular o'rtasida o'tib bo'lmas tog'lar (Hinduqush tizmasiga o'xshash), botqoqliklar, sahrolarning (Gobi, Sahroi Kabir kabi) yo'qligi ular o'rtasida transport tizimini, savdo-iqtisod munosabatlarining rivojiga, yagona infrastrukturaning shakllanishiga olib keldi. Osiyodan farqli ravishda Yevropa milliy va diniy jihatdan u qadar rang-barang emas. Bu omil mintaqa davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan ancha yaqinlashtirdi.

Yagona standartlar asosida qabul qilingan qonunlar, nizomlar mintaqa mamlakatlari o'rtasida mahsulotlar, tovarlar, xizmatlar shuningdek aholining hech qanday cheklovlarsiz erkin harakat qilishini ta'minlaydi. Ittifoq a'zolaridan 19 tasi yagona valyuta – yevroga o'tishgan. Ijtimoiy barqarorlik, havfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ichki va tashqi siyosat olib borayotgan Yevropa ittifoqi xalqaro huquqning to'laqonli subyekti hisoblansada uning maqomi hozirgacha noma'lum: ittifoqqa bir tomondan xalqaro tashkilotning xususiyatlari xos bo'lsa, ikkinchi tomondan unda yagona davlat belgilari ham uchraydi. Jahonning barcha davlatlarida, BMT, JST, "Katta yettilik" singari tashkilotlarida YEI ning doimiy diplomatik missiyayai faoliyat olib boradi. Yevrora ittifoqi o'z faoliyatini yo'lga qo'yishda quyidagi institutlar orqali ish olib boradi: Yevropa Soveti, Yevrokomissiya, Yevropa ittifoqi soveti, Yevropa ittifoqi sudi, Hisob palatasi, Yevropa Markaziy Banki, Yevroparlament.

3. Integratsiyaning kengayish tarixi. YEI hayotidagi muhim voqealar. Qayd etib o'tilganidek urushdan keyingi ahvol Yevropa davlatlarini iqtisodiy muammolarni birgalikda hal etishga undadi. 1951-yilda Parij Shartnomasiga asosan Yevropaning olti davlati (Belgiya, Italiya, Luksemburg, Gollandiya, GFR va Fransiya) ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa uyushmasini tuzdilar. 1957-yilda Rim Shartnomasiga asosan «Yevropa iqtisodiy hamjamiyati» va Yevroatom tashkil etildi. U «Umumiy bozor» deb ham ataladi. 1965-yilda bu uchala tashkilotni birlashtiruvchi shartnoma imzolandi. Natijada YEKP, YEIH va Yevroatomni birlashuvini ta'minlovchi Komissiya va Kengash ish boshladi. Yevropa Ittifoqining birinchi kengayishi 1973-yilda yuz berdi. Unga Buyukbritaniya, Daniya, Irlandiya a'zo bo'lib kirishdi. 1978-yilda Yevropa valyuta tizimi tashkil etildi. Valyuta va soliq tizimini umumiy lashtirish tomon qadam tashlandi. 1979-yilda birinchi bor Yevropa parlamentiga saylovlar bo'lib o'tdi. 1981-yilda Yevropa Ittifoqi tarixida ikkinchi bor kengayish bo'ldi. Unga Gretsiya a'zo bo'lib kirdi. 1985-yilda Shengen shahrida (Lyusemburg) sayyohlik xizmatini takomillashtirishga qaratilgan bitim imzolandi. Oldiniga Shengen

bitimi Yevropa Ittifoqi tuzilmalaridan xoli faoliyat olib bordi. Shuningdek 1985-yilda YEIH uchinchi bor kengaydi. Uning tarkibiga Ispaniya va Portugaliya qabul qilindi. 1993-yil Maastrixt shartnomasi bilan Yevropa hamjamiyati (Yevropa Ittifoqi) deb ataladigan bo'ldi. 1995-yilda Avstriya, Finlyandiya, Shvetsiya a'zolikka qabul qilingach Yevropa Ittifoqi tarixida to'rtinchi kengayish boshlandi. 1999-yilda yagona to'lov vositasi – yevro muomalaga kiritildi. 2004 va 2007-yillarda Chexiya, Vengriya, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Estoniya, Latviya, Litva, Kipr, Malta davlatlari a'zo bo'lib kirishdi. 2013-yilda oltinchi kengayish yuz berib Xorvatiya a'zolikka qabul qilindi. Va nihoyat 2017-yilda Buyukbritaniya YEI chiqishini e'lon qildi.

4. Yevropa Ittifoqi xalqaro munosabatlar tizimida: ijtimoiy-iqtisodiy, energetik muammolar. 2018- yil natijalariga e'tibor qaratiladigan bo'lsa YEI tomonidan ishlab chiqarilgan yalpi ijtimoiy mahsulot 21.7 trl dollarga teng bo'lib dunyoda AQSH ni ortda qoltirib Xitoydan keyin ikkinchi ko'rsatkichga ega bo'ldi. Ittifoq a'zolari o'rtasida uzoq yillik tarix davomida yagona bozor shakllantirildi. Yagona bozorda quyidagi tamoyillar amal qilishi qat'iy belgilangan; tovarlarning erkin harakati; fuqarolarning, ishchi kuchining erkin harakat qilishi; xizmat ko'rsatish sohalari erkinligi va kapital, investitsiyalarning erkin harakat qilishi. Muomalaga kiritilgan yagona to'lov vositasi yevroni 19 ta davlat yagona to'lov vositasida ishlatib keladi.

Yevropaga mansub qator avtomobil, aviatsiya, mashinasozlik, elektrotexnika, maishiy texnika, oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika sohasiga tegishli firmalar jahonning deyarli barcha burchaklariga kirib borishgan. O'z navbatida bu jarayon shiddat bilan davom etmoqda. Bunday ulkan iqtisodiy salohiyatga erishishda ayniqsa tabiiy xom-ashyo mahsulotlariga muhtojlik ko'zga tashlanadi. Yevropa Ittifoqi maydoni tabiiy zahiralarga unchalik boy emas. Mavjudlari ham ikkala jahon urushi davomida ishlatib bo'lindi, yoki yo'q qilindi. Shunday ekan mintaqa iqtisodiyoti tashqi bozordan keltirilgan qator tabiiy zahiralari importiga ehtiyoj sezadi.

Ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 28.4 % i atom energiyasi yordamida, 20.4 % i tosh ko'mir yordamida, 18.8 % i tabiiy gaz yordamida, 18.8 % i qayta tiklanuvchi manbalar yordamida, 12.8 % i neft yordamida, 1.3 % i boshqa manbalar asosida ishlab chiqarilgan. Ishlatilgan neft mahsulotlarining 57 % i import qilingan bo'lsa, atom energiyasining 97 % import qilingan. Ishlab chiqarishda yuqori ko'rsatkichlarni saqlab qolish, uni yanada rivojlantirish, aholi farovonligini doimo yuksaltirib borish, raqobatbardosh mahsulotlar yaratish tejimli iqtisodiyot yuritishni, qayta tiklanuvchi manbalardan kengroq foydalanishni, shamol va quyosh energiyasidan foydalanishni keng ylga qo'yishga ko'proq e'tibor qaratishni talab etmoqda.

5. O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlar yangi bosqichda.

O‘zbekiston — Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlar jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda. 1996-yilda sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimning imzolanishi ikki tomonlama aloqalarni kengaytirishga asos bo‘lib xizmat qildi. Bitim siyosiy muloqot, savdo, biznes, investitsiya, intellektual mulkni himoya qilish, qonunchilik va iqtisodiyot, demokratiya hamda inson huquqlari, noqonuniy immigratsiyaga qarshi kurashish, shuningdek gumanitar sohalaridagi hamkorlikni qamrab olgan. Bitim doirasida Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston bir-birini qo‘llab-quvvatlashi, import hamda eksport qilinayotgan mahsulotlarga nisbatan bojxona yig‘imlari, shuningdek, boj to‘lovlarida preferensiyalar berishi bo‘yicha qator majburiyatlarni o‘z zimmasiga olgan.

2007-yildan boshlab Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston o‘rtasida har yili moliya-iqtisod, fan va madaniyat, inson huquqlari, odil sudlov hamda boshqa masalalar yuzasidan Bryussel va Toshkentda muloqot o‘tkazib keladi. Yevropa Ittifoqining O‘zbekiston bilan munosabatlari mazkur tuzilmaning Markaziy Osiyo bo‘yicha strategiyasida ham o‘z ifodasini topgan. Unda hamkorlikning umumiy maqsadlari, siyosiy muloqot va Yevropa Ittifoqi ishtirok etishi mumkin bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan.

2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasiga muvofiq O‘zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan sud tizimi, davlat boshqaruvi hamda xavfsizlik sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda sudlarning chinakam mustaqilligini ta‘minlash, muqobil jazo turlarini kengaytirish bo‘yicha aniq qadamlar tashlanayotgani fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashda muhim huquqiy kafolat bo‘lib xizmat qilmoqda. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash, korrupsiyaga qarshi kurashning ta‘sirchan institusional hamda huquqiy mexanizmlari joriy qilinayotgani ham diqqatga sazovor. O‘z navbatida, ishbilarmonlik va investitsiya muhiti yanada yaxshilanmoqda. Va bu islohotlar xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanayotir.

Yevropa Ittifoqining O‘zbekiston bilan hamkorligi turli darajadagi, jumladan, Yevropa parlamenti vakillari, YEIning Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili, Yevropa moliya institutlari, Yevropa tashqi aloqalar xizmati hamda Yevropa Komissiyasi rasmiy xodimlarining ko‘p sonli tashriflari bilan yanada rivojlanib bormoqda.

“European External Action Service” saytida yozilishicha, hamkorlik aloqalari O‘zbekistondagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar bilan to‘ldirilmoqda. Masalan, 2017-yil fevral oyida Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston o‘rtasida qayta tiklanadigan energiya sohasida hamkorlik bo‘yicha anglashuv memorandumi imzolandi.

Muloqot chog'ida mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, O'zbekistonda davlat hamda jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, iqtisodiyotni liberallashtirish, ijtimoiy sohani taraqqiy ettirish, xavfsizlik hamda millatlararo totuvlikni ta'minlash borasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasida ro'yobga chiqarilayotgan o'zgarishlar, xalq bilan muloqotning samarali hamda noyob tizimi yuzasidan mufassal ma'lumot berildi.

Quyi palata Spikeri mehmonlarga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, siyosiy partiyalar va fraksiyalar, yangi tuzilgan qo'mitalar, komissiyalar hamda xorijiy parlamentlar bilan hamkorlik qilish doirasida tashkil etilgan do'stlik guruhlar, shuningdek, Oliy Majlis huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti faoliyati hamda "Mening fikrim" jamoaviy elektron murojaatlar portali haqida so'zlab berdi. Ayni chog'da deputatlarning joylarda aholi bilan ochiq muloqotlari o'tkazilayotgani, hududlardagi mavjud muammolarni bartaraf qilishda parlament nazoratining ta'sirchan mexanizmlaridan samarali foydalanilayotgani, bularning barchasi, eng avvalo, inson manfaatlarini ta'minlash, huquq va erkinliklarini ishonchli muhofaza etishda muhim ahamiyatga ega bo'layotgani aytib o'tildi.

Suhbat davomida yurtimiz parlamenti xorijiy hamkorlar bilan do'stona hamda o'zaro foydali munosabatlarni jadal rivojlantirayotgani o'z e'tirofini topdi. O'zbekiston hamda YEI o'rtasidagi sheriklik va hamkorlik Kelishuvi doirasida parlament hamkorligi qo'mitasi, shuningdek, savdo hamda investitsiyalar, adliya, ichki ishlar, inson huquqlariga oid 6 ta hamkorlik tashkiloti tuzilgani bunga yaqqol misoldir.

Shu bilan birga, bugun O'zbekistonda Yevropa ittifoqi davlatlaridan investitsiyalar ishtirokidagi mingdan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizda Yevropa ittifoqi Komissiyasining texnikaviy ko'magida biznes va turizmni rivojlantirish, transport logistikasi, chegaralarni boshqarish, giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish, xavfsizlik hamda boshqa yo'nalishlarda 25 ta loyiha va 10 ta hududiy loyiha samarali ro'yobga chiqarilmoqda.

Tayanch so'z va iboralar:

"Sovuq urush", bipolyar tizim, sovuq urush, YEKPB, BMT, YUNESKO, umumiy bozor, Yevroparlament, IKT, YEI, preferensiya, proteksionizm, xalqaro hamkorlik.

Takrorlash uchun savollar

1. Ikkinchi jahon urushining yakunlari qanday bo'ldi?
2. Jahon urushining Yevropa davlatlari mavqeiga ta'siri qanday kechdi?
3. Yevropa integratsiyasini taqozo etgan omillar?
4. Yevropa Ittifoqining shakllanish bosqichlari?
5. Yevropa Ittifoqi a'zolari, maydoni va aholisi haqida nima bilasiz?
6. YEI xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni qanday?
7. YEI ijtimoiy-iqtisodiy, energetik muammolar nimalardan iborat?
8. O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlar rivoji haqida nima bilasiz?

11-mavzu: YANGI MING YILLIKDA ROSSIYA

Maydoni	17 075 200 kv. km.
Aholisi	145 470 000
Poytaxti	Moskva shahri
Katta shaharlari	Moskva, Sankt-Peterburg, Nijniy Novgorod, Novosibirsk, Samara, Yekaterinburg, Volgograd, Krasnodar.
Rasmiy tili	rus tili
Milliy valyutasi	Rus rubli
Eksporti	neft va neft mahsulotlari, gaz, yog'och va yog'och mahsulotlari, metallar, kimyoviy vositalar, fuqarolik va harbiy keng iste'mol tovarlari, qurollar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari.
Import	mashina va jihozlar, ehtiyoj mollari, dori -darmonlar, go'sht, don, shakar va metallar
Dini	nasroniylik, islom, yahudiylik, buddaviylik va boshqalar

Reja:

1. SSSR ning parchalanishi va uning geosiyosiy oqibatlari.
2. Yangi xalqaro munosabatlar tizimida Rossiyaning geosiyosiy rivojlanish yo'li.
3. Sharqiy Evropa, Kavkaz, Yaqin Sharq masalasidagi kelishmovchiliklar.
4. Rossiya tashqi siyosatida SHHT va MDH ning roli.
5. O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi strategik hamkorlik masalalari.

1. SSSR ning parchalanishi va uning geosiyosiy oqibatlari. Rossiya uchun jahon sotsializm lagerining qulashi, SSSR ning parchalanishining geosiyosiy ta'siri qay darajada bo'lganligi hususida rus geosiyosatchilari o'rtasida hozircha yagona bir yechimga kelingani yo'q. Bu jarayon geosiyosatchilar tomonidan turlicha izohlanadi: sobiq ittifoq qulaganidan keyingi o'tgan davrning tarixiy nuqtai nazardan juda qisqa ekanligi; Rossiyaning geosiyosiy maqomining, holatining noaniqligi; ba'zi bir tadqiqotlarda esa Rossiyaning hozirgi chegaralari aniq emasligi, uning o'zgarish ehtimoli yuqoriligi va shu kabilar. Albatta bu qarashlar Rossiyaning Yevropa Ittifoqi bilan, "Katta yettilik" bilan, J-20 bilan, MDH bilan olib borgan munosabatlarida, Qrim, Donbass, Dnestr bo'yi, Abxaziya, Janubiy Osetiya hududlaridagi hatti-harakatlarida ko'zga tashlanadi. Ma'lumki uzoq yillar davomida sobiq ittifoq tarkibidagi respublikalarning iqtisodiyoti yagona siyosat sabab bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan edi. Qator omillar asosida mamlakat iqtisodiy rayonlarga bo'lib tashlandi. Ittifoqning parchalanishi natijasida bu aloqalar uzilib qoldi: yagona transport tizimi, temir yo'l, yagona elektr tizimi, gaz tizimi, valyuta, boj, soliq va shu kabilar. Mustaqillika erishgan har bir milliy respublika o'z iqtisodiyotini qisqa muddatda qayta qurishi zarur edi. Ba'zi o'lkalarda sobiq ittifoq davridayoq milliy negizdagi to'qnashuvlar kelib chiqdi.

Sobiq SSSR ning parchalanishi bois Rossiya uchun geosiyosiy yo'qotishlar nimalarda iborat bo'ldi:

- O'rtacha hisobda besh million km kv maydon boy berildi. Agar sobiq SSSR ning maydoni 22 million km kv dan ortiq bo'lsa, yangilangan Rossiyaning maydoni 17 million km kv ni tashkil etadi;
- Sankt-Peterburg va Kaliningrad portlarini hisobga olmaganda Rossiya Boltiq dengiziga chiqish yo'llarini qo'ldan boy berdi;
- Tabiiy zahiralarga boy bo'lgan Kaspiy dengizi, Qora dengiz va Boltiq dengizi shelflari qo'ldan chiqarildi;
- Mamlakat chegaralari sharq va shimol tomonga ancha surildi;
- Markaziy va G'arbiy Yevropaga olib o'tadigan quruqlikdagi avtomobil, temir yo'llar va transport kommunikatsiyalari yo'qotildi;
- Rossiya amalda iqtisodiyoti zaif, qashshoq davlatlar qurshovida qoldi. Bu davlatlarning ayrimlarida harbiy harakatlar davom etmoqda;
- Janubda va Kavkazda islom fundamentalizmi havfi o'z ta'sirini yo'qotmayapdi;
- Mamlakatning sharqiy o'lkalarida aholi "vakuum" i yuzaga kelgan. Sibir va Uzoq Sharqda yashayotgan aholi sakkiz millionni tashkil etadi. Bu mamlakat aholisining 5.5 % i demakdir. XX asr boshida Stolipin islohotlarida bu masalani hal etishga jiddiy kirishilgan edi. Qator sabablarga ko'ra amalga oshmagan;

- Mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatining pasayib ketishi. Ilmiy tadqiqot sohasida faoliyat yuritayotgan 1.2 million xodimning (1991 yil) uchdan bir qismi mamlakatni tark etdi. Jami emigratsiyaga ketganlarning 25 % ini oliy ma'lumotli kadrlar tashkil qilgan;

- Mamlakat subyektlari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish nomutanosib kechmoqdi. Aholi real daromadlari o'rtasidagi tafovutning 1/14 ga tengligi juda achinarli hodisa hisoblanadi;

- Mamlakat tashqi eksportining bir tomonlama rivojlanib borishi. Asosiy tashib ketilayotgan mahsulotlarning aksariyatini ko'mir, rudalar, o'rmon mahsulotlari, neft, gaz va shu kabilar tashkil qilmoqda. YAIM ning deyarli yarmini neft va gaz savdosi tashkil qiladi. Shuningdek moliyaviy aylanmalarining aksariyati (95 %) Moskva va Sankt-Piterburg shaharlariga to'g'ri keladi. Tabiiy zahiralarga boy hududlar o'ziga xos maqom olishga intilishlari bejiz emas;

- Mamlakat hududining bepoyonligi, transport tizimi kommunikatsiyalarining uzunligi mahsulotlarni tashish, ularning tannaxlari ko'tarilishiga, ishchi kuchining erkin harakatiga, aholi ko'chishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek mamlakatning asoslangan, ilmiy geosiyosiy rivojlanish konsepsiyasining yaratilmaganligi taraqqiyotning dastlabki yillarida o'ziga xos vakuumning vujudga kelishini ta'minladi.

Davlat tuzumi va tuzilishi. Yevropaning sharqida, Osiyoning shimolida joylashgan davlat. Maydoni jihatidan dunyoda eng katta mamlakat hisoblanadi. Quruqlikdagi chegarasi 22125,3 km, dengiz chegarasi 38807,5 km ga teng. Rossiya hududi 3 okean havzasiga qarashli 12 dengiz, jumladan, Boltiq, Qora va Azov (Atlantika okeani), Barents, Oq, Kara, Laptevlar, Sharqiy Sibir va Chukotka (Shimoliy muz okeani), Bering, Oxota, Yapon dengizlari (Tinch okeani), shuningdek, hech bir okeanga tutashmagan Kaspiy dengizi bilan o'ralgan. Ma'muriy jihatdan 89 subyekt: 21 respublika, 6 o'lka, 49 viloyat, 2 federal shahar, 1 muxtor viloyat, 10 muxtor okrugga bo'linadi. Rossiyada 1091 shahar, 1922 shaharcha bor. 2000-yili Markaziy, Shimoli-G'arbiy, Janubiy, Volga bo'yi, Ural, Sibir, Uzoq Sharq federal okruglari Tashkil etildi.

Rossiya boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan demokratik federativ respublika hisoblanadi. Amaldagi Konstitutsiya 1993-yil 12-dekabrda qabul qilingan. Davlat boshlig'i - prezident, u umumiy, teng va bevosita saylov asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan Rossiya fuqarolari tomonidan 6 yil muddatga saylanadi. Qonun chiqaruvchi organi 2 palatadan iborat. Ijroiya hokimiyatini rais boshchiligidagi hukumat amalga oshiradi. Hukumat raisini prezident Davlat dumasi bilan kelishgan holda tayinlaydi.

Asosiy siyosiy partiyalari va kasaba uyushmalari. “Yagona Rossiya” partiyasi – 2003-yili asos solingan; Liberal –demokratik partiya – 1992-yili ro‘yxatga olingan; “Yabloko” demokratik partiyasi – 2001-yili tuzilgan; Rossiya Federatsiyasi Kommunistik partiyasi – 1993-yili ro‘yxatga olingan; shuningdek, Rossiya demokratik partiyasi, “Yevraziya, “Internatsional Rossii”, Konservativ partiya, Rossiya Federatsiyasi Xalq partiyasi, Rossiya xalq-vatanparvarlik partiyasi, Rossiya xalq-respublikachilar partiyasi, “Liberal Rossiya” partiyasi, “Tadbirkorlikni rivojlantirish partiyasi”, Rossiya Mehnat partiyasi, Pensionerlar partiyasi, Rossiya sotsial-demokratik partiyasi va boshqa partiyalar faoliyat yuritadi. Ijtimoiy hayotdagi qator masalalar bilan “Urush faxriylari –tinchlik uchun”, “Askar onalari”, “Qadriyat va mehr-muruvvat” va boshqa harakatlar shug‘ullanadi. Rossiya mustaqil kasaba uyushmalari federatsiyasi ko‘pgina tarmoq kasaba uyushmalarini birlashtiradi.

Rossiya –SSSRning huquqiy vorisi sifatida 1945-yil 24-oktabrdan BMT a‘zosi hisoblanadi. Ayni paytda ushbu huquqiy normaga asosan BMT HK a‘zosi maqomini olgan. O‘zbekiston Respublikasi suverenitetini 1992-yil 20-martda tan olgan va shu kuni diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan.

Aholisi. Rossiyada 100 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Rossiyaning asosiy aholisi bo‘lgan ruslar jami aholining 81,5 % ini tashkil etadi. Shuningdek, ukrainlar, beloruslar, litoslar, latishlar, nemislar, yaxudiylar, moldovanlar, greklar, armanlar, ozarbayjonlar, o‘zbeklar, gruzinlar, qozoqlar va boshqalar yashaydi. Rossiyaning Yevropa qismi shimolida karellar, vepslar, ijobalar, saamlar (loparlar), komi va komipermyaklar, O‘rta Volga bo‘yida mari, udmurt va mordvalar, Volga bo‘yining boshqa joylari va Janubiy Uralda turkiy tillarda so‘zlashuvchi chuvashlar, boshqirdlar, tatarlar, shuningdek, qalmoqlar yashaydi. Osetin, qorachoy, bolqor, qo‘miq, no‘g‘aylar Shimoliy Kavkazning tub joy aholisidir. Sibir va Uzoq Sharqda turkiy tillarga mansub saxalar, oltoy, shor, xakas va tuvalar, mongol tilida so‘zlashuvchi buryatlar, shuningdek, xanti va mansilar, nenets, chukcha va eskimoslar istiqomat qiladi. Rossiya tarkibidagi milliy respublikalarda tub joy aholisining tili ham shu respublikaning davlat tili hisoblanadi. Rossiya aholisining 73% shaharlarda yashaydi.

Iqtisodiyoti. Rossiya industrial-agrar mamlakat. Uning hududi 12 yirik iqtisodiy rayon (shimoliy, shimoliy-G‘arbiy, Markaziy, Volga-Vyatka, Markaziy qoratuproq, Volgabo‘yi, Shimoliy Kavkaz, Ural, G‘arbiy Sibir, Sharqiy Sibir, Uzoq Sharq va Kaliningrad viloyati)ga bo‘lingan. Milliy daromad sanoatning ulushi 44,5 %, qishloq xo‘jaligi ulushi 34%. Iqtisodiyotda davlatga qarashli korxonalar bilan bir qatorda xususiy, aralash korxonalar ham bor.

Tabiati. Rossiya hududi meridian bo‘ylab 2,5-4 ming km. ga, G‘arbdan sharqqa 9 ming km. ga cho‘zilgan. Mamlakatning eng G‘arbiy nuqtasi Polsha bilan bo‘lgan chegaraga (Kaliningrad viloyati), sharqiy nuqtasi Bering bo‘g‘ozidagi

Ratmanov oroliga, chekka shimoliy nuqtasi Frans-Iosif Yeri arxipelagidagi Rudolf oroliga to'g'ri keladi. Rossiya hududining 45% i o'rmon, 4% i suv, 13% i qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar, 19% i bug'u yaylovlari, 19% i boshqa yerlarga to'g'ri keladi.

Iqlimi deyarli hamma joyda kontinental (chekka shimoli-G'arbda dengiz iqlimi), Sibir va Uzoq Sharq shimolida yuqori atmosfera bosimi (sharqda Osiyo antitsikloni) hukmron.

2. Yangi xalqaro munosabatlar tizimida Rossiyaning geosiyosiy rivojlanish yo'li.

Rossiyaning xalqaro va geosiyosiy ahvoli hususida fikr ketganida tadqiqotchilar mamlakatning yaqin qo'shnilari, birinchi galda Yevropa bilan o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yaqinligi, o'xshashligiga e'tiborni qaratishadi. Ikkinchi tomondan rus madaniyatining o'ziga xos spetsifik xususiyatlariga qaratishadi. Shuningdek tadqiqotchilar o'tgan asrning 90-yillarida Yevrosiyo hayotida ro'y bergan muhim ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga, ularning mamlakatlar, xalqlar hayotidagi ahamiyatiga keng e'tibor qaratishadi. Sobiq ijtimoiy-siyosiy tizimning, sobiq ittifoqning yemirilishi nafaqat Sharqiy Yevropa, balki Rossiyaning ham keyingi rivojlanish yo'liga keskin ta'sir qildi. Mamlakatga imkoniyatlari cheklangan, mintaqaviy maqomdagi buyuk davlat (derjava) sifatida qarash boshlandi.

Bunday tushdagi bo'hronlardan keyin mamlakat yangicha rivojlanish yo'lini tanlashi lozim edi. Albatta taklif qilinayotgan variantlar talaygina: Yevropaning "oddiy" davlatiga aylanish; regional miqyosdagi lider davlat sifatida bo'lish; rivojlangan G'arbning satilletiga aylanish; qaytadan "Uchinchi Rim" maqomiga erishish; Xalqaro maydonda o'z manfaatlarini faol himoya qilish va shu kabilar. Endi taklif etilayotgan, ilgari surilayotgan ba'zi variantlarni ko'rib chiqsak:

Birinchi, Mamlakatdagi radikal islohot tarafdorlari rivojlangan G'arb bilan aloqalarni, hamkorlikni kuchaytirish tarafdori bo'lib chiqishmoqda. Ular Fukuyamaning "Tarixning intihosi" asarida keltirilgan tezislar negiziga tayangan o'z g'oyalarini ilgari surishmoqda. Hozirgi g'arbda tashkil etilgan "savdo bozori" radikal-liberalistlarning ideali bo'lib qolmoqda. Ularni vatan tarixi, milliy davlatchilik, mamlakatning geosiyosiy manfaatlari, milliy qadriyatlar, milliy – ma'naviy meros, jamoaviylik, diniy-ahloqiy normalar kabi tushunchalar qiziqitirmaydi. Ular bozor iqtisodiyotini, insonning moddiy ehtiyojlarini, unga erishish yo'llari va vositalarini oldingi o'ringa qo'yishadi. Ularning bosh maqsadi hozirgi Rossiya hududida AQSH va G'arbiy Yevropa davlatlarida siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida qaror topgan tarixiy jamiyatni barpo etishdir. Ular o'z fikr-mulohazalarini asoslash maqsadida quyidagi argumentlarni keltirishadi: Rossiyaning tashqi iqtisodiy aloqalarining 55% i G'arbiy Yevropa davlatlariga to'g'ri keladi; MDH mamlakatlari bilan savdo tashqi jami savdoning 20 % ini tashkil etadi;

dunyoning qolgan davlatlari bilan (jumladan Xitoy, AQSH, Yaponiya) olib boriladigan savdo balansi esa 25 % ni tashkil etgan. Albatta bu statistik ma'lumotlar Ukraina inqirozi sabab kelib chiqqan "sanksiyalar urushi" natijasida keskin o'zgarib ketdi. Bu o'zgarishlar albatta radikallar foydasiga emas.

Ikkinchidan Rossiyaning G'arbiy Yevropa davlatlari bilan iqtisodiy munosabatlari nosimmetrik tarzda yo'lga qo'yilgan. YA'ni YEI ning tashqi savdosining 3 % i Rossiyaga to'g'ri keladi. Rossiya tashqi savdosida esa G'arbiy Yevropa bilan savdo 55% ga teng. Demak o'zaro munosabatlarni yangicha asosda qayta yo'lga qo'yish lozim.

Uchinchidan, Rossiya YEI davlatlariga asosan energetik xom-ashyolar eksport qiladi. Yevropaga jo'natilayotgan tovarlar orasida mashinasozlik mahsulotlar, tayyor mahsulot uchramaydi. Shuningdek G'arbiy Yevropadan Rossiyaga keltirilayotgan mahsulotlar orasida yuqori texnologik mahsulotlar savdosiga sanksiyalar joriy qilingan.

To'rtinchidan, Rossiyaning qator siyosatchilari MDH ga Rossiya hal qiluvchi rol o'ynaydigan makon sifatida qarab kelishadi. MDH davlatlarida esa bunday qarashga keskin e'tirozlar bildiriladi. Nafaqat olimlar o'rtasida siyosatchilar, hukumat rahbarlari o'rtasidagi ham bunday qarashlarga chek qo'yish tarafdorlari salmoqli hisoblanadi. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyili jahon hamjamiyati uchun ochiqlik, barchaga bir xil keng imkoniyatlar yaratish hisoblanadi. Moldova, Ukraina yevrointegratsiya sari ketishmoqda. Qator sabablar bois Rossiyaning Ozarbayjon va Gruziya bilan munosabatlari sustlashmoqda. G'arbda Rossiyani imperiyacha siyosat yuritishda ayblash kuchaymoqda. Bu xolat Ukraina va Suriya voqealaridan keyin yanada avj oldi.

Beshinchidan, mingyillik boshlariga kelib vatan manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan milliy oqim vakillari maydonga chiqishdi. Milliy manfaatlarni, qadriyatlarni himoya qilish, Rossiyada yaratilgan mahsulotlarni davlat tashkilotlari tomonidan xarid qilishni yo'lga qo'yish, milliy g'oyani ishlab chiqish kabi chaqiriqlar bilan o'z g'oyalarini ilgari surishmoqda. Ularning fikricha Rossiya rivojlangan G'arb uchun xom-ashyo bazasi, savdo bozori bo'lib qolmasligi zarur. Bunday siyosat Rossiyani deindustrializatsiya sari yetaklaydi. Xattoki, siyosatshunos A.Paparin Rossiyaning yirik markazlarini Sharqqa ko'chirishni ilgari suradi.

Hozirgi kunda Rossiyaning ichki va tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun xalqaro maydonda zamonaviy Rossiyaning mavqeini, tutgan rolini, manfaatlarini belgilab olish talab etiladi. Noaniq qarashlar ko'p uchraydi. Masalan, ko'pchilik Rossiyaga SSSR ning vorisi sifatida qarashadi. O'z-o'zidan savol tug'iladi: Unda MDH dagi qolgan milliy davlatlarga qanday qarash zarur. Sobiq ittifoqning parchalanishi natijasida uning xududida qator milliy respublikalar o'z suverenitetiga erishdi. Bu geografik

makondagi milliy respublikalarda mustavillikning dastlabki yillarida qat'iy yuridik normalarning mavjud emasligi, chegaralarning yo'qligi, qonuniy normalarning yo'qligi qator muammolarni keltirib chiqardi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab AQSH xalqaro maydonda o'z pozitsiyasini boy bera boshlagan edi: Koreya urushi (1950-1953-yillar), Karib inqirozm, Vetnam urushi va shu kabilar. 1991-yilda Iroqqa qarshi amalga oshirilgan "Sahrodagi bo'ron" harbiy operatsiyasi amerikaliklarning ruhini bir oz ko'tardi. Shuningdek sovet-afg'on urushi ham o'ziga xos qasos olish "fronti" bo'lib xizmat qildi. Shuningdek AQSH prezidenti R.Reygan davrida MRB raisi Uilyam Keysi boshchiligida sovet davlatini yo'q qilishga qaratilgan "N500-75" sonli maxsus dastur amalga oshirila boshlandi. Unga asosan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- Polshadagi muxolifatdagi "Hamkorlik" harakatiga moliyaviy va axborot yordami kuchaytirildi;
- Sovet bosimiga qarshi kurashayotgan afg'on mujohidlariga harbiy-texnik, moliyaviy yordam ko'rsatish (kelgusida harbiy harakatlarni sovet hududiga ko'chirish) boshlandi;
- Jahon bozorida neft va gazning narxini tushirish hisobiga sovet davlatining valyuta tushumlarini kamaytirishga erishish. Buning uchun Saudiya Arabistoni va boshqa arab davlatlarining neft-gaz sanoatini rivojlantirishga yordam berish ko'zda tutildi;
- Sovet iqtisodiyotiga zamonaviy g'arb texnologiyalarining kirib kelishiga to'sqinlik qilish;
- Jamiyat hayotining barcha sohalarida mafkuraviy kurash olib borish;
- Qurollanish poygasini avj oldirish yo'li bilan sovet iqtisodiyotini sindirishga erishish va sh.k.

Qiziq tomoni ba'zan "Anakonda" rejasini eslatuvchi bu dastur hozirgi kunda ham xalqaro munosabatlarda ko'zga tashlanmoqda.

Kelgusida xalqaro maydonda Rossiyaning maqomi qanday bo'ladi? U Yevrosiyodagi, xalqaro maydonda muhim rol o'ynaydigan yirik davlat (derjava) bo'lib qoladimi yoki rivojlangan G'arbning xom ashyo manbasi, mustamlakasi bo'lib qoladimi? Mamlakatni yirik yadro quroliga ega mamlakat bo'lib qolishi, iqtisodiyotni qayta tiklash va yanada rivojlantirish, ijtimoiy-siyosiy hayotni rivojlantirish, xalqning milliy-ruhiy tiklanishini ta'minlash, vatanparlikni, milliy g'ururni yuksaltirish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar sirasiga kiradi. MDH bilan kechayotgan munosabatlar qator qarama-qarshiliklarga boy. Sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan davlatlardan ba'zilar bu uyushmaga intilsa, ba'zilar bu tashkilotdan o'zini chekkaga olishadi. MDH qator masalalarda umumiy manfaatga, qarashlarga, intilishlarga ega bo'lgan monolit uyushma sifatida maqomga ega emas.

3. Sharqiy Evropa, Kavkaz, Yaqin Sharq masalasidagi kelishmovchiliklar.

Mustaqillikdan keyingi yillarda Rossiyaning nafaqat tashqi siyosatida balki uning iqtisodiy rivojida ham, mudofaa tizimida ham Ukraina muhim xalqa sifatida ahamiyat kasb etib keldi. Sobiq ittifoq davrida ham Ukraina o'zining iqtisodiy salohiyati jihatidan Rossiyadan keyingi o'rin egallab kelgan. Harbiy strategik ahamiyatga ega qator korxonalar, harbiy konstruktorlik markazlari Ukrainada joylashgan edi. Sobiq ittifoqning Bolqon yarim oroli va O'rta yer dengizidagi ta'sir doirasini belgilashda muhim tayanch punkt vazifasini o'tab kelgan Qrim va Sevastopol Ukraina tarkibida qolib ketdi. 1992-yil boshlarida 1240 ta yadroviy kallaklar, 133 ta RS-18 rusumli strategik raketalar, 46 ta RS-22 rusumli raketalar, 564 ta qanotli raketalar, 3000 atrofida taktik qurollar Ukraina hududida joylashgan edi. Shuningdek bunday qirg'in qurollari Belarus va Qozog'istonda ham bor edi. Eng avvalo AQSH mintaqadagi yadro qurolini yo'q qilish, yadroviy texnologiyalar elementlarini boshqa davlatlarga sotilishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qildi. Nafaqat AQSH balki qator yirik davlatlar (jumladan yadro quroliga ega davlatlar), xalqaro tashkilotlar sovet yadro kallaklari, yadroviy texnologiyalarni bir necha davlat o'rtasida taqsimlanganidan ko'ra bitta davlat qo'lida yig'ilishini ma'qul bilishdi. 1994-yil 5-dekabrda yadro qurollarini tarqatmaslik majburiyatini kafolatlovchi "Budapesht memorandum" Ukraina, shuningdek Qozog'iston, Belarus respublikalari bilan imzolandi¹. Unga asosan Ukrainaning hududiy dahlsizligi kafolatlandi. Ularning bir qismi AQSH ning moliyaviy ko'magida yo'q qilindi, qolgani Rossiya hududiga olib chiqildi. O'z navbatida Ukraina ho'jaligining qator zaif tomonlari mavjud edi: ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari, qishloq ho'jaligi mahsulotlari asosan MDH mamlakatlariga mo'ljallangan bo'lib ular raqobatbardosh emas edi; zarur xom-ashyo mahsulotlarini ham shu mamlakatlardan import qilib kelgan; mamlakat o'zining oltin zahirasiga, valyuta zahirasiga ega emas edi; ittifoq tarkibidagi respublikalar bilan iqtisodiy aloqalarning uzilib ketishi ishsizlikka sabab bo'ldi; Chernobil fojeasi asoratlarini bartaraf etish moddiy tomondan katta harajat talab etar edi.

Mana shunday sharoitda muxolifatdagi kuchlar Yevroittifoq bilan assotsiatsiya to'g'risidagi shartnomani imzolashni talab etar edi. 2013-yil noyabrda Ukraina hukumati Yevropa ittifoqi bilan assotsiatsiya to'g'risidagi muzokaralarni to'xtatishga qaror qildi. Bu esa mamlakatda keskin siyosiy inqirozning boshlanishi sabab bo'ldi. 2014-yilning fevralida Oliy Rada prezident V.Yanukovichning hokimiyatdan chetlashtirilganligini e'lon qildi. Rossiya Qrimdagi, Donetsk va Luganskdagi rossiyaparast kuchlarni qo'llab-quvvatlay boshladi. 2014-yilning mart oyida Rossiya

¹ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ будапештский меморандум](https://ru.wikipedia.org/wiki/будапештский_меморандум)

Qrimni o'z tarkibiga qo'shib oldi. Ukraina Oliy Radasi Qrimni vaqtincha okkupatsiya qilingan hudud deya e'lon qildi. Shu tariqa Rossiya-Ukraina munosabatlarida katta uzilish ro'y berdi. O'z-o'zini mustaqil deb e'lon qilgan LXR va DXR bilan tutash hududlarda harbiy to'qnashuvlar davom etmoqda.

1980-yillarning oxiriga kelib SSSRda markaziy hokimiyatning zaiflashuvi sabab Kavkaz mintaqasida gruzin-abxaz, gruzin-osetin (Janubiy Osetiya) to'qnashuvlari yuz bera boshladi. 1992-1993-yillarda qator harbiy to'qnashuvlar sodir etildi. 1993-2008-yillarda BMT va MDH boshchiligida to'qnashuvlarni muzokaralar bilan hal etishga urinishlar samara bermadi. 2008-yilning avgustida Gruziya qo'shinlarining Abxaziya va Janubiy Osetiyaga qilgan harbiy hujumidan keyin Rossiya tomonidan Abxaziya va Janubiy Osetiya mustaqilligini tan olinishi olib borilayotgan muzokaralarga chek qo'ydi. Shuningdek Abxaziya va Janubiy Osetiya fuqarolariga rossiya pasporti berishi boshlandi. 2008-yil 28-avgustda Gruziya tomonidan Abxaziya va Janubiy Osetiya okkupatsiya qilingan hudud deb e'lon qilindi. Abxaziya va Janubiy Osetiyaning mustaqilligi xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinmagan.

Rossiyaga qarshi G'arbiy Yevropa va AQSH tomonidan e'lon qilingan sanksiyalar urushi sabab qator sohalarda yuksalayotgan o'zaro munosabatlar darz ketdi. O'zaro ishonch, ahil qo'shnichilik yo'qoldi. Bu nimalarda ko'zga tashlanmoqda?

Birinchidan, G'arbiy Yevropa jamoatchiligi ongida Rossiya agressor davlat ekanini talqin etuvchi targ'ibot kampaniyasi keng avj oldi. Hududiy jihatdan Rossiyaga yaqin yoki tutash bo'lgan davlatlar katta havfga tushib qolishdi. Ular o'rtasida NATO ga Rossiya tajovuzidan himoyalaniishning garovi sifatida qarash boshlandi. O'z hududlarida AQSH harbiy bazalarining joylashtirishga kirishishdi.

Ikkinchidan, bundan ilgari Gruziya tarkibidagi Janubiy Osetiya, Abxaziyadagi separatistlar Rossiya tomonidan qo'llab-quvvatlanilgan edi. Bu muammo bugungacha yechimini topgani yo'q. Shuningdek Dnestr bo'yi muammosi sabab Moldova deyarli ikkiga bo'lib tashlandi.

Uchinchidan, Rossiya iqtisodiyotida muhim o'rin tutgan sanoat birlashmalariga Yevropa hududida faoliyat olib borish taqiqlab qo'yildi. O'z navbatida Yevropaning yirik kompaniyalari Rossiya bozorini tark eta boshladi. Yangicha iqtisodiy munosabatlar asosida shakllanayotgan iqtisodiyotga katta zarba berildi.

To'rtinchidan, yirik banklar, moliya birlashmalar Rossiya iqtisodiyotiga yo'naltirilgan o'z loyihalaridan sanksiyalar sabab voz kechishdi. Rus sanoati kapital, investitsiya tariqasidagi milliardlagan mablag'dan mahrum bo'ldi.

Beshinchidan, sanksiyalar fan, texnika, ilg'or texnologiyalar sohasidagi munosabatlarni ham chetlab o'tmadi. Bepoyon hududlardagi tabiiy zahiralarni

o'zlashtirishga qaratilgan yangi sanoat korxonalarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash imkoni yo'qoldi.

Oltinchidan, iqtisodiy munosabatlarning uzilishi, qator korxonalarning to'htab qolishi, inflyatsiya sabab mehnat muhojirlarining katta qismi mamlakatni tark eta boshladi.

O'rta yer dengizi havzasi ham har doim yirik davlatlarning, koalitsiyalarning manfaatlari to'qnashib kelgan geostrategik mintqa hisoblanadi. Rossiya birinchi jahon urushiga kirganida ham asosiy strategik maqsadlardan biri Bosforni (Stambul) qo'lga kiritish edi. "Sovuq urush" davrida turli davrlarda Sovet davlatining Misrdagi, Liviyadagi, Albaniyadagi, Yugoslaviyadagi, Suriyadagi harbiy dengiz bazalari havzani o'z nazoratida ushlab turishga harakat qilgan. Lekin qayd etib o'tilgan bu mintaqalardan Suriyadan boshqa barchasi turli davrlardagi qarama-qarshiliklar natijasida qo'ldan ketdi. Shu sabab Rossiya keyingi davrda asosiy e'tiborni so'nggi tayanch nuqta sifatida Suriyaga qaratdi.

Suriya O'rta yer dengizining sharqiy sohilida joylashgan davlat. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Misr bilan birgalikda Birlashgan Arab davlati tarkibida bo'ldi. 1961-yil Damashqda Ma'mun Kuzbariy boshchiligida xarbiy davlat to'ntarishi amalga oshirildi. Qator iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi, mulklar oldingi egalariga qaytarildi. Shunday bo'lsada 1962 va 1966-yillarda harbiylar tomonidan besh marotaba davlat to'ntarishlari amalga oshirildi.

1967-yilgi "olti kunlik urush" davrida Golan tepaliklari Isroil tomonidan zabt etilib bufer hudud sifatida nazoratga olindi. Hudud bugungacha qaytarilgani yo'q. 2011-yilda Yaqin Sharqni qamrab olgan "arab bahori" Suriyani ham chetlab o'tgani yo'q. Qator shaharlarda siyosiy islohotlarni ilgari surgan ko'pming kishilik namoyishlar boshlanib ketdi. 2014-yilning yoziga kelib mamlakatning sharqiy hududlari Islom davlati (ISHID) tarkibiga o'tib ketdi. E'lon qilingan halifalikning poytaxti Rakka shahri edi.

Qisqa muddat ichida to'rt millionga yaqin aholi mamlakatni tark etishga majbur bo'ldi. Yetti milliondan ortig'i yashash joyini o'zgartirishga majbur bo'ldi. 2015-yilning yoziga kelib Suriya hukumati harbiy yordam so'rab Rossiyaga murojat qildi. Boshlanib ketgan harbiy amaliyot katta moliyaviy mablag'larni talab etishi turgan gap. Shunday ekan bu masala yuzasidan quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, Yaqin Sharq, Sharqiy Yevropa voqealari sabab hozirgi kunda Rossiya oldidagi asosiy vazifa AQSH va uning itifoqchilari tomonidan qo'llanilayotgan qator sanksiyalarga, xalqaro izolyatsiyalarga qarshi turish hisoblanadi;

Ikkinchidan, Sharqiy Yevropada Ukraina inqirozi sabab yuzaga kelgan qarama-qarshilikni hal etish, YEI bilan ijtimoiy-siyosiy, iqtimodiy munosabatlarni

yo'lga qo'yish. Albatta bu masala qator rezolyusiyalarda, anjumanlarda ilgari suriladi, lekin muammoning yechimini o'zida aks ettirgan mexanizm ko'zga tashlanmaydi. "Minsk – 2" kelishuvining 10-11 bandalari umuman bajarilmasdan kelinmoqda¹.

Uchinchidan, NATO ning borgan sari sharqqa tomon siljishi davom etmoqda. Sobiq bipolyar tizim davrida alyans a'zolari 15 ta bo'lsa hozirgi kunda ularning soni 28 ta yetdi. A'zolar soni yaqin kelajakda yanada ortishi turgan gap. Tashkilot unga a'zo bo'lib kirgan davlatlar oldiga kamida jami YAIM ning ikki fozini mudofaa ishlariga ajratishini belgilab qo'rganini inosbatga oladigan bo'lsak moliyaviy mablag' qay darajada katta ekanini fahmlash qiyin emas. Shu sabab Rossiya SHHT a'zolarini bilan tashqi harbiy bosimga qarshi birgalikda kurashishni maqsad qilib oluvchi bitim tuzishga harakat qildi. Lekin bu taklif qo'llab-quvvatlanmadi. Bunday bitimni tuzishdan oldin u keltirib chiqarishi mumkin oqibatlarni tasavvur qilish lozim.

To'rtinchidan, sanoatning texnologik qoloqligi, hamda bir yoqlama rivojlanganligi katta muammoligicha qolmoqda. Asosiy eksport mahsulotlarining deyarli sakson foizdan ortig'ini neft, gaz, turli rudalar, rangli metallar, o'rmon mahsulotlari tashkil etadi. YAIM ning yarmi neft va gaz savdosidan tushgan.

Beshinchidan, mamlakatdagi demografik vaziyat muammoligicha qolmoqda. Hukumat tomonidan qator choralar ko'rilsada aholining kamayishi davom etmoqda. Ayniqsa Sibir, Uzoq Sharq mintaqalarida bu holat fojeali hisoblanadi. Migratsiyaga ketayotgan aholi salmog'i emmigrantlarga nisbatan yuqoriligicha qolmoqda.

4. Rossiya tashqi siyosatida SHHT va MDH ning roli. Rossiya SHHT tashkil etilganidan beri uning a'zosi hisoblanadi. Nafaqat a'zosi balki uning tashkilotchilaridan biri ham hisoblanadi. Keyingi yillarda G'arb tomonidan kuchli sanksiyalar to'lqini davom etayotgan bir paytda SHHT bilan aloqalarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa SHHT a'zolari ichida Xitoy muhim o'rin tutadi. Rossiya imperiyasi davrida, Sovet davlati davrida ham Xitoy bilan munosabatlar ziddiyatli keyagan. 1991-yildan Rossiya va Xitoy o'rtasida munosabatlarning yangi bosqichi boshlandi.

Rossiya hududining juda katta qismi Qozog'istondan tortib to Yapon dengizigacha bo'lgan qismi ham geosiyosiy nuqtai nazardan, ham harbiy jihatdan buyuk hisoblanuvchi Xitoy bilan tutashadi. Rossiyaning Sibir va Uzoq Sharq o'lkalarida bepoyon dalalar, dashtlar, o'rmonlar, tabiiy zahiralari joylashgan. Aniqlangan tabiiy zaharalarning deyarli 80 % i Rossiyaning Ural tog'laridan Uzoq Sharqqagacha bo'lgan hududlarida joylashgan. Lekin ittifoq parchalanganidan keyin ham Rossiyaning tashqi siyosatida yevrotsentrizm tamoyili ustuvorlik kasb etib keldi.

¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/Минские_соглашения

Bugungi Xitoy aholisi, maydoni, ishlab chiqarish sanoatining yuksakligi bilan eng lider davlatlardan hisoblanadi. Yalpi ijtimoiy mahsulot yaratish bo'yicha birinchi o'rinni davo qilayotgan bu mamlakat nihoyat katta miqdorda tabiiy zahiralarga ehtiyoj sezadi: neft, gaz, metal rudalari, rangli metal, o'rmon mahsulotlari, turli xil ma'danlar. Albatta Xitoy shu ma'noda Rossiyaning cheksiz imkoniyati bo'lmish qator tabiiy zihiralari uchun ulkan bozor bo'lib xizmat qiladi.

2014-yilda har ikkala mamlakat o'rtasidagi savdo 88,4 mlrd.dollarni tashkil etdi. Ukrain inqorozi sabab Yevropa bilan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning chigallashi sabab Rossiya tashqi savdo aylanmasida Xitoyning roli oshib bordi. Rossiya va Xitoy savdo aylanmasi 2017-yilda 20,8 foizga, 2018 yilda 27,1 foizga oshib umumiy savdo aylanmasi 107 milliard dollardan oshib ketdi. Shuningdek yana bir jihatni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Osiyo –tinch okeani mintaqasi deyilganda faqatgina Xitoy bilan chegaralanib qolinmasligi zarur.

Mintaqada Xitoydan tashqari Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya, Singapur, Tayvan singari yangi industrial davlatlar ham joylashgan. Bu davlatlar yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga taqsimoti ko'rsatkichi, yalpi ichki mahsulotning yillik o'sish sur'ati (qo'shimcha), qayta ishlash sanoatining yalpi ichki mahsulotdagi solishtirma salmog'i, sanoat mahsulotlarining eksportdagi salmog'i, xorijga chiqarilgan investitsiya salmog'i va shu kabi ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega.

5. O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi strategik hamkorlik masalalari. Ijtimoiy hayotning turli sohalarida O'zbekiston va Rossiya munosabatlari uzoq tarixga ega. Bu aloqalar xonliklar davrida, Chor imperiyasi davrida ham, mustabid sovet tizimi davrida bir daqiqiga to'xtagan emas. O'zbekiston o'z mutaqilligini qo'lga kiritgach bu borada sifat jihatidan yangi bosqich boshlandi. Rossiya Federatsiyasi O'zbekiston mustaqilligini dastlabki tan olgan davlatlardan hisoblanadi.

O'zbekiston tashqi siyosatida Rossiya alohida o'rin tutadi. Toshkent va Moskvaning ko'plab xalqaro muammolarga munosabati o'xshash yaqin, ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish borasidagi qarash va intilishlari mushtarak. O'zbekiston va Rossiya barcha sohalarda o'zaro aloqalar ko'lamini kengaytirishdan manfaatdor. O'zbekiston tashqi siyosati o'zaro manfaatli hamkorlikdan iborat ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalarni keng yo'lga qo'yish tamoyilga asoslangan. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov va Rossiya Federatsiyasi prezidenti Vladimir Putin 2004-yilda Strategik sheriklik, 2005-yilda esa Ittifoqchilik munosabatlarni to'g'risidagi shartnomalarni imzoladilar. Bu xujjatlar ikki davlatlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos vazifasini o'taydi. Ayni paytda, O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik

to'g'risidagi hujjat ham amalda. Bu yo'nalishdagi aloqalar harbiy mahsulotlar yetkazib berish, harbiy texnikani yangilash, kadrlar tayyorlash, birgalikda mashqlar o'tkazish, koinotni tadqiq etish bo'yicha davlatlararo dasturlar tuzish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma o'ta muhim va ma'suliyatli masala – ikki tomonlama harbiy, harbiy-texnikaviy aloqalarni yuqori va ishonchli asosda yanada rivojlantirishni, Qurolli Kuchlarni barpo etish, ularni qurollantirishda o'zaro ko'mak va yordam berishni nazarda tutadi, negaki, ushbu shartnoma bo'yicha O'zbekistonga qarshi qaratilgan har qanday tashqi kuchlar, ushbu hududga bostirib kirishga bo'lgan urinishlar o'z-o'zidan Rossiyaga qarshi qo'l ko'tarish bo'lib hisoblanadi va, tabiiyki, dunyodagi eng qudratli davlatlardan biri bo'lmish bu mamlakatni befarq qoldirmaydi. O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi kelajakka intilgan hamkorlik munosabatlari shu davlatlar xalqlarining tub manfaatlariga to'la javob beradigan, sifat jihatdan yangi ittifoqchilik darajasiga ko'tarishda parlamentlararo aloqalarini takomillashtirishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Rossiya uchun bunday hamkorlik davlat manfaatlarini doirasiga kiradi, chunki Markaziy Osiyo mintaqasi va umuman Osiyodagi barqarorlik ko'p jihatdan aynan O'zbekiston bilan bog'liqdir.

Yaqinda Toshkentda O'zbekiston va Rossiya muzokaralari yakunlari bo'yicha ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi boshlandi. Rossiya prezidenti O'zbekistonga tashrifi davomida quyidagi ikki tomonlama hujjatlar imzolandi: Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha 2019-2024-yillarga mo'ljallangan hukumatlararo dasturi va uni amalga oshirish bo'yicha harakatlar rejasi; "Suffa" radioastronomik observatoriyasi nomli xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish bo'yicha harakatlar rejasi yo'l haritasi; Sanoatning to'qimachilik, tikuv va trikotaj sohaslarida hamkorlik hukumatlararo bitim; "O'zbekneftegaz" AJ bilan "Lukoil" OJ o'rtasida anglashuv memorandum; Madaniy-gumanitar sohalarda 2019-2021-yillarga mo'ljallangan hukumatlararo hamkorlik dastur; O'zbekiston Respublikasida Rossiya Federatsiyasining oliy ta'lim bo'yicha muassasalari filiallarini tashkil etish va ular faoliyatini yuritish to'g'risida hukumatlararo bitim; O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari rektorlari kengashi bilan Rossiya rektorlari ittifoqi Umumrossiya jamoyat tashkiloti o'rtasida bitimni hamda O'zbekiston milliy universitet bilan Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti o'rtasida fanlararo ilmiy markazini tashkil etish to'g'risida bitim; Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bilan Moskva davlat xalqaro munosabatlar o'rtasida O'zbekiston Respublikasida mazkur institut filialini ochish to'g'risida bitim; O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi davlat boshqaruv akademiyasi Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi shartnoma; Ijtimoiy mehnat sohasida hamkorlik to'g'risida idoralararo memorandum; O'zbekiston Respublikasi Milliy

gvardiyasi bilan Rossiya Milliy gvardiyasi qo‘shinlari federal xizmati o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida bitim va sh.k.

Albatta kelishuv O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi o‘zaro hamkorlikni yangi bosqichiga ko‘tarilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Birolyar tizim, ko‘p qutbli dunyo, totalitarizm, katta yettilik, J-20, NATO, separatizm, SHHT, MDH, ekstremizm, fundamentalizm, Abxaz muammosi, mintaqaviy mojarolar.

Takrorlash uchun savollar.

1. SSSR parchalanishining Rossiya uchun geosiyosiy oqibatlari nimada edi?
2. Yangi xalqaro munosabatlar tizimida Rossiyaning tutgan yo‘li qanday kechdi?
3. Sharqiy Evropada kelishmovchiliklarni asosiy sababi?
4. Kavkaz mintaqasidagi ichki va tashqi muammolar nimalardan iborat?
5. “N500-75” dasturining mohiyati nimada?
6. Yaqin Sharq masalasi Rossiya geostrategiyasida qanday ahamiyat kasb etadi?
7. Rossiya tashqi siyosatida SHHT va MDH ning roli qanday ?
8. O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi strategik hamkorlikning yangi yo‘nalishlari?

12-Mavzu: GEOSIYOSIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA AQSHNING ROLI

Maydoni	9 519 431kv. km.
Aholisi	325 615 000 kishi
Poytaxti	Vashington
Katta shaharlari	Nyu-York, Los-Andjeles, Chikago, Mayyami, Xyuston, Filadelfiya, Finiks, San-Antonio, San-Diyego, Dallas
Rasmiy tili	Ingliz tili
Milliy valyutasi	dollar
Eksporti	Mashinasozlik, aviatexnikalar, avtomobilsozlik, yuqori texnologiyalar, kompyuter dusturlari, elektronika mahsulotlari, qishloq ho‘jaligi mahsulotlari
Import	mashina va jihozlar, ehtiyoj mollari, dori -darmonlar, go‘sht, don, shakar va metallar
Dini	Dunyoviy davlat

Reja:

- 1. AQSH tashqi munosabatlarining rivojlanish tarixi.**
- 2. Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro maydonda yetakchilik uchun kurash**
- 3. AQSH tashqi siyosatida G'arbiy Yevropa va Rossiya masalalari.**
- 4. AQSH geosiyosatida Yaqin Sharq masalasi**
- 5. O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik masalalari.**

1. AQSH tashqi munosabatlarining rivojlanish tarixi. Buyuk davlat darajasini qo'lga kiritishning qisqa yo'lini bosib o'tgan AQSH tarixidagi quyidagi muhim voqealarga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xristofer Kolumb kashf etgan «Hindiston» ni 1498 yilda florensiyalik sayyoh, geograf Amerigo Vispuchchi (1454-1512) yangi qit'a ekanini isbotladi. 1507 yilda Sen Dey o'zi tuzgan xaritada bu yerni birinchi bor Amerika deb atagan edi. Keyinchalik yangi yerlar yevropaliklar tomonidan o'zlashtirilishga kirishildi. 1607 yilda Shimoliy Amerikada birinchi ingliz mustamlakasi Virjiniyaga asos solindi. XVII-XVIII asrlarga kelib esa ingliz mustamlakalari soni 13 taga yetdi. Janubiy xududlarga katta er egalari, shimolga esa qioldan, mavjud tizimdan norozi odamlar (protestantlar) joylashdi.

1774 yilda 13 ta shtat vakillari Filadelfiyada 1-Kontinental Kongressga yig'ilishdi. Kongress metropoliyaning majbur etuvchi qonunlariga itoat etish majburiy emasligi to'g'risida qaror qabul qildi. Ma'lumki Angliya parlamenti mustamlakalar hududida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni taqiqlagan edi. 1775 yilda 13 mustamlakaning barchasida qo'zg'olon boshlandi. Filadelfiyada bo'lib o'tgan 2-Kongresda Virjiniyalik plantator, polkovnik Vashington (1732-1799) ko'mondan etib tayinlandi. 1776 yil 10 may kuni Kongress Buyuk Britaniyadan ajralishga va mustaqil davlat tuzishga chaqirdi. 1776 yil 4 iyulda «Mustaqillik deklaratsiyasi» qabul qilindi. AQSH tuzilganligi e'lon qilindi. Deklaratsiya muallifi muallifi Jefferson edi. Xalq hokimiyat manbai deb e'lon qilindi. Amerika inqilobining xarakterli xususiyatlari: birinchidan, milliy mustaqillik ta'minlandi; ikkinchidan, bozor munosabatlariga to'siq bo'layotgan feodal sarqitlar bekor qilindi. Inqilobga burjuaziya va plantatorlar boshchilik qildi. Inqilobning asosiy xususiyati uning milliy ozodlik urushi shaklida ekanligidir.

AQSH ning iqtisodiy jihatdan tez rivojlanishini ta'minlagan omillar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: tabiiy sharoit, iqlim, unumli er, qazilma boyliklar, kapital oqimi, ishchi kuchi. XIX asrning 30 yillardan sanoat to'ntarishi boshlandi. Shimolda kapitalistik munosabatlar tez rivojlandi. Qulchilik bekor qilindi. Janubda esa qulchilik saqlanib qoldi. 1803 yil-Luiziana shtati Fransiyadan sotib olindi, 1810-21 yillarda Ispaniyadan Florida tortib olindi, 1845 yil Texas Meksikadan tortib

olindi, 1846-yil Angliya Orelonni in'om qildi, 1848- Kaliforniya Meksikadan tortib olindi.

1828 yilda demokratlar partiyasi, 1854 yilda respublikachilar partiyasi tuzildi. 1860 yilda ilk bor Respublikachilar vakili Abram Linkoln (1809-65) prezident etib saylandi. O'tinchining o'g'li, pochtachi, yuk tashuvchi, advokat bo'lib ishlagan. Linkolnning qulchilikka qarshi chiqishlarini ishchilar, fermerlar, burjuaziya qo'llab-quvvatladi. Janublik plantatorlar saylovda mag'lubiyatga uchragan demokratik partiyaning asosiy tayanchi edi. Janubliklar o'zlarini mustaqil Konfederatsiya deb e'lon qilishadi. Boshlanib ketgan fuqarolar urushida (1861-65) kuchlar jihatidan Shimol ustun edi. Shimolda 22 million odam yashar edi. Shimolliklarning qat'iyatsizligi janubliklarning vaqtinchalik muvaffaqiyatini ta'minlanadi. Shuningdek janubliklar Angliya va Fransiyaga tayanar edi. 1863 yil 1 yanvarda qulchilik bekor qilindi. Qisqa muddatda Shimolliklar armiyasi qora tanli aholi hisobiga oshdi. General Grant boshchiligida qo'shin 1865 yil 9 aprel kuni janubliklarning tayanch markazi Richmondni egalladi. G'alaba davlat yaxlitligini saqlab qoldi.

AQSH da qulchilikning tugatilishi, latifundiyalarning bekor qilinishi, tabiiy boyliklar, yangi texnologiyalarining kirib kelishi iqtisodiy rivojlanishining asosiy sababi edi. Ayni paytda geostrategik jihatdan AQSH ning qo'shnilari zaif (Meksika, Kanada) edi. Bu xol ortiqcha harbiy harajatlardan xalos etdi. 1894 yilga kelib sanoat ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'ringa chiqib oldi (1860 yilda to'rtinchi o'rinda edi). Fuqarolar urushigacha (1861-1865) AQSH Yevropaning iqtisodiy jihatdan mustamlakasi edi.

Mamlakatning ichki ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy muammolari hal etilgach AQSH asosiy e'tiborni tashqi munosabatlarga qaratdi. 1898 yil Gavayi bosib olinadi. 1899 yil Vashingtonda birinchi Panamerika mamlakatlari konferensiyasi bo'lib o'tdi. «Mono doktrinasiga» (1823 yil 2 dekabr) tayanib AQSH Venesuela - Angliya nizosini hal qilishiga kirishdi. Gavanada AKSH kemasi portlatilgach AKSH Ispaniyaga urush e'lon qildi (1898 y). Undan Kuba, Guam, Puerto Rikoni tortib oldi. Filippin esa sotib olindi. 1903-yil Kuba, 1907-yil San- Domingo bilan teng bo'lmagan shartnoma imzolandi. 1903 yil Panamaga Kolumbiyaga qarshi kurashda yordam berdi. 1904-1914-yillarda Panama kanali qurildi.

Xalqaro politsiya rolini bajarish AQSH ning burchidir shiori T.Ruzvelt davrida maydonga tashlandi. 1899-yilda "Xey doktrinasini" e'lon qilindi. Bu hujjat 1949-yilgacha amal qildi. Xey doktrinasini Xitoyga qaratilgan bo'lib unda barcha yetakchi mamlakatlar savdo va kapital kiritishda teng imkoniyatga bo'lishlari lozim edi.

1919-yil 18-yanvardan -1920-yil 21-yanvar oralig'ida birinchi jahon urushiga yakun yasagan Versal tinchlik konferensiyasi bo'lib o'tdi. Ma'lumki AQSH jahon

urushiga 1917-yilda qo‘shilib antantachilar safida urushni g‘olib sifatida yakunladi. AQSH senati Versal tinchlik shartnomasi AQSH manfaatlarini inobatga olmagan deb uni ratifikatsiya qilishdan bosh tortdi. Jahon urushidan qudratli bo‘lib chiqqan AQSH Osiyo-Tinch okean mintaqasida yangi tartiblar o‘rnatilishidan eng ko‘p darajada manfaatdor davlat edi. Tabiiyki, o‘rnatiladigan bu yangi tartiblar AQSH ning manfaatlariga to‘la mos kelishi shart edi. Chunki yer kurrasining bu mintaqasidagi davlatlararo munosabatlar Buyuk Britaniya va Yaponiya o‘rtasida 1902-yilda imzolangan shartnomaga asoslanib kelmoqda edi. Birinchi jahon urushi yillarida qudratli harbiy-dengiz floti yarata olgan va flotning katta qismini Tinch okeanga joylashtirgan AQSH ni bu holat mutlaqo qoniqtirmas edi. Vashington konferensiyasida uchta muhim shartnoma (“To‘rtlar shartnomasi”, “Beshlar shartnomasi”, “To‘qqizlar shartnomasi”) imzolandi. Bu shartnoma AQSH ning xalqaro maydondagi liderligini ta’min etishga katta hissa qo‘shdi.

DAUES rejasi. Germaniya iqtisodiyotini izdan chiqarish AQSH ning rejasida yo‘q edi. AQSH taklifi bilan bankir, general Daues boshchiligidagi komissiya Germaniyaning tovon to‘lovlarini tartibga solish rejasini ishlab chiqdi. Reja 1924-yil 16-iyulda Londonda qabul qilindi. Rejaga asosan nemis iqtisodiyotini chet el zayomi va krediti yordamida, shuningdek Rossiya bilan savdoni kengaytirish evaziga tiklash ko‘zda tutildi. 1924-1925-yillarda 1 mld, keyingi yili 2,5 mld marka to‘lashi belgilandi. Keyin esa uning miqdori kamayib borishi kerak edi. Rejaning qabul qilinishiga Fransiya qarshi chiqadi. AQSH reja qabul qilinsa Fransiyaning qarzlaridan voz kechishini ma’lum qiladi. Shu tariqa 1925-1930-yillarda Germaniyaga 10 mld dollarlik sarmoya kiritildi.

YUNG rejasi. 1929-yilda Daues rejasi «Yung» rejasi bilan almashtirildi. Yung amerikalik bankir, «Jeneral elektrik» kompaniyasi prezidenti edi. Bu rejaga asosan tovon yanada kamaytirilib, keyinchalik butunlay to‘xtatilishi kerak edi. Shuningdek Germaniya ustidan xorijiy nazorat va kuzatuv bekor qilindi. Shunday qilib 10 yil o‘tgach Germaniya ustidan barcha nazorat, Vesal cheklashlari tamomila tugatildi.

F.Ruzvelt davrida (1932—1945) AQSH ning xalqaro mavqeyi yanada mustahkamlandi. 1933-yil 16-noyabrda AQSH Sovet davlatini tan oldi va u bilan diplomatik munosabat o‘rnatdi. AQSH Germaniya va Yaponiyaning agressiv rejalariga qarshi xalqaro to‘siq qo‘yish borasida amalda jiddiy harakat qilmadi. Aksincha, 1935-yilda AQSH Kongressi «Betaraflik to‘g‘risida» qonun qabul qildi. Qonun prezidentga urushda qatnashayotgan tomonlarga qurol sotishni taqiqlash huquqini berdi. Biroq Germaniya va Italiya urushuvchi davlatlar ro‘yxatiga kiritilmagan edi. Shuning uchun ham ular AQSH dan qurol sotib olishlari mumkin edi. Aksincha, agressiya qurbonlari bo‘lgan Efiopiya va Ispaniya AQSH dan qurol sotib olish va qarz olish huquqlaridan mahrum etilgan edi. Ikkichi jahon urushi

boshlangach AQSH tomonidan “Lend-liz” to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi. Unga asosan olib borayotgan harbiy harakatlari AQSH manfaatlariga xizmat qiluvchi davlatlarga katta miqdorda harbiy texnikalar, qurol-yarog‘lar, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berila boshladi. «Betaraflik to‘g‘risida» qonunning buzilishi edi.

2. Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro maydonda yetakchilik uchun kurash.

Ikkinchi jahon urushi AQSH ni iqtisodiy va harbiy jihatdan dunyoning eng qudratli davlatiga aylantirdi. Uni ta‘min etgan omillar:

Birinchidan, harbiy harakatlar AQSH hududiga daxl qilmadi. Harbiy harakatlarda to‘rt yilda 312 mingdan ortiq kishi halok bo‘ldi. Natijada AQSH urushdan eng kam zarar ko‘rgan davlat sifatida chiqdi. Uning to‘g‘ridan to‘g‘ri zarari 1,2 mlrd dollarni tashkil etdi. Bu ikkinchi jahon urushida ko‘rilgan barcha zararining atigi 0,4 foizini tashkil etdi.

Ikkinchidan, o‘z ittifoqdoshlariga ko‘plab miqdorda qurol-yarog‘ va boshqa sanoat hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlari sotish hisobiga erishildi. Chunonchi, 1941—1945-yillarda AQSH o‘z ittifoqchilariga lend-lizdan tashqari 46 mlrd (shu jumladan, Buyuk Britaniyaga 30 mlrd, SSSRga esa 9 mlrd) dollarlik harbiy texnika mahsulotlari yetkazib berdi.

Uchinchidan, AQSH jahonning yetakchi davlatlariga 41 mlrd dollar miqdorida katta qarz berdi. Dunyo oltin zaxirasining 65 foizi AQSH xazinalarida to‘plandi. Dollar xalqaro savdo va iqtisodiy aloqalarda hukmron valyutaga aylandi. Harbiy buyurtmalar AQSH sanoatining gurkirab rivojlanishini ta‘minladi. Sanoatning yillik o‘rtacha o‘sish sur‘ati 15 foizni tashkil etdi. 1947-yilda dunyo sanoat ishlab chiqarishining 54 foizi AQSH hissasiga to‘g‘ri keldi. Xalqaro savdoda yetakchi o‘rinni egalladi. Harbiy dengiz flotining quvvati 5 baravar ortdi.

Jahon urushi tugagach ko‘p o‘tmay “Sovuq urush” boshlandi. Asosiy vositasi bo‘lib atom quroli xizmat qildi. “Trumen doktrinasi” va “Marshall rejasi” SSSR bilan AQSH va ularning ittifoqchilari munosabatlari keskinlashuviga sabab bo‘ldi. “Sharqiy kommunizm” ga qarshi NATO tashkil etildi. AQSH Germaniya masalasida SSSR bilan o‘zaro manfaatli to‘xtamga kela olmadi. Oxir-oqibatda Germaniya ikkiga bo‘linib ketdi. AQSH NATO harbiy-siyosiy ittifoqini tashkil etishning tashabbuskori bo‘ldi. o‘sha davrdayoq AQSH hukmron doiralari o‘z oldilariga SSSRni qurollanish poygasiga tortib, uni iqtisodiy jihatdan holdan toydirish maqsadini qo‘ygan edilar. AQSH da gigant harbiy-sanoat kompleksi vujudga keltirildi. Urushdan keyingi dastlabki yillardagi yutuqlar o‘rnini omadsizliklar egallay boshladi. Sovet atom bombasining yaratilishi birinchi zarba bo‘ldi. Xitoyda kommunistlar hokimiyat tepasiga keldi. Koreya urushi (1950-1953) mag‘lubiyat bilan tugadi. 1957-yilda SSSR da yerning birinchi sun‘iy yo‘ldoshi uchirildi. Umuman olganda SSSR harbiy-texnik jihatdan yon bermadi. 1961-yilda Kubani himoya qilish maqsadida SSSR

Kuba hududiga o'z yadroviy raketalarini joylashtirdi. Bu omil J. Kennedini hokimiyat tepasiga kelgan F. Kastro hukumatini harbiy kuch ag'darish niyatidan qaytishga majbur etdi. Prezident L. Jonson J. Kennedining qurollanish poygasini avj oldirish siyosatini davom ettirdi. Hindixitoyda kommunistlar ta'sirining kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida L. Jonson 1965-yilning fevral oyida Shimoliy Vetnamni bombardimon qilishni boshlash haqida buyruq berdi. AQSH Vetnamga 550 ming askar tashladi. Urush cho'zilib ketdi.

Biroq AQSH armiyasi Vetnam xalqining irodasini yenga olmadi. Ayni paytda Vetnamga SSSR va XXR zarur yordam ko'rsatdilar. Vetnam urushi AQSH ning xalqaro obro'siga katta putur yetkazdi. Prezident R. Nikson Vetnam urushining istiqbolsizligini anglab yetdi. Shuning uchun ham u urushni to'xtatishga qaror qildi. 1973-yilning 27-yanvarida Parijda Vetnamdagi urushni to'xtatish to'g'risida shartnoma imzolandi. AQSH Vetnamdan o'z armiyasini olib chiqdi. 1979-yilning dekabr oyida SSSR Afg'onistonga armiya kiritgach, amerika-sovet munosabatlari yanada keskinlashdi. SSSR ning chet davlatlar ichki ishlariga qo'pol aralashuvi siyosatiga qarshi AQSH 1980-yilgi Moskva yozgi Olimpiada o'yinlarini boykot qilish tashabbusi bilan chiqdi. G'arb davlatlarini SSSR ga g'alla sotmaslikka undadi. Prezident Reygan SSSR ga nisbatan juda keskin siyosat yuritdi. SSSR ning Sharqiy Yevropa davlatlari hududiga raketa joylashtirishiga javoban G'arbiy Yevropaning 5 davlati hududiga o'zining raketalarini joylashtirish bilan javob qaytardi. "Strategik mudofaa tashabbusi" deb nomlangan dasturni amalga oshirishga kirishishini e'lon qildi.

3. AQSH tashqi siyosatida G'arbiy Yevropa va Rossiya masalalari. AQSH tashqi siyosatida ikki oqim, ya'ni izolyatsionizm va internatsionalizm tarafdorlari o'rtasida kurash ketardi. AQSH dunyodagi eng buyuk davlatga aylangan bir davrda, tabiiyki, u dunyo siyosatidan chetda tura olmas ham edi. AQSH ning Birinchi jahon urushida qatnashishi izolyatsionizmga uzil-kesil chek qo'ydi. Birinchi jahon urushi tugagach, AQSH jahon siyosiy xaritasini qayta qurishning faol ishtirokchisi bo'lishga urinib ko'rdi. Versal tinchlik shartnomasiga qo'l qo'yishdan bosh tortadi. Versal — Vashington tizimini yaratishda faol qatnashdi. Ayni paytda Buyuk Britaniya va Fransiya AQSH ning dunyoda, xususan, Yevropada gegemonligi o'rnatilmasligi uchun barcha choralarni ko'rdilar. Xususan, Versal shartnomasi, Buyuk Britaniya va Fransiya manfaatlarini ko'proq aks ettirganligi shu bilan ham izohlanadi. Bu ikkita yo'nalish butun asr davomida ko'zga tashlanib turdi. Biroq XXI asr boshlaridan boshlab AQSH tashqi siyosatida vorisiylik an'anasi amal qila boshladi. Asosiy g'oyaviy yo'nalish sifatida e'tirof etish lozimki AQSH jahonning eng lider davlati

bo‘lib qolishi, amerika demokratiya an‘analarini keng targ‘ib qilish, erkinlikka asoslangan xalqaro tartibotga rahnomalik qilish¹ va sh.k.

Shunday ekan AQSH o‘zining xalqaro maydonda olib borayotgan tashqi siyosatini olib borishda quyidagi jihatlariga asosiy e‘tibor qaratmoqda:

Birinchidan, AQSH o‘zining Yevropadagi (asosan NATO a‘zolari), Osiyodagi (Yaponiya, Janubiy Koreya), Shimoliy Amerikadagi (Kanada, Meksika) ittifoqdoshlari bilan o‘zaro yaxshi qo‘shnichilik, ahillikka asoslangan munosabatlarni saqlab turish va yanada yuksaltirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Sir emas keyingi paytlarda AQSH va uning ittifoqchilari o‘rtasida raketa hujumidan mudofaa tizimi masalasida, Yevropa ittifoqining tezkor harbiy qo‘shimlarni tashkil etish rejasi masalasida, savdo borasida qator kelishmovchiliklar sodir bo‘ldi. Yevropa jamoatchiligi bir tomondan AQSH ning harbiy salohiyatining keskin oshib borishidan xavotirga tushayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bu harbiy kontingentning katta salmog‘i Yevropa hududida joylashgan va joylashmoqda. Shuningdek AQSH nafaqat xalqaro maydondagi, qolaversa Yevropa mintaqasidagi turli muammolarni hal etishda bir tomonlama harakat qilmoqda. YA’ni Yevropa manfaatlarini inobatga olinmayapdi. Yugoslaviya inqirozi, Liviya va Suriyadagi fuqarolar urushi bunga asos bo‘la oladi. Qayd etib o‘tilgan mintaqalardagi harbiy to‘qnashuvlarning oqibatlari Yevropani chetlab o‘tayotgani yo‘q. Yevropa va AQSH ni uzoq yillar davomida iqtisodiy manfaatlar va demokratik qadriyatlar birlashtirib keldi. Jamoatchilik fikrida hanuzgacha AQSH mintaqada havfsizlik kafolati degan qarash hukmronlik qilib keldi. Lekin “Sovuq urush” tugagach, VSHT tugatilgach NATO ning, Yevropaga AQSH dek “xaloskor” ning keragi bo‘lmay qoldi. Shunday ekan AQSH o‘z ittifoqchilari ushlab turish uchun, NATO ni saqlab qolish uchun, G‘arbiy Yevropadagi mavqeini asrab qolish turli harbiy tahdidlarni vujudga keltirishga kirishishdi. Qrim, Donbass, ISHID chilar bilan bog‘liq voqelik tasodifan paydo bo‘lmadi.

Ikkinchidan, uzoq yillik tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, AQSH tashqi siyosatida muhim ustuvor yo‘nalishlardan birini Rossiya (SSSR) bilan munosabatlar tashkil etadi. “N500-75” dasturi haqida oldingi mavzuda ma’lumot berilgan edi. Amerikalik tahlilchilar fikricha, bugungi Rossiya chuqur siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, demografik inqirozlar iskanjasida qolib ketgan. Mamlakatda erkin bozor iqtisodiyoti an‘analarini shakllantrish, boshqaruvning zamonaviy demokratik tamoyillarining mavjud emasligi shular jumlasidandir. Ikkala mamlakat o‘rtasidagi “sovuq urush” tugagan bo‘lsada, oradan ma’lum vaqt o‘tishi bilan u boshqacha ko‘rinishda avj oldi. AQSH xukumati Rossiyaning Abxaziyada, Janubiy Osetiyada, Tog‘li-Qorabog‘da,

¹ https://studwood.ru/1297315/ekonomika/vneshnyaya_politika_veke_amerikanskaya_versiya

Qrimda, Donbassda, Dnestr bo'yida, Kosovoda, Suriyadagi hatti-harakatlarini umuminsoniy demokratik qadriyatlarga zid deb hisoblaydi.

4. AQSH geosiyosatida Xitoy va Yaqin Sharq masalasi. AQSH o'z tashqi siyosatida har doim Xitoy omili bilan hisoblashib keladi. Mamlakatning tashqi savdo aylanmasining eng katta qismi Xitoyga to'g'ri keladi, AQSH iqtisodiyotiga eng katta investitsiya sarflagan davlat Xitoy hisoblanadi, eng katta tashqi qarz Xitoydan olingan. AQSH tomonining fikricha bu munosabatlarni yanada rivojlantirishdan har ikkala tomon birdek manfaatdor. Lekin AQSH tomonining ta'kidlashicha Pekin mamlakatda tom ma'nodagi demokratik tamoyillarni qaror topishiga, so'z erkinligi, axborot erkinligi ta'minlashi zarur. Tayvan bilan sovuq munosabatlarga chek qo'yilishi lozim. Shuningdek Xitoy tomoni o'zining yadroviy - raketa texnikalarini, texnologiyalarini uchinchi bir mamlakatga o'tib ketmasligiga kafolat berishi talab etiladi. XXI asr boshlarida Xitoy harbiy xarajatlarini 17 foizga oshirdi. Qit'alararo-ballistik raketalar tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mintaqada Xitoyning harbiy salohiyatining oshib borishi AQSH ning azaliy ittifoqchilari Yaponiya, Janubiy Koreya, shuningdek Tayvanning milliy havfsizligiga jiddiy havf uyg'otadi.

O'rtayer dengizi havzasi, Yaqin Sharq masalasi AQSH tashqi siyosatining muhim geostrategik jihatida hisoblanadi. Arab-Isroil mojarasi, Iroq masalasi, Liviya va Suriya muammolar yechimi AQSH milliy havfsizligi kontekstida muhim ahamiyat kasb etib keladi. AQSH 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so'ng Afg'onistondagi tolibonlar hukumatini ag'darib tashladi. Toliblar hokimiyatdan ketishsada, ularning harbiy ishtiroki ko'pgina afg'on viloyatlarida sezilarli ahamiyat kasb etib keladi. Iroqda Saddam Husayn diktaturasiga barham berdi. Lekin mamlakatda milliy, etnik, diniy negizdagi kelishmovchiliklar barham topmadi. Bu bilan Yaqin Sharq neftining katta qismini qo'lga kiritdi. Suriya fuqarolar urushi natijasida deyarli to'rttaga bo'linib ketdi: Suriya hukumati nazoratidagi hudud; Muxolifat nazoratidagi hudud; Islom davlati nazoratidagi hudud; kurdlar nazoratidagi hudud. Turli kuchlar markazi tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan tomonlar mamlakat xalq ho'jaligini butunlay izdan chiqarishdi.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, "Erkinlik doktrinasini" kontekstida olib borilayotgan AQSH tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari va ustuvor vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

1. Jamoaviy havfsizlik tizimi faqatgina AQSH lidiyerligidagina samaralik bo'lishi mumkin.

2. Xalqaro demokratik tamoyillar, inson erkinliklari qaror topmagan davlatlarni NATO, YEI, HST (VTO) singari demokratik tashkilotlarga qabul qilmaslik talab etiladi.

3. AQSH ning harbiy-texnik salohiyati har doim qolgan mamlakatlar salohiyatidan ustun bo'lishi lozim.

4. Antidemokratik rejimlar amal qilayotgan davlatlardagi hukumatlarni harbiy kuch bilan, harbiy aralashuvlar bilan ag'darib tashlashni siyosiy-huquqiy jihatdan ta'min etuvchi harbiy doktrina ishlab chiqilishi kerak.

5. AQSH tomonidan amalga oshirilayotgan gumanitar yordam hech –qachon mehr-muruvvat yordami, hayriya yordami sifatida qabul qilmaslik kerak, aslida bu yordam “milliy havfsizlik siyosatining instrumenti” dir.

6. O'rta Sharqda olib borilayotgan siyosatni ta'min etishda Afg'oniston G'arbiy Germaniyaning analogi bo'lib xizmat qilishi darkor. Afg'onistonda dekmokratik jamiyatni barpo etish AQSH ning vazifasidir.

7. Va nihoyat Rossiya Yevropadagi ikkinchi darajalik davlat maqomida qoladi.

5. O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik masalalari. 1992-yilda AQSH va O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. O'zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurash ishiga qo'shgan hissasi uning xalqaro obro'sini oshirib yubordi. AQSH prezidenti J. Bushning I. Karimovni AQSH ga taklif etganligi buning e'tirofi bo'ldi. I. Karimov 2002-yilning 11-mart kuni rasmiy vizit bilan AQSH ga keldi. Ikki prezident uchrashuvi chog'ida J. Bush I. Karimovga Amerika xalqini eng og'ir kunlarda qat'iyatlik bilan qo'llab-quvvatlaganligi uchun yana bir bor chuqur minnatdorchilik bildirdi. Ayni paytda O'zbekiston ko'rsatgan yordamni AQSH hukumati va xalqi unutmasligini ta'kidladi.

Safar davomida AQSH — O'zbekiston aloqalariga doir bir necha hujjatlar imzolandi. Ularning ichida Strategik hamkorlik to'g'risidagi shartnora alohida ahamiyatga egadir. Shu tariqa, AQSH — O'zbekiston o'rtasida sheriklik munosabati vujudga keldi. AQSH jamoasi tashkilotlari xalqaro terrorizmga qarshi kurashga qo'shgan hissasi uchun I. Karimovni «Xalqaro miqyosdagi buyuk davlat arbobi» mukofoti bilan taqdirladilar. Safar 14-mart kuni nihoyasiga yetdi. Har ikki davlat o'rtasida iqtisodiy aloqalar va hamkorlik kengayib bordi. O'zbekistonda 300 dan ortiq Amerika — O'zbekiston qo'shma korxonalari ishlamoqda. Ular orasida Zarafshon vo-diysidagi (Navoiy viloyati) Muruntovda AQSH ning Nyumont-Mayning korporatsiyasi alohida o'rin tutadi.

Tayanch so'z va iboralar:

Bir qutbli dunyo, totalitarizm, monro doktrinasi, xey doktrinasi, versal-vashington bitimi, daues rejasi, yung rejasi, lend-liz, marshal rejasi, karib inqirozi, katta yettilik, J-20, NATO, separatizm, SHHT, MDH, ekstremizm, fundamentalizm,

Takrorlash uchun savollar.

1. AQSH iqtisodiy taraqqiyotini ta'min etgan omillar?
2. AQSH tashqi munosabatlarining rivojlanish tarixi haqida nimalar bilasiz?
2. Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro maydonda yetakchilik uchun kurash qanday kechdi?
3. AQSH tashqi siyosatida G'arbiy Yevropa va Rossiya masalalari qanday rol o'ynaydi?
4. AQSH ning Yaqin Sharq masalasidagi manfaatlari nimalardan iborat?
5. O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik qanday yo'nalishlarda kechmoqda?

13-mavzu. XITOYNING GEOSTRATEGIK SIYOSATI VA UNING MOHIYATI

Xitoy Xalq Respublikasi

Maydoni	9 596 960kv. km.
Aholisi	1 368 660 000 kishi
Poytaxti	Pekin shahri
Boshqaruv shakli	Bir partiyalik sotsialistik respublika
Katta shaharlari	Pekin, Gongkong, Chendu, Uxan, Chunsin, Shanxay, Tyanszin, Guanchjou, Nankin.
Rasmiy tili	xitoy tili
Milliy valyutasi	yuan
Eksporti	Avtomobillar, tele-radio texnikalari, mashina va jihozlar, ehtiyoj mollari, dori -darmonlar, to'qimachilik mahsulotlari
Import	neft va neft mahsulotlari, gaz, yog'och va yog'och mahsulotlari, metallar, aviatsiya, harbiy texnika, mineral o'g'itlar.
Dini	Dunyoviy davlat. Buddaviylik, konfusiylilik, daosizm, nasroniylik, islom, shamonlik

Reja:

- 1. Xitoy xalqaro munosabatlarining rivojlanish tarixi.**
- 2. Xitoy iqtisodiy taraqqiyotining spetsifik xususiyatlari.**
- 3. Xitoy-Rossiya (SSSR)-G‘arbiy Yevropa munosabatlaridagi mafkuraviy kelishmovchilik.**
- 4. Xitoyning hal etilmagan muammolari: hududiy; demografik; milliy.**
- 5. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi strategik hamkorlik masalalari**

1. Xitoy xalqaro munosabatlarining rivojlanish tarixi. Xitoy Xalq Respublikasi Osiyo qit‘asining sharqida joylashgan. Aholisi soni jihatidan dunyoda birinchi o‘rin, maydoni jihatidan uchinchi o‘rinda turadi. Insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ilm-fan, madaniyati rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan bu mamlakat o‘zining boy tarixiga ega. Qator ixtirolari, madaniyat namunalari bilan dong taratgan bu davlat har doim jahonning qator mintaqalari bilan keng hamkorlik aloqalarini olib borgan.

Uzoq tarixda qator saltanatlarga asos solgan, o‘zining madaniyati, fani mashhur bo‘lgan Xitoy yangi davrga kelib taraqqiyotda ortda qola boshladi. 1644 yildan Xitoyni Sin sulolasi hukmronlik qilardi. Jamiyat hayotida o‘rta asr ishlab chiqarish munosabatlari hukm surardi. Bu natural ho‘jalikning ustunligi, dehqonlarni holdan toydiruvchi ijaraga yer olib ishlash tartibi saqlanib qolmoqda edi. Despotik davlat hokimiyati esa barcha eski tartiblarni bosh tayanchi edi. Davlat hokimiyati har qanday yangilikning ashaddiy dushmani edi. Qator hududlar – Mo‘g‘uliston, Koreya, Vetnam, Birma, Nepal bosib olindi. Imperator ustunlikni da’vo qiladigan buyuk davlatchilik siyosatini olib bordi.

Tarixiy yilnomalarga e‘tibor beriladigan bo‘lsa rus-xitoy xalqlari o‘rtasidagi aloqalar XIII asrlardan boshlangan. Bu aloqalar davlatlararo, hukumatlararo darajada XVII asrdan yo‘lga qo‘yilgan. XVII asrning o‘rtalaridan Amur daryosining o‘rta oqimi qirg‘oqlarida dastlabki rus dehqonlari va hunarmandlarining manzilgohlari vujudga keldi. Amurning janubiy qismida manjur imperatorlari qaromog‘ida bo‘lgan dehqonchilik manzilgohlari joylashgan. Keyinchalik manjurlar Sin imperatori tomonidan bo‘ysundiriladi. Amurning janubida joylashib olgan Pekin hukumati Amur bo‘ylaridan rus manzilgohlarini siqib chiqarishga harakat boshlaydi. Shuningdek Amur bo‘ylarida yashayotgan qator ziroatkor, ko‘chaman-chorvador qabilalarni rus podsholigi fuqaroligiga o‘tishlarini to‘htatishga kirishadi. Sin imperiyasi bilan hamkorlikdan, savdodan manfaatdorligi bois Rus hukumati harbiy to‘qnashuvlardan qochib, diplomatik tadbirlar bilan munosabatlarni tartibga solishga kirishadi. 1689 yil Rossiya va Xitoy o‘rtasida hududiy masalalarni tartibga soluvchi Nerchin shartnomasi imzolanadi. Aytish mumkinki, Nerchin shartnomasi Xitoyning Yevropa davlatlari bilan imzolagan dastlabki rasmiy shartnomasi edi. Nerchin

shartnomasi yettita punktdan tashkil topgan. Dastlabki ikkita punktga asosan Rossiya Amurqirg'oqlaridan bir oz chekindi, Albazin shahri tekislab tashlanishi belgilandi. Eng asosiysi 5-punktga asosan har ikkala davlat aholisi bir-biri bilan erkin savdo-sotiq ishlarini olib borishlari belgilab qo'yildi. Amurning shimoliy bo'ylari o'lashtirilgach 1858 yilda Aygun shartnomasi imzolandi. Nerchin shartnomasiga asosan Xitoy berilgan hududlar Rossiyaga qaytarildi.

Sin imperatorining ustunlikni da'vo qiladigan buyuk davlatchilik siyosati xalqaro maydonda o'ziga xos e'tirozlarga sabab bo'ldi. Ajnabiy elchilarning sovg'alari o'lpon sifatida qabul qilinar edi. Xitoy dunyoning markazi, "o'rtalikdagi imperiya", "imperator yorug' dunyoning xudosi va boshqa barcha davlatlar uning soliq to'lovchilari" deb qilindi. 1757 yilda chiqarilgan farmon Xitoyni boshqa mamlakatlardan, birinchi galda G'arbiy Yevropadan ajratib qo'yish siyosatini boshlab berdi. Tashqi savdo Sin ma'murlari nazoratida bo'lgan Kanton (Guanjou) orqali olib borilishiga ruxsat berildi. Xitoyni yakka lab qo'yish feodal tartiblarni saqlanishiga yordam berdi. Ilm-texnika sohasidagi chet mamlakat yutuqlari rad etildi. Mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy rivojiga katta zarar etkazildi.

Natijada 1840-1842, 1856-1860 yillarda "afyun urushlari" da Xitoy mag'lub bo'ldi. Xitoy portlari chet elliklarga ochib berildi, tao'qi savdo chet elliklar qo'liga o'tib ketdi.

XIX asr oxiriga kelib ham Xitoy qoloq, yarim feodal davlat edi. Erning asosiy qismi zamindorlar qo'lida edi. XIX asrning so'ngi choragidan iqtisodiy munosabatlar rivojlana boshladi. Dastlabki temir yo'llar qurildi. Iqtisodiy aloqalar kengayib, yirik shaharlar qurildi. Milliy sanoatchilarning ko'pchiligi chet el firmalarining agentlari edi. Temir yo'l, ko'mir, konlarning katta qismi chet elliklar qo'lida edi. 1894-95 yillardagi xitoy-yapon urushidagi mag'lubiyati chet ellik monopolistlarning Xitoyni yanada ko'proq talashlari, asoratlariga sabab bo'ldi. Boshlangan chet el intervensiyasida sakkizta davlat ishtirok etdi. Ular Xitoyni o'z ta'sir doiralariga bo'lib olishdi. Xitoy yarim mustamlakaga aylandi.

Birinchi jahon urushidan keyin Xitoy qoloq, yarim mustamlaka davlatligicha qoldi. Uning aholisi 450 milliondan ortiq edi. Xitoyni buyuk davlatlar o'z ta'sir doiralariga bo'lib olishgan edi. Mamlakat sanoati, transporti, banklari va tashqi savdosining asosiy qismi chet el kompaniyalari qo'lida edi. 1911—1913-yillarda bo'lib o'tgan inqilob asosiy vazifa — Xitoyni yagona davlatga birlashtirish masalasini hal eta olmadi. Bu masalani hal etmay turib Xitoyni yarim mustamlaka sirtmog'idan qutqarish nihoyatda og'ir edi.

1918-yilda Xitoyda inqilobiy kurashning ikki yirik kuchi mavjud edi. Ularning biri milliy-ozodlik kurashining yirik vakili, yo'l boshchi Sun Yatsen (1867—1925) boshchiligidagi Gomindan (Xitoy milliy partiyasi) bo'lsa, ikkinchisi Xitoy Kommunistik partiyasi (XKP) edi.

Sun Yatsen “Xitoyni qutqarish” dasturini ilgari surdi. Bu dasturni chet davlatlarning yordamisiz amalga oshirib bo‘lmas edi. Buyuk davlatlar esa yordam berishdan voz kechdilar. Vashington konferensiyasida qabul qilingan “To‘qqiz davlat kelishuvi» bo‘yicha Xitoyda o‘z hukmronliklarini o‘rnatdilar.

1925-yil bahorida Shanxay shahrida talabalar namoyishga chiqdilar. Biroq ingliz politsiyasi bu namoyishni o‘qqa tutdi. Bu hodisa Xitoyda xorijiy bosqinchi davlatlarga qarshi kuchli harakat boshlanishiga turtki bo‘ldi. Shu tariqa Xitoyda chet el bosqinchilariga qarshi milliy inqilob boshlandi. Inqilob rahbarligi Gomindan qo‘lida edi. 1925-yilda Sun Yatsen vafot etgach, bu partiya rahbarligi Chan Kayshi qo‘liga o‘tdi. Inqilobda Xitoy jamiyatining barcha tabaqalari ishtirok etdi. Markaziy hokimiyat qo‘lga kiritilgach, inqilobning asosiy yetakchi kuchlari — Gomindan va XKP o‘rtasida bo‘linish yuz berdi. Bunga Xitoy inqilobiy vazifalariga Gomindan va XKP ning turlicha qarashlari sabab bo‘ldi.

1931-yilning sentabrida Yaponiya armiyasi Xitoyga hujum qildi. Bu hujum Chan Kayshining Xitoyni birlashtirish yo‘lidagi harakatini to‘xtatib qo‘ydi. Uch oy ichida Yaponiya Xitoyning shimoli-sharqida 1 mln kv km maydonni egalladi va u yerda 1932-yil 1-martda Man’chjou-Go deb atalgan davlat tuzdi. Chan Kayshi 1935-yilda Yaponiya agressiyasiga qarshi kurashda yor-dam so‘rab Sovet davlatiga murojaat qildi. Sovet davlati yordam berishga tayyorligini bildirdi, biroq buning uchun fuqarolar urushini to‘xtatish va Xitoy kommunistlariga qarshi jazo operatsiyalari o‘tkazmaslik shartini qo‘ydi. 1937-yilning iyun oyida Gomindan va XKP o‘rtasida harbiy harakatlarni to‘xtatish haqida shartnoma imzolandi. Shu tariqa Xitoyda yagona antiyapon milliy fronti vujudga keldi. 1937-yilning yozidan 1945-yil kuzigacha davom etgan yapon-xitoy urushi boshlandi.

Ikkinchi jahon urushi tugashi arafasida Xitoyda amalda uchta hokimiyat bor edi. Bular — birinsichi - Xitoydagi Yaponiya ma’muriyati; ikkinchisi - mamlakat shimoli va shimoli-sharqida qaror topgan Xitoy Kommunistik partiyasi (XKP) boshchiligidagi hokimiyat; uchinchisi- mamlakat janubi-g‘arbidagi Chan Kayshi hukumati (Gomindan hukumati).

Yaponiya tor-mor etilgach uning Xitoydagi ma’muriyati ham quladi. 1946-yilning yozida Gomindan armiyasi XKP armiyasi egallab turgan hududga hujum qildi. Shu tariqa fuqarolar urushi boshlandi. Bu urush 1949-yilning kuzigacha davom etdi. Nihoyat, urushda Gomindan armiyasi yengildi. Uning qolgan qismi Chan Kayshi boshchiligida Tayvan orolida (AQSH panohida) joylashib oldi.

XKP hokimiyatni to‘la egallagach, 1949-yilning 1-oktabrida Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) tashkil etildi. XKP mamlakatda sotsializm qurilishini e‘lon qildi. 1956-yilgacha qishloq xo‘jaligi shirkatlari tuzildi. Bir vaqtning o‘zida mamlakatda industrlashtirish ham boshlandi.

1958-yilda XKP «Katta sakrash» deb atalgan (1958—1962) dasturni tasdiqladi. Uning mazmuni iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish, katta sakrashni amalga oshirish va kommunistik jamiyat qurishdan iborat edi. «Insoniyatning baxtli kelajagi», deb eʼlon qilingan kommunizmni qurishning asosiy vositasi haq toʻlanmaydigan mehnat boʻlishi zarur edi. Bu narsa «uch yillik qattiq mehnat — oʻn ming yillik baxt-saodat» shiori ostida oʻtishi kerak edi. Qishloq xoʻjaligi shirkatlari oʻrniga oʻrtacha 20 ming dehqonni birlashtirgan xalq kommunalari tuzildi. Unda hamma narsa umumiy lashtirildi. Mahsulotni hammaga baravar taqsimlash tamoyili joriy etildi. Sanoat 6,5 baravar, qishloq xoʻjaligi 2,5 baravar oʻsishi moʻljallandi.

Biroq tez orada “Katta sakrash” barbod boʻldi. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi kamaydi. Hatto, ayrim hududlarda ocharchilik ham boshlandi. Sanoat ishlab chiqarishi ham pasaydi. Xitoy chuqur iqtisodiy va siyosiy inqirozni boshdan kechira boshladi.

1976-yil sentabrda Mao Szedun vafot etdi. XKP yangi rahbariyati Mao Szedun yoʻlini xato deb eʼlon qildi. “Katta sakrash” va iqtisodiyotning toʻla davlat nazoratiga olinganligi mamlakat va xalqqa ulkan kulfat keltirganligi tan olindi va ular qoralandi. Aralash iqtisodiyot yoqlab chiqildi. Davlat rahbarligida bozor iqtisodiyotiga oʻtish yoʻli tanlandi. Bu tarixga «iqtisodiy va siyosiy hayotni modernizatsiya qilish» nomi bilan kirdi. Chet el sarmoyasining mamlakat iqtisodiyotiga joylashtirilishi uchun qulay sharoit yaratildi. Kichik va oʻrta tadbirkorlikka keng yoʻl ochildi. Ayni paytda sanoatning maishiy tovarlar ishlab chiqaruvchi sohalarini rivojlantirishga katta eʼtibor berildi. Yangi siyosat oʻz samarasini bermay qolmadi. 80-yillar oxiriga kelib Xitoy koʻmir, televizor, shoyi-gazlama, sement ishlab chiqarish boʻyicha dunyoda birinchi oʻringa chiqdi. Mamlakat oziq-ovqat mahsulotlari bilan oʻzini oʻzi taʼminlaydigan boʻldi. Bular, oʻz navbatida, aholi turmush darajasining oʻsishiga olib keldi.

2. Xitoy iqtisodiy taraqqiyotining spetsifik xususiyatlari. XX asrning soʻnggi oʻn yilliklariga kelib mamlakatdagi keskin iqtisodiy yuksalish sabab Xitoy jahonning buyuk davlatlaridan biriga aylandi. Xitoyning jahon geosiyosatining lider davlatlardan biriga aylanishi xalqaro munosabatlar geometriyasini oʻzgartirib yubordi. Bir paytlari “Oʻrtalikdagi imperiya” deya atalmish bu davlat bilan bugungi kunda hisoblashmaslik, u bilan hamkorlik qilmaslikning imkoni yoʻq. Albatta bunday hamkorlikdan Oʻzbekiston ham manfaatdor.

Xitoy dunyoda eng aholisi koʻp mamlakat boʻlishiga qaramasdan nafaqat xitoy xalqini jahonning qator mamlakatlari bozorini eng zarur mahsulotlar bilan taʼminlab keladi. Unutmaslik kerakki, Xitoy hududining katta qismini Gobi sahrosi tashkil etadi. “Made in Cina” yorligʻi bidan xitoy mahsulotlari kirib bormagan mamlakat, bozorni toaish qiyin. Shunday ekan bunday iqtisodiy yutuqlarni zahirida nima yotadi degan savol tugʻiladi. Xitoy iqtisodiy taraqqiyotining oʻziga xususiyatlarini tahlil

qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda iqtisodiy taraqqiyotini ta'min etgan o'ziga xos omillar quyidagilardan iborat?

Birinchidan, katta salmoqdagi inson omili, arzon ishchi kuchi va tabiiy zahiralarning nihoyatda cheklanganligi.

Ikkinchidan, jamiyat hayoti iqtisodiy sohasining rivoji va uni investitsiyalash, puxta reja asosida tartibga solish ustidan kuchli davlat nazoratining o'rnatilganligi.

Uchinchidan, ishlab chiqarish korxonalarini eng yuqori zamonaviy texnologiyalar bilan rejali ta'minlab borish yo'li bilan mamlakat eksport salohiyatini oshirib borish.

To'rtinchidan, Yevrosiyodagi eng katta bozor ekanligi. Bu omil yetakchi davlatlarning savdo-sotiq masalalarida, yirik banklarning kapital, investitsiya bilan bog'liq munosabatlarida o'ziga xos qiziqish hosil etishi turgan gap.

Beshinchidan, mamlakat harbiy salohiyatining doimiy yuksalib borishi, o'sishi natijasida ichki ishlab chiqaruvchilarga qator buyurtmalar berilmoqda.

1992-yildan boshlab Xitoyda iqtisodiy islohotning yangi bosqichi boshlandi. Bu bosqich — islohotni jadallashtirish va chuqurlashtirish, iqtisodiy siyosatni mafkuradan xoli qilish va rejali boshqaruvdan bozor iqtisodiyotiga izchillik bilan o'tish bosqichi deb nom oldi. Bu bosqich ayni paytda iqtisodiyotda davlat mulki hissasining kamayib borishini ham o'z ichiga oladi. Amalda shunday bo'lmoqda ham.

Xitoyda keyingi 25 yil davomida olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida olamshumul muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi. 2000-yilga kelib ichki ishlab chiqarishning umumiy qiymati 1980-yillardagidan 5,4 hissa ortiq bo'ldi. Xitoyda ishlab chiqarish qoldiqlarini qayta ishlash keng yo'lga qo'yildi. Xitoy har yili rivojlangan davlatlardan ishlab chiqarish qoldiqlarini sotib olib, qayta ishlaydi va milliardlab foyda oladi. Xitoy har yili AQSH dan 14 mlrd dollarga teng chiqindi sotib oladi.

Hatto 1998-yilda Osiyoda pul masalasi inqirozi hamda tarixda kam uchraydigan kuchli suv toshqiniga duch kelinganda ham Xitoyda ishlab chiqarishning umumiy qiymati 1997-yildagidan 7,8 foizga oshdi. Bu davrda qator sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish miqdori, masalan, guruch, paxta, go'sht, yog'moy, ko'mir, po'lat, sement, gazlama, televizor ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy dunyoda birinchi o'ringa chiqdi. Xitoyning iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatayotgan eng muhim sabablardan biri davlatning to'g'ri iqtisodiy siyosati va bu iqtisodiy islohot mobaynida tuzilgan iqtisodiy qonunlardir. Xitoy iqtisodiy islohot davomida bozor xo'jaligini yo'lga qo'yan davlatlarning tajribalarini ijodiy o'zlashtirib, o'tgan yillar davomida iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladigan ko'plab qonun, nizom, qoida va qarorlarni qabul qildi va ularni yangidan vujudga kelgan iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar xarakteriga moslashtirib, vaqti-vaqti bilan

tuzatib bordi. Bu qonunlar islohot natijalarini himoyalash va mustahkamlashni, bozor munosabatlariga oson o'tish va uning mo'tadil rivojlanishini kafolatlagan.

Xitoyda iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladigan qonunlar ikkiga: fuqarolik qonunlari va iqtisodiy qonunlarga bo'linadi. Ular bozor subektlarini, ya'ni korxonalarning vujudga kelishi, ularni boshqarish ishlarini zamonaviylashtirish va faolligini ishga solishni, o'zgartirilishi, bekor qilinishi, qonunni buzuvchilarning javobgarligini o'z ichiga oladi.

Shuningdek, bozor tartibini muqim ushlab turish, bozorning rolikidan to'liq foydalanish, monopoliya va noqonuniy raqobatni cheklash, mahsulot sifatiga kafolat berish, iste'molchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, patent va tovar markasini berish, turli shartnomalar tuzish, ijaraga berish, aksiya savdosi bilan shug'ullanish, chek hujjatlarini tartibga solish, uy-joy, tijorat hamda tegishli tartibni buzuvchilarni qanday jazolash haqida maxsus qonunlar mavjud bo'lib, ularning bajarilishi qattiq nazorat qilinadi.

2018-yilga kelib YAIM yaratish bo'yicha Xitoy AQSH ni ortda qoldirib dunyoda birinchi o'ringa chiqdi. Albatta bu ko'rsatkichlar katta miqdorda tabiiy resurslarni talab etadi. Keyingi 40 yil ichida neft iste'moli 25 barobarga oshdi. To'g'ri Xitoy qator tabiiy zahiralarni qazib olishda oldingi o'rinlarda turadi. Lekin kun sari jadal sur'atlar bilan yuksalayotgan sanoat ehtiyojlariga bu yetarli emas. Tabiiy gaz istemoli 2005-yilda 50 mld m.kub.ni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilga kelib talab 200 mld.m.kub.ni tashkil etishi kutilmoqda.

Xitoyning tashqi iqtisodiy aloqalarida eng muhim o'rinni AQSH egallaydi. Bu ikkala mamlakat o'rtasidagi mavdo aylanmasi 2015-yilda salkam 500 mld dollarni tashkil qildi. Mamlakat iqtisodiyotining asosiy investorlari Tayvan, Syangan, Aomen, Singapur hisoblanadi. Xitoy iqtisodiyotiga kiritilgan jami investitsiyaning 60-80 foizi ushbu davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Mamlakat eksport yiliga o'rtacha 25-30 % ni tashkil etmoqda.

3. Xitoy-Rossiya-G'arbiy Yevropa munosabatlaridagi mafkuraviy kelishmovchiliklar. Xitoy mustaqil, o'ziga xos va tinchlikparvar tashqi siyosat olib borishga intiladi. Uning bosh yo'nalishi – kurrai zaminda tinchlikni asrash, uning rivojiga hissa qo'shish hisoblanadi. Jahon hamjamiyatining boshqa xalqlari bilan hamjihatlikda umuminsoniy taraqqiyot rivojiga, uning barqarorligiga katta hissa qo'shishga intiladi. "Jahonda tinchlikni asrash" tamoyiliga asoslangan Xitoy tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Har bir davlatning suvereniteti va hududiy yaxlitligini o'zaro hurmat qilish;
- Bir-biriga harbiy tahdid qilmaslik, hujum qilmaslik, terrorizmning har qanday ko'rinishlariga qarshi murosasiz kurash;

- Hech bir suveren davlatning ichki ishlariga aralashmaslik. Do'stlik, ahil qo'shnichilikka va hamkorlikka asoslangan do'stona munosabatlarni yuksaltirish;
- O'zaro manfaatlarga asoslangan teng hamkorlik. Xalqaro maydonda adolat, tenglik, ratsionalizm tamoyillariga asoslangan siyosiy, iqtisodiy tartibotni yaratish;
- Jahon hamjamiyati davlatlari bilan tinch yashash. Xalqaro munosabatlarda plyuralizm, demokratizm tamoyillarini yo'lga qo'yish.

Uzoq vaqt davomida Xitoy geosiyosati ikki tomonlama xarakter kasb etib keldi: bir tomondan Xitoy Tinch okeani qirg'og'ida joylashgan - Rimland tizimida davlat hisoblansada, hech qachon tallasokratik xususiyatlar kasb etmagan, kontinental arxetipga ega bo'lgan.

Ikkinchi jahon urushdan keyin Xitoy Sovet davlati bilan yaqin munosabatda bo'ldi. Yuqorida aytib o'tilganidek, 1950—1960-yillarda sovet davlati 250 dan ortiq korxona qurishda ko'maklashdi. 11 mingdan ortiq sovet mutaxassislari ishladi. Lekin 60-yillardan xitoy — sovet munosabatlari buzildi. 1962-yilda Himolaydagi chegara masalasida Hindiston bilan Xitoy o'rtasida qurolli mojaro kelib chiqdi. 70-yillardan Xitoy AQSH bilan munosabatlarini yaxshiladi. 1971-yilda AQSH Prezidentining Milliy xavfsizlik bo'yicha yordamchisi G. Kissinjer maxfiy ravishda Xitoyga keldi va ikki mamlakat munosabatlarini yaxshilash, Xitoyni Sovet davlatiga qarshi qo'yishda katta xizmatlar qildi.

1972-yili AQSH Prezidenti A. Nikson Xitoyga rasmiy tashrif buyurdi. 1979-yilda Xitoy bilan AQSH o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. 1979-yilda Vetnam Kambojadagi xitoyparast "qizil kxmerlar" hukumatini ag'darib tashlagandan keyin Xitoy Vetnamga qarshi harbiy harakat uyushtirdi. Mao Szedun vafotidan keyin sovet — xitoy munosabatlarida biroz iliqlik paydo bo'ldi. M. Gorbachyovning 1989-yildagi Xitoyga rasmiy safaridan keyingina sovet — xitoy munosabatlari yaxshilandi.

1997-yili Buyuk Britaniya Xitoyga Gonkongni qaytarib berdi. XX asr oxiriga kelib Xitoy dunyoning barcha davlatlari bilan yaxshi munosabatlar o'rnatdi. Bu omil jahonda Xitoy obro'si o'sishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

4. Xitoyning hal etilmagan muammolari: hududiy; demografik; milliy. Xitoyning mislsiz darajadagi iqtisodiy salohiyatini, muntazam rivojini ta'minlab borish cheksiz tabiiy zahiralarni, doimiy takomillashab boradigan texnologiyalarni, investitsiyalarni, fan-texnika yutuqlarini taqozo etishi turgan gap. Bu ustuvor vazifalardan tashqari Xitoyning hududiy, milliy va diniy negizlar zaminida goh oshkora, goh yashirin tusdagi muammolari ham mavjud.

Xitoy o'z qo'shnilari bo'lmish Rossiya, Mongoliya, Yaponiya, Hindiston davlatlariga doimiy ravishda o'zining hududiy e'tirozlarini bildirib keladi. Buni

shunchaki e'tiroz sifatida qabul qilish bir tomondan noto'g'ri bo'ladi. Chunki Xitoy bu qo'shnilari bilan qator harbiy to'qnashuvlarga ham bordi.

Xitoy hukumati har doim Tibetni Xitoyning ajralmas qismi deb qarab kelgan. Tibet separatistlarining ta'kidlashicha Tibet har doim mustaqil davlat bo'lib kelgan, u hech qachon Xitoy tarkibida bo'lmagan. O'zini tarixda Yuan nomi bilan mashhur bo'lgan mo'g'ul imperiyasining, Manjuriyadagi Sin imperiyasining vorisi deb hisoblaguvchi Pekin Tibetni XIII asrdan Yuan imperiyasiga kirganini ta'kidlaydi. O'tgan davr davomida Xitoyda hukmron sulolalar, hukumatlar necha bor almashmasin Tibet Xitoy hukumati tomonidan boshqarilib kelingan. 1950-yildan Tibet rasmiy ravishda XXR ning tarkibiy qismi sifatida e'lon qilindi. Turli tazyiq, repressiyalardan cho'chigan Dalalayma boshchiligidagi muxolif guruh vakillari chet elga asosan Hindistonga ketishdi. Dalalayma boshchiligida quvg'indagi Tibet hukumati tashkil etiladi. Xitoy hukumati bilan tan olinmagan Tibet hukumati a'zolariga boshpana bergan, ular bilan muzokaralar olib borayotgan mamlakatlar o'ratasida kelishmovchiliklar sodir bo'lib turadi.

Sharqiy Turkiston bundan ikki ming yil oldin Xitoy tarkibiga kirgan edi. Keyinchalik mustaqil davlat tuzilmasi sifatida faoliyat olib bordi. XIII asr boshlarida Chingizxon boshchiligida mo'g'ul imperiyasi tarkibida bo'ldi. Ban Chaoning harbiy yurishlaridan keyin XVIII asrda Manjur imperiyasiga tarkibiga kiritildi. Shu davrdan boshlab hududga Sin-szyaan (yangi hudud) degan nom berildi. Sharqiy Turkiston mustaqilligi uchun kurash olib borayotgan uyg'ur milliy harakati a'zolari o'z faoliyatini Xitoydan tashqarida olib boradi. Bu harakatning asosiy maqsadi Mustaqil Sharqiy Turkiston davlatini tuzish hisoblanadi. Xalqaro Uyg'ur kongressiga Rabiyo Qodir boshchilik qiladi. Bu harakat qator xalqaro huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar tomonidan himoya qilinadi. Tinch, huquqiy, demokratik tamoyillar asosida uyg'ur xalqiga o'z taqdirini o'zi belgilash imkonini berish, Sharqiy Turkiston kelajagini ushbu tamoyillar asosida belgilash XUK faoliyatining asosini tashkil etadi. Hududning maqomi bilan bog'liq masalalar faqatgina hududiy muammo emas, ayni damda milliy muammolarni ham qamrab oladi. Mintaqadagi tub xalqning milliy va diniy qadriyatlari siquvga olingan.

Yechimini kutayotgan yana bir hududiy muammo Tayvan muammosi hisoblanadi. 1946-1949-yillardagi fuqarolar urushida XKP hukumati qo'shinlari gomindanchilar ustida g'alabaga erishadi. Albatta bu g'alabaning qo'lga kiritilishida SSSRning yordam katta bo'ldi. Mag'lubiyatga uchragan gomindanchilar (Chan Kayshi boshchiligidagi) Tayvan va uning atrofidagi ba'zi mayda orollarga joylashib olishdi. Koreya urushida (1950-1953) Xitoy xukumati Shimoliy Koreyani ochiqchasiga himoya qilib chiqqach AQSH Tayvanni o'z himoyasiga oladi. Pekin xukumati Tayvan orollarini Xitoyning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraydi. O'z

navbatida Tayvan (Xitoy respublikasi) xukumati ham butun xitoy hududini o'ziga tegishli ekanini e'tirof etib keladi.

1970-yillarning oxiriga kelib sovet-amerika munosabatlaridagi kelishmovchiliklar o'zining kulminatsion nuqtasiga yetgach Xitoy AQSH bilan diplomatik munosabtlarini ijobiy tomon o'zgartira oldi. Muammoni tinch diplomatik vositalar orqali hal qilishga urinishlar samara bermadi.

O'z navbatida xitoy-hind o'rtasida hududiy muammolar mavjud bo'lib u juda uzoq tarixga ega. 1913-1914-yillardagi "Makmagon liniyasi" ga asoslangan kelishuvni Xitoy bir tomonlama manfaatlar asosida belgilanganligini ta'kidlab keladi. 1960-1970-yillarda ikkala mamlakat o'rtasida harbiy to'qnashuvlar ham sodir bo'ldi. 1986-yilda Hindiston makmagon liniyasi janubidagi hududni (tazminan 90 ming kv.km) Arunachal Pradesh nomi bilan 24-shtat sifatida qabul qildi. Xitoy bunday maqomdagi shtat mavjudligini tan olmasligini qayd etgan. Muammo yechimiga bugungi Xitoy faqatgina tinch, diplomatik vositalar bilan erishish niyatida. Shu bilan birga shuni e'tirof etish kerakki bu har ikkala davlat ham yirik harbiy qurolli kuchlarga, yadro quroliga ega mamlakatlardir.

Xitoy uzoq yillar davomida sovet davlati bilan chegaraviy nizolarni hal qila olmasdan keldi. O'rtada xitoy-vetnam urushlari, damansk to'qnashuvlari sodir bo'ldi. Lekin bu kelishmovchiliklar 1991-yilgacha hal etilmadi. Sovet ittifoqi parchalanganch yangicha sharoitda Pekin to'g'ridan-to'g'ri Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston bilan chegara masalalarini hal qilishga kirishdi. 1992-yilda Minskda Rossiya, Xitoy, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston delegatsiyalari ishtirokida ishchi guruh ish boshladi. "4+1 formulasi" ostida ish boshlagan guruh chegara masalalarini ko'p tomonlama asosda ko'rib chiqdi. Mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro hamjamiyatning subyekti sifatida Xitoy bilan chegara masalasida muzokaralar olib borishlari lozim edi. Lekin ularda tarixiy, huquqiy arxiv hujjatlari mavjud emas edi. Ular tegishli hujjatlarni Rossiya TIV dan olishdi. Xitoy bilan chegara masalasida birinchi bo'lib Qozog'iston kelishuvga erishdi. Bu ikkala mamlakatning chegara uzunligi 1740 km ni tashkil etadi. Sari-Cheldi, Chagan-Obo va Baymurza tumanlari atrofida 944 km kv maydon xususida bahs bordi. 1997 yil 24 sentabrda, 1998-yil 4-iyulda imzolangan bitimlarga asosan bu maydonning 407 kv.km ga teng qismi Xitoyga, 537 kv.km ga teng qismi Qozog'istonga o'tdi. 2011-yil 6-sentabrda kelishuvga asosan Xitoy-Tojikiston chegaralari bo'yicha kelishuvga erishildi. 1158 kv.km hudud Xitoyga berildi. 2005-yilda Rossiya tomoni bahsli hududlar hisoblangan umumiy maydoni 337 kv.km hududni Xitoyga berdi. Shu tariqa Xitoy sobiq ittifoqdosh respublikalar bilan chegara masalasida kelshib oldi.

Xitoy va Yaponiya o'rtasida Senkaku arxipelagi masalasida kelishmovchilik azaldan mavjud. Ayni kunda bu arxipelagga Yaponiya egalik qiladi. Hudud 1895-

yilda Yaponiya tomonidan tortib olingan. Okinava 1945-yildan AQSH qoʻlida boʻlib u 1972-yilda Yaponiyaga qaytarildi. Xitoy bu hududni oʻz hududi deb biladi. Shunday ekan mamlakatning baʼzi hal etilmagan hududiy masalalari ochiqlicha qolmoqda.

Xitoy aholisi boʻyicha dunyoda eng oldingi oʻrinda turadi. Mamlakat aholisini moddiy taʼminoti katta muammo hisoblanadi. “Bir oila-bir farzand” chaqirigʻi maydonga tashlangan boʻlsada aholi oʻsishda davom etmoqda. Aholini uy-joy bilan taʼminlash, bandlik masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnatga yaroqli aholining oʻrtacha hisobda chorak qismi ishsiz hisoblanadi, million-million kishi ishlagani chet elga chiqib ketgan. Keyingi ellik yil davomida birinchi bor 2018-yilga kelib Xitoy aholisi ilk bor kamaydi.

5. Oʻzbekiston va Xitoy oʻrtasidagi strategik hamkorlik masalalari. 1992-yil martda Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning Xitoyga rasmiy safari boʻldi. Bu safar davomida 16 ta hujjat imzolandi. XXR raisi Li Shankun Xalq majlislari uyida Oʻzbekiston delegatsiyasini qabul qilish marosimida “Xitoy bilan Oʻzbekiston rahbarlari ikki tomonlama munosabatlarning koʻpgina masalalarini hal etishlari mumkin. Chunki bundan avval ham ikkala mamlakat oʻrtasida yaxshi munosabatlar oʻrnatilgan edi”, — deb ikki mamlakat oʻrtasidagi hamkorlikka katta baho berdi. Tashrif davomida siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy sohalarda qator bitimlar, jumladan, axborot ayirboshlash, radio-televideniye, banklar, transport, aloqa, sarmoyalarni ragʻbatlantirish, hamjihatlik, tovarlar yetkazib berish va davlat krediti, sogʻliqni saqlash, taʼlim hamda sport masalalari boʻyicha tuzilgan shartnomalar va bitimlar ikki mamlakat oʻrtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga koʻtardi.

1992-1993-yillarda Xitoy tomoni ajratgan kredit hisobidan respublikamizga minglab tonna guruch, 15000 tonna choy keltirdi. Oʻzbekiston Xitoyga “Il-76” samolyotlarini yetkazib berdi, ularga texnik xizmat koʻrsatdi. 1994-yilda Oʻzbekiston hududida 78 ta oʻzbek — xitoy qoʻshma kommasi faoliyat koʻrsatdi. Jumladan, Urganch Ipak ishlab chiqarish birlashmasida “Suju” firmasi bilan hamkorlikda velyur, pambarxit kabi materiallar ishlab chiqaradigan korxona qurildi. Toshkentdagi 59-maktab xitoy tilini oʻrganishga ixtisoslashgan litseyga aylantirildi.

1994-yil aprelda XXR Davlat Kengashi rahbari Li Pen Oʻzbekistonga rasmiy tashrif bilan keldi va qator bitimlar imzolandi. Jizzaxda Xitoyning “Nunkel” firmasi bilan hamkorlikda yogʻoch tolali plita ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyildi.

XX asr 90-yillarning oxirlari — XXI asr boshlarida Oʻzbekiston Prezidenti Xitoyga bir necha bor rasmiy vizit bilan bordi, bu tashriflar ikki raamlakat oʻrtasidagi hamkorlik va doʻstlik aloqalarini rivqjlantirishda muhim rol oʻynadi. Bugungi kunda Xitoy Xalq Respublikasi Oʻzbekistonning jahon maydonidagi eng muhim sheriklari va yirik sarmoyadorlaridan biri boʻlib qolmoqda.

Uzoq muddatli va samarali O'zbekiston — Xitoy muloqotining asosiy tamoyillari Do'stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma (2005), Strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya (2012), shuningdek, 2013-yili imzolangan Do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma hamda Ikki tomonlama strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish haqidagi qo'shma deklaratsiyada muhrlab qo'yilgan. Umuman olganda, O'zbekiston -Xitoy aloqalarining shartnomaviy-huquqiy zamini turli yo'nalishlarni qamrab olgan 220 dan ortiq hujjatdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning 2014-yil avgust oyida Xitoy Xalq Respublikasiga buyurgan davlat tashrifi ikki tomonlama muloqotning rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. Tashrif chog'ida Qo'shma bayonot, 2014-2018-yillarga mo'ljallangan Strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish dasturi, 6 milliard AQSH dollaridan ziyod miqdordagi 80 dan ortiq iqtisodiy, moliyaviy hamda sarmoyaviy bitim va shartnomalardan iborat salmoqli hujjatlar imzolandi.

Jahon iqtisodiyotidagi beqarorlik sharoitda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi o'zaro savdo-sotiq hajmi, o'tgan yili 4 milliard AQSH dollaridan oshdi, joriy yilning yanvar-aprel oylari davomida esa bu ko'rsatkich 1,4 milliard dollarni tashkil qildi.

Mamlakatimiz bozorida Xitoy sarmoyasi ishtirokidagi 650 dan ziyod korxona faoliyat ko'rsatayotgani ham XXR ishbiarmonlar hamjamiyati tomonidan O'zbekistonga nisbatan qiziqishning o'sib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi. O'zbek bozorini yaqindan o'rganish uchun Toshkentda ushbu do'st davlatning 75 ta yetakchi firma va kompaniyasi o'z vakolatxonasini ochgan.

Sarmoyaviy sheriklik O'zbekiston va Xitoy hukumatlari o'rtasida 2010-yili imzolangan Noxom-ashyo va yuqori texnologiya sohalaridagi hamkorlik dasturi doirasida amalga oshirilmoqda.

Xitoy biznes subyektlari O'zbekistondagi qator yangi sanoat gigantlari, jumladan, Dehqonobod kaliy o'g'itlari va Qo'ng'iro't soda zavodi qurilishida ishtirok etdi. XXR tadbirkorlari ko'magida respublikamiz hududida elektr texnikasi mahsulotlari, mobil telefonlar, qurilish texnikasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Huawei kompaniyasi tomonidan Toshkent shahri va O'zbekiston mintaqalarining telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 20 ta loyiha amalga oshirildi. ZTE korporatsiyasi bilan hamkorlikda chiqarilayotgan modem, smartfon va boshqa uskunalarga milliy hamda xorijiy bozorlarda talab katta.

O'zbekistonning geografik joylashishi bois XXR bilan transport sohasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik ham tobora rivojlanmoqda. Xitoydan Yevropa davlatlariga mahsulotlar tashish mamlakatimiz hududi orqali amalga oshirilmoqda. Birgina Navoiy aeropotida faoliyat ko'rsatayotgan Xalqaro intermodal xab orqali 2015-yili 1,8 ming tonna yuk tashildi. Bundan tashqari, strategik jihatdan nafaqat

O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo uchun muhim bo‘lgan loyihaning amalga oshirilishida, ya’ni “Qamchiq” dovoni orqali o‘tadigan 19 kilometrdan ziyod masofali temir yo‘l tunneli qurilishida Xitoy firmalari faol qatnashdilar.

O‘zbekiston va Xitoy ko‘p asrlik tarixga, noyob madaniyat va ulkan intellektual salohiyatga ega. Bu davlatlararo gumanitar hamkorlikni sezilarli darajada faollashtirish, ikki mamlakat oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari o‘rtasida yaqin sheriklik munosabatlarini o‘rnatishga imkoniyatlar yaratishni, shuningdek, o‘zaro madaniy aloqalarni kengaytirishni taqozo etdi.

Xitoyda 2013-yili O‘zbekiston tadqiqotlari va ma’rifiy almashuvlari Markazi tuzildi. Uning mutaxassislari respublikamizda ro‘y berayotgan zamonaviy jarayonlarni kuzatib bormoqdalar. 2010-yildan boshlab XXR Markaziy millatlar universitetida o‘zbek tili o‘qitilmoqda. Shanxay Xalqaro tadqiqotlar universitetida alohida o‘zbek tili kafedraasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

XXRning qator shaharlarida O‘zbekiston madaniyati haftaligi o‘tkazilganini samarali madaniy hamkorlikning misoli sifatida tilga olish mumkin. Shu bilan birga, Xitoyning ko‘pgina yirik megapolislarida — Pekin, Shanxay va boshqa shaharlarida taniqli o‘zbek rassomlarining respublikamiz zamonaviy hayoti va taraqqiyotining turli qirralarini o‘zida aks ettirgan ijodiy ishlari ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. XXR ijodiy jamoalari har ikki yilda Samarqand shahrida o‘tkaziladigan “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivalining doimiy ishtirokchilari hisoblanadi.

O‘zbekiston-Xitoy aloqalarining ayni holati — ikki mamlakat xalqlarining tub manfaatlariga hamda hozirgi zamon talablariga mos keladi. Shu o‘rinda ikki mamlakat rahbarlarining uchrashuvi ushbu munosobatlarni yanada rivojlantirish uchun qo‘yilgan yana bir ilg‘or qadam bo‘ladi, deyilgan axborot agentligi maqolasida.

Tayanch so‘z va iboralar:

O‘rtalikdagi imperiya, sin imperiyasi, nerchin shartnomasi, aygun shartnomasi, afyun urushlari, gomindan, “4+1” bitimi, ko‘p qutbli dunyo, totalitarizm, xey doktrinasi, versal-vashington bitimi, separatizm, SHHT, fundamentalizm,

Takrorlash uchun savollar:

1. Xitoy xalqaro munosabatlarining rivojlanish tarixi haqida nima bilasiz?
2. Xitoy iqtisodiy taraqqiyotining spetsifik xususiyatlari nimada?
3. Xitoy-Rossiya (SSSR)-G‘arbiy Yevropa munosabatlaridagi mafkuraviy kelishmovchilik.
4. Xitoyning hal etilmagan hududiy muammolari haqida nimalar bilasiz?
5. Xitoyning hal etilmagan demografik muammolari?
6. Xitoyning xal etilmagan milliy muammolari?
7. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi strategik hamkorlik qanday rivojlanmoqda?

14-mavzu. GEOSIYOSAT VA YAPONIYANING IJTIMOIIY TARAQQIYOTI

Maydoni	377 944 kv. km.
Aholisi	126 910 000
Poytaxti	Tokio shahri
Boshqaruv shakli	Parlamentar monarxiya
Katta shaharlari	Tokio, Ikogama, Osaka, Nagoya, Sapporo, Kobe, Kioto, Fukuoka, Kawasaki, Saytama
Rasmiy tili	yapon tili
Milliy valyutasi	yapon yenasi
Eksporti	Mashinasozlik mahsulotlari, avtomobillar, tele-radio texnikalari, elektro texnika mahsulotlari
Import	neft va neft mahsulotlari, gaz, yogʻoch va yogʻoch mahsulotlari, metallar, sanoat xomashyolari.
Dini	Buddaviylik, konfusiylilik, daosizm, nasroniylilik, islom, shamonlik va boshqalar

Reja:

1. Yaponiya tashqi munosabatlarining rivojlanish tarixi.
2. Yaponiyaning jahon iqtisodiyoti va siyosiy maydonidagi tutgan mavqeidagi nomutanosibliklar.
3. Yaponiya tashqi siyosatida “Uchinchi kuch” omili.
4. Mamlakatning havfsizlik, tabiiy-iqtisodiy va energetik muammolari.
5. Oʻzbekiston va Yaponiya oʻrtasidagi strategik hamkorlik masalalari.

1. Yaponiya tashqi munosabatlarining rivojlanish tarixi. Geosiyosat fanining asoschilaridan biri Karl Xausxofer Yaponiyani kontinental tafaakur shakliga ega orol davlat sifatida tavsiflagan edi. Bu mamlakat goʻyoki oʻzini kontinentning bu chekkasidagi “aksi” boʻlmish Angliyadan qarama-qarshi jihatlari bilan farqlanadi. Bunday xulosaga kelishga oʻziga yarasha qator sabablar, asoslar mavjud. Angliya har doim kitʼa bilan boʻladigan ijtimoiy siyosiy munosabatlardan oʻzini chekkaga tortib kelgan. Faqat oʻtmishda emas yangi tarixda ham, aytish mumkinki bugungi kunda ham YEI bilan boʻladigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Yaponiya aksincha Osiyo davlatlari bilan olib boriladigan ijtimoiy-siyosiy, madaniy munosabatlarga alohida eʼtibor qaratgan, ularni qoʻllab-quvvatlab kelgan. Osiyo mamlakatlarida erishilgan ishlab chiqarish, madaniyat sohasidagi yutuqlar oʻzlashtirilgan, boyitilgan holda yapon madaniyatiga moslab singdirilgan.

Yaponiya birinchi jahon urushida Antanta tarafida qatnashdi. Binobarin, u g'oliblar safida bo'ldi. Antanta Yaponiyani quruq qo'ymadi. Unga Shandun yarim oroli, Tinch okeandagi Germaniyaga qarashli Marian, Karolina, Marshall orollari mandati taqdim etildi. Bu orollar muhim strategik ahamiyatga ega edi. Ular Yaponiyaga Tinch okean akvatoriyasi markaziga chiqish va AQSH ning asosiy harbiy-dengiz bazasi bo'lmish Gavay orollariga yaqinlashish imkonini berdi. Ayni paytda Yaponiya Xitoyda o'z mavqeyini mustahkamladi. Uzoq Sharq va Tinch okean havzasi davlatlari bozorini shitob bilan egallay boshladi.

1929—1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Yaponiya iqtisodiyotiga katta zarba berdi. Bu yapon va amerika bozorlarining bir-biri bilan juda mustahkam bog'lanib qolganligining, Yaponiya iqtisodiyoti boshqa buyuk davlatlar iqtisodiyotiga nisbatan zaifligining, 1923-yilda yuz bergan yer qimirlashi oqibatlari chuqurligining natijasi edi. Shuningdek, Yaponiyaning harbiy-dengiz qudratini cheklovchi turli xalqaro shartnomalar yosh zobitlarda kuchli norozilik uyg'otdi. Biroq Yaponiyada vujudga kelgan yangi ittifoq demokratik kayfiyatdagi kuchlarning ittifoqi emas edi. Aksincha, bu ittifoq Yaponiyada fashistik qarashlarni, tartiblarni qo'llay boshladi. Ayni paytda yosh zobitlar imperatorga sodiq edilar. Ular imperatordan eski konsernlar hukmronligini cheklashni talab eta boshladilar. Parlamentga qarshi chiqdilar. Ular «panosiyo» va dunyoga hukmronlik g'oyalarini zo'r berib targ'ib eta boshladilar. Yosh zobitlar yangi konsernlar egalarining hokimiyatga intilishini qo'llab-quvvatlay boshladilar. Biroq eski konsernlar katta moliyaviy qudratga ega bo'lganliklari uchun ularning mavqei hali qudratli edi. Eski va yangi konsernlar egalarini birlashtiruvchi bir omil mavjud edi. Bu omil - dunyoga hukmron bo'lishga intilish htssi edi.

1932-yilning 15-mayida yosh zobitlarning fashistik isyoni ko'tarildi. Buning natijasida, hatto, mamlakat bosh vaziri Inukai o'ldirildi. Isyon bostirilgan bo'lsada, mamlakatda harbiylar mavqei har qachondagidan oshib ketdi. Shu davrdan boshlab 1945-yilgacha hukumatni boshqarish faqat harbiy byurokratiya vakillariga topshirilgani bejiz emas.

Ikkinchi jahon urushidagi mag'lubiyat Yaponiyani vayronaga aylantirdi. Ikkita yapon shahri atom bombardimoniga tortildi. Ishlab chiqarish urushdan oldingi darajaning 30 foiziga tushib qoldi. 10 mln kishi ishsiz qoldi. Yaponiya taslim bo'lganidan (1945-yil 2-sentabr) ikki haftadan so'ng uning hududi AQSH armiyasi tomonidan okkupatsiya qilindi. Yaponiya qurolsizlantirilishi va mamlakatda demokratik tartib o'rnatilishi kerak edi. Bu vazifaning amalga oshirilishini nazorat qilish maqsadida Tokio shahrida ittifoqchi davlatlar (AQSH, SSSR, Buyuk Britaniya va Xitoy) vakillaridan iborat Ittifoq Kengashi tuzildi.

Mamlakat armiyasi demobilizatsiya qilindi. Harbiy muassasalar tarqatib yuborildi. Militaristik tashkilotlar taqiqlandi. Harbiy va siyosiy jinoyatchilar sudga

tortildi. Davlat apparati jinoyatchi unsurlardan tozalandi. Yashirin politsiya tugatildi. Kasaba uyushmalari faoliyati tiklandi. Demokratik siyosiy partiyalar tuzildi. Bular taraqqiyparvar, liberal va sotsialistik partiyalar edi. Mamlakat demokratik yoʻldan taraqqiy etishi uchun barcha zarur choralar koʻrildi. Bu hol Yaponiya hukumatiga butun imkoniyatni tinch bunyodkorlik ishlariga qaratishga sharoit yaratdi.

Yaponiya bilan tinchlik shartnomasini imzolash maqsadida 1951-yilda AQSH ning San-Fransisko shahrida xalqaro konferensiya chaqirildi. Konferensiya yakunlariga koʻra, 1951-yil 2-sentabrda bir tomonlama tinchlik shartnomasi imzolandi va 1952-yil 28-apreldan kuchga kirdi. Unga koʻra, Yaponiya Koreya mustaqilligini tan oldi. Tayvan, Peskador, Kurill orollari va Saxalinning janubiga daxl qilmaydigan boʻldi. Ittifoqchi davlatlardan SSSR bu shartnomani imzolamadi. Buning sababi nimadan iborat edi? “Sovuq urush” boshlangach, AQSH Yaponiyaga nisbatan munosabatini oʻzgartirdi. Chunki AQSH Uzoq Sharqda SSSR taʼsirining kuchayishini xohlamas edi.

AQSH — Yaponiya harbiy ittifoqi buning kafolati boʻlishi kerak edi. Ayni paytda Yaponiya oʻzining shimoliy yerlaridan bir qismi (Yalta konferensiyasi qaroriga koʻra) SSSRga berilganligiga toqat qila olmas edi. Shunday sharoitda Yaponiya uchun ham AQSH dek qudratli tayanch zarur edi. Ikki davlat manfaatlarining mushtarakligi amerika-yapon harbiy ittifoqini tuzish masalasini koʻndalang qoʻydi. San-Fransisko konferensiyasida Yaponiya bilan tuziladigan tinchlik shartnomasi AQSH — Yaponiya harbiy ittifoqi toʻgʻrisidagi shartnoma bilan birgalikda imzolanadigan boʻldi.

SSSR bunga qarshi chiqdi va norozilik belgisi sifatida konferensiya ishida qatnashishni toʻxtatdi. AQSH va Yaponiya oʻrtasida imzolangan shartnoma “havfsizlik toʻgʻrisidagi shartnoma” deb ataldi. Unga koʻra, Yaponiyada AQSH ning haibiy bazalari saqlab qolindi. Ayni paytda AQSH ning okkupatsiya tartibi bekor qilindi.

2. Yaponiyaning jahon iqtisodiyoti va siyosiy maydonidagi tutgan mavqeidagi nomutanosibliklar. Urushda keyingi asosiy vazifa xalq hoʻjaligini qisqa muddatda tiklash zarur edi. Sanoat va qishloq hoʻjaligini tiklash uchun barcha zarur choralar koʻrildi. Yapon xalqi yuksak vatanparvarlik, mehnatsevarlik, nihoyatda intizomlilik, toqatlilik va sabr-bardoshlilik namunalarini koʻrsatib mehnat qildi. Ayni paytda yapon xalqi oʻta tejamkor xalq hamdir. Bundan tashqari, ish beruvchilar bilan xodimlar oʻrtasida yaponlargagina xos boʻlgan hamkorlik vujudga keldi. Unga koʻra, ish beruvchi bilan xodim oʻrtasida shartnoma tuzilar edi. Shartnomada korxona xodim to nafaqaga chiqquncha ish bilan taʼminlash, xodim esa shu yillar mobaynida sidqidildan mehnat qilish majburiyatini olardi. Bundan tashqari, Yaponiyaning harbiy xarajatlari nihoyatda kam boʻlib, yillik ijtimoiy mahsulot qiymatining atigi 1 foizini

tashkil etardi. Bu hol butun kapitalning juda katta qismini ishlab chiqarishga yo'naltirishga imkon berdi. Yaponlarga xos yana bir xususiyat o'zgalar yutug'ini erinmay o'rganish va ulardan unumli foydalana olishdir.

Yuqoridagi omillar Yaponiyaning gurkirab rivojlanishini ta'minladi. Chunonchi, 1951-yildayoq sanoat ishlab chiqarishi urushdan oldingi darajaga yetdi. 1951—70-yillarda mamlakat iqtisodiyotining yillik o'sishi o'rtacha 14,6 foizni tashkil etdi. 1950-yil yozida AQSH ning Koreyadagi urushi munosabati bilan Yaponiyaga juda ko'plab harbiy buyurtmalar berildi. Natijada Yaponiya valyuta zaxirasi 1952-yilda 1 mlrd dollarni tashkil etdi. 1960-yilga kelib Yaponiyada sanoatning yillik o'sishi 20 foizni tashkil qildi. Bunday o'sish hech bir mamlakatda bo'lgan emas. «Yapon mo'jizasi» dunyoni lol qoldirdi. «Yapon mo'jizasi» ning siri quyidagi sabablarga bog'liqdir:

Birinchidan, asosiy kapitalning yangilanishi. Sanoat korxonalarida barcha eskirgan jihozlar 50-yillarda almashtirildi. Bu narsa 1960-yilda o'rta va mayda korxonalarga ham joriy etildi. Chunki 30 foiz ishchilar shunday korxonalarda ishlaydi.

Ikkinchidan, harbiy buyurtmalar. Koreya va Vetnam urushlari munosabati bilan berilgan buyurtmalar sanoatchilarga juda katta foyda keltirdi. Keyinchalik mamlakatning o'zida ham harbiy buyurtmalar ko'paydi.

Uchinchidan, urushdan keyin harbiy xarajatlarning yo'qligi. Chunki AQSH mamlakat mudofaasi bilan bog'liq harbiy xarajatlarni moliyalashtirdi. Harbiy xarajatlari 1970-yilga kelganda budjetning 1,2 foizini tashkil etdi.

To'rtinchidan, konsernlarning ko'ptarmoqliligi kapitalni aylantirishda qo'l keldi. Masalan, kemasozlik korxonalari qiyin paytlarda mashinasozlik, kimyo jihozlari, turbinalar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashgan.

Beshinchidan, davlat monopolizmining xususiy korxonalar bilan yaqinligi. Vazirlar Mahkamasida tashkil etilgan Iqtisodiy rejalashtirish qo'mitasi ichki va tashqi bozor muhitini o'rganadi hamda ilmiy-texnikaviy axborotni barcha korxonalarga tarqatadi. Davlat eng muhim sanoat tarmoqlari bo'lgan atom sanoati, raketasozlik va boshqalarni hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtiradi va kapital qo'yishini muvofiqlashtiradi. Yaponiyada rejalashtirishdan ustalik bilan foydalaniladi.

Oltinchidan, boshqa mamlakatlar tajribasidan texnik yordam to'g'risida bitimlar tuzish, litsenziyalar sotib olish yo'li bilan juda keng foydalaniladi. Lekin bu narsa mamlakat ichkarisida ilmiy-tadqiqot bazasiga salbiy ta'sir etishini hisobga olib, ilmiy-texnik izlanishlarga har 10 yilda 6 baravardan ko'p mablag' sarflamoqda.

Yettinchidan, Ilmiy-texnika inqilobini bevosita ishlab chiqarishda nihoyatda tez qo'llab samaradorlikka erishmoqda. Bir soha chiqindilarini boshqa siklga yo'naltiriladi. Jumladan, neftni qayta ishlash — sintetik materiallarga, kimyo — qurilish materiallariga va h.k.

Sakkizinchidan, xodimlarga “psixologik yondashuv”. Yaponiya korxonalari ishchilarni ishga layoqatsiz bo‘lib qolgunicha yoki umrbod ish bilan ta’minlash to‘g‘risida shartnoma tuzadi. Ishchi esa intizomli, har qanday qiyinchilikka chidaydigan, korxonani o‘ziniki deb biladigan, unga xiyonat qilmaydigan bo‘lishi zarur.

To‘qqizinchidan, Yaponiya iqtisodiyoti rivojlanishida tashqi savdo muhim rol o‘ynaydi. Yapon iqtisodi jahon bozoriga bog‘langan va 100 foiz paxta, jun, kauchuk, nikel, boksitni, 99 foiz neftni, 90 foiz temir rudasi, ya’ni 80 foiz xomashyo va 20 foiz oziq-ovqatni chetdan sotib oladi. 1965-yilgacha Yaponiya importi darajasi eksportga nisbatan yuqori edi. Undan keyin balans faollashdi, eksport ko‘paydi.

1968-yilga kelib Yaponiya jami milliy mahsuloti hajmi jihatidan Fransiya, Buyuk Britaniya va GFRni ortda qoldirdi. Bu borada dunyoda AQSH dan keyin ikkinchi o‘ringa chiqib oldi.

1981-yilda yana bir mo‘jiza ro‘y berdi. Shu yili Yaponiya yengil avtomobil ishlab chiqarish bo‘yicha AQSH ni ortda qoldirdi. Mamlakatda videotexnika, rangli televizor va boshqa maishiy xizmat texnikasi misli ko‘rilmagan darajada o‘sdi. Raqamli axborot texnologiyasi, robotlar ishlab chiqarishda dunyoda oldingi o‘rinda turibdi. Mitsui, Mitsubishi, Sumitomo, Toyota, Kawasaki kabi gigant korporatsiyalar milliardlarcha foyda ko‘rmoqda. Mamlakatda temir va ko‘mir konlari bo‘lmasada, elektron sanoatning tayyor mahsulotlari, avtomobillar, kimyo sanoati mahsulotlari, optika, sintetik tola va boshqa muhim tovarlarni eksport qiladi.

Yaponiya avtomobillar, kemalar, ro‘zg‘or elektr texnika asboblari, sanoat robotlari ishlab chiqarish, stanoksozlik jihatidan dunyoda birinchi o‘rinni egallaydi. Baliq ovlash bo‘yicha dunyoda 1-o‘rinda turadi. Dunyoda ovlanadigan jami baliqni 15 foizini ovlaydi va uni qayta ishlaydi. Dunyo aholisining 2 foiziga (127 mln) ega bo‘lgan Yaponiya jahondagi YAIM ning 13,3 foizini ishlab chiqaradi. Lekin shuni qayd etish lozimki Yaponiyaning xalqaro maydondagi siyosiy mavqei uning iqtisodiy natijalariga mos kelmaydi. Ikkinchi jahon urushidagi mag‘lubiyatdan keyin mamlakat o‘zining ichki va tashqi siyosatini belgilashda AQSH ning ta’siriga tushib qolgan.

3. Yaponiya tashqi siyosatida “Uchinchi kuch” omili. Yaponiya tashqi siyosatida San-Fransisko shartnomasidan so‘ng AQSH asosiy hal qiluvchi rol o‘ynay boshladi. 1954-yil dekabrda Bosh vazirlik lavozimini egallagan Xatoyama o‘z dasturining bir punktini Sovet davlati bilan munosabatlarni yaxshilashga bag‘ishladi. Natijada 1956-yil oktabrida ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik munosabatlar tiklandi. Harbiy asirda yapon fuqarolari o‘z vatanlariga qaytarildi. Tinch okean shimoli-g‘arbida baliq ovlash borasida, dengizda halokatga uchraganlarga yordam berish to‘g‘risida bitimlar tuzildi.

1957-yil dekabrda galdagi sovet-yapon savdo shartnomasi imzolandi va tovar ayirboshlash yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga 1960-yil Kisi hukumati AQSH bilan “xavfsizlik shartno-masi”ni imzoladi va u 1970-yilda uzaytirildi. Unga muvofiq, Yaponiya hududida AQSH ning 118 ta harbiy obekti bo‘lib, ularga 50 mingga yaqin harbiylar joylashtirilgandi. Yaponiya AQSH ning Vetnamdagi urushini qo‘llab-quvvatladi.

1972-yilda Xitoy bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. 1978-yilda esa tinchlik va do‘stlik to‘g‘risida bitim tuzildi. 1990-yillarda Yaponiya o‘z taraqqiyotining yuqori cho‘qqisiga ko‘tarildi. Lekin Osiyoda uning Janubiy Koreya, Tayvan, Tailand, Malayziya kabi raqobatchilari kuchayib bormoqda.

1981-yilda AQSH va Yaponiya o‘rtasida tinchlik shartnomasi, havfsizlik shartnomasining imzolanishi bilan bu ikkala mamlakat strategik sheriklarga aylandi. Bu kelishuvlardan bosh maqsad “sovet havfi” ni qaytarish edi. Yapon orollarida AQSH ning harbiy bazalari ko‘payib bordi. Ikki qutbli dunyo barham topgach xalqaro munosabatlarda iliqlik boshlandi. 1993-yil oktabrda Yaponiya va Rossiya o‘rtasida chegaraoldi hududlarni demilitarizatsiya qilish yuzasidan bitim imzolandi. Lekin bu bitim Kurill orollari sabab amalga oshmasdan kelmoqda.

1945-yilda Potsdam konferensiyasi qaroriga muvofiq Kuril orollari SSSR ga berildi, Okinava oroli AQSH qo‘liga o‘tdi. AQSH va Yaponiya o‘rtasida havfsizlik to‘g‘risida bitimga kelishilgach amerika tomoni Yaponiyaga Okinavani qaytarib berdi. Evaziga AQSH harbiy bazalari yapon orollariga joylashtirilishi lozim edi. Shuningdek Yaponiya sovet davlati bilan bir tomonlama asosda hech qanday masala yuzasidan muzokaralar stoliga o‘tirmasligi talab etilgan. “Bahsli hudud” lar Yaponiya foydasiga hal etilgan taqdirda ham Tokio hukumati bu orollarga harbiy bazalar joylashtirmaslik kafolatini olmasligi kerak. Ushbu kelishuvga asosan Yaponiyaning hududiy havfsizligiga AQSH kafolat beradigan bo‘ldi. Ushbu sabab Yaponiya tashqi siyosatida “uchinchi kuch” omili muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaponiya tashqi siyosat mahkamalari o‘z faoliyatlarida xalqaro munosabatlarning qator xususiyatlariga keng e‘tibor qaratishadi: birinchidan, xalqaro hamjamiyat bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish, iqtisodiy globallashuvni ta‘minlash keng e‘tibor qaratilmoqda. Transport, texnika, aloqa vositalarining keskin rivoji tashqi savdo va investitsiyalar harakatiga keng yo‘l ochmoqda. Globallashuv tufayli raqobatbardosh iqtisodiyot shakllantirildi; ikkinchidan, kommunistik tizimning qulashi, sovuq urushning yakunlanishi natijasida erkin bozor iqtisodiyoti tafakkuri, demokratiya va erkinlik tamoyillari yanada katta maydonga keng tarqaldi, ijtimoiy ongda qaror tapdi. Jamiyat hayotida bozor iqtisodiyoti mexanizmlari amal qilishi uchun fuqarolar erkinligi, xususiy mulkchilik, talab va takliya erkinligi kabi qoidalar teng amal qilishi lozim; uchinchidan, xalqaro siyosat tarkibining ko‘p tarmoqli va keng tabaqalashganligidan birdek foydalanildi. Sovuq urush davrida ikki

qutbli dunyo qaror topgan edi. Bugun xalqaro hamjamiyat juda murakkab va rang-barangdir. Yaponiya xalqaro maydonda – BMT, XVF, “Katta sakkizlik” tashkilotlari bilan, regional darajada – ASEAN, YEI, NATO singari tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi, shuningdek muayyan davlatlar bilan ikki tomonlama muzokaralar yo‘lga qo‘yilgan; to‘rtinchidan, global xarakterdagi muammolarni son va sifat jihatdan o‘tib borishi. Albatta ularni hal etishda xalqaro hamjamiyat o‘z imkoniyatlarini birlashtirishga harakat qiladi, keng hamkorlikka intiladi; sovuq urushdan keyindavrda milliy o‘zlikni anglashning yuksalib borishi; oltinchidan, “davlat”, “davlatchilik tamoyili” ning yuvilib borishi, yo‘qolib borishi. Albatta Yaponiya o‘zining tashqi siyosatida ushbu xususiyatlarni inobatga olgan xolda faoliyat yuritadi.

Yaponiya tashqi siyosatining bosh maqsadi mamlakatdagi barqarorlikni, uning taraqqiyotini, fuqarolar tinchligi va farovonligini ta‘minlashga xizmat qilishdir.

4. Mamlakatning havfsizlik, tabiiy-iqtisodiy va energetik muammolari. Erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan kapital munosabatlarning rivoji 1867 yilda boshlangan Meydzi inqilobi bilan bog‘liq. Imperator Mitsuxito tomonidan tashkil etilgan hukumat erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga kirishdi. Yangidan shakllannayotgan sanoat qator xom-ashyo manbalarini talab etardi. Ma‘lumki Yaponiya tabiiy zahiralarga boy emas. Shu sabab samuraylar o‘z e‘tiborini yon qo‘shnilari Koreya va Xitoyga qaratishdi. G‘arb yetakchi davlatlari bilan birgalikda Yaponiya ham Xitoyni mustamlakaga aylantirishga kirishdi. 1894 yilda Lyaodun yarim oroli Port-Artur bilan birgalikda bosib olindi. 1895 yilgi Simonoseki shartnomasiga asosan Lyaodun yarim oroli, Tayvan, Penxulidao Yaponiya nazoratiga o‘tkazildi. Yaponiyaning Uzoq Sharqdagi faollashuvi G‘arb davlatlarini, shu jumladan Rossiyani ham xavotirga solib qo‘ydi. Va nihoyat 1904-1905-yillardagi rus-yapon urushi kelib chiqqanda G‘arbiy Yevropa davlatlari Yaponiya manfaatlarini himoya qilishlari o‘z navbatida G‘arb manfaatlarini himoya qilishga olib kelishiga ishonch hosil qilishdi. Bu urushdagi g‘alaba Yaponiyaning Uzoq Sharqdagi manfaatlarini, ta‘sir doiralarini ancha mustahkamladi. Aytib o‘tilganidek Kuril orollari, Saxalinning janubiy qismi Yaponiyaga beriladi.

Yaponiya hukmron doiralari o‘zlarini Osiyoda, Uzoq Sharqdagi tartibotni yo‘lga qo‘yishga, mintaqada tinchlikni asrashga ma‘sul deb bilishadi. Bu mintaqada jahonning hech bir mamlakati mustamlakachilik siyosatini olib borishga haqli emas. Ikkala jahon urushi oraliqidagi davrda ham Yaponiya bunday “ma‘suliyat” ni o‘z zimmasidan soqit qilmadi. XX asrning 30-40 yillarida Janubiy-sharqiy Osiyoda qator harbiy harakatlar amalga oshirildi. Ikkinchi jahon urushi davrida sovet – yapon to‘qnashuvlari faqatgina Xasan ko‘li va Xalxin-gol atrofidagina yuz berdi deyish to‘g‘ri emas. Butun urush davomida Yaponiya Sovet davlatining AQSH dan lend-liz siyosati bo‘yicha harbiy yordam olishiga to‘sqinlik qildi.

Yaponiya o'z tashqi siyosatida uchta ustuvor vazifa yechimiga keng e'tibor qaratib keladi. Bu vazifalar Yaponiyaning mintaqaviy, xalqaro munosabatlarida keng ko'zga tashlanib keladi. Ba'zan ikki tomonlama uchrashuvda bo'lsin, ba'zan ko'p tomonlama formatda bo'lsin, ba'zan xalqaro tashkilotlar vositachiligida bo'lsin Tokio bu masalalarni biron soniya ham unutayotgani yo'q. Yangi ming yillikda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ulkan ko'lami, tashqi savdo hajmining keskin oshuvi mamlakatning hududga, unumdor yerga, qator mislsiz tabiiy zahiralarga, ulkan bozorlarga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Yaponiya uchun suv va havodek zarur bo'lgan ushbu vazifalar sirasiga quyidagilar kiradi:

Birinchisi – o'z yechimini topmasdan kelayotgan “Shimoliy hududlar” muammosi. Ikki tomonla rus – yapon munosabatlari haqida gap borar ekan Tokio har doim Rossiyaga nisbatan o'zining azaliy hududiy da'vosini bildirib keladi. O'rtada bir necha bor orollarning qo'lma-qo'l bo'lishiga xizmat qilgan shartnomalar bo'lmasin e'tirozlar kamayotgani yo'q. Demak savol paydo bo'ladi – muammoning tarixiy ildizlari nimada?

Rus –yapon munosabatlari to'rt asrlik tarixga ega. O'tgan ushbu davr davomida ikkala mamlakatda o'rtasida o'z yechimini topmasdan kelayotgan muammolardan biri hududiy muammo – Kuril muammosi hisoblanadi. Kuril orollari haqida dastlabki ma'lumot 1697 yilda rus geograf sayyohi V.V. Atlasov tomonidan berilgan. 1745 yildan Kuril orollarining katta qismi “Rossiya imperiyasining General xaritasi” aks ettirildi. Rus dengizchilari tomonidan kashf etilgan Iturup, Kunashir, Shikotan, Xaboami va boshqa orollarda rus bayroqlari o'rnatildi. 1633 yilgi, 1636 yilgi, 1639 yilgi yapon imperatori farmoniga binoan yapon orollari tashqi mamlakatlar uchun yopib qo'yilgan edi. Shuningdek yaponlarning o'zlariga ham orollarni tark etish taqiqlangan edi. Bu “qamal” 1854 yilgacha davom etgan.

Yaponiya va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi 1855 yilda imzolangan bitimga asosan Kuril orollari Rossiya tarkibida ekani e'lon qilindi. Oradan bir oz vaqt o'tgach 1875 yilda galdagi bitimga asosan o'n sakkizta Kuril oroli (Iturup, Kunashir, Shikotan, Xaboami orollari bu ro'yhatda mavjud emas) Yaponiyaga qaytarildi. XX asr boshlarida Uzoq Sharqda o'z ta'sir doiralarini belgilab olish uchun 1904-1905 yillarda rus-yapon urushi bo'lib o'tdi. Urush Rossiyaning mag'lubiyati bilan tugadi. Portsmouth tinchlik shartnomasiga asosan (AQSH ning vositachiligida olib borilgan) Iturup, Kunashir, Shikotan, Xaboami orollari va Saxalinning teng yarmi Yaponiya tasarrufiga o'tdi. Ikkinchi jahon urushi yakunida Kvantun armiyasi tor-mor etilgach bu hududlar yana Rossiya yurisdiksiyasiga qaytarildi.

1950-yillarda Kuril orollarining Yaponiyaga qaytarish bilan bog'liq muzokaralar boshlandi. Lekin AQSH ning ta'siri ostida muzokaralar to'xtab qoldi. Negaki sovet tomoni Yaponiya hududida chet el harbiy bazalari bo'lmagan taqdirdagina muzokaralarni davom ettirish mumkinligini ta'kidladi. 1991-yilda sovet

davlati qulagach Yaponiya hududlar masalasini Rossiya Federatsiyasi bilan davom ettirishga kirishdi. Yangicha sharoitda bu masalaning yechimiga jiddiy kirishgan Yaponiya bosh vazirining ta'kidlashicha hukumat bu muammoaning yechimini o'z avlodlariga miros qilib qoldirishni xohlamaydi. Rossiyaga qarish G'arbning sanksiyalari kuchaygach Rossiya yana Kuril orollarida harbiy bazalarni tashkil etishga kirishdi. Moskva har doim ikki tomonlama muzokaralarga "hududiy muammolar" ni ilgari surmaslik sharti bilan kirishadi.

Yaponiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yuksak natijarini saqlab turish, izchil davom ettirishning ikkinchi bir sharti, omili mamlakatning energetik muammosini hal qilish hisoblanadi. Albatta bu masala birinchi ustuvor vazifaning mantiqiy davomi hisoblanadi. Kurilning masalasining keskinlashuvining asosiy sababalridan biri Yaponiyada hududning cheklanganligi, kamligi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan orollarning rudalarga, qimmatbaho toshlarga, minerallarga, o'simlik va hayvonot dunyosiga boyligi bilan izohlanadi.

Uchinchi masala mamlakatning siyosiy havfsizligi masalasi hisoblanadi. Keyingi yillarda NATO ning Sharqqa tomon kengayishi Rossiya-Yaponiya munosabatlarini ham chetlab o'tayotgani yo'q. Albatta AQSH o'z koalitsiyachilari bilan Rossiyani faqat bir tomondan emas, balki barcha tomondan qurshovga olishga, shuningdek mamlakat bilan bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar nazoratga olishga (Anakonda rejasi) harakat qilmoqda. Yaponiya va AQSH ning Uzoq Sharqda o'z harbiy pozitsiyalarini mustahkamlashga intilishi Rossiya tomonidan javob variantlarini ishlab chiqishga taqozo etmoqda. Shuningdek Yaponiya Markaziy Osiyo va Kavkazda mustahkam o'rinish olishga intilmoqda.

5. O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi strategik hamkorlik masalalari.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki yillardanoq Yaponiya bilan ijtimoiy-iqtisodiy, savdo, moliyaviy, fan, texnika sohalarida o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor berib keladi. O'zbekiston Yaponiyaga ulkan siyosiy, iqtisodiy, intellektual va investitsion salohiyatga ega, taraqqiy etgan davlatlardan biri, vaqt sinovidan o'tgan ishonchli sherik sifatida qaraydi. Yaponiya huquumat delegatsiyalarining mamlakatimizga rasmiy tashriflari har ikkala mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan, o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, uni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilib keldi. Ijtimoiy hayotda o'zbek va yapon xalqlarining o'xshash jihatlari ko'p. Milliy g'urur, birdamlik, bag'rikenglik, mehnatsevarlik, sadoqat, mehr-oqibat kabi fazilatlar ikki xalq uchun birdek xosdir.

Ikki mamlakat iqtisodiyoti jadal rivojlanib bormoqda. Bu o'zaro hamkorlikni barcha sohalarda kengaytirish uchun sharoit yaratadi. O'zbekiston va Yaponiyaning ulkan iqtisodiy imkoniyatlari — tabiiy boyliklari va yuqori texnologiyalari, ilmiy

salohiyati, moliyaviy va mehnat resurslari bir-birini to'ldiradi. O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi munosabatlar 2002-yil iyul oyida imzolangan Do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi qo'shma bayonot ruhida izchil rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston bilan Yaponiya xalqaro tashkilotlar doirasida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar bo'yicha tomonlarning tutgan pozitsiyalari o'xshash va yaqindir. O'zbekiston Yaponiyaning mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash, yadro qurolini tarqatmaslik, ekologik muammolarni bartaraf etishga doir tashabbuslarini qo'llab-quvvatlab keladi. Tomonlar «Markaziy Osiyo + Yaponiya» muloqot mexanizmi doirasida ham ko'p tomonlama aloqalarni rivojlantirmoqda.

2015-yil oktabr oyida Yaponiya bosh vaziri Shindzo Abening O'zbekistonga tashrifi doirasida O'zbekiston va Yaponiya umumiy qiymati 8,5 mlrd dollardan ko'proqni tashkil qiladigan qo'shma loyihalarni amalga oshirishga kelishib olishgani diqqatga sazovordir.

Yaponiya O'zbekistonning eng yirik investorlaridan biri hisoblanadi. Muzokarada siyosiy muloqotlarni izchil davom ettirish, savdo, sanoat, moliya, energetika, fan-ta'lim, madaniyat kabi sohalarda hamkorlikni yanada kengaytirishga kelishib olindi. Xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, xalqaro tahdid va xavf-xatarlarga qarshi birgalikda kurashish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston bilan Yaponiya Afg'oniston iqtisodiyotini tiklashda faol ishtirok etmoqda. Afg'onistonda harbiy kuch ishlatish yo'li bilan tinchlik o'rnatib bo'lmاسligi, BMT shafeligida qarama-qarshi tomonlar o'rtasida siyosiy muzokaralar o'tkazish va ichki kelishuvga erishish eng to'g'ri va yagona yo'l ekani uchrashuvda yakdillik bilan ta'kidlandi.

O'zbekiston va Yaponiya rahbarlari muloqotni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokarasida davom ettirdi. Tomonlar savdo-iqtisodiy, investitsiya, moliyaviy-texnika va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish, o'zaro savdo aylanmasi hajmini oshirish va nomenklaturasini kengaytirishga oid masalalarni muhokama qildi.

Ikki mamlakat o'rtasida savdo-sotiq sohasida eng ko'p qulaylik yaratish tartibi joriy qilingan. Savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish borasida hukumatlararo majlislar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston — Yaponiya va Yaponiya — O'zbekiston qo'mitalari erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, yangi imkoniyatlarni izlash va qo'shma loyihalar ishlab chiqishda muhim o'rin tutmoqda. Joriy yil yanvar oyida Tokioda mazkur qo'mitalarning qo'shma yig'ilishi bo'lib o'tgan edi.

Yaponiyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, SHo'rtan gaz-kimyó majmuasi va «Ko'kdumaloq» konida kompressor

stansiyasini qurish, Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodini rekonstruksiya qilish, Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on temir yo‘lini bunyod etish, Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlarini modernizatsiyalash bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirildi.

O‘zbekistonda “Isuzu Motors Ltd” kompaniyasi ishtirokida avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarilmoqda. Tabiiy gazda ishlaydigan yuk mashinalarining yangi modellarini ishlab chiqarish o‘zlashtirildi. “O‘zavtosanoat” va “Isuzu Motors Ltd” kompaniyalari o‘rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Ikki mamlakat hamkorlikni mustahkamlashda madaniy-gumanitar aloqalar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Taraqqiyotga rasmiy yordam dasturi doirasida hamda Yaponiya Xalqaro hamkorlik agentligi orqali ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Yaponiyada O‘zbekiston madaniyati va kinosi kunlari tashkil etilmoqda. Kunchiqar yurt ijodkorlari mamlakatimizda o‘tkazilayotgan xalqaro anjumanlar, xususan, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalida faol qatnashib kelmoqda.

Tayanch so‘z va iboralar:

“Yapon mo‘jizasi”, San-Fransisko bitimi, “Uchinchi kuch” omili, ko‘p qutbli dunyo, totalitarizm, versal-vashington bitimi, separatizm, SHHT, fundamentalizm

Takrorlash uchun savollar?

1. Yaponiya tashqi munosabatlarining rivojlanish tarixi haqida nima bilasiz?
2. Yaponiyani “yopib qo‘yish” siyosatining oqibatlari?
3. Yaponiyaning jahon iqtisodiyoti va siyosiy maydonidagi tutgan mavqeidagi nomutanosibliklar nimalarda ko‘rinadi?
4. Yaponiya tashqi siyosatida “Uchinchi kuch” qanday ahamiyat kasb etadi?
5. Mamlakatning havfsizlik, tabiiy-iqtisodiy va energetik muammolari?
6. Kurill muaomosi haqida nimalar bilasiz?
7. O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi strategik hamkorlik qaysi sohalarda yuz bermoqda?

15-mavzu. MARKAZIY OSIYO REGIONIDAGI GEOSIYOSIY VA IQTISODIY JARAYONLAR

Davlat nomi	poytaxti	Maydoni ming kv km	Aholisi. Mln kishi	YAIM mld.dol	Boshqaruv shakli
O‘zbekiston	Toshkent	447 400	33 254 100	222,3	Prezidentlik respublikasi
Qozog‘iston	Nur-Sulton	2 724 902	18 395 66 0	460,692	Prezidentlik respublikasi
Turkmaniston	Ashxobod	491 200	5 758 075	99,6	Prezidentlik respublikasi
Qirg‘iziston	Bishkek	199 951	6 389 500	23,103	Aralash boshqaruv
Tojikiston	Dushanbe	143 100	8 991 725	27,802	Prezidentlik respublikasi
Afg‘oniston	Qobul	652 864	31 575 018	70.1	Prezidentlik respublikasi

Reja:

1. Mustaqillikdan keyingi davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, transport-kommunikatsiyaviy, etnik, mavkuraviy muammolar.
2. Markaziy Osiyo hududining tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va imkoniyatlari.
3. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan tashqi siyosatidagi tub burilishlar.

1. Mustaqillikdan keyingi davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, transport-kommunikatsiyaviy, etnik, mavkuraviy muammolar.

Ma’lumki “Markaziy Osiyo” (o‘zb. *Markaziy Osiyo*, rus. *Sentralnaya Aziya* kaz. *Ortaliq Aziya*, mong. *Töv Azi*, turkm. *Merkezi Aziya*, kirg. *Borbor Aziya*, tadj. *Osiyoi Markazū*, pers. *آسیای مرکزی*, urdu *وسط ایشیا*, kit. *中亚*) — atamasi ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarga nemis geografi Aleksandr Gumbolt tomonidan 1843 yilda kiritilgan edi. Odatda Markaziy Osiyo deyilganda dunyo okeaniga chiqish imkoni bo‘lmagan O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston hududlari kiritilgan.

Sobiq ittifoq davridagi geografik manbalarda “O‘rta Osiyo” atamasi keng qo‘llanilgan. Unga Qozog‘iston kiritilmagan. Shu tariqa O‘rta Osiyo va Qozog‘iston

atamaları alohida tushuncha sifatida qoʻllanildi. Sovet davlati qator iqtisodiy rayonlarga boʻlinishi bu atamalarning ishlatilishiga sabab boʻlgan boʻlishi mumkin¹.

YUNESKO tomonidan eʼtirof etilishicha Markaziy Osiyo mintaqasi oʻz ichiga Qozogʻiston, Turkmaniston, Oʻzbekiston, Qirgʻiziston, Tojikiston, Afgʻoniston, Monogoliya, Gʻarbiy Xitoy, Tibet, Ichki Monogoliya, Panjob, Kashmir, Shimoliy Hindiston, Shimoliy Pokiston, Shimoliy-sharqiy Eron hududlarini oladi. Shuningdek baʼzan Markaziy Osiyo hududini belgilashda etnik asosda yondashuv ham mavjud. Unga asosan turkiy xalqlar, moʻgʻul va tibetliklar yashaydigan oʻlkalar nazarda tutiladi.

1990-yillarga kelib amerikalik siyosatshunos Maykl Mandelbaum bu atamaning mohiyatini butunlay boshqacha talqin etishga kirishdi. Uning fikricha Markaziy Osiyo deyilganda sobiq sovet respublikalari (jumladan Qozogʻiston ham), Gʻarbiy Xitoy (Shinjon-Uygʻur avtonom oʻlkasi), Afgʻoniston, Hindiston-Pokiston chegaralari tutash mintaqalar va Mongoliya hududlarini tushunish lozim. Albatta bu mintaqalar halqlari turli davrlarda, baʼzan turli saltanatlar tarkibida hamisha iqtisodiy, madaniy aloqalarda boʻlib kelishgan. Koʻrinib turibdiki, bunday fikrga kelishga qator tarixiy, madaniy, iqtisodiy asoslar mavjud. Ikkinchi tomondan Markaziy Osiyo hududiy kengliklarini bunday yoritishdan maqsad Rossiyaning Markaziy Osiyoga boʻlgan tarixiy daʼvosini yoʻq qilish maqsadida sharhlangan boʻlishi ham mumkin.

Markaziy Osiyo Hududida qadimda oʻtroq xalqlar bilan bir qatorda koʻchmanchi chorvador xalqlar ham yashab kelishgan. Hudud Sharqdagi Xitoy va Hindistonni Sharqiy Yevropa, Fors, Misr va Oʻrta yer dengizi boʻyi davlatlari bilan bogʻlovchi “Buyuk Ipak yoʻli”ning chorrahalarida joylashgan.

Yangi ming yillik arafasida Markaziy Osiyo davlatlari oʻz mustaqilliklarini qoʻlga kiritib xalqaro huquqning, xalqaro munosabatlarning toʻlaqonli subyektiga aylanishdi. Bu davlatlar mustaqil siyosiy rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yangilash yoʻliga qadam qoʻyishdi. Ular oʻzining ijtimoiy –iqtisodiy rioji darajasidan, salohiyatidan kelib chiqib dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida oʻz mavqeini mustahkamlashga intilmoqda. Bu davlatlar oldida hayot sinovidan oʻtmagan, muvaffaqiyatsiz tarixiy tajribaning fojiali oqibatlarini qisqa davr ichida bartaraf etish vazifasi turar edi. Ular erkin bozor iqtisodiyotiga ega boʻlgan, demokratik, inson huquqlari va erkinliklari ishonchli himoya qilinadigan chinakam fuqarolik jamiyati barpo etishdek murakkab vazifa turardi.

Bunday vazifalarning yechimi haqida gap borganida avvalo bu davlatlar ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning qanday bosqichida turgani, ularda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/Центральная_Азия

Birinchidan, sobiq sovet ittifoqining iqtisodiy rayonlarga bo'lini sabab bu davlatlarga mo'rt, zaif, bir yoqlama rivojlangan, paxta va boshqa qishloq ho'jaligi mahsulotlari yakkahokimligi ustun bo'lgan, boy mineral-xom ashyo resurslaridan "ittifoq mulki" tamg'asi ostida ayovsiz foydalanish asosiga qurilgan iqtisodiyot og'ir meros bo'lib qolga edi.

Ikkinchidan, texnologik qurilmalar, oziq-ovqat va keng xalq iste'moli mollari chetdan olib kelingan. Yetishtirilayotgan katta miqdordagi qishloq ho'jaligi mahsulotlarining aksariyat hajmi suvtekinga tashib ketilar edi. Oltin, qimmatbaho va rangli metallar, strategik ahamiyatga ega materiallar, jahon bozorida o'ta xaridorgir bo'lgan boshqa qimmatbaho mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishdan keladigan foyda ittifoq xazinasiga tushar edi.

Uchinchidan, uzoq yillar davomida sobiq sovet davlati hududida yagona temir yo'l liniyasi, yagona elektr tarmoqlari, yagona neft-gaz quvurlari tashkil etilgan edi. Bu infrastrukturaning tashkil etilishida sobiq ittifoq tarkibidagi milliy respublikalar chegaralari asos qilib olinmagan. Sobiq ittifoqning parchalanishi bilan ko'pgina aholi yashash punktlari elektr, gaz bilan ta'minlashda, transport xizmati borasida anchagina noqulayliklar kelib chiqdi. Har bir milliy respublika oldida yagona milliy temir yo'l liniyasi, yagona elektr tarmoqlari, yagona neft-gaz quvurlari tashkil etish vazifasi turar edi.

To'tinchidan, mintaqa respublikalarida o'tkir ijtimoiy, ekologik muammolar hal etilmasdan kelindi. Markaziy Osiyoda ekin maydonlarining cheklanganligi va sho'rlanganligi, suvning cheklanganligi va sho'rlanganligi, atmosferaning ifloslanishi, Orol muammosi muhim e'tibor talab etadigan muammodir. Albatta bu turkumdagi muammolarni yagona davlat ishtirokida hal qilib bo'lmaydi.

Beshinchidan, noinsoniy mafkura hukm surgan uzoq tarixda mustabid tuzum o'zining bor mafkuraviy kuchi bilan odamlar ongini keng miqyosda zaharlar edi. Ularning milliy va diniy tuyg'ularini qo'pol ravishda kamsitar, tarixiy haqiqatni buzib ko'rsatar edi. Ularni o'z tarixiga qarshi qo'yishga intilar edi. O'z ona tilini, milliy an'ana va madaniyatini, o'z tarixini bilmaslik ko'plab odamlarning shaxsiy fojiasiga aylanib qolgan edi.

Oltinchidan, milliy o'zlikni anglashga bo'lgan har qanday urinish intilish johilona inkor etilardi. Bunday harakat vakillari "xalq dushmani" sifatida shavqatsiz jazoga giriftor bo'lishgan. Navro'z, Ramazon, Qurbon O'ayiti kabi ko'plab muqaddas milliy bayramlar taqiq etilgan edi. Amir Temur, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad al-FarQoniy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamahshariy, Xoja Ahrori Valiy, Abdulxoliq o'ijduvoni kabi buyuk ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid CHO'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Usmon Nosir kabi milliy-ozodlik

harakati fidoyilarining nomlarini xalqimiz xotirasidan o'chirib tashlashga harakat qilinar edi.

Yettinchidan, o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan Markaziy Osiyodagi barcha milliy respublikalar polietnik respublikalar bo'lib, milliy siyosat borasida nihoyatda ehtiyotkorona yo'l tutish lozim edi. Milliy negizdagi ayrim kelishmovchiliklar, ziddiyatlar sobiq ittifoq parchalanishi arafasida yuz berib ham ulgurgan edi.

Sakkizinchidan, XX asr intihosida insoniyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotidagi, ilm-fan va texnika sohasidagi keskin o'zgarishlar jamiyat hayotining diniy sohasini ham chetlab o'tmadi. Shu bilan birga bu davrda diniy qadriyatlarning uyg'onish davri, uzoq davom etgan ateistik siyosatdan so'ng diniy ma'naviyatga o'ziga xos tarzda qaytish davri ham bo'lib qoldi. Markaziy Osiyodagi barcha milliy respublikalarda aholining asosiy qismi musulmon bo'lgani holda ularda turli diniy jamoa vakillari yashab keladi. Davlat va diniy tashkilotlar o'rastdagi munosabatlarni tartibga solish, turli diniy konfessiyalar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan hayotiy tajriba yo'q edi.

2. Markaziy Osiyo hududining tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va imkoniyatlari. Markaziy Osiyo o'z hududi, joylashgan o'rni, geostrategik, tabiiy-fizik imkoniyatlari zamonaviy xalqaro siyosatning muhim ahamiyat kasb etadigan nuqtasi hisoblanadi. Sobiq ittifoq qulagach xalqaro huquqning to'laqonli subyekti sifatida mintaqa davlatlari xalqaro maydondagi rang-barang integratsion jarayonlarda faol ishtirok etishmoqda. An'anaviy "Qozog'iston va O'rta Osiyo" atamasidan voz kechildi.

Markaziy Osiyo o'z hududi, joylashgan o'rni, geostrategik, tabiiy-fizik imkoniyatlari zamonaviy xalqaro siyosatning muhim ahamiyat kasb etadigan nuqtasi hisoblanadi. Sobiq ittifoq qulagach xalqaro huquqning to'laqonli subyekti sifatida mintaqa davlatlari xalqaro maydondagi rang-barang integratsion jarayonlarda faol ishtirok etishmoqda. O'zining aholisi, ishchi kuchi, hududi, tabiiy zahilari, transport logistikasi, yuksak fan-texnikasi taraqqiy etgan Xitoy, Hindiston, Rossiya, Yaqin Sharq mintaqalarini tutashtiruvchi bo'g'in sifatida ham Markaziy Osiyo muhim ahamiyat kasb etadi. Afg'oniston bilan qo'shib hisoblaganda 4.5 million kv.km maydonga ega bo'lib, sakson milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi.

Mintaqada joylashgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, geografik-fizik ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak quyidagi manzaraning guvohi bo'lish mumkin.

Qozog'iston Yevrosiyo materigining markazida joylashgan davlat. Maydoni 2.724 million kv.km teng bo'lib, jahonda 9-o'rinda turadi. Hududi g'arbda kaspий dengizi akvatoriyasidan boshlanib, quyi Volga bo'ylari orqali shimolda Ural tog'larigacha davom etadi. Sharq tomonda G'arbiy Sibir past tekisliklariga tutashadi.

Janubda Qirg'iziston, O'zbekiston va Turkmaniston davlatlari bilan chegaradosh. Mamlakat reliefi rang-barang. Hududning deyarli uchdan bir qismini Dashti Qipchoq cho'llari tashkil qiladi. Tog'oldi dashtlarida chorvachilik rivojlangan. Qozog'iston tabiiy zahiralarga nihoyatda boy. Oltin, kumush, xrom, svinets, volfram zahiralari miqdori jihatidan jahonda yetakchi o'rinni egallaydi. Mamlakatning markaziy qismida mis konlari, nodir metallar ko'plab uchraydi. Shimoliy hududlarida toshko'mir zahiralari joylashgan. Mang'ishloq viloyati atroflari neft-gaz zahiralari juda boy hisoblanadi. Mamlakat iqlimi kontinental xarakterga ega. Yanvar oyidagi o'rtacha temperatura mamlakat shimolida -19° ni takshil etsa, janubiy provinsiyalarda $-3-5^{\circ}$ ni takshil etadi. Iyul oyida esa mos ravishda shimolda $19-20^{\circ}$, janubda $28-30^{\circ}$ ga teng. Bepoyon tekisliklar bag'rida olti mingga yaqin o'simlik turlari o'sadi, besh yuzdan ortiq turdagi qushlar, 180 ga yaqin yovvoyi hayvonlar, suvlarida yuzdan ortiq baliq turlari yashaydi. Umumiy maydoning 5,5 % ini o'rmonlar tashkil qiladi.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning qoq o'rtasida joylashgan bo'lib, Markaziy Osiyo davlatlarini tutashtirib turadi. Shimolda Qozog'iston, sharqda Qirg'iston va Tojikiston, janubda Afg'oniston, g'arbda Turkmaniston davlatlari bilan chegaralanadi. O'zbekiston tabiiy minerallar zahiralarga nihoyatda boy. Yuzga yaqin turdagi mineral qazilma turlari uchraydi. Oltin, kumush, xrom, svinets, volfram, uran zahiralari miqdori jihatidan jahonda yetakchi o'rinlarni egallaydi. Markaziy Osiyoda mavjud gaz kondensatlarining 74% i, tabiiy gaz zahiralari 40 % i, toshko'mirning 55 % i O'zbekistonga to'g'ri keladi. Uran zahiralari bo'yicha jahonda oltinchi o'rinda turadi. Umumiy maydonning katta qismini sahrolar tashkil qiladi. Iqlimi va unumdor tuprog'i dehqonchilik uchun nihoyatda qulay.

Tojikiston Markaziy Osiyo mintaqasining janubiy-sharqida joylashgan. Hududi g'arbdan sharqqa 700 km, shimoldan janubga 350 km cho'zilgan bo'lib maydoni 142 ming kv.km ni tashkil qiladi. Mamlakatni turli tomonlardan Qirg'iziston, O'zbekiston, Afg'oniston va Xitoy davlatlari o'rab turadi. Mamlakat hududining katta qismi Pomir-Oloy tog' tizmalariga to'g'ri keladi. Tog' qismi mamlakat umumiy maydonining 90 % ini tashkil etadi. Turli-tuman tabiiy qazilmalarga ega. Svinets, molibden, volfram, mis, oltin, kumush, uran, temir rudalari aniqlangan. Shuningdek sanoat va qurilish sohalarida ishlatiladigan qator qazilmalar ko'plab uchraydi. Shuni aytilish lozimki ayni damda mamlakat gidroenergetik manbalarga juda boy. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining katta qismini GES lar beradi. Iqlimi subtropik xarakterda ba'zi mavsumlarda keskin o'zgarib turadi. Tog'li hududlarda havo keskin darajada pasayib ketadi. Mintaqaning o'simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda rang-barang. 4500 dan ortiq turli tuman o'simlik turlari uchraydi.

Mamlakatda, yengil sanoat, to'qimachilik sanoati, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalari keng rivojlangan. Shuningdek rangli metallar jumladan alyuminiy ishlab chiqarish, metallurgiya sanoati qo'lga qo'yilgan. Eksport qilinayotgan mahsulotlarning asosiy qismini ham alyuminiy, oltin, to'qimachilik mahsulotlari tashkil etadi. Import eksportga nisbatan 3.2 marotaba yuqori ko'rsatkichni tashkil qilib kelmoqda¹.

Qirg'iziston Markaziy Osiyo mintaqasining shimoliy-sharqida joylashgan. Tojikiston, O'zbekiston, Qozog'iston va Xitoy davlatlari bilan chegaralanadi. Tyan-Shan va Pomir-Oloy tog' tizmalarida joylashgan. Mamlakat hududining katta qismini tog' tizmalari tashkil qiladi. Unda foydali tog' jinslari ko'plab uchraydi. Turli xil kristallar, marmar, slanets, oltin, molibden, temir rudalari konlari uchraydi. Tog'li hududlar ko'pligi sabab gidroenergetik manbalar salmoqli o'rin egalaydi. Sanoat rivoji nihoyatda patligicha qolmoqda. Ayniqsa transport logistikasi juda qoloq. Ittifoq qulashi sabab ishlab chiqarish ikki barobar pasayib ketdi. Bu muammolarning yechimi bilan bog'liq islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsada hayotda to'la o'z ijrosini topganicha yo'q. 2018-yilgi hisob-kitoblarga qaraganda eksport 1,765 milliard dollarni (AQSH) tashkil qilgan bo'lsa, import 4,907 milliard dollarni tashkil qilgan².

Turkmaniston davlati Markaziy Osiyoning janubiy-g'arbidan joylashgan. Janubda Eron va Afg'oniston bilan, shimolda Qozog'iston, shimoliy-sharqda O'zbekiston bilan tutashgan. Mamlakatning g'arbiy chegaralarini Kaspiy dengizi yuvib turadi. Mamlakat hududining sakson foizdan ortig'ini Qoraqum sahrosi tashkil qiladi. Tog' tizmalari kam uchraydi. Lekin bu sahrolar tabiiy zahiralarga nihoyatda boy hisoblanadi. Uning bag'rida neft, gaz, oltin, oltingugurt konlari ko'plab uchraydi.

Yalpi ijtimoiy mahsulot tarkibining 34 % ini sanoat ishlab chiqarishi tashkil etgani holda qishloq ho'jaligining hissasi 10 % ga to'g'ri keladi. Xususiy lashtirish faqatgina ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohalarida mavjud. Sanoat, transport, aloqa, energetika hozirgacha davlat sektori tarkibida qolmoqda. Yoqilg'i-energetika mahsulotlarini eksport qilish hajmi bo'yicha mamlakat jahonda to'rtinchi o'rinda turadi. Shunday ekan neft va gazni qayta ishlash sanoati yuksak taraqqiy etgan. Lekin bu mahsulotlarni chetga jo'natishga imkon beruvchi transport kommunikatsiyasi yaxshi rivojlanmagan. Bu jarayonda mamlakat Rossiya xizmatidan foydalanishga majbur. 2010-yilda Eron bilan quvur transporti ishga tushirildi. Turkmaniston-Afg'oniston-Pokiston-Hindiston (TAPI) quvur transporti qurib bitkazilishi bilan bog'liq muammolar ko'p. Albatta avvalo Afg'onistonda barqarorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati tez rivojlanmoqda. O'tgan

¹ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Таджикистан](https://ru.wikipedia.org/wiki/Таджикистан)

² [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Киргизия](https://ru.wikipedia.org/wiki/Киргизия)

yili eksport hajmi 7,1 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, import 3,35 milliard dollarga teng keldi. Shuni hisobga olish lozimki eksport tarkibining 83 % ini neft-gaz mahsulotlari tashkil qilgan.

Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining jahonning yetakchi davlatlarining e'tiborini o'ziga jalb qilganligini kuyidagi omillar bilan izohlashimiz mumkin:

- ushbu davlatlar Yevrosiyaning juda muhim geostrategik ahamiyat kasb etadigan qismida joylashgan. Bu hududidan eng muhim avtomobil yo'llari, temir yo'llar va xavo kommunikatsion liniyalari o'tadi. Hind, Xitoy, umuman Sharq mamlakatlarini G'arb bilan bog'lab turadi;

- hudud qator tabiiy-geografik imkoniyatlarga ega. Mintaka katta mikdorda qimmatli metallar xom —ashyosi va energetik resurslarga ega, ayniksa Kaspiydagi neft va gaz zaxiralari e'tiborga molik;

- bu mintaka hozirgi paytgacha to'liq egallab olinmagan katta xajmdagi ichki bozorga ega;

- bu davlatlarning ishlab chiqarish va kommunikatsiya tarmoqlarini nazorat qilish orqali, mintaqadagi davlatlar bilan savdoda qulay imkoniyatlarga ega bo'lish mumkin;

- mintaka juda katta mikdordagi investitsiyalarni o'zlashtira oladi, ayniksa xom —ashyo qazib olish va eksport qilish tarmoqlari;

- ko'p yillik Rossiya ta'sirining pasayishi, bu mintaqada boshqa davlatlar uchun o'z faoliyatini faollashtirish va o'z ta'sir doirasiga olish imkoniyatini yaratmokka.

Mintakada o'z manfaatlariga ega bo'lgan davlatlarning Markaziy Osiyoga va bu yerda kechayotgan integratsiyey jarayonlarga nisbatan yondashuvlari ma'lum bir tamoyillar asosida olib borilmokka. Ular orasida «geosiyosiy mintakaviylik» tamoyili yakkol ajralib turadi. Bu tamoyil Markaziy Osiyo mintakasini yagona geosiyosiy makon, umumiy siyosiy va iqtisodiy manfaatlariga ega bo'lgan xudud sifatida karash imkonini beradi.

3. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan tashqi siyosatidagi tub burilishlar. Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq ishlab chiqilgan quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilmoqda.

Birinchidan, o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

Ikkinchidan, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

Uchinchidan, mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

To'rtinchidan, xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;

Beshinchidan, tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

O'zbekiston dunyo uchun ochiq. Xalqaro hamkorlik O'zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun eng yaxshi kafolatdir. O'zbekiston kapital sarflash nuqtai nazaridan ham, dunyo miqyosidagi keng qamrovli xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida mintaqada barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan ham borgan sari e'tiborga sazovor bo'lib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi kabi xalqaro tuzilmalar bilan aloqalarni yangi bosqichda davom ettirmoqda. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorligimiz tiklandi, Yevropa investitsiya banki bilan sheriklik aloqalari o'rnatildi. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalar banki bilan o'zaro hamkorlik samarali tus olmoqda"¹

XX asr oxirida dunyoda geografik-siyosiy ahamiyati va ko'lami jihatidan noyob o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda vujudga kelgan qarashlar va ularning mexanizmlarini chuqur o'ylab ko'rishni, balki ko'p jihatdan qayta baholashni ham talab qiladi. "Sovuq urush" davrida xalqaro munosabatlarga asos bo'lgan ko'p qoidalar, tamoyil va g'oyalarni tubdan qayta ko'rib chiqish talab qilinmoqda. Biz uchun mustaqillik - o'z erkinligimizni anglashgina emas, balki avvalo o'z hayotimizni o'z irodamiz bilan va milliy manfaatlarimizni ko'zlagan holda tashkil etish, o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurish huquqidir.

O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning turli subyektlari bilan aloqalari qanchalik chuqur va keng ko'lamli bo'lsa, ular bilan munosabatlarda noaniqliklar, yotsirashlar, muammolar va hal qilinmagan masalalar, kutilmagan voqea-hodisalar shunchalik kam bo'ladi.

Jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuv haqida gap ketganida, eng avvalo, Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida ishtirok etish nazarda tutiladi. Bunday obro'li xalqaro tashkilot ishidagi o'z ishtiroki bilan O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlashning keskin muammolariga jahon jamoatchiligi e'tiborini qaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hozirgi paytda umumiy xavfsizlik muammosiga aloqador bo'lgan xalqaro tashkilotlar g'oyat xilma-xil bo'lishiga qaramay, faqat BMTgina xavfsizlikni saqlash va ta'minlashga xizmat

¹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2018.-86 б.

qiladigan, oldini olishga qaratilgan diplomatiyadan tortib to tinchlik o'rnatishga qaratilgan operatsiyalarda qatnashishgacha bo'lgan vositalarning hammasiga ega.

Shu o'rinda BMTning integratsiya sohasidagi imkoniyatlari g'oyat ulkanligini va uning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari bu imkoniyatlarning tashkil etuvchilari hisoblanishini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekiston mazkur tashkilotlar bilan bugungi kunning o'zidayoq samarali hamkorlikni rivojlantirmoqda.

Yevropa Ittifoqi. O'zbekiston — Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlar mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan beri jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. 1996-yilda sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimning imzolanishi ikki tomonlama aloqalarni kengaytirishga asos bo'lib xizmat qildi. Mazkur bitim siyosiy muloqot, savdo, biznes, investitsiya, intellektual mulkni himoya qilish, qonunchilik va iqtisodiyot, demokratiya hamda inson huquqlari, noqonuniy immigratsiyaga qarshi kurashish, gumanitar sohalaridagi hamkorlikni qamrab olgan. Bitim doirasida Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston bir-birini qo'llab-quvvatlashi, import hamda eksport qilinayotgan mahsulotlarga nisbatan bojxona yig'implari, shuningdek, boj to'lovlarida preferensiyalar berishi bo'yicha qator majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan.

2007-yildan beri Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston har yili inson huquqlari, odil sudlov hamda boshqa masalalar yuzasidan Bryussel va Toshkentda muloqot o'tkazib keladi. Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan munosabatlari mazkur tuzilmaning Markaziy Osiyo bo'yicha strategiyasida ham o'z ifodasini topgan. Unda hamkorlikning umumiy maqsadlari, siyosiy muloqot va Yevropa Ittifoqi ishtirok etishi mumkin bo'lgan ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan.

Yevropa Ittifoqi tomonidan O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan sud tizimi, davlat boshqaruvi hamda xavfsizlik sohasida tub islohotlar qo'llab-quvvatlanmoqda. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashning ta'sirchan institusional hamda huquqiy mexanizmlari joriy qilinayotgani ham diqqatga sazovor. O'z navbatida, ishbilarmonlik va investitsiya muhiti yanada yaxshilanmoqda. Ushbu islohotlar xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotir. Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan hamkorligi turli darajadagi, jumladan, Yevropa parlamenti vakillari, YEIning Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili, Yevropa moliya institutlari, Yevropa tashqi aloqalar xizmati hamda Yevropa Komissiyasi rasmiy xodimlarining ko'p sonli tashriflari bilan yanada rivojlanib bormoqda. Jumladan, shu yilning aprel oyida mamlakatimizga tashrif buyurgan Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Peter Burian YEI 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlashga tayyorligini ma'lum qildi. O'zbekistondagi islohotlar nafaqat Yevropa Ittifoqi, ayni paytda qo'shni davlatlar bilan ham hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. YEI O'zbekistonning Markaziy Osiyo

mamlakatlari bilan chegara va boshqa masalalardagi hamkorligini yuqori baholaydi. Bu mintaqaviy hamkorlik bo'yicha loyihalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur loyihalar ta'lim sifatini yuksaltirish, qonun ustuvorligi va xavfsizlikni ta'minlash, barqaror rivojlanishga ko'maklashish hamda tabiat resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan. Masalan, 2017-yil fevral oyida Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasida qayta tiklanadigan energiya sohasida hamkorlik bo'yicha anglashuv memorandumi imzolandi. Shu bilan birga, bugun O'zbekistonda Yevropa ittifoqi davlatlaridan investitsiyalar ishtirokidagi mingdan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizda Yevropa ittifoqi Komissiyasining texnikaviy ko'magida biznes va turizmni rivojlantirish, transport logistikasi, chegaralarni boshqarish, giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish, xavfsizlik hamda boshqa yo'nalishlarda 25 ta loyiha va 10 ta hududiy loyiha samarali ro'yobga chiqarilayotir.

Jamoaviy havfsizlik shartnomasi tashkiloti mintaqaviy xalqaro tashkilot. Ishtirokchi a'zo davlatlarning suvereniteti, hududiy yaxlitligini jamoaviy himoya qilish, mintaqada, xalqaro maydonda barqarorlik va havfsizlikni himoya qilishga qaratilgan. JHSHT (ODKB- Organizatsiya Dogovora o kollektivnoy bezopasnosti) ning vujudga kelishi 1992-yilda sobiq ittifoq hududi o'rnida vujudga kelgan mustaqil davlatlar Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va O'zbekiston tomonidan asos solindi. 1993-yilda JHSHT ga Azorbayjon, Belarus va Gruziya qo'shildi. Keyinchalik Ozarbayjon, Gruziya va O'zbekiston tashkilotdan chiqib ketishdi.

JHSHT o'z faoliyatini olib borishda quyidagi tuzilmalari orqali harakat qiladi.

Jamoaviy Havfsizlik Kengashi tashkilotning oliy organi hisoblanadi. Uning tarkibiga ishtirokchi a'zo davlatlar rahbarlari kirgan. Kengash tashkilot maqsad va vazifalaridan kelib chiqadigan ustuvor vazifalarning yechimi bilan shug'ullanadi.

Tashqi ishlar vazirlari Kengashi tashkilotning ijrochi, maslahatchi organi bo'lib, undagi ishtirokchi davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatlarini muvofiqlashtirish masalalari bilan shug'ullanadi.

Mudofaa ishlari vazirlari Kengashi tashkilotning ijrochi, maslahatchi organi bo'lib, ishtirokchi davlatlarning harbiy sohadagi, harbiy-texnik sohadagi faoliyatlarini muvofiqlashtirish masalalari bilan shug'ullanadi.

Havfsizlik kengashi kotiblari qo'mitasi tashkilotning ijrochi, maslahatchi organi bo'lib, ishtirokchi davlatlarning milliy havfsizligi masalalari bilan shug'ullanadi.

JHSHT doimiy Kengashi tashkilot faoliyati maqsad va vazifalardan kelib chiqib yuritish, tashkilot organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash bilan shug'ullanadi. Doimiy Kengash ishtirokchi davlatlarning vakolatli

vakillaridan tashkil etiladi. Shuningdek tashkilotning Bosh kotibi, Sekretariati va Birlashgan shtabi ham faoliyat yuritadi.

O'zbekiston bu tashkilot safida 1992- yil 15- maydan 1999- yil 2- aprelgacha, ikkinchi bor 2006- yil 16- avgustdan 2012- yil 28- iyungacha bo'lgan. O'zbekistonning Tashkilotdan chiqib ketishiga qator sabablar turtki berdi. Avvalo shuni aytish kerakki, tashkilot MDH hududidagi bironta harbiy to'qnashuvlarni ijobiy tomonga o'zgartira olmadi. Tojikistonda uzoq yillar davom etgan fuqarolar urushi minglagan insonlarning qurbon bo'lishiga, qanchadan-qancha insonlarning yashash joylarini tashlab chiqishiga sabab bo'ldi. JXSHT o'zining bironta kengashi bu joylardagi hech bo'lmaganda tinch aholi muammolari bilan shug'ullanmadi.

Ikkinchidan, Tog'li Qorabog' masalasida ham shuni aytish mumkin. Sobiq ittifoq davridayoq boshlangan mojaro bugungacha o'z yechimini topmasdan kelmoqda. Davom etayotgan harbiy mojarolarning yechimida JXSHT ning ishitroki umuman ko'zga tashlanmadi. Tashkilotning asosiy richaglari qo'lida turgan Rossiya harbiy harakatlarni hal etishdan ko'ra o'zining geostrategik manfaatlarini himoya qilishni ma'qul ko'rib keldi. Tog'li Qorabog'da qanday aholi toifalari yashashidan qat'iy nazar hudud huquqiy jihatdan Ozarbayjonga tegishli ekani kunday ravshan.

Uchinchidan, Kavkazdagi Abxaziya, Janubiy Osetiyada davom etayotgan separatistik harakatlarning hal etilishida JXSHT faol harakat qilmadi. Tashkilotning asosiy ishitrokchisi bo'lmish Rossiya mojarolarni bir tomonlama hal etishga kirishdi. O'z-o'zidan savol tug'iladi tashkil etilgan tashkilot faqatgina NATO qarshi kurashda asqotishi kerakmi?

To'rtinchidan, JXSHT qator yig'ilishlarida ko'rilayotgan qator masalalar mamlakatimizning milliy suverenitetiga zid keldi: yagona harbiy havo hujumidan mudofaa tizimini barpo etish g'oyasi; ishtirokchi davlatlarning harbiy qurolli kuchlari tizimini zamonaviy harbiy texnikalar bilan ta'minlash tizimi; harbiy kadrlar tayyorlash va sh.k. Ko'rinib turibdiki tashkilot muayyan bir davlatning milliy manfaatlarini doirasidan kelib chiqib harakat qilishi maqbul emas.

GUAM – Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon, Gruziya davlatlari tomonidan tashkil etilgan mintaqaviy tashkilot. Tashkilot nomi ishtirokchi davlatlar nomining birinchi havfidan olingan. O'zbekiston qo'shilishi bilan tashkilot nomi bir oz o'zgarib turgan – GUUAM. 1990-yillarning o'rtalariga kelib MDH istiqboli bilan bog'liq turli qarashlar, takliflar vujudga keldi. Birinchisi MDH doirasida oldingi integratsion jarayonlarni saqlab qolishga intilish, ijtimoiy reallikda o'z aksini topgan hujjatlarni qabul qilish, rasmiy uchrashuvlarni davom ettirish. Ikkinchisi, ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini mushtarak bo'lgan, umumiy barqarorlik, havfsizlikning ta'min etilishidan manfaatdor bo'lgan ayrim davlatlar bilan amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish. Aynan ushbu sabablar GUAM ning vujudga kelishiga turtki berdi. Bu tashkilot ishtirokchilari Yevropa darajasidagi, xalqaro maydondagi turli tashkilotlar bilan teng

va keng hamkorlikning yo'lga qo'yilishidan nihoyatda manfaatdor edilar. Ikkinchi tomondan esa bu davlatlar qator sohalarda, ayniqsa transport kommunikatsiyasi sohasida Osiyo-Kavkaz-Yevropa margrutini barpo etish orqali Rossiyaga tobelikka chek qo'yishga intilishdi.

1997-yil oktabrda Yevropa Kenegashining Strasburgdagi sammiti doirasida Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon va Moldova davlatlari prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tadi. Unda GUAM ga asos solindi. 1999-yilda unga O'zbekiston qo'shildi.

O'z faoliyati davomida GUUAM mustahkam, ishonchli uyushma bo'lib chiqmadi. Xalqaro maydonda sodir bo'layotgan qator voqealar tashkilotning mavqeini tushishiga sabab bo'ldi. Ishtirokchi davlatlarning transport logistikasi sohasini e'tiborga oladigan bo'lsak GUAM ga O'zbekiston hududiy jihatdan umuman tutash emas edi. Shuningdek belgilangan rejalarning amalga oshishiga a'zo davlatlardan Gruziya va Moldovaning urush holatida ekani keskin to'sqinlik qildi. 2005-yilga kelib O'zbekiston rasman bu tashkilotdan chiqqanini e'lon qildi.

Tayanch so'z va iboralar:

Markaziy Osiyo, MDH, TAPI, ko'p qutbli dunyo, totalitarizm, separatizm, SHHT, fundamentalizm, IKT, GUAM, JHSHT

Takrorlash uchun savollar

1. Markaziy Osiyo atamasi to'g'risidagi qanday talqinlarni bilasiz?
2. Mustaqillikdan keyingi davrda vujudga kelgan qanday iqtisodiy, ijtimoiy, demografik muammolarni bilasiz?.
3. Mustaqillikdan keyingi davrda vujudga kelgan qanday transport-kommunikatsiyaviy, etnik, mavkuraviy muammolarni bilasiz?.
4. Markaziy Osiyo hududining tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va imkoniyatlari?
5. JHSHT faoliyatining salbiy jihatlari nimada?
6. GUAM tashkiloti qanday sabablarga ko'ra faoliyati samarasiz bo'ldi?
7. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan tashqi siyosatidagi tub burilishlar to'g'risida nimalar bilasiz?

16-mavzu: YANGI MING YILLIKDA MARKAZIY OSIYODA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VAZIFALARI

Reja:

1. Markaziy Osiyo davlatlariga xavf solayotgan asosiy tahdidlar: suv resurslaridan foydalanish; atrof-muhit degradatsiyasi, millatlararo to'qnashuvlar, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik, xalqaro terrorizm.
2. Afg'oniston - MO xavfsizligiga asosiy tahdid. MO xavfsizlikning ta'minlashda xalqaro tashkilotlarning tutgan o'rni.
3. Ijtimoiy hamkorlik –muammolarning echimining asosiy omili sifatida. Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash masalalari.

1. Markaziy Osiyo davlatlariga xavf solayotgan asosiy tahdidlar: suv resurslaridan foydalanish; atrof-muhit degradatsiyasi, millatlararo to'qnashuvlar, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik, xalqaro terrorizm. Bugungi Markaziy Osiyo juda boy tabiiy - xom ashyo zaxiralari, cheksiz bozor va sarmoya sarflanadigan muhim voha hisoblanadi. Uning maydoni, unumdor yeri, iqlimi, sersuv daryolari, tabiiy zahiralari, transport kommunikativ tizimi, G'arb va Sharqni, Shimol va Janubni bog'lovchi mintaqa ekanligi albatta qator siyosiy kuchlarni qiziqtiradi. 2017-yil 10-noyabrda Samarqand shahrida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlangan nutqida Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Markaziy Osiyo – bu haqiqatdan ham noyob imkoniyatlar va hali ishga solinmagan ulkan salohiyat va imkoniyatlarga ega bo'lgan mintaqadir"¹. Sayyoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati ko'p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar qaysi yo'ldan borishlariga bog'liq. Hozir xalqaro munosabatlarning sifat jihatidan yangicha tartibini shakllantirish jarayonida ishtirok etayotganlar kuchlar buni e'tirof etmasliklari mumkin emas. Albatta jahonda jadal rivojlanayotgan sanoat, unga sarflanayotgan tabiiy zahiralari, zarur transport tizimi, yangi bozorlarni o'rganish nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak Markaziy osiyo davlatlarining imkoniyatlari chuqur tahlil qilinmagan. Bu o'rinda boy tabiiy resurs konlari, neft, gaz, oltin, uran, nodir uglevodorodlar, ayniqsa Kaspiy basseynining zaharalari cheksiz ahamiyat kasb etadi. G'arbning qator manbalarida keltirilishicha Markaziy Osiyo hududida aniqlangan neft-gaz konlari zahiralari jahondagi umumiy zaharalarning 2,6 % ini tashkil qiladi. Energiya iste'moli kun sayin ortayotgan

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2018.-274 b.

hozirgi paytda bu ko'rsatkichlar nihoyatda ahamiyat kasb etadi. Shu sabab Markaziy Osiyo tabiiy, yoqilg'i-neft zahiralarining insoniyatning kelajakdagi iqtisodiy taraqqiyoti uchun qay darajada muhimligi geosiyosiy jihatdan jiddiy ziddiyatlarning sababiga aylanib qolmoqda. Masalaning bu jihati hususida Sh.Mirziyoyev ko'rsatib o'tganidek "Ayni paytda Markaziy Osiyoda qudratli davlatlarning manfaatlari kesishmoqda, beqarorlik va qarama-qarshilik o'choqlariga tutash bo'lgan ushbu mintaqa yaqin va uzoq xorijda ro'y berayotgan barcha salbiy jarayonlar ta'sirini his etmoqda"¹.

O'zbekiston uchun uning keng ma'nodagi milliy xavfsizligi nimani anglatadi, biz bu xavfsizlikni qanday tasavvur qilish lozim?

Birinchidan. O'zbekiston xavfsizlikning yaxlitligi haqidagi asosiy tamoyillardan birini to'la qo'llab - quvvatlaydi. Xavfsizlik - uzluksiz holatdir, hadsiz - hududsizdir.

Ikkinchidan. "Sovuq urush" barham topganidan keyin yalpi xavfsizlikka asosiy tahdidni etnik, mintaqaviy, mahalliy mojarolar va davlatlar ichidagi jangari separatizm solmoqda. Ayniqsa, bunday qarama - qarshiliklar ayrim mamlakatlar qo'lida ularning o'z manfaatlarini va ta'sir doiralarini saqlab qolish va himoya qilish uchun yoki strategik kuchlar muvozanatini o'z foydalariga o'zgartirish uchun qudratli siyosiy ta'sir vositasiga aylanmoqda. Har qanday mintaqaning hal qilinmagan va gazak olib ketgan muammolari butun dunyoda zanjir reaksiyasini keltirib chiqarishi mumkin. Vaziyatning beqarorlashuvi esa kundan - kunga aniq - ravshan bo'lib borayotgan yangi jeografik - siyosiy muvozanatni buzish xavfini keltirib chiqaradi.

Uchinchidan. O'zbekiston o'zining geografik - siyosiy holati jihatidan jamoaviy xavfsizlik tizimi izchil yo'lga qo'yilmagan mintaqada joylashgan. Bu ham tahdid tug'diruvchi sababdir. Yuqorida aytilganidek O'zbekiston amalda Fors ko'rfazi, Kaspiy dengizi havzasi va Tarim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim halqaning strategik markazidir. YA'ni, bu yarim halqa atrofida butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida yaqin yillarda Yevroosiyo va jahon kelajagi uchun hal qiluvchi rol o'ynaydigan energiya zaxiralari mavjud.

To'rtinchidan, yana bir tahdid manbai shu bilan bog'liqki, O'zbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan mamlakatlar qurshab turibdi. Buning ustiga, yurtimiz mintaqadagi diniy ekstremizm, etnik murosasizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag'batlantirib kelinayotgan, ichki mojaro avj olgan Afg'oniston kabi beqarorlik o'chog'i bilan chegaradosh. Besh yildirki, qo'shni Tojikistonda fuqarolar urushining keng yoyilib ketish xavfi ham saqlanib kelmoqda. Bu davlatlarda xorijdagi eng ko'p sonli hammillatlarimiz istiqomat qilib turganligini hisobga olmaslik mumkin emas.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2018.-264 b.

Beshinchidan, mintaqaviy nizolar ko‘pincha terrorizm va zo‘ravonlik, narkobiznes va qurol - yarog‘ bilan qonunsiz savdo qilish, inson huquqlarini ommaviy suratda poymol etish kabi xavfli tahdidlarning doimiy manbaiga aylanib bormoqda. Bunday hodisalar davlat chegaralarini tan olmaydi.

Oltinchidan, Markaziy osiyoda ekologik va yadroviy xavfsizlik muammolari alohida e‘tiborni talab qiladi. Biz Markaziy Osiyo mintaqasi yadroviy qurollardan xoli hudud deb e‘lon qilinishiga erishmoqchimiz. Ayrim qo‘shni davlatlar yadro quroliga ega bo‘lishga oshkora intilayotganligi bizni ayniqsa tashvishga solmoqda. Nima bo‘lganda ham Markaziy Osiyoni qurshab turgan mamlakatlar asosan yadro quroliga ega mamlakatlar hisoblanadi.

Ko‘rinib turibdiki, hozirning o‘zidayoq ko‘zga tashlanayotgan va keyinchalik vujudga kelishi mumkin bo‘lgan xavf - xatarlar ko‘lami keng. Mintaqaviy mojarolarning oqibatlari ancha sezilarli shaklga ega. Umuman olganda asarda ko‘rsatib o‘tilganidek mintaqaviy mojarolarning, ekstremizm va terrorizmning, buyuk davlatchilik shovinizmining mintaqamiz havfsizligiga tahdidi juda katta. Agar I.Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asariga diqqat bilan nazar tashlaydigan bo‘lsak quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin: birinchidan, I.Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asari” da yangi ming yillik arafasida insoniyatni kutayotgan keng qamrovli global muammolarni ilgari surilishi, tahlil etilishi, ularni oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularni bartaraf etish borasidagi vazifalarning yoritilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, biz yashayotgan mintaqaning geostrategik, geosiyosiy manfaatlari nuqtai nazaridan har bir masalaning yechimiga e‘tibor qaratiladi. Uchinchidan, tarixni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o‘rtasidagi hamkorlik va ishonch olg‘a harakatlantirishiga alohida urg‘u berilgan, va bu hamkorlikni ta‘minlashdagi vazifalar, uning istiqbollari keng yoritilgan.

2. Afg‘oniston - MO xavfsizligiga asosiy tahdid. MO xavfsizlikning ta‘minlashda xalqaro tashkilotlarning tutgan o‘rni. Afg‘oniston Markaziy Osiyoda joylashgan uzoq qadimiy tarixga ega davlat. Eron, Turkmaniston, O‘zbekiston, Xitoy, Pokiston davlatlari bilan chegaradosh bo‘lib, dunyo okeaniga tutash emas. 2018-yilgi ma‘lumotlariga qaraganda taxminan 31 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi. Negaki mamlakatda aholini rasmiy ro‘yhatga olish imkoni yo‘q. The Asia Foundation tashkiloti tomonidan olib borilgan kuzatuvlarga qaraganda mamlakat aholisining 40 % ini pushtunlar, 33 % ini tojiklar, 11 % ini xazorlar, 9 % ini o‘zbeklar tashkil qiladi. Shuningdek kam sonli turkmanlar, aymoqlar, belujlar hvs istiqosat qiladi. Maydoni 652864 kv.km ge teng. Poytaxti Qobul shahri bo‘lib pushtu va doriy tillari rasmiy til hisoblanadi. Mamlakat sharqdagi Xitoy va Hindni Sharqiy Yevropa, Yaqin

Sharq, O'rta yer dengizi bo'yi mamlakatlari bilan bog'lovchi mintaqada joylashganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Afg'oniston hududida dastlabki odamlar bundan taxminan 5000 yil ilgari yashaganliklari ilgari suriladi. Dastlabki davlat birlashmalari vujudga keladi. Miloddan avvalgi VI asr o'rtalarida Ahamoniylar saltanati tarkibida, keyin Makedoniyalik Aleksandr davlati tarkibida bo'ldi. Aleksandr saltanati qulagach Salavkiylar, keyin Parfiya davlati tarkibiga kirdi. Kushonlar, Eftallar, Turk hoqonligi davrida mintaqada iqtisod, savdo-sotiq yuksaldi.

VII asrdan arab halifaligi tarkibida bo'ldi. Somoniylar davriga kelib islom dini hukmron dinga aylandi. XIII asrga kelib mo'g'ullarga vassal davlatga aylantirildi. Temuriylar davrida Hirot, Qobul, G'azna shaharlari fan va madaniyat markazlariga aylandi. Keyingi davrda hududning katta qismi Safaviylar davlati tarkibiga, bir qismi esa Buxoro xonligi tarkibida bo'ldi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek Afg'oniston Yevrosiyo materigining qulay geostrategik hududida joylashganligi sabab ikkita yirik saltatanat Buyuk Britaniya va Rosiya imperiyalarining tomonidan olib borilgan kurash arenasiga aylandi. Ma'lumki bu kurash tarixda "Katta o'yin" deb nom oldi.

1919-yil 19-avgustda Afg'oniston Omonullo xon tomonidan mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Va tezda uning mustaqilligi Sovet Rossiyasi tomonidan tan olindi. Uning o'g'li Muhammad Zoxir shoh 1933-1973-yillarda davlatni boshqardi. 1973-yilda mamlakatda davlat to'ntarishi sodir etilib monarxiya bekor qilindi, respublika tizimi e'lon qilindi (1973-1978). 1978-yilda sodir etilgan Saur (Aprel) inqilobi Afg'oniston Demokratik respublikasi e'lon qilindi. Hukumat tepasiga Nur Muhammad Tarakiy keldi, Inqilobiy kengashga Hofizullo Amin rahbarlik qildi. Mamlakatda qisqa muddat qator radikal islohotlar boshlandi. Jumladan boshlanib ketgan sekulyarizatsiya jarayonlari an'anaviy afg'on jamiyati turmush tarziga mos kelmadi. Bu islohotlar SSSRda o'tkazilgan islohotlar andozasiga o'tish edi. Shu sabab mamlakatda fuqarolar urushi boshlanib ketdi.

1979-yil sentabr oyida Tarakiy o'ldirildi. Hokimiyatni uning o'rinbosari, suiqasd tashkilotchisi H. Amin egalladi. Mamlakatda terror va zo'ravonlik avj oldi. Aprel inqilobi shu bilan barham topdi. Bu davrga kelib qurolli muxolifat kurashni kuchaytirdi. Ular Amin hukumatini qiyin ahvolga solib qo'ydi. Hukumat qo'shinlari nazorati ixtiyorida faqat Kobul va yana bir nechta shahar qoldi, xolos. Shunday sharoitda Afg'onistonning o'z strategik maqsadlari doirasidan chiqib ketishini istamagan SSSR avantyuraga qo'l urdi.

1979-yil 25-dekabrda SSSRning aralashuvi bilan Amin hukumati ag'darildi. SSSRga sodiq bo'lgan va Pragadagi elchilik vazifasidan Afg'onistonga kelgan Babrak Karmal prezidentlik lavozimiga o'tkazildi. 28-dekabrda SSSR o'z harbiy qismlarini Afg'onistonga kiritdi. Tez orada bu qo'shinlar soni 100 ming kishiga yetdi.

Jahon jamoatchiligi SSSRning bu harakatini qattiq qoraladi. Ayni paytda sovet — amerika munosabatlari yanada keskinlashdi.

Asosan Pokiston hududiga joylashgan muxolifatchi kuchlari AQSH ning zamonaviy qurollari bilan qurollantirildi. SSSR qo'shinlari Afg'onistonda 10 yil turdi. Harbiy operatsiyalarda qatnashdi. Biroq u himoya qilgan rejim hech nimaga erisha olmadi. 15 mingdan ortiq sovet jangchilari halok bo'ldi.

Poytaxt Kobul shahrida AXDP rahbarlaridan biri, 1986-yilda B. Karmal o'rniga kelgan Najibullo hokimiyatni saqlab turdi. Ayni paytda muxolifat kuchlar ham o'z hukumatini tuzdilar. Sibhatullo Mujadaddiy mamlakat prezidenti etib tayinlandi. Muxolifat kuchlar 1992-yilda Najibullo hukumatini ag'darishga muvaffaq bo'ldilar. Shu tariqa SSSRning Afg'onistondagi tayanchi quladi. Jahon jamoatchiligi 10 yil davom etgan va mamlakatni vayronaga aylantirgan, millionlab kishilar boshiga cheksiz kulfatlar solgan urush shu bilan tugadi, deb umid qilgan edi. Biroq bunday bo'lmadi. Afg'onistonda fuqarolar urushi davom etaverdi. Buning sababi muxolifat kuchlar g'alabasidan so'ng ular o'rtasida hokimiyat uchun boshlangan kurash edi. Muxolifat kuchlar Afg'onistonda yashovchi turli etnik hamda diniy guruhlarining vakillari edilar.

Najibullo ag'darilgach, Kobul shahrini birinchi bo'lib general Ahmad Shoh Mas'ud boshchiligidagi tojiklarning qurolli kuchlari egalladi. Shu etnik guruh vakili Burhoniddin Rabboniy esa prezidentlik lavozimini egalladi. Tojiklarning hokimiyatni egallaganligiga pushtunlar lideri Hikmatyor toqat qila olmadi. Boshqa etnik guruhlar esa o'zlari egallab kelayotgan hududda mustahkamlanib ola boshladi. Ba'zilar goh u tomon, goh bu tomon bilan kelishishga intildi. Shu tariqa fuqarolar urushi yangi bir sharoitda davom etdi. Buning oqibatida minglab begunoh tinch aholi halok bo'ldi.

Mana shunday sharoitda Afg'oniston siyosiy hayotida hech kutilmagan yangi siyosiy kuch — tolibonlar (Alloh o'quvchilari) paydo bo'ldi. Ular 1994-yilning noyabr oyida kurash maydoniga chiqdilar. Ular Afg'onistonda jamiyat hayotini sof islom asosida qayta qurish uchun kurashga bel bog'lagan diniy-siyosiy guruh vakillaridir. Ularning katta qismini fuqarolar urushi davrida yetim qolgan bolalar tashkil etardi. Sovet armiyasi Afg'onistonga kiritilgach, ular Pokiston hududida boshpana topgan edilar. Urush davrida Pokistonga qochib o'tgan 5 mln afg'on qochoqlar farzandlarining ham ma'lum qismi tolibon guruhiga jalb etilgan. Tolibonlar Pokiston harbiy mashq maktablarida puxta tayyorgarlikdan o'tganlar. Zamonaviy qurollarning deyarli barchasi bilan mukammal muomala qila olishga o'rgatilgan. Tolibonlar rahnamosi Mulla Umar edi. Tolibonlar Pokiston va Saudiya Arabistoni tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Xalqaro terrorist Usama ben Laden bilan mustahkam aloqa bog'ladilar. To'xtovsiz qonli urushdan charchagan aholining katta qismi ularni qo'llab-quvvatladi. 1996-yilning oktabr oyida tolibonlar Kobul shahrini egalladi. So'ng ular jamiyatni to'la islomlashtirish siyosatini yurita boshladilar.

Dunyoviy maktablar yopildi. Ayollar paranji yopinishga, erkaklar soqol qo'yishga majbur etildi, qarshilik ko'rsatganlar ayovsiz jazolandi. 1997-yilning iyunida ular muxolifat kuchlarni tor-mor etish yo'lida urushni davom ettirdi. Mamlakat hududining 90 foizi tolibonlar nazoratiga o'tdi. Tolibonlarga qarshi kuchlar mamlakat shimoliga siqib qo'yildi. Ular endi birlashishga majbur bo'ldilar. Shu tariqa Shimoliy Alyans deb atalgan ittifoq vujudga keldi.

1980–yillarning oxirlaridan Afg'onistonda narkotik moddalar yetishtirish kuchayib bordi. 1999-yilda Toliblar hukmronligi davrida rekord darajadagi 4600 tonna opium moddasi yetishtirildi. Xalqaro hamjamiyatning noroziligi sabab toliblar bu zahriqotilni yetishtirishni qisman cheklashga majbur bo'lishdi. 2001-yil 11-sentabrda AQSH dagi terroristik harakatlardan Usama Ben Loden Afg'onistondan boshpana topdi. Mamlakatga AQSH boshchiligidagi xalqaro harbiy kuchlarning kiritilishi boshlandi. 2002-yil boshlariga kelib toliblar hukmronligiga chek qo'yildi. Xalqaro tinchlikparvar kuchlar (ISAF) mamlakat hududida nazorat ishlarini olib borayotgan bo'lsada fuqarolar urushi davom etmoqda.

Aytib o'tilganidek Sobiq sovet qo'shinlari Afg'oniston hududini tark etgach u yerda vaziyat baribir tinchimadi. Navbat endi ichki guruhlar o'rtasidagi to'qnashuvlarga keldi. Hozirning o'zidayoq ko'zga tashlanayotgan va keyinchalik vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar ko'lami keng. Mintaqaviy mojarolarning oqibatlarlari ancha sezilarli shaklga ham ega. Ularning davlatlarni milliy iqtisodiyotiga va xo'jalik aloqalariga ta'siri katta. Umuman olganda asarda ko'rsatib o'tilganidek mintaqaviy mojarolarning mintaqamiz havfsizligiga tahdidi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Birinchidan, Afg'onistondagi urush mamlakatning shundoq ham yaxshi rivojlanmagan iqtisodiyotini boshdan - oyoq vayron qildi. Bu urush hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo davlatlariga "iliq dengizlar"dagi portlarga chiqish va shu yo'l bilan jahon xo'jalik aloqalari tizimiga qo'shilish imkonini beradigan yangi transport kommunikatsiyalarini ochish yo'lida asosiy g'ov bo'lmoqda.

Ikkinchidan, qurolli mojaro keskinlashgan taqdirda chegaralarni tan olmasdan, qo'shni davlatlar hududiga "yopirilib kirish"ga tayyor turgan qochoqlar muammosi vujudga keladi.

Uchinchidan, Afg'oniston cho'zilib ketgan mintaqaviy mojarolar salbiy hodisalarni keltirib chiqarmoqda, chegaradosh davlatlar uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bu salbiy hodisalar haqida gapirganda, qonunga xilof ravishda narkotik moddalar olib o'tilishi, xalqaro terrorizm va qurol–yarog' kontrabandasi kabi muammolarga ham to'xtalib o'tish lozim.

To'rtinchidan, Afg'onistonda davom etayotgan fuqarolar urushi hal bo'lishi qiyin kechmoqda. Bu esa mintaqadagi davlatlar, shu jumladan O'zbekiston oldiga terrorizm va qurol-yarog'lar kontrabandasi singari hodisalarning qo'shni davlatlar

hududlariga yoyilishi bilan bog‘liq bo‘lgan yangi va g‘oyat xavfli muammolarni ko‘ndalang qo‘ydi. Endilikda milliy xavfsizlikni va ichki barqarorlikni ta‘minlash darajasi ana shu muammolarni hal qilishga bog‘liq.

O‘zbekiston respublikasi bilan chegaradosh mamlakatlardagi harbiy - siyosiy mojarolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga va ularning oldini olishga qaratilgan har qanday harakatlarni, amaliy qadamlarni qo‘llab - quvvatlab keldi va bundan buyon ham qo‘llab-quvvatlayveradi. Bu yo‘lda mamlakatimiz ham o‘z davlat siyosati doirasida, ham xalqaro tashkilotlar mexanizmlaridan foydalangan holda, mavjud imkoniyatlarni aniq maqsadni ko‘zlab ishga soladi. Butun milliy strategiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri ana shunday mazmun - mohiyatga ega.

Yangi ming yillik arafasida jamiyat hayotining turli sohalarida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar oxiri diniy qadriyatlarning uyg‘onish davri, vazmin, behuda urinishlardan xoli diniy ma‘naviyatga o‘ziga xos tarzda qaytish davri bo‘lib qoldi.

Shu bilan birga, jahon jamoatchiligi bu jarayonlarga juda katta qiziqish bilan qarabgina qolmayapti. Uning diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi keskin hodisalar munosabati bilan bezovtalanayotgani, ba‘zan esa hatto xavfsirayotgani ham ko‘zga tashlanmoqda. Afsuski, hozirgi zamon tarixida ana shu o‘ta keskin ko‘rinishlar jiddiy mojarolarni, ziddiyatlarni keltirib chiqarishi, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solishi mumkinligi insoniyatni cho‘chityapti. Afg‘on fojeasining qator sabablaridan biri aholi katta qismining savodsizligi ham hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT 72-sessiyasidagi nutqida ta‘kidlaganidek “Bugungi sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh Assambleyasining «Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilmoqchiman. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta‘lim olish huquqini ta‘minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashishdan iborat”¹. Albatta bu mojaroning yechimi xalqaro tashkilotlarning ishtirokisiz, yordamisiz o‘z yechimini topishi qiyin.

Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikni ta‘minlashning muhim sharti bo‘lib qoladi. Afg‘onistonda tinchlikka erishishning yagona yo‘li – markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o‘rtasida oldindan hech qanday shart qo‘ymasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot olib borish, hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdir. Bu muzokaralarda afg‘onistonliklarning o‘zlari hal qiluvchi o‘rin tutishi lozim. O‘zbekiston Afg‘onistonning iqtisodiy tiklanishiga, uning transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirishga, milliy kadrlarini tayyorlashga katta hissa qo‘shmoqda va bundan keyin ham hissa qo‘shadi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.-254 б.

3. Ijtimoiy hamkorlik –muammolarning echimining asosiy omili sifatida. Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash masalalari.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab puxta o'ylangan tashqi siyosatni izchil amalga oshirib kelmoqda. Uning zamirida mamlakatimizning, xalqimizning tub manfaatlari, ko'p asrlik tarixi, madaniyati, an'ana va qadriyatlari, ezgu orzu-intilishlari yotadi.

2017–2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasida xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilgan: O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish; davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o'rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish; O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, jaxon hamjamiyatiga mamlakatda olib borilayotgan islohotlar haqida xolis axborot yetkazish; O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatini normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish; davlat chegarasini demilitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish. O'zbekiston tashqi siyosat sohasidagi faoliyatini avvalo xalqimiz, Vatanimiz manfaatlarini har tomonlama hisobga olgan holda amalga oshiradi. Olib boriladigan tashqi siyosatning asosini tinchlikparvarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, muzokaralar yo'li bilan, siyosiy yo'l bilan hal etish tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zlad. Sh.Mirziyoyev o'z nutqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi o'ringa ega bo'lib qolishiga, turli mintaqalarda tinchlikni qaror toptirishda hal etuvchi rol o'ynashiga ishonch bildirdi. Ayni damda O'zbekiston ushbu tashkilotning bosqichma-bosqich isloh etilishi tarafdoridir. Chunki ijtimoiy – siyosiy jarayonlarning jadal rivoji Xavfsizlik Kengashini bugungi kun talablariga mos ravishda isloh etilishi zarur.

Vatanimiz bundan keyin ham Birlashgan Millatlar Tashkilotining yangi rahbariyati tomonidan tashkilotni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni qo'llab-quvvatlaydi, BMTning tuzilmalari bilan hamkorlikni bundan keyin ham izchil davom ettiradi. O'zbekiston bugungi kunda o'zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda.

Bu – har tomonlama chuqur o‘ylab tanlangan yo‘ldir. “Mamlakatimizda qabul qilingan Harakatlar strategiyasiga muvofiq, biz tashqi siyosat sohasida barcha uzoq va yaqin davlatlar, avvalo, qo‘shni mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar bilan do‘stona va o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish siyosatini izchil davom ettiramiz”¹.

Markaziy Osiyoning barcha davlatlarini tutashtirib turuvchi O‘zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. O‘zbekiston o‘zaro muloqot, erkin savdoga asoslangan amaliy hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlashning qat’iy tarafdoridir.

Sh.Mirziyoyevning say-harakatlarimiz tufayli keyingi oylarda mintaqa davlatlari o‘rtasida siyosiy ishonch darajasi sezilarli darajada oshdi. Ko‘plab masalalar bo‘yicha prinsipial jihatdan muhim yechimlar topishga erishildi. O‘zbekiston – Qirg‘iziston, O‘zbekiston - Tojikiston davlat chegaralari to‘g‘risidagi shartnoma imzolaniishi tom ma’noda muhim voqea bo‘ldi. Shunday muzokaralar qolgan davlatlar bilan ham olib borilmoqda.

Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida gap borganida, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o‘tish mumkin emas. Yuqorida qayd etib o‘tilganidek Markaziy Osiyo mintaqasidagi asosiy muammolaridan biri har doim suv zahiralaridan oqilona foydalanish hisrblanadi. O‘zbekiston BMT Bosh kotibining «suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o‘zaro chambarchas bog‘liq», degan pozitsiyasini to‘la qo‘llab-quvvatladi. Suv muammosini hal qilishda mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo‘li yo‘q. Agar XX asr boshlarida mintaqada 5.5 million atrofida aholi yashagan bo‘lsa, XXI asr boshiga kelib 60 milliondan oshdi. Albatta bu omil suv muammosining dolzarbligini yanada oshiradi.

Markaziy Osiyo davlatlari oldida turgan o‘tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokati masalasi hisoblanadi. Qandaydir hajmda dengizni saqlab, qolish suvchekingan maydonlarda obodonchilik ishlarini olib borish alohida bir davlatning imkoniyat darajasida ish emas. Dengizning qurishi bilan bog‘liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi say-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda.

Markaziy Osiyoda barqarorlikni havfsizlikni ta’minlashda Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Prezidenti o‘z nutqida Afg‘onistonda tinchlikka erishishning yagona yo‘li – markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o‘rtasida oldindan hech qanday shart qo‘ymasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot olib borish ekaniga keng jamoatchilik fikrini qaratdi. Muzokaralarda afg‘onistonda istiqomat qilayotgan aholining turli toifa

¹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.-144 б.

vakillari ishtirok etishlari zarur. O‘zbekiston Afg‘onistonning iqtisodiy tiklanishiga, uning transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirishga, milliy kadrlarini tayyorlashga katta hissa qo‘shmoqda va bundan keyin ham hissa qo‘shadi. Afg‘onistonda vaziyatning tiklanishidan albatta qo‘shni davlatlar manfaatdor.

Mintaqa davlatlarining ijtimoiy-siyosiy barqarorligiga, iqtisodiy rivojlanishiga katta havf solayotgan tahdidlardan yana biri ekstremizm va terrorizm hisoblanadi. Bu hodisa havfidan to‘la himoya tizimini yaratgan, o‘zini bunday tahdidlardan xoli biladigan davlat bo‘lmasa kerak. Xalqaro hamjamiyat ekstremizmga qarshi kurashning turli usul va vositalari ustida doimo bosh qotirib keladi. Aksariyat holatlarda xalqaro maydonda terrorizm tahdidlariga qarshi asosan kuch ishlatish yo‘li bilan kurashib kelinmoqda. Aytish mumkinki kurashning faqatgina shu usuli bilan kifoyalanish o‘zini oqlamayapdi. Masalaning yechimiga to‘xtalar ekan Sh.Mirziyoyev shunday ta’kidlaydi: “Bu borada ko‘p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir”¹. Ekstremistik tashkilotlar safida yurganlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tashkil etishi ayanchli hodisa hisoblanadi. Insoniyatning ertangi kuni, barqarorligi, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishiga bog‘liq. Shunday ekan yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun, ularni bilim olishlari uchun, mehnat qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish turli buzg‘unchi g‘oyalarning tarqalishining oldini olishga katta xizmat qiladi.

2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin rivojlangan G‘arb va islom dunyosi o‘rtasidani munosabatlar keskinlashib ketdi. Bu ko‘rinishdagi terroristik hatti-harakatlarni islom dini bilan bog‘lab talqin etish umuman noto‘g‘ri. Islom zo‘ravonlikka asoslangan emas. Islom tinchlik degani. Shunday ekan butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa hisoblanadi. “Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz”². Aynan shu nutqida Prezidentimiz Bugungi sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh Assambleyasining «Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolusiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qildi. Bundan ko‘zlangan

¹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.-251-252 б.

² Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.-253 б.

asosiy maqsad – barchaning ta’lim olish huquqini ta’minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashishdan iborat. Ushbu rezolyusiya bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga katta yordam beradi.

Shunday ekan ushbu qayd etib o‘tilgan muammolarning yechimi faqatgina mintaqa davlatlarining keng qamrovli ishtirokini, hamkorligini taqozo etadi.

Tayanch so‘z va iboralar:

BMT, YUNESKO, Markaziy Osiyo, MDH, TAPI, ko‘p qutbli dunyo, totalitarizm, separatizm, SHHT, fundamentalizm, terrorizm, ekologiya, IKT, ISAF.

Takrorlash uchun savollar

1. O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari?
2. Markaziy Osiyo davlatlariga xavf solayotgan asosiy tahdidlar nimalardan iborat?
3. Mintaqaviy mojarolarning barqarorlikka tahdidi nimalarda namoyon bo‘ladi?
4. Afg‘onistonning Markaziy Osiyo xavfsizligiga tahdidi haqida nima bilasiz?
5. Mintaqada xavfsizlikning ta’minlashda xalqaro tashkilotlarning tutgan o‘rni?
6. Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta’minlash borasida qanday vazifalar belgilab berildi?

17-Mavzu: “YANGI KATTA O‘YIN” KONSEPSIYASI VA UNING GEOSIYOSIY MOHIYATI

Reja:

1. **“Yangi kata o‘yin” konsepsiyasi mohiyati, obykti.**
2. **Markaziy Osiyoda yetakchi davlatlarning strategik manfaatlari.**
3. **Yaqin Sharqdagi geosiyosiy vaziyat**
4. **Ukraina inqirozi va uning xalqaro munosabatlarga ta’siri.**

1. **“Yangi kata o‘yin” konsepsiyasi mohiyati, obykti.** “Yangi katta o‘yin” atamasi (angl. The New Great Game) - hozirgi zamon ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarida Markaziy Osiyoda, Yaqin Sharqda, Kavkazda, Sharqiy Yevropada yuz berayotgan geosiyosiy jarayonlarni tavsiflash uchun ishlatiladi. XIX asrda Markaziy Osiyoda o‘zining hukmronligini o‘rnatish uchun Rossiya va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi raqobatni ifoda etgan “Katta o‘yin” ning o‘ziga xos yangicha ko‘rinishdagi allyuziyasi hisoblanadi. Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha “Yangi o‘yin” asosan

neft ustidan nazorat uchun olib borilayotganini uqtirishga urinishadi. Xalqaro geosiyosiy hatti-harakatlarning yagona obyekti faqat neft deb hisoblash unchalik o'zini oqlamaydi. Albatta neft va gaz zahiralari, uning eksporti bilan bog'liq bo'lgan quvvur transport tizimini nazoratda ushlash, foydali bitimlar tuzish muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin faqat bu omillar bilangina cheklanib qolish unchalik to'g'ri emas. Markaziy Osiyoning qadimdan Buyuk Ipak yo'lining chorrahalarida joylashgani sabab muhim ahamiyat kasb etib kelgani barchaga ma'lum. Shuningdek bu zamin bugungi kunda ham Rossiya, Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq kabi tabiiy zahiralarga, ishchi kuchiga, investitsiyalarga, ulkan bozorlarga boy mintaqalarni bog'lab turuvchi xalqa ekanini hisobga olish darkor. Yaqin Sharq ham o'zining mislsiz neft-gaz zahiralari bilan bir qatorda qulay iqlimi, unumdor yerlari bilan cheksiz imkoniyatlarga ega. Uzoq tarixda Yevropa, Afrika va Osiyoni bog'lab turuvchi "oltin ko'pri" vazifasini bajarib kelgan. Shu kabi qator omillar sabab hududda yirik saltanatlarining, davlatlarning manfaatlari to'qnashib kelgan va bu jarayon yangicha ko'rinish kasb etmoqda.

Dastlab "Yangi katta o'yin" ning asosiy komponenti bo'lib Markaziy Osiyodagi geosiyosiy va geostrategik manfaatlar to'qnashuvi bo'lib chiqdi. 1979-yilning dekabrda sovet qo'shinlarining Afg'onistonga olib kirilishi AQSH ning mintaqadagi vaziyatga aralashuviga olib keldi. Sovet qo'shinlari mintaqada o'z geostrategik manfaatlarini himoya qiluvchi harbiy platsdarmlar paydo qiladi degan fikr AQSH hukmron doiralari xavotirga soldi. Kommunistik tizimning maqsad-rejalariga har qanday yo'l bilan bo'lmasin to'sqinlik qilish, qarshi zarbalar berish, rasmiy Moskva pozitsiyalarini zaiflashtirish uchun AQSH mujohidlarni harbiy-taktik, texnik, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlay boshladi. Shuningdek sovet hukumatining harbiy faollashuvi Eron, Pokiston va Xitoyni ham tashvishga solmasdan qo'ymadi. Gap sovet agressiyasiga qarshi hamkorlikka asoslangan yashirin koalitsiyaning vujudga kelish sabablari haqida ketmoqda.

Ma'lumki "Markaziy Osiyo" atamasi ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarga nemis geografi Aleksandr Gumbolt tomonidan 1843-yilda kiritilgan edi. Sovet davridagi geografik manbalarda O'rta Osiyo deyilganda O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston hududlari tushunilgan. Unga hattoki Qozog'iston ham kiritilman. 1990-yillarga kelib amerikalik siyosatshunos Maykl Mandelbaum bu atamaning mohiyatini butunlay boshqacha talqin etishga kirishdi. Uning fikricha Markaziy Osiyo deyilganda sobiq sovet respublikalari (jumladan Qozog'iston ham), G'arbiy Xitoy (Shinjon-Uyg'ur avtonom o'lkasi), Afg'oniston, Hindiston-Pokiston chegaralari tutash mintaqalar va Mongoliya hududlarini tushunish lozim. Albatta bu mintaqalar halqlari turli davrlarda, ba'zan turli saltanatlar tarkibida hamisha iqtisodiy, madaniy aloqalarda bo'lib kelishgan. Ko'rinish turibdiki, bunday fikrga kelishga qator tarixiy, madaniy, iqtisodiy asoslar mavjud. Ikkinchi tomondan Markaziy Osiyo

hududiy kengliklarini bunday yoritishdan maqsad Rossiyaning Markaziy Osiyoga bo'lgan tarixiy da'vosini yo'q qilish maqsadida sharhlangan bo'lishi ham mumkin.

1991-yil oxirlariga kelib sovet tizimi qulagach AQSH mintaqaga chuqurroq kirib kela boshladi. Mintaqaning qator tabiiy zahiralari izlab topish, mavjudlarini qayta ishlash bo'yicha qator qo'shma korxonalar tashkil etishga kirishildi. Sovet davrida mamlakat hududida tabiiy zahiralarni eksport qilishga qaratilgan yagona transport kommunikatsiyasi yaratilgan edi. 1993-yilda rasmiy Vashington TRASEKA transport loyihasini ishlab chiqdi. Bu loyiha Markaziy Osiyo tabiiy zahiralari tashib ketishda Rossiyani aylanib o'tish imkonini amalga oshirishi lozim edi.

1996-yilga kelib Afg'onistonda hokimiyat tepasiga toliblar kelgach mamlakatdagi turli siyosiy kuchlar, guruhlar umuman nazoratdan chiqib ketdi. Afg'on hududini o'ziga uya qilib olgan qator guruhlar qo'shni davlatlarga ham havf sola boshlashdi. 2001-yil 11-sentabrda Nyu-Yorkda sodir etilgan teraktlardan keyin Afg'onistonga AQSH boshchiligidagi xalqaro kuchlar kiritildi. AQSH ning o'z gegemonligini o'rnatishga intilishi o'z navbatida Rossiya, Xitoy, Eron davlatlarining o'zaro kelishuvini ta'minladi.

2. Markaziy Osiyoda yetakchi davlatlarning strategik manfaatlari. Markaziy Osiyo mintaqasi atrofidagi geosiyosiy jarayonlar sobiq ittifoq parchalangach mana bir necha o'n yillik tarixni bosib o'tdi. Bu davrda yirik siyosiy kuchlarning jahon siyosatining mustaqil subyektlari bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlariga bo'lgan qiziqishlari, bu mintaqada ustuvor imkoniyatga ega bo'lish uchun intilishlari o'ziga xos raqobatni, kurashni boshlanishiga olib keldi. Bu ustuvor mavqe uchun kurashda bir tomondan qachonlardir mavqeni boy bergan Rossiya, ikkinchi tomondan ulkan sanoatga ega bo'lgan Xitoy, uchinchi tomondan mintaqani o'zining ajralmas qismi deb hisoblovchi islom dunyosi va to'rtinchi tomondan qator xizmatlarning eng katta iste'molchisi hisoblangan G'arb dunyosi faol kirishmoqda. Shunday holatda, ushbu tomonlarning mintaqada davlatlari rivojlanishiga ta'sirining nisbati doimo sezilarli o'zgarishlarga duchor bo'lib turdi. Bu davr endigina mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo davlatlarining mustahkamligini sinash davri bo'ldi.

Shu munosabat bilan shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, Markaziy Osiyo faqatgina mintaqada geosiyosiy tenglik va barqarorlik saqlanib qolgandagina bir maromda rivojlanishi mumkin. Shuning uchun mintaqada xavfsizlik ta'minlanishining asosiy ustuvor yo'nalishi mintaqada davlatlarining kuch markazlari ta'siri orbitasiga kirib qolishini neytrallashtirish, islom radikalizmi g'oyalari tarqalishi, mintaqaviy konfliktlar, separatizm kabi tahdidlarni bartaraf etish hisoblanadi.

Dastlabki davrlarda yetakchi kuch markazlarining Markaziy Osiyoga bo'lgan manfaatlari asta-sekin rivojlanib bordi. Bu davrda aksariyat davlatlar mintaqada

davlatlari va uning iqtisodiy potentsiali, mintaqaning geosiyosiy istiqboli haqida tizimli tasavvurga ega emasdilar. Shuning uchun bu davlatlarning mintaqadagi siyosati bilvosita xarakter kasb etib, ularning mintaqaga nisbatan manfaatlari shakllanish bosqichida turardi. AQSH bu davrda asosan ikkita masalada o'z xavotirini bildirgan. Birinchisi, mintaqada (Qozog'iston) yadro qurolining mavjudligi; ikkinchisi, mintaqada antiamekacha, ya'ni despotik yo'nalishidagi siyosiy rejimlarning shakllanish havfining mavjudligi. Shuning uchun, eng avvalo AQSH mintaqadagi yadro qurolini yo'q qilish, yadroviy texnologiyalar elementlarini boshqa davlatlarga sotilishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qildi. Nafaqat AQSH balki qator yirik davlatlar (jumladan yadro quroliga ega davlatlar), xalqaro tashkilotlar sovet yadro kallaklari, yadroviy texnologiyalarni bir necha davlat o'rtasida taqsimlanganidan ko'ra bitta davlat qo'lida yig'ilishini ma'qul bilishdi. 1994-yil 5-dekabrda yadro qurollarini tarqatmaslik majburiyatini kafolatlovchi "Budapesht memorandum" Ukraina, shuningdek Qozog'iston, Belarus respublikalari bilan imzolandi¹. Sovet yadroviy taktik qurollari, yadroviy texnologiyalari Rossiyadan tashqari ushbu respublikalar hududida ham mavjud edi. AQSH ning Markaziy Osiyo mintaqasida antiamekacha g'oyani tarqalishi borasidagi xavfsirashlari mintaqadavlatlari siyosiy rejimlarining dunyoviy yo'nalishdan borishi va Rossiyaning mintaqadagi ta'sirining zaiflashib borishi sabab ancha kamayib bordi.

O'tgan asrning 90 yillari o'rtalaridan Markaziy Osiyo mintaqasi AQSH uchun chekka zona sifatida qiziqish uyg'otadigan mintaqadan jahondagi strategik mintaqaga aylanib ulgurdi. Bunday qiziqish ikkita jihat bilan izohlanadi: birinchidan, Markaziy Osiyoning Rossiya – Xitoy – Fors – Hind yarim orolini tutashtirib turuvchi muhim geostrategik nuqta ekani bilan izohlanadi; ikkinchidan, mintaqaning tabiiy zahiralari, energoresurslari, shuningdek transport-kommunikativ imkoniyatlari.

Oradan ma'lum bir vaqt o'tgach Markaziy Osiyo davlatlarida barqarorlik qaror topdi, qator sohalarda iqtisodiy yuksalish ta'minlandi, mamlakatlar o'zlarining harbiy-mudofaa tizimini mustahkamlab olishdi.

Shunday ekan boshqa yetakchi geosiyosiy kuchlar singari Amerika Qo'shma Shtatlari ham Markaziy Osiyoda o'z manfaatlarga ega bo'lgan davlatlardan biri hisoblanadi. AQSH Markaziy Osiyoni Rossiya, Xitoy, Eron bilan chegaradosh bo'lgan va Pokiston va Hindiston bilan iqtisodiy, ijtimoiy aloqalari ortib borayotgan muhim strategik mintaqasi sifatida qaraydi.

AQSH ning Markaziy Osiyodagi manfaatlarini tizimlashtirgan xolda quyidagi tartibda berish mumkin:

¹ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ будапештский меморандум](https://ru.wikipedia.org/wiki/будапештский_меморандум)

- Afgʻoniston muammosini hal qilishda mintaqaning imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- kelajakda Kaspiy regionidagi energetik resurslar ustidan nazorat oʻrnatish;
- Eronni nazorat qilish uchun uning Markaziy Osiyo davlatlari siyosati va iqtisodiga aralashuvini cheklash. Shuningdek Eronni izolyatsiyada ushlab turish;
- AKSH manfaatlariga zid keluvchi (uning domenantligini yoʻqqa chiqaruvchi) davlatlarning (taxminan Xitoy, Rossiya) yoki ular guruhining mintaqaga taʼsirini kamaytirish;
- Markaziy Osiyo xududida harbiy bazalar tashkil qilishga erishish;
- AQSH sanoati uchun yangi isteʼmol bozorini yaratish va shu kabilar.

AQSH da sodir etilgan 2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin Afgʻonistonga xalqaro koalitsion kuchlar kiritildi. Albatta AQSH ning bu oʻlkada barqarorlik oʻrnatishidan manfaatdor boʻlmagan kuchlar ham topildiki, natijada mintaqada tinchlik oʻrnatish jiddiy qarshilikka duch keldi. Urush harakatlari choʻzilgach, Vashington tomonidan mamlakatda tinchlik oʻrnatishning yangi muqobil yoʻllari, jumladan siyosiy, iqtisodiy yoʻllaridan foydalanish masalasi ilgari surildi. Bulardan biri “Katta Markaziy Osiyo konsepsiyasi” hisoblanadi¹. Bu konsepsiyaga asosan Markaziy Osiyoga (uning iqtisodiy, transport, savdo infrastrukturasini nazarda tutiladi) Afgʻonistonni ham keng integratsiyasini taʼminlash zarur. Shu yoʻl bilan mintaqaning qator iqtisodiy, ijtimoiy muammolarini hal etish imkoni boʻladi. Ushbu konsepsiyaning mantiqiy davomi sifatida “Yangi ipak yoʻli” konsepsiyasi ham ilgari suriladi. Uning muhim jihati shundaki Afgʻonistonning Fors – Hind – Markaziy Osiyo – Xitoy oʻrtasidagi iqtisodiy munosabatlarda muhim transport yoʻlagi ekaniga alohida eʼtibor qaratiladi.

Keyingi paytlarda mintaqada Rossiya va Xitoy mavqeining oshib borishidan AQSH manfaatdor emas. Shunday ekan AQSH tomoni Markaziy Osiyoning Rossiya va Xitoy bilan boʻladigan har qanday integratsion loyihalarini qoʻllab-quvvatlamaydi. Buni Xitoy tashabbusi bilan shakllantirilgan SHHT misolida koʻrish mumkin. Shuningdek AQSH tomoni uzoq yillar davomida Markaziy Osiyo bilan Rossiya oʻrtasida shakllangan qator iqtisodiy munosabatlarga nisbatan muqobil hamkorlik yoʻllarini, transport yoʻlaklarini yaratishga harakat qilmoqda. Albatta bu vazifalarning yechimi AQSH ning xalqaro maydondagi geosiyosiy, geostrategik va geoiqtisodiy manfaatlariga mos keladi.

Sobiq ittifoq parchalangan paytdanoq hududga Xitoyning taʼsiri kuchli boʻlib kelmoqda. U mintaqada davlatlari, jumladan Rossiya bilan SHHT doirasida hamkorlikni rivojlantirishga keng eʼtibor qaratmoqda.

¹ Qarang: Sirojov O. Markaziy Osiyoda hamkorlik jarayonlari.- Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2016. 103-b

Xitoy Xalq Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasida o'z manfaatlariga ega davlatlardan biridir. Markaziy Osiyo mintaqasi Xitoy tomonidan hayotiy muhim ahamiyatga ega hudud sifatida qaraladi. Albatta, Markaziy Osiyo Xitoy uchun energiya resurslari manbai sifatida ham, o'z mahsulotlarini sotilishi uchun bozor sifatida ham, g'arb bilan aloqalarni olib borishda muhim transport yo'li sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham Xitoy o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, o'z tashqi siyosiy strategiyasini amalga oshirishda quyidagi strategik vazifalarga ustuvor ahamiyat bermoqda:

- G'arbiy chegaralarida va chegaraviy hududlarida barqarorlikni saqlash (Shinjon Uyg'ur Avtonom Respublikasi, Tibet – ekstremizm, separatizm);
- qoloq g'arbiy hududlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy rejalarini amalga oshirishga ta'sir etuvchi shart-sharoitlarni yaratish;
- o'sib borayotgan ulkan salohiyatli sanoati uchun zarur bo'lgan energiya manbalarini qo'lga kiritish;
- MDH va Yevropa bozorlariga chiqish uchun mustahkam transport yo'laklarini rivojlantirish;
- Markaziy Osiyoning Xitoy sanoati mahsulotlari uchun ulkan bozor bo'lib qolishini ta'minlash va sh.k.

Bugungi kun nuqtai-nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, Xitoy Markaziy Osiyo mintaqasi bilan hamkorlik masalalarida ko'proq iqtisodiy munosabatlarga e'tiborni qaratmoqda. SHHT doirasida iqtisodiy hamkorlikka asoslangan mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish, tovarlar, xizmatlar va texnologiyalarning erkin harakatini bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarishga qaratilgan shart-sharoitlar yaratishga intilmoqda. So'zsiz iqtisodiy hamkorlik, savdo-sotiq kafolatgan barqarorlikni taqozo etadi. SHHT ga a'zo bo'lgan ba'zi davlatlarda amalga oshirilgan terroristik harakatlar (Botken voqealari) tashkilot Nizomiga havfsizlik bilan bog'liq vazifalarning kiritilishiga turtki bo'ldi.

Mustabid tizim parchalangach Rossiya ham qator siyosiy, iqtisodiy, g'oyaviy, havfsizlik bilan bog'liq muammolar girdobiga tortildi – Checheniston va Dog'istondagi harbiy harakatlar, Moskvadagi teraktlar, hukumat almashuvlar, mamlakat prezidenti va parlamenti o'rtasidagi to'qnashuvlar va sh.k. Natijada Rossiyaning xalqaro maydondagi pozitsiyasi (shu jumladan Markaziy Osiyoda ham) ancha zaiflashib qoldi. O'tgan bir necha yillar davomida Rossiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan tutgan siyosatida aniq bir yo'nalish ko'zga tashlanmadi¹. Biroq, 2001-yil sentabr voqealari sabab AQSH tomonidan Afg'onistonda olib borilgan

¹ Песков Е.С. Проблеми и перспективы сотрудничества России и Китая со странами Центральной Азии – членами СНГ // Проблеми Дальнего Востока, Н 3, 1997. С.19

aksilterror kompaniyasi, MDHning ayrim davlatlarida yuz bergan rangli inqiloblar to'loqini, Markaziy Osiyoda AQSH ta'sirining kuchayishi mintaqada Rossiyaning muhim manfaatlari uchun jiddiy muammolarning vujudga kelayotganligini anglatar edi. Yangi ming yillikning dastlabki yillarida Rossiyada boshlangan islohotlar, iqtisodiy yuksalish mamlakatning xalqaro maydonda ham ta'sir kuchining oshishiga olib keldi. O'z navbatida Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan tashqi siyosiy strategiyada o'zgarishlar sodir etildi¹.

Taxlillar shuni ko'rsatadiki Markaziy Osiyo mintaqasida Rossiyaning strategik manfaat va rejalari quyidagilardan iborat:

- Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi faol ishtiroki birinchi navbatda, janubiy chegara hududlari xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilishi lozim;
- Uzoq yillar davomida shakllangan iqtisodiy munosabatlarni saqlab qolish va ularni yangi bosqichga ko'tarish;
- noqonuniy qurol va narkotik moddalar tranzitini to'sib qo'yishda mintaqalar davlatlari bilan hamkorlikda faoliyat olib borish;
- Rossiyaning Kaspiy havzasida o'z ta'sirini saqlab qolish va dengiz uglevodorod zahiralaridan unumli foydalanish;
- Mintaqadagi tabiiy zahiralar, neft-gaz quvurlari va transport-kommunikasiya yo'llari ustidan nazorat o'rnatish;
- Shuningdek o'z milliy xavfsizligini ta'minlashda mintaqa davlatlari imkoniyatlaridan keng foydalanish.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan Rossiya o'rtasida oxirgi vaqtlarda siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy, harbiy sohalarda hamda xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, va giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurash borasida integrasion jarayonlar faollashmoqda.

Shunday qilib, Rossiya Markaziy Osiyo mintaqasiga geografik jihatdan yaqin joylashganligi va azaldan bu mintaqada o'z manfaatlariga ega bo'lganligi sababli boshqa yetakchi davlatlar AQSH, Xitoyga qaraganda ko'proq imkoniyatlarga ega.

Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishganlaridan keyin Yevropa Ittifoqi uchun Osiyo qit'asida strategik ahamiyat kasb eta boshladi. Chunki ular ko'pchilik yevropalik mutaxassislar fikricha Yevropa uchun energiya va boshqa tabiiy xom-ashyo resurslarining muqobil manbai bo'lishi mumkin. Mintaqada o'zining iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan xolda Yevropa Ittifoqi bu yerdagi davlatlardagi o'zgarishlar jarayoniga muhim ahamiyat beradi.

Markaziy Osiyoga nisbatan Yevropa Ittifoqining pozitsiyasi vazminlik bilan xarakterlanadi. Hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga bo'lgan geosiyosiy manfaatlari tez jadallashib bormoqda. Iqtisodiy tomondan mintaqaning

¹ Демиденко Сергей: Центральная Азия: впереди борьба за наследство. <http://www.ia-centr.ru/>

Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlariga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri nafaqat uning masofasi uzoqligida balki, Yevropa va mintaqa marshrutida transport tariflarining yuqoriligi, marshrutning Rossiya hududi bo'ylab o'tishi, uning ba'zi hududlarining xavfsiz emasligi, qo'shni davlatlardagi qarama-qarshiliklarning mavjudligi bilan hisoblanadi. Keyingi yillarda Sharqiy Ukraina voqealari sabab, shuningdek "Shimoliy oqim-2" loyihasi sabab kelishmovchilik avjiga chiqdi.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyodagi o'z iqtisodiy manfaatlarini quyidagilarda ko'radi: bugungi kunda Yevropa mamlakatlari sanoatining jadal o'sishi xom ashyo, eng avvalo uglevodorod xom ashyosi, muqobil energiya va boshqa tabiiy resurslarga ehtiyojini ortishiga sabab bo'lmoqda; Ukraina mojarosi sababli boshlangan sanksiyalar sabab bu jihatlar yanada oshib, muqobil energiya resurslarini, yangi hamkorlarni topishga undamoqda; iqtisodiy jihatdan yuksalib borayotgan Markaziy Osiyo yaqin kelajakda Yevropa davlatlari sanoati tovarlari uchun muhim bozor vazifasini o'tashi mumkin. YAIM yaratishda dunyoda ikkinchi, aholi soni bo'yicha uchinchi o'rinda turadigan Yevropa Ittifoqi bu mintaqada qator manqaatlarga ega.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar qatorida Hindiston ham dunyoviy tartibotda o'z o'rnini belgilash, manfaatlari yuzasidan kuchli ijtimoiy tashqi siyosiy faoliyat olib borish va mintaqalar bo'yicha yetakchi davlatlar qatoriga qo'shilishga harakat qilmoqda.

Hindistonning yadroviy davlatligini, dunyoda aholi soni bo'yicha ikkinchi o'rinda turishi, zamonaviy texnologiya larga egaligini hisobga olgan xolda aytish mumkinki, yaqin kelajakda hind omilining Markaziy Osiyoga bo'lgan ta'siri yana ham oshadi. Shuni ham aytish kerakki, Hindiston mintaqada Rossiya, AQSH va Xitoy davlatlari o'rtasida manfaatlar muvozanatini saqlashga o'z hissasini qo'shishi mumkin. Hindistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi ko'zlayotgan manfaatlari quyidagilar:

- mintaqadagi ulan yoqilg'i-energetika zahiralaridan foydalanish;
- mintaqada yo'lga qo'yilayotgan transport kommunikasiyalardan foydalanish, mintaqqa orqali Rossiyaga va Sharqiy Yevropa davlatlariga chiqish imkoniyatiga ega bo'lish;
- mintaqada AQSH, Rossiya, Xitoy, Pokiston va Turkiya kabi davlatlarning ta'sir doiralarini kengayishiga yo'l qo'ymaslik va bir vaqtning o'zida mintaqada Xitoy, Eron bilan birgalikda AQSH ga nisbatan kuchlar muvozanatini shakllantirish;
- radikal islom g'oyalarining mintaqqa orqali Hindistonning shimoliy chegara xududlariga tarqalishiga yo'l qo'ymaslik bilan birga Afg'onistondagi ichki beqaror xolatni tinch xolatga keltirish xarakatlarini hamkorlik orqali amalga oshirish va shu kabilar.

Eron Islom Respublikasi ham mintaqaviy lider davlat sifatida Markaziy Osiyo mintaqasida yetarlicha salohiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kunda Eronga AQSH tomonidan sanksiyalar yo‘li bilan ta’sir etish mexanizmlari saqlanib qolayotgan bir davrda u o‘zining Markaziy Osiyodagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy ta’sir doirasini kengaytirishga urinmoqda. Shu sabab ham Eronning Markaziy Osiyoda o‘z ta’sirini kengaytirish, Rossiya bilan hamkorlikni oshirish, YEI davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirish Eronning geostrategik holatini barqarorlashtiruvchi xarakterli mexanizm hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda Eron uchun asosiy geostrategik vazifa iqtisodiy va siyosiy izolyatsiya ahvolidan chiqish hisoblanadi. Markaziy Osiyo mintaqasida Eron AQSH, Rossiya, Xitoy va YEI davlatlari qarama-qarshiligi asosida tashkil qilingan strategik manfaatlar geosiyosiy balansini ijobiy tomonga o‘zgartirishga harakat qiladi. AQSH va G‘arbning Eronga tutgan siyosatidagi iliqlik unchalik uzoqqa bormasligi barchaga ayon. Chunki sanksiyalarning bir tomonlama bekor qilinishiga javoban Eron chekinishga qaror qilmoqchi emas. Qolaversa Mamlakat mintaqadagi o‘z siyosatida qat’iyligini ta’kidlamogda. Shu va boshqa qator sabab Eron rivojlanayotgan Osiyo davlatlari bilan integrasiyani chuqurlashtirishga, transport yo‘laklarini yaratishga istiqbolli reja sifatida qaramogda.

Shunday qilib, yuqorida keltirib o‘tilganlardan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, chet mamlakatlarning Markaziy Osiyoga bo‘lgan manfaatlari bugun yoki kechagi kun bilan bog‘liq bo‘libgina qolmay uning ildizlari nihoyatda chuqur ekanligi ma’lum. Yana bir o‘ziga xos jihat bu davlatlar manfaatlarining ba’zi birlari bir-biriga ancha mos kelishi va aksincha bir-biriga mutloqo zid kelishida ko‘rinadi. Masalan, AQSH va Turkiyaning, Xitoy, Yaponiya, Hindiston va Yevropa Ittifoqining mintaqadagi manfaatlari unchalik kesishmaydi. Lekin shu bilan birga AQSH va Rossiya, Turkiya va Eron, Hindiston va Pokiston manfaatlari qarama-qarshiligi mintaqaning rivojlanishida o‘zining salbiy ta’siriga ega bo‘lishi, bu esa mintaqa davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda ham o‘z aksini topishi ehtimoli ham yo‘q emas.

3. Yaqin Sharqdagi geosiyosiy vaziyat. Yaqin Sharq keyingi yillarda jahonning qator yetakchi davlatlarining geosiyosiy manfaatlari keskin to‘qnashgan mintaqaga bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga bir qator terrorchi tashkilotlar faoliyati ham keskin kuchaymoqda. Albatta bu kelishmovchiliklarning siyosiy mazmundagi, geosiyosiy mazmundagi, geostrategik mazmundagi, hududiy davolar ko‘rinishidagi sabablari bor. Shu bilan birga hududning tabiiy-geografik imkoniyatlariga ham bir e’tibor berish foydadan xoli bo‘lmasa kerak.

Yaqin Sharq davlatlarining ba'zi tabiiy geografik imkoniyatlarining ko'rsatkichlari:

Kategoriya	Maydoni kv/km	Aholisi mln kishi	Oltin zahirasi mld/dol	Neft mld bar	Gaz tr kub
Eron	1 648 000	78.4	69.8	151.6	33
Katar	11440	0.77	25.9	25.7	25.2
Irak	434 100	28.1	61.8	143.1	3.1
Yegipet	947000	68.7	15.2	4.4	2.1
Kuveyt	17820	2.6	29.2	101.5	1.7
Ummon	212500	2.53	15.8	4.7	0.84
Yaman	528000	20.3	4.7	2.8	0.47
Baxrayn	690	0.71	4.8	0.17	0.98
Suriya	185200	18.6	4.7	2.1	0.24
Saudiya Arab	2 149 610	31.5	626	264	8.1
BAA	83600	4.28	43.7	97.8	6.8

Sobiq ittifoq qulashi arafasida Iroq qo'shinlari tomonidan 1990-yilning avgustida Quveytni bosib olinishi Yaqin Sharqdagi vaziyatning chigallashib ketishiga sabab bo'ldi. Quveytning 1980-1988-yilgi Iroq-Eron urushida Iroqni qo'llab-quvvatlashi ham foyda bermadi. Quveyt davlatiga XVIII asr oxirlarida yirik beduinlik urug'i vakillari tomonidan asos solinadi. Hudud rasman Usmoniylar imperiyasi hududiga kirgan. Boshlanib ketgan urushda Quveyt tomonini Buyuk Britaniya himoya qilib chiqdi. Ayni paytda Britaniya Germaniya imperiyasining "Bag'dod temir yo'li" rejasini amalga oshishiga yo'l qo'yishni istamas edi. 1899-yil 23-yanvarda Quveyt ustidan Buyuk Britaniya protektorati o'rnatilgani e'lon qilindi. 1918-yilda Usmoniylar imperiyasi tugatilgach Buyuk Britaniyaning Quveyt ustidan o'rnatilgan hukmronligi (Versal tinchlik shartnomasi) halqaro maydonda tan olindi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Quveyt 1961-yil 19-iyunda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan. Qisqa muddat ichida neft-gaz zahiralarini hisobiga dunyoning eng boy davlatlaridan biriga aylandi.

Iroqning hukmron doiralari Quveytni bir tomondan Iroqning tarkibiy qismi deb bilishardi. Ikkinchi tomondan Quveyt Iroqqa qarshi koalitsiyaga qo'shilganlikda ayblandi. Shuningdek Quveytning Iroq chegaralari yaqinida neft-gaz qazib olishni keskin rivojlantirib borishi ham bu agressiyaga sabab bo'ldi. BMT Havfsizlik kengashi chaqiriqlari, boshqa xalqaro tashkilotlarning aralashuvi natija bermadi. 1991-yilning 17-yanvarida AQSH boshchiligidagi koalitsion kuchlar Iroq qo'shinlariga

dastlabki havo zarbalarini berishdi. 28-fevralda Iroq taslim etildi, Quveyt hududi ozod etildi. Yo‘qotishlar mislsiz darajada edi. Ayniqsa Iroqning neft zahiralarining portlatilishi ekologiyaga katta zarar yetkazdi. BMT Havfsizlik Kengashining 687-rezolyusiyasiga asosan Iroqning ommaviy qirg‘in qurollari (yadro, bakteriologik) ustidan nazorat etish maqsadida maxsus ishchi guruh ish boshladi. Bu ishchi komissiya 1998-yilda mamlakatni tark etishga majbur bo‘ldi. Chunki Iroq tomoni Komissiya bilan bunday buyon hamkorlikda ish olib borishdan bosh tortdi. 2001-yil 11-sentabrdagi Nyu-Yorkdagi teraktdan keyin Iroqqa nisbatan navbatdagi harbiy harakatlar boshlanish havfi oshib ketdi. Afg‘onistonda toliblar mag‘lub etilgach AQSH xalqaro kuzatuvchilarni Iroqqa qaytishini talab etdi. 2002-yil noyabrdagi BMT HK rezolyusiyasidan keyin Iroq inspektorlarning kiritilishiga rozilik berdi. Lekin Iroq hududida ommaviy qirg‘in qurollarining borligi o‘z isbotini topmadi. AQSH tomoni Iroqni ommaviy qirg‘in qurollarini yashirganlikda, “Al-Qoida” bilan hamkorlik qilishda ayblashda davom etdi.

Xalqaro hamjamiyatning noroziligiga qaramasdan AQSH 2003-yilning 20-martida harbiy harakatlarning ikkinchi bosqichini boshladi. Iroq prezidenti Saddam Husaynning hokimiyatdan chetlatilishi mamlakatga tom ma‘nodagi demokratiyani, tinchlikni keltirmadi. Mamlakat fuqarolar urushi girdobiga tortildi. Harbiy harakatlarda qirqqa yaqin mamlakatning harbiy bo‘linmalari ishtirok etdi. Mamlakat deyarli uchga bo‘linib ketdi: Rasmiy Bag‘dod nazoratidagi hudud; ISHID nazoratidagi hudud; Kurd jamolari nazoratidagi hudud.

Yaqin Sharqda o‘z yechini topmasdan kelayotgan yana bir ziddiyatlar to‘qnashuv arab-isroil mojarosi hisoblanadi. Isroil davlati 1948-yilda tashkil etilgan bo‘lsada arab-isroil mojarosining ildizi kzoq o‘tmishga borib taqaladi. Isroil davlati tashkil etilganligi e‘lon qilinishi bilan unga qo‘shni bo‘lgan arab davlatlari unga urush e‘lon qilishdi. Yahudiy jamoalari Falastinni o‘zlarining tarixiy vatanlari deb bilishadi. Albatta arablarda ham yetarlicha faktlar mavjud. Isroilning yetakchi G‘arb davlatlari tomonidan, arab davlatlarining esa sovet davlati tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi vaziyatni chigallashtirib yubordi. Uch millionga yaqin aholi qochoqqa aylandi. Arab davlatlari Isroilga nisbatan “uch yo‘q” siyosatini olib borishdi. Misrda hokimiyat tepasiga Anvar Sadatning kelishi vaziyat keskin o‘zgarishiga olib keldi. Anvar Sadat Isroilga rasmiy tashrif bilan boradi, Isroil davlatini yashash huquqini e‘tirof qiladi. Shu sabab Sadat qator arab ommaviy axborot vositalarida tanqidga uchradi, xoinlikda ayblandi. Misr turli arab davlatlari tashkilotlaridan chiqarib yuborildi. Keyinchalik Isroil Iordaniya bilan tinchlik sohasida bitim imzolashga erishdi. Isroil bir tomondan qator arab davlatlari bilan kelisha olmayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bironta hukumatga bo‘ysunmaydigan turli terroristik tashkilotlar tomonidan siquvga olinib kelimoqda.

O'rta yer dengizning sharqiy sohillarida joylashgan Suriya hududida uzoq yillik tarixda har doim turli kuchlarning geostrategik manfaatlari to'qnashib kelgan. Bu hodisaga "sovuq urush" tugaganidan keyin ham barham berilmadi.

Mamlakatda 2006-2007-yillarda kuchli qurg'oqchilik yuz berdi. Va bu holat keyingi yillarda ham sodir bo'ldi. Ekin dalalari sahroga aylana boshladi. Qishloq ho'jaligi jiddiy zarar ko'rdi. YAIM tarkibida qishloq ho'jaligining hissasi 17 % gacha tushib ketdi¹. Qishloq aholisi o'z yashash joylarini tashlab Damashq, Aleppo, Deys-ez-Zor va boshqa yirik shaharlarga ko'chib keta boshladi. Suriyaning yirik shaharlari shundoq ham Iroqlik qochoqlar bilan to'lib ketgan edi.

Dastlabki ommaviy norozilik harakatlari 2011-yilning mart oyida yuz berdi. Bunga "arab bahori" deb nom olmish isyonchilik ko'rinishidagi xatti-harakatlar Yaman, Misr, Liviya, Livan, Baxreyn davlatlarida ham sodir etilgan edi. To'qnashuvlar qon to'kilishi bilan yakun topa boshladi. Qon to'kilishida rasmiy hukumat bilan muxolifat bir-birini aybladi. 2011-yilning 9-mayida Suriyaga nisbatan G'arb davlatlari tomonidan qator sanksiyalar joriy etildi. Rasmiy hukumat qo'shini bilan namoyishchilar o'rtasidagi to'qnashuvlarda qurbonlar soni tobora ortib bordi. Dara, Aleppo, Xoms, Idlib, Rastan, Latakiya shaharlarida namoyishchilar Suriya armiyasi bo'linmalari tomonidan qurshab olinadi. Ommaviy axborot vositalari tarqatgan xabarlarga qaraganda Suriya armiyasi harbiylari orasida ba'zilar muxolifat tomonga o'ta boshlagan. Bunga Liviyada NATO chilar zarbalaridan keyin prezident Muammar Kaddafining vahshiyona o'ldirilishi ta'sir qilmasdan qolmadi. 2011-yilning oxiriga borib namoyishchilar o'z harbiy bo'linmalarini tuza boshlashdi. Bu harbiylashgan bo'linmalar "Ozod Suriya armiyasi" deb nom oldi. Juda katta miqdorda daromad keltirayotgan turizm sohasi butunlay izdan chiqdi.

Boshlanib ketgan fuqarolar urushida og'ir harbiy texnikalarning barcha turlaridan keng foydalanildi. Suriya prezidenti Bashar Asad sodir bo'layotgan to'qnashuvlarda "tashqi kuch" larni aybladi. AQSH tomoni esa rasmiy Bag'dodni qo'llab-quvvatlashda Eron va Rossiyani ayblab chiqdi. Xalqaro tashkilotlarning muammoni diplomatik vositalar orqali tinch yo'l bilan hal etishga urinishi naf keltirmadi. 2012-yilda Jenevada suriya masalasi ko'rib chiqildi. Unda BMT HK barcha a'zolari, shuningdek Suriyaga tutash davlatlar vakillari ishtirok etishdi. Lekin bu vaqtga kelib urushda ishtirok etayotgan turli guruhlar nazoratdan chiqib ketgan edi. Kurdlar o'z avtonomiyasi tuzishga krishgan bo'lib o'z hududlariga Rasmiy hukumat qo'shinlarini ham, "Ozod Suriya armiyasi" qo'shinlarini qo'ymas edi. Turli hududlar "Jabhat – an -Nusra", "al-Qoida", ISHID chilar nazoratiga o'tib blgan edi.

¹ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Сирийская война](https://ru.wikipedia.org/wiki/Сирийская_война)

Rasmiy hukumat qo‘shinlari mudofaa xarakteridagi harbiy harakatlarni olib bora boshladi. O‘z nazoratidagi hududlarni birin-ketin boy bera boshladi. Muxolifatchi guruhlar yirik neft-gaz konlarini o‘z qo‘liga olishdi. Suriya prezidenti Bashar Asadning iltimosiga binoan 2015-yilning 30-sentabrda Rossiya harbiy kosmik kuchlari mamlakatga kiritildi. Rus harbiylari tomonidan muxolifatning qator yirik boshqaruv punktlariga, infrastrukturasiga yoppasiga zarbalar berish boshlandi. Rus harbiylarining ko‘magida Suriya hukumat qo‘shinlari 2018-yilning oxiriga kelib isyonchilar ixtiyoridagi hududlarning katta qismini qaytarib olishga erishdi.

ISHID fitnasi. Iroq va Shom Islom davlati- ISHID- (ruscha - Islamskoye gosudarstva Iraka i Levanta - IGIL , arabcha (الدولة الإسلامية في العراق والشام) - DA‘ISH). E’tirof etilmagan bu davlatning tashkil etilishini G‘arbning musulmon dunyosiga nisbatan tutgan siyosatining o‘ziga xos aksi deyish mumkin. ISHID 2006-yilda Iroq va Suriya hududlarining bir qismida tashkil etildi. Ishidchilar bosh maqsad sifatida Iroq, Iordaniya, Suriya kabi davlatlar negizida sunniy musulmonlarning yagona davlati – “halifalik” ni barpo etib, uni bosqichma-bosqich Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari hisobiga kengaytirishni da’vo qiladi. Misrdagi nufuzli “Dorul ifto”, ya’ni “Fatvo hay’ati” o‘zlarini “Islom davlati” deb atagan Iroq va Suriyadagi jangarilarni bu nom bilan atamaslikka chaqirdi. Qator taniqli ulamolar bu guruhning qator qilmishlarini, ular amalga oshirgan xunrezliklarni Islomning barcha tamoyil va qoidalariga zid ekanini aytib, uning faoliyatini islom dini uchun katta tahdid deb atamoqda. Saudiya Arabistoni bosh muftiysi Shayx Abdul Oli Shayx: “Iroq va Suriya dagi “islom davlati” nomini niqob qilgan buzg‘unchilar islom dinining dushmanidir. Chunki ular sabab ko‘p insonlar jabr chekishmoqda” deb ta’kidladi. Tashkilot tadbirkorlarga “solliq” solish, garovga olish, tovon puli, mol-mulklarni talon-taroj qilish, neft sotish evaziga o‘z faoliyatini moliyalashtiradi. Davlat lideri Abu Bakr al-Bag‘dodiy hisoblanadi. Shtab-kvartirasi Suriyaning Rakka shahrida joylashtirildi. Uning tashkil etilishida “Al-Qoida” bo‘limlari, shuningdek yana o‘n bitta radikal ruhda islomiy guruhlar faol ishtirok etishdi. Bugungi kunda ISHID shariat asosida boshqariladigan, xalqaro jamiyatga jiddiy havf solayotgan yarimreal kvazidavlat hisoblanadi. AQSH ning birinchi raqamli dushmani “Al-Qoida” emas ISHID bo‘lib qoldi. ISHID o‘z faoliyati davomida “Al-Qoida” faoliyatini chuquq tahlil etgan holda uning xatolarini takrorlamaslikka harakat qilmoqda: tolerantlikni ifoda etuvchi mavhum ta’limotlarni emas an’anaviy islomni qo‘llab-quvatlamoqda; Forsdagi islomiy tashkilotlar bilan (shialardan tashqari) harbiy ittifoqda bo‘lishga harakat qilmoqda; Suriya muxolifati bilan kelishuv yo‘lini tutdi va sh.k. E’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar yuqori malakali kadrlarni ishga taklif etish avj olgan va shu kabilar.

Suriya, Iroq, Afg‘oniston, Jazoir, Liviya , Yaman, Nigeriya, Pokiston, Misr, Shimoliy Kavkazdagi qator harbiy harakatlarda faol ishtirok etib keladi. ISHID

dunyoning qator davlatlari, xalqaro tashkilotlari tomonidan terrorchi davlat sifatida tan olingan.

ISHID ning vujudga kelish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, u 1999-yilda "Jamaot at-Tavxid val-Jixad" nomi bilan paydo bo'ldi. Unga asli iordaniyalik bo'lgan Axmad Fadil Xalil (Abu Musab az-Zarkaviy) asos solgan. 2006-yildan "Iroq islom davlati" nomini oladi. Keyinchalik (2013) Iroq va Shom (Levant) davlati deb atala boshlandi. 2014-yil 29-iyunda o'zlarini Halifat deb e'lon qilishadi¹. Rossiyaning qator diniy ulamolari bu uyushmani "islom davlati" deb atamaslikka chaqirishmoqda. Ularning fikricha bu davlatni "Iblis davlati" yoki arabcha DAISH deb atashni taklif qilishmoqda. Chunki daish deb atalganida arab tilida haqoratli so'zga juda yaqin keladi (داعس «*dais*»). Saudiya Arabistoni bosh muftiysi Shayx Abdul Oli Shayx: "Iroq va Suriyadagi "islom davlati" nomini niqob qilgan buzg'unchilarni Iroq va Shomdagi islom dushmani deb atagan edi². 2014-yilgi ma'lumotlarga qaraganda ishidchilar nazoratida bo'lgan hudud 90 ming kv km ni tashkil qilib, ahaolisi 8 million kishi atrofida bo'lgan. 2015-yil 11-dekabrda Rossiya mudofaa ministri S.Shoyguning axborotiga asosan ishidchilar Suriyaning 70 % hududini egallashgan. Lekin undan keyingi yillarda Suriya armiyasining Rossiyaning harbiy ko'magida olib borgan harbiy harakatlari natijasida ishidchilarning nazoratida bo'lgan hudud ancha qisqardi. 2019-yil kuziga kelganda AQSH prezidenti Donald Tramp ishidchilar butunlay tugatilganligini e'lon qildi.

Ishidchilarning paydo bo'lishi bilan bog'liq sabablar va omillarga xususida gap ketganida Moskva VSHE demografiya instituti direktori Anatoliy Vishnevskiyning fikricha Yaqin Sharq aholisining keskin o'sishi natijasida yuzaga kelgan ishsizlik, qashshoqlik radikal guruhlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Andrey Bistritskiyning hisoblashicha mintaqadagi ijtimoiy adolatsizliklar sabab aholi o'zining ijtimoiy adolat, demokratik tartibot bilan bog'liq orzu umidlarini "Islom davlati" misolida amalga oshishiga ishonardi. Buyuk Britaniya sobiq tashqi ishlar mnistri Devid Milibendning qayd etishicha AQSH boshchiligida harbiy koalitsiyaning Iroqqa bositirib kirishi (2003) natijasida vujudga kelgan beqarorlik ishidchi harbiy guruhlarining vujudga kelishiga zamin yaratdi. Xuddi shunday fikrni Buyuk Britaniya sobiq bosh vaziri Toni Bler "SNN" telekanaliga bergan intervyusida qayd etib 2003 yilda AQSH boshchiligidagi koalitsion kuchlarning Iroqqa bostirib kirib rasmiy hukumatni ag'darib tashlashlari natijasida vujudga kelgan beqarorlik, anarxizm, ijtimoiy adolatsizlar ishidchilarning maydonga chiqishining bosh sababi ekanini aytib o'tadi³. Ishidchilarning yuzaga kelishini har tomonlama tahlil qilgan britan analitiki Patrik Kokbern esa asosiy sabablarni bir nechtaga bo'lib

¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/islamskoye_gosudarstva

²Tulepov O.M. ISHID fitnasi. T.: "Mavorounnahr" 2015. 11-12 bet

³ https://ru.wikipedia.org/wiki/islamskoye_gosudarstva

tahlil qiladi: G'arbning yetakchi davlatlari olib borayotgan siyosatning natijasi ekani; mintaqadagi AQSH ning asosiy sherigi Saudiya Arabistoni tomonidan salafiylarning moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi; Iroq va Suriyaga maxsus tayyorgarlikdan o'tgan jihodchilarning kirib kelishi uchun maxsus "yo'lak" (koridor) ning mavjudligi; Iroqda koalitsion kuchlar tomonidan shialar rejimining joriy etilishi va shu kabilar. Harbiy harakatlar tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak AQSH 1991-yilgacha biron marta musulmon dunyosi bilan qarama-qarshilikka bormagan. 1991-yil yanvarda AQSH qo'shinlari ilk bor Iroqqa bostirib kiradi va vaziyat teskari tomon o'zgarib boradi. Ayniqsa 2001-yilda boshlangan "terrorga qarshi urush" kampaniyasi uning musulmon olamidagi obro'siga putur yetkazdi. G'arb demokratiyasi asosida "isloh" qilingan Iroq va Liviyadagi vaziyat naqadar achinarli manzara kashf qilganiga butun insoniyat guvoh. Ma'qul kelmagan amaldagi hukumat inkor qilinadi, g'ayridemokratik rejimda ayblanadi, ularga xukumatni topshirish sharti (ultimatum) qo'yiladi va maqomsiz, uquvsiz, mansabparast, xoin, shaxsiy manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'yadigan, vatanfurush bir to'da rasmiy muxolifat sifatida "homiylikka" olinadi. Manzara Iroq, Liviya, Yaman singari mamlakatlar misolida ayon: markaziy hokimiyatning mavjud emasligi; mamlakat boyliklarining talon-taroj etilishi; parchalanish, mintaqalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar; milliy va diniy nizolarning avj olishi va shu kabilar.

2014-yilning fevraliga kelib "Al-Qoida" va daishchilar o'rtasidagi aloqalar butunlay uzildi. Bir paytlar "Al-Qoida" ning bir qismi bo'lib kelgan daishchilar endi unga qarshi chiqa boshlashdi. Bu esa Suriya dagi fuqarolar urushining avjiga chiqishiga sabab bo'ldi.

2014-yilning yozidan daishchilar Iroqning shimoliy-g'arbiy mintaqalarida, Suriyaning shimolida keng miqyosdagi harbiy harakatlarni avj oldirib yuborishadi. Shu paytdan ishidchilar xalqaro ommaviy axborot vositalarida nihoyatda keng e'tibor beriladigan mavzuga aylanishdi. Mashhur Ingliz nashrlaridan biri "The Telegraph" rasmiy London va Vashington ishidchilarning bu rejalaridan boxabar bo'lishgan. 2014-yilning 10-iyunida Tarxan Batirashvili boshchiligida daishchilar harbiy bo'linmasi yirik shaharlardan biri Mo'sulni egalladi. Ordan bir kun o'tgach Tikrit egallandi. 15-iyunda Tap-al-Afar ishidchilar qo'lga o'tdi. Bag'dodni egallashga bo'lgan urinish AQSH ning harbiy ko'magi bilangina bartaraf etildi. Shunday bo'lsada ular qator yirik neft konlarini qo'lga kiritishdi. Va nihoyat 2014-yil 29-iyunda Halifalik tuzilganligini e'lon qilishdi. Suriyadagi Rakka shahri ularning poytaxti etib belgilandi. Halifa etib Abu Bakr al-Bag'dodiy e'lon qilindi. Bu yutuqlardan nihoyat darajada g'ururlanib ketgan ishidchilar safidagi qator chet ellik yollanma jangarilar ommaviy va tantanali ravishda ularga endi hech qanday fuqarolik kerak emasligini ko'rsatib o'z pasportlarini yoqib yoki yirtib yuborisha boshlashdi.

Ushbu harbiy harakatlar sabab daishchilar Suriyadagi (Xaleppo, Idlib, Rakka, Xama), Iroqdagi (Kirkuk, Tikrit, Diyala, Naynava), Liviyadagi (Barka, Fezzan, tarabulus), Arab yarim orolidagi (Xijoz, Laxaj, Sana, Shabva), Nigeriyadagi (Ifrikiya), Jazoirdagi, Afg'oniston va Pokistondagi qator provinsiyalarni o'z qo'lida ushlab turishdi.

Daishchilarning moliyaviy daromad manbalari turlicha. Birinchi galda ko'pgina qarashlarda asosiy daromad manbai sifatida qora bozordagi neft savdosi ko'rsatiladi. To'g'ri daishchilar bugungi kunda neft savdosidan juda katta daromad qilishlari mumkin. Lekin ular neft konlarini qo'lga kiritgunicha qayoqdan daromad qilishgan degan muasala paydo bo'ladi. G'arb mamlakatlarining ba'zi ommaviy axbrot vositalarida keltirilishicha daishchilarga Saudiya Arabistoni, Qatar davlatlari homiylik qilishgan. Lekin bu ularning asosiy raqibi Iroq va Suriyadagi rasmiy hukumat hisoblanadi. Daishchilar tomonidan egallangan shaharlardagi qator banklar o'z mablag'lari bilan o'lja bo'lib qoldi. Aholini garovga olish, shuningdek inson organlari savdosi avj olganligi ko'p bor o'z isbotini topgan. Nazoratdagi hudularga e'tiqodidan qat'iy nazar yuqori malakali kadrlar (injenerlar, vrachlar, dasturchilar) katta mablag' evaziga keltirilmoqda. Masalan moliya vaziri Avstraliya fuqarosi hisoblanadi. Faqat ularga o'z dinining cherkovlarini qurmaslik, diniy bayramlarini namoyishkorona nishonlamaslik, diniy liboslarda yurmaslik kabi shartlar qo'yilgan.

DAISH guruhi o'z oldiga buyuk halifalikni tiklash vazifasini qo'ydi. Uning tarkibiga arab halifaligi, Usmoniylar imperiyasi tarkibida bo'lgan barcha hududlar kiritilishi belgilab qo'yilgan. Usmoniylar imperiyasi tugatilishi natijasida belgilangan chegaralarni tugatish, Iroq, Suriya, Livan, Isroil, Falastin, Misr, Iordaniya, Turkiya birinchi galda halifalikka kiritilishi lozim edi. Shuningdek daishchilar XAMAS ni tugatish, Isroilni yo'q qilish, Markaziy Osiyodagi vaziyatni destabilizatsiya qilishga intilib keladi.

Keyingi yillarda daishchilarning mintaqada vaziyatga, uning barqarorligiga yetkazayotgan zararining cheki yo'q: teraktlar, jangavor harakatlar, portlashlar, qotilliklar, millionlab qochoqlar, vandalizm va shu hokozolar. Daishchilar tomonidan insoniyatga qarshi qaratilgan hatti-harakatlarning ba'zilarini keltirishga harakat qilamiz:

- 2009-yil 25-oktabrda Bag'dod shahrida daishchilar minalashtirilgan avtomobillar yordamida kuchli teraktni amalga oshirishdi. Uning natijasida 155 kishi xalok bo'lib, 721 kishi yaralandi.
- 2012-yilning 23-iyulida Iroqning qator hudadlarida olib borilgan harbiy harakatlar natijasida 116 kishi o'ldirildi, 299 ta odam yaralandi.
- 2013-yilning iyul oyida daishchilar Iroqning "Abu G'urayb" qamoqxonasiga hujum qilib 500 dan ortiq mahbusni qochirib yuborishdi.

- 2014-yil 16-iyunida daishchilar Iroqning shimolidagi Tikrit shahrini egallab, undagi harbiy bilim yurtining 1700 nafar talabasini qatl etishdi.
- 2014-yilning 28-avgustida daishchilar tomonidan ijtimoiy tarmoqda mudhish videosharh tarqaldi. Unda asirga olingan 250 nafar suriyalik askarning namoyishkorona qatl etilishi tasvirlangan edi¹.
- 2015-yilning 20-yanvarida Mo‘sul shahrida 13 ta o‘smir Osiyo kubogida ishtirok etayotgan Iroq-Iordaniya futbol o‘yinini tomosha qilishgani uchun otib o‘ldirildi.
- 2015-yilning 31-oktabrida Sharm el-Sheyx – Sankt-Piterburg marshruti bo‘yicha uchayotgan A-321 samolyoti havoda portlatib yuborildi.
- 2015-yil 13-noyabrda Parij shahrida qator teraktlar amalga oshirildi. Bataklan teatri garovga olindi. Teraktlar natijasida 130 kishi xalok bo‘ldi. 8 ta xudkush o‘z-o‘zini portlatib yubordi.
- 2016-yilning 22-martida Bryussel shahrida amalga oshirilgan teraktlar seriya si natijasida 34 kishi hayotdan ko‘z yumdi.
- 2016-yilning 12-mayda Bag‘dod shahrida amalga oshirilgan teraktlar seriya si natijasida 80 dan ortiq kishi hayotdan ko‘z yumdi². Albatta bunday faktlarni istagancha keltirish, davom ettirish mumkin.

Daishchilar o‘z oldlariga qo‘ygan maqsadlariga erishishda, o‘z saflarini yanada to‘ldirishda global ijtimoiy tarmoqdan nihoyatda unumli foydalanishmoqda. Nihoyatda ustamonlik ila tayyorlangan harakat saflariga chorlovchi videolavhalarni doimiy ravishda joylashtirib borishadi. Tayyorlanayotgan videolavhalar tashkilotning “al-Hayot” media studiyasida yuqori sifat va professional mahorat bilan tasvirga olingan. Bu ishga katta malaka va tajribaga ega bo‘lgan yevropalik psixolog mutaxassislar jalb etilgan. Har bir videolavha mantiqiy izchillik asosida boyitib boriladi. Shu bois internet o‘ziga xos “o‘rgimchak to‘ri” bo‘lib xizmat qilmoqda.

Albatta, internet insoniyat hayotida tutgan o‘rni beqiyos. Uning o‘rnini bosa oladigan biron-bir boshqa aloqa vositasi mavjud emas. Uning xizmatidan barcha tashkilotlar, uyushmalar, har bir inson har kuni keng foydalanib keladi. Uni man etish, yoki undan voz kechish umuman mantiqsiz holat hisoblanadi. Faqatgini yoshlarimizda internetdan foydalanish madaniyati, salohiyatini yuksaltirib borish talab etiladi.

4. Ukraina inqirozi va uning xalqaro munosabatlarga ta’siri. Uzoq yillar davomida Ukraina iqtisodiyoti sobiq ittifoqdosh respublikalar iqtisodiyoti bilan bog‘lanib ketgan edi. Sobiq ittifoq parchalangach iqtisodiy aloqalarning yemirilishi

¹ Tulepov O.M. ISHID fitnosi. T.: “Mavoraunnahr” 2015. 49- bet

² https://ru.wikipedia.org/wiki/islomskoye_gosudorstva

sabab mamlakat iqtisodiyotini chuqur inqiroz qamrab oldi. O‘z navbatida yuqorida qayd etib o‘tilganidek Ukraina ho‘jaligining qator zaif tomonlari ham mavjud edi: ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari, qishloq ho‘jaligi mahsulotlari asosan MDH mamlakatlariga mo‘ljallangan bo‘lib ular raqobatbardosh emas edi; zarur xom-ashyo mahsulotlarini ham shu mamlakatlardan import qilib kelgan; mamlakat o‘zining oltin zahirasi, valyuta zahirasi ega emas edi; ittifoq tarkibidagi respublikalar bilan iqtisodiy aloqalarning uzilib ketishi natijasida qator korxonalar to‘xtab qoldi; Chernobil fojeasi asoratlarini bartaraf etish moddiy tomondan katta harajat talab etar edi.

Inqirozgacha bo‘lgan davrda rasmiy Kiyev tomonidan tashqi siyosiy-iqtisodiy munosabatlarda olib borilayotgan siyosatda izchillik, qat’iylilik ko‘zga tashlanmadi. Buning isbotini rasmiy hukumat tomonidan imzolangan qator hujjatlarda ko‘rish mumkin. 2012-yilning oxirlari – 2013-yilning boshlarida Rossiya Ukrainani YevrAzES ning Bojxona ittifoqiga qo‘shilishi, uning to‘laqonli subyekti bo‘lishi uchun faol harakat olib bordi. Mamlakat o‘zining tub iqtisodiy manfaatlarini anglagan holda maqsadga muvofiq faoliyat yuritishi lozim edi. Bu ittifoq a‘zosi bo‘lish mamlakat uchun Rossiyadan keltiriladigan qator tabiiy zahiralarni imtiyozli arzon narxlarda sotib olish imkonini berar edi. Ikkinchi bir tomondan esa YEI bilan integratsiya, Erkin savdo zonasi kirishga intilish tarafdorlari tomonidan iqtisodiy aloqalarni Rossiya bilan olib borayotgan ukrain elitasi konsensusini inobatga olmadi. Uzoq muzokaralardan keyin Ukraina prezidenti mamlakat uchun ustuvor yo‘nalish yevrointegratsiya ekanini ta’kidladi. Oxir-oqibatda Ukraina integratsiya borasidagi Rossyaning barcha takliflarini rad etdi. Bojxona ittifoqi masalasida esa Ukraina tomoni “3+1” formatida sohalar bo‘yicha ramziy ishtirokini e‘lon qiladi. Oliy Radadagi barcha partiyalar (kommunistik partiyalardan tashqari) Rossiya, Qozog‘iston va Belarus o‘rtasidagi bojxona kelishuviga kirishdan bosh tortib yevrointegratsiyani qo‘llab-quvvatlashdi¹. Shunga qaramasdan Ukraina 2013-yil 13-mayda Bojxona ittifoqi bilan hamkorlik qilish to‘g‘risidagi memorandumni imzolashga erishdi. 2013-yil 18-sentabrda esa Ukraina vazirlar mahkamasi YEI assotsiatsiya to‘g‘risidagi kelishuv loyihasi ma’qulladi. Bunga javoban Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi hamkorlikni cheklash, imtiyozlar borasidagi kelishuvlar amalga oshmasdan qolishidan Kiyevni ogohlantirdi. Ukraina prezidenti YEI liderlariga Moskva tomonidan sodir etilayotgan kuchli bosim natijasida iqtisodiy hamkorlik, tovar ayirboshlash keskin kamayib borayotganidan shikoyat bilan chiqdi. Lekin G‘arb tomonidan tayinli javob olingani yo‘q. Mamlakatning oltin-valyuta zahiralari keskin kamayib ketdi, aholining real daromadlari pasaya boshladi, Rossiya

¹ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Политический кризис на Украине \(2013—2014\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Политический_кризис_на_Украине_(2013—2014))

oldidagi karzdorlik oshib bordi. Oldinda esa qahraton qish kutmoqda edi. Ana shunday sharoitda Rossiya rasmiy Kiyevni yevrointegratsiyadan voz kechishga so'ngi bor urinib ko'rdi. Ukrainaning Rossiya oldidagi qarzlarni to'lash muddati uzaytirilishi, neft-gaz mahsulotlarini imtiyozli narxlarda sotib olishi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni o'nglab olish uchun o'rta hisobda 15 milliard dollar berilishi va'da etildi. Ukrain tadbirkorlariga Rossiya hududida iqtisodiy faoliyat yuritishlari uchun imkoniyatlar kengaytiriladigan bo'ldi. O'z navbatida Ukrainadagi iqtisodiy infrastrukturani qayta tashkil etishda, uni moliyalashtirishda rus kompaniyalarining faol ishtiroki ta'minlanishi belgilab qo'yildi. YEI tomonidan va'da qilinayotgan quruq va'dalardan Rossiya tomonidan va'da qilinayotgan amaliy xarakterdagi moliyaviy-iqtisodiy hamkorlik hal qiluvchi rol o'ynadi. "Sharqiy hamkorlik"¹ sammiti boshlanishiga bir hafta qolganida Vilnyusda Ukraina YEI bilan assotsiatsiya to'g'risidagi kelishuvni imzolash to'htatilganini e'lon qildi.

"Sharqiy hamkorlik" sammiti arafasida Ukrainaning hukumati tomonidan YEI bilan assotsiatsiya to'g'risidagi kelishuvni imzolash to'htatilganini e'lon qilinishi bilan Kiyevda, shuningdek mamlakatning qator yirik shaharlarida norozilik aksiyalari boshlanib ketdi. Namoyish ishtirokchilarini harakatga undagan motivlar anchagina jozibali bo'lib deyarli mamlakatning markaziy va g'arbiy qismida aholining quyi qatlamlari tomonidan ham ijobiy qabul etildi: assotsiatsiyaga a'zo bo'lish g'arb tomon porlagan "yashil chiroq"; YEI hududiga kirib chiqish erkin bo'ladi; savdo-sotiq erkinligi; band bo'lmagan aholining ishlashga chiqishi va shu kabilar.

Boshlanib ketgan ko'p ming kishilik namoyishchilar qatoriga ukrain parlamentida muxolif partiya vakilari ("Svoboda", "Batkivshina", "UDAR" partiyalari) qo'shib ketishdi. Namoyishchilar nafaqat yevrointegratsiyani balki hukumatni iste'foga chiqishini ham talab eta boshlashdi. Huquqni muhofaza qiluvchi kuchlar bilan namoyishchilar o'rtasida dastlabki to'qnashuvlar sodir bo'ldi. 2013-yil 30-noyabrda muxolifatchilarning palatalardan tashkil etilgan shaharchalari kuch ishlatish yo'li bilan tor-mor etilgach mamlakatning turli hududlarida norozilik harakatlari avj olib ketdi.

Mamlakatning markaziy, shimoliy, g'arbiy hududlarida mahalliy deputatlar kengashi a'zolari ham namoyishchilarni qo'llay boshlashdi. Yevromaydandagi o'z tarafdorlarini qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha otryadlarni yubora boshlashdi. Qish oylari asosan Yevromaydandagi hukumat qo'shinlari bilan muxolif kuchlar o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan o'tdi.

2014-yilning 19-fevralida Kiyevga Polsha, Germaniya, Fransiya tashqi ishlari vazirlari kelishdi. 2014-yilning 21-fevralida Ukraina prezidenti V.Yanukovich G'arb davlatlarining kuchli bosimi ostida, shuningdek hukumatdagi o'z safdoshlari

¹ Шарқий ҳамкорлик- Шарқий Европанинг олти давлати билан интеграция жараёнларини чуқурлаштириш мақсадида ишлаб чиқилган ЕИ лойиҳаси.

qochishni boshlagach muxolifat bilan “Inqirozni tartibga solish to‘g‘risidagi bitim” ga imzo qo‘ydi. “Inqirozni tartibga solish to‘g‘risidagi bitim” quyidigilarni nazarda tutardi: boshqaruvning parlamentar-prezidentlik shaklini ko‘zda tutuvchi malakatning 2004-yilgi konstitutsiyasini qayta joriy etish; “Milliy yarash hukumati”ni tashkil etish; qator konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirish; 2014-yilning dekabridan kechiktirmasdan muddatidan oldin prezidentlik saylovlarini o‘tkazish. Lekin kelishilgan bitimlar hayotda o‘z ijrosini topmadi. V.Yanukovich mamlakatni tark etishga majbur bo‘ldi. 2014-yilning 22-fevralida Oliy Rada prezident V.Yanukovichning “prezidentlik vakolatlarini amalga oshirishdan konstitutsiyaga xilof ravishda voz kechganligi” sabab hokimiyatdan chetlashtirilganligini e‘lon qildi. Prezidentlik vakolatlarini vaqtinchalik bajarish Oliy Radaning yangi rahbari A.Turchinovga topshirildi. Arseniy Yatsenyuk boshchiligida yangi hukumat shakllantirildi. Yangi ukrain hukumati YEI va AQSH tomonidan tezda tan olindi.

Mamlakatning markaziy, shimoliy, g‘arbiy viloyatlari aholisining katta qismi yevrointegratsiyani va‘da qilgan yangi hukumatni qo‘llab-quvvatladi. Lekin mamlakatning sharqiy va janubiy viloyatlari yangi hukumatni tan olishdan bosh tortishdi. Rossiya Qrimdagi, Donetsk va Luganskdagi rossiyaparast kuchlarni qo‘llab-quvvatlay boshladi. 2014-yilning mart oyida Rossiya Qrimni o‘z tarkibiga qo‘shib oldi. Ukraina Oliy Radasi Qrimni vaqtincha okkupatsiya qilingan hudud deya e‘lon qildi. Shu tariqa Rossiya-Ukraina munosabatlarida katta uzilish ro‘y berdi. O‘z-o‘zini mustaqil deb e‘lon qilgan LXR va DXR bilan tutash hududlarda harbiy to‘qnashuvlar davom etmoqda.

Hech qachon ukrain inqiroziga mintaqaviy mojaro sifatida qarab bo‘lmaydi. U allaqachon mintaqaviy mojarodan global masshtabdagi muammoga aylanib ulgurdi. Aytish joizki, ukrain inqirozi jahonning eng yirik davlatlari o‘rtasida “sovuq urush” davridan keyingi dastlab harbiy-siyosiy kelishmovchilik edi. Bu inqiroz sabab yirik davlatlarning turli darajadagi manfaatlari to‘qnash keldi.

Avvalo, ukrain inqiroziga xalqaro munosabatlarda yuz bergan tasodifiy voqea sifatida qaralmasligi lozim. Inkiroz o‘zining azaliy ildizlariga ega. Uzoq tarixdan mintaq turli kuchlarning manfaatlari to‘qnashgan hudud bo‘lib kelgan. Sobiq ittifoq parchalangach geostrategik qulay hisoblangan Qrim Ukraina hududida qoldi. Shunday ekan Ukrainadagi siyosiy jarayonlar rivojining borishiga rasmiy Moskva befarq qramaydi. Bungacha yirik davlatlarning manfaatlari sabab Liviyada, Iroqda, Yugoslaviyada, Liviyada harbiy harakatlar kelib chiqqani hech kimga sir emas.

Ikkinchidan, “Sovuq urush” tugagach Moskva va G‘arb o‘rtasidagi o‘zaro ishonchsizlikka barham berilib uning o‘rnini uzaro ishonch, o‘zaro hurmat ruhi egallagan edi. Lekin ukrain inqirozi bu ishonchni, o‘zaro do‘stlikni yo‘qqa chiqardi. “Berlin devori” yo‘q bo‘lgach uning o‘rnini “ukrain devori” egallamoqda. “Sovuq

urush” davridan qolgan o‘zaro ishonchsizlik kabi illatlar yana qayta rivojlana boshladi.

Uchinchidan, ukrain inqirozi xalqaro xavfsizlikni, iqtisodiy hamkorlikni, halqaro huquqni muhofaza qiluvchi xalqaro tashkilotlar, institutlar faoliyati prinsipial xarakterga ega emasligini, ularni ishonchsiz uyushmalar ekani yaqqol namoyish qildi. YEI hududidagi harbiy qo‘shilmalar, kuchlar ustidan yagona nazorat o‘rnatilmagan. Faqat rejalar ishlab chiqiladi. G‘arbiy Yevropaning yirik davlatlari liderlari esa muammoni telefondagina muhokama qilishadi. Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati mustaqil kuch sifatida umuman ko‘zga tashlanmadi. Ular faqat davlat organlari qo‘lidagi instrument sifatida faoliyat yuritdi.

Muammoni diplomatik munosabatlar vositasida hal etilmagach “sansiyalar urushi” boshlanib ketdi. Bu urush birinchi zarbani jamiyat hayotining iqtisodiy sohasiga berdi.

Tayanch so‘z va iboralar:

“Katta o‘yin” “Yangi katta o‘yin”, Yaqin Sharq, separatizm, YEI, assotsiatsiya, TRASEKA, ISHID, Tolibon, “Sharqiy hamkorlik”, “Al-Qoida”, LXR, DXR, SHHT, fundamentalizm.

Takrorlash uchun savollar.

1. “Yangi katta o‘yin” konsepsiyasi mohiyati nimada?
2. “Yangi katta o‘yin” obyektini qaysi hududlar tashkil etadi?
3. Markaziy Osiyoda yetakchi davlatlarning strategik manfaatlari?
4. Yaqin Sharqdagi geosiyosiy vaziyat qasi sabablar asosan chigallashdi?
5. Ukraina inqirozi va uning xalqaro munosabatlarga ta’siri nimada?

18-mavzu. O‘ZBEKISTON VA SHHT GEOSIYOSIY ISTIQBOLLARI

Shanxay hamkorlik tashkiloti

Maydoni	34,3 mln km ²
Aholisi	1 368 660 000 kishi
Shtab kvartirasi	Pekin shahri
Rasmiy tili	Rus, xitoy
Bosh kotibi	Vladimir Norov (O‘zbekiston)
A‘zo davlatlar	Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, O‘zbekiston, Hindiston, Pokiston
Kuzatuvchi davlatlar	Afg‘oniston, Belarus, Eron, Mongoliya

Reja:

1. Shanxay hamkorlik tashkilotining shakllanish tarixi.
2. Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatining asosiy tamoyillari, maqsad va vazifalari.
3. O‘zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkilotida ishtirokining siyosiy jihatlar.
4. Shanxay hamkorlik tashkilotining Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligini ta’minlashda tutgan o‘rni va asosiy yo‘nalishlari.

1. Shanxay hamkorlik tashkilotining shakllanish tarixi. Shanxay Hamkorligi Tashkilotiga 2001-yil 14-iyunida Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston rahbarlari tomonidan asos solingan. 2017-yil 9-iyundan SHHT ga Hindiston va Pokiston ham qo‘shilishi bilan ishtirokchi davlatlar soni sakkiztaga yetdi. SHHT ning maydoni 34 mln kv.km dan ortiq bo‘lib yer sharidagi umumiy quruqlikning salkam 25 % ini, Yevrosiyo umumiy maydonining esa 60 % ni tashkil etadi. Tashkilotga kiruvchi davlatlarda jami dunyo aholisining deyarli yarmisi istiqomat qiladi. Tashkilotga a‘zo davlatlar o‘rtasida harbiy bitimlar mavjud emas. Ishtirokchi-davlatlar tashkilot doirasida bepoyon mintaqada terrorizmga, separatizmga, narkotik savdosiga qarshi birgalikda kurashishga, iqtisod va ishlab chiqarish, energetika, savdo sohasida, fan va madaniyat sohalarida munosabatlarni yuksaltirishga kelishishgan. Fan-texnika sohasidagi yutuqlar, texnologiyalar, tabiiy

zahiralar, ishchi kuchi, investitsiyalar, moliya borasidagi imkoniyatlardan ratsional foydalanish masalalari muhim o‘in tutadi.

Shanxay hamkorlik tashkilotining xalqaro maydonda qanday vazifalarni bajarishi, unga a‘zo davlatlarning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalari nimalardan iborat ekanligi, umuman SHHT haqida yaxlit bir fikrga kelish uchun bu tashkilotning tarixiga nazar tashlashga to‘g‘ri keladi.

XX asrning 90-yillari boshlarida Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Xalq Respublikasi, shuningdek Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston davlatlarining o‘zaro hududiy chegara tumanlarida turli nizolar kelib chiqishini oldini olish ushbu davlat rahbarlarining oldida turgan asosiy vazifalardan biriga aylanib qolgan edi. Markaziy Osiyo davlatlarining o‘z mustaqilliklarini qo‘lga kiritishi XXR uchun kutilmagan bir hol ediki, bu holat azaldan Xitoyning g‘arbiy qismida yashab kelayotgan turkiyzabon xalqlar milliy tafakkurining uyg‘onishiga va milliy munosabatlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin edi. Agarda jarayon shu shaklda rivojlansa tashqi omillar ta‘sirida XXRning g‘arbiy rayonlarida yuzaga kelayotgan vaziyatni ijobiy tomonga yo‘naltirishning imkoni bo‘lmay qolardi va bu holat Xitoy rahbariyati manfaatlariga umuman to‘g‘ri kelmas edi. Ikkinchi tomondan Xitoy bilan sobiq sovet davlati o‘rtasida hududiy kelishmovchilik hukm surib kelgan. Bu masalalarning tinch yo‘l bilan hal qilish, chegaraoldi tumanlarda o‘zaro munosabatlarni tartibga solish maqsadida Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlari ishtirokidagi “Shanxay beshligi” tuzilmasini tashkil etilishiga olib keldi. “Shanxay beshligi” tuzilmasi 1996-yil 26-aprelda Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlari rahbarlarining Shanxay uchrashuvida tuzilgan bo‘lsada, bu jarayonning boshlanishi 1964-yilning fevralidagi Xitoy va Sovet Ittifoqi o‘rtasidagi chegara masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan muzokaralarga borib taqaladi. Qator sabablarga ko‘ra bu muzokoralarda uzoq vaqt davomida jiddiy siljish bo‘lmadi.

Xitoy-sovet munosabatlaridagi bu sohadagi sezilarli o‘zgarishlar atigi 80-yillarning ikkinchi yarmidan, ya‘ni Sovet Ittifoqida boshlangan “qayta qurish” siyosatidan keyingina jonlandi. Aynan shu davrdan boshlab muzokoralar olib borish faollashdi.

XXRning faqat Markaziy Osiyo davlatlari bilan umumiy chegara uzunligi 3 700 km.ni, Rossiyani ham qo‘shib hisoblaganda esa, tuzilmaga a‘zo davlatlar o‘rtasidagi chegara chizig‘ining uzunligi 7000 km.ni tashkil etadi. Kelishuvga binoan:

- tomonlar bir-biriga nisbatan qurolli kuchlar bilan tahdid qilish yoki uni qo‘llashdan voz kechdilar;
- harbiy ustunlikka erishish uchun bo‘lgan intilishga va hatti-harakatlarga barham berildi;

- chegara hududlarida joylashtirilgan harbiy kontingentlar bir-biriga nisbatan hujum qilish holatida (jangovar) bo‘lmasligi lozim;
- chegaraning har ikki tomonida yuz kilometrlik masofada joylashtirilgan quruqlikdagi, harbiy-havo, chegara qo‘shinlari va Havo Hujumidan Mudofaa qiluvchi Harbiy Havo Kuchlarining shaxsiy tarkibini qisqartirishga kelishildi;
- qisqartirish o‘tkazilgandan keyin chegara hududlarida qurollanish va shaxsiy tarkibning sonini joiz bo‘lgan eng maksimal darajasini belgilash;
- qurolli kuchlarni qisqartirishning metodlari va muddatini aniqlash;
- tomonlar chegarada joylashtirilgan qurolli kuchlari to‘g‘risidagi o‘zaro ma’lumot almashish va bitimning ijro qilinishi yuzasidan nazorat olib borishga kelishildi.

Albatta kelishuvning ushbu bandlari davriy muammolar sirasiga kiradi. Keyinchalik tashkilot o‘z maqsad va vazifalarini kengaytirib bordi. Tashkilotning rivojlanib kengayib borishi evolyusiyasidagi e’tiborli voqealardan biri bo‘lgan beshinchi sammit 2000-yil 5-iyulda Dushanbeda o‘tkazildi. Ushbu sammitda asosiy e’tibor, Markaziy Osiyo mintaqasi bilan bog‘liq muammolar muhokama etilib, asosan, xavfsizlik, mudofaa, huquq tartibot ishlari, tashqi siyosat, iqtisodiyot, atrof-muhitni himoya qilish, madaniyat sohasi bilan bog‘liq hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi. Aynan ushbu uchrashuvda Rossiya Federatsiyasining taklifi va XXRning qo‘llab quvatlashiga binoan birinchi prezidentimiz Islom Karimov boshchiligidagi O‘zbekiston delegatsiyasi kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan edi. Shuningdek, sammit yakunlariga ko‘ra “Shanxay beshligi”ni “Shanxay forumiga”ga aylantirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Sammitda imzolangan Dushanbe Deklaratsiyasi tomonlarning “Shanxay beshligi”ni turli sohalarda ko‘ptomonlama hamkorlik qiluvchi mintaqaviy tuzilmaga aylantirishga bo‘lgan intilishlarini tasdiqladi.

2001-yil 14-15 iyun kunlari XXR poytaxti Shanxayda oltita davlat, Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston davlatlari rahbarlarining uchrashuvida SHHT ni tuzish to‘g‘risidagi Deklaratsiya imzolangandan e’tiboran ushbu tashkilot rasman “Shanxay hamkorlik tashkiloti” deb atala boshlandi va O‘zbekiston unga muassislardan biri, teng huquqli a’zo sifatida qo‘shildi. Yuqorida keltirilganidek bu tashkilotga tuzilishining dastlabki kunlaridan boshlab mintaqaning nufuzli davlatlari qiziqishlarining kattaligi xalqaro munosabatlarda yangi obro‘li, mintaqaviy tashkilotning yuzaga kelganlini ko‘rsatdi.

Insoniyat hayotining qator sohalarini keng qamrab olayotgan globallashuv sharoitida shaxs, davlat va jamiyat rivojiga, umuman insoniyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilayotgan yangidan-yangi xavf-xatar va tahdidlarga qarshi turuvchi, ikkinchi tomondan esa mavjud imkoniyatlardan o‘rinli foydalanish mexanizmi sifatida mintaqada SHHT ning paydo bo‘lishi tabiiy hol edi. Chunki, SHHT ning tuzilishiga asos bo‘lgan “Shanxay beshligi” ishtirokchilari mintaqada xavfsizlik va

barqarorlikni ta'minlash borasida samarali faoliyat olib bora olmas edi. Uning sabablaridan biri Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida faoliyat olib boruvchi tashkilot doirasida albatta O'zbekiston bo'lishi lozim edi. Markaziy Osiyo mintaqasi markazida joylashgan, hamda 20 yil mobaynida urush o'chog'i bo'lib kelgan, ekstremistlar uyasiga aylangan va dunyo bo'yicha narkotik moddalarning katta qismi yetishtiriladigan Afg'oniston bilan bevosita chegaradosh bo'lgan bu davlatni tashkilot a'zolariga qabul qilmasdan mintaqada xavfsizligi borasidagi gaplar faqatgina konferensiyalarda minbardan turib gapiriladigan quruq gapligicha qolib ketardi.

Umuman Shanxay hamkorlik tashkilotining vujudga kelish sabablarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

birinchidan, mintaqada siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarda xavfsizlikni ta'minlash, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, mintaqani uzoq muddatli, barqaror rivojlantirish va mustahkamlashdan Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning barchasining manfaatdorligi;

ikkinchidan, terrorchilik, diniy ekstremizm, separatizm, narkobiznes, noqonuniy qurol-yarog' savdosi kabi dunyoviy xavfsizlikka tahdid soladigan xatarlarga qarshi kurashda tashkilotga a'zo davlatlar manfaatlarining umumiyligi, maqsadlarning mushtarakligi;

uchinchidan, kelajakda SHHT faoliyatida iqtisodiy yo'nalishning shubhasiz izchil rivojlanishi, kambag'allik, aholini ish bilan ta'minlash, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotdagi yechilmagan muammolarni, migratsiya masalalarini hal etish, mintaqada yagona umummintaqaviy bozor yaratish masalalari tashkilotga a'zo davlatlarning asosiy manfaatlariga mos kelishi;

to'rtinchidan, Markaziy Osiyo va Xitoyning Rossiya, Yevropa va jahon bozori bilan bog'lovchi, mintaqaga keng ko'lamda investitsiyalar kelishini ta'minlash uchun katta imkoniyatlar ochadigan transport - kommunikatsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi hamkorlikning eng muhim strategik yo'nalishlariga bo'lgan zaruriyat;

beshinchidan, a'zo davlatlarning tabiiy-geografik imkoniyatlaridan, fan-texnika, texnologiyalar sohasida erishilgan yutuqlardan, ishchi kuchi, kapital, investitsiya borasidagi salohiyatlaridan ratsional foydalanishga intilishi va shu kabi bir qator sabablar SHHT ning shakllanishiga asos bo'ldi deyish mumkin.

2. Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatining asosiy tamoyillari, maqsad va vazifalari

A'zo davlatlar	Poytaxti	Maydoni kv km	Aholisi. mln kishi	YAIM mld.dol	Boshqaruv shakli
O'zbekiston	Toshkent	447 400	33 254 100	222,3	Prezidentlik respublikasi
Rossiya	Moskva	17125191	14678072 0	4027	Prezidentlik respublikasi
Xitoy	Pekin	14043286 11	9598962	2000,5	Bir partiyalik parlamentar respublika
Qozog'iston	Nur-Sulton	2 724 902	18 395 66 0	460,692	Prezidentlik respublikasi
Qirg'iziston	Bishkek	199 951	6 389 500	23,103	Aralash boshqaruv
Tojikiston	Dushanbe	143 100	8 991 725	27,802	Prezidentlik respublikasi
Hindiston	Dehli	3287263	13502490 00	7277	parlamentar respublika
Pokiston	Islomobod	803940	20777452 0	984,5	Federativ respublika

Shanxay hamkorlik tashkiloti NATO singari harbiy yoki harbiy-siyosiy blok, yoki shu shakldagi alyans emas. Shuningdek Varsha shartnomasi tashkiloti kabi alohida bir davlatlar guruhiga yohud halqaro tashkilotlarga qarshi yo'naltirilmaganligini alohida ta'kidlash diqqatga sazovordir. Shanxay sammitida imzolangan Deklaratsiyada tashkilotning hech bir mamlakat yoki tashkilotga qarshi qo'yilmagani, unga qo'shilishni istagan davlatlar uchun doimo ochiqligi alohida qayd qilingan. Tashkilot faoliyatining bu kabi asosiy g'oyasi BMT Nizomi qoidalariga va xalqaro huquq meyorlari maqsadlariga to'la mos keladi va shu sababli SHHT ning 2002-yil 7-iyun Sankt-Peterburgda imzolangan Xartiyasi BMT Nizomining 102-moddasiga muvofiq BMT Kotibiyatida ro'yhatga olingan. Bundan shuni anglash mumkinki, SHHT xalqaro maydonda xalqaro munosabatlarning boshqa subyektlari, davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar bilan keng qamrovli hamkorlik qilish imkoniyatlariga egadir.

Ikkinchi ming yillik intixosida a'zo davlatlarning davlat chegaralaridagi muammolarni muvofiqlashtirib turish bilan bog'liq masalalarni hal etish maqsadida barpo etilgan ushbu tuzilma vaqt o'tgan sari o'z faoliyat dotrasini kengaytirib bordi. 2001-yil 15-iyunda O'zbekistonning a'zo bo'lib kirishi bilan uning maqsadi va faoliyati tubdan yangicha mohiyat kasb eta boshladi. Xususan, bugungi kunda

nafaqat mintaqamizni balki butun yer yuzini tashvishga solayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, separatizm, narkotrafik, noqonuniy qurol-yarog‘ savdosi kabi tahdidlarni oldini olish va bartaraf etishda yuqori samarador mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash maqsadlari tashkilot faoliyatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab olindi. Shuningdek, tashkilotga a‘zo davlatlar o‘rtasidagi savdo, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma‘rifiy, tabiat muhofazasi kabi ko‘plab sohalardagi munosabatlarni, aloqalarni rivojlantirish masalasi ham bundan mustasno emas.

SHHT unga a‘zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni kuchaytirish, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, mintaqada siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilish, xavfsizlikni ta‘minlash, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, umuman dunyoviy xavfsizlikka tahdid soladigan xatarlarga qarshi hamkorlikda kurashish masalalarini o‘zining asosiy maqsadi qilib belgilagan.

Hozirda Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi va O‘zbekiston Respublikasi SHHT ning ta‘sischilari hisoblanib, bu davlatlar tomonidan ushbu tashkilot faoliyatidan ko‘zlangan bir qator maqsad-vazifalari aniq belgilab qo‘yilgan. Shanxay hamkorlik tashkilotining asosiy maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat:

- A‘zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni kuchaytirish, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash;
- mintaqada tinchlikni saqlash va mustahkamlash, xavfsizlikni barqarorlikni ta‘minlash maqsadida, ko‘ptomonlama hamkorlikni rivojlantirish, demokratik tamoyillarga asoslangan yangi, adolatli va oqilona siyosiy, iqtisodiy halqaro tartibotni o‘rnatishga ko‘maklashish;
- halqaro terrorizm, separatizm va ekstremizm, ularning barcha ko‘rinishlariga, noqonuniy narkotika va qurol-yarog‘ savdosi, transmilliy jinoiy faoliyatning boshqa turlariga, shuningdek noqonuniy migratsiyaga qarshi birgalikda kurashish;
- siyosiy, savdo-iqtisodiy, mudofaa, huquqni muhofaza qilish, tabiatni va atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniyat, ilmiy-texnikaviy, fan va ta‘lim, energetika, transport, moliya-kredit sohalarida va shu kabi umumiy manfaatlar mavjud bo‘lgan barcha jabhalarda samarali mintaqaviy hamkorlikni yanada kuchaytirish;
- mintaqada teng huquqli hamkorlik asosida ishtirokchi davlatlar xalqining turmush tarzi va hayot darajasini uzluksiz ravishda yaxshilab borish maqsadida mintaqaning har taraflama va muvozanatli iqtisodiy o‘sishi, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga yordamlashish;
- jahon iqtisodiy integratsiyasi jarayonidagi munosabatlarni koordinatsiyalashtirish;
- a‘zo davlatlarning ichki qonunchiligi hamda halqaro majburiyatlariga muvofiq insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta‘minlanishiga ko‘maklashish;
- boshqa davlatlar va halqaro tashkilotlar bilan munosabatlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rivojlantirish;

- halqaro ziddiyatlarni o‘zaro hamkorlikda bartaraf etish va ularni tinchlik yo‘li bilan hal qilish.

SHHT yuqorida keltirilgan o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda faoliyat olib borar ekan xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan, shuningdek tashkilot Xartiyasida belgilangan ma‘lum bir tamoyillarga asoslanadi. Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatining asosiy tamoyillari;

- davlatlarning suvereniteti, mustaqilligi, hududiy yahlitligi va davlat chegaralarining buzilmasligini o‘zaro hurmat qilish;
- hujum qilmaslik va davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- halqaro munosabatlarda kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid solmaslik;
- chegaradosh hududlarda bir tomonlama harbiy ustunlikdan voz kechish;
- barcha a‘zo davlatlarning teng huquqliligi;
- a‘zo davlatlarning har birining fikrini hurmat qilish va hamfikrlik asosida umumiy nuqtai nazarni izlash;
- umumiy manfaatlar doirasida birgalikdagi harakatlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish;
- a‘zo davlatlar o‘rtasida bo‘lishi mumkin bo‘lgan, ehtimoldagi ziddiyatlarni tinchlik yo‘li bilan hal qilish;
- SHHT ning boshqa davlatlar va halqaro tashkilotlarga qarshi qaratilmaganligi;
- SHHT manfaatlariga qarshi qaratilgan har qanday noqonuniy hatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik;
- SHHT doirasida qabul qilingan Xartiya va boshqa xujjatlardan kelib chiqqan holda barcha majburiyatlarni vijdonan bajarish.

A‘zo davlatlar SHHT doirasidagi faoliyati quyidagi yo‘nalishlarga asoslanadi:

- mintaqada o‘zaro ishonch va xavfsizlikni mustahkamlash hamda tinchlikni saqlash;
- tashqi siyosiy masalalar bo‘yicha, shuningdek, halqaro tashkilotlar va halqaro forumlardagi umumiy manfaatlar doirasida yagona fikrga kelish;
- terrorizm, separatizm va ekstremizm, noqonuniy narkotik moddalar va qurol-yarog‘ savdosi kabi boshqa transmilliy jinoiy faoliyat turlari, shuning noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash tadbirlarini birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirish;
- qurolsizlanish va qurollanish ustidan nazorat masalalari bo‘yicha koordinatsiyani kuchaytirish;
- turli shakllardagi mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash va kengaytirish, tovar, kapital, xizmat va texnologiyalarni doimiy ravishda erkin harakatda bo‘lishini ta‘minlash maqsadida savdo va investitsiyaning rivoji uchun qulay sharoit yaratish;
- a‘zo davlatlarning tranzit potensialini takomillashtirish, energetika tizimini rivojlantirish, transport va kommunikatsiya sohasidagi mavjud infratuzilmalardan samarali foydalanish;

- tabiat muhofazasi bo'yicha maxsus dastur va loyihalarni amalga oshirgan holda mintaqa tabiiy boyliklaridan, jumladan, mintaqa suvlaridan oqilona foydalanish;
- tabiiy va texnogen ko'rinishidagi favqulodda holatlarda ogohlantirish va uning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha o'zaro yordam ko'rsatish;
- SHHT doirasida hamkorlikni rivojlantirish manfaatini ko'zlagan holda o'zaro huquqiy informatsiya almashish;
- fan va texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va turizm sohalarida o'zaro hamkorlikni kengaytirish.

Shanxay hamkorlik tashkiloti o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari, faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqib faoliyatini yanada yaxshilash, tashkilot samaradorligini oshirishni ko'zlab doimiy ravishda tashkilot doirasida uchrashuvlar o'tkazilib turiladi. Shu sabab ijtimoiy hayotning qator sohalarida hamkorlikning chuqurlashuvi Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi o'zaro munosabatlarning sifat jihatini yanada mustahkamlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xitoy poytaxti Pekin shahrida 2002-yilning 7-yanvarida Shanxay hamkorlik tashkiloti Tashqi Ishlar Vazirlarining navbatdan tashqari majlisi bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvda asosan Afg'onistondagi vaziyatni yumshatish va jarayonlarni nazorat qilish muammosi yuzasidan a'zo davlatlarning yakdilligini qayd qiluvchi qo'shimcha ariza qabul qilindi. Shuni unutmaslik lozimki tashkilotning qator a'zolari Afg'oniston bilan chegaradosh hisoblanadi. Ushbu arizada SHHT doirasida Yevroosiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni saqlab qolish, yanada mustahkamlash tamoyillari to'raligicha isbotini topgan va asoslab berilgan edi. Ayniqsa, ushbu uchrashuv chog'ida a'zo davlatlar ishtirokida SHHT Deklaratsiyasining qabul qilinishi tashkilot doirasida davlatlarning o'zaro munosabatlarida tashlangan muhim qadam bo'ldi. Xususan, deklaratsiyada globallashuv jarayonlarida tomonlar maqsadlariga muvofiq keluvchi «o'zaro ishonch, foyda, tenglik va o'zaro hurmat» tamoyillari asosida yangi turdagi xavfsizlik konsepsiyasiga muhtoj ekanligi haqida to'xtalib, xavfsizlikning zamon ruhiga mos keluvchi konsepsiyasini ishlab chiqish kerakligi alohida e'tirof etildi.

SHHT ga a'zo davlatlar terrorizm, separatizm, ekstremizm, uyushgan jinoiy harakatlarning turli ko'rinishlari, narkotik, psixotropik moddalar va noqonuniy qurol-yarog' savdosiga qarshi kurashda hamkorlikni faollashtirish yagona maqsadga muvofiq ekanligi bugungi xavfsizlikni ta'minlashning asosiy omillaridandir deb qaramoq kerak-ki, zero, yillar davomida to'plangan tajribalar yaqinlashib kelayotgan xavfni alohida mintaqada yakka xolda barham berish yoki bartaraf etish aslo mumkin emasligini ko'rsatmoqda. G'arb davlatlarining Afg'onistondagi tolibonlar harakati va ushbu mamlakatda uya kurgan "Al-Qaida" uyushgan jinoiy to'dalariga qarshi (2001-yil 11-sentabrda AQSH da sodir etilgan jinoiy-qo'poruvchilik harakatlaridan keyin)

kurashda birgalikdagi harakatlari, AQSH va Buyuk Britaniya birlashgan ittifoqchi kuchlarining Iroqda yillar davomida shakllangan totalitar tuzumga barham berishdagi amaliy harakatlari buning isbotidir. Biroq, SHHT, bu davlatlarning global xavfsizlikni bartaraf etishdagi harakatlarining natijasi o'laroq, farqli ravishda yangi xavf-xatarlar yoki mavjud muammolarni BMT va uning Xavfsizlik Kengashi orqali hal etishni qo'llab-quvvatlaydi. So'nggi yillarda Rossiyada bunga javoban ayrim qurollarni amalda sinovdan o'tkazish harakatlari jonlandi. Ushbu jonlanishining ham o'ziga xos obyektiv sabablari bor bo'lib, Afg'onistondagi voqealar sababli AQSH harbiy kuchlarining Markaziy Osiyo mintaqasida joylashganligi bilan ham xarakterlanadi. Umuman buyuk davlatlarning xalqaro munosabatlarga o'tkazib kelayotgan hatti-xarkatlaridan «dunyoni qayta bo'lib olish» g'oyasining kuchayayotganligini payqash qiyin emas. Ayniqsa Suriyadagi fuqarolar urishi, Ukraina inqirozi bunga yorqin misol bo'la oladi. Shunday ekan, tashkilotga a'zo davlatlarning mintaq xavfsizligi va barqarorligi uchun hali ko'plab ishlar qilishi, o'z oldiga qo'ygan vazifalarni ado etishi kerakligi oydinlashib bormoqda.

Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar xalqaro terrorizm, milliy separatizm va ekstremizmning turli ko'rinishlariga barham berishga, shuningdek, terroristik guruhlarining faoliyatlarini mablag' bilan ta'minlovchi kanallarni yo'qotishga qaratilgan xalqaro va mintaqaviy uyushma, tashkilotlarning harakatlarini amalda qo'llab-quvvatlagani holda, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun ma'sul bo'lgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xavfsizlik Kengashi obro'-e'tiborini oshirish, xalqaro maydonda BMTning rolini kuchaytirishga xarakat qiladi. Bugungi kunda BMTning tuzilmaviy islohotlarga muxtoj ekanligi oydinlashib bormoqda. Aksariyat G'arb mutaxassislari ham BMT orqali AQSH ning dunyodagi yakka hukmronligiga barham berish yoki imkon darajada cheklash kerakligi to'g'risidagi fikrni bildirishmoqda. SHHT ga a'zo davlatlar, xalqaro yadro qurollarini tarqatmaslik rejimiga bo'ysunishi, Osiyoda ham global doirada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri deb biladi. Xolbuki, SHHT ga a'zo davlatlardan RF va XXR, Yevroosiyo makonida yadroviy kurollarga ega davlatlar sirasiga kiradi (keyinchalik Hindiston va Pokiston). Bu davlatlarning ana shu ustuvor imkoniyatlarini hisobga olgan holda, farqli ravishda Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan Markaziy Osiyoni yadro qurolidan holi zona deb e'tirof etilayotganligini har tomonlama qo'llab-quvvatlashi maqsadga muvofiqdir. Zero, dunyoning u yoki bu burchaklarida o'tkazilgan yadroviy sinovlar ta'siridan dunyo ekologiyasi buzilganligi va atmosferadagi azon qatlamida «tuynuk»lar paydo bo'lganligining o'zi insoniyat taraqqiyoti uchun katta talofatdir. SHHT ga a'zo davlatlar, kelgusida ommaviy qirg'in qurollarini qisqartirish to'g'risidagi Rossiya va AQSH davlatlari tomonidan imzolangan yangi shartnomani ham amalda to'la qo'llab-quvvatlaydi.

Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar o'z oldilariga qo'ygan maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, o'z prinsiplariga asoslangan holda tinchlik yo'lida xavf-xatarning oldini oluvchi barcha shartnomalarni imzolashga tayyor. Zero, SHHT muammolari bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlil qilar ekanmiz, dunyoning globallashuv pallasida SHHT ning dunyo va Yevroosiyo makonida, Markaziy Osiyo mintaqasida kechayotgan muammolar ta'sirida paydo bo'lishi muqarrar bir holat degan xulosaga kelinadi.

3. O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkilotida ishtirokining siyosiy jihatlari

Shanxay hamkorlik tashkilotining barcha a'zo davlatlari singari O'zbekiston ham o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda bir qator maqsadlarni ko'zlab tashkilotga a'zo bo'lgan edi.

SHHT vazifalaridan asosan ikkitasi – keng qamrovli iqtisodiy sohada hamkorlik, fan-texnika, madaniyat sohalarida salohiyatni birlashtirish, atrof-muhit himoyasi, terrorizm va ekstremizmga qarshi birgalikda kurashish tashkilotga a'zo davlatlar uchun doimo o'ta zarur va muhim yo'nalishlar bo'lib qoladi. Afg'onistonda "Toliblar" rejimiga barham berilishi bilan terrorchi guruhlarining keng masshtabda faoliyat yuritish imkoniyatlari sirdan qaraganda kamaygan bo'lsada, lekin Markaziy Osiyoda terroristik, ekstremistik kuchlarning asosiy tahdidlari saqlanib qoldi. Bu makonda ta'sirchan faoliyat olib borgan qator terroristik tashkilotlar o'z faoliyatlarini dunyoning turli mintaqalarida faollashtirib insoniyat boshiga turli ofatlarni yog'dirishmoqda. Bunday xunrezliklarni Iroq, Liviya, Suriya davlatlarida ko'rish mumkin. Keyingi yillarda ishidchilar Suriyada bir oz chekinishgan bo'lsada ular qo'shni afg'on o'lkasida faollashasha boshlashdi. Afg'oniston ulkan miqyosda Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston davlatlari bilan tutashadi. Mintaqaning bunday tusdagi tahdidlardan xavfsizligi kafolatlanmagan. Bu xatarlarni bartaraf etish va butunlay yo'q qilish uchun SHHT ga a'zo davlatlar uzoq muddatli, kompleks chora tadbirlar ko'rishlari va kuchlarni birlashtirishlari lozim. Bu sohada SHHT faol, ta'sirchan tashkilot sifatida katta potensial va ahamiyatga ega, chunki geografik jihatdan bu davlatlar bir hududda joylashgan va umumiy tashvish hamda manfaatlar doirasida chambarchas bog'langan.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra "Shanxay beshligi" tuzilmasi aynan O'zbekistonning unga a'zo bo'lib kirganidan keyingina to'laqonli mintaqaviy xavfsizlik tizimiga aylandi va ko'p qutbli dunyoning shakllanishi uchun real instrument sifatida shakllandi. 2001-yilning yozida Shanxay sammiti chog'ida O'zbekistonning yangi tashkilotga qo'shilishi katta siyosiy voqea bo'ldi. Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar, shuningdek, tahdidlarning asosiy manbai hisoblangan Afg'oniston bilan bevosita chegaradosh bo'lgan O'zbekiston jahon hamjamiyati

tomonidan Markaziy Osiyodagi xavfsizlik tayanchi, deb e'tirof etilmoqda. Nufuzi mintaqaholisinining yarmini tashkil etadigan davlatimizning SHHT ga qo'shilishi tashkilot uchun katta hayotiy ehtiyojga aylangan edi.

SHHT o'z faoliyatining dastlabki bosqichidagi asosiy vazifalaridan biri bu – tashkilotning aksilterror markazini tuzish va a'zo davlatlarning birgalikdagi o'quv mashg'ulotlarini doimiy ravishda o'tkazib turilishi edi. Aksilterror markazi mintaqaga terroristlarning, ekstremistlarning suqulib kirishiga qarshi turuvchi real vosita bo'lishi kerakligini, agarda bu vazifani bajarilishi jarayonida O'zbekiston ishtirok etmaydigan bo'lsa, vazifaning bajarilishi qiyin kechardi. Bugun terrorizm muammosi ko'lami davlatlar, mintaqalar osha global ahamiyat kasb etmoqda. Biror-bir davlat yoki mintaqah yo'qki, terrorizm balosidan aziyat chekmagan bo'lsin. 2001-yil 11-sentabrida AQSH ning Nyu-York va Vashington shaharlarida amalga oshirilgan terrorizm xuruji bu muammoga jiddiyroq e'tibor qaratish lozimligini tasdiqladi. Ana shu voqea sabab dunyo jamoatchiligi yanada sergak tortdi. 11-sentabr voqealari dunyodagi siyosiy vaziyatni birmuncha yangilab qolmay, yaxlit bir muammo atrofida jahon davlatlari kabi Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlarini ham birlashtirdi. Terrorizm xurujiga qarshi uzluksiz kurashish maqsadida tashkilotga a'zo davlatlar tomonidan Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT) tashkil etildi.

Shanxay hamkorlik tashkilotining 2003-yil 29-mayda bo'lib o'tgan Moskva sammitida tashkilotning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasini Toshkentda joylashtirishga kelishib olindi.

SHHT mintaqaviy aksilterror tuzilmasining maqsad va vazifalari aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra a'zo davlatlar terrorchilikka qarshi kurashda o'z kuch-qudrati, imkoniyatlari, tajribasi, uslublarini ushbu tashkilot doirasida birlashtirishlari va mazkur illatga qarshi hamkorlikda kurashishi belgilangan. Turli mazmundagi g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurashda ishtirokchi davlatlar o'rtasida axborot almashuviga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Samarqand shahrida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqida Sh.Mirziyoyev qayd etib o'tganidek "Bugungi kunda mintaqaning barcha mamlakatlari terrorizm, diniy ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga duch kelmoqda.

Ushbu tahdidlarga qarshi samarali kurashishni faqat birgalikda, mintaqah mamlakatlari o'rtasidagi amaliy hamkorlik mexanizmlari doirasida ta'minlash mumkin"¹. Har bir sohada bo'lgani kabi terrorchilikka qarshi kurashda ham har bir davlatning o'ziga xos siyosati, yondashuvi mavjud. Lekin o'zaro yaqin hamkorlikda harakat qilingandagina bu sohada kutilgan samaraga erishish mumkin.

¹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2018.-269 б.

Qayd etib o'tilganidek SHHT ga a'zo mamlakatlarning tabiiy-geografik imkoniyatlari, zahiralari, fan-texnika sohasidagi natijalari, investitsiyalari, ishchi kuchi salohiyati salmoqli ko'rsatkichlarga ega. Shu sabab tashkilot doirasida ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik taraqqiyotning zaruriy va samarali shaklidir. SHHT a'zo davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik orqali butun mintaqa taraqqiyotini tezlatish imkoniyatiga ega, mintaqadagi ko'plab muammolarni bartaraf etish va iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishga hamkorlikdagi xarakatlar orqali erishi mumkin. SHHT doirasidagi iqtisodiy hamkorlik ishtirokchi davlatlarning barchasiga manfaat keltiradi, ayniqsa o'rta-uzoq muddatli kelajak nuqtai nazaridan. Albatta savdo-iqtisodiy aloqalarni yuksaltirish, tovar ayirboshlash hajmini yanada oshirish hamda kooperatsiyani mustahkamlash birdek muhim ahamiyat kasb etadi.

SHHT ga a'zo davlatlar o'rtasida mintaqaning tarnzit-logistika salohiyatidan yanada unumli foydalanish, transport infratuzilmasini jadal rivojlantirish masalalari strategik ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy hamkorlik har bir davlatning o'z taraqqiyotidagi tabiiy ehtiyoj ekanligini o'z vaqtida anglagan O'zbekistonning SHHT ga a'zo bo'lib kirishidan ko'zlagan iqtisodiy maqsadlaridan biri bu tashkilot doirasida qulay transport infratuzilmasiga ega bo'lish, dengiz yo'llariga chiqish uchun qulay imkoniyatlardan keng foydalanish hisoblanadi. O'zbekistonning dengiz yo'llariga chiqish manfaatlari Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida sharqda Sariq dengizi portlariga, janubda Afg'oniston davlati orqali iliq dengiz portlariga chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z navbatida mamlakatimizda xalqaro avtomobil va temir yo'l tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor ahamiyat berishni taqozo etadi.

Ma'lumki, 2003-yil iyunida O'zbekistonning Afg'oniston va Eron orqali janubiy dengizlarga chiqish masalasi ko'rib o'tilgandi. Temir yo'lining qurilishi O'zbekiston, Turkmaniston va Eronlik quruvchilar tomonidan amalga oshirildi. Bu temir yo'l tarmog'ining imkoniyatlaridan tashkilot doirasida foydalanishni jadallashtirish qator vazifalarning yechimiga bog'liq. Turkmanobod – Forob yangi temir va avtomobil yo'llari ko'priklarining ishga tushurilishi O'zbekiston – Turkmaniston - Eron – O'mon transport-tranzit yo'nalishining muhim qismidir. Yaqin kelajakda Xitoy bilan bog'lanishi kerak bo'lgan bu yo'lining ishga tushurilishi bu boradagi muhim qadam hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida, qolaversa O'zbekistonda ekologik vaziyatning yomonlashib borayotganligi Orol muammosining keskinligicha qolib ketayotganligi bilan ham izohlanadi. Ekologik muammolarni hal etish uchun O'zbekiston nafaqat qo'shni davlatlar, balki Yevroosiyo mintaqasi davlatlari bilan ham har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy, ekologiya sohasida hamkorlik qilishiga to'g'ri kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMT minbaridan turib xalqaro hamjamiyatning e'tiborini bu masalaga keng qaratdi: "Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni

qaratmoqchiman. Mana, mening qo‘limda – Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O‘ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo‘q. Dengizning qurishi bilan bog‘liq oqibatlarini bartaraf etish xalqaro miqyosdagi say-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda. Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko‘rgan aholiga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to‘liq amalga oshirilishi tarafdorimiz”¹

Ekologik muhitning yomonlashayotganligi sababli turli darajadagi yashirin kasalliklarning kuchayishi va uni bartaraf etish muammolarining mavjudligi ham Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida hamkorlikni chuqurlashtirishni taqozo etadi. Bu kabi bilan SHHT doirasidagi hamkorlikning chuqurlashuvi O‘zbekistonda suv tanqisligi muammosini bartaraf etishni yengillashtiradi. ekologik muammolar SHHT ga a‘zo davlatlarning hammasida (Rossiya ayrim hududlarining yadroviy bomba chiqindilari saqlanayotgan omborxonaga aylanganligi, Chernobil AESI, Xitoydagi Tarim dengizining qurib ketishi va h.k.lar.) mavjudligi, mintaqadagi ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish jarayonlarining o‘ta keskin va murakkabligi ularning bu muammolar yechimi atrofida jipslashuviga, hamkorlik qilishlariga sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston ichki iste‘moli uchun yog‘och, qog‘oz, temir, turli xil asbob-ukunalar, dori-darmonlarga bo‘lgan talab katta. Chunki bu mahsulotlarga bo‘lgan talabni G‘arb davlatlari hisobidan qondirishning imkoni yo‘q, imkoni bo‘lganda ham katta mablag‘ va mehnatni talab qiladi. SHHT doirasida iqtisodiy munosabatlarda hamkorlik chuqurlashtirilib, yagona iqtisodiy makon barpo qilinsa hozirgacha munosabatlarda saqlanib kelayotgan tavofutlar, to‘siqlar, tushunmovchiliklar barham topadi.

O‘zbekiston BMT, YEXHT kabi universal xalqaro tashkilotlar, MDH kabi mintaqaviy tashkilotlar qatorida SHHT doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorligining sabablarini quyidagilarda ko‘rish mumkin;

birinchidan, mazkur tashkilotga a‘zo davlatlarning siyosiy, iqtisodiy qaysidir ma’noda harbiy salohiyati yuqori bo‘lib, bu omillar nafaqat terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurashda balki boshqa sohalarda ham olib borilayotgan hamkorlikda ham muhim ahamiyat kasb etadi;

ikkinchidan, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi hamkorlikni rivojlantirish, tashkilotning katta potensialga ega ekanligi. Jumladan;

- siyosiy sohada - O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarni samarali kechishini ta’minlashda, xalqaro munosabatlarning to‘laqonli subyekti sifatida faoliyat yuritishida;
- iqtisodiy sohada – tabiiy-geografik, ilmiy-texnik, madaniyat sohasidagi noyob imkoniyatlardan unumli foydalanish, savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash,

¹. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.-250 б.

tashkilot doirasida dengiz yo'llariga chiqish uchun qulay imkoniyatning mavjudligi, sanoat va xalq xo'jaligida hozirgacha tanqis bo'lib qolayotgan mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish, chet el investitsiyalari hajmining o'sishi va yangi texnologiyalarni kirib kelishiga imkon yaratish;

- ijtimoiy sohada – mavjud migratsiya masalalarini hal qilish, ishsizlikni kamaytirish, kambag'allikni oldini olish va bartaraf etishda;
- ekologik sohada – mintaqadagi ekologik muammolarni bartaraf etish, oldini olish, o'ta keskin va murakkab ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish hamda suv tanqisligi muammosini bartaraf etishni yengillashtirishda;
- harbiy sohada – mamlakat harbiy qudratini yanada o'sishi hamda ichki davlat hamda mintaq xavfsizligini ta'minlashda amaliy hamkorlikni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

4. Shanxay hamkorlik tashkilotining Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligini ta'minlashda tutgan o'рни va asosiy yo'nalishlari. SHHT ning xalqaro munosabatlar tizimida barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rniga baho berilar ekan, Yevroosiyo mintaqasida ushbu tashkilotning jahon siyosiy maydonida uning maydonga chiqishini obyektiv jarayon sifatida ko'rish mumkin. Xususan, SHHT ning o'рни Yevroosiyo makonida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, qolaversa, ko'proq siyosiy-harbiy jabhalarda paydo bo'lgan «ijtimoiy bo'shliq»ni to'ldirish hamda shu maqsad yo'lida mintaq xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash bilan belgilanadi. Buni o'tgan yillar mobayida mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlarining diqqat markazida bo'lib kelganligidan ham anglash mumkin.

SHHT ning xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashi deganda, xalqaro munosabatlarning subyekti sifatida shakllangan ushbu tashkilotning jahonning nufuzli tashkilotlaridan ayrim o'ziga hos jihatlari bilan farq qilishini e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. SHHT ning ayrim jihatlari deganda (Rossiyani e'tiborga olmaganda) asosan Osiyo mintaqasi davlatlari ishtirokida tashkil etilganligi bilan ajralib turadi. Tashkilotning doimiy organlaridan biri - Kotibiyati XXR poytaxti Pekinda bo'lsa, Mintaqaviy Aksilterror Tuzilmasi esa Toshkentda joylashgan. Bundan O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida hal qiluvchi, muhim rol o'ynashini ko'rish mumkin. Shuningdek O'zbekiston terrorchilar uyasi hisoblangan Afg'oniston bilan bevosita chegaradosh hisoblanadi. Bu borada Qozog'istonning imkoniyatlari ham O'zbekistonnikidan qolishmaydi. Qozog'iston boshqa Markaziy Osiyo davlatlaridan farqli o'laroq, Rossiya va XXRsi manfaatlarini tutashtiruvchi asosiy «chorraha»da joylashgan.

Bugungi kunda Osiyoda Osiyo Tiklanish va Taraqqiyot Banki, ASEAN, Arab Davlatlari Ligasi va boshqa shunga o'xshash ma'lum bir manfaatlar asosiga qurilgan

jahon hamjamiyatining ko'pgina nufuzli tashkilotlari mavjud. Ammo, Shanxay hamkorlik tashkiloti mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etishga qaratilganligi bilan ham ajralib turadi. Shu bilan birga, yuqorida ta'kidlanganidek mintaqada iqtisodiy-ijtimoiy muammolar bilan bir qatorda harbiy siyosiy, hududiy chegaralar, yadroviy, ekologik, atrof-muhit muammolari, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan shug'ullanadi.

SHHT o'z oldiga quygan maqsad va vazifalari doirasining kengligi borasida ham Osiyodagi boshqa tashkilotlardan farq qiladi. Chunki Osiyo tashkilotlarining aksariyatida iqtisodiy muammolar bilan bog'liq omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan sammit chog'ida qabul qilingan tashkilotning Xartiyasida belgilanganidek Shanxay hamkorlik tashkiloti mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlar ekan, turli hil bloklarga qo'shilmaslik g'oyasini ilgari suradi. Tashkilotga a'zo davlatlar mintaqa umummanfaatlariga zid keluvchi, mintaqa xavfsizligi va barqarorligiga xavf soluvchi tahdidlarni o'zaro hamkorlikda bartaraf etish huquqlariga egadir. Pokistonning SHHT ga a'zo bo'lib kirishi bilan Afg'oniston bilan chegaradosh davlatlar soni to'rtadan (Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston, Xitoy) beshtaga yetdi. Bugungi kunda Eron davlati SHHT ja kuzatuvchi maqomiga ega. Agar erta indin Eron tashkilot a'zosi aylansa unda terrorchilar uyasi deb e'tirof etilayotgan Afg'oniston barcha tomondan SHHT a'zolari o'rtasidagi davlatga aylanadi. Ana unda Afg'onistonda tinchlikni o'rnatishda SHHT mustahkam pozitsiyaga ega bo'ladi.

Shanxay hamkorlik tashkilotining xalqaro munosabatlar tizimida xavfsizlik va barqarorlikni mustahamlashdagi o'rining yana bir belgisi bu – tashkilotning turli dinlarga e'tiqod qiluvchi, ulkan mintaqadagi milliy mentaliteti jihatidan butunlay farq qiluvchi, xar-hil madaniyatga ega xalqlar va elatlar manfaatlarining birlashtirganligidir. Qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak Yevropa Ittifoqi butunlay qiyofa ask ettiradi: maydonning ixsamligi, asosan bitta dinning usunligi, slavyan va roman madaniyatiga mansub xalqlarning yashashi va shu kabilar. Tashkilotning bu xususiyati uning qator ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot bilan bog'liq muammolarning yechimiga kirishganda o'ziga xos diqqat, ehtiyotkorlik talab etadi. Ushbu salohiyat, uni ta'min etish bilan bog'liq jarayonlar tashkilot nufuzining ortishiga sabab bo'ladi. Bu jarayon xalqaro hamjamiyat tomonidan hozirdanoq tan olinganligi buning isbotidir.

Mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga harakat qilar ekan SHHT ga a'zo davlatlar rahbarlari umummilliy manfaatlardagi tutash uyg'unlikni yaxshi tushunadilar. Masalaning yana bir jihati shundaki, tashkilot doirasida mintaqaviy – iqtisodiy, siyosiy, harbiy, hududiy, milliy, transport, kommunikatsiya va boshqa sohadagi masalalarni o'zining geosiyosiy joylashuv o'rnidan kelib chiqib hal qilish amalda ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. SHHT ga a'zo davlatlarining ijtimoiy-

iqtisodiy, jugʻrofiy joylashuvi, hamda ularning bugungi sharoiti bir-biridan jiddiy farq qiladi. Masalan, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida Xitoyning bugungi taraqqiyotini Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlariga tenglashtirib boʻlmaydi. Aytish mumkinki, YEI bunday jiddiy farqlar bilan hisoblashishni hoxlamaydi. XXR Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida oʻz manfaat va takliflarini ana shu imkoniyatlaridan kelib chiqib ilgari suradi va h.k. Shunday ekan, SHHT ga aʼzo davlatlar tomonidan xalqaro munosabatlar tizimida tinchlikni saqlash, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash jarayonlarida manfaatlarning «plyus-minus» tomonlari atroflicha inobatga olinsa foydadan holi boʻlmaydi. Ana shunday vaziyatlarda SHHT doirasida u yoki bu muammolar koʻrib chiqilishi davomida aslida unchalik ahamiyat kasb etmaydigan, keng jamoatchilik koʻz oldida esa oʻta ahamiyatli koʻrinadigan masalalar yechimi osonlashadi. Bu kabi masalalar oʻzaro bahs va munozaralar yordamida oʻz yechimini topishi mumkin.

Shunday qilib, yuqoridagi koʻrsatilganlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin;

- Shanxay hamkorlik tashkilotining Yevroosiyo mintaqasida ishtirokchi davlatlarning bir-biriga boʻlgan ishonchini mustahkamladi;
- SHHT ning mintaqada ijtimoiy-siyosiy «vakuum» vujudga kelgan bir paytda paydo boʻlishi, mintaqada xavfsizlik, barqarorlik va taraqqiyotni kafolatlashning eng muhim omili boʻlib xizmat qildi;
- SHHT doirasidagina mintaq xalqlarining xavfsizlik va barqarorligini taʼminlash, ularning bu boradgi hoxish va istaklarini ruyobga chiqara olishi mumkinligi amalda isbotlandi;
- Shanxay hamkorlik tashkiloti bundan keyin aʼzo davlatlarning oʻzaro hamkorlik qilish iqtisodiy, madaniy, kommunikatsiya, tranzit aloqalarini tiklash, ekologik muammolarni birgalikda bartaraf etish, mintaqada kelib chiqishi mumkin boʻlgan milliy nizolarning oldini olish va ularga barham berish imkonini yaratadi;
- tashkilot BMT tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligi va barqarorligini, erkin taraqqiyot, yadroviy qurollarini cheklash va shu orqali atrof muhitni sogʻlomlashtirish dasturlarini ishlab chiqish va ruyobga chiqarish masalalarida unga yordam berib, bu sohadagi imkoniyatlarni yanada kengaytiradi;
- SHHT Markaziy Osiyo davlatlarining oʻtish bosqichida ijtimoiy-siyosiy muammolarning yechimini topish hamda ularning chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalda tadbir etish maqsad va vazifalarini ruyobga chiqarishda salmoqli oʻrin tutadi.

Tayanch soʻz va iboralar:

SHHT, “Shanxay beshligi”, “Shanxay forumi”, “4+1” bitimi, koʻp qutbli dunyo, totalitarizm, separatizm, fundamentalizm, integratsiya, MATT, ekologiya

Takrorlash uchun savollar

1. Shanxay hamkorlik tashkilotining vujudga kelishiga tarixiy ehtiyoj?
2. “Shanxay beshligi” qanday vazifalar yechimi bilan shug‘ullanishi lozim?
3. Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatining asosiy tamoyillarini aniqlang?
4. Shanxay hamkorlik tashkiloti maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. O‘zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkilotida ishtirokining siyosiy jihatlari nimada.
6. Shanxay hamkorlik tashkilotining Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligini ta’minlashda tutgan o‘rni va asosiy yo‘nalishlari tahlil qiling.

Glossariy

O‘ZBEKISTON	Markaziy Osiyoning qoq o‘rtasida qismida joylashgan mustaqil davlat. Maydoni 447,4 ming kv.km. Aholisi 31,6 million kishini tashkil etadi (2016). Ma’muriy jihatdan 12 ta viloyat- Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg‘ona, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlari, shuningdek Toshkent shahri va Qoraqalpog‘iston respublikasidan iborat. Poytaxti – Toshkent shahri. O‘zbekiston xalq ho‘jaligida ilg‘or texnika bilan jihozlangan sanoatning yuzdan ortiq tarmoq va sohasi mavjud. Paxta va undan qayta ishlangan mahsulotlarni eksport qilishda jahonda ikkinchi o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston o‘zining boy o‘tmishi, tarixiy va qo‘hna madaniyatiga ega. Bu hudud bundan 500-700 ming yil burun odamzod paydo bo‘lgan joylar sirasiga kiradi. M.av 7-6 asrlarga kelib Qadimgi Xorazm va Baqtriya davlatlari shakllandi. Mustaqillik uchun kurashgan To‘maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Torobiy kabi ko‘plab xalq qahramonlari tarixdan ma’lum. O‘zbekiston Imomal-Buxoriy, Imomat-Termiziy, Marg‘inoniy, al-Xorazmiy, Farg‘oniy, Beruniy, IbnSino, Zamaxshariy, Forobiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek,
--------------------	---

	Zahiriddin Muhammad Bobur, Feruz kabi buyuk siymolar yashagan zamindir. O'zbekiston mustaqilligini 170 dan ortiq davlatlar tan oldi, o'nlab mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan.
AEROKRATIYA	Xavoda hukmronlikni qo'lga kiritish uchun kurash
AND GURUXI (KARTAXEN SHARTNOMASI)	1969-yilda tashkil etilgan Lotin Amerikasi davlatlarining savdo-iqtisodiy tashkiloti. Boliviya, Chili, Venesuela, Kampuchiya, Ekvador, Peru.
ANZYUK	(Australia, Hew Zealand, United Kingdom-ANZUK)-1971-yilda Angliya tashabbusi bilan tashkil etilgan harbiy-siyosiy guruh. Tarkibiga Angliya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Singapur va Malayziya kiradi.
ANZYUS	(Australia, Hew Zealand, United States-ANZUS)- AQSH tashabbusi bilan 1951-yilda San-Fransiskoda imzolangan Tinch okeani havfsizlik pakti asosida ANZYUS o'z faoliyatini 1952-yildan boshladi. AQSH, Avstraliya va Yangi Zelandiya kirgan.
ARAB DAVLATLARI LIGASI	Arab davlatlari, shuningdek ularga do'stona munosabatda bo'lgan, arab tili rasmiy ahamiyatga ega bo'lgan arab bo'lmagan davlatlar o'rtasida tashkil etilgan xalqaro tashkilot. Tashkilot 1945-yil 22-martda tashkil etilgan. Tashkilotning oliy organi Liga kengashi bo'lib, shtab-kvartirasi Qohirada joylashgan. A'zolar soni 22 ta. Liganing maqsadi a'zo davlatlar o'rtasida aloqalarni chuqurlashtirish, arab davlatlari manfaatlarini, mustaqilligini himoya qilishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish hisoblanadi. Shuningdek a'zo davlatlar iqtisodiy, moliyaviy, madaniy, ilmiy, jinoyatchilikka qarshi kurash borasida ham hamkorlikni yo'lga qoyishgan.
ARAB DAVLATLARI LIGASI	1945-yilda tashkil etilgan. 22 ta davlat a'zo bo'lib kirgan. A'zolar: Misr, Iroq, Livan, Saudiya Arabiston, Suriya, Iordaniya, Liviya, Yaman, Tunis, Sudan, Marokash, Quveyt, Baxreyn, Qatar, Ummon, Gveniya, Liberiya, Nigeriya, Kamerun, Mavritaniya, BAA, Jazoir, Gana, Angola, Tanzaniya, Benin. Tashkilotni asosiy vazifasi sifatida quyidagilar ilgari surilgan: a'zo davlatlar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, mustaqillikni mustahkamlash, moliya sohasida hamkorlik, arab davlatlarinii xalqaro

	maydonda himoya qilish, madaniyat va axborot sohasida hamkorlik qilish va shu kabilar. Arab davlatlari ligasi a'zolari o'rtasida qator kelishmovchilik mavjud. Arab-Isroil urushi, Iroq urushi, Liviya urushi, Suriya urushlari yuz berganida qator arab davlatlari AQSH ni qo'llab chiqishdi.
ASEAN	ASEAN (ing. Association of South East Asian Nations — Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi) Janubiy – Sharqiy Osiyodagi mintaqaviy, hukumatlararo siyosiy, iqtisodiy, madaniy tashkilot. 1967-yil 8-avgustda tashkil etilgan. Tashkilotning bosh ofisi Jakarta shahrida joylashgan. Unga a'zo mamlakatlarning umumiy maydoni 4 480 000 km² ni tashkil etadi. Ishlab chiqarilayotgan YaiM 4 044 trillion dollarga teng. Aholisi 592 000 000 kishini tashkil etadi. Rasmiy tili ingliz tili hisoblanadi. Oliy boshqaruv organi davlat va hukumat rahbarlarining sammiti bo'lib, rahbarlik davlatlarning ingliz alfavitidagi ketma-ketligida amalga oshiriladi. A'zo davlatlar: Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand, Filippin. Keyinchalik Bruney (1984 yil 7 yanvar), Vetnam (1995-yil 28 iyul), Laos va Myanma (1997-yil 23-iyul), Kambodja (1999 -yil 30- aprel). ASEAN ning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat: • BMT Ustavi tamoyillariga sodiqlik asosida mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash; • O'zaro yordam va hamkorlik asosida a'zo davlatlar o'rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yuksalishni jadallashtirish; • Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qoyish. ASEAN o'z faoliyatini quyidagi hujjatlar asosida amalga oshiradi: ASEAN deklaratsiyasi (1967-yil), Janubiy-Sharqiy Osiyoda tinchlik, erkinlik va neytralitet to'g'risida (1971-yil), Do'stlik va hamkorlik to'g'risida (1976-yil), Manila Deklaratsiyasi (1992-yil), Yadro qurolidan xoli hudud (1995-yil), Terrorizmga qarshi hamkorlikda kurashish to'g'risidagi deklaratsiya).

AVTARKIYA	Yuyunon- autos-o‘zim, arkeo- ta‘minot, yetarli. Muayyan davlat iqtisodiyotini boshqa davlatlar iqtisodiyotidan ajratib qo‘yish, o‘zini-o‘zi zarur mahsulotlar bilan ta‘minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosat.
BIPOLYAR TIZIM	Ikki buyuk davlat karama-karshiligiga asoslangan va ular tomonidan yaratilgan harbiy-siyosiy bloklar tizimi. Asosan “Sovuq urush” davrida amal qilgan. Xalqaro siyosat asosan Moskva va Vashington tomonidan belgilab berilgan.
BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI	Yer yuzida tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash, davlatlarning millatlarning o‘zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tuzilgan. BMT faoliyatining muhim yo‘nalishi davlatlar va millatlar o‘rtasidagi nizo hamda ziddiyatlarni faqat tinch yo‘l bilan –muzokaralar orqali xal qilishdan iborat. BMT nizomi 1945-yil San-Fransiskoda ishlab chiqilgan va shu yilning 24-oktabridan kuchga kirgan. BMT o‘z tarkibiga oltita asosiy organ, shuningdek bu organlarga ko‘maklashuvchi qo‘mita va komissiyalardan iborat. Bular: 1) Bosh Assambleya- har yili sentabr oyida chaqiriladi. Unda tashkilotga a‘zo barcha mamlakatlar qatnashadi. 2) Xavfsizlik kengashi- davlatlar o‘rtasidagi tortishuvlar, tajovuz va agressiyaning oldini olish kabi masalalar bilan shug‘ullanadi. 15 ta davlat vakillaridan tashkil topadi. Ulardan 5 tasi doimiy a‘zo. 3) Iqtisodiy va ijtimoiy kengash- xalqaro va ijtimoiy hamkorlik sohalariga oid masalalar bilan shug‘ullanadi. 4) Vasiylik kengashi-tobe hududlar masalalarini nazorat etib boradi. 5) Xalqaro sud 6) BMT Kotibiyati. O‘zbekiston Respublikasi BMT safiga 1992-yil 2- martda qabul qilingan. 1993-yil fevralda Toshkentda BMT ning vakolatxonasi ochildi. Bugungi kunda BMT ning a‘ozalari soni 193 ga yetdi.
BRIKS	BRIKS(ing. <i>BRICS</i> — Brazil, Russia, India, China, South Africa atamallari qisqartmasi) — <u>Braziliya</u>, <u>Rossiya</u>, Hindiston, Xitoy, Janubiy Afrika respublikasi o‘rtasida tuzilgan. Braziliya qishloq ho‘jaligi mahsulotlariga, Rossiya mineral resurslarga, Hindiston arzon intellektual salohiyatga, Xitoy kuchli ishlab chiqarish bazasiga, JAR tabiiy zahiralarga boy. Ular ushbu salohiyatlaridan unumli foydalanish orqali jahonning kuchli

	markazlariga qarshi turishga kelishib olishdi. BRIKS davlatlarining ba’zi ko‘rsatkichlar boyicha jahon reytingi <table><tr><td>Kategoriya</td><td>Braziliya</td><td>Rossiya</td><td>Hindiston</td><td>Xitoy</td><td>JAR</td></tr><tr><td>Maydoni</td><td>5</td><td>1</td><td>7</td><td>3</td><td>25</td></tr><tr><td>Aholisi</td><td>5</td><td>9</td><td>2</td><td>1</td><td>25</td></tr><tr><td>Ishchi kuchi</td><td>5</td><td>7</td><td>2</td><td>1</td><td>34</td></tr><tr><td>Oltin zahirasi</td><td>7</td><td>3</td><td>6</td><td>1</td><td>33</td></tr><tr><td>Qurolli kuchlar soni</td><td>14</td><td>5</td><td>3</td><td>1</td><td>59</td></tr></table>	Kategoriya	Braziliya	Rossiya	Hindiston	Xitoy	JAR	Maydoni	5	1	7	3	25	Aholisi	5	9	2	1	25	Ishchi kuchi	5	7	2	1	34	Oltin zahirasi	7	3	6	1	33	Qurolli kuchlar soni	14	5	3	1	59
Kategoriya	Braziliya	Rossiya	Hindiston	Xitoy	JAR																																
Maydoni	5	1	7	3	25																																
Aholisi	5	9	2	1	25																																
Ishchi kuchi	5	7	2	1	34																																
Oltin zahirasi	7	3	6	1	33																																
Qurolli kuchlar soni	14	5	3	1	59																																
BUYUK DAVLATCHILIK SHOVINIZMI	Bir davlatning boshqa davlat yoki davlatlar ustidan siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va harbiy hukmronligini o‘rnatishga qaratilgan nazariya va amaliyot. Xususan, XIX asr oxiridan boshlab Rossiya imperiyasining hukmron doiralari boshqa xalqlarga, jumladan, o‘rta Osiyo xalqlariga nisbatan ana shunday siyosat olib borganlar. Buyuk davlatchilik shovinizmi siyosati Avstro-Vengriya imperiyasi, Turkiya sultonligida ham kuchli bo‘lgan. Ikkinchi jahon urushida Germaniya fashizmi bu siyosatdan kelib chiqib, nemislarni “oliy” irq, ular jahondagi barcha xalqlar ustidan hukmron bo‘lishlari kerak, deb targ‘ib qilishgan. Urushdan keyingi davrlarda ham bir qancha mamlakatlar buyuk davlatchilik siyosatini xilma xil ko‘rinishda olib bormoqdalar.																																				
BUYUK O‘YIN	«Greatgame»-konsepsiyasi xalqaro munosabatlar tarixida ikki bosqich yoki ikki to‘ldirib iborat. Konsepsiya obyekti Markaziy Osiyo mintaqasi, predmeti esa mazkur mintaqadagi siyosiy jarayonlar. Konsepsiya subyektlari Angliya va Rossiya. Konsepsiyaning ikkinchi to‘ldirib XX asr oxirida yangi mustaqil davlatlar – Ozarbayjon, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘istonni o‘z nazoratiga olish istagi bilan Turkiya va Eron davlatlari tashabbuskorligida shakllandi. Keyinchalik bu ikki davlat																																				

	qatoriga AQSH, Pokiston, Rossiya, Xitoy, Hindiston va boshqa yetakchi davlatlar ham qo'shildi. Ba'zan mutaxassislar o'rtasida konsepsiya ikkinchi to'ldirini «NewGreatgame» - «Yangi buyuk o'yin» konsepsiyasi deb ham qo'llanilmoqda.
CHEGARAVIY MAYDON	bunday maydonda ma'lum bir milliy jamoa istiqomat qilsada, davlatning u yerda nazorat qilish funksiyasi rasmiy xarakterda bo'lib, yashayotgan odamlar turmush tarzi chegaradosh davlatga yaqinroq bo'ladi.
CHORRAHAVIY YOKI TUTASHGAN MAYDON	qanday milliy jamoalarning yashashidan qat'iy nazar, ikki yoki undan ko'proq davlatlar da'vogar bo'lgan geosiyosiy borliq. Biroq u chegaraviy maydondan milliy jamoaning atrofida emas, endemik maydon ichkarisida joylashgan bo'lishi bilan (masalan, Tog'li Qorabog'), mintaqadagi jamoaning etnik va diniy tarkibi tarixan o'sha jamoaga mansub bo'lsada, borliqning bugungi davlatlar chegarasida chorrahaviy xarakter kasb etayotganligi bilan farqlanadi.
DEMARKATSIYA	Davlatlar o'rtasidagi chegarani konunchilik asosida o'rnatish.
DISSIDENTLAR	Muvofiq bo'lmagan, boshqacha fikrlovchi. Davlat ichki va tashqi siyosatida davlat nuqtai nazarini yoqlamaydigan, hukmron g'oyaga qo'shilmaydigan fuqarolar
DOKTRINA	Lotincha ta'limot, davlatning ichki va tashki siyosati yo'nalishini belgilovchi tub karash va koidalar tizimi.
ENDEMIK MAYDON	uzoq vaqtlardan beri ma'lum bir milliy guruh tomonidan nazorat qilib kelinayotgan borliq bo'lib, o'sha borliqning aynan shu jamoaga tegishli ekanligini boshqa milliy jamoalar tomonidan tan olinishini nazarda tutadi. Ba'zan endemik maydon davlatlarning chegaralarini inkor etadi va boshqa geosiyosiy maydonlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.
EVROPA ITTIFOQI	1991-yil dekabrda Maastrixt bitimlari asosida tuzilgan bo'lib bugungi kunda 28 ta mamlakatni birlashtiruvchi tashkilot. Unda bir tomondan xalqaro tashkilot, ikkinchi tomondan davlat belgilari uchrasada rasmiy ravishda har ikkalasi ham e'tirof etilmaydi. Yei xalqaro huquqning subyekti hisoblanmasada xalqaro munosabatlarni belgilashda muhim rol oynaydi. Lekin Yei ning shakllanishi 2-jahon urushidan keyin Yevropa davlatlari oldida turgan turli sohalaridagi muammolarni birgalikda xalqaro etishdan boshlandi. 1951- yilda 6 ta davlat- Fransiya, Italiya, GFR, Belgiya, Niderlandiya,

	Lyuksemburg ko‘mir va po‘lat boyicha Yevropa uyushmasini (EKPB) tashkil etishdi. Bu Yevropa integratsiyasi yo‘lidagi birinchi kadam edi. YekPB 1957-yildan Yevropa Iqtimldiy Hamjamiyati deb nom oldi. Maastrixt bitimlari imzolangach yagona valyuta, Yevropa siyosiy ittifoqini shakllantirish, Yevropa komissiyasini tuzishga kelishib olindi. 1993-yil 1-noyabrdan Yei nomini oldi. 1999-yildan yagona valyuta yevroga (naqdsiz hisob) o‘tildi. Rasmiy tili 24 ta. Ma‘muriy markazlar: Bryussel, Strasburg, Lyuksemburg, Gaaga, Frankfurt-na-Mayn, rahbar-davlat 2009-yil 1-yanvardan ChexiY. Umumiy maydoni 4 892 685 km² ga teng bo‘lib unda 506.820 mln aholi yashaydi. YaiM 16.1 trillion dollarga teng.
FANATIZM	Fanatizm(frants. ibodat)- muayyan g‘oyalarning to‘g‘ri ekanligiga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilganlikni, o‘zgacha qarash va g‘oyalarga murosasiz munosabatni ifodalovchi qarashlar va hatti-harakatlar tizimidir. U avvalo insonning hissiyotidan, biror-bir narsaga o‘ta beriluvchanligidan kelib chiqadi.
FUNDAMENTALIZM	So‘zi lotinchadan kelib chiqqan bo‘lib, asos, poydevor ma‘nosini bildiradi. Fundamentalizm barcha dinlarga hos bo‘lib, unda dinning asli qanday bo‘lsa, shundayligicha saqlab qolishga harakat qilinadi. Fundamentalizm – ya‘ni aqidaparastlik – ma‘lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va shu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning qarashlaridir. Diniy fundamentalizm – din aqidalarini so‘zma-so‘z talqiniga asoslangan e‘tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qoyadigan, muayyan din, shu jumladan Islom dini e‘tiqodi shakllanishining boshlang‘ich ya‘ni Muhammad alayhi vassalam davrlarida belgilangan barcha yo‘l-yo‘riqlarning qat‘iy va og‘ishmay bajarilishini talab qiladigan tushunchadir.
GEOSIYOSIY MINTAQA	bu siyosiy, iqtisodiy, madaniy, savdo va boshqa aloqalar uchun qulay imkoniyatlarga va istiqbollarga ega bo‘lgan geografik maydon.
GEOSIYOSIY TAYANCH NUQTA	Bu shunday hududki u davlatga tegishli bo‘lsada total maydon hisoblanmaydi. Bu hududga boradigan tarnsport-aloqa tarmoqlari boshqa davlatga tegishli bo‘lib qoladi. Masalan

	Port-Artur, Kalinigrad
GEOSTRATEGIK MINTAQA	O‘zining geografik joylashuvi, turmush tarzi, xarakteri, savdo va madaniy-mafkuraviy aloqalarining yo‘nalishi bilan xorijiy davlatlar tashqi siyosatida munosabatlar o‘rnatish uchun ustuvor yo‘nalishda ko‘rilayotgan makon. Shuningdek, geostrategik mintaq – bu davlat yoki chegaradosh davlatlar (mintaqa) hududlari ham bo‘lishi mumkin. Uning geostrategik ahamiyati muhim transkommunikatsion yo‘llarga tutashganligid
GOLLIZM	Sharl de Golning Fransiyanı buyuk davlat sifatida tiklanishini asosiy maqsad qilib quygan konsepsiyasi shunday atalgan. Asosiy tushunchalari: millat, kuchli davlat, ulug‘vorlik, ijtimoiy islohotlar.
HEARTLAND	«Asosiy o‘lka» - Yevrosiyaning shimoliy–sharqiy hududlarini o‘z ichiga oladi. Oksford universiteti professori Makinder tomonidan «Tarixning geografik o‘zagi» asarida ishlatilgan. Rivojlanishning asosiy o‘lkasi sifatida ishlatilishiga qator omillar sabab bo‘lgan: joylashgan davlatlarning rivojlanganligi; xududning maydoni, iqlimi, tabiiy zahiralarning miqdori, transporti va shu kabilar.
HOKIMIYATNING GLOBALASHUVI	Barcha xalqlarni o‘zida birlashtirishni maqsad qilib qoygan, aslida hokimiyat bir hovuch gegemonlar qo‘lida bo‘ladigan «jahon saltanati» ni barpo etishga intilish. Bu hokimiyat aslida yirik moliya oligarxlari, transmilliy korporatsiyalar manfaatini ifoda etadi.
INSON ONGI VA QALBI UCHUN KURASH	Hozirgi zamondagi xilma-xil usullar va vositalarda olib boriladigan mafkuraviy targ‘ibot va tashviqotning asosiy obyekti va maqsadi. Har qanday g‘oya faqat inson qalbini egallagan, ma‘naviy-ruhiy holatini uzviy qismiga aylangandaginaharakatga da‘vat etuvchi, rag‘batlantiruvchi kuchga, faoliyat dasturiga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda mafkuraviy kurashning bosh maqsadi inson qalbini zabt etish orqali uning ongini egallash bo‘lib qolmoqda. Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deb ta’kidlaydi: «Bugungi kunda insoniyat qo‘lida mavjud bo‘lgan qurol-yarog‘lar Yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf-insonlarni qalbi va ongini

	egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmash lozim».
INTEGRATSIYA	Mintaqaning fizik, geografik imkoniyatidan kelib chiqadigan obyektiv jarayon bo‘lib, ma‘lum maqsad-manfaatlarni realizatsiya qilishga qaratilgan tomonlarning ixtiyoriy hatti - harakatining natijasidir.
IQTISODIY GLOBALASHUV	Transmilliy korporatsiyalar, yirik moliya guruhlar tomonidan jahonni yagona bozorga aylantirish va shu tarzda unda o‘z tanho hukmronligini o‘rnatishga intilish.
IROQ VA SHOM ISLOM DAVLATI- ISHID	ISHID – Iroq va Shom islom davlati. Bu davlatning tashkil etilishi G‘arbning musulmon dunyosiga nisbatan tutgan siyosatining o‘ziga xos aksi deyish mumkin. IGIL 2006-yilda Iroq va Suriya hududlarining bir qismida tashkil etildi. Davlat lideri Abu Bakr al-Bag‘dodiy hisoblanadi. Shtab-kvartirasi Suriyaning Rakka shahrida joylashgan. Uning tashkil etilishida “Al-Qoida” bo‘limlari, shuningdek yana o‘n bitta radikal ruhda islomiy guruhlar faol ishtirok etishdi. Bugungi kunda IGIL shariat asosida boshqariladigan Yevropaga jiddiy havf solayotgan yarimreal kvazidavlat hisoblanadi. AQSH ning birinchi raqamli dushmani “Al-Qoida” emas IGIL bo‘lib qoldi. IGIL o‘z faoliyati davomida “Al-Qoida” faoliyatini chuquq tahlil etigan holda uning xatolarini takrorlamaslikka harakat qilmoqda: tolerantlikni ifoda etuvchi mavhum ta’limotlarni emas an’anaviy islomni qo‘llab-quvatlamoqda; Forsdagi islomiy tashkilotlar bilan (shialardan tashqari) harbiy ittifoqda bo‘lishga harakat qilmoqda; Suriya muxolifati bilan kelishuv yo‘lini tutdi va sh.k. e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar yuqori malakali kadrlarni ishga taklif etish avj olgan.
IRQCHILIK	Odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo‘ravonlik va urushlarni kishilarning turli irq-lariga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g‘ayrimilliy ta’limot. Irgchilar insonlarning ijtimoiy mohiyatini ularning biologik – irqiy (ko‘zi, sochi va terisining rangi, bosh va yuz tuzilishi kabi tashqi, ikkinchi darajali jismoniy) belgilar bilan bog‘lab, ularni oliy va quyi, bekamu-ko‘st va noraso irq-larga

	ijratadilar. Unga ko'ra oliy irqqlar xo'jayinlik qilishi, qolganlari ularga xizmat qilishi, boysunishi shart. Irqchilik ta'limoti boshqa xalqlarga nisbatan bosqinchilik, talonchilik, mustamlakachilik siyosatini asoslashga harakat qiladi.
ISLOM KONFERENSIYASI TASHKILOTI	Afg'oniston, Chad, Misr, Gvineya, Indoneziya, Eron, Iordaniya, Quveyt, Livan, Liviya, Malayziya, Mali, Mavritaniya, Marokash, Niger, Ummon, Pokiston, Katar, Saudiya Arabistoni, Senegal, Serra-Leone, Somali, Sudan, Tunis, Turkiya, Yaman davlat vakillari tomonidan tashkil etilgan. IKT ustavidan ko'zlangan maqsad musulmon davlatlar o'rtasida birdamlikni kuchaytirish, ular o'rtasida iqtisodiy, madaniy, ilmiy sohalarda hamkorlikni kuchaytirish, mustamlakachilik va irqchilikning har qanday ko'rinishlariga barham berish, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga doir choralar ko'rish va boshqalar. IKT o'z faoliyatida tashkilotga a'zo davlatlarning tengligiga, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, har bir davlatning hududiy yaxlitligi, suverenitetini hurmat qilish, turli kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal etish tamoyillariga amal qiladi. IKT ga Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston (1992), Qozog'iston (1995). O'zbekiston (1996) ham a'zo bo'lib kirishgan. Bugungi kunda 57 ta davlat ning a'zisi hisoblanadi.
JAHON SAVDO TASHKILOTI	JST(ingl. World Trade Organization- WTO) —1995 yil 1 yanvarda tashkil etilgan xalqaro tashkilot. Takilotga a'zo davlatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy-savdoni taribga solish, xalqaro savdoni liberallshatrish, tashqi savdoga bo'ladigan har qanday to'siqlarni bekor qilish maqsadida tashkil etilgan. Tashkilotning shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan bo'lib, 159 ta davlat unga a'zo bo'lib kirgan. Tashkilot faoliyatining asosiy tamoyillari: tenglik, hamkorlik, oshkoralik.
KOSMOPOLITIZM	Kosmopolitizm(grekcha kosmopolites-dunyo fuqarosi) - "jahon davlati" tuzishni va "jahon fuqaroligi"ni targ'ib qiluvchi ta'limot. Kosmopolitizm jahon miqiyosida axborot ayirboshlash imkoniyatlari oshib borayotgan hozirgi davrda Vatan tushunchasi nisbiy xarakterga ega ekanini ro'kach qiladi. Bu oqim jamiyat taraqqiyotining dastlabki, inson ijtimoiy-oilaviy muhitdan tashqarida yashashi mumkin bo'lmagan davrlarida vatan tushunchasi muayyan ahamiyatga

	ega bo'lmagan, deb uqtiradi. Uningcha, bugungi kunda ayrim insonlarning Vatanga bog'lanib qolishi shaxs erkinliklarining cheklanishiga olib kelmoqda emish.
LIBERALIZM	Liberalizm (lotincha liberalis - erkinlik) ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo'lishini, jamiyatning evolyusion rivojlanish yo'lini e'tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot, ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy oqim. Liberalizm g'oyasi, o'zining ma'no-mohiyatiga ko'ra, murosa falsafasi bo'lib, volyuntarizm, subyektivizm, dogmatizm, radikalizm va absolyutizmning har qanday ko'rinishlarini rad qiladi.
LIBERALIZM	Insonning shaxsiy erkinligini himoya kiluvchi va davlat imkon kadar fukarolarning shaxsiy xayotiga kam aralashuvini targ'ib etuvchi mafkura.
MA'NAVIY-MAFKURAVIY JARAYONLARNING GLOBALLASHUVI	Milliy bag'rikenglikni, millat hayotining ahloqiy asoslarini, uning milliy o'ziga xosligini rad etuvchi mondializm g'oyalarini tantana qilishini ta'minlashga asoslanadi.
MAASTRIXT BITIMI	1991-yil dekabrda YEIH ning 12 ta a'zosi tomonidan imzolandi. Yagona Yevropa valyutasi; Yevropa siyosiy ittifoqini shakllantirish; Yevropa komissiyasi tasdiqlash
MAFKURAVIY IMMUNITET	Mafkuraviy immunitet ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarni oddiygina qabul qilib olishini emas, balki ularni ongli ravishda tushunib yetishni, bu bilimlardan zamonaviy ijtimoiy voqealarga mafkuraviy kurashlar voqeligidan kelib chiqib, munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirish, ayrim nosog'lom g'oyalarga javob berish, uni qabul qilmaslik holatidir.
MAKKARTIZM	Eyzenxauer davrida o'zgacha fikrlovchilarga qarshi kurash boshlangan edi. Bu kampaniyaga (Amerikaparastlikka qarshi faoliyatni tekshirish bo'yicha komissiya) Makkarti boshchilik qildi. 1954-yilda qoralandi.
METAPOLE	Bir vaqtning o'zida ma'lum bir makonning bir nechta yirik davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, madaniy siyosati ta'siriga tortilishi
MONDIALIZM	Konsepsiya «Sovuq urush» tugashi arafasida paydo bo'ldi. Mondializmning mazmun-mohiyati davlatlar, millatlar, madaniyatlarning turli-tumanligidan planetar miqyosdagi

	integratsiyaga, One World-Uniform dunyoga o'tishni targ'ib qiladi. Mondialistik tashkilotlar-Xalqaro munosabatlar bo'yicha Sovet, Bilderberg klubi, «Uchtomonlama komissiya» yoki «Trilateral» (Trilateral).
MONRO DOKTRINASI	1823-yil 2-dekabrda AQSH prezidenti J.Monro tomonidan ishlab chiqilib, kongressga taqdim etilgan tashqi siyosiy konsepsiya. Mazkur konsepsiya Farb yarim sharini "amerikacha" va "yevropacha" muhitga bo'lish g'oyasini o'zida aks ettiradi. «Monro doktrina»si G'arb yarim shari hududlarining «Yevropa kuchlari tomonidan kelajakda mustamlakaga aylantirilmasligi» lozimligini nazarda tutgan.
MORFOSIYOSAT	davlatning hududiy shakllarini o'rganuvchi bilimlar majmuasi. Morfopolitika uchun davlat hududlari qanday boyliklarga egaligi muhim emas. Bunda davlat hududan qanday ko'rinishga ega, yoysimon, dumaloq yoki uzunchoq holatda joylashganligi, davlatda markaz bilan joylar o'rtasidagi aloqalarning geografik tizimi va davlatning tashqi dunyoga geografik jihatdan chiqish imkoniyatlari masalasiga e'tibor beriladi.
OSIYO TARAQQIYOT BANKI	1966-yilda BMT qoshidagi ESKATO tomonidan tashkil etilgan. 50 dan ortiq mamlakat a'zo bo'lib kirgan. Vazifasi Osiyoning rivojlanayotgan davlatlariga iqtisodiy, moliyaviy va texnik-texnologik yordam ko'rsatishdan iborat. Shtab-kvartirasi Manilada joylashgan.
OSTORIENTIERUNG	"Sharqqa yuzlanish" - " <i>Ostorientierung</i> " deb ham ataladi. K.Xausxofer nemis xalqi va ular madaniyatining tarixiy ildizlarini Osiyoga - Yevrosiyoga bog'laydi va nemis madaniyatini butun Yevrosiyo madaniyatining g'arbona ko'rinishi sifatida talqin etadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, inglizlar II-jahon urishi davomida nemislarni "xunlar" deb ham atashgan. Bunday nomlanish xausxoferchi geosiyosat maktabi vakillari uchun juda ma'qul kelgan
RIMLAND	Hadsiz qirg'oqbo'yi makoni. " <i>Rimland</i> " - bu Shimoliy va G'arbiy Yevropaning Atlantika okeani qirg'oq bo'ylari, O'rta Yer dengizi havzasi, Qizil dengiz, Fors ko'rfazi, Janubiy-Sharqiy Osiyoning Hind va Tinch okeani qirg'oqlarini o'zida tutashtirgan yoy - Yevrosiyo materigining g'arbiy, g'arbiy-janubiy, janubiy, janubiy-sharqiy qirg'oqbo'yi makonidir.

SEATO	Janubiy-Sharkiy Osiyo tashkiloti (inglizcha). 1954-yil 8-sentabrda milliy-ozodlik harakatlari bilan kurashish uchun tashkil etilgan. 1977-yilda o'z faoliyatini to'xtatgan.
SHANHAY HAMKORLIGI TASHKILOTI	Mintaqaviy manfaatlarni himoya qiluvchi xalqaro tashkilot. Mazkur tashkilotga 2001-yilda Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Kirgiziya, Tojikiston va O'zbekiston rahbalari tomonidan asos solingan. SHHT ning shakllanish jarayoni bundan bir oz oldin boshlangan. 1996-yilda Shanxayda, 1997-yil Moskvada bo'lib o'tgan Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Kirgiziya va Tojikiston rahbarlarining sammitida harbiy sohada, chegara hududlarda o'zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida shartnoma imzolandi. U «Shanxay beshligi», «Shanxay forumi» nomlari bilan atalib kelindi. 2001-yil Shanxayda bo'lib o'tgan sammitda O'zbekiston ham unga a'zo bo'lib kirdi. I.Karimovning taklifi bilan tashkilotga SHHT nomi berildi. SHHT a'zo mamlakatlarning umumiy hududi Yevrosiyaning 67 % ini tashkil etib, unda dunyo aholisining deyarli yarmi yashaydi. 2016-yildan Hindiston va Pokiston ham a'zo bo'lib kirdi. Tashkilotning rasmiy tili xitoy va rus tillari hisoblanadi. Eron, Pokiston, Hindiston, Mongoliya kuzatuvchi-davlat sifatida SHHT sammitlarida qatnashib keladi. SHHT o'z maqsad-vazifalarini amalga oshirish uchun bir qator organlar tashkil etilgan: davlat rahbalari Kengashi; hukumat rahbarlari Kengashi; vazirlik va mahkama rahbarlari yig'ilish; Sekretariat va boshqalar. Umumiy maydoni 34 490 280 km ² ga teng bo'lib unda 3,2 mld aholi yashaydi.
SHIMOLIY ATLANTIKA SHARTNOMASI TASHKILOTI	NATO (ing. NorthAtlanticTreatyorganization) — 1949-yil 4-aprelda o'nta Yevropa davlati va AQSH, Kanada ishtirokida tashkil etilgan. Asosiy maqsad G'arbay Yevropa va VQSH ni sharqiy kommunizm xavfidan himoya qilish maqsadi tashkil etilgan. “Sovuq urush” davrida a'zo davlatlar soni 16 taga yetdi. Hozirgi kunda a'zo davlatlar 28 taga yetdi. Shtab-kvartirasi Bryuselda joylashgan. A'zo davlat har bir ishtirokchining mustaqilligiga, havfsizligiga tahdid soluvchi har qanday havfga qarshi jamoaviy bo'lib kurashishga kelishib olishgan. A'zolar: AQSH, Kanada, Islandiya, Buyukbritaniya, Fransiya, Belgiya, Daniya, Niderlandiya,

	Lyuksemburg, Norvegiya, Daniya, GFR, Turkiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Vengriya, Polsha, Chexiya, Bolgariya, Latviya, Litva, Ruminya, Slovakiya, Sloveniya, Estoniya, Albaniya, Xorvatiya.
SIONIZM	Quddus yaqinidagi tog‘ nomidan. 1897 yilda tuzilgan. Barcha yahudiylarni Falastinga ko‘chiruvchi va u yerda yahudiy davlatini tashkil etishni ko‘zlagan harakat.
SIYOSIY BORLIQ	bu geosiyosatning asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lib davlat mavjudligining asosiy belgisi hisoblanadi. Davlat (kuch) geosiyosatning markaziy tushunchalaridan biri hisoblansa, siyosiy borliq davlatning siyosiy holati va hayotiy mazmunini ko‘rsatib beruvchi muhim omildir.
SIYOSIY GLOBALASHUV	Davlat vakolatlarining katta qismini transmilliy korporatsiyalarga, iqtisodiy birlashmalarga berishni targ‘ib qilgan xolda muayyan hududdagi milliy davlatchilik «gegemonligi» ga barham berishni ifoda etuvchi mafkuraviy jarayon.
SOVUQ URUSH	Shark va G‘arb mamlakatlariga nisbatan karama-karshilik, bir-biriga dushmanlik, o‘zaro ishonchsizlikni ifodalovchi bosqich. 1945-1991-yillarni o‘z ichiga oladi.
SUVAYSH KANALI	O‘rtayer va Qizil dengizni tutashtiruvchi kanal. 1869-yilda ochilgan. Uzunligi 161 km. 1956-yilda Misr tomonidan natsionalizatsiya etilgan
TALASSOKRATIYA	Talassokratiya uchun esa, davlat va mintaqalar atrofida (qirg‘oqbo‘yi) suv sathining tuzilishi hamda unga yaqin bo‘lgan orollar va arxipelaglarning strategik yoki nostrategik nuqtada joylashganligi diqqatga sazovardir.
TELLUROKRATIYA	Tellurokratiya uchun birinchi navbatda davlat yoki mintaqaning geografik maydoni muhim hisoblanadi. Faqatgina foydali qazilmalari yoki quruq maydonning kattaligi emas, balki ushbu makonning chegaralari nechog‘li xavfsizlik jihatidan ta‘minlanganligi, transport va telekommunikatsiya tizimining qanday yo‘lga qo‘yilganligi, aholi turmush darajasining holati va shu kabi omillar tellurokratiyaning istiqbolini belgilab beradi.
TOPOSIYOSAT	davlatning siyosiy jihatdan qanday muhit bilan qurshalganligini o‘rganadi. Topopolitikada davlat uchun tashqi dunyodan bo‘ladigan kuchlarning ta‘sir etish yoki

	etmaslik masalasi muhimdir. Bunday omillar davlatga atrofdan ittifoqdoshlar qidirish va davlatlararo kelishuvlarning boshqa variantlarini yuzaga keltirish uchun muqobil siyosatlarni ishlab chiqish masalasini yuzaga chiqaradi
VARSHAVA SHARTNOMASI	1955-yil 14-mayda tashkil etilgan. A'zalar: Bolgariya, Vengriya, GDR, Polsha, Ruminiya, SSSR, Chexoslovakiya, Albaniya. Do'stlik, hamkorlik va ishtirokchi davlatlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida tuzilgan. Uzoq yillar davomida NATO ga qarshi faoliyat olib bordi. 1991-yilda tugatilgan. Albaniya 1962-yilda unda qatnashmay qo'ydi, 1968 yilda chiqib ketdi. 1991-yilda tugatilgan
XALQARO MEHNAT TASHKILOTI	Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT, ing. International Labour Organization, ILO) — BMT qoshidagi maxsus institut, xalqaro tashkilot bo'lib xalqaro maydonda mehnat munosabatlarini tartibga solish bilan shug'ullanadi. 2013-yilga kelib uning a'zolari 185 taga yetdi. Tashkilotning shtab-kvartirasi Jenevada joylashgan.
XALQARO VALYUTA FONDI	Xalqaro valyuta fondi 1944-yil iyulda Bretton-Vuds (AQSH, Nyu-Gempshir shtati) da tashkil topgan, qarorgohi Vashingtonda joylashgan. XVF — hukumatlararo korporativ valyuta-moliyaviy tashkilot bo'lib, faoliyati davlatlararo vujudga keladigan, to'satdan roy beruvchi va oldindan bilish mumkin bo'lmagan milliy valyutalarning o'zgaruvchanligi, davlatlarning milliy valyutalarini almashtirish doirasidagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. XVF ning maqsadi quyidagilardan iborat: 1. Xalqaro savdoning o'sishiga yordam ko'rsatish; 2. Milliy valyutalar qadrini bir meyorda ushlab turishga ko'maklashish; 3. Jamg'armaga a'zo davlatlarning joriy hisob-kitoblarini amalga oshirish jarayonida ko'p tomonlama tizimni tashkil etishga ko'maklashish; 4. Xalqaro savdoning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar, valyutalar borasidagi to'siqlar vujudga kelmasligiga yordam berish; 5. Savdo va to'lovlar doirasidagi to'siqlar vujudga kelmasligi uchun a'zo davlatlarga kredit resurslarni berish; 6. Xalqaro valyuta doirasida vujudga keluvchi

	muammolarni yechish borasida maslahat-forumlar o'tkazish. O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 21-sentabrda XVF ga a'zo bo'lib kirdi. XVF yuqorida qayd etilgan TMK bilan bir qatorda iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.
YEKPB	Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi. 1951-yilda Fransiya, GFR, Italiya, Belgiya, Gollandiya va Lyuksemburg o'rtasida imzolangan shartnoma.
YEVROPA KENGASHI	1949-yil 5-mayda tashkilot nizomiga imzo ko'yilgan. 1949-yil 3 avgustda kuchga kirgan. Dastlab uning a'zolari 10 ta edi. Hozir 47 ta. Tashkilotning asosiy maqsadi- a'zo davlatlar o'ratasida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquq sohalarida qaror topgan munosabatlarni yuksaltirish, inson haq-huquqlari, erkinliklariga amal qilishini ta'minlash va shu kabilar. Faoliyatining asosiy tamoyili- demokratiya, inson huquqlari va erkinliklari, qonun ustuvorligi. Boshqaruv organlari: Yevropa davlatlari tashqi ishlar vazirlari kengashi; Yevropa parlamenti assambleyasi; Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi; Yevropa Kengashi sekretariati. Rahbarlik organi – Yevropa davlatlari tashqi ishlar vazirlari kengashi. Kengashga rahbarlik har olti oyda alifbodagi harflar ketma-ketligida almashib turadi. Kengashga a'zo davlatlar parlament vakillaridan Yevropa parlamenti assambleyasi tashkil etilgan. U maslaham organi hisoblanadi. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi inson huquqlariga amal qilinishini, qabul qilingan konvensilar ustidan nazoratni amalga oshiradi.
YUNESKO	YUNESKO (UNESCO — The United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization) — BMT qoshidagi ta'lim, fan va madaniyat masalalari boyicha maxsus tashkilot. YunesKO 1945-yil 16-noyabrda tashkil etilgan. Tashkilotning shtab-kvartirasi Parijda joylashgan. BMT ga a'zo mamlakatlarning deyarli barchasi YunesKO a'zosi hisoblanadi. YunesKO ning asosiy maqsad-vazifalari quyidagilardan iborat: davlatlarning ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi hamkorligini kuchaytirish orqali jahonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash; insonning irqi, tili, dini, jinsidan qat'iy nazar uning asosiy erkinliklari va huquqlarini hurmat qilish; qonuniylikni va adolatni qaror

	toptirish; savodsizlikka qarshi kurash; milliy-ma'naviy meroslarni o'rganish; fan va ta'lim muammolari bilan shug'ullanish; milliy kadrlar tayyorlash va sh.k.
YUNISEF	BMT qoshidagi bolalar fondi, xalqaro tashkilot (ing. United Nations Children's Fund- UNICEF). BMT Bosh Assambleyasining qarori bilan 1946-yil 11- dekabrda ikkinchi jahon urushida azob chekkan, jarohatlangan bolalarga yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan. Balalar fondi vaqtinchalik muddatga tashkil etilgan edi. 1953-yilga kelib YUNISEF ning amal qilish muddati, vazifalari o'zgardi: bolalar o'limini kamaytirish; onala o'limini kamaytirish; bolalar salosatlari, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash; balalarga boshlang'ich ta'lim berish va shu kabilar. YunISEF ning bosh organi Ijro Kengashi bo'lib BMT Iqtisodiy masalalar Kengashi tomonidan 3 yilga saylanadi. Tashkilotning shtab-kvartirasi Nyu-Yorkda joylashgan.

Asosiy va qo'shimch o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari:
Asosiy adabiyotlar:

1. Jumaniyozov X. S, Nigmanova U. B. Geosiyosat asoslari (uslubiy qo'llanma). - T. : - 2017 yil.
2. Karimov I. Noosfera, geosiyosat va mafkura. – T.: “Iqtisod – moliya”, 2007 yil.
3. Otamurotov S. Globallashuv va millat – T.: Yangi asr avlodi, 2008 yil.
4. Nartov N.A. Geopolitika. M.: YUNITI, 2000 g.
5. Gadjiyev K.S. Vvedeniye v geopolitiku. Moskva Logos, 2000 g.
6. Isayev B. A. Geopolitika: Uchebnoye posobiye. — SPb.: Piter, 2006. — 384 s: il. — (Seriya «Uchebnoye posobiye»), ISBN 5-469-00651-4
7. Холиқов И. Жуманиёзов Х.С. Ўзбекистоннинг Марказий Осиё мамлакатлари геосиёсатидаги ўзига хос ўрни. (монография).Т.-2017 йил.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2019.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2018
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. (*O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda*)
5. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, №PQ-3160, 28 iyul 2017 yil.
6. “O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi amaliyotga tabiq etishning dolzarb masalalari”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, №PQ-5465, 14 aprel 2019 yil
7. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar, 1-jild. –T.: “O'zbekiston”, 1996.
8. Karimov I. A. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Asarlar, 6-jild. –T.: “O'zbekiston”, 1998.
9. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar, 7-jild. –T.: “O'zbekiston”, 1999.
10. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. Asarlar, 9-jild. –T.: “O'zbekiston”, 2001.
11. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Asarlar, 10-jild. –T.: “O'zbekiston”, 2002.
12. Gadjiyev K.Ye. Geopolitika. M.: Mejdunarodniye otnosheniya, 1997
13. German K. Politicheskiye pereputya pri dvijenii k globalnomu informatsionnomu obshestvu // Sotsiologicheskiye issledovaniY. 1998. 2. S. 12-25.

14. Gumilev L.N. Etnogenez i biosfera zemli. Fond «Mir L.N. Gumileva». — M.: Izd-vo «Institut DIDIK», 1997.
15. Gumilev L.N. Ritmi Yevrazii. — M.: EKOPROS, 1993
16. Davidova R.I., Kochkina V.G. Osnovi geopolitiki. N.Novgorod, 2001g
17. Danilevskiy N. Rossiya i Yevropa. // «Klassika geopolitiki, XIX vek». — M.: OOO «Izdatelstvo AST», 2003.
18. Danilevskiy N.Y. Rossiya i. Yevropa. — SpB.: Glagol, 1995.
19. Dugin A. Osnovi geopolitiki. — M.: «Arktogeya», 2000.
20. Jeltov V.V. Jeltov M.V. Geopolitika: istoriya i teoriY. M.: 2009.
21. Isayev B.A. Geopolitika: Uchebnoye posobiye. SpB., 2006.
22. Sirojov O. Markaziy Osiyoda hamkorlik jarayonlari.- Toshkent: “O‘zbekiston” , 2016.
23. Tixonravov Y.V. Geopolitika: Uchebnoye posobiye. — M.: INFRA-M, 2000.
24. Tulepov O.M. ISHID fitnasi. T.: “Mavorounnahr” 2015.
25. Xo‘janov B.A. Geosiyosat va mafkuraviy jarayonlar. T.: STIBOM, 2002.

Internet saytlari

1. ww. tdpu. uz
2. www. ziyonet. uz
3. www. edu. uz
4. www. ma’naviyat. uz
5. www.bilim.uz.

Mundarija

	Kirish	3
I-BOB. “Geosiyosat asoslari” fanining nazariy asoslari		7
1.	“Geosiyosat” tushunchasi, predmeti, obekti va manbalari.	7
2.	“Geosiyosat asoslari” fanining kategoriyalari, qonunlari, metodlari va funksiyalari	19
II -BOB. Geosiyosiy jarayonlarning rivojlanish tarixi.		31
3.	Klassik geosiyosatning asosiy g‘oyalari va tamoyillari	31
4.	Rossiyadagi geosiyosiy oqimlar va maktablar	54
5.	Yangi davr geosiyosiy nazariyalari va maktablari	65
6.	Turkiston hududida vujudga kelgan dastlabki geosiyosiy bilimlar va harakatlar	78
7.	XVI-XIX asrlarda vujudga kelgan geosiyosiy bilimlar va harakatlar	89
8.	“Katta o‘yin” kontsepsiyasi va uning geosiyosiy mohiyati	99
9.	Geosiyosiy bilimlar rivojida I.Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarining nazariy-metodologik ahamiyati	108
III -BOB. Geosiyosiy jarayonlar tizimida O‘zbekiston va jahon		133
10.	Yangi ming yillikda G‘arbiy Yevropadagi geosiyosiy jarayonlar	133
11.	Yangi ming yillikda Rossiya	140
12.	Geosiyosiy munosabatlar tizimida AQSH ning roli	153
13.	Xitoyning geostrategik siyosati va uning mohiyati	162
14.	Geosiyosat va Yaponiyaning ijtimoiy taraqqiyoti	175
15.	Markaziy Osiyo regionidagi geosiyosiy va iqtisodiy jarayonlar	186
16.	Yangi ming yillikda Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta‘minlash vazifalari	198
17.	“Yangi katta o‘yin” kontsepsiyasi va uning geosiyosiy mohiyati	208
18.	O‘zbekiston va SHHT geosiyosiy istiqbollari	229
19.	Glossariy	245
20.	Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari	262